

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi
Toshkent Davlat sharqshunoslik instituti

Akbarova M.H.

Yangi davr arab adabiyoti

(XIX - XX asrlar)

Toshkent 2009

Bu qo'llanma Misr, Suriya, Iroq, Livan, Jazoir, Tunis va Marokash mamlakatlari adabiyotining XIX asr boshlaridan XX asr oxirigacha bo'lgan davri tarixini qamrab oladi.

Qo'llanmada mazkur mamlakatlardagi adabiy hayot ijtimoiy jarayonlar bilan bog'liq holda tadqiq etiladi, unda Yevropa mamlakatlari adabiyoti ta'sirida vujudga kelgan roman, hikoya kabi nasriy janrlarning shakllanishi, mahalliy an'analarning adabiy jarayondagi o'rni, voqelikning badiiy in'ikosi usullari, ijodiy metodlar, badiiy adabiyotdagi inson konsepsiyasi va shu kabi masalalar borasida so'z yuritiladi. Asarda Jubron Xalil Jubron, Taha Husayn, Tavfiq al-Hakim, Nagib Mahfuz, Yusuf Idris, Gamal al-Gitani kabi mashhur arab yozuvchilarining ijodiy portretlariga ham salmoqli o'rin ajratilgan.

Qo'llanma arab tili va adabiyotini o'rganayotgan oliy o'quv yurtlari talabalari, akademik litseylar o'quvchilari va yangi davr arab adabiyoti bilan qiziquvchi kitobxonlarga mo'ljallangan.

Rus tilidan (*M.X.Akbarova. Ocherki istorii arabskoy literaturi novogo vremeni. Red. d.f.n., prof. Xodjayeva R.U. TashGIV. T.,2001. 424 s.*) tarjima.

Tarjimonlar: f.f.n., dots. M.Olimov (I-IV boblar),
f.f.d. R. Inomxo'jaev (V-IX boblar).

Texmuharrir: S. S. Yusupova

ToshDSHI Uslubiy kengashi tomonidan qo'llanma sifatida tavsiya etilgan (12.04.2000 yildagi 4-sonli bayonnoma).

Toshkent davlat sharqshunoslik instituti.

Soʻz boshi

Yangi davr arab adabiyoti tadqiqodchilari arab Sharqi mamlakatlarining tarixiy taqdiri va madaniyati bilan bogʻliq qator muammolarga duch keladilar.

Qadimgi va oʻrta asrlarda gullab yashnagan arab adabiyoti yangi davr boʻsagʻasida qoloq, susaygan taraqqiyot bosqichini boshdan kechirib, ilgari ketgan Yevropa adabiyotining ketidan quvishga majbur boʻldi.

Oʻrta asrlarda vujudga kelgan madaniy, adabiy umumiylikning parchalanishi va milliy adabiyotlarning shakllantirish jarayoni arab Sharqida, bir tomondan, qudratli, barqaror oʻrta asr madaniy anʼanalarining mavjudligi, boshqa tomondan esa, ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotning tezlashuvi va jahon madaniyati bilan boʻlgan aloqalarning kengayishi singari omillar taʼsiri ostida sodir boʻldi.

Bu omillarning oʻzaro nisbati, ularning badiiy adabiyotga taʼsiri darajasi va xarakteri bir xil emasdi, goh u, goh bu omil ustun kelar edi.

Yangi davr arab adabiyoti anʼanalarning tuganmas xazinasini, voqelik va jahon madaniyatidan oʻz taraqqiyotining turli bosqichlarida har xil unsurlarni oʻzlashtirdi.

Yangi arab adabiyoti bir xalqning ijod mahsuli emas, uni Misr, Suriya, Livan, Iroq, Iordaniya, Jazoir, Tunis, Marokash va Arabiston yarim oroli mamlakatlari xalqlari yaratmoqdalar. Tabiiyki, arab Sharqi mamlakatlari bu adabiyot taraqqiyotiga qoʻshgan ulush bir xil emas.

Yangi arab adabiyoti tarixini rivojlantirishda Misr, Suriya va Livan mamlakatlari alohida rol oʻynadi.

Aksariyat arab tadqiqodchilari bugungi arab mamlakatlari adabiyotini Misr, Suriya, Tunis va boshqalarga boʻlmasdan, yagona adabiyot sifatida qaraydilar. Mahalliy oʻziga xosliklar va farqlarni nazarda tutgan holda arab adabiyotshunoslari «Misrdagi (Suriyadagi, Iroqdagi va h.k.) arab adabiyoti» atamasini qoʻllaydilar, lekin «Misr adabiyoti», «Iroq adabiyoti» kabi atamalarni inkor etadilar.

Misr, Suriya soʻzlarini esa, odatda, janr bilan bogʻliq holda “Misr romani”, “Suriya novellasi” kabi ishlatadilar.

Darhaqiqat, bir tomondan ular orasida etnik yaqinlik, umumiy arab adabiy tili, koʻpgina mamlakatlar uchun umumiy boʻlgan islom dini, arab birdamligi gʻoyasi mavjud. Bular arab adabiyotini birlashtiruvchi omillar boʻlib, ularga iqtisodiy va siyosiy sabablar bilan yuzaga keladigan arab

Ichki sharoit va ijtimoiy-siyosiy oʻziga xosligi bilan ajralib turuvchi mustaqil, milliy davlatlarning paydo boʻlishi, shevalar mavjudligi singari omillar milliy adabiyotlar tez surʼatlar bilan rivojlanib borayotgan hozirgi zamon arab adabiyotini oʻzanidan chetga tortadi.

Tarixiy sharoitlardagi tafovut va XIX asrda arab mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining notekis kechgani arab dunyosining turli regionlari adabiyotning bir vaqtda oʻrta asrdan zamonaviy shakllarga oʻtishiga xalaqit berdi. Aksariyat arab mamlakatlari uchun XX asr Misr adabiyoti Yevropa tajribalarini yoyishda vositachi vazifasini oʻtadi. Turk sultoni Abdulhamid II hukmronligi davrida Suriya va Livandagi yangilikka intilish harakati ziyolilarning majburan chet elga ketishi munosabati bilan xiyla sekinlashdi. Yevropa va Amerika mintaqasida muhojir adabiy markazlar paydo boʻldi, Misrda oʻsha davr adabiy kuchlarining markazlashishi yuzaga keldi. Hozirgi paytda esa arab Sharqining bir qator mamlakatlarida adabiyotning bir meʼyorda taraqqiy etib borishi tamoyili yuzaga kelmoqda.

Yangi arab adabiyotining oʻrganilishiga I. Yu. Krachkovskiy, A. Ye. Krimskiy, K. V. Ode-Vasilyev, A. Sultonov, A. A. Dolinina, V. Borisov, N. K. Usmonov, A. B. Xolidov, V. N. Kirpichenko, S. V. Projogina va boshqa olimlar salmoqli hissa qoʻshdilar. Arab tadqiqodchilaridan Mahmud Amin al-Alim, Abbos Mahmud al-Akkad, Muhammad Mandur, Jamil Salib, Mustafu Shokir, Husayn Muravvalarni koʻrsatib oʻtish lozim.

Ayniqsa, akademik I. Yu. Krachkovskiy asarlarini alohida eʼtirof etish kerak. Maʼlumki ungacha rus va Gʻarbiy Yevropa sharqshunosligi faqat oʻrta asr arab adabiyotini oʻrganishga loiq deb bilardi. I. Yu. Krachkovskiy XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab taraqqiy etayotgan

yangi arab adabiyotining o'ziga xos ahamiyatini to'g'ri baholab, Muntazam o'rgana boshladi. Uning milliy merosi arab Sharqi mamlakatlaridagi adabiy jarayonlarni o'rganishda poydevor vazifasini o'taydi.

Yangi arab adabiyoti tarixi materiallarini bayon etishda biz akademik I. Yu.Krachkovskiy qoldirgan quyidagi davrlashtirish prinsipiga amal qilamiz.

I-ma'rifatparvarlik davri (1800-1880 yillar).

II-arab jangovar publisistikasi davri (1880-1910 yillar)

III-ilk realizm davri (1910-1935 yillar)

IV-yangi davr adabiyoti (1940-bugungacha).

I BOB
ARAB MAMLAKATLARIDA MA'RIFATPARVARLIK DAVRI
(1800-1880y.)

XIX asr boshlarida siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan arab mamlakatlari ichida rivojlanganlari Misr va Suriya edi.

Yevropa ta'siri, iqtisodiy rivojlanish yo'liga kirish bu davrning eng muhim xususiyatidir. Bu jarayon, o'z navbatida, sinfiy ziddiyatlarning keskinlashuvi, ozodlik harakatlarining o'sishi, ma'naviy hayotdagi ma'lum siljishlar bilan bog'liq edi. Arablar bu davrni «An-Nahda» («Uyg'onish») deb ataydilar.

Arab «Uyg'onish»i Yevropa Renessansining sinonimi emas. Bu o'rinda so'z, avvalo, arablarning siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalaridagi shon-shuhrati va qudratini tiklash haqida ketayapti.

«An-Nahda» mafkurachilari uyg'onishning asosiy yo'li xalqning asriy qoloqligini yengib o'tish, ma'rifatni keng targ'ib etish, diniy ixtilof va bid'atlarni yo'qotish, shuningdek, iqtisodiy islohatlarda deb bildilar.

Ammo bu jarayonning boshqa tomoni — Yevropa sivilizatsiyasi, fani, adabiyoti yutuqlarini o'zlashtirish masalasi ham bor edi. Arab ma'rifatparvarlik tafakkuri asosi bo'lgan madaniy an'analar sintezi ana shu tarzda yuzaga kelgan edi.

Misr va Suriyada XIX asr oxiri, XX asr boshlarida feodal qoloqligidan qutilish, ijtimoiy munosabatlarning yangi shakllarini o'rnatish taqozosi bilan Yevropa sarmoyasiga qaramlikka qarshi kurash fojeali ravishda mamlakatning ingliz istilosi bilan yakunlagan Orabi-poshsho qo'zg'oloni (1881-1882y.), «Osiyo uyg'onish» davridagi ozodlik harakatining yangi bosqichi, Misr va Suriyada ilk mulkdorlar siyosiy partiyalarining tashkil topishi, 1908 yildagi «Yosh turklar» inqilobi kabi arab mamlakatlari hayotidagi muhim voqea va o'zgarishlar arablarning milliy uyg'onishi uchun muhim omil bo'ldi.

Fanda qabul qilingan an'analarga binoan «Renessans» atamasi Mumtoz o'tmish davrini qayta tiklash ma'nosini anglatadi. Bu istiloh mana shu ma'noda Italiyada 14-15 asrlarda paydo bo'lgan. Keyingi davrlarda bu atama nafaqat qadimgi yunon madaniyatining qayta tiklanishini, balki ayrim sharq mamlakatlarida yoki umuman Sharqda qadimgi madaniyatni qayta tiklash ma'nosida tobora ko'proq ishlatilmoqda. Ba'zi hollarda «uyg'onish» atamasi umumiy ravishda madaniy ko'tarilish ma'nosida va nihoyat, maxsus ma'noda o'rta asrlar va yangi davrni o'zaro bog'lab turadigan zamon madaniyati atamasi sifatida qo'llanmoqda.

Akademik N. Konradning fikricha «Uyg'onish» («Renessans») Yevropa uchungina xos bo'lmay, buyuk sivilizatsiyaga mansub xalqlar tarixiy taraqqiyotining ma'lum bosqichida yuzaga keladigan umumiy qonuniyatdir.

Misr va Suriyaning ilg'or mutafakkirlari va siyosiy arboblari Yevropa ma'rifatparvarlari singari, rasionalizm tamoyillariga asosan arab dunyosining turmush tarzini, xulqi atvori va odatlarini, oilaviy munosabatlari, tashqi siyosati, davlat muassasalari, dinni tanqid qiladilar va rasionalizm asosida qayta ko'rib chiqishga chaqiradilar.

“Musulmon modernizmi” nomi bilan mashhur bo'lgan diniy oqim arab mamlakatlari ijtimoiy hayotida muhim rol o'ynadi. Islomda XIX asr tarixiy taraqqiyoti yuzaga keltirgan tub o'zgarish yetilib kelayotgan edi.

O'rta asrlarda shakllangan ortodoks musulmon huquqiy maktablari allaqachonlar eskirib bo'lgan, XIX asr ehtiyojlari va intilishlariga mos kelmas edi.

Islomni yangilash harakati asoschisi 70-yillarda Misrda yashagan mashhur afg'on olimi va siyosiy arbobi Jamoliddin al-Afg'oni (1839-1897y.) edi. U musulmon xalqlarni Yevropa aralashuvidan xoli bo'lgan yagona xalifalikka birlashtirish g'oyasini targ'ib etardi. Bu esa, uning aqidasi, zamonaviy islomni ehtiyojlarga moslashtirishni talab qilardi.

Ana shunda musulmonlar bidatlardan xoli bo'lib, aqlu zakovatlarini bilim nurlari bilan yoritadilar va o'z mustaqil tartiblarini joriy qiladilar. Islomni zamonaviylashtirish g'oyasini «al-Azhar»dagi shayx Muhammad Abduh boshliq taraqqiyparvar ilohiyot olimlari qo'llab-quvvatladilar.

Modernistlar islom barcha xalqlar, davrlar va madaniy sharoitlarga mos keladigan dunyo dini, u zamonaviy madaniyatga zid bo'ladigan qusurlardan xoli, degan aqidaga suyanar edilar. Ular Qur'ondan ijtimoiy taraqqiyot uchun asos bo'ladigan o'rinlarni topdilar.

Jumladan, Muhammad Abduh Qur'onda zikr qilingan ko'p xotinlik odati aslida Olloh tomonidan tavsiya qilinmaganini isbotlashga harakat qildi. Bunga Qur'onning to'rt xotin olishga ruxsat beruvchi oyatdan keyin «Agar adolatli bo'laolmaslikdan qo'rqsangiz, unda bittasiga (uylaning)» oyati kelishini dalil qilib ko'rsatdi.

Modernistlar islom dini milliy-ozodlik kurashiga ham yo'l berishini ko'rsatdilar. Shayx al-Kavokibiy tavhid kalimasi «Lo iloha illalloh»ning mohiyatini sharhlab, odamlar Xudodan boshqa hech kimga bo'ysunmasliklari kerak, ular shaxsni ozodlikdan mahrum etuvchi va tobelikni talab qiluvchilarga qarshi kurashishlari lozim, degan fikrni ko'tarib chiqdi. Bu g'oyani u «Al-Muayyad» («Xudo yorlaqagan») ro'znomasi va «Al-Manor» («Mayoq») majallasi kabi maxsus matbuot organlari orqali targ'ib etdi.

Islomdagi yangilanish adabiyotda ham o'z aksini topdi. Yangi ta'limotga suyanan publisistlar arablarga tarixiy xizmatlarini eslatgan holda, ijtimoiy o'zgarishlar, siyosiy ozodlik uchun kurashdilar. Bu g'oyalar nasr va dramaturgiyada tarixiy roman, tarixiy tragediya janrlarining yuzaga kelishiga sabab bo'ldi, she'riyatda ham tarixiy va vatanparvarlik mavzulari kuylandi, shoirlar arablar va islomning o'tmishdagi shuhratini madh etdilar.

Misr. Misrdagi uyg'onish jarayoniga Napoleonning (1798–1801y.) ekspeditsiyasi turtki bo'ldi. Mamlakatdagi mavqeini mustahkamlash niyatida fransuzlar Qohirada (1800y) arab tilida ro'znoma nashr etdilar, ommaga mo'ljallangan qiroatxona ochildi. Napoleon Misrda ilmiy institut va tipografiyaga asos soldi. Misrda maorif ravnaqiga islohatchi hukmdor Muhammad Ali (1805-1849) sezilarli hissa qo'shdi. Uning hukmronligida Misr va G'arbiy Yevropa o'rtasida madaniy aloqalar rang-barang shakllarda rivoj topdi. Uning davrida birinchi davlat umumta'lim maktablari, shuningdek, Rifa at-Taxaviy (1801-1873) boshchiligidagi tarjimonlar tayyorlovchi chet tillari maktabi ochildi. Milliy kadrlar tayyorlash uchun Muhammad Ali 1825 yilda Fransiyaga ilk bor 46 nafar yosh yigitni texnik va harbiy fanlardan ta'lim olish uchun yubordi.

Tarjimonlar tayyorlovchi maktab direktori «al-Azhar» shayxi Rifa at-Taxaviy ham Muhammad Ali tomonidan Fransiyaga jo'natilgan edi. Sayohat taasurotlarini u «Parij haqidagi rezyume» kitobida bayon etdi.

Bu kitobda muallif V. Skott, Russo, Rasin asarlarini o'qib olgan taasurotlari haqida fikr yuritadi. At-Taxaviy maktabini bitirgan o'quvchilar bir qancha ilmiy va harbiy adabiyotlarni arab tiliga tarjima qildilar.

Livan. XIX asr o'rtalarida Livan ham Misr singari yangi adabiyotning vujudga kelish markaziga aylandi. XIX asrning 40-60 yillarida Livanda feodalizm negizlari kurashi tezlashdi, shahar va qishloqda kapitalistik munosabatlar shiddat bilan o'sdi, ingliz va fransuz mustamlakachilarining siyosiy va iqtisodiy jihatdan mamlakatga kirib kelishi kuchaydi.

Livan ma'rifatparvarligi boshida ikki shaxs: Nasif al-Yaziji (1800-1871) va Butrus al-Bo'stoniy (1819-1883) turgan edilar.

Nasif al-Yazijiyaning kitobga mehri barvaqt uyg'ondi. O'smirlik chog'idayoq u Qur'onni, al-Mutanabbiy devonini yod bilardi. Nasif al-Yaziji Bayrutda yozuvchilik va muallimlik faoliyati bilan shug'ullandi, grammatika, poetika, mantiq bo'yicha kator darsliklar yaratdi. Shoir sifatida u al-Mutanabbiy ta'sirida bo'ldi, umr bo'yi uning asarlarini sharhlash uchun material yig'di.

Sharqda va Yevropada al-Yaziji «maqoma» adabiy janrining so'nggi yirik vakili sifatida shuhrat qozondi. U hozir ham mashhur bo'lgan «Majma ul-bahrayn» («Ikki dengiz qo'shilishi») maqomalar to'plamining muallifidir. Bu to'plam filologik jihatdangina emas, etnografik materialga boyligi bilan ham diqqatni jalb qilgan edi. Konservativ dunyoqarash egasi bo'lganiga qaramay (unga Yevropa ta'siri begona edi) al-Yaziji yangi arab adabiyotining yuzaga kelishiga ulkan ta'sir ko'rsatdi. O'z she'rlari va maqomalari bilan ko'hna «al-arabiyya la tatanasar» («arab tilini nasroniylashtirish mumkin emas») tamoyili eskirganini anglatdi. Uningcha har bir arab

tilida soʻzlashuvchi nasoro (masihiy), arab millati vakili sifatida oʻz vatanining yangilatishda ishtirok etishi lozim.

Butrus al-Boʻstoniy xam Livanda tugʻildi, Amerika maktabida tahsil oldi. 1863 yilda u Bayrutda milliy maktab («al-madrasa al-vataniya») ochdi. Bu maktabning maqsadi taʼlimni din va chet el taʼsiridan xalos qilish edi. Garchi milliy maktab uzoq yashamagan boʻlsa ham (u 1876 yilda yopilgan) bu oʻquv maskani arab madaniyatining koʻpgina arboblarni tarbiyalab yetishtirdi. Gomer «Iliada»sining arabcha tarjimasi muallifi Sulaymon al-Boʻstoniy, arab tilining izohli lugʻati «Muhit al-muhit» («Okean okeani»), yevropacha andoza bilan tuzilgan, barcha fanlar boʻyicha materiallarni qamrab olgan koʻp jildlik arab qomusi «Doirat al-maorif» («Bilimlar doirasi») muallifi al-Boʻstoniy shular jumlasidandir. 1870 yildan boshlab Butrus al-Boʻstoniy Bayrutda ilm-fanni targʻib etuvchi, badiiy adabiyot masalalariga koʻp oʻrin ajratgan «al-Janna» («Jannat») gazetasini, «al-Jinon» («Jannatlar») jurnalini nashr eta boshladi.

Suriya. Suriyada ham xuddi Misr va Livandagidek, yangi arab adabiyotining boshlangʻich davri maʼrifatparvarlik ruhida edi. XIX asr oxirida Suriyadagi madaniy saviya xiyla tuban boʻlgan. Usmonli hukmdorlari arablarni turklashtirish siyosatini olib borar, milliy madaniyat rivojiga toʻsqinlik qilardilar. Suriya maʼrifatparvarlari, birinchi navbatda, madaniy merosni qayta tiklash, arab adabiyoti va matbuotini rivojlantirish, arab milliy maktabini yaratish va rivojlantirish, milliy ziyoli kadrlarni tarbiyalashga intildilar.

Suriya maʼrifatparvari Fransis Marrashning «Kiffat al-mizan» («Torozi pallasi») asari diqqatga sazovor. Kitobda arab jamiyatining kayta tugʻilishi tamoyili va gʻoyalari ramziy shaklda bayon qilingan. Marrash fransuz maʼrifatparvarlari, jumladan Russo gʻoyalarining targʻibotchisi sifatida ham shuhrat topdi. U adolat tantanasi, tenglik, ozodlik, aql tantanasiga ishonadi. Vatandoshlari orasida Marrash ozodlik gʻoyalari, qoloqlik va eskilikka nafrati, taraqqiyotga intilishi bilan tanildi.

Uning singlisi, taniqli publisist Maryana Marrash ham oʻz zamonasining ilgʻor ayollaridan boʻlgan. Maryana gazeta va jurnallar sahifalarida eski urf-odatlarini qoralovchi maqomalar bilan qatnashardi.

I.A.Krilov masallarining birinchi tarjimoni Rizqulloh Hassuna (1823-1880) arablarning oʻtmish madaniyatini qayta tiklash, Suriyani Usmonli imperiyasi zulmidan xalos etish gʻoyasini targʻib qildi.

Oʻsha yillarda ijtimoiy-siyosiy tafakkur taraqqiyotiga hissa qoʻshgan arboblardan yana biri Abd ar-Rahmon al-Kavokibiy (1849-1903) edi. Uning «Shaharlar onasi» va «Istibdod tabiati» asarlari feodal jamiyat tartiblariga qarshi, oʻz vatani mustaqilligi uchun kurash yoʻlini koʻrsatdi. Al-Kavokibiy islohatlar bilan bir qatorda milliy mustaqillik uchun inqilobiy kurash yoʻlini ham maʼqul deb bilar edi.

Qohiradagi al-Azhar musulmon diniy akademiyasi hali ham mamlakat maʼnaviy hayoti tamoyilini belgilab berar edi. Arab dunyosining yangilanishida missionerlik harakatining ham hissasi bor. Yevropaliklar koʻp oʻtmashgan Bayrut xristian-mustamlakachilik targʻiboti markaziga aylandi. Arab adabiyotining yangi jarayoni ham shu shahardan boshlandi. Amerika missionerlari matbaa nashrlari va koʻp sonli maktablari vositasida oʻz madaniy taʼsirlarini yoya boshladilar. Amerika va Yevropa missionerlari ilmiy adabiyotdan tashqari arablarni oʻz badiiy adabiyotlari: Shekspir, Bayron, V. Skott, Rasin, Moler, Kornel, Viktor Hugo, A. Dyuma asarlari bilan tanishtirdilar. 1875 yilda Bayrutda Iezuit kolleji taʼsis qilinib, 1881 yilda u avliyo Iosif Dorilfununiga aylantirildi; 1885 yilda Bayrutda maronit «donishmandlik maktabi» ish boshladi; 1886 yilda esa Bayrutda Amerika dorilfununi taʼsis etildi.

XIX asrning soʻnggi choragida Rossiya pravoslav Falastin jamiyati ham Suriya va Falastin arablari uchun bir qator maktablar ochdi. Ular jumlasida Nazaretdagi muallimlar tayyorlaydigan erkaklar seminariyasi bor edi. Ularda taʼlim olayotgan eng isteʼdodli oʻquvchilar Rossiyaga yuborilardi. Masalan, mashhur Livan adibi Mixail Nuayme Poltava diniy seminariyasida tahsil koʻrdi.

Missionerlik harakati ham arab mamlakatlarida ijodiy ziyolilarning yuzaga kelishiga ta'sir ko'rsatdi. Ammo senzura siquvlari, turk sultoni Abdulhamidning reaksion tuzumi Yevropa va Amerika missionerlari faoliyati uchun qulay sharoit tug'dirmas edi.

XIX asrda arab olamini qamrab olgan ma'rifatparvarlik harakati o'z taraqqiyoti va tarqalishida hamma joyda bir xil bo'lmagan. Maqsad va vazifalar umumiy bo'lsa-da, ma'rifatparvarlik harakatida uch yo'nalish yaqqol ko'zga tashlanadi:

1. Birinchi yo'nalish vakillari Yevropa ta'siriga qarshi edilar. Ularning arab tili sofligini saqlash, millatning madaniy merosini ommalashtirish bo'yicha ko'rsatgan faoliyatlari ijobiy rol o'ynagan bo'lsa ham, ayni choqda milliy mahdudlik arablarning jahon adabiy jarayoniga qo'shilishlariga monelik qildi. Bu yo'nalishning suyanchi al-Azhar akademiyasi edi.

2. Ikkinchi yo'nalish vakillari esa o'zlarining milliy sarchashmalari, manbalarini inkor etib, hayotning hamma jabhalarida G'arbga taqlid qilishni afzal bildilar.

3. Faqat uchinchi yo'nalishga mansub ziyolilar arab madaniyati va Yevropa fani, adabiyotining uzviy qo'shilishi tarafdori sifatida maydonga chiqdilar.

II BOB

YaNGI ARAB ADABIYOTINING ILK SHAKLLANISH DAVRI (1880-1910)

1. Arab publisistikasi, uning yangi arab adabiyotining vujudga kelishidagi roli (1880-1910).

XIX asr arab adabiyotidagi birinchi mustaqil janr publisistika bo'lib, uning milliy asosi arablar hamma asrlarda e'zozlagan, qadimiy va hamisha navqiron notiqlik sa'nati edi.

Arab publisistikasi va matbuotining asosiy o'chog'i Misr bo'ldi. Mamlakatdagi ijtimoiy iqlim, bosmaxonalarning mavjudligi shunga asos yaratdi. 1828 yilda Muhammad Ali saltanati davrida birinchi hukumat gazetasi – «Al-Vaqoyi al-Misriya» («Misr yangiliklari») chop etildi, uni Rifa at-Taxaviy boshqardi. Misr matbuoti taraqqiyotiga suriyalik muhojir arablar salmoqli hissa qo'shdilar. Shuningdek, 1870-1914 yillardagi adabiyot taqdirida muhojir arab ziyolilari sezilarli iz qoldirganliklarini o'z vaqtida akademik I. Yu. Krachkovskiy ko'rsatib o'tgan edi.

Yevropaga, aksar hollarda Parijga, faqat ayrim siyosiy arboblarga emas, balki arab Sharqida taqiqlangan nashrlar ham ko'chirib o'tilar edi. Masalan, Britaniyaga zid bo'lgan Yoqub Sannuning «Abu Naddara zarqo» («Ko'k ko'zoynakli odam»), 1877-1910), Jamoliddin al-Afg'oniy va Muhammad Abduhlarning «Al-Urvat al-vusqa» («Baqquvat suyanch») gazetalari ham Parijga ko'chirilgan edi.

Turk istibdodi zo'raygan Suriyadan ziyolilarning ommaviy muhojirat qilishi ham ro'y berdi. Misrda hozirgacha nashr etilayotgan «al-Ahrom» («Piramidalar», 1876 yildan muharriri Bishara Takla, 1885 yildan – Ya'qub Sarruf va Foris Nimr), «Al-Hilol» («Yarim oy», 1892 yilda nashr etilgan, birinchi muharriri Jo'rji Zaydon) gazetarining ilk muharrirlari suriyaliklar edilar.

Shu davrda mashhur Suriya publisistlari Adib Ishoq va Abd ar-Rahmon al-Kavokibiy, shoir, dramaturg, publisist Najib al-Haddod, tarixchi olim, filolog, tarixiy roman janrining yaratuvchisi Jo'rji Zaydon, faylasuf Foriq Antunlar Misrda yashab, ijod qildilar.

Aksariyat mashhur publisistlar u yoki bu darajada Jamoliddin al-Afg'oniy g'oyalarini va «islom modernizmi»ni qo'llab quvatlardilar. Ular milliy-ozodlik harakati va feodalizmga qarshi kurashga hayrixoh edilar. Ayni paytda Jo'rji Zaydon kabi siyosiy kurash bilan bog'lanmagan «betaraf», sof ma'rifatparvarlikni maqsad qilib olgan adabiyotchilar ham yo'q emasdi. Inglizlarni qo'llab - quvvatlaydigan jurnalistlardan eng ko'zga ko'ringani Ya'qub Sarruf bo'lib, A.E.Krimskiy uni «Yevropa axborotchisi» deb atagan edi. Ya.Sarruf Sharq va G'arb madaniyatlarining yaqinlashuvi tarafdori bo'lgan.

Publisist yozuvchilar safi ancha keng edi. Ulardan ba'zilarining hayoti, adabiy faoliyati xususida to'xtalib o'tamiz.

Adib Ishoq – 1856 yilda Damashqda o'rtahol oilada tavallud topdi, diniy e'tiqodi jihatdan katolik, ammo monastir maktabda tahsil olgan, inglizcha va fransuzchani yaxshi bilgan yozuvchi edi.

A. Ishoqning publisistik va jurnalistik faoliyatining gullagan davri «Misr» va «At-Tijora» gazetalari bilan bog'liq. Har ikki gazeta ham al-Afg'oniy ta'limotini targ'ib qilardi. 1879 yil 2 noyabrida har ikki gazeta hukumat tomonidan yopib qo'yildi. Adib Ishoq Parijga ketadi (1880 y.). 1885 yilda hali 30 yoshga to'lmagan A. Ishoq sil kasaliga duchor bo'lib, olamdan o'tadi. Uning eng muhim asarlari, she'rlari, maqolalari, tarjimalari, ukasi Auni Ishoq tomonidan to'planib, «Ad-Durar» («Durlar») nomi bilan chop etildi va bir necha bor qayta nashr etildi.

I.Yu. Krachkovskiy o'z vaqtida «Adib Ishoq o'zida fransuz publisistikasining harorat va o'tini mujassamlantirgan, deb yozgan edi. A. Ishoq Jan Jak Russoga ergashib ozodlikni insonga o'z tana va ma'naviy kuchlarini ro'yobga chiqarish uchun berilgan tabiiy va ajralmas kuch deb ataydi («Ozodlik» maqolasi). Ayni paytda, chegarasiz, anarxistik ozodlik ham uning ideali emas. Haqiqiy ozodlik, Ishoq ta'biricha, ozodlikni barbod qilmaydigan va mustaqillikni barbod qilmaydigan chinakam qonun darajasida bo'lishi lozim. Lekin dunyoning hech bir mamlakatida Ishoq bunday siyosiy ozodlikni topolmaydi.

A.Ishoq musulmon emas edi, u diniy masalalarga til tegizmaydi, publisistning ma'rifatparvarlik g'oyalari musulmon modernizmidan ko'ra fransuz ma'rifatparvarligi g'oyalari bilan ko'proq bog'liq edi.

Adib Ishoqni Yevropadagi inqiloblar hayajonga soladi. Ammo u vatanidagi inqilob g'alabasiga umidsizlik bilan qaraydi («Inqilob» maqolasi), Ishoq fikricha oldingi barcha inqilobiy chiqishlar tajribasi hali Sharq bunga tayyor emasligini ko'rsatadi. O'z davrining asosiy vazifasi deb Ishoq «ma'naviy inqilobni» amalga oshiruvchi ma'rifatni tushunadi.

A. Ishoq hamisha o'z vatandoshlari va ularning tahqirlovchilarga arablarning o'rta asrlardagi ulug' madaniy rolini eslatishga urindi. Sharq o'z mohiyati, imkoniyatlari jixatidan G'arbdan past emas, agar Yevropa siyosati Sharqni tahqirlamoqchi bo'lsa, uni yovvoyilar o'lkasi deb ko'rsatmoqchi bo'lsa, bu Sharqni qul qilishni osonlashtirish uchundir («Sharq nima?», «Arablar davlati» maqolalari). A. Ishoq ko'pincha maqolalarida tashqi dushmanning, ayniqsa, Buyuk Britaniyaning muvaffaqiyatini ta'minlagan omil sifatida arab mamlakatlaridagi ichki vaziyatni, zodagonlar zulmi, diniy rahnamalarining mutaassibliigi, siyosiy rahbarlarning xiyonatkorligi va xalq ommasining nodonligi, ayollarning tahqirli ahvolini ko'rsatar edi. Uningcha, faqat ma'rifatgina Sharq xalqlarining ozod va mustahkam birligini ta'minlay oladi. Bu jihatdan A. Ishoq Jamoliddin al-Afg'oniyniing izchil davomchisidir.

A.Ishoq shoir sifatida bunchalik mashhur emas. U ko'proq Omar ibn Abu Robiya ruhida nozik ishqiy-lirik she'rlar, yaqin kishilari vafoti munosabati bilan marsiyalar, do'stlari sha'niga madhiyalar yozgan.

Adib Ishoq erkin she'r tarafdori edi. Uning maqolalari notiqning jonli nutqi kabi hayajonli, jo'shqin va ta'sirchan bo'lib, nafaqat «Fransuz Respublikasi harorati» bilan yo'g'rilgan, balki arablarning notqlik an'analaridan bahramanddir. Bu nutq chaqiriqlar, xitoblar bilan bo'linib turadi, she'riy parchalar aksar hollarda Ishoqning sevimli shoiri Abul Alo misralari bilan ziynatlangan, Qur'oni karim oyatlari bilan dalillandir.

A. Ishoq saj'dan keng foydalanardi, asarlari tili qiyomiga yetkazilgan, obrazli, ifodalilikni kuchaytiruvchi takrorlarga boydir.

Abd ar-Rahmon al-Kavokibiy (1849-1902) Halabda tug'ilgan. U ko'pgina olim va davlat arboblari yetishib chiqqan kadimiy Suriya urug'laridan. Kambag'al va tahqirlanganlarga xayrixohligi uchun u «Abu ad-duafo» («Bechoralar otasi») laqabini olgan. Mahalliy amaldorlar bilan kelishmovchilik tufayli adib 1900 yilda Misrga ketishga majbur bo'ladi va u yerda musulmon modernistlarining «Al-Muayyd» gazetasida ishlaydi. 1901 yilda al-Kavokibiy Makka ziyoratiga boradi, Afrikani kezadi, Hindistonda bo'ladi. 1902 yilda Kohiraga qaytgach, to'satdan vafot etadi. Ba'zi manbalarda aytilishicha, sulton buyrug'i bilan uni zaharlashgan. Al-Kavokibiyniing adabiy merosi «Umm al-kura» («Shaharlar onasi») va «Tabia al-istibdod» («Istibdod tabiati») nomli ikki kitobdan iborat. «Umm al-kura» musulmon modernizmi ruhida utopiya bo'lib, unda turli mamlakatlardan kelgan musulmonlarning Makkadagi yashirin kongressi tasvirlanadi. Kitobda musulmon olamidagi siyosiy, ijtimoiy va axloqiy muammolar keng miqyosda o'z aksini topgan. Al-Kavokibiy Jamoliddin al-Afg'oniyniing izchil shogirdi sifatida musulmon olamidagi kamchiliklar sababini din inqirozidan qidiradi, ularning davosini keng xalq ommasini ma'rifatli qilishda deb biladi. Bu yo'ldagi ilk qadam sifatida «Yakka xudoga sig'inuvchilarining ma'rifiy assotsiatsiyasi»ni tuzishni taklif etadi. Kitobda arab mamlakatlarida tobora kengayib borayotgan Usmonli imperiyasidan mustaqil bo'lish harakati ham tasvirlangan. Al-Kavokibiy arab millatchiligiining birinchi mafkurachilaridan edi. Bu narsa uning fojiali o'limiga sabab bo'lgan bo'lsa ham ajab emas.

«Istibdod tabiati» kitobi asosida ham rasionalistik diniy dunyoqarash yotadi: inson yagona Ollohga bo'ysunadi, ozodlik va tenglik uning tabiiy va daxlsiz huquqidir. Al-Kavokibiy tadqiqoti markazida asosiy yovuzlik-bu diniy ta'limotlarning mohiyatini buzib ko'rsatuvchi, millatning moddiy, ma'naviy boyliklarini nobud qiluvchi siyosiy istibdoddur, degan fikr yotadi. Kitobda mavjud tuzumning tanqididan tashqari, istibdodga qarshi kurashish yo'llari haqida xam fikr yuritiladi. Muallif o'zining ideali — mu'tadillik va boyliklardan oqilona foydalanish asosiga qurilgan jamiyat va davlat to'g'risidagi tasavvurlarini bayon etadi.

Al-Kavokibiy, barcha arab ma'rifatparvarlaridek, qurolli kurash tarafdori emasdi. Uning fikricha, istibdodga qarshi faollik va izchillik bilan kurashmoq lozim. Faqat xalqning o'zi o'zgalar ko'magisiz istiqlolini qo'lga kiritish va istibdod ustidan g'alaba qozonishi mumkin. Binobarin al-Kavokibiyda xalq ommasini ma'rifatli qilish salaflarnikiga nisbatan siyosiy keskinroq ma'no kasb etadi. Al-Kavokibiy xalq ommasining roliga katta ahamiyat beruvchi, ularda real siyosiy kuchni ko'ruvchi birinchi arab siyosiy arbobi va sotsiologi edi.

Zamondoshlar Al-Kavokibiyni o'z davrining yirik vatanparvar publisisti sifatida qadrlashar, barcha arab milliy-ozodlik harakati tarixchilari uni arablar milliy tuyg'usining birinchi himoyachisi deb ataydilar.

Mustafo Komil (1874-1908) Qohirada harbiy injener oilasida tug'ildi. Mutaxassisligi huquqshunos, Tuluza universitetining huquqshunoslik fakultetini tamomlagan. Misrga qaytgach, bir oz muddat advokatlik qildi, keyin o'z faoliyatini butunlay siyosiy kurash va jurnalistikaga bag'ishladi, inglizlarni Misrdan haydash uning asosiy shiori bo'lgan. Yevropa bo'ylab ko'p sayohat qildi: Vena, Budapesht, London, Berlinda bo'ldi, hamma joyda iste'dodli siyosiy notiq sifatida o'zini namoyon qildi. M. Komil milliy maktablarni ochishda, Misr milliy universitetini tashkil qilishda jo'shqin faollik ko'rsatdi. 1900 yilda u «al-Liva» («Bayroq») gazetasini chiqardi. 1907 yilda esa «Hizb al-Vatan» («Vatan partiyasi») partiyasini tuzdi. Mazkur partiyaning asosiy vazifasi ingliz istilosiga barham berish, Misr Muxtoriyatini saqlagan holda turk sultoni hokimiyatini tan olish va konstitusion tuzum o'rnatishdan iborat edi. M. Komil 1908 yilda sil kasalidan vafot etdi. Uning «Sharq masalasi» (1898), «Chiqayotgan quyosh» (1904) kitoblari mashhur. «Chiqayotgan quyosh»da u vatandoshlariga Yaponiya misolida muvaffaqiyatga erishish yo'llarini ko'rsatdi.

M. Komilning butun faoliyati vatanga xizmat etishning yorqin namunasidir. U vatani Misrning ingliz istilosidan xalos bo'lishi uchun kurashdi. Bu fidoyi inson mazkur masalada siyosiy kurash va dinni chambarchas bog'liq, deb bilar edi. Uning fikricha, din va vatanparvarlik tushunchalari ajralmasdir.

M. Komil islomga butun e'tiborini qaratib, o'z ma'naviy ustozlari-musulmon islohatchilari singari din erkinligiga va diniy totuvlikka chaqiradi. Jamoliddin al-Afg'oniya ergashib, turk sultoni boshchiligida tuziladigan umummusulmon xalifaligida Sharq muammolarining yagona yechimini ko'radi. M. Komil turk imperiyasi tarkibiga kiruvchi arab mamlakatlari xalqlari chekayotgan adolatsizliklar va kamsitishlardan ko'z yumadi. U ingliz bosqinchilariga qarshi kurashda nafaqat turk sultonidan madad kutadi, balki Yevropa davlatlari orasidagi ziddiyatlardan xam foydalanmoqchi bo'ladi. Uning Yevropa poytaxtlariga qilgan safarlari ular siyosatini Misr foydasiga o'zgartirish maqsadini ko'zlagan edi.

Komil inqilobga qarshi bo'lib, kurashning tinch usullarini maqullagan. Inglizlarga qurolli qarshilik ko'rsatgani, natijada ingliz istilosiga sababchi bo'lgani uchun u Orobi poshshoni millat xoini deb e'lon qiladi.

M. Komil o'z faoliyatida xalqni ma'rifatli qilishga asosiy diqqatini qaratdi. U sivilizatsiya deganda yevropaliklardan olingan moddiy madaniyatni emas, yangilangan islomga asoslangan milliy ma'naviy madaniyatni ko'zda tutgan edi.

«Telegraf, telefon, grammofon va boshqa Yevropa texnik ixtirolaridan nima foydaki, ana shu ajoyib narsalarning ixtirochilari bizga zulm qilsalar, bizni asoratga solsalar? Inglizlar zabt qilgan mamlakatim bo'ylab katta tezlik bilan avtomobilda sayr qilishdan ko'ra otga minib, sahrolarda kezib, o'zimni ozod his etishni ming marta afzal deb bilaman.»¹ Aniq dasturga ega bo'lgan «al-Liva» gazetasi Komilning quyidagi g'oyalarini ommaga yetkazishga xizmat qilar edi:

1. Britaniya istilosidan ozodlikka chiqishning yagona yuli sifatida musulmon birligi g'oyasini himoya qilish.

2. Milliy harakatni har qanday yo'llar va vositalar bilan faollashtirish, kengaytirish.

¹ Аҳмад Рашад. Мустафо Комил. Хайатуҳу ва кифаҳуҳу («Унинг ҳаёти ва кураши»). Қоҳира, 1958 й., 166 б.

3. Misr yoshlarini siyosiy jihatdan tarbiyalash.
4. Misrda jamoatchilik fikrini konstitusion tuzum va ijtimoiy islohatlar tomon yo'naltirish.

5. Musulmon dinini Yevropa siyosati xurujidan himoya qilish.

M. Komil yozuvchilikdan ko'ra notiqlikda mohir edi. Keng jamoatchilikka mo'ljallangan nutqi qurilishi va uslub jihatidan g'oyat sodda, ayni chog'da behad ta'sirchan va ehtirosli bulardi. Bu jihatdan Komil Adib Ishoqdan ham yuqori turar edi. Komil sodda jonli xalq tilida gapirishni ma'qul ko'rardi, qofiyali nasrni ishlatmas, lekin adabiy til tizimidan chetga ham chiqmas edi.

Qosim Amin (1865-1908) atoqli publisist va ma'rifatparvar, Qohirada xediv Ismoil xizmatida bo'lgan kurd knyazi oilasida dunyoga keldi. Q.Amin Fransiya davlat hisobidan huquqshunoslik bo'yicha o'qishga yuboriladi, huquqshunoslik doktori ilmiy darajasini olib, adliya va ichki ishlar vaziriligida xizmat qildi.

Q.Amin 1894 yilda fransuz tilida «Misrliklar» nomli ilk kitobini chop ettirdi. Fransuz sayyohi gersog D'Arkur o'zining yo'l xotiralarida islom va sharq urf-odatlarini haqida yuzaki, yengil-elpi fikr bildirgan edi. Q.Amin o'z asarida unga javob berarkan, ayniqsa, sharq ayolining ahvoli to'g'risida batafsil ma'lumot beradi.

Yevropacha ta'lim-tarbiya ko'rgan, arab ma'rifatparvarlik tafakkuridan, musulmon modernizmi g'oyalaridan chuqur bilimga ega bo'lgan Q.Amin ayollar masalasini jiddiy o'rganadi, 1899 yilda arab tilida «Ayol ozodligi» («Tahrir al-mar'a») kitobini nashrdan chiqaradi. Asar keskin munozaralarga sabab bo'ladi. Milliy uyg'onish mafkurasi tarafdorlari Q.Amin fikrlarini jo'shqinlik bilan yoqlab, uni hatto «Sharq Lyuteri» deb atadilar. Qadimparast musulmonlar esa, uni dinga hurmatsizlikda, musulmon ijtimoiy tuzumiga qarshi qo'poruvchilik qilishda aybladilar. Tanqidga javoban Q.Amin 1901 yilda ikkinchi kitobi «Yangi ayol» («Al-mar'a al-jadida»)ni nashr ettirdi. Garchi u paytlarda ayollar ahvolini o'zgartirish mushkil bo'lsa ham, uning kitoblari bir necha yillar davomida Misr va musulmon Sharqining qator shaharlarida qizg'in muhokama qilindi. Qosim Amin umrining so'nggi yillarini Misr universitetini ochishga bag'ishladi, lekin adib 1908 yilda universitet ochilishiga sanoqli kunlar qolganda vafot etdi. «Al-Jarida» jurnali adibning o'limidan so'ng uning yon daftaridagi fikrlarni «Qosimbek Amin so'zlari» («Kalimat Qosimbek Amin», Qohira, 1908) sarlavhasi bilan chop etdi. Bu yozuvlar ham Qosim Amin oila, muhabbat, nikoh masalalari bilan yaqindan qiziqqanini ko'rsatadi.

Qosim Amin arab publisistikasida birinchilardan bo'lib ayollar masalasiga zamonaviy islom nuqtai nazaridan yondashdi. Uning nazarida, ayolning hozirgi ahvoli Olloh tomonidan belgilangan tabiiy qonunlarga mutlaqo ziddir. Q.Amin o'z asarlarida hijobga, ayollarning «ichkari»ga qamalib o'tirishiga qarshi chiqadi. Uning fikricha, siyosiy istibdod bilan qoloq oilaviy munosabatlar o'rtasida yaqin bog'liqlik mavjud. «Musulmonlarning inqirozi ular hayotidagi oilaning tuban holatidan kelib chiqadi.»

Q.Amin «ayolning ijtimoiy tizimdagi roli millat xarakterini shakllantirishdan iborat», deb yozadi. Shuning uchun ham ayollarni ham jismoniy, ham aqliy, ham axloqiy jihatdan tarbiyalash zarur.

Bu fikr Qosim Amin taklif etgan ayollarni tarbiyalash dasturining o'q ildizidir. Ayollarga mos keladigan mutaxassislik deb, u pedagogika, medisina va savdoni ko'rsatadi.

Q.Amin ayollarga beriladigan siyosiy xuquqlar to'g'risida gapirmaydi, chunki «Misr ayoli hozir hech narsaga tayyor emas, shunday davr keladiki, bilimlar va tajriba bilan boygan Misr ayoli ijtimoiy faoliyat jabhasida erkaklar bilan bellashishga tayyor bo'ladi».²

Xaqiqiy modernist sifatida Q.Amin Qur'onda belgilangan qoidalarni inkor qilish uchun emas, balki o'z xulosalarini asoslash niyatida muqaddas kitobga murojaat etardi. Qur'ondan (33-sura 32 va 53-oyatlar) ayollarning hijobga kirishi xaqidagi so'zlarni keltirar ekan, adib bu ko'rsatma Payg'ambar ayollariga qaratilganini ta'kidlaydi, chunki ular «har qanday xotinlardek xotin emaslar». Zamonaviy nikoh va taloq odatlarini tanqid qilarkan, Amin o'z mulohazalarini isbotlash uchun Qur'on oyatlarini keltiradi. (Olloh er-xotin orasiga «sevgi va shafqat» solgan).

² Долинина А. А. Очерки истории арабской литературы нового времени. М, 1968. часть I, стр. 74.

Q.Amin ko'pxotinlikka, erkaklar uchun osongina bo'lgan taloq tartibiga keskin qarshi chiqdi. U ajralish to'g'risida yangi qonun loyihasini tavsiya qiladi, bu loyiha bo'yicha «sen taloqsan» deyish kifoya emas, ajralish hujjatlar bilan rasmiylashtirilishi kerak. Nima uchun islom bunga yo'l qo'yadi, undan ham o'taroq, Olloh o'z qonunidan bu qadar qo'pol og'ishlarni quvvatlaydi?

Q.Amin bularni dinning inqirozi, turli-tuman bid'atlar bilan buzilganligi, butun tarixi davomida musulmon sivilizatsiyasining takomillashmagani bilan izohlaydi. musulmon madaniyati tarixiga bunday tanqidiy munosabat Q.Amin muxoliflarini g'azabga keltirdi. Uni bid'atda, musulmon madaniyatiga nopisandlikda ayblashdi.

Q.Aminning dasturi uzoq yillar davomida ayol ozodligi uchun kurashuvchilarni ilhomlantirdi, «ayol mavzusi» esa, yangi arab adabiyotining asosiy mavzularidan biriga aylandi.

«So'zlar»da Q.Amin ingliz istilosining ayovsiz dushmani, vatanparvar, Misr adiblaridan birinchi bo'lib «Misrning yagona bedor qalbi» ifodachisi sifatida namoyon bo'ladi.

Aminning yon daftaridagi hikmatlar gumanizm bilan yo'g'rilgan. U insonlarni go'zal yashashga chaqirdi, insonlarga hayot jozibasini ochishga intildi. Q.Amin asarlari leytmotivida hayot ma'nosi boylikda, yuqori mansabda, aslzodalarga mansublikda emas, «insonning dunyoda abadiy iz qoldiradigan harakatchan kuch bo'lishida», degan g'oya yotadi. «Ayol ozodligi», «Yangi ayol» asarlarida u ko'proq masalaning diniy, ijtimoiy tomonlariga e'tibor bergan bo'lsa, bu asarda axloqiy mavzularga diqqat qildi. Nikoh, muhabbat, sadoqatda u hayotda suyanchiq bo'ladigan ruhiy, ma'naviy kuchni ko'rdi. Adibning bu darajada insonning ichki dunyosiga, hissiyotlar tarbiyasiga e'tibor berishi, xo'rlanganlar, zulm chekkan ayollarga hamdard bo'lishi, sof muhabbatni ardoqlashida ma'lum darajada sentimentalizm nishonalari ko'zga chalinadi. Bu yo'nalish arab adabiyotida XX asrning ilk o'n yilliklarida al-Manfalutiy, Jubron Xalil Jubron ijodida shakllandi.

Vali ad-Din Yekun (1873-1921) Istambulda nufuzli turk oilasida dunyoga keldi. Vali ad-Dinning bolalik, o'smirlik davri Misrda kechdi. Avval imtiyozli zodagonlar o'quv yurti «al-Ajal»da, keyinroq esa fransuz maktabida tahsil ko'rdi.

Uning Qohira gazetalaridagi jurnalistik faoliyati barvaqt boshlandi. Vali ad-Din siyosiy qarashlari jihatidan Abdulhamid tuzumining ashaddiy muxolifi bo'lib, o'z iste'dodi, hayotini zulmga qarshi kurashga qarata boshladi.

Vali ad-Din yetti yil Turkiyada shimolida surgunda bo'ldi. 1908 yilgi «Yosh turklar» inqilobi Yekunga ham ozodlik berdi, u Misrga qaytdi, umrining oxirigacha shu mamlakatda qoldi.

Yekun fakat arabcha yozardi. Asosiy asarlari 2 jildlik «Al-Mal'um va-l majhul» («Ma'lum va noma'lum», 1909, 1911), «As-Sahayif as-sud» («Qora sahifalar», 1910), «at-Tajrib» («Tajribalar» 1913) lardir. O'limidan sal oldin u "Dikran va Raif" romanini yoza boshladi. Uning voqealari yosh turklar inqilobi arafasida sodir bo'ladi.

V. Yekun mohir jurnalist bo'lib, uning maqolalari g'oyat dolzarb mavzularda, real voqealar asosida yozilardi, uning siyosiy qarashlari Mustafo Komilnikiga zid edi. Ma'lumki, M. Komil inglizlarni Misrdan haydash tarafdori, Yekun bo'lsa, inglizlarga nisbatan beparvo bo'lgan, ammo sulton tuzumi, uning arablar taqdirida o'ynagan ayanchli rolini ayovsiz fosh qilardi.

Yekunga shovinistik kayfiyatlar tamomila yot edi, u xalqlar birodarligini targ'ib etar, diniy, milliy fanatizmni qoralardi, arab va turk mojarolariga keskin qarshi chiqardi. U arablar kamsitishlarga qarshi bosh ko'tarsin, lekin aybdor turk xalqi emas, mustabid hukmronlardir, degan fikrda edi.

Yekunni yosh turklar inqilobi natijalari juda tashvishlantirardi. «Ular (yosh turklar) Abdulhamid to'plagan hamma narsani taladilar va xalq boshiga g'am-alam yog'dirdilar. Kimki millatga yaxshilikni ravo ko'rsa, o'shalarni ta'qib qildilar va o'ldirdilar, fikrli odamlarni haydadilar («Ko'krakdan yurakning chiqib ketishiga nima xalaqit beryapti?»)³

¹Долинина А. А. Очерки истории арабской литературы нового времени. М., 1968, стр. 99

V. Yekun yangilangan Turkiya doirasida halqlarning birodarlashuviga ishonardi. Yekunning inglizlarga bo'lgan iliqlik munosabati, shubhasiz, Yevropa madaniyatining arab uyg'onish va ma'rifatparvarligiga ta'siri bilan bog'liq.

Yekun, ta'bir joiz bo'lsa, birinchi «g'arbparast» musulmon ma'rifatparvari edi. U Yevropa madaniyati yutuqlarini ochiq tan oldi, ba'zi bir salafidek, uni musulmon manbalariga olib borib taqamadi. Yekun ateist emas, u musulmon modernizmi muxlisi edi. Uning fikrlashida Muhammad Abduh, Qosim Amin, al-Kavokibiy g'oyalari ta'siri seziladi. Diniy fanatizm bilan bog'liq juda ko'p bid'at va xurofotlarni Yekun ayovsiz fosh qildi. Uningcha Qur'onda buyurilgan ramazon ro'zasini odamlar allaqachondan beri yashirincha buzib yuribdilar, ammo munofiqlarcha o'zlarini taqvodor qilib ko'rsatmoqchi bo'ladilar («Birinchi aprel yolg'oni va ramazon yolg'oni»). Qadimiy va hamma muqaddas biladigan qurbon hayitini bema'ni isrofgarchilik deb hisoblaydi. Yekunning sevimli adabiy qahramoni faqih olim. Muallif diniy an'analar, feodal urf-odatlar, eskirgan oilaviy turmush tarzi bilan kurashish zarurati to'g'risida o'z fikrlarini ana shu qahramon tilidan bayon qiladi. «Salla o'ragan, tirnoqlari osti kir, besunaqay soqolli shayx musulmon jamiyatidagi barcha qoloqlik, johillikning ramziy timsoli».

Ta'lim, maorif masalalari, an'analardan voz kechish Yekun asarlarida «Otalar va bolalar» muammosi bilan bog'lanib ketadi: «Istibdodning eng yovuz ko'rinishi-otaning o'g'li ustidan to'la hukmronligi... uni yangi hayotga tayyorlashni istamasligidir («Keksalar va yoshlar»).

Yekun Sharqning qadimiy ma'naviy boyliklarining qadriga yetuvchi shaxs sifatida arab adabiyotining hozirgi holatidan, vatandoshlarining unga bo'lgan munosabatidan bezovta bo'ladi. U yozuvchi burchiga, uning jamiyatdagi o'rniga juda jiddiy va mas'uliyat bilan qaraydi.

Yekun yozuvchining vataniga qilgan samimiy va beminnat mehnatini hukmron tabaqaga xizmat deb emas, mehnat ahli bilan bir jon-bir tan bo'lish deb tushunadi.

I. Yu. Krachkovskiy Yekun uslubini «Yuksak darajada o'ziga xos, hissiyotlarga to'la, qizg'in asabiyat bilan sug'orilgan», deydi. Yekun ijodida publisistika va badiiy nasr uzviy bog'lanadi. U turli-tuman tasviriy shakllarga, folklor va mumtoz adabiyot janrlariga murojaat qiladi.

Adib latifalar, maishiy ertaklar, rivoyat, maqollardan o'rnida foydalanadi. Uning ijodida deyarli shakllangan zamonaviy novella shaklini ko'ramiz. «Bosfor qish kechalaridan birida» essesi kompozitsiyasi novella tipida qurilgan: Polisiyachilarning Abdulhamid yoqtirmagan, kimligi noma'lum odamni axtarib kelishi-tugun, bo'g'oz to'lqinlarida qatl etilgan odamning halokati kulminatsiya, choparning paydo bo'lishi, marhumning oilasiga sultonning sovg'asi va ta'ziyasini yetkazish kutilmagan yechimdir.

Yekunning poetik asarlari nasriga nisbatan bo'shroq. U Ahmad Shavqiyning (Misr) mumtoz maktabiga yaqin turadi. Mavzu va janr jihatidan uning she'riyati xiyla rang-barang, ba'zida publisistik asarlariga hamohangligi seziladi. «Suriya yoshlariga» qasidasi ancha mashhur. Unda arab olamining o'tmish dovruq'ini tiklashga da'vat qilinadi, ozodlik va adolatga xizmat qilish ulug'landi. Ayniqsa quvg'inlikda bitgan she'rlarida chuqur lirizm, vatanparvarlik g'oyalari ifodalangan.

Xulosa qilib aytganda, XIX asr oxiri-XX asr boshlaridagi ma'rifatparvar publisistlar mafkurasining shakllanishida arab Sharqining ma'naviy taraqqiyotida islomdan foydalanishni maqsad qilib olgan musulmon modernizmi yetakchi rol o'ynadi.

Musulmon modernizmining umumiy nazariy masalalarini ishlab chiqishga yirik ruhoniylar va huquqshunos Muhammad Abduh, uni siyosiy va ijtimoiy hayotning eng muhim jabhalarida amaliyotga qo'llashga al-Kavokibiy, Kosim Amin singari publisistlar hissa qo'shdilar. Ayni paytda diniy mavzuni chetlab o'tgan publisistlar ham bor edi. Bu tamoyil nomusulmon Adib Ishoq va Ya'qub Sannu hamda Yevropa madaniyatiga asosiy diqqatini qaratgan Yekun ijodiga xos edi.

Barcha arab ma'rifatparvalari keng xalq ommasini ma'rifatli qilmasdan turib hech qanday islohat va o'zgarishlarni amalga oshirib bo'lmashligini bir og'izdan ta'kidlaganlar.

Ayniqsa, arab madaniyatining eng yaxshi unsurlarini g'arb madaniyatidagi foydali tomonlar bilan uzviy bog'lash g'oyasi eng samarali yo'l sifatida olg'a surildi. Arab millatining

uygʻonishi va yangi arab adabiyotining tugʻilishida maʼrifatparvar publisist va adiblar hal qiluvchi rol oʻynadilar.

Publisistika adabiyot mazmun koʻlamini kengayishiga zamin hozirladi, zamonasining dolzarb muammolarini koʻtarib chiqdi va ijtimoiy fikrni tobora koʻproq aks ettira bordi.

Publisistika, shuningdek, yangi adabiy usulubning shakllanishida katta ahamiyat kasb etdi, uni balandparvozlikdan xoli qildi, majburiy saj doirasidan olib chiqdi. Notiqlik uslubi ham yangilandi, bir qator maʼrifatparvar adiblar notiq sifatida ham tanildilar (Abdalloh Nodim, Mustafo Komil). Gazeta maqolasiga sanʼat asari sifatida qarash XIX asrning soʻnggi choragi va XX asr boshlari uchun muhim xususiyatdir. Muhimi, bu davrga kelib, shakl emas, balki mazmun hal qiluvchi ahamiyatga ega boʻldi. Bu davrda rang-barang publisistik janrlar paydo boʻldi. Ular orasida qadimiy risolalarni eslatuvchi ilmiy traktat (Muhammad Abduh, al-Kavokibiy, Qosim Amin), joʻshqin siyosiy maqola (A. Ishoq, M. Komil) pamflet (A. Nodim), hajviy dialoglarni uchratamiz (Yaʼqub Sannu).

2. Maʼrifatparvarlik davri badiiy adabiyoti (1880-1910)

Qadimgi davr va oʻrta asrlarda gullab yashnagan sharq xalqlari adabiyoti yangi davr boʻsagʻasida qoloq, taraqqiyoti susaygan holatga tushib qoldi, ular endi ilgarilab ketgan Yevropa adabiyoti ketidan quvib yetib olish kerak boʻlib qoldi.

Yangilanish gʻoyasi, shubhasiz, til va badiiy ijod tamoyillarini ham qamrab olgan edi. Barcha maʼrifatparvarlar badiiy ijodning hamma asosiy sohalarida jonli soʻzlashuv tili xususiyatlarini saqlab qolish tarafdori edilar. Jonli soʻzlashuv tili hajviyotning tasvir vositasi sifatida publisistika va dramaturgiyadagina qoʻllanilardi. XX asrning ikkinchi-uchinchi oʻn yilligida, realizmning shakllanish davridagina soʻzlashuv tilining vazifasi ancha kengaydi.

Xuddi shu davrda tarbiyaviy tamoyillarni oʻzida mujassamlantirgan estetik qarashlar adabiyotda yuzaga kelaboshladi, yangi davr extiyojiga monand adabiy yoʻnalishlar paydo boʻldi. Bu yoʻnalishlar baʼzi xususiyatlari bilan burjua jamiyati shakllanishi davrida Yevropa adabiyotlarida yuzaga kelgan yoʻnalishlarni paydo boʻlishi, kurashi jarayonini eslatsa-da, oʻziga xos tomonlarga ega edi.

XIX asrning ikkinchi yarmida Misr va Suriya adabiyotida tugʻilgan klassisizm oʻz taraqqiyoti choʻqqisiga koʻtarilishga ulgurmasdan uning oʻrnini egallash uchun kelayotgan romantizm va sentimentalizmning hujumiga duchor boʻldi. Romantizm va sentimentalizm tanqidiy realizmning taraqqiyotiga zamin hozirladi. Hayotni yangicha aks ettirishga intilish shakldagi izlanishlarni yuzaga keltirdi. Adiblar qasida va maqomalarining anʼanaviy shakllarini zamonaviy mazmunga moslashtirishga urindilar. Ayni chogʻda ular arab adabiyoti uchun yangi boʻlgan janrlar-tarixiy roman, esse, mansur sheʼr, novellalarga murojaat qildilar.

Sheʼriyat konservativroq boʻlib chiqdi, u yangi janrlar yaratmasdan, koʻhna janrlarni zamonaviy ehtiyojiga moslashtirish yoʻlidan bordi (Sami al-Barudiy, Ismoil Sabriy, Ahmad Shavqiy, H.Ibrohim).

Asta-sekin oʻrta asrlardagi jimjimador qofiyalangan nasr-saj oʻrniga yangi erkin nasriy uslub yuzaga keldi.

Ana shu jarayonlarda arab mumtoz anʼanalarini qayta tiklashga urinishlar va Yevropa adabiyoti, asosan, fransuz va ingliz adbiyotlari tajribalarini oʻzlashtirishga intilishlar bilan bir paytda roʻyobga chiqdi.

Bu davr nasrida ikki maktab-Misr va Suriya maktablari ajralib turardi. Unisida ham, bunisida ham roman, novella yaratildi, lekin ular turli asoslarga suyanar edilar.

Misr maktabi koʻproq arab anʼanalariga asoslandi. Oysha Teymur, Muhammad al-Muveylihiy, Muhammad Hofiz Ibrohim, Mustafo Lutfi al-Manfalutiylar maqoma janriga zamonaviy mazmunni singdirishga intildilar. Bu misrlik adiblarning barchasi (O. Teymurdan boshqa) Qohira oliy maktablarini bitirgan, «musulmon modernizmi» arboblari bilan bogʻliq boʻlib, Yevropa madaniyatidan bahramand boʻlishning har qanday shaklini inkor etganlar. Novella-maqomalar, roman-maqomalar ana shu tarzda yuzaga kelgan.

Suriya maktabi arab adabiyotiga Yevropa romani va novellasini olib kirdi. Suriya maktabi asoschisi al-Boʻstoniy boʻlib, u tarjimon, publisist, didaktik hikoyatlar va zamonaviy,

tarixiy mavzudagi romanlar muallifi edi. Jo'rgi Zaydon, Jamil al-Mudauvar, Farah Antun, Ya'qub Saruflar tarixiy romanlar yozdilar. Nomlari tilga olingan adiblar asli suriyalik bo'lib (al-Bo'stoniydan tashqari), ularning adabiy faoliyati Misrda kechdi. Ular Yevropa tipidagi oliy o'quv yurtlarida ta'lim oldilar, chet tillarini bilardilar, Yevropa adabiyotini mutolaa qilardilar, uni taqlid namunasi, arab adabiyotining yangilanishi uchun manba deb bilardilar. Lekin g'arb adabiyotiga bunday munosabat g'arb siyosatiga ergashish ma'nosini bildirmas edi.

Misr maktabiga mansub yozuvchilar adabiy uslubni mumtoz davr talablariga amal qilgan holda jonlantirishga harakat qildilar. Suriyalik adiblar boshqacharoq yo'lni tanladilar. Ular o'z asarlarini keng kitobxonlar ommasiga tushunarli bo'lishini xohladilar. Aksariyat aholi musulmon bo'lmagani uchun ular Qur'on talabidagi tilga amal qilishdan ko'ra til va uslub masalalarida erkinroq bo'lishni afzal bildilar.

Shuni qayd etish kerakki, bu maktablar o'rtasida ziddiyatli chegara yo'q. Ularning vakillari o'zaro munozaraga kirishsalar ham ko'proq hamkorlik qildilar, bir-birlarini boyitdilar.

Jo'rgi Zaydon (1861-1914)

Bayrutda nasroniy oilasida tug'ilgan, otasi kichikroq qahvaxonaning sohibi edi. Bo'lg'usi adib mustaqil mutolaga berildi, mumtoz arab she'riyatini qunt bilan o'rgandi, inglizcha-arabcha lug'at tuzdi, ko'p o'qidi. O'ta mehnatkash bo'lgan Jo'rgi Zaydon Qohira, Londonda ta'lim oldi. 1892 yilda u mashhur adabiy – ilmiy «Al-Hilol» («Yarim oy») jurnalini chiqara boshlaydi, unda o'zining tarixiy romanlari, maqolalarini e'lon qiladi.

Uning ko'plab ilmiy asarlari ichidan 4 jildlik «Arab adabiyoti tarixi» va «Musulmon madaniyat tarixi» katta shuhrat qozongan. Zaydon bu asarlarida ilk bor adabiyot tarixini o'rganishda Yevropa ilmiy metodlarini qo'lladi. Uning asarlari ingliz, fransuz, fors, turk, hind va boshqa tillarga tarjima qilingan. Mashhur arabshunos A. G. Krimskiy J. Zaydonning g'oyat og'ir hayot yo'li, mehnatsevarligi, ijodining ko'pqirraligini nazarda tutib, uni «arab Lomonosovi» deb atagan edi. Zaydonning yorqin, beqiyos shaxsi arab ma'rifatparvarligida ulkan iz qoldirdi. Dunyoqarashi jihatidan J. Zaydon–deist edi. U dunyoning moddiyligini, materiyaning abadiylikni, bu dunyo hodisotlarining sababli bog'lanishini tan oladi. Ayni chog'da xudoning mavjudligini, dinning zaruratini, uning odamlarni birlashtirishdagi kuch-qudratiga ishonadi, oxiratni e'tirof qiladi.

J. Zaydon dunyoqarashining shakllanishida XVIII-XIX asr Yevropa fani va falsafasi katta ahamiyat kasb etdi. Adib Yevropa fani va falsafasi g'oya va yutuqlarini, ko'p hollarda tanqidiy va izchil qabul qilmaydi. Materiyaning xislatlari to'g'risidagi tasavvurlarida u XVIII asr fransuz moddiyunchilariga yaqin (Didro, Golbax). Jamiyat tarixiga munosabatda ham J. Zaydon fransuzlarga yaqin turadi. Uningcha, ijtimoiy taraqqiyotni harakatga keltiruvchi kuch-g'oya, nodonlik-insoniyat kulfatlarining bosh sababchisi.

Adib o'z ijodida oila, nikoh masalalariga ko'p o'rin ajratadi, millat taraqqiyoti uchun ayol mavqeining ahamiyatini ko'rsatishga intiladi. «Millatni yuksaltirishning eng yaxshi vositasi, -deb yozadi Zaydon - ayolni o'qitish, tarbiyalash, ta'lim berishdir. Agar ayol tushkunlikda bo'lsa, butun millatimiz tanazzuldadir».⁴

Zaydon merosida adabiy-tanqidiy maqolalar yo'q. Adabiyotning vazifasi to'g'risidagi, til haqidagi ayrim fikrlari ijtimoiy, axloqiy mavzulardagi maqolalarida sochilib yotadi. Adabiyotning asosiy vazifasi deb tarbiyaviy xususiyatini ta'riflaydi, yozuvchidan haqqoniylik va qat'iyatni talab qiladi. U neologizmlar, chet tili so'zlarini ko'proq qo'llash tarafdori, lekin adabiy tilni so'zlashuv bilan almashtirishni keskin qoralaydi.

Adib badiiy ijodida ana shu tamoyillarga o'zi amal qiladi. Zaydonni didaktik va ko'ngilochar voqealarni o'zida mujassamlantirgan roman janri asoschisi deb hisoblashadi. Bu janrning tomirlari o'rta asr arab adabiyoti (adab)ga borib tutashadi. Darhaqiqat, Zaydon romanlarini o'qir ekansiz, olam-olam qiziqarli ma'lumotlar olasiz, ular sizni ezgulikka, yaxshilikka undaydi, g'aroyib voqealari bilan maftun etadi.

⁴ Долинина А. А. Очерки истории арабской литературы нового времени. М., 1968, стр. 103

Zaydon hikoya qilish usulida, syujetda arab xalq adabiyoti yoʻlidan boradi (qahramonona jang tasviri, xavf-xatarlardan ajoyib tarzda xalos boʻlish), shu bilan birga, Yevropa tarixiy romanining, qisman Aleksandr Dyuma va Valter Skott ijodining taʼsiri seziladi.

Ana shu oʻziga xos xususiyatlar Zaydon romanlaridagi syujet qurilishini belgilaydi. Odatda, ular bir qolipda boʻlib, bir xil unsurlardan tashkil topadi. Chunki muallif syujet yaratarkan, xarakterlarga emas, oldindan oʻylangan nasihatimiz sxemalarga amal qiladi. Shuning uchun, koʻpincha, tarixiy voqealar asarning asosi boʻlmay, syujet qoliplovchisiga aylanadi.

Zaydon asarlaridagi asosiy konflikt yaxshilik va yozuvlik kurashidan iborat. Yaxshilik, ezgulikni ifodalovchi kuchlar axloqiy goʻzallik, insonparvarlik, yuksak ijtimoiy ideallar, aql va maʼrifat timsoli, yovuzlik kuchlari axloqsizlik, istibdod, manfaatparastlik, maʼnaviy qashshoqlik va bidʼat ifodachilaridir. Romandan romanga koʻchib yuruvchi ideal ijobiy qahramon va uning sevgilisi, oliyanob ota-onalar (baʼzida ota-rahmsiz), igʻvogar, sadoqatli xizmatkor kabi siyqasi chiqqan qahramonlar yuzaga keladi. Zaydon oʻz qahramonlarining psixologiyasi, ichki olamini ochishga uncha intilmaydi.

Syujet koʻpincha sarguzasht-aventyura asosiga quriladi. Uning markazida yaxshilik qiluvchi qahramon va uning sevgilisi turardi. Ularning baxtli boʻlishlari uchun hamisha toʻsiqlar ota-onalarning (koʻpincha qizning ota-onalari) qarshiligi, doimo sevishganlarga xalaqit beruvchi raqib, oshiqlarni judolikka duchor etuvchi urush va boshqa voqealar boʻladi. Ammo oxirida sevishganlar murod-maqсадlariga yetadilar.

Shunday qilib, Zaydon romanlari badiiy uslubi jihatidan XIX asr tarixiy romanidan koʻra XVIII asr maʼrifatparvarlik qissalariga yaqinroq turadi.

Zaydon romanlarini ikki guruhga ajratish mumkin. Birichisiga toʻrtta ilk romani- «Qochoq mamluk» (1891), «Asir al-Laxdi» (1892), «Mamluklar oʻzboshimchaligi» (1893) va «Sevishganlar kurashi» (1894) kiradi. Ularda arab dunyosi tarixi aks ettirilgan. Ikkinchisi 17 kitobdan iborat romanlar turkumi boʻlib, ularda arablar tarixining fojiali holatlari koʻrsatilgan. Turkum mamluklar hukmronligigacha boʻlgan davrni qamrab oladi.

Ana shu turkumdagi eng yetuk romanlardan biri «Al-Abbosa ar-Rashid singlisi» romanidir. Uning syujetiga asos boʻlgan voqea ilk arab solnomalarida bayon etilgan Jaʼfar Barmakiyning xalok boʻlish tarixidir. Ana shu voqeadan Barmakiy vazirlar sulolasining inqirozi boshlanadi.

Horun ar-Rashidning al-Abbosa ismli sevimli singlisi boʻlgan. Xalif islom qoidalarini buzmaganda doim bir dasturxonda ovqat yeydigan sevikli vaziri Jaʼfar bilan diydorlashib turish uchun al-Abbosani vazirga soxta nikohlab beradi. Koʻp oʻtmaydan soxta nikoh chinga aylanadi, bolalar tugʻiladi. Ana shu afsonani asos qilib, Zaydon aventyurali oʻtkir syujet yaratdi. Asarda siyosiy fitnalarga ham koʻp oʻrin ajratilgan.

Maʼlum boʻlishicha, Jaʼfar davlat jinoyatchisi Yahʼyo Alaviyni yashirincha zindondan ozod etgan.

Asarda uchta asosiy qahramon va ularning xizmatkoridan boʻlak tarixiy shaxslar ham harakat qiladilar. Jumladan, saroy shoiri Abul Atahiya al-Abbosa va Jaʼfar oʻrtasidagi yashirin aloqani fosh qiladi, Horun ar-Rashidga uni chaqadi. Al-Abbosa va Jaʼfar Xurosonga qochmoqchi boʻladilar. Yoʻlga tushish arafasida al-Abbosa oldiga Horun ar-Rashid jallod bilan keladi. Xalif jallodga singlisining boshini olishni buyuradi. Al-Abbosa halokatini eshitgan Jaʼfar ikkilanmay oʻlimga tik boradi, ularning farzandlari ham oʻldiriladi. Barmakiylar va ularni tarafdorlarini qatl qilish boshlanadi. Al-Abbosa Zaydonning oxiri fojia bilan tugagan kam uchraydigan romanlaridan biri. Romanda muallif fikri aniq ifodalangan uning xayrixohligi ochiq bayon etilgan. Zaydon Horun ar-Rashidni, «Ming bir kecha»dagidek, ideallashtirmaydi. Horun ar-Rashid ayovsiz, sharq mustabid hukmdoriga xos illatlar uning qiyofasida mujassamlashgan. Mutlaq hokimiyatga intilish Horun ar-Rashidning insoniy tabiatini vahshiylashtirgan. U oʻz hokimiyatiga qilingan tajovuzni kechirmaydi, bu tuygʻu hatto singlisi va Jaʼfarga boʻlgan mehr-shafqatini ham yoʻqqa chiqardi. Horun ar-Rashid atrofini axloqiy tubanlik va razolat egallagan.

Zaydon Horun ar-Rashid hukmron boʻlgan «oltin asr»ning inqiroz davriga aylanishiga bosh sabab istibdod ekanini koʻrsatadi. Adibning mehri Jaʼfar tomonida. Darhaqiqat, barmakiylar

xalifalikda tinchlik va osoyishtalik o'rnatdilar, davlat boshqaruvidagi ishlarni tartibga soldilar, shaharlar xavfsizligini ta'minladilar. Vazir mamlakat uchun xalifadan ko'ra foydaliroq ekani bilinib qoldi. Ozod qilingan qul shaxsiy xususiyatlari jihatdan aslzoda hoshimiydan yuksak turardi.

Zaydon romanlaridagi ayollar obrazlari ham diqqatga sazovor. O'tmishning mashhur oqila, ma'rifatli ayollari-Abbosa, shoira Leyla al-Axyaliyya, Su-Keyna zakovatli, bilimdon, yuksak axloq sohibalari sifatida tasvirlanganlar.

Sevgi mavzusi talqinida Zaydon o'zining didaktik uslubiga sodiq koladi. Yozuvchi o'z zamondoshlari arab ayollariga taqlid qilsa arziydigan namunalarni tavsiya etadi, zamondosh erkaklarni esa, ayolga nisbatan tamomila yangi munosabatda jamiyatning to'laqonli, teng huquqli a'zosi sifatida muomala qilishga chaqiradi. Zaydon romanlaridagi muhabbat mavzusida sentimentalizm ta'siri yaqqol seziladi.

U sevgini musaffo va mo'ttabar tuyg'u, buyuk qadriyat va qudratli kuch tarzida tasvirlaydi. Adibning aksariyat ayol qahramonlari muhabbat yo'lida zebu ziynat va boyliklardan voz kechadilar. Zaydon romanlari, ayni chog'da, axloqiy va aqliy balog'atga undaydi, asarlarda kitobxonni tarbiyalovchi, ularda vatanparvarlik hislarini uyg'otuvchi son-sanoqsiz tarixiy ma'lumotlar bor. Zaydon turli madaniy saviyadagi kitobxonlarni nazarga olgan holda qalam tebratdi, ularga tushunarli bo'lishiga intilib, iloji boricha, sodda tilda yozdi.

Muhammad al-Muvaylihiy (1858-1930). XX asr boshlarida Misrda zamonaviy novella shakllana boshladi. Mazkur janrning mumtoz arab adabiyotidagi ko'rinishlari sifatida islomdan oldingi davr bahodirlarining qahramonliklarini tasvirlovchi «Arab kunlari» asarida mavjud bo'lgan ko'p sonli o'rta asr novellalari-maqomalarini, shuningdek, makr-hiyla syujetli qahramonlik romanlari va nihoyat, «1001 kecha» ertaklarini ko'rsatsa bo'ladi. Individual ijod namunasi bo'lgan, murakkab til, so'z o'yiniga asoslangan maqomalar esa, XX asrgacha mashhur bo'lgan.

Muhammad al-Muvaylihiy Yevropa adabiyotidan andoza olish, unga taqlid qilishga qarshi edi. U maqomaga yangi hayot bag'ishlash, mazmunini yangilash uchun kurashdi. 1906 yilda «Misbah ash-Sharq» gazetasida adibning «Iso ibn Hishom hikoyasi» nomi bilan maqomalar turkumi bosildi, ularning alohida nashri 1912 yilda chiqdi. Bu asarda XIX asr oxiri XX boshlaridagi Misr ijtimoiy siyosiy tuzumi, ingliz istilosi qattiq hajv qilinadi.

Asar qahramoni Muhammad Ali davrida yashagan poshsho birdaniga ikki asr oralig'ida tirilib, hikoyachi Iso ibn Hishom bilan birga Qohirada sayr qiladi. Birinchi qadamdanoq «tirilgan» poshsho yangi urf-odat va qoidalar qurboni bo'ladi. Muallif poshshoni turli odamlar-savdogarlar, mansabdorlar, ko'zbo'yamachi do'xtirlar bilan to'qnashtiradi.

Feodal tuzum davrida yashagan poshshoni tiriltirib, muallif uni burjua taraqqiyoti va mustamlakachilar hukmronlik qilgan Misrning turli-tuman tomonlariga nigoh tashlashiga majbur qiladi.

Yozuvchi poshsho tili bilan G'arbga ko'r-ko'rona taqlidni, mansabdorlarning to'rachiligini tanqid ostiga oladi.

Garchi muallif o'rta asr nasrining eng yetuk janri hisoblangan maqomaga murojaat qilgan bo'lsa-da, uning asarlari mumtoz maqomaga taqlid emas. Muallifning bu asarlarida maqomaning tashqi ko'rinishi olingan bo'lib, zamonaviy novella va drama unsurlari mavjud. Muvaylihiy asarini maqoma bilan yaqinlashtirgan narsa asarning boshlanishi, uning qofiyalangan nasr-sajda yozilganidir. Drama unsuri esa dialogda ko'rinadi, ammo dialog ham mumtoz maqoma yo'lida emas, balki komediyalar uslubida yozilgan.

Mazkur asarning fazilatlaridan biri til soddaligi va ifodaliligidir. Hatto sajda ham muallif bayonni ataylab murakkablashtirmaydi.

Shaklning shartli bo'lishiga qaramay, asarda realistik tendensiya sezilib turadi, chunki muallif ularda XIX asrning oxirlaridagi Misr hayotining xarakterli xususiyatlarini butun murakkabligi va ziddiyatlari bilan tasvirlaydi. Shuningdek, butun asar davomida kitobxon qahramonni real hayotiy vaziyatlarda mushohada etadi. «Iso ibn Hishom hikoyasi» arab adabiyoti tarixida «al-qissa» janrini boshlab bergan asar sifatida talqin qilinadi. Shuningdek, u

ilk arab realizmi namunasi, qator badiiy uslubiy fazilatlariga ega asar hamdir. Misr shoiri Muhammad Hofiz Ibrohimning (1871-1932) «Satix kechalari» asari ham ana shu janrda yozilgan.

Ya'qub Sannu (1839-1912) Qohirada yahudiy oilasida tug'ildi. Otasi Rafael Sannu Muhammad Alining nabirasi Ahmad Yekun poshshoning ishonchli odami bo'lgan. Ya'qub an'anaviy yahudiy ta'limini olgan, Yevropa tillarini yoshligidan boshlab o'rgangan. U poshsho yordami bilan Italiyada filologiya sohasida ta'lim oldi. Misrga qaytgach, teatr bilan qiziqdi, Qohiraga gastrolga kelgan fransuz va italyan truppalarining spektakllarida ishtirok etdi. 1870 yilda ilk Misr teatrlaridan birini tashkil qildi. Yevropadagi teatr ishlarini yaxshi bilgan, fransuz mumtoz akademiyasining muxlisi bo'lgan Sannu yangi teatr uchun repertuar yaratishga kirishadi.

Arab dramaturgiyasining dastlabki «qaldirg'ochlari» yaratgan asarlar Yevropa dramaturglaridan mexanik ravishda ko'chirma bo'lmasdan, arab adabiyoti uchun yangi janr bo'lgan dramani arab ma'rifatparvarlarining axloqiy-didaktik niyatlariga mos keladigan shakllarini izlash tusiga ega edi. XIX asrning qator ijtimoiy arboblari drama publisistika bilan bab-baravar ma'rifatparvarlik mafkurasi, milliy uyg'onish g'oyalarini hammabop, tushunarli tarzda ommaga yetkazish imkoniyatlariga ega ekanini nozik his qildilar.

Teatrni axloq va ma'naviy kamolot vositasi sifatida foydalanish arablar uchun yangilik emasdi. An'anaviy milliy teatrlashtirilgan tomoshalarining barcha turlarida, soyalar va qo'g'irchoq teatrida azaldan yaxshilikni ulug'lovchi, yovuzlikni qoralovchi so'zlar baralla aytib kelingan.

Arab tomoshabini teatr tomoshalarni qabul qilishga yaxshi tayyorlangan. Islomning badiiy ijodga bo'lgan salbiy munosabati tomoshalarining hamma turlariga baravar tatbiq qilishganligiga qaramay, xalq teatri arab mamlakatalarida qadimdan turli tomoshalar shaklida yashadi va taraqqiy etdi.

Milliy dramaturgiya shakllanishiga Ya'qub Sannu o'z hissasini qo'shdi. Uning dramaturgiyaga oid boy merosi 30 dan ortiq pesani o'z ichiga oladi.

Bu asarlar ularning matni chop etilmagani sababli uzoq vaqt o'rganilmasdan keldi, faqat ba'zilar bundan mustasno. Bu asarlarning Livan adabiyotshunosi M. Najm tomonidan e'lon qilinishi Y. Sannuning Misr milliy dramasi ijodkorlaridan biri ekanini ko'rsatdi.

Y. Sannu komediya janrida ijod qilar ekan, e'tiborini ko'proq fars yo'nalishidagi p'esalarga qaratdi. Ammo ko'rinishidan beozor muhabbat sahnalarida muhim ijtimoiy va siyosiy muammolar ko'tarib chiqilar, saroy a'yonlarining yaramas illatlari qoralanardi. («Misr birjasi», «Bemor»).

Ko'pgina pesalarda ijtimoiy zulm, dehqon huquqsizligi, shahar qashshoqligi («Bechora Zam Zam»), ko'p xotinlik («Ikkiti xotin»), Yevropa madaniyatini yengil-elpi qabul qilish va yevropacha axloqqa ko'r-ko'rona taqlid qilish («Iskandariyalik grafinya») kabi hodisalarga Sannunning tanqidiy nuqtai nazari ifodalangan. Sannu o'z asarlari uchun har bir misrlikka tushunarli so'zlashuv tilini tanlagan. Uning fikricha, adabiy til teatrning axloqiy-ma'rifiy maqsadlariga to'sqinlik qiladi va komediya janriga ziddir. Teatrda adabiy silliqlangan til emas, jonli til hukmron bo'lsin.

Sannuning deyarli har bir pesasida an'anaviy arab xalq tomoshalariga xos personajlar-duduq va tentaklarni, aldangan keksa erlar, janjalkash xotinlarni uchratish mumkin. Ularning nutqi hazil mutoyibaga, qochirimlarga boy. Har bitta pesa an'anaviy xalq teatriga xos tomoshabinni voqealar mohiyati bilan tanishtiruvchi monolog bilan boshlanib, qahramonlarni sharafllovchi qo'shiq bilan yakunlanadi.

Misrning yevropalashishi va burjua taraqqiyoti yo'lini yoqlagan xediv Ismoil Sannu faoliyatiga xayrixohlik bilan qarardi, uni «Misr Moleri» unvoni bilan taqdirladi. Ko'p vaqt o'tmasdan Sannu siyosatidan norozi bo'ldi va uning muxoliflari bilan yaqinlashdi. Sannuning «Vatan va ozodlik» pesasi mazmunini xediv o'zi va a'yonlariga nisbatan haqoratli sanab, teatr faoliyatini to'xtatdi.

Sannu endi teatr o'rniga jurnalistika sohasida faoliyat boshladi. 1877 yildan boshlab u siyosiy mazmundagi haftali gazeta chiqara boshladi. Gazeta Yevropaning siyosiy va iqtisodiy ta'siriga va Ismoil faoliyatiga qarshi chiqdi. Sannu Misr jurnalistikasi uchun yangi bo'lgan satira qurolini ishga soldi. Uning «Abu Nazzora zarqa» («Ko'k ko'zoynakli odam») gazetasi dolzarb masalalarni ko'tarib chiqa boshladi. Abu Nazzora na amirni, na vazirlarni, na turk, na yevropalik amaldorlarni ayadi. Uning tig'dor qochirimlari hammaga tushunarli edi. Misrda xediv o'ziga yoqmagan odamlarni huzuriga chaqirib, ularni zaharlangan qahva bilan mehmon qiladi, degan gap tarqaladi. Shayx Abu Nazzora do'stlar davrasida o'tirib, qahva ichishdan bosh tortadi. «Yo'q, birodar, men qahvani suymayman, u xavfli. Bizning zamonamizda kimki bir finjon qahva ichsa, til tortmay o'ladi».⁵ Sannuning qahramoni kimni nazarda tutayotgani esa o'quvchiga ayon.

Ushbu birinchi arab hajviy gazetasida Muhammad Abduh va Jamoliddin al-Afg'oniylar ham nomlarini yashirib, qatnashib turganlar. Abu Nazzora nomi Sannuning taxallusiga aylandi. Gazetaning so'zlashuv tilida nashr etilishi ham uning muvaffaqiyatiga sabab bo'lar edi. Sannuning bu jasurona tashabbusi juda ko'p izdoshlar orttirdi.

Gazeta 15-sonidan so'ng yopib qo'yildi, Sannu esa Parijga ketib, u yerda gazeta nashrini davom ettirdi. Misrda u hamon qo'lma-qo'l yurar edi. Gazeta 1887 yildan boshlab rasmiy chiqa boshladi. U tez-tez taqiqlanar, nomi ham o'zgarib turardi, «Abu Safora» («Hushtakli odam»), «Abu Zammora» («Surnayli odam») kabi, lekin uning «Misr misrliklarga» degan shiori saqlanardi. Sannu Fransiyaning «Figaro» va «Maten» gazetalarida ham chiqib turdi.

Ya'qub Sannu Yevropa ekspansiyasiga qarshi musulmonlar birligi tarafdori sifatida Yaqin Sharq mamlakatlarida katta obro'ga ega edi. Eron shohi va turk sultoni Abdulhamid uni o'z tomonlariga og'dirishga intilar edilar. Xediv Abbos II Sannuni Misrga qaytishga chaqiradi. Sannu inglizlar Misrda hukmron ekan, vatanga qaytmasligini aytadi.

«Abu Nazzora zarqa» gazetasi 34 yil umr ko'rdi. Gazetaning oxirgi soni 1910 yilda chiqdi. Ko'zi ojiz bo'lib qolgan Sannu esa 1912 yilda vafot etdi.

Yangi arab adabiyotida G'arbiy Yevropa adabiyoti tajribasiga suyanish faqat drama uchungina xos bo'lmay, XIX asr oxirida novella, qissa va romanlar shakllanishi jarayonida ham o'z ifodasini topdi. Deyarli har bir arab adibi-al-Manfalutiy, al-Maziniy, J. Zaydon, keyinroq H. Haykal ham, tarjimada asar mazmunini o'zlashtirib ifodalashdek mustaqil ijodga ilk qadam qo'yish jarayonini boshdan kechirdi. Natijada, yangi kitobxon yoki tomoshabinga mo'ljallangan, o'z zamonasi, uning muammolari bilan bog'liq, ba'zida ilgarigi, ko'hna shakllarda yozilgan asarlar paydo bo'ldi. Ular asta-sekin o'ziga yo'l ochdi va yangi milliy adabiyotning taraqqiyot yo'lini belgilab berdi.

Yuqorida aytilganlardan xulosa qilish mumkinki, Sharq ma'rifatparvarligining Yevropa bilan umumiy jihatlari ko'p. U tarixiy jarayondagi umumiylik, burjua jamiyatining shakllanishi, feodalizmga qarshi kurashning keskinlashuvi, taraqqiyparvar doiralarning iqtisodiy, siyosiy va madaniy turmushda islohat qilishga intilishi bilan bog'liq holda yuzaga kelgan.

Sharq ma'rifatparvarligida o'tmishdagi taraqqiyot taqozosi bilan yuzaga kelgan o'ziga xos xususiyatlar ham mavjud. Sharq ma'rifatparvarlarining dinga munosabati alohida diqqatga sazovor. Dinga qarshi keskin munosabat Yevropa ma'rifatparvarligi uchun xosdir. Sharq ma'rifatparvarlari mahalliy sharoitdan kelib chiqib, dinning o'ziga emas, balki nafsga berilgan din peshvolari, bid'at va xurofotlarga qarshi chiqqanlar.

Arab mamlakatlarida ma'rifatparvarlar dinni isloh qilish, uni mamlakatning ijtimoiy taraqqiyoti maqsadi va ehtiyojlariga moslashtirishga, milliy manfaatlarni himoya qilish yo'lida foydalanishga intilganlar. Arab ma'rifatparvarlari eskilikni keskin tanqid qilish bilan birga ijtimoiy tuzumga nisbatan o'z qarashlarini din talablari bilan moslaganlar. Shuning uchun ularning aksariyati ma'rifatparvar-demokrat hamda musulmon-islohatchilari sifatida maydonga chiqqanlar.

Arab ma'rifatparvarlari davlat tuzumi masalalariga e'tiborlarini kam qaratdilar, chunki Usmonli imperiyasi tomonidan o'tkazilgan zulm, mamlakatlarning tez sur'atlar bilan

⁵ Долинина А. А. Очерки истории арабской литературы нового времени, М., 1968, стр. 42

mustamlakaga aylanishi ularni bu masalalarni erkin muhokama qilish imkonidan mahrum etdi. Yangi tugʻilayotgan adabiyot esa, Sharqda ilgari maʼlum boʻlmagan hikoya, qissa, roman, drama kabi janrlarni tez oʻzlashtirdi.

Maʼrifatparvarlik harakati Sharq xalqlari adabiyotida romantizm bilan uygʻunlashgan realizmning tez rivojlanishiga zamin hozirladi.

Sharqdagi maʼrifatparvarlik harakati Gʻarbdagi maʼrifatparvarlik davridan (u ham barcha mamlakatlarda bir xil kechmagan) farqli oʻlaroq, har bir mamlakatda oʻziga xos xususiyatlarga ega boʻldi.

Baʼzi mamlakatlarda maʼrifatparvarlik tez rivojlangan boʻlsa, boshqalarida bu jarayon, maʼlum sabablarga koʻra sekinroq kechdi. Ayrim mamlakatlarda maʼrifatparvarlik islohatlari chuqur oʻzgarishlarga olib kelgan boʻlsa, boshqalarida jamiyat tuzilishi va adabiyotga yuzaki oʻzgarishlar kiritdi, xolos. Shunga qaramay ular orasida tipologik umumiylik, shubhasiz, boʻlgan. Bu ham sharq maʼrifatparvarligining oʻziga xos xususiyatlaridan boʻlib, bu mamlakatlar adabiyoti jahon adabiyotining umumiy qonuniyatlari asosida rivojlanganini yana bir bor tasdiqlaydi. Uning miliy, oʻziga xos xususiyatlari esa aniq-ravshan namoyon boʻlib turadi. Maʼrifatparvarlik adabiyotini tadqiq etish zamonaviy adabiyotning ilk manbalarini aniqlash imkonini beradi.

III BOB ARAB ADABIYOTIDA ILK REALIZM DAVRI (1910-1935)

1. Suriya-Amerika adabiy maktabining yuzaga kelishi va faoliyati

Suriya-Amerika adabiy maktabi⁶... Turli-tuman xalqaro aloqalar kengayayotgan hozirgi vaqtda bunday soʻz birikmasi bizga gʻalati tuyulmaydi. Lekin asr boshida ar-Rayhoniyy oʻzining ilk asarlarini eʼlon qilgan chogʻlarda Yevropa kitobxoniga bu hayratomuz tuyulgan boʻlsa ajab emas. Chunki arab olami bilan hali koʻpchilik tanish boʻlmagan bu vaqtda Kiplingning «Gʻarb bu-Gʻarb, Sharq bu-Sharq» degan soʻzlari hammaga maʼlum edi. Sharq va Gʻarbnings bu sintezi tabiatini tushinish uchun tarixga murojaat qilish zarur.

XVI asrdan buyon Turkiya imperiyasining viloyati boʻlib kelgan Suriya XIX asrda rivojlangan mamlakatlar manfaati doirasiga tushib qoladi. Bu yerda oʻz taʼsirini oʻtkazish uchun, birinchi navbatda, Fransiya va AQSh raqobat qila boshlaydi. Ular mamlakat aholisining salmoqli qismini tashkil etuvchi masihiylarga suyanishga intiladilar. Bu holat, bir tomondan, Suriyani asta-sekin yevropalashishiga, feodal munosabatlarning keskinlashuviga olib keldi, mamlakatni burjua taraqqiyoti yoʻliga burdi, xalq ahvolini yanada ogʻirlashuviga sabab boʻldi. Misr, Fransiya, Braziliya, AQShga ommaviy emigratsiya boshlandi. Amerikada, qisman Nyu-Yorkda arab muhojirlarining kattagina koloniyalari vujudga keldi, u yerda oʻziga xos siyosiy va madaniy hayot tashkil topdi, turli xayriya va adabiy jamiyatlar paydo boʻldi, koʻp sonli arabcha, inglizcha gazeta va jurnallar chop etildi. Bu yerda ular vatandagidan arzonga tushar, poligrafik sifati yuqori boʻlar, eng muhimi - senzura yoʻq edi. Oʻziga xos «Suriya-Amerika adabiy maktabi»ning yuzaga kelishi uchun qulay sharoit tugʻildi. Amerikadagi barcha adiblar Jubron Xalil Jubron boshchiligidagi «Ar-Rabitu al-qalamiya» («Qalam uyushmasi») adabiy toʻgaragi va Abdulmasih al Haddod muharrir boʻlgan «as-Soyih» («Sayyoh») jurnali atrofiga uyushdilar.

Jubron Xalil Jubron, Amin ar-Rayhoniyy, Mixail Nuayme, Abu Madiy, Nasib Arida, Nodira Haddad, Abdulmasih al Haddod, Rashid Ayyub, Amin Mushrok va boshqalar ana shu guruh aʼzolari edilar. Ulardan uchitasi M. Nuayme, N. Arida, A. Haddod Falastindagi rus maktabida taʼlim olganlar. Ularning qarashlari maʼlum darajada rus adabiyoti taʼsirida shakllangan edi.

Amerikadagi oʻziga xos adabiy maktabni birinchi avlod arab muhojirlari emas, uch madaniyat-Amerika, Yevropa va arab madaniyatlari taʼsirida shakllangan ikkinchi avlod yaratdi. Muhojirlarda sokin arab qishloqlari bilan ular tushib qolgan yangi muhit-ulkan Amerika shahari oʻrtasidagi ziddiyatni alam bilan his etish tuygʻulari tarbiyalagan edi. Gʻarbdagi hayotni idrok etishdagi ziddiyatlar kundan-kunga kattalashishi ularda Amerikaning nooshno voqeligiga, «quturgan poyga»ga boʻlgan nafratni chuqurlashtirdi, lekin yuksak maʼrifiy ideallarga hurmat saqlandi. Agarda koʻpincha Gʻarb arab Sharqidagi maʼrifatparvarlarga zamonaviy demokratiyaning timsoli boʻlib tuyulgan boʻlsa, «suriya-amerikaliklar» bu demokratiyaning haqiqiy basharasini amalda kuzatgan va qabul qilmagan edilar.

Ayni chogʻda vatandagi hayot ham, ularni qanchalik oʻziga tortmasin, qoniqtirmasdi. Ular hayot turgʻunligi, qoloqligi, jaholatni nozik his etdilar, Suriyani qiynayotgan siyosiy, ijtimoiy, diniy ziddiyatlarni koʻrdilar. Gʻarbu Sharq oʻrtasida sarson boʻlish, toʻlgʻanish mavjud voqelikni inkor etish muhojir yosh adiblarda romantik isyonni yuzaga keltirdi, ular maʼnaviy qashshoqlikka qarama-qarshi turuvchi panohni tabiatdan, oʻz ichki olamlaridan axtardilar, xuddi Gʻarbdagi salaflari singari ijtimoiy utopiyalar, inqilobiy burchlar toʻgʻrisida orzu qildilar. Ayni chogʻda ular arab maʼrifatparvarlik asrining farzandlari sifatida oʻz xalqining gʻam va anduhlariga beparvo boʻlmadilar, xayoliy haqiqatni izlash yoʻlida targʻibotchilikni afzal bildilar, jamiyat va insonni takomillashtirish mumkinligiga ishonidilar, yaxshilik va adolat gʻoyalarini yoyishni oʻzlarining muqaddas burchlari deb bildilar.

⁶ Хориж шарқшунослигида шаклланган “сиро-американская литературная школа” атамаси ўзбек тилига “Сурия-Америка адабий мактаби” шаклида ўғирилди. Шарқшунос мутахассисларга маълум ва равшан бўлган мазкур атаманинг асл моҳиятини ўқувчилар ушбу бўлим мазмунидан илғаб оладилар, деган умиддамиз (Тарж.).

Ular hayotdagi qoloqlik, zerikarli bir xillikka qarshi isyon ko'tardilar, adabiyotda esa fikr va ijod erkinligini e'lon qildilar, yangi mavzu va shakllarga murojaat etdilar, kuchli xarakterlar, teran tuyg'ularni aks ettirdilar.

Jubron Xalil Jubron (1883-1931) ijodining asosiy bosqichlari. Jubron Xalil Jubron hozirgacha zamonaviy arab adabiyotining eng yirik va o'ziga xos siymosi bo'lib qolmoqda, adib asarlarining qayta nashr etilishi ham bundan dalolat berib turibdi. U 1883 yilning dekabrda Livanda, Bayrut yaqinidagi Bsherri qishlog'ida tavallud topdi. Livanda o'rta tibbiyot ta'limini oldi. Yevropa bo'ylab ko'p sayohatlar qildi, G'arb madaniyatini o'rgandi. Birinchi jahon urushi boshlanishidan sal oldinroq Nyu-Yorkka ko'chib borib o'rtnashib qoldi.

Ko'p qirraligi, Sharq va G'arbgga xos xususiyatlarining uzviy birligi, ularning o'zaro ta'siri, asarlarning g'oyaviy mazmuni, janr va shakl jihatidan rang-baranligi, shuningdek, zullisonaynlik (arab va ingliz) Jubron Xalil Jubron ijodining o'ziga xos xususiyatlaridir.

Yozuvchi ijodini turlicha davrlashtiradilar. Ba'zi arab tadqiqotchilari uning ijodini uch davrga bo'ladilar:

- 1) voqelik hodisalarini tasvirlash va ularga qarshi norozilik izhor etish.
- 2) norozilikdan voz kechish.
- 3) utopiya-xayolot olamidan boshpana izlash.

Adabiy tanqidchi va Jubronning safdoshi M. Nuayme asarlari tili xususiyatidan kelib chiqib yozuvchi ijodini ikki davrga bo'ladi:

1. Arab davri (1905-1918). Ana shu yillar mobaynida Jubron «Musika» (1905) «Yaylovlar qallig'i» (1906), «Isyonkor qalblar» (1908), «Singan qanotlar» (1912), «Ko'z yoshlari va tabassum» (1903-1908), «Bo'ron» (1914-1918), «Bosqin» (1919) kabi asarlarini yozdi.

2. Ingliz davri. Bu davrda «Devona» (1918), «Rivoyat» (1920), «Payg'ambar» (1928), «Yer xudolari», «Payg'ambar bog'i» (vafotidan keyin 1932 yilda chop etilgan) asarlari yaratildi.

Jubron arab adabiyotidagi romantizmning asoschisidir. Adib yorqin tasavvur va boy hissiy idrok sohibi edi. Yuksak ideal va voqelik o'rtasidagi hal qilib bo'lmaydigan fojiona ziddiyatni anglash hayotga romantik qarash asosini belgilaydi. Yozuvchi o'z ideallarining mavjud muhitda amalga oshmasligini chuqur his etadi. Romantizmga xos bo'lgan shaxs va jamiyatni qarama-qarshi qo'yish, shaxsning ma'naviy va hissiy dunyosiga qiziqishni shu bilan izohlash mumkin.

«Adabiy an'analar, aloqalarning turli xalqlarda turlicha bo'lishi romantizmning o'ziga xosligini belgilaydi. Kapitalistik turmush tarziga qarshi chiqqan arab romantiklari, ko'p hollarda ma'rifatparvarlik g'oyalari, ideallaridan voz kechmagan, undan ixlosi qaytmagan. Ular o'z vatanlarida ham, xorijda ham ularning talablariga javob bermaydigan voqelikka, faqat burjua tartiblari va urf-odatlarigina emas, balki feodal qoloqligiga qarshi ham isyon ko'taradilar.»⁷

Arab romantik adiblarining butun ijodi ana shu qo'shaloq ziddiyatdan xoli emas. Romantizmning ilk nihollari yangi arab adabiyotining birinchi farzandi-publisistikada ko'zga chalindi (A. Ishoq, M. Komil, al-Manfalutiy) va boshqalar.

Arab nasri tarixidagi romantik davr yorqin va sermahsul bo'ldi. Eskirgan an'analarga barham berish, adabiyotni hayot bilan yaqinlashtirish, mumtoz uslublarni yangilash, arab adabiy tilining go'zalligi, jozibasini saqlash baxti ham romantiklarga nasib etdi.

Jubron Xalil Jubron avvalo san'atkor. U o'z iste'dodini faqat adabiyotda emas, tasviriy san'atda, grafikada ham sinab ko'rdi. Musiqiy san'at ham uning qalbiga yaqin edi.

O'z adabiy faoliyatini u musiqa haqidagi risola bilan boshladi. Muallif chinakam romantik sifatida musiqaning she'riyat va tasviriy san'at bilan qondosh ekanini e'lon qildi. Shuningdek, u musiqaning qudrati va universalligini, «qalb tili» ekani, «ruh va sevgi qizi», alam va lazzat, ehtiros tomiri, inson qalbi orzulari, g'am-anduh mevasi, quvonch guli, inson tuyg'ularidan yig'ilgan guldastaning muattar xidi ekanini e'tirof etdi.

⁷ Арабская романтическая проза XIX-XX вв., М., 1981, С. 7.

Jubronning ilk asarlari hikoyalar, mansur she'rlar, «Singan qanotlar» qissasi sentimental ohanglar bilan yo'g'rilgan. Ulardan tabiatga sohib yuborilgan go'zallik va muhabbat ohanglari yangrab turadi, xo'rlangan va haqoratlanganlar tufayli mung taralib turadi.

Bunday asarlarda ochiq inson, uning fikr va o'ylari muallif diqqati markazida turadi. Emotsionallik, romantik ko'tarinkilik, diniy va maishiy zulm, qoloq an'analarga qarshi isyon ruhi hukmrondir. Asr boshlaridagi arab jamiyati hayoti bilan bog'liq keskin masalalarni ko'tarib chiqish yozuvchidan grajdanlik va insoniy jasoratni talab etardi.

U muxoliflari tomonidan axloq me'yorlarini buzishda, anarxizm va dindan qaytishda ayblandi.

«Yaylovlar kelini» to'plamidagi «Marta al-Bayniya» hikoyasiga yosh dehqon qizining fojiali taqdiri asos qilib olingan. Marta mahalliy boyning qurboni bo'ladi, malomatdan cho'chib qishloqqa qaytmaydi, shaharga ketib fohishalik qiladi. «Yuhann al-majnun» hikoyasi esa, ruhoniylarning ikkiyuzlamaligi, munofiqligini fosh etadi.

Jubron xalqi zulm va zo'ravonlikdan xoli yangi hayotga yetishishga ishonardi. «Kofir Xalil» qissasidagi qahramon Yuhanno obrazining davomidir. Go'dakligidayoq monastirga olingan yetimcha Xalil ma'naviy otalar (ruhoniylar) dehqonlarni xonavayron qilib, o'zlariga ishlatayotganini asta-sekin tushuna boshlaydi. Mazkur qissada qishloq boylari va ruhoniylariga qarshi dehqonlar noroziligi ko'rsatiladi.

Suriya-Amerika romantiklari dahshatli g'ayri ma'naviy dunyoga o'z qalblarining fikr va hissiyotiga to'la jonli olamini qarama-qarshi qo'ydilar. Ular ijodining lirik yo'nalishi arab adabiyoti uchun yangi janr- mansur she'rni yuzaga chiqardi.

Jubron uchun yagona haqiqat, yagona hayotiy ma'no-muhabbat va go'zallik. Adib unga qandaydir sanamga sajda qilgandek sig'inadi, uning uchun sevgi qo'shig'i, bandalarga emas, xudoga nasib etgan sehrli kuydir. U sevgi xaqida so'zlaydi, uning mansur she'rlarida «Yur, sevgilim balandiliklar bo'ylab yuramiz» degan injilona ohanglar eshitiladi. Jubron burjua dunyosiga utopiya ruhidagi kelajak saltanatini qarshi qo'yadi («Kelajakka nigoh»). Bu go'zallik, uyg'unlik, umumiy tenglik saltanati bo'ladi. Ammo ushbu go'zal dunyo faqat orzu bo'lib, shoir unga erishishning aniq yo'llarini bilmasdi. Shuning uchun ham Jubronning barcha mansur she'rlari ma'yuslik ruhi bilan sug'orilgan. Jubron va ar-Rayhoni tabiatning arab adabiyotida misli ko'rilmagan yorqin, jonli manzaralarini yaratdilar. Ularda goh badiiy uyg'unlik, goh bo'ron, tug'yonlar bilan yo'g'rilgan qalb holatlari hukmron bo'ladi.

«Singan qanotlar» qissasi ham (1912, Nyu-York) muhabbat haqida. Ushbu avtobiografik asarda Jubron arab ayolining dilkash obrazini yaratdi. Selma-boy xonadonning yolg'iz qizi. Do'stlik ramzi sifatida ota qizini Jubron bilan tanishtiradi. Yoshlar bir-birlarini sevib qoladilar. Lekin mahalliy ruhoniylar rahnamosi Selma boy meros egasi bo'lgani uchun uni o'z jiyaniga olib bermoqchi. Bir necha yil turmush qurgandan so'ng Selma vafot etadi. Selma obrazi vafo va burchga sadoqat timsoli sifatida bizga Pushkinning Tatyanasini eslatadi.

«Al-Xannalik Varda», «Kelin to'shagi» hikoyalarida ham Jubron ayolning sevgi va ozodlikka bo'lgan huquqini himoya qiladi. Birinchi hikoya qahramoni eri bilan bir necha yil turmush qurgach, boyliklardan voz kechib, ketib qoladi. Ikkinchisida esa, o'z tuyg'ulari uchun kurashgan ayol sevgan odami bilan qochishga urinadi. Ammo yigit qo'rqqoq, ju'ratsiz bo'lgani uchun uni o'ldiradi. Yozuvchi mazkur asarlarida tuyg'ular erkinligini kuylaydi, sharq qonunlarini, zamirida manfaat yotgan nikohni qoralaydi.

Jubronning falsafiy qarashlari «Yurish» she'riy turkumida (1918) o'z ifodasini topdi. Ularda qachonlardir boshqa dunyolarda baxt, ozodlik va abadiy hayot izlab adashib yurgan imkoniyat majoziy obrazlar orqali tasvirlangan. «Yurish»da ikki ovoz bir-biri bilan almashib turadi: Birinchi ovoz tarki dunyo qilgan zohidniki, u-shoir qarashlari ifodachisi. Unda yovuzlik va nuqsonlarga to'la hayot la'natlanadi. Boshqa ovoz g'amu anduh, kurashlardan xoli tabiat go'zalligini ulug'laydi.

Jubron «Bo'ron» kitobiga kirgan «Sulban» ocherkida san'atning burjua jamiyatidagi o'rni to'g'risida fikr yuritadi. Sulban boy odamlar oldida qo'shiq aytishdan voz kechadi, chunki ular xonanda va mashshoqlarga tahqir nazari bilan qaraydilar. U do'sti bilan musiqa qadrini

biladigan kambag'al xonadoniga boradi, u yerda qo'shiq aytadi. Asarda san'at ta'madan xoli bo'lib, u barchaga xizmat qilishi lozim, degan g'oya ilgari suriladi.

Jubronning olis vataniga munosabati ziddiyatli. Gohida u chirigan an'analarga yopishib olgan, qullik, zabunlikka ko'nikkan vatandoshlarini «tubida ilonlar o'rmalab yurgan iflos botqoqqa» qiyoslab ularga o'z g'azabini sochadi («Onamning o'g'lonlari!»), gohida esa ularning ayanchli taqdiriga qayg'uradi, «bug'doy boshog'iga aylanib qolib» jonajon Livan yerlarida o'sib, ochlarni o'limdan qutqazishni xohlaydi. Jubronning adib sifatida shakllanishi uzoq va murakkab kechdi. G'arb mutafakkirlaridan Russo, Nisshe, ingliz shoirlari Bleyk, Koldridj unga ta'sir ko'rsatadilar. Asarlardagi mavhum va xira ramziylik, fantastiklik, majoz shundan bo'lsa ajab emas.

Ozodlik to'g'risidagi anarxistik tasavvurlar, tabiat va tuyg'ular tiliga murojaat qilish, shaxsning mahv qilinishiga norozilik va individuallikka sig'inish, davlatning zulmiga murossasizlik-dunyoqarashga oid bunday tamoyillar Jubron kayfiyatiga yaqin bo'lib, uning asarlariga ham ko'chgan edi.

Nisshe falsafasi ayniqsa Jubronga qattiq ta'sir qildi. Adib isyoni nisshesimon tus ola boshladi. Shoir insondan yuqori shaxs, u borliq va yo'qlik sirlarini egallagan, gung va ojiz, «o'lik tug'ilgan» olomonga qarshi, undan nafratlanadi, uning ustidan kuladi, yolg'iz ulug'vordir. Jubron nazarida «ozodlik o'g'lonlari» bu - Iso («Hajda halok bo'lgan») va Nisshe («Aqldan ozib o'lgan»), uchinchi hali tug'ilmagan. O'zini ozodlikning ana shu uchinchi o'g'loni demasa ham, har holda uning muboshiri, darakchisi deb o'ylaydi. Adibning to'plamlaridan biri bejiz «Muboshir» deb atalmagan.

Jubron o'z ijodining ikkinchi bosqichida ma'lum darajada romantik xususiyatni saqlagan bo'lsa ham, hayotni aks ettirishga yangicha, faolroq, uni chuqurroq anglab yondoshdi. Adib dunyoqarashidagi o'zgarishni o'ziga xos, lirik shaklda ifodaladi: «Orzuxayollar vodiysida yashagan yosh yigitning ruhi qat'iylik va kuchni qadriga yetadigan erkakning vujudida o'z ifodasini topdi».

Mansur she'r janri adib ijodining bu davri uchun yetakchi o'rin tutdi. Ammo ko'hna mavzularni yoritish uslubi o'zgardi. Sentimental qahramon o'rniga yangi personaj - qudratli, yakka-yolg'iz inson kirib keldi. U taqdir bilan bo'lgan faol kurashda taqdirni o'ziga bo'ysindiradi.

Faqat arablargagina emas, balki butun dunyoga «ozodlik o'g'loni» paydo bo'lishi haqida xabar berishni o'zining burchi deb bilgan Jubron ingliz tilida ijod qilishga o'tdi, bir necha mansur she'r va aforizmlardan iborat to'plamlar chiqarib, Amerika jamiyati diqqatini o'ziga jalb qildi.

Arab davrida yaratilgan asarlar nafaqat uning ingliz tiliga o'tishiga tayyorgarligi jarayoni, balki yozuvchining ingliz tilida yaratgan asosiy mavzularning yuzaga kelishi va boshlang'ich paytlarini kuzatish imkonini ham beradi. So'z «Payg'ambar» mavzusi, muallifning shaxsiy ijodiy qobiliyati imkon berganicha ma'anaviy murabbiylikka intilish haqida borayapti.

Shoir mavzusi, uning yuksak hayotiy burchi romantizm uchun eng muhim mavzulardan biridir. Romantiklar shoir siymosida bashoratchi va risolatni ko'radilar. Ular shoir va bashoratchi ilgari bir bo'lgan, keyinroq vaqt ularni ikkiga ajratgan, ammo xaqiqiy shoir hamisha bashoratchi, shuningdek, chinakam bashoratchi shoir bo'lib qolavergan, deb ta'kidlaganlar.

Ilk bor shoir va payg'ambar, «ilohiylikni ko'rishga odamlarni o'rgatish uchun xudolar tomonidan pastga tushirilgan shoh» mavzusi Jubronning «Shoir» deb atalmish she'rida qalamga olindi («Ko'z yoshi va tabassum» to'plami). Xuddi shu asarda qahramonning yolg'izligi, uning bilim va donoligi odamlarga kerak emasligi, uni g'am-alamlar va mustabidlardan o'limgina xalos etishi motivlari ifodalangan.

So'ngroq qahramon obrazi, ma'lum darajada, F. Nisshe g'oyalari ta'sirida o'zgardi. «Bo'ronlar» to'plamidagi hikoya qahramoni Yusuf Faxari shoir va muxlis, kuchli va mag'rur

inson, ongli ravishda yolg'izlikni tanlaydi, uningcha faqat yolg'izlik insonlarda ruh va fikr uyg'otishga qodir.

1918 yilda ingliz tilida Jubronning «Telba» asari bosilib chiqadi. Unda ham shoir yolg'izligi mavzusi hukmron, muallif shoirni yolg'iz bo'lish ozodligiga erishgan telba deb ataydi.

Ana shunday yo'l bilan Jubron asosiy asari «Payg'ambar»ga yetib keladi. Unda yozuvchi insoniyatning «abadiy muammolari» xaqida o'z fikr va qarashlarini bayon etadi.

Arabchadan voz kechib inglizchaga o'tish Jubron uchun faqat to'siqlarni yengib, G'arb kitobxonini Sharq ta'limotlari bilan tanishtirishda payg'ambar ustoz sifatida yetilganini bildirmas edi. Bu hol adib evolyusiyasidagi, o'z vazifasining universalligini tushunishdagi yangi bosqich edi. Diqqatga sazovor narsa shundaki, G'arb va Sharq romantik adabiyoti vakillari ijodida mavzu hamohangligi seziladi.

Ma'lumki, Amerika transsensualistlari (Toro, Emerson) ijodi uchun «sharq donoligi» romantik utopiya manbai bo'lib, romantiklar uni burjua Amerikasining merkantilizmga qarama-qarshi qo'ydilar. Ularning asarlari bilan yaxshi tanish bo'lgan Jubron bu mavzuga murojaat etdi, uni chuqur falsafiy mazmun bilan boyitdi.

Mavhum obrazlar yuzaga kelishi Jubron ijodi ingliz davrining xarakterli xususiyatlaridandir. Ularda ramziylik dastlabki asarlar simvolikasidan sifat jihatidan ajralib turadi. («Ko'z yoshi va tabassum», «Zamin xudolari»). An'analarga qarshi bosh ko'targan isyonkorning hayajoni, jangovarligi keyingi asarlarida «yaxshilik va yomonlikdan yuqori turgan» faylasufning donishmandligi va bosiqiligi bilan almashdi.

Jubron Nisshe g'oyalaridan butunlay voz kechadi. Adib qahramoni o'qituvchi, murabbiy sifatida odamlarni ezgulik, go'zallik va adolat g'oyalariga amal qilishga chorlaydi, u «tun qorong'uligi zamirida yangi tong yashirinib» yotadi, deb o'rgatadi. Yozuvchining odamlarga munosabati o'zgaradi. Ularga nisbatan oldingi nafrat muhabbat va hayrixohlik bilan almashadi.

Mustafo payg'ambar («Payg'ambar») odamlarni yangi, panteistik jamiyatga xos urf-odatlarga zid bo'lgan, odamlarni hayotining umidbaxsh sirlariga yaqinlashtiruvchi dinga jalb etish uchun ular huzuriga chiqadi. Uning va'zlari inson hayotining barcha ma'naviy va moddiy tomonlarini, hamma axloqiy kategoriyalarni qamrab oladi. Ana shu va'zda Jubronning ideali aniq namoyon bo'ladi - u mehnat va mulohazalarga to'la, an'ana va qonunlar kishanlaridan xoli hayotni ulug'laydi. Ammo bu hamma narsaga ruxsat beriladi, degani emas. Ruh va tananing faol harakat uchun ozodligi, aql va ehtirolar uyg'unligi yaxshilikning hayotda amalga oshirishidir.

Dunyodagi uyg'unlikni izlash, jamiyatga isyon, kambag'allarga hamdardlik va «olomon»ga nafrat bildirish orqali Jubron ulug'vor insonga madhiya o'qiydi, unda mangu yolg'inli ruh, odamlarga o'z qalblari sirini o'rgatadigan muhabbat bor. Jubron uchun go'zallik faqat tabiatda emas, unga ozod inson ham mansub, chunki «go'zallik o'z muqaddas qiyofasidan niqobni ko'taruvchi hayotdir. Ammo hayot-siz, niqob ham - siz».

Amin ar-Rayhoni (1876-1940).

Amin ar-Rayhoni haqida arab va noarab munaqqidlar nimalarni yozmadilar. «Ar-Rayhoniyni har bir sahifasi zararli va xavotirli fikrlar, nobud etuvchi inqilobiy g'oyalardir». «Bu al-Fureyqa vodiysi faylasufi. Bu yangi payg'ambar», «u gapga chechan yozuvchi, vaysaqi». «U ozodlik tarafdori, har qanday zulmning ayovsiz dushmani».

Amin ar-Rayhoni kim o'zi?

Rus kitobxonini ar-Rayhoni asarlari bilan tanishtirgan mashhur arabshunos I.Yu. Krachkovskiy uni yangi arab adabiyotidagi Suriya-Amerika maktabining yetakchilaridan biri, deb ataydi.

Ar-Rayhoni 1876 yil 24 noyabrda o'rta hol maronit oilasida dunyoga keldi. Ularning Bayrutdan shimolroqdagi al-Fureyqa tog'i vodiysida ozroq yeri bo'lgan. 12 yoshida u amakisi bilan birga Qo'shma Shtatlarga boradi. Oilaning savdo-sotiq ishlari uni qiziqtirmasdi. U najot yo'lini kitoblardan qidirardi. Hugo, Volter, Russo, Bayron,

Shekspirlarni ingliz tilida o'qidi. Shekspir teatri shu qadar uni rom etdiki, 17 yoshida shtatma-shtat kechib yurgan sayyor truppga kirdi. Ularda ko'pincha Shekspir pesalaridagi masxarabozlar rolini o'ynadi. 1897 yilda Kolumbiya universitetining huquqshunoslik fakultetiga o'qishga kirdi. Lekin bir yildan so'ng uni tark etdi va mustaqil o'qishini davom ettirdi.

Ar-Rayhoniyy vaqti-vaqti bilan Livanga kelib turarkan, ma'lumotidagi yetishmovchiliklarni to'ldirishga harakat qilar, arab tili va adabiyotini qunt bilan o'rganardi.

Uni, ayniqsa, suriyalik ko'zi ojiz faylasuf-shoir, hurfikrli mutafakkir Abul A'lo al-Ma'riy hayratga soldi. Nyu-Yorkka qaytgach, u al-Ma'riy she'rlarini ingliz tiliga tarjima qildi.

Arab madaniyati bilan qanchalik qiziqmasin, ar-Rayhoniyy vatanidagi hayotni ideallashtirmadi. 1900 yil 9 fevralda Nyu-Yorkdagi maronit jamiyati tashkil bo'lganiga bir yil to'lishi munosabati bilan arab tilidagi nutqi bunga dalil bo'la oladi. Shu nutqida u arablar birligi yo'lida diniy murosaga, sabr-toqatga chaqirdi va Livanda hukmron bo'lgan dinlararo dushmanlikni keskin qoraladi. Uning fikricha, dushmanlik va cherkov peshvolariga ko'r-ko'rona bo'ysinish mamlakat qoloqligining sababchisidir. Ana shu nutqdan keyin «Hayvonlar olamida uch tomonlama kelishuv» (1903) pamfleti yuzaga keldi. Kitob qahramonlari inson tili bilan so'zlashuvchi hayvonlar. («Kalila va Dimna»ga taqlid). Ot hayvonlarni bug' poezd va avtomobilga qarshi chora ko'rish uchun otxonaga majlisga yig'adi, go'yo ular hayvonlar xokimiyatini barbod qilayotgan emishlar. Muallif fikri bayonchisi bo'lgan tulki hayvonlarni taraqqiyotga to'sqinlik qilishda ayblaydi. Hayvonlar uni sudga beradilar. So'ng adolat timsoli-she'r paydo bo'ladi. Ot, eshak, xachir o'zlariga shafqatli bo'lishni so'rab so'zlaydilar. Sher kechiradi, ammo ular baribir taraqqiyot timsoli poezd g'ildiraklari ostida halok bo'ladilar.

«Mana shu jajji kitobcha Suriya va ba'zi Amerika yoshlari ongida chinakam inqilob qildiki, aytishlaricha, xatto Emil Zolyaning o'zi ham kitoblarida ar-Rayhoniyyning «Uch tomonlama kelishuv»idagidek shafqatsiz bo'lmagan,⁸ deb yozadi Nyu-York gazetalaridan biri.

1904 yilda Rayhoniyy «Xachirbon va Ruhoniyy» qissasini nashr etdi. Unda nasoro ruhoniylarining ochko'zligi va xasisligi tanqid qilinadi. Rayhoniyyning ilk asarlari 1910 yilda «Rayhoniyyat» nomi bilan chop qilindi. Ular to'rtta (1910-1928): she'rlar va nasr, esse, hikmatli so'zlar, mashhur 2-jildlik Arab yarim oroli mamlakatlari va Mesopotamiyaga qilingan sayohatlar bayoni, bir qancha roman, arab mamlakatlariga bag'ishlangan tarixiy va geografik asarlar. Bu to'plamlarni I. Yu. Krachkovskiy «Bu yozuvchining barcha izlanish va dardlarining yorqin kundaligi» deb atagan edi.

Amin ar-Rayhoniyy munaqqidlari ikki guruhga bo'linadi: konservativ guruh uni G'arbning tashlandig'i deb, turli malomatlarni unga ag'darishdi; inqilobiy doiralar esa, adibni o'z faylasufi hisoblashardi. Uzoq yillar G'arbda yashagan adib, g'arbcha turmush tarzi va ijtimoiy tuzumdan ixlosi qaytgan edi. «Nyu-York» mansur she'rida u kapitalizmga turli ayblar qo'yadi. «Ex, Nyu-York, sen zaminning boyliklarini yig'ding, sening saroylaringda javohirlar, oltin, qimmatbaho taqinchoqlar mo'l. Qorong'u kulbalarida esa qashshoqlik, ochlik va nolalar».⁹

«Shunday kunda qashqir ham yoqimtoy» hikoyasida Rayhoniyy ishsizning oilasida ochlik va shamollashdan go'dak vafot etgani tasvirini beradi. G'arb sivilizatsiyasidan hafsalasi pir bo'lgan Rayhoniyy ona yurti Livanga qaytdi. Bu yerda ham adib chuqur hayotiy ziddiyatlarga duch keldi. Mamlakatda xorijiy kapital, turk poshsholari hukmron, bir vaqtlar iste'dodli, badavlat bo'lgan xalq iztirob va ochlikdan azob chekardi («Bayrut tasviri»). «Bayrut-mis gardishidagi Sharq durdonasi, balchiqdagi dur bo'lib, uning tepasida elektr shovqin soladi, » - deb alam bilan yozadi adib ona shahri haqida.

Amin ar-Rayhoniyy dunyoni o'zgartirish yo'lini avvalo shaxsning o'z-o'zini takomillashtirishida va xalqni ma'rifatli qilishda, «to'g'ri tarbiya va haqiqiy ta'limda» deb bildi.

⁸ Современная арабская проза. М., 1961, стр. 3

⁹ Ўша китоб, ўша бет

Ammo endi uning sevimli shiori «shaxs takomilida-jamiat takomili, jamiat takomili esa - hokimiyat takomili» ham yozuvchi uchun yetarli emasdek tuyuldi. Endi uni zulmga qarshi isyon, ijtimoiy inqilob fikri band etgan edi.

1917 yilgi Rossiya inqilobi haqidagi xabarni ar-Rayhoniylar katta qiziqish va hayrihohlik bilan qabul etdi. Unda «tozalovchi boʻron»ni koʻrdi, vaholanki proletariat diktaturasi uning mutloq tenglik va ozodlik haqidagi ideallariga zid edi.

U bolsheviklar tinch inqilob, maʼrifat va islohatlar yoʻlidan boradilar, ularning noyob tajribalari muvaffaqiyatli yakunlanadi, mutlaqo yangi jamiat quriladi, deb oʻyladi.

Rayhoniylar ijodida ikki qissa alohida oʻrin tutadi: «Girdob binafshasi» (1910) va «Haramdan tashqarida» (1917) qissalari xuddi Jubronning «Singan qanotlar»i singari Sharqda ayol ahvoli mavzusi bilan bogʻlanib ketadi.

Arab romantiklari maʼrifatparvarlardan feodal anʼanalariga qarshi kurashning muhim qirralaridan biri-ayol ozodligi uchun kurash estafetasini qabul qilib oldilar. «Haramdan tashqarida» romani voqealari Turkiyada birinchi jahon urushi yillarida sodir boʻladi. Jahon yuqori lavozimli turk zobiti Rizo poshshoning qizi. U turmushga chiqadi, lekin koʻp oʻtmay eri uyga ikkinchi xotinini olib keladi, bu Jahonga ogʻir haqorat boʻlib tuyuladi, u erining xonadonidan ketadi. Jahon qolgan umrini musulmon ayollarining oila va jamiyatdagi huquqlari uchun kurashga bagʻishlaydi. Harbiy gospitalda shafqat hamshirasi boʻlib ishlaydi, oʻsha yerda nemis generali Fon Villenshteynni uchratadi. Chuqur eʼtiqodli musulmon Jahon generalning sevgisini rad qilmaydi, u bilan birga yashashga rozi boʻladi.

Jahon chinakam romantik obraz. U anʼanalarga qarshi bosh koʻtargan, yuksak maqsadlarga intiluvchi, ehtirosli (uning shiori - qasos yoki oʻlim), magʻrur tabiatli ayol. Jahonda maʼrifatparvarlik romanlarida uchramaydigan xususiyatlar mavjud. Uning qalbi alamli ziddiyatlarga toʻla.

Rayhoniylar qahramoni oʻzi kabi fojiali, yolgʻiz, u sharq dunyosida ham, Gʻarb dunyosida ham oʻzini begona his etadi. Hatto oʻzining aziz otasi, keksa poshsho bilan ham umumiy til topisha olmaydi, sevgan insoni-nemis generali ham dushmanga aylanadi.

Jahon ozodlikka sanamga sigʻingandek sigʻinardi, ozodlik u intilayotgan muqaddas maqsad edi. Jahon oiladagi sof ayollik huquqlarini himoya qilish bilan cheklanmasdan, oʻzini ozod shaxs sifatidagi mavqeini ham himoya qilar edi.

Qissa faqat feministik maʼnoga ega emas. Jahon taqdirida anʼana tarafdorlari va taraqqiyparvarlar, Sharq va Gʻarb, insoniylik va Nisshega xos beqaydlik bir-biri bilan chatishib ketgan. Nisshechilikning asl qiyofasini ochib berish, uning taʼsirini susaytirish arab dunyosi uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Nisshe taʼlimoti XX asr boshlarida arab adiblari va siyosiy arboblari hayotda oʻzligini tanishga, faollikka, irodali boʻlishga chaqirgani bilan oʻziga jalb etdi. Odatda, bu chaqiriq ularda maʼrifat va mustaqillik uchun kurash bilan bogʻlanib ketardi. Ar-Rayhoniylar ham qoloqlik va sustkashlikka qarshi boʻlib, nisshechilikning gʻayriinsoniy mohiyatiga tushuna oldi va unga ochiq qarshi chiqdi.

Bu asarning umumiy romantik mazmuniga realistlik unsurlarning singib ketgani yaqqol seziladi. Voqealar sodir boʻlgan joy (Istanbul), vaqt (birinchi jahon urushining ilk davri) aniq koʻrsatilgan, Sharq uchun oʻta dolzarb voqealar oʻz aksini topgan. Ular axloqiy jihatdangina emas, siyosiy nuqtai nazardan ham badiiy tadqiq etilgan. Haqiqatga yaqinroq qilib tasvirlashga intilish shu bilan izohlanadiki, Jahon arab emas, turk. Oliy tabaqaga mansub turk ayollari koʻproq yevropalashgan va ularda erkinlik koʻproq edi. Shu davrda bironta musulmon arab ayoli Jahon mavqeiga koʻtarila olmasdi.

Qissaning uchinchi nashriga (1933) ar-Rayhoniylar bayonining romantik emotsional ohangini silliqlovchi oʻzgarishlar kiritadi, eng muhimi melodramatik yakunini oʻzgartirdi. Jahon qasos oladi, lekin halok boʻlmaydi. Istambuldan uzoq joyda, boshqa nom ostida kurashishni davom ettiradi, taraqqiyparvar gazetalar bilan hamkorlik qiladi, oʻzining oqbadan oʻgʻlini ozodlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalaydi.

1915 yilda ar-Rayhoniylar amerikalik jurnalist va rassom Berta Keys bilan topishadi, bir yildan soʻng unga uyulanadi. Er-xotin Meksika, Fransiya, Ispaniya boʻylab sayohat qiladilar. Andaluziyaga borganda ispanlarning arxitekturasini, urf-odati, milliy xarakterida uning qalbiga yaqin boʻlgan

g'arbiy-sharqiy umumiylik, o'xshashliklarni izlashga intiladi. 20- va 30-yillar arab mamlakatlariga sayohatlar va jo'shqin, tinimsiz ijodiy izlanishlar bilan kechadi. Uning arab Sharqiga, ona xalqi madaniyati sarchashmalariga sayohat xaqidagi orzulari asta-sekin idrok etilgan siyosiy mazmun bilan boyidi. Uning sayohatdan maqsadi arablarni o'zaro yaqinlashtirish, talab va harakatlarda hamkorlikni ta'minlash bo'lib, «Arab podshohlari», «Tog'lar va sahrolar Arabistoni» (1930), «Arab ibn Saudi» (1928) asarlarida o'z ifodasini topdi. 1935 yilda uning barhayotligidagi oxirgi asar -«Eron qalbi» kitobi chiqdi. Livan bo'ylab sayohatlari natijasini 1947 yilda, vafotidan so'ng bosilgan «Livan qalbi» kitobida ifodaladi.

Amin ar-Rayhoni 1940 yil 13 sentyabrda vafot etdi. Adibning merosi uning ukasi Albertga qoldi. U yozuvchi tug'ilgan qishloq al-Fureyqadagi adib uyida muzey tashkil qildi. O'sha yerda Rayhoni kutubxonasi, uning yozishmalari, arab hukmdorlarining tortiqlari saqlanadi.

Uning hayotiga oid asarlarda ar-Rayhoni shoir, romantik shoir sifatida emas, avvalo jamoat arbobi, arab mamlakatlari birligi, islohatlar va ma'rifat kurashchisi sifatida tasvirlanadi.

Adib zamondoshi bo'lgan yetuk arab yozuvchilari mumtoz uslubning ko'hna unsurlari - tashbih, mubolag'a, tajnis, qofiyani yangicha qo'llash tarafdori bo'lib chiqdilar. Ana shunday «yaxshi uslub»ni mukammal egallagan mashhur misr adibi, ar-Rayhoni tengdoshi Mustafo al-Manfalutiy (1876-1924)dir. Ar-Rayhoni esa, arab adabiy tilining barcha boyliklarini egallagan holda, unga erkin munosabatda bo'lar, jumalari mumtoz uslubiyat qoidalariga mos kelish-kelmasligi to'g'risida qayg'urmasdi. Tanqidchilarning sinchkovlik bilan qilgan e'tirozlariga ar-Rayhoni parvo qilmasdi- to'la ijod erkinligi adibning shiori edi. Uning nazarida hozirgi adabiyot foytunchilari ham nafratga loyiq, chunki ular «bilimlari foytunga hukumat narxnomasini osib olib, yo'lovchiga ma'qul bo'lgan tomonga qalamni suraverdilar («Adiblar»)). Hamma hurmat qiladigan o'rta asr arab adibi al-Mutanabbiy osiy, mustabid hukmdor o'ngida jilpanglaydigan va axlat orasida sudralib yuradigan iste'dod» deb ataydi («Al-Mutanabbiyning ikki she'ri»).

Ar-Rayhoni yozuvchilarni ikki toifaga bo'ladi: «Ularning bir toifasi odamlar uchun, boshqalari o'zi uchun yozadi» («Adiblar»).

Bir qaraganda, bu adabiyotning siyosatdan mutloq yiroqligini tan olish, real hayotdan chekinayotganlarni oqlashdek tuyuladi. Ammo ar-Rayhoni bu so'zlarga o'zgacha ma'no beradi. O'z-o'zini qoniqtirish vijdon buyurganini qilish, bu esa yozuvchi halol va fidoyilik bilan, hech kimga qaramasdan, haqiqatga fikr-o'y, so'z va ish bilan xizmat qilishini anglatadi («Ulug' shahar»). Shunday qilib, san'atkor ozodligi ar-Rayhoniya anarxistcha chegarasizlik bo'lmay, balki yuksak maqsadni ko'zlashdir.

Ar-Rayhoni yozuvchi burchiga munosabati «yig'loqi shoirlar»ni keskin qoralashida yaqqol namoyon bo'ladi. Yig'loqi she'riyat garchi samimiy bo'lsa-da, odamlarga zarracha naf keltirmaydi. Ana shu fikrni ar-Rayhoni «Shoirlarga nasihatlar» asarida rivojlantiradi.

Ar-Rayhoni asarlarida tabiat xamisha jonli tasvirlanadi, chunki uning panteistik tasavvurida tabiat tushunchasi hamisha xudo tushunchasi bilan bog'liq. Xudo, uning ta'rificha, «muhabbat va xaqiqat», «yashiringan borliq», «tabiat zamiridagi sir».

Ar-Rayhoni xudoga chinakam sig'inish diniy marosimlarni bajo keltirishda emas, tabiat qonunlari bo'yicha harakat qilishda, o'z qalbida Xudo nurini, vijdonda Xudo adolatini saqlashdir, hamisha, har joyda, har qanday sharoitda yolg'onga qarshi haqiqatni himoya qilishdir, deb o'rgatadi.

Ar-Rayhoni ydagi Xudo-tabiat haqidagi tasavvurlar, baxt tushunchasi bilan ham bog'liq. Baxt tabiat va uning qonunlari bilan to'la uyg'unlikda yashashdir,- deydi adib. «To'la uyg'unlikka har qanday ishga ijodiy yondoshgandagina erishish mumkin» («Baxt nima?», «Ekuvchilar uchun urug'lik»).

Hayot va dinni bunday tushinish L. N. Tolstoy ta'limotining ba'zi qoidalarini esga soladi. Ehtimol bu uning ta'siridir, chunki ar-Rayhoni uchun Tolstoy «ozodlik, birodarlik, muhabbat namunasi» edi («Tolstoy»).

Ar-Rayhoni ydagi diniy - falsafiy konsepsiya ancha barvaqt shakllandi. U «ar-Rayhoniya»ning I va II jildlaridagi asarlarda o'z aksini topdi. Bu konsepsiyaning amalga tatbiq etilishi ideal jamiyat g'oyasi va uni amalga oshirish yo'llari haqidagi fikrlar qisman evolyusiyani

boshdan kechirdi, chunki ar-Rayhoniylar aytganidek, «aqli odam haqiqat talab etsa, o'z e'tiqodini o'zgartirish yoki isloh qilishdan o'zini tiymaydi».

O'ta xaqqoniylik va samimiylikka intilgan ar-Rayhoniylar o'z ichki ziddiyatlarini yashirmaydi. Bu ayniqsa, ideal jamiyatni qurish yo'llari haqida so'z ketganda yaqqol seziladi. Ar-Rayhoniylar harakatning tinch yo'lini shaxs, jamiyat, hokimiyatni mukamallashtirish sxemasini tavsiya etdi. Ammo u bilibmi - bilmaymi, revolyusion to'ntarish imkoniyatini ham inkor etmaydi («Inqilob, ekstremizm»). Hatto inqilobni tabiatning ekstremal hodisalari zilzila, suv toshqini kabilar bilan solishtirib, uni insoniy adolatning ko'rinishi sifatida oqladi. Ayni paytda uning nazarida, ma'naviy inqilob, inson qalbidagi qo'zg'olon umumxalq qo'zg'olonidan oldin sodir bo'lishi lozim.

Ar-Rayhoniylar she'riyatda chinakam novator sifatida namoyon bo'ldi. Uning she'rlari arab sarbasti (verlibrini) yaratishdagi ilk urinishlar edi. U arab she'riyatiga yangi shakl - «ash-shi'r al-mansur» mansur she'rini kiritdi.

I. Yu. Krachkovskiy bu atamani «nasriy she'r» deb tarjima qildi, ularning I. Turgenevning nasriy she'rlari bilan muqoyasa qildi.

Ar-Rayhoniylar asarning ma'no yaxlitligini himoya qilib, qasidaning kompozitsion qurilishini inkor etadi. Uning fikricha qasida qurilishi shoirlarga shaxsning dunyo haqidagi mushohadalarini ifodalash imkonini bermaydi. U shoirlarni puch, so'zlar bezagidan iborat bo'lgan poetik tildan voz kechishga chaqiradi.

Ar-Rayhoniylar poetik ijodining ilk bosqichida jahon romantik adabiyotiga daxldor mavzularni ko'tarib chiqdi. Ozodlik ideali na G'arbda, na Sharqda amalga oshishi mumkin bo'lmagan shaxsning mutloq ozodligi sifatida talqin qilinadi. («Nyu-York», «Gado Navuxodonasor»), tabiat mavzusiga murojaat etib uni ilohiylashtiradi, buzuq jamiyatga va ikkiyuzlamachi rasmiy din vakillariga qarama-qarshi qo'yadi («Tabiat», «Shifo ber», «Vodiy ma'budasi», «Mening vodiydagi ibodatxonam»). Bu asarlarda tabiat inson xususiyatlarini kasb etadi, u mangu harakatda tasvirlanadi.

Romantik individualizmdan, umuman, voqelikka qarshi isyondan vatanni asoratga solishga qarshi norozilikka yuz o'girish ar-Rayhoniylarning XX asr 20-30 yillar she'riyatiga xos xususiyatdir. Shoirning diqqat markazida arablar taqdiri, Sharq qoloqligi tanqidi turadi.

Ar-Rayhoniylar Sharq va G'arb madaniy an'analari sintezi asosida arab uyg'onishi zarurati va mumkinligini e'lon qiladi («Arablar burguti», «Iroqning xudosi», «Misr»). Ar-Rayhoniylar endi jo'shqinlik, hissiyotlar tug'yonidan o'quvchini falsafiy mushohadaga undovchi vazmin bayon uslubiga o'tadi.

Ar-Rayhoniylarning obrazlar olami ikki manbadan-Qur'on va Amerika romantik shoiri Uolt Uitmeyn (1810-1892) she'riyatidan oziqlanadi. Uolt Uitmeyn ar-Rayhoniylar ruhiga eng yaqin shoir. U burjuacha yashash tarziga qarshi bosh ko'targan isyonkor, umuminsoniy birodarlik tarafdori, ingliz romantizmi taqlidchilari she'riyatining eskirib ketgan qonunlarini buzib tashlagan ijodkordir.

Shoir Qur'ondagi qiyomat syujetini eskilikning yemirilishi, yangilikning tug'ilishi sifatida talqin qiladi. («Samum», «Men-Sharqman»). Olloh to'g'risidagi syujetda ar-Rayhoniylar she'riyatida injil syujetlari – insonning o'limi va tirilishi, insonning chormixga tortilishi ham uchraydi. («Biz ikkimiz bu yerda begonamiz», «Mening vodiydagi ibodatxonam»).

Uitmeyndan shoir dinga yangicha munosabatni, fanga mehnini, uni optimistik idrok etishni, demokratiya tabiatini kuylashni qabul etdi. Avtoportret, astronomik obrazlar, industrial peyzaj, mifologiyaga qiziqishning kuchayishi Uitmeyn she'riy usullarining unga ko'rsatgan ta'siridan dalolat beradi. Sharq va G'arb an'alarining qo'shiluvi shoirning Uitmeyn she'riy texnikasiga borib taqaluvchi – saj' va sarbastga munosabatida yaqqol ko'rinadi. Aruzga xos badastir o'lchov ar-Rayhoniylarda uchramaydi.

O'z vaqtida ar-Rayhoniylar chuqur izzat va ehtiros bilan tilga olgan muammolar naqadar dolzarb ekanligini arab Sharqida sodir bo'layotgan bugungi voqealar yaqqol ko'rsatib turibdi. Soddadil, go'zal tuyg'uli idealist shoir xalqaro siyosat, sinfiy ziddiyatlarning nozikliklariga uncha tushunmagan «ma'naviy inqilob»ga ishonib adashgan ham bo'lsin, lekin uning ijodi haligacha o'z ahamiyati va qiymatini yo'qotgan emas. Mustaqillik va taraqqiyot uchun kurashayotgan arab fidoyilari uchun ar-Rayhoniylar ijodi ma'naviy quvvat va samimiylar maktabidir. Undagi falsafiy

teranlik shovinizm bilan zaharlanmagan jo'shqin vatanparvarni - haqiqatga sadoqatli kitobxon qalbini o'ziga tortadi.

Mixail Nuayme (1889-1988)

Mixail Nuayme 1889 yilning 22 noyabrida Biskinta qishlog'ida, kambag'al nasoro oilasida tug'ildi. Mixail va uning ikki akasi Biskintada Rus Imperatorining pravoslav Falastin jamiyati missionerlari ochgan boshlang'ich rus maktabida ta'lim oldilar. Besh yildan so'ng u Nazaretga, rus tili o'qituvchilari seminariysiga o'qishga yuborildi. Mashhur muhojir adiblar – Nasib Arida, I. Haddod, tarjimonlar – Salim Kobayn, Xalil Baydas, Antuan Ballan va boshqalar ana shu seminariydan yetishib chiqqan edilar. M. Nuayme seminariyda rus tilini puxta o'rgandi, rus mumtoz adabiyoti – L. Tolstoy, A. Dostoyevskiy ijodi bilan tanishdi. Uni 1906 yilda eng qobiliyatli o'quvchilar qatorida Rossiyaga, Poltava diniy seminariyasiga yubordilar. «Seminariyada men yana rus adabiyotiga sho'ng'idim. Mening nigohimda yangi, ajoyibotlarga to'la dunyo paydo bo'ldi. Men chanqoqlik bilan o'qidim»¹⁰ deb yozgan edi Nuayme I. Yu. Krachkovskiyga yo'llangan «Hasbi xol»ida. Seminariyada u adabiy to'garakka qatnashadi, rus tilida she'r yozishni mashq qiladi.

Rus adabiyoti M. Nuaymega vatanida hukmron bo'lgan qoloqlik va turg'unlikni his etishga ko'maklashdi. M. Nuayme Rossiyada Stolipin islohoti davrda, xalq ommasining qashshoqlashgan, kapital hukmronligiga norozilik bildirayotgan davrida o'qidi. Tabiatan insonparvar bo'lgan M. Nuayme dunyo zo'ravonlari o'zboshimchaligini, birovlarining zebuziynat va noz-ne'matga g'arq bo'lib, boshqalarning dahshatli qashoqlikka mahkumligini qoraladi.

Studentlar g'alayonida ishtirok etgani uchun M. Nuayme bir yilga seminariydan haydaladi. Imtihonlarni ekstern topshirib, 1911 yilda u diplom bilan vataniga qaytadi. Sorbonnaga o'qishga kirishga tayorlanadi, ammo oilaning og'ir iqtisodiy ahvoli uni akasi bilan birgalikda Amerikaga ketishga majbur qiladi. U yerda Mixail savdo ishlarida akasiga yordam beradi. Ingliz tilini o'rganib, Vashington universitetining adliya fakul'tetiga o'qishga kiradi. Uni 1915 yilda tugatib, san'at va huquq bakalavri darajasini oladi.

M. Nuayme biografiyasini qisqacha bayon qilar ekanmiz, uning Suriya-Amerika maktabi bilan hamkorligiga ham to'xtalishimiz lozim.

Nuayme 1919 yil yozida Nyu-Yorkka qaytadi, taraqqiyparvar muhojir adiblar yig'ilgan «As-Saih» gazetasida ishtirok eta boshladi, 1920 yilda ular o'zlarining «Qalam ligasi» yoxud «Yozuchilar ligasi», deb atalgan tashkilotlarni tuzadilar. Uning kotibi M. Nuayme edi. Liga a'zolarida aniq ishlangan yagona estetik platforma ham yo'q edi. Masalan, Liganing boshlig'i va joni Jubron romantizm metodi tarafdori, Liganing kotibi M. Nuayme esa, ko'proq tanqidiy realizmga moyil edi. Lekin ularning hammasini novatorlikka intilish, xurofotga aylangan an'analarga nafrat birlashtirardi.

Nuayme Liganing faol xodimiga aylandi. Uning nomi faqat muhojirlar orasidagina emas, o'z vatanida ham publisist, tanqidchi sifatida shuhrat qozondi. Arab tilidagina emas, inglizchada ham go'zal asarlar yaratdi. Tanqidchilar fikricha, M. Nuaymening beqiyos realistik novellalari dunyoga kelishida rus adabiyoti ta'siri ham yo'q emas. U o'zining ona yurti Livan qishloqlari, muhojirlarning ayanchli taqdiri, o'zining armiya hayotiga oid ta'surotlari to'g'risida asarlar yozadi. Adibning barcha asarlarida insonparvarlik, kambag'al odamlarga hamdardlik, nozik yumor mavjud («Bor ekan-da, yo'q ekan»).

Badiiy adabiyot M. Nuayme hayoti mazmuniga aylanadi. U - son-sanoqsiz hikoyalar, tanqidiy maqolalar, Jubron Xalil Jubron haqidagi monografiya, «Otalar va bolalar» nomli pesa va boshqa qiziqarli asarlar muallifi. Deyarli, 30 yil davomida dunyo kezdi, ko'p narsalarni ko'rdi. Adib 1932 yilning 3 aprelida ona yurtiga qaytdi, o'zining eng yaxshi asarlarini Shahrubada (Livan) yozdi. U 1934 yilda «Jubron Xalil Jubron» kitobini nashr ettirdi. Yangi arab adabiyoti va madaniyatini yaratishdagi kurashda biz Jubron bilan hamfikir edik», -deb yozgan edi u kitobning muqaddimasida. 1936 yilda Qohirada uning «Kelajak hayot uchun qo'r-qut» asari

¹⁰ М. Нуайме. Мои 70 лет. М., 1980, стр. 61

chop etildi, 1945 yilda esa, Bayrutda «Asrlar shiviri», keyin «Dunyo ovozi», «G'alvir», «Yo'ldagi novdalar», «Bor ekan-da, yo'q ekan» «Oliylar», «Abu Batta» bosilib chiqadi. Bu kitoblarda urushni fosh etishga bag'ishlangan misralar ham oz emas.

M.Nuayme 50-yillar boshida qator arab va Yevropa mamlakatlari bo'ylab sayohat qiladi. 1956 yilda Moskva va Leningrad, Volgograd, yoshligi o'tgan Poltava shahrida bo'ladi. Sayohatdan qaytgach, «Moskva va Vashingtondan uzoqda» kitobini yozdi. (1957, Beyrut), 1959 yildan u xotiralar yozishga kirishdi.

Xotiralarning birinchi qismi «Bolalik» 1959 yilda, ikkinchi va uchinchi 1960 yilda chiqadi. M. Nuaymening oxirgi asarlari «Oxirgi kun» romani (Bayrut, 1963) hamda hikoyalar to'plami va esse bo'lib, «Dalalarda» (Bayrut, 1965), deb ataladi. 1970 yildan boshlab Bayrut nashriyoti M. Nuaymening to'la asarlar to'plamini nashr etishga kirishadi. Uning adabiyotshunoslikka oid hamda tanqidiy asarlari shu to'plamlarga kiritildi (she'rlar, hikoyalar, pesalar, ocherklar, filologiya, siyosat va boshqa muammolarga bag'ishlangan chiqishlar). Umrining oxirgi yillarida M. Nuayme Biskintda darveshona hayot kechirdi, ko'p yozdi. M. Nuayme dabdabali hayot kechirishi mumkin edi. Ammo u tabiat qo'ynida, g'aribona yashashni, xuddi L. Tolstoy singari oddiy odamlar bilan falsafiy – axloqiy mavzularda suhbatlashishni yoqtirardi. Bu tasodifiy o'xshashlik emas. M. Nuayme o'z xotiralarida yoshlik yillarini eslarkan, «Yasnaya Polyana - Tolstoy uyi men uchun yo'limni yorituvchi mayoq bo'ldi»¹¹-deb yozgan edi.

Nuaymeni qiziqtirgan eng muhim narsa insonning ma'naviy mohiyati bo'lib, uzoq umri davomida adib boshqalar ma'naviy olamini chuqur o'rgandi. 1979 yil kuzida Mixail Nuayme 90 yoshga to'ldi. Uning asarlari barcha arab mamlakatlarida mashhur, ko'plab jahon tillariga tarjima qilingan edi. Uning haqida atoqli Misr adibi Abd ar-Rahmon al-Xamisiy shunday degan edi: «Biz arab millati o'g'lonlari M.Nuaymeni arab zamonaviy adabiyoti va ma'naviy hayotimizning g'ururi deb hisoblaymiz. U inson tafakkuri yo'nalishlari ichidagi eng sof, beg'ubor gumanistik maktabning timsoli edi».¹²

Nuayme 100 yoshga to'lishiga bir yil qolganda dunyodan ko'z yumdi. Adibning Poltavadagi muxlislari va shogirdlari bu sanani nishonladilar.

Nuayme ijodini shartli ravishda uch davrga bo'lish mumkin. Endi she'r mashq qila boshlagan birinchi davr (1906-1912 yillar) unchalik qiziqish tug'dirmaydi.

Ikkinchi (1912-1932 yillar) davr muhojirlik, yozuvchi balog'ati davri. «Otalar va bolalar» pesasi (1917) «Arkashning xotiralari» qissasi (1918), «Bor ekan-da, yo'q ekan» hikoyalar to'plami, shuningdek, taqrizlar, she'rlar shu davrda yozilgan. M. Nuayme faoliyati «Qalam assotsiyasi»ga kirgandan keyin alohida quloqch yozdi.

Uchinchi davr muhojirlikdan keyingi yillarni o'z ichiga oladi.

«Otalar va bolalar» pesasi g'oyaviy mazmuni, hayotiy xodisalarga berilgan baho, hayotiy voqealar tasviri, asosiy konfliktning qo'yilishi jihatidan I. S. Turgenevning shu nomdagi romanini eslatadi. Xuddi Turgenevdek Nuayme ham ikki avlod kurashini ko'rsatadi. Asar markazida otalar va bolalar, konservatorlar va yangilik tarafdorlari o'rtasidagi ziddiyat yotadi. Nuayme pesasidagi voqealar XX asr boshlarida Livandagi shaharlardan birida sodir bo'ladi. Marhum Butrus bek Samaha oilasida hayot odatdagi oqimda davom etadi, bolalar ota-onalarini izzat - hurmat qiladilar. Shafqatsiz, zolim ona o'z qizini aslzodalarga mansub axloqsiz, kaltafahm odamga erga bermoqchi bo'ladi. Uning katta o'g'li Ilyos Samaha, garchi ilg'or fikrli bo'lsa-da, ona irodasiga qarshi bora olmaydi. Onaning so'zi Ilyos uchun ham qonun, u na o'z ozodligi, na singlisi baxti uchun kurashishga qobil, yagona chora o'z-o'zini o'ldirish, deb biladi.

Mana Ilyos xonadoniga do'sti muallim Dovud Salama keladi. U Ilyos va singlisida o'z baxti uchun kurashishga intilish uyg'otadi. Qo'pol, rahmsiz Um Ilyos va ochko'z Musa bek Arkushlar o'z manfaatlarini jon-jahdi bilan himoya qiluvchi va or-nomus haqida dvoryancha tushunchalarga amal etuvchi Turgenev zodagonlari, aka-uka Kirsanovlardan ko'ra A.N.Ostrovskiyning grotesk usulida yaratilgan personajlarini ko'proq eslatadi.

¹¹ М. Нуайме. Вдали от Москвы и Вашингтона. Бейрут 1961, с 76-77

¹² Ўша китоб, ўша бет.

M. Nuayme psasidagi Ilyos Samaha adabiy prototipi Arkadiy Kirsanovdan yuqori turadi. Ma'lumki, Arkadiy Kirsanov o'zining ozodlik haqidagi ideallarini unutib uylanadi va osoyishta oilaviy baxt egasi bo'ladi. Ilyos esa o'sadi, ikkilanmay «bolalar» tomoniga o'tadi, yangi ideallar uchun ongli kurashchiga aylanadi.

Asardagi ikkita ayol obrazi diqqatga loyiq. Muloyim qiz Ziynat Dovud ta'siri ostida o'zgaradi, o'zining sevgisi va jamiyatdagi o'rni uchun kurashadi. Onasining irodasiga zid ravishda turmushga chiqadi. Dovudning singlisi, o'qigan, oqila qiz Shohida Ilyosda hayotga muhabbat, ezgulikka ishonch tuyg'ularini uyg'otadi.

Xuddi Yevgeniy Bazarovdek Dovud Salama ham «bolalar» vakili, o'tmish muxolifi, aslzodalarga mansub emas, har ikkisi dinga qarshi. «Mening iymonim – mening qalbim. Men ungagina quloq osaman», deydi Dovud. Bazarov singari Dovud ham tunu kun ishlaydi, hayot mohiyatini mehnatda ko'radi. Dovud Bazarovdek jamiyatning jiddiy kasalliklarini ko'radi va ularni davolash yo'llarini biladi.

Dovud o'z do'stini chidam bilan tarbiyalaydi, Ziynatga xatolarini to'g'irlashda mehr va sadoqat bilan ko'maklashadi. Pesaning yosh qahramonlari Turgenevning Bazarovidek o'zlarining haqliklariga ishonadilar, bu ishonch ularga kurashlarda g'olib chiqishga ko'maklashadi.

Turgenev qahramoni yolg'iz. Uning qarashlarini xech kim to'la qo'llab quvvatlamaydi. Doud taqdiri o'zgacha, singlisi Shohida hamisha uning safdoshi. Ularga Ziynat va Ilyoslar ham qo'shiladilar. Bir qancha farqlarga qaramasdan har ikki asar taraqqiyparvar kuchlarning umri tugab borayotgan o'tmish bilan bo'lgan kurashlarini aks ettiradi. Bu mavzu XIX asr o'rtalaridagi Rossiya uchun qanchalik muhim bo'lsa, XX asr boshlaridagi arab Sharqi uchun ham shunchalik dolzarb edi.

Rus adabiyotining M. Nuaymega ta'siri «Otalar va bolalar» pesasi bilan cheklanmaydi, u teran tomirlarga ega. M. Nuaymening ijodiy uslubi, estetik qarashlari rus adabiyoti ta'sirida shakllandi. Nuaymening adabiy esselari, tanqidiy obzorlari, arab adabiyotining ayrim asarlariga yozgan taqrizlari «G'alvir» (1920) nomli maqolalar to'plamiga kirgan. M. Nuayme kitobga epigraf qilib «Agar sen odamlarni g'alvirdan o'tkazsang, ular ham seni undan o'tkazadilar» degan arab maqolini oladi. Adib o'z maqolalarida ko'pchilikka tanilgan yozuvchilarni ham g'alvirdan o'tkazishdan cho'chimagan. «G'alvir» kitobi rus adabiy tanqid maktabi ta'sirida, birinchi navbatda V. G. Belinskiy ta'siri ostida dunyoga keldi.

Nuayme «Adabiyot o'zagi» maqolasida adabiyotning jamiyatdagi muqaddas burchi haqidagi tushunchalari bilan o'rtoqlashadi: «Olamning eng noyob gavhari insondir, adabiyot uning intilishlari va orzu umidlarini ifodalab, umid uyg'otib, baxt va adolatga yo'l ko'rsatishi kerak. U adabiyot orqali hali undan yashirin bo'lgan narsalarni ko'rishi lozim. «Tilla qo'ng'izlar» maqolasi kitobxon va yozuvchilarni jahon adabiyoti asarlari bilan tanishtirish zaruratiga yo'naltiradi.

Nuayme arab adabiy tili to'g'risida ko'p yozdi. Zamonaviy shoirlarning eskirgan so'zlarga murojaat qilishlarini tanqid qildi. «Baqalarning qurillashi» maqolasida esa tilni yangilashga qarshi chiqqan purist olimlar to'g'risida yozadi.

Uchinchi muhojirlikdan keyingi davrda (1932 yilda Nuayme Livanga qaytadi) adib muttasil ishladi, muhojirlikda yaratilgan asarlarni e'lon qildi, «Bor ekan-da, yo'q ekan» hikoyalar to'plami, «Uchrashuvlar» qissasi, «Bosqichlar» falsafiy esse va maqolalar to'plami, «Tinchlik ovozi», «Nur va zulmat», «Yo'llar», «Mirdod haqida kitob» falsafiy risolasi ustida ishladi.

Bu davrdagi e'tiborga loyiq asarlaridan biri «Jubron Xalil Jubron, uning hayoti va o'limi, adabiy va badiiy ijodi» kitobi edi. I. Yu. Krachkovskiy ushbu kitob bilan tanishar ekan, u arab adabiyoti uchun yangi badiiy biografiya janrini boshlab berganini ta'kidlaydi. M. Nuayme kitobga yozgan so'z boshisida «Mening maqsadim Jubronning qisqacha hayot yo'lini yoritishdir. Uning turli musibatlar bilan kurashi qanchalik qat'iyatli va ezgulikka bo'lgan ishonchi naqadar go'zalligini ko'rsatishi uchun Jubronning ba'zi xatolariga to'xtalaman. Kitobxon Jubron tabiatini butun yaxlitligi, rang-barangligini tushunishi uchun ayrim o'rijliklarini ochdim, shuhrat va

ulug'vorlikka chanqoqligini yashirmadim. Men bu kitobni batafsil, har tomonlama, samimiyat va muhabbat bilan yozdim, qalamimni nopoklar nazaridan saqladim»¹³.

«Moskva va Vashingtondan olisda» (1957) kitobi, Nuayme ijtimoiy-siyosiy va falsafiy qarashlarining o'ziga xos bayonidir. Garchi bu kitobda mo'rt arab adibi dunyoqarashidagi chalkashliklar o'z ifodasini topgan bo'lsa-da, yozuvchining Poltavadagi hayotini aks ettiruvchi materiallar juda qiziqish uyg'otadi. Asar muallifning Rossiyaga, uning madaniyatiga bo'lgan iliq munosabatini ifoda etadi.

1959 yilda Beyrutda M. Nuayme xotiralarining birinchi qismi «Yetmish yosh» bosilib chiqdi. Xotiralar uning ijodini tadqiq etuvchilarga, arab voqeligi bilan tanishmoqchi bo'lganlarga noyob material beradi. Aksariyat tadqiqodchilar M. Nuaymeni arab adabiyotida qisqa hikoyalar ustasi hisoblagan Muhammad Teymur bilan bir qatarga qo'yadilar. Adib «Uning yangi yili» (1914) deb ataluvchi ilk hikoyasi dolzarbligi, haqqoniyligi bilan tanqidchilar diqqatini tortgan edi. Yozuvchi hikoyalarining o'ziga xos xususiyatlari - fikrning chuqurligi, tasvirning mantiqiyliigi, tilning sodd va aniqliigi.

Hikoyanavis sifatida Mixail Nuayme arab muhojir adabiyoti va rus klassiklaridan ta'sirlandi. Tanqidchi Yusuf Najm rus adiblari ta'sirini Nuayme tomonidan murakkab ziddiyatlarni ochishda va kishi qalbining nozik ifodasida ko'radi. «Novellaning asosi, -deydi Nuayme - voqealar va odamlar tasviridagi qisqalik, dialoglarning jo'shqinligi». A. P. Chexov ham «qancha qisqa bo'lsa, shuncha yaxshi» deganda shuni ko'zda tutgan.

Yozuvchi hikoyalarining mavzulari xurofot va bid'at qurboni bo'lgan vatandoshlari hayoti bilan bog'liq. Nuayme yaramas odat va an'analarni keskin tanqid qiladi («Tug'mas ayol», «Uning yangi yili»), shuhratparastlar, mansabparastlarning ma'naviy qashshoqligini ochib tashlaydi, ayollarning huquqsizligiga qarshi chiqadi, Amerikadagi arab muhojirlarining anduhli hayoti manzaralarini chizadi («Bor ekan-da, yo'q ekan», 1937, «Oliylar», 1956, «Abu Botta», 1959). Insonparvarlik-Nuayme ijodining bosh xususiyati. Shu jihatdan u insonni daholik xususiyatlari, qudratli va aqlli mavjudot bo'lgani uchun emas, to'g'rirog'i, u o'ta ojiz va kichik bo'lgani uchun sevgan. Shu jihatdan Nuayme Chexovga yaqin turadi.

«Haqiqatparast» hikoyasi qahramoni Sodiq-kambag'al, yetim. Hayotida vijdon amri bilan yashashga, haqiqatparastlik bilan halol yashashni istaydi. U qaerda ishlamasin, o'sha yerda ko'ngilsizlik kelib chiqadi, chunki u aldashni, qalloblik qilishni xohlamaydi. Mashhur advokatga shofer bo'lganida boshi osmonga yetadi. Ammo kunlarning birida mashinani boshqarayotgan advokat bir bolani urib yuboradi, barcha guvohlarni qo'lga oladi, Sodiqdan boshqa hech kim g'ing demaydi. Advokat butun aybni Sodiqqa ag'daradi. Uni 10 yil ozodlikdan mahrum qiladilar. Qamoqda tushkunlikka tushgan Sodiq o'z joniga qasd qiladi. O'limi oldidan yozgan xatida: «Haqiqatga o'rin bo'lmagan hayotga la'natlar bo'lsin. Sen aldoqchi, yolg'onchi, o'g'ri, qallob, vaysaqi, qo'pol emassan. Nima uchun odamlar sendan begonasirashadi, baxt senga kulib boqmaydi?, -deb o'zidan so'raydi va bu so'roqqa javob topolmaydi. Yozuvchi Sodiqdagi sof niyatlar, istaklar bilan uni o'rab olgan odamlardagi munofiqlik, soxtalik orasidagi chuqur ziddiyatlarni ochib tashlaydi.

«Oliylar» hikoyasida jafokash, chorasiz Livan dehqonlari adolatsizlik bilan kurashishga noqobil qilib tasvirlanadi. Kichkina dehqon bolasining yagona quvonchi qo'zichoq va xo'roz. Qishloqqa xo'jayinlar keladilar. Qizlarining xarxashasi deb Rashodning qo'zichog'i va xo'rozini olib qo'yadilar. Voqea ishtirokchilaridan hech biri bechora bolani himoya qilmaydi. Yozuvchi hikoyalarida kitobxon ko'z o'ngidan mehnatkash soddadil dehqonlarning obrazlar galeriyasi o'tadi. Nuayme ularni idealashtirmaydi, ularning ishonuvchan va mute' qilib tasvirleydi.

Fuad («Ikki isyonchi») butun umr qashshoqlik bilan olishadi. Uning onasi o'g'lini o'qitish uchun kuchini ayamassdan kir yuvuvchi, xizmatkor bo'lib ishlaydi.

Dorilfununni bitirgach Fuad uzoq vaqt ish topolmaydi. Muhtojlik uni o'g'rilik qilishga majbur etadi. Fuad pushaymon bo'ladi va o'z huquqlari uchun kurashish, birlashish lozimligini tushunadi. Hikoya oxirida Fuad va uning xotini adolat uchun faol kurashchiga aylanadilar.

¹³ Современная арабская проза, М., 1961, стр 10

Muhojirlarning Amerikadagi ayanchli taqdiri «Kakkulik soat» hikoyasida ifodalangan. Nikoh kuni Zumrad bo'lajak kuyov Xattarni tashlab boshqa yigit bilan Amerikaga ketadi. Bu mamlakat to'g'risidagi ajoyib hikoyalarga maftun bo'lgan Xattar ham Amerikaga ketishga qaror qiladi.

Dastlab unga omad kulib boqadi. Yillar o'tib Xattar odamgarchilikdan chiqib «dollar mashinasida aylanadigan arzimas qum donasiga» aylanganini tushunadi. Nuayme Xattar taqdiri boshqalarga namuna ekanini ta'kidlaydi. Aqlli, kuchli, jasoratli inson o'zining eng yaxshi davrini darbadarlikda o'tkazib, 20 yildan so'ng vataniga qaytadi, o'z vatandoshlarini ona yerini sevishtiradi, vatansiz hayot yo'qligini ularga tushuntiradi. Xattar «odamlar pulning quli bo'lgan jamiyatda baxtning xayoliy ekanini xis etadi. Nuayme 1967 yil aprelida arab mamlakatlari bilan do'stlik jamiyatining bir guruh a'zolari bilan bo'lgan uchrashuvda ma'naviyatsizlikning zarari to'grisida gapirgan edi. 78 yoshli M. Nuayme mehmonlari orasida Krachkovskiyning shogirdi, yozuvchi ijodining tadqiqotchisi A. Dolinina ham bor edi. Mashhur adib va olim o'z suhbatida zo'r berib tarqatilayotgan «molparastlik ruhi», manfaatparastlik, ma'naviyatsizlik, bir so'z bilan aytganda» «amerikalashtirish» uni ranjitayotganini ta'kidlagan edi.

Vaqt o'tishi bilan M. Nuaymening xavfsirashi bejiz emasligi ayon bo'ldi. Uning ona yurti fuqarolar urushi bilan chulg'andi, qurolli mojarolarni esa o'zlarining molparastliklari yo'lida xalq manfaatlarini qurbon qilganlar uyushtirdilar. Urushga nafrat bilan qarovchi insonparvar adib M. Nuayme mo'tabar yoshga yetganida dahshatli xalq fojialarining guvohi bo'ldi.

Xulosa qilib aytganda, Suriya-Amerika maktabining faoliyati yangi arab adabiyoti tarixida katta davrni tashkil qiladi. Uning ahamiyatini ilk bor I. Yu. Krachkovskiy tan olgan edi. Rus va Yevropa tadqiqotchilari M. Nuayme, Jubron, ar-Rayhoniylar asarlari bilan u tufayli tanishish imkoniga ega bo'ldilar. U birinchi bo'lib mazkur adiblarning rus mumtoz adabiyoti bilan bo'lgan g'oyaviy va badiiy aloqalarini payqadi. Suriya-Amerika maktabining o'ziga xosligi shundaki, bu maktab namoyandalari ba'zi muhojirlar singari Suriya va Livan bilan aloqalarni uzmagani holda G'arb madaniyati bilan yaqindan tanishdilar, ko'hna arab adabiy an'alariga kamroq amal qildilar. Ushbu maktab vakillari maishiy qissa, roman, realistik novella, mansur she'ning dastlabki namunalarini yaratish sharafiga muyassar bo'ldilar. Shu maktab vakillari arab adabiyotiga yangi badiiy metod-realizmni olib kirdilar, realizmga xos xususiyat – hayotni, voqelikni tanqidiy idrok etish yozuvchilarga asarlar problematikasini demokratlashtirish, o'z davrining juda ko'p muammolarini yoritish imkonini berdi.

Yozuvchilarning realizmga tomon yo'li onsonlikcha kechmadi. Ularning ijodida realizm, romantizm va sentimentalizm bilan chatishib ketdi. Tabiatga mehr, vatanni qo'msash, adolatli jamiyat haqidagi o'ylar, gumanizm arab Sharqi adiblari ijodidagi yetakchi g'oyalardir. Yozuvchilar ijodida diniy aqidalar, kolonil zulm kishanlari, Suriya va Livan xalqlarining huquqsizligiga qarshi norozilik ifodalandi, arab mamlakatlarining ijtimoiy taraqqiyoti masalalari ham dadil qo'yildi. Suriya-Amerika maktabi shoirlari arab she'riyatining an'anaviy qonunlarini yangiladilar. Abu Madi, M. Nuayme, Jubronlar faqat shakldagina emas, mazmunda ham an'analarga ko'r-ko'rona amal qilishdan voz kechdilar, yangi janr – mansur she'rni yaratdilar. Diniy mavzu muhojir arab adiblari ijodida salmoqli o'rin egalladi. Ularga xos xarakterli xususiyat – diniy murasozlik, diniy fanatizmdan xolilik. Qalam assotsiatsiyasi a'zolari masihiylik va islomga e'tiqod qilar edilar, shuning uchun dunyoni so'fiyona idrok etish har ikki dinni yarashtiruvchi sinalgan vosita bo'ldi. Assotsiatsiya a'zolari diniy nizolar kemirib yotgan vatan fuqarolarini o'zaro birdamlikka muhtoj ekanini his etdilar. Shuning uchun muallifning «Men»ini darvesh, tanho musofir, tarki dunyo qilgan so'fiy obrazi bilan tenglashtirish yuzaga keldi. Tasavvuf bilan bog'liq simvolika muhojirlar she'riyatini yangi mazmun bilan to'ldirdi, fikr va hissiyotga boy ichki olamini ochishga ko'maklashdi.

2. Misr modernistlari (yangilovchilari) maktabi.

«Misr modernistlari» maktabi deb adabiyotga birinchi jahon urushi davrida kirib kelgan ko'p sonli Misr yozuvchilarini atash rasm bo'lgan. Bu harakat butun arab Sharqi taraqqiyotida katta rol o'ynadi. Bu oqimga «modernizm» nomini birinchi marta yevropaliklar berdilar. Bu

atamani ilk bor ingliz arabshunos olimi Gibb qo'lladi, keyinroq esa I. Yu. Krachkovskiy uni taomilga kiritdi. Ammo, afsuski, bu atama o'rinsiz, panislomizm diniy oqimi bilan bog'liq harakatga nisbatan qo'llanilgan edi. Uning tarafdorlari yagona musulmon davlati tuzishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'ydilar. Bu oqim ba'zi davlatlar qo'lida bosqinchilik quroliga ham aylandi.

Modernizm atamasi yana «san'at san'at uchun» ma'nosini ham anglatadi.

Modernizm XIX asr oxiri, XX asr boshlarida san'atda yuzaga kelgan jarayon bo'lib, dekadentlik oqimlari yig'indisini bildiradi. Modernizm san'atda gumanistik idealning yo'qolishidan paydo bo'lib, haqiqat izlashdan hafsalasi pir bo'lish, dunyoga, ijtimoiy muammolarga beparvolik tufayli yuzaga keldi. Sharqdagi modernizmga kelsak, aksincha, u adabiyot va san'atning yuksalishi, gullashi, milliy o'zlikni anglash pallasi edi. Misr modernizmining Yevropa modernizmidan farqi ham ana shunda. Lekin ular orasida umumiylik mavjud. U ham, boshqasi ham qandaydir yangilik, o'ziga xoslik kiritishga intildi, lekin bu yangiliklar turlicha nuqtai nazardan amalga oshirildi.

Nazarimizda, mazkur maktabga ushbu nom arab adabiyoti tajribalarini bajonidil o'zlashtirayotgan yosh yozuvchilar (mujadiduna) dunyoqarashini o'tmishga qaytishga, zamonaviy madaniyat yutuqlaridan voz kechishga chaqirayotgan eskiparast (muhafizuna) yozuvchilardan farqlash uchun berilgan. Bu maktabning yuzaga kelishi davrida, XIX asrning 80-yillardan boshlab Misr inglizlar ta'siri ostida edi. Inglizlar Misrda kolonial hokimiyat tizimini yaratdilar.

Birinchi jahon urushi yillarida ular mamlakatni bosib olib, Misrning oltin zaxirasiga ega bo'lib oldilar. Dehqon xo'jaligining vayron bo'lishi, oddiy misrliklar turmush darajasining tubanlashuvi shundan boshlandi.

Misr xalqi milliy-ozodlik kurashining natijasi o'laroq, 1929 yil qo'zg'oloni sodir bo'ldi. Inglizlar xalq yetakchisi Sa'd Zag'lulni hibs etib Malta oroliga surgun qildilar. Qo'zg'olonning ko'tarilishi shu hibsdan boshlandi. Misr xalqining ingliz bosqinchilariga qarshi 1919 yilgi qo'zg'oloni bostirildi, lekin u mamlakatdagi ijtimoiy tafakkurning inqilobiylashuviga ta'sir ko'rsatdi. Yosh milliy burjuaziya dastlabki paytlarda Misr xalqining mustaqillik uchun kurashiga boshchilik qildi. U ijtimoiy va madaniy hayotning hamma jabhalarida «misrlashtirish» (Tamsir) shiorini o'rtaga tashladi.

Ana shu harakat ta'sirida o'ziga xos Misr adabiyoti yaratila boshladi. Bu maktabga mansub yozuvchilar realizm shiorini ko'tardilar, Misr jamiyatining barcha tabaqalari hayotini xaqqoniy aks ettirishga intildilar. Ilk bor jamiyatni ijtimoiy qayta qurish, misrliklarning madaniy qoloqligiga barham berish zururati masalasi keskin qo'yildi. Hikoya, roman, pesalar qahramonlari aksariyati xalq ichidan tanlandi. Kitobxonlarga tushunarli bo'lishga intilish, yozuvchilar oldiga tilni isloh qilish vazifasini qo'ydi.

Umumiy intilish va vazifalar (tamsir-al-adab) bo'lishi bilan birga bu maktab yozuvchilarining o'ziga xos ijodiy qiyofasi ham bor edi. Ko'pgina yangilikparast yozuvchilar notekis yo'lni bosib o'tdilar, realizmdan boshlab dekadentlikka o'tib, so'ng yana realizmga qaytdilar. Fransiya va Angliyada ta'lim olgan yosh yozuvchilar G'arbiy Yevropa adabiyoti, tarjima orqali rus adiblari ijodi bilan yaxshi tanish edilar. Suriya-Amerika maktabi yozuvchilari - Jubron, ar-Rayhoniy, M. Nuaymelar ham Misrda realistik adabiyot shaklanishiga ta'sir ko'rsatdilar.

Bu maktabning asosiy namoyandalari Muhammad Husayn Haykal, Muhammad va Mahmud Teymurlar, Taha Husayn, Tavfiq al-Hakim, Iso va Shihata Ubaydiy, Mahmud Tohir Lashin va boshqa adiblar 1919 yilgi revolyusiyadan keyin adabiyotda xalq hayotini realistik tasvirlash bayrog'ini ko'tardilar, o'z vatani mustaqilligi, dunyo sivilizatsiyasi vakillari orasida munosib o'rin egallash uchun intilayotgan Misr burjuaziasining liberal doiralari mafkurasi ifodachisi bo'ldilar.

Misr yozuvchilarining yangi avlodi ijodi ma'rifatparvarlik realizmiga mansub. Bu jihatdan Misr adabiyoti XVIII va XIX asr boshlaridagi Yevropa va Rossiya ma'rifatparvarlik davri realistik adabiyotini eslatadi. Ma'rifatparvarlik realizmi arab zaminida kuchli va zaif

tomonlari, ijtimoiy konkretligi, taraqqiyparvar g'oyaviy yo'nalishi, maishiy tasvir aniqqligi bilan ko'zga tashlanadi. Ayni chog'da u didaktikaga moyilligi, syujet qurilishining shartlilik bilan ajralib turadi.

Muhammad Husayn Haykal (1888-1956) ma'lumoti jihatdan huquqshunos, Parijda o'qigan, 1922 yildan «Al-Qiyos» («Namuna») gazetasi muharriri, adabiyotda «Zaynab» (1914) romani muallifi sifatida mashhur, «Misr fallohi» taxallusini qo'llagan. O'ziga xos shakl va mazmunga ega bo'lgan bu roman dastlab kitobxon va tanqidchilar diqqatini tortmadi. «Zaynab»ning ikkinchi, 1929 yilgi nashri muallifga munosib shuhrat keltirdi. Keyinroq bu roman asosida film ham yaratildi.

Asarda arab adabiyotida birinchi marta Misr qishlog'i aks ettirildi. Haykal jasurlik bilan arab adabiyotiga oddiy kishilar-fallohlarni olib kirdi, ularning tashvish, quvonchlarini ko'rsatdi. Lirik bayon, jonli dialog, so'zlashuv tilidan mohirona foydalanish, tabiatning yorqin lavhalari - bular hammasi arab kitobxoni uchun yangilik, g'ayritabiiy edi. Bulardan g'arb, xususan, fransuz adabiyoti ta'siri anqib turardi.

Kitobxon Haykal asarida didaktik ma'rifiy qissa izlarini, sentimentalizmning ayrim xususiyatlarini sezadi, hissiy va rasional tasvir Yevropaning XVIII asrini – Bernanden de Sen-Perning «Pavel va Virginiya»sini, M. Karamzinning «Bechora Liza»sini esga soladi.

Yangi davrda Misr adabiyoti kechikib, lekin tez suratlar bilan rivojlanadi. Shuning uchun undagi hamma bosqichlar tez bosib o'tildi. «Dehqon qizi ham seva olishi»ni tasvirlash Karamzinga XVIII asrda qanchalik muhim bo'lgan bo'lsa, Haykal uchun XX asrda shunchalik zurur edi. «Zaynab» fallohlarni komik personaj sifatida ko'rsatmaydi, ular mehnat qiladilar, sevadilar, iztirob chekadilar, muallifning ularga nisbatan samimiyati va hayrixohligi sezilib turadi.

Haykal ko'pincha fikr-o'ylar va izohlarni bosh qahramonlaridan biri talaba Hamidiy tilidan bayon qiladi. Muallifga xuddi shunday qahramon kerak edi, chunki oddiy falloh Yevropa ta'limini olgan advokatdek fikrlashi va voqealarni baholashi mumkin emas. Bu qahramon Haykalning fallohlar hayotiga qiziqishining nafaqat vatanparvarlik, balki falsafiy qirrasini tushunishga yordam beradi: fallohlar uning nazarida «tabiiy odam»ning ma'rifatparvarlikka xos idealiga yaqin turadilar. «Tabiat» tushunchasi, Haykal tasavvurida ozodlik adolat, baxt tushunchalari bilan qo'shib ketadi. Yozuvchining bu mulohazalarida Jan Jak Russo g'oyalari ta'siri sezilib turadi.

Romanda ishqiy mavzu, qahramonlarning shaxsiy taqdirleri birinchi planga chiqadi. Asarning bosh konflikti muhabbat va insoniy jamiyat qonunlari, tabiiy tuyg'ular va sun'iy yaratilgan an'analar. Haykal jamiyatda amal qiladigan qonunlar tabiatning qonunlariga zid ekanini ishonarli isbotlaydi.

Bu, ayniqsa, Hamid va amakisining qizi Aziza o'rtalaridagi munosabatlarda yaqqol ko'rinadi. Aziza Misrning o'ziga to'q shaharlik oilalari qizlariga xos hayot kechiradi: uzlatda, chodir ichida, faoliyatsiz, orzular dunyosiga g'arq bo'lgan yuragi esa g'am, shodlikdan mahrum, qup-quruq sahroga aylangan. Ularning sevgisi ham xayolot samarasiga aylandi.

Hamid va Zaynab muhabbati ozod, tabiiy tuyg'uga yaqin. Yigitni unga tortayotgan narsa jismoniy yaqinlik hissigina emas: «Mening u bilan shunchaki gaplashgim, xilvat joyda o'tirib o'pgim, mayin ovozi eshitgim kelardi», deb eslaydi Hamid o'z tuyg'ug'ularini tahlil qilarkan.

Bu yerda ham insoniy qonunlar yuzaga keltirgan to'siqlar paydo bo'ladi: sinfiy farqlar vujud va qonga shunchalik singib ketganki, zamindor o'g'li oddiy dehqon qiziga uylanishni xayoliga ham keltirishi mumkin emas. Qanchalik demokrat bo'lmasin, unga Hamidning haqi yo'q. Zaynab uning hayot yo'ldoshi bo'lishi mumkinligini tushunganda esa, vaqt o'tgan bo'ladi.

Tabiat amriga bo'ysinib, avval Zaynab Hamidga intiladi, «axir dunyoda u haqida o'ylaydigan odam bor-ku», deb o'ylash unga xush yoqadi. Hech kim hozirgacha unga shunday erkalatuvchi va shirin so'zlarni aytmagan. Ular o'rtasidagi sinfiy to'sqinlikni Hamiddan ko'ra Zaynab nozik tushunadi. Zaynabning ichki olami boy u Hamid bilan chinakam ruhiy yaqinlik bo'lmasligini sezadi. Shunday qilib, tabiatning o'zi Hamid bo'salarini unutishga yo'llaydi, uning

qalbida hamisha yonida bo'ladigan, birga mehnat qiladigan, uning tashvish-quvonchlari bilan yashaydigan Ibrohimga muhabbat uyg'onadi.

Tabiatning o'zi go'yo oshiq-ma'shuqalarga homiylik qiladi, ularning baxtiga quvonadi. Lekin yana insoniy qonunlar to'siq bo'ladi. Qonunlar bo'yicha, nikoh savdo-sotiq bitimi, xolos, sevgi-muhabbat hisobga olinmaydi. Mana, Zaynab boshqa odamga fotiha qilinadi, uning his-tuyg'usi bilan hech kimning ishi yo'q, xatto bu to'g'risida gapirish ham mumkin emas. Gap faqat Ibrohimning kambag'alligi-yu, Zaynabning kuyovi Hasanning boyligida ham emas. Urf-odatlariga doimiy mutelik sustlikka olib keladi, an'analar hokimligi shunga olib keladi.

Adib odamlarda an'analarga qarshi isyon qanday yetilayotganini ko'rsatadi: isyon oshiqlarning jasur orzularida, ularning Zaynab turmushga chiqqandan keyingi uchrashuvlarida, nihoyat Zaynabning halokatida va onasi bilan so'nggi suhbatida ko'rinadi. Hamidning oiladan ketishi va xayralashuv maktubida isyon o'z ifodasini topadi.

«Zaynab» romani yangi arab adabiyotining mumtoz asari. U Misr realistik maktabining birinchi romani sifatida qadrlanadi: deyarli barcha arab yozuvchilari o'zlarining estetik qarashlari shakllanishiga ta'sir etgan, adabiy asarlar haqida gapirar ekanlar, Haykalning «Zaynab» romanini tilga oladilar.

Muhammad Teymur (1892-1921) mashhur filolog olim Ahmad posha Teymur oilasida tug'ilgan. Boshlang'ich, o'rta ma'lumotini Misrning yevropalashgan yangi maktablaridan birida oldi. Bolalikdan adabiyot va san'atga mayli bor edi. U 1911 yilda otasining istagiga binoan o'qishni davom ettirish uchun Yevropaga jo'naydi. Birinchi jahon urushi boshlanganda u vatanida edi, Parijdagi yuridik ta'limi chala qoladi. Mamlakatda urush va inqilobiy harakat ko'tarilayotgan sharoitda M.Teymur madaniyatining boshqa liberal arboblari qatorida o'zining ijtimoiy va ijodiy faoliyatini faollashtiradi. M. Teymurning matbuotdagi chiqishlarida, xuddi boshqa zamondoshlarinikidek, siyosiy aniqlik va konkretlik yo'q edi. U adolat, demokratiya haqida umumiy ishoralar bilan chiqardi.

San'atlar ichida M. Teymurning eng mehr qo'ygani teatr edi. U komediyaning Moler, Bomarshe kabi ustalarini e'zozlar, ayniqsa, Shekspirni «jahon drammasining otasi» deb atardi. Muhammad o'zining sahna san'ati nazariyasi va Yevropa teatri tajribasini Misr voqeligiga bog'lashga intildi.

Muhammad pesalari asosida pirovardida to'siqlarni yengadigan muhabbat mavzusi yotadi. Pesalarining qurilishida u uch birlik talabiga amal qildi.

M. Teymurning yozuvchilik salohiyati «Ko'z nimani ko'rsa» («Ma taraxa al-uyun», 1917-1918) novellalarida yorqin namoyon bo'ldi. Yozuvchining aksariyat hikoyalarining zamirida mavjud jamiyatda boyluk, hokimiyat yovuzlik, illatni tug'dirmaydi, balki yovuz, axloqsiz kishilar boyluk va hokimiyatga ega bo'ladilar, degan g'oya yotadi.

Ma'rifatparvar sifatida u ijtimoiy illatni yo'qotishning yagona yo'li insonni takomillashtirish, ma'rifatini tarqatish, mulkdorlar va ma'lumotli doiralar tomonidan xalqqa ko'mak berish deb tushunadi.

«Telba oshiq» novellasida hikoya qiluvchi boy do'stiga murojaat qilib: «Sening yurtling, ey do'st, yaxshilikka sarflash uchun hozirliklaringning bir qismiga muhtoj. Seni kambag'allar kutmoqda, ularga tekin maktablar kerak, seni qariyalar kutmoqda, ularga kasalxonalar ochuvchi sen emasmi?!» deydi.

Yozuvchi xalq maorifi uchun kurashdi. Lekin bu muammoni ma'rifatparvarlarga xos shaklda hal qiladi.

«Poezd» hikoyasi: Kupeda suhbat ketadi. Yo'lovchilar dehqonga o'qish kerakmi degan mavzuda bahslashadilar. Bahsga sabab bo'lgan narsa umumiy ta'limni joriy etish va savodsizlikka qarshi kurash haqidagi gazetadagi xabar bo'ladi. Shayx va oqsoqol (o'mda) dehqonning ma'lumotli bo'lishini «jinoyat» deb hisoblaydi. «Dehqonga darradan boshqa narsa kerakmas,- deydi ochiqdan ochiq suhbatdoshlardan biri,- chunki u beshikdan qabrgacha bo'yinsunishga o'rgangan». Hikoya qiluvchi va talaba, qishloq kishilari: «Dehqon ham bizga o'xshagan odam, o'z yaqiniga bunday muomala qilish gunohi azim», -deyishadi. Hikoyada

hukmron tabaqa vakillari muallif tomonidan bevosita taraqqiyparvar, Misr «yangilanishi»ga rahbarlik qilishga qodir kuch sifatida baholanadi.

M. Teymur hikoyalarining asosiy xususiyatlari hayotni qarama-qarshiliklarda ko'rsatishdir. Uning samimiyati va xayrixohligi hamisha kambag'allar va tahqirlanganlar tomonida «to'y va dafn» qahramonlaridan biri o'g'li o'lgan izvoshchi, boshqasi o'g'liga dabdabali to'y qilayotgan poshsho. U kambag'alga dafn uchun sadaqa berishdan bosh tortadi. Hikoya xuddi A. Chexovning «Qayg'u»sini eslatadi, u yerda ham yolg'iz kambag'alning fojiasi ko'rsatiladi.

Zamonaviy jamiyatning fe'l-atvorini adib «Matatiya kafesidagi ramazon» hikoyasida tasvirlaydi. Kafeda turli ijtimoiy guruh vakillari o'tiribdi. Mana hurmatli shayx, u ro'zani buzgani yo'q, lekin uning o'yin-kulgi qilayotgan odamlar orasida ishtirok etishi diniy riyokorlik timsoli bo'lib tuyuladi.

Mana kafega boshqa odam kirdi, o'zini taqvodor qilib ko'rsatadi, ammo islom aqidalarini buzib yashirinchalik faqat ovqatgina emas, spirtli ichimlik ham buyuradi. Kafe jihozlarini tasvirlarkan muallif go'yo ular go'zalligini kafening doimiy shinavandalarining munofiqligi va ikkiyuzlamachiligiga qarama qarshi qo'yadi.

M. Teymur ijodi realistik hikoya janri taraqqiyotini boshlab berdi. Teymur asarlari problematikasi sezilarli darajada demokratlashdi. Qahramonlar orasida xalqning quyi tabaqalari vakillarini, dehqonlarni, jamiyatining bilimdon doiralari vakillarini ko'ramiz.

M. Teymur novellistika san'atini, fikrini qisqa va aniq ifodalashini bu janrning Yevropa adabiyotidagi eng yaxshi vakillaridan, ayniqsa, A. Chexov va Mopassandan o'rgandi. Ayni paytda, uning asarlarida milliy Misr koloriti sezilib turadi. Shuni ko'zda tutib I. Yu. Krachkovskiy «Ko'zlar nimani ko'radi»ni o'qishda birinchi qarashdayoq men arab milliy novellasining tarovatini his qildim»,¹⁴ deb yozgan edi.

M. Teymur hikoyalarida tanqidiy realizm alomatlari ham paydo bo'ladi - ijtimoiy, maishiy muhit aniqlashtirilgan, qahramonlar xarakteri individuallashtirilgan. M. Teymur ijodi unga Misr adabiyotida hikoya janrining asoschisi, degan munosib shuhratni keltirdi.

Mahmud Teymur (1894-1973) zodagonlari xonadoniga mansub. Qohiradagi eng yaxshi kutubxona uning otasi Ahmad Teymur poshshoga taaluqli edi. Ahmad Teymur poshsho yuksak madaniyatli, ziyoli inson bo'lib, uning xonadonida mashhur olimlar, yozuvchilar to'planib turar edilar.

Mahmud Teymur xastaligi tufayli Yevropada tahsil olmadi, ammo u otasi, onasi va ammasi - taniqli Misr shoirasi Oysha ko'magida xonadonida yetuk ta'lim oldi.

Ijodining ilk davrida yozuvchiga rus novellasi ta'siri kuchli bo'ldi.

«Men jahon adabiyoti bilan tanishayotganimda Chexovni tanidim, u tufayli L. Tolstoy, I. Turgenev, F. Dostoyevskiy, M. Gorkiy va Rossiyaning boshqa ulug' yozuvchilarini sevib qoldim. Bugungi kungacha men yuksak insonparvar rus adabiyotiga, Chexovga esa novella ustalari ichida alohida joy beraman»,¹⁵ deb yozgan edi M. Teymur.

1925 yilda Mahmud Teymurning ikkita hikoyalar to'plami - «Shayx Juma va boshqa hikoyalar»hamda «Mutavalli amaki» chop etiladi. Ularning mavzusi rang-barang. Yozuvchi ularda o'ziga yaqin bo'lgan Misr qishlog'ini mahorat bilan aks ettirgan. Muallif falohlarning og'ir hayotini tasvirlar ekan, mansabdorlarning ikkiyuzlamachiligini tanqid qiladi.

Yozuvchining yuqori sifatli kichik nasri uning yuksak iste'dodidan darak berib turardi. Qahramonlar nutqi o'zaro ajratilgan, tili shiralik, lo'nda. M. Teymur sifatlarni topib, o'rnida qo'llaydi, ular juda aniq, almashtirish qiyin. Uning hikoyalarida lirik va publisistik chekinishlar kam uchraydi. Tasvirlanayotgan voqea, qahramonlar, ularning xatti-harakatiga muallifning munosabati, odatda, tag ma'nodan kelib chiqadi.

Mahmud Teymurning ilk novellalari XX asrning birinchi yarmidagi Misr jamiyati hayotining keng realistik tasvirini yuzaga keltiradi va yorqin tiplar galeriyasini yaratadi. «Salom poshshoning xolasi», «Tavaddud xonim» hikoyalarida badavlat kishilarning ochko'zligi,

¹⁴ Крачковский И. Ю. Из писем египетскому писателю Махмуду Теймуру, изб. соч. т. 3. стр 48

¹⁵ Арабские писатели о русской и современной литературе. Махмуд Теймур «Современный Восток» 1958, №3

qo'polligi tanqid ostiga olinadi. «Najiya», «Sabiha», «To'lov», «Al-Hoj Shalabi»larda arab ayolining huquqsizligi aks etgan. «Sabiha»da yigit qo'li kaltaligi uchun sevgan qiziga uylana olmaydi, qiz boshqa odamga uzatiladi. Xo'jayinidan o'g'irlangan pul ham yordam bera olmaydi. Mushkil ahvolga tushgan yigit o'z sevgilisini o'ldiradi. «To'lov»da er o'zining bechora ayolini buzqlikka undaydi.

Yozuvchi ijodida ko'p uchraydigan mavzu-bid'at. «Shayx Said»da baxtsiz tasodif natijasida jinni bo'lib qolgan falloh tarixi hikoya qilinadi. Johil fallohlari aqldan ozish holatida ham avliyolik alomatlarini ko'radilar, jinnini o'rtaga olib, unga sig'inadilar. Lekin Saidning telbaligi avjiga chiqadi, atrofdagilarga ko'p noxushliklar keltiradi. Endi fallohlari unda shaytonni ko'ra boshlaydilar va Saidni o'ldiradilar. Jaholat avliyoni yaratadi va biroz vaqt o'tgach, o'sha avliyoni shayton deb e'lon qiladi. Bunday vahshiyona jinoyatda kim aybdor? Nahotki Misrning qashshoq, ezilgan dehonlari bo'lsa? - Yo'q. Muallif ana shu fikrga olib keladi.

Mahmud Teymur ijodining dastlabki davrida realist yozuvchi va a'lo darajadagi san'atkor sifatida maydonga chiqdi. Adibning tanqidiy nigohi Misr xalqi hayotining ko'p tomonlarini qamradi.

«Teymurning muhabbati fallohlari tomoniga moyilligiga shubha qilmasa ham bo'ladi. Aristokrat Teymur tag-tubi bilan yagona, chin misrlik bo'lgan ana shu tahqirlangan sinfga cheksiz muhabbatini saqladi», ¹⁶ degan edi I. Yu. Krachkovskiy.

1930 yildan boshlab Mahmud Teymur ijodida yangi bosqich boshlandi. U voqeliklarni realistik aks ettirishdan chekindi. Bu o'zgarishga o'sha yillardagi tarixiy sharoit ham sabab bo'lgan edi. Shu yillari Misrda hokimiyat tepasiga burjuaziya va yirik yer egalari manfaatini yoqlovchi, ingliz bosqichlariga suyanuvchi Sidqi-poshshoning reaksion hukumati kelgan edi (1930-1934).

Ziyolilar orasidagi g'oyaviy parokandalik yozuvchilarning hayotdan «fil suyagidan qilingan minora»ga chekintiradi. «Fuqarolik ideallaridan voz kechish, hayotdan ixlosi qaytish, individual kechinmalar dunyosiga botish o'sha davr Teymur hikoyalari to'plamiga xosdir («Yangi yilingiz muborak bo'lsin!», «Qalin lablari», «Go'zalning qalbi», «Hid va tutun» va boshqalar).

Arab mamlakatlarida hayot demokratlashgan, yosh yozuvchilar adabiy hayotga kirgan, ular uchun realizm va xalqchilik asosiy shior bo'lgan urushdan keyingi yillarda (1940-1950) Mahmud Teymur hamon dekadentlik pozitsiyasida qolaverdi. Bu yillarda Teymurning estetik qarashlari ziddiyatlarga to'la edi. Agar dastlabki asarlarida u hayotni iloji boricha aniq aks ettirishga harakat qilgan bo'lsa, illatni qoralasa, zo'rvonlikka va qabihlikka qarshi nafrat qo'zg'otsa, kitobxonni tarbiyalash, unda ezgulikka muhabbat, yaxshilik va adolatga ishonch uyg'otsa, endi u yozuvchilik burchiga butunlay boshqacha qaraydi. U yozuvchining hayotga loqaydligi, befarqligini targ'ib etadi.

Teymur yovuzlik va qahri qattiqlikni hayotni harakatga keltiruvchi omillar deb sanaydi, shafqat tuyg'usini inkor etadi. Uningcha illat odamning tabiiy, har kishida bo'ladigan xususiyati. Ana shunday qahramonlar, tabiiyki yozuvchining o'sha yillardagi badiiy asarlarida aks etdi. Shu davrdan boshlab hikoyalarning qahramonlari axloqsiz, ma'naviy tutruqsiz, ruhoniylar zaif kishilar bo'ldi. Psixozanalizga sho'ng'ib, M. Teymur xarakterlarning sharoitga bog'liqligini buzdi. Uning qahramonlari tirik odamlarga emas, soylarga o'xshab qoldi, tili quruq, badiiy tasvir vositalari ham xira, jozibasiz bo'lib bordi.

«Iblisning qizi» (1944) da Teymurning inson tabiatidagi yovuzlik va ezgulik xaqida fikrlari o'z rivojini topadi. Bu qissa asosida quyidagi afsona yotadi: Iblis o'limi oldidan o'z huzuriga shaytonlarni chaqirib, ularga kimsasiz sahroda qasr qurishni buyuribdi. Keyin jodugarlardan biriga bu qasrda go'zal qizni tarbiyalashni buyuribdi. Bu qiz odamlarni, ayniqsa, erkaklarni ko'rmasligi lozim edi.

¹⁶ Крачковский И. Ю. Над арабскими рукописями М. –Л, 1946, стр 49.

Iblis na yovuzlik, na azob-uqubat ko'rmagan, musaffo tozalikda o'sgan odamni yaratmoqchi bo'libdi. Keyin esa shu odamga monand va uni namuna qilib insoniyatni xayoliga ham kelmagan go'zal dunyoni yaratishni orzu qilibdi.

Qizaloq sohibjamol qizga aylanibdi. Uning husni haqidagi ovoza shaytonlar uyushtirgan hamma to'siqlarga qaramay, olamni tutibdi. Ammo kimki, ko'l tomon borsa, halok bo'laveribdi. Faqat bir shahzodaga qasrga kirish nasib etibdi. Shahzoda va sohibjamol qiz bir-birlarini sevib qolibdilar, shahzoda qizni saroydagi ziyofatga olib kelibdi, sohibjamol bu yerda ilk bor rashk o'tida yotibdi. Kechasi yana qal'aga qaytibdi. Ammo orol uning ko'ziga zindon bo'lib ko'rinibdi. Ertasiga u uchib ketibdi.

Shunday qilib, iblis namunaviy, go'zal dunyo yarata olmaydi. Yozuvchi yovuzlik inson tabiatida bor, u g'olib keladi, degan g'oyani ilgari suradi.

M. Teymur «Salva shamol epkinlarida» (1947) qissasida ham yovuzlikni ochiq himoya qiladi.

Syujet asosida Salvanning hayoti voqelari yotadigan. Salva notinch oiladan. Qiz uni tarbiyaga olgan Zuheyra-poshsho oilasiga kulfat keltiradi. Salva onasi bilan birga boy Zuheyra-poshshoga erga tegish rejasini tuzadi. Uning o'ynashiga aylanib, dabdabali hayot kechiradi. So'ng Salva ikki yosh yigitning qalbini vayron qiladi. Bular Zuheyra poshshoning qizi, Salvanning dugonasi Soniyaning qallig'i Sharif va Salvani yurakdan sevgan Hamdidir.

Salvanning buzuqligi, shafqatsizligi dramatik yechimga olib keladi. Ehtiroslar domida qolgan Sharif Salvanning ko'zi oldida o'zini otadi, Hamdi esa kasalxonada azob-uqubatta jon beradi. Salvanning onasi ham o'ladi. Shunday bo'lsa ham muallifning qahramoniga munosabati sovimagan. Teymur Salvani axloqsiz, makkora hisoblamaydi. U Salvani koyimaydi, uning nazarida Salva ham boshqa odamlardek zaif, taqdiriga qarshi borolmaydi. Ammo qissaning oxirida yozuvchi qahramonini yovuzlik yo'ldan qaytaradi. Teymurning o'tmishdagi qarashlari uyg'onadi. Salva tikuvchilik qiladi, tug'ish chog'ida o'lgan Saniyning o'g'lini tarbiyalaydi. Yozuvchining uslubi ham o'zgaradi. Sentimentalizm alomatlari (poshshoning o'limi tasviri, Salvanning hushdan ketgan payti) ko'rinadi. Qissa oxirida Salvanning qayta tug'ilishi psixologik jihatdan ishonarli emas.

Misrda respublika tuzumining o'rnatilishi (1952 yilgi inqilob) mamlakatning ma'naviy hayotiga ulkan ta'sir ko'rsatdi. Adabiyotning ijtimoiy mavqei oshdi, yangi jamiyatning shakllanishiga xizmat qila boshladi. Jamol Abdul Nosirning demokratiyani ko'zlagan hukumati katta yoshdagi adiblarning ijodiga, o'shalar qatorida Mahmud Teymurga ham ta'sir ko'rsatdi. «Adabiyot va siyosat bir-biri bilan bog'langan, adabiyot siyosiy hayotidagi yuksalishni aks ettirishi kerak», -deb yozgan edi Teymur. U arab mamlakatlari yozuvchilarining s'ezdlari ishlarida faol ishtirok etdi, Misr madaniyati arboblarning imperalizmga qarshi chaqiriqlari ostida hamisha uning imzosini ham ko'rish mumkin edi. Teymurning bu davrdagi ijodida jamiyatning inqilobiy va demokratik o'zgarishlarga munosabati o'z ifodasini topdi.

«Namoyish» («Ko'cha muzikachisi» hikoyalar to'plami, 1953) hikoyasida Misr jamiyatining barcha tabaqalarini qamrab olgan keng kurash fronti haqida so'z boradi. Sobiq davlat xizmatchisi, nafaqaxo'r Hasaneyn-afandi jamiyatni qayta qurish yo'lida xalq olib borayotgan kurashga o'z hissasini qo'shish uchun ommaviy namoishlarda ishtirok etadi va halok bo'ladi.

«Inqilobchilar» (Shu nomdagi hikoyalar to'plami, 1955) hikoyasidagi voqealar 1952 yilning fevral-avgustida Qohirada sodir bo'ladi. Misr uchun tashvishli bo'lgan kunlar talabaning kundalik daftari shaklida tasvirlangan. Yozuvchining xayrixohligi Misrning ijtimoiy tuzilishi uchun kurashuvchilar tarafida.

«Shamrux» romani Neftiston mamlakati taxti merosxo'ring poraxo'r monopoliyachilarga qarshi ishchilar huquqi uchun kurashi haqida hikoya qiladi. Bu asarda Mahmud Teymur o'z diqqatini chet el kapitali bilan kurashda ishchilarning sinfiy va siyosiy ongi o'sishiga qaratadi. Romanga epigraf «ijtimoiy kurash - tarixni harakatga keltiruvchi kuch» ham Teymurning estetik qarashlaridagi o'zgarishlardan dalolat beradi. Yozuvchi hayotga faol

munosabatda bo'lish zarurati, ijtimoiy, ma'naviy yovuzlikka qarshi kurash, turmushni takomillashtirish haqidagi fikrga qaytadi.

Inqilobdan keyingi davr hikoyalarida ijtimoiy, manaviy mavzu yana muhim o'rin egallaydi. «Musofirning tayog'i» (1958), «Maftunkor Tamorxinna» (1958) «Men qotil» (1962) kabi hikoyalar to'plamlari Misr jamiyatining turli tabaqalari - dehkoni, amaldor, mayda va o'rtahol burjuaziya, ijtimoiy «tubanlik» vakillari hayotidan olingan sahifalar bilan to'la.

Teymur «Musofir tayog'i»da o'smir yetim bolaning g'am-g'ussaga to'la bolaligi haqida hikoya qiladi. Yirtiq kiyimli o'n yashar bukri bola «Musofir tayog'i» deb ataluvchi g'alati nomdagi shirinlik sotib yuradi. Shirinlikni kichkina bukrining «murabbiysi, shishinqiragan aroqxo'r tayyorlaydi. Shirinliklarni sotayotgan bola bu «tayoq»ning mazasini bilmaydi. Kunlarning birida polisiyachi kelganini bilmay qolgan bukri sotilmay qolgan shirinliklarni shosha-pisha og'ziga tiqib qochadi. Bola xo'jayini tomonidan qattiq kaltaklanadi, lekin bunga achinmaydi. Endi kichkina bukri asalari inining mazasini bilar va xaridorlarga «ey, asalari inidan shirin. Tayoqcha-shirin. Shirin tayoqcha», deb qichqirganida bolaning ovozi samimiy va jarangdor chiqardi.

Hikoya Chexovning «baxtsiz bolalar taqdiri haqida alam» bilan yozilgan «Uyqu istagi», «Vanka Jukov» hikoyalarini esga soladi. Teymur hikoyasi qahramoni kaltaklanishga ongli ravishda boradi, lekin u o'zidagi kuchli muxolifga qarshi bolalarga xos qahramonlik bilan kurashdi. Uning g'alabasi og'zi shirinliklar bilan to'lgandagi kulgida ifodalanadi.

«Inson» hikoyasida yozuvchi yolg'izlik mavzusini ko'taradi. Yolg'iz, kasalmand odam o'lishga tayyorlanadi. Ko'chaga chiqqanida adashgan kabutar, yana o'z to'dasi tomonga uchib ketganini ko'radi. Uzoq ruhiy kechinmalardan so'ng, hikoya qahramoni yana mehnatga, insoniy jamoatga qaytish uchun o'zida kuch topadi.

Adib yoshlik yillaridagidek yana insoniylik va ezgulikni tahqirlangan va kamsitilgan odamlar ichidan axtaradi. Tyulen laqabli keksa aroqxo'r («Tyulen») kechalari kafeda shirakayf odamlarga latifalar aytib ovuntirar, evaziga kafe egasi unga stollardagi ovqat qoldiqlarini yig'ishtirib olishga ruxsat berardi. Ana shu tubanlashgan odamning hayotida maqsad paydo bo'ladi: qalbining butun harorati va nazokatini o'zidek baxtsiz va yolg'iz o'yinchi qizchaga bag'ishlaydi.

Misr inqilobi va respublikaning barpo etilishi arab novellasining yaratuvchilaridan biri bo'lgan Mahmud Teymur ijodiga barakali ta'sir ko'rsatdi. U o'zi yaratgan obrazlardagi axloqiy yuksaklikka alohida e'tibor berdi. Kitobxonlarni adib insoniy munosabatlarning qadriga yetishga va hayotda o'z o'rnini topishga undadi.

Mahmud Teymur murakkab ijodiy yo'lni bosib o'tdi. Bir necha yillar u o'zi tanlagan hayotni realistik aks ettirish tamoyiliga zid bo'lgan bo'lsa-da, qisqa hikoya janrida barcha arab mamlakatlarida M. Teymur oldiga tushadigan adib yo'q.

Taha Husayn (1889-1973) «Misr modernistlari» maktabining tan olingan vakili va nazariyotchisi. Uning qalamida mansub ko'plab kitoblar faqat arab mamlakatlaridagina emas, ulardan tashqarida ham ma'lum va mashhurdir. Taha Husayn asarlari rus, nemis, ingliz, fransuz va boshqa tillarga tarjima qilingan.

T. Husayn Shimoliy Misrdagi kichkinagina Megaga shaharchasida ko'p bolalik o'rta hol oilada tug'ildi. U yosh bolaligidayoq ko'r bulib qoldi. Bu baxtsizlik Misrda hech kimni taajublantirmaydi, u yerda ko'zi ojizlar behad ko'p. Uning yo'li aniq: qori bo'ladi, har hil yig'inlar bayramlar, motam marosimlarida Qur'on o'qiydi. Boladagi g'ayritabiiy diqqatni bir yerga to'plash qobiliyati uni aka-uka va singillaridan ajratib turardi. Taha Husayn hayotidagi ikkinchi bosqich: u Qohiradagi butun yer yuzidan musulmonlar oqib keladigan mashhur Al-Azhar diniy maktabiga kiradi, g'ayrat va tirishqoqlik bilan mumtoz arab adabiyotining boy xazinasiga sho'ng'iydi, o'zini hayajonlantirgan muammolarga ulardan javob qidiradi.

1908 yilda Qohirada Misr dorilfununi ta'sis etiladi. Unda arab adabiyoti, falsafa, tarix o'rgatiladi, darslar arab tilida olib boriladi, ammo muallimlar orasida Yevropa olimlari ham bor edi. Ko'zi ojiz Al-Azharning ozg'ingina o'quvchisi Taha Husayn tasodifan ularning ma'ruzalariga kirib qolib, kutilmaganda yangi metod haqida, manbalar tanqidi to'g'risida yangi

so'zlarni eshitadi. Uning irodasi kuchli, qarori qat'iy, mana u allaqachon Misr dorilfununi talabasi, 1914 yilda Misr dorilfununi doktori, uning disertatsiyasi XI asrda yashagan ko'zi ojiz shoir Abul alo al-Maariy ijodiga bag'ishlangan. Dorilfunun o'zining bu iqtidorli ko'zi ojiz talabasini bilimini oshirish uchun Parijga yuboradi. Sorbonna, Sharq tillari maktabi talabalari ma'ruzalarida yosh ko'zi ojiz misrlikni ko'rishga odatlanib qolgan edilar.

Ko'zi ojizlik T. Husaynda fikrni bir yerga ko'proq to'plash qobiliyatini kuchaytirdi, uni turli tuman materialni umumlashtirish, qayta ishlashga o'rgatdi. U yunon tili va adabiyotini o'rgandi, chunki kelajakda antik tarix kafedrasini egallashi kerak edi. Ammo jonajon arab qadamiyatini o'rganish aslo orqaga chekinishi mumkin emas. U mustaqil izlanishlarda va fransuz sharqshunoslari bilan bo'lgan suhbatlarda ham o'ziga ma'naviy, ilmiy ozuqa topdi. Fransuz tanqidchilari va adabiyotshunoslari ishlarini o'qish bilan uning metodi sayqallanadi va didi shakllanadi. T. Husayn nazarida, u o'z maqsadini ochiq ko'rayotgandek-Evropa fani usullarini vataniga olib o'tsa, manbalarga tanqidiy munosabatni tadbqiq etsa.

Parij uning shaxsiy hayotiga ham ajib o'zgarish kiritdi: bu yerda kitoblarda yozilgan bag'ishlovda aytilganidek «zulmatdan keyin tortiq qilingan nur, yolg'izlikdan so'nggi do'stlik, kulfat ketidan kelgan baxt»dek orzusidagi ayolni topdi. Bu bo'lg'usi xotini-fransuz qizi edi. 1917 yilda Taha Husayn Sorbonnada arab tarixchisi-sotsiologi Ibn Xaldun haqidagi dissertatsiyasini yoqladi. Ikki yildan so'ng Qohiraga Misr dorulfununiga qadimgi tarix professori bo'lib qaytdi.

Ko'zi ojiz olim uchun vatanida uning vazifasi aniq, lekin uning nuqtai nazari hammaga ham yoqavermas edi. U o'zining qadimiy arab she'riyati haqidagi kitobida (1926) tanqidiy tahlilni barcha adabiy manbalarga, hatto Qur'onga ham qo'llash lozimligi haqidagi fikrni bayon etganida Misrda bo'ron turgandek bo'ldi. Parlamentga talab kiritildi, kitob man' etildi, ish prokurorga oshirildi. Ko'zi ojiz professorning talabalar o'rtasida va ilmiy doiralardagi shuhrati cho'qqiga chiqdi. U yosh olimlar maktabini tashkil etdi. Lekin muxoliflar uyquda emasdi. Misrda tez-tez hukumat almashib turardi, 1932 yilda kutilmaganda u kafedradan va dars berish huquqidan mahrum etildi. Endi ko'zi ojiz olim tanqid va jurnalistika bilan shug'ullanadi.

Taha Husaynning adabiyot tarixchisi va nazariyotchisi sifatidagi qarashlari o'ziga xos emas. Ular to'laligicha g'arb orientalistlaridan olingan edi. Uning xizmati shundaki, arab adabiyotshunoslari ichida birinchilardan bo'lib sxolastik arab adabiyotshunosligining usul va metodlaridan voz kechdi. Maariy haqidagi dissertatsiyaning tuzilishiyoq arab adabiyotida novatorona edi. Taha Husayn al-Maariy she'rlarining shakl tahlili, matnlar izohi bilan cheklanib qolmasdan, o'z ishida tadqiqotning qiyosiy - tarixiy metodini birinchi bo'lib qo'lladi. Dessertatsiyada Al-Maariyning estetik va falsafiy qarashlari shakllanishiga ta'sir o'tkazgan shoir davri, ijtimoiy-iqtisodiy, adabiy muhit tadqiq etildi.

1935 yilda Taha Husayn olim sifatida barcha tomondan tan olingan edi. U yana Qohira doriulfununi va Arab davlatlari Ligasi qoshidagi arab muammolari institutining professori.

Adabiy ijod bilan bir vaqtda T. Husayn tanqid, adabiyot va san'at tarixi sohasida ko'p ishladi, qadimgi yunon lotin va fransuz tillaridan tarjimalar qildi. Keyinroq T. Husayn Iskandariya universiteti rektori bo'ldi. Vafdchilarning oxirgi hukumatida u maorif ministri (1950-1952) lavozimini egalladi. Uning davrida Misr maktablarida bepul ta'lim kiritildi.

50-yillarning ikkinchi yarmida adabiyotning vazifalari, uning mazmuni va shakli haqidagi munozarada Taha Xusayn yosh, demokratik kayfiyatdagi yozuvchilarni tanqid qilib, konservativ pozisiyada turdi. Taraqqiyparvar Misr adabiyotchilari arab adabiyotining keksa arbobi qarashlariga e'tiroz bildirish bilan birga uning ulkan iste'dodi va arab madaniyatini qayta tug'ilishidagi xizmatlarini hamisha munosib baholar edilar.

1956 yilda T. Husayn «Misr yozuvchilari uyushmasi»ga boshchilik qildi, 1965 yilda Qohiradagi arab tili akademiyasiga prezident etib saylandi. Hukumat uni davlatning yuksak mukofotlari bilan taqdirladi. Bir qancha horijiy akademiyalar uni o'zlarining faxriy a'zosi qilib sayladi.

Taha Husaynning hayot yo'lidagi barcha manzil va dovonlar o'ziga xos go'zal, kishining havasini keltiradi, badiiy tasvir, bayonga loyiqdir. Shunisi qiziqki, adib o'zining qalb dunyosini badiiy shaklda ifodalashni lozim deb topgan.

Haykaltarosh va zargar Benvenuto Chellini ulug' yoshga yetganida o'z avtobiografiyasida: «Har qanday tabaqaga mansub hamma odamlar qandaydir jasoratga o'xshash ish qilgan bo'lsalar, o'z qo'llari bilan hayotlarini tasvirlab berishlari kerak, lekin bu xayrli ishni qirqqa kirmasdan boshlaganlari ma'qul»¹⁷. Taha Xuseyn mashhur italiyalik san'atkorning maslahatiga amal qilganga o'xshaydi: avtobiografik trilogiyasining birinchi kitobi «Kunlar» uning qirqqa kirganida, 1929 yilda bosilib chiqdi.

«Kunlar» qissasi Taha Husayinning birinchi badiiy asari edi. U yozuvchi nomini darhol mashhur qildi. T. Husayn Arab sharqidan tashqarida ham shuhrat qozondi. Trilogiyaning birinchi qismi ingliz, fransuz, qadimgi yahudiy, nemis, xitoy va rus tillariga tarjima qilindi.

«Kunlar» avtobiografik qissa bo'lib, unda muallif Nil bo'yidagi kichik shaharcha Kuttabda o'qigan davri xaqida hikoya qiladi.

«Avvalo, bu asardagi ilgarigi arab adabiyotiga begona bo'lgan realistik tamoyil hayratga soladi», deb yozgan edi Anastas Xolidov. Kitobxon ko'z o'ngida islom ruhi bilan yo'g'rilgan, xalq dinining o'ziga xos shakliga ega, rasmiy islom bilan umumiyliги kam bo'lgan, maishiy tafsilotlarga to'la hayot gavdalanadi. Asarda tadqiq qilinayotgan hayot lavhalariga ijtimoiy ma'no berilgan. Kichik shaharchada o'zaro kurashayotgan kuchlar, ziddiyatlarining avj olishi, keyinroq shaharchanigina emas, butun mamlakatni larzaga soladigan ziddiyatlarning keskinlashib borishi badiylikka putur yetkazilmagan holda ochib berilgan.

Kitobxon ko'z oldidan din peshvolari bo'lgan qator obrazlar o'tadi. Muallif shayxlar, qozilar azayimxonlar haqida yozarkan, o'z kinoyasini yashirmaydi. Asarda kuttablik nodon va kaltabin muallimning esda qolarli obrazi yaratilgan. Uning uchun o'quvchilar bilimining o'lchovi - Qur'onni ko'r-ko'rona yodlash, shuningdek, ota-onalardan keladigan nazr-niyoznining miqdori.

Muallimning ko'zi ojizligi asar uslubida ma'lum iz qoldirgan. O'quvchi bu og'zaki hikoya ekanini, muallif o'z qo'li bilan yozgan kitob emasligini his qiladi. Bayon sokin, epik ohangda boradi, ba'zida diqqat asta-sekinlik bilan mahkam jalb qilib olinadi, ba'zida esa, akasining o'limi haqidagi hikoyaga o'xshab dramatism yuksak darajasiga ko'tariladi.

Asardagi ayniy, ya'ni ko'rish orqali tasvirlanadigan obrazlar tasvirichi? Muallif «ko'rdim», «o'qidim» deydi, hatto ranglarni eslatadi, «yuzining rangi qoraygan»ini tasvirilaydi. Bu detallarda bolalikning anglanmagan taassurotlarini izlash kerakmi? Axir u 4 yoshligida ko'r bo'lgan-ku! Bu yerda, to'g'rirog'i, adabiy tilning ko'p asrlik an'anasi, asrlar davomida yaratilgan va ma'lum shtampga aylangan xislat amal qiladi. Bu yerda til ma'lum darajada ongni o'ziga bo'ysundirgan. Bu yana bir bor mazkur asarning arab tili bilan chambarchas aloqasini ko'rsatadi. Bu uning ildizini faqat arab adabiyotidan izlash kerak deganimi? Nahotki u muallifning butun tarjimai holi, uning adabiy taassurotlari qanchalik kuchli va murakkabligini ko'rsatibgina qolsa? U axir o'z adabiyotini, antik adabiyotni yaxshi bilgan, fransuzchadan ko'p tarjimalar qilgan adib edi.

«Kunlar» qissasi yengil yumor bilan yo'g'rilgan. Muallimning o'ziga bo'lgan katta ishonchi, ichki qudratini anglash bu yumorni yoqimtoy qiladi. Ko'pgina hollarda islomiyat va uning tarafdorlari ustidan yengil kinoya namoyon bo'ladi, ba'zida esa bu yumor ayovsiz sarkazmga aylanadi (so'fiylar zikr tushirish sahnasi, Qohiradagi birinchi ma'ruza), ba'zida bir luqma tashlash bilan yakson qiluvchi tahlilining mohiyatini ochadi.

Yozish uslubidagi ba'zi o'xshashliklar - sokin va shoshmasdan bayon etish uslubi Husayn Haykalning «Zaynab» qissasida mavjud: ammo bu zohiriy o'xshashlik, xolos. Aslida, «Kunlar» xuddi uning muallifidek o'ziga xos. Bu asar yozuvchi nomini shuhratga cho'lg'adi, uni Arab sharqidan tashqarida mashhur qildi. Muvaqqafiyatdan ruhlangan Husayn qayta va qayta badiiy ijodga murojaat qildi. 1939 yilda «Kunlar»ning ikkinchi qismi chiqdi. Unda u o'quvchini o'tmish qa'riga cho'kib borayotgan sxolastik o'rta asr bilimdonligi bilan tanishtiradi, al-Azhar shayxlari obrazlarini goh mayin yumor, goh o'tkir kinoya bilan chizadi. T. Husayn yosh aql

¹⁷ Таха Хусейн. Избранное. М., 1989, стр. II

sohiblarining islom islohotchilari g'oyalari va ilg'or Misr publisistikasi ta'sirida o'lik aqidalaridan ozod bo'layotganini aks ettirdi.

«Kunlar»ning uchinchi qismida (1967) biz yosh yigitni (T. Husayn o'zini uchinchi shaxs siymosida beradi) endigina ochilgan Misr dorilfununining talabasi sifatida ko'ramiz. Uning oldida yangi dunyo butun go'zalliklari bilan namoyon bo'ladi. Taha Husayn ulkan zavqu shavq bilan Misr va chet ellik olimlarning ma'ruzalarini eshitadi. Universitetdagi mashg'ulotlar ko'zi ojiz talabadan haddan ziyod kuch, g'ayrat talab etadi. Boshqalar o'qishi mumkin bo'lgan narsalarni u eshitib yoki ma'ruzachilarning so'zlarini yodda saqlash bilan o'zlashtirishi lozim edi. Hayraotomuz iroda kuchi va maqsadga intilish bu to'siqlarni yengadi. U dorilfununi a'lo baholarga tugatib, Abul Alo al-Maariyga bag'ishlangan doktorlik dissertatsiyasini yoqlaydi. Uning ezgu orzusi amalga oshadi, yosh olimni Fransiya yuborishadi. U yerda T. Husayn antik tarix va falsafadan mutaxassis bo'ladi. Shu yerda yosh fransuz talaba qizga ko'ngil qo'yib, unga uylanadi.

Kitobning uchinchi qismida biz Misr va Fransiyaning asr boshidagi hayotining rang-barang voqealari guvohi bo'lamiz. Shu davrdagi ulkan tarixiy hodisalar, urushlar, inqilobiy harakatlar, Misrning mashhur davlat arboblari, olimlari, yozuvchilari, dunyoga dong'i ketgan Yevropa sharqshunoslari, al-Azhar shayxlari bilan tanishamiz. Kitob muallifi o'zining Misr hukmdorlari, sulton saroyidagi uchrashuvlar hakida yozadi.

Xuddi oldingi ikki qismdagidek muallif uslubi vazmin va jozibali. Jumlar g'oyat ravon va aniq. T. Husayn uzundan-uzoq gaplarni yoqtirmaydi-qisqa, lo'nda gapiradi. Bu hol asarlarning aytib turib yozilgani bilan bog'liq. 1930-40-yillarda T. Husayn akademik I. Yu Krachkovskiy iborasi bilan aytganda «o'z kuchi jihatidan hayratga soladigan, Misr provinsial hayotidan olingan ikkita qissa: «G'urrak chaqirig'i» (1934) va «Musibat daraxti»ni (1944) yaratdi. Har ikki asarda T. Husaynning atoqli Misr publisisti, xotin-qizlar ozodligi uchun kurashchi Qosim Amin qarashlariga qiziqishi o'z aksini topdi.

«G'urrak chaqirig'i» asari markazida badaviylarning shafqatsiz «nomus kodeksi» bilan shahardagi xulq erkinligi orasidagi to'qnashuvi yotadi. T. Husayn qissa qahramoni - qishloq qizi Aminani kuchli, irodali qilib tasvirlaydi. Oxiri u shaharlik injener, singlisi Xinadani yo'ldan urgan yigitdan g'olib keladi.

Yangi dunyoni patriarxal, umrini tugatgan olamga qarama-qarshi qo'yarkan, T. Husayn o'z asarida ayolning muhabbatga, ta'limga, mustaqillikka xaqqi bor, degan masalani o'rta tashlaydi. Yozuvchining hayrixohligi injener va Amina tomonida, ularning kuchi bilim, madaniyat, illatlarga qarshi kurashga intilishdadir. Lekin injenerning (u Xinadani aldab, o'limiga sababchi bo'ladi), Aminaning (u shantaj, qo'rqitish yo'li bilan injenerga ega bo'ladi) xatti-harakatlari axloqiy jihatdan kitobxonda ijobiy fikr uyg'otmaydi.

Qissa shu jihatdan ahamiyatliki, unda XX asr boshlarida Misr jamiyati hayotidagi ro'y bergan o'zgarishlar badiiy jihatdan ishonarli ko'rsatilgan. Taha Husayn Nosir (Hindaning tog'asi), Zuhra (Hinadaning akasi) tushunchalaridagi fanatizmni qoralaydi, ular bid'at, xurofot qurboni bo'ladilar. (Hinda zino qilgani uchun tog'asi tomonidan o'ldiriladi).

Qissaning fazilatlari uslubning sodda va poetikligi, Misrning chekka qishlog'idagi turmushni haqqoniy tasviridadir. Tunda qichqiradigan qushning ramziy obrazi qahramonni o'z maqsadi sari borishga, to'siqlarni yengishga chorlaydi.

Misr provinsiyasiga yangiliklarning kirib borishi mavzusi «Musibat daraxti» qissasida davom etadi.

T. Husayn Abdurahmon va Ali degan savdogarlar oilasidagi voqealarni ijtimoiy-maishiy ziddiyatlar asosida aks ettiradi. Xolid va Nafisalarning moddiy manfaatlar asos qilib olingan nikohi yoshlarga baxt keltirmaydi. Xolidning onasi aytgan bashorat to'g'ri chiqadi: ana shu nikoh bilan xonadonga baxtsizlik kiradi, degan edi Xolidning onasi o'limi oldidan. Hamisha Xolidning bevafoqligi, xiyonati haqida o'ylash, yolg'izlikni his etish Nafisani telbalikka olib keladi. Chet el raqobati Ali va Abdurahmonni xonavayron qiladi. Nafisaning ikkala qizi-go'zal Samiha va badabashara Gullenor ham nikohda baxtsiz. Xolidning onasi aytgan bashorat to'g'ri chiqadi, musibat daraxti o'z mevasini beradi.

«Kunlar» va «G'urrak chaqirig'i»dan farqli o'laroq, «Musibat daraxti»da irodali xarakterlar yo'q. Qismat barcha qahramonlar taqdirini hal qiladi, faqat kichik avlod, Xolidning o'g'illari turmushdagi eski an'analarga nisbatan o'z iroda va qarshiliklarini ko'rsatadilar, o'qishga, yangi hayotni his etishga urindilar.

1946-1947 yillarda T. Husayn «Misr adibi» jurnalida qishloq kambag'allari to'g'risida turkum hikoyalar e'lon qiladi, keyinroq ularni «Yerdagi jafakorlar» (1948) to'plamiga kiritdi. U dastlab Beyrutda nashr etildi, chunki o'sha davrdagi Misr hukumati kitobni chop etishni taqiqlagan edi. To'plam so'z boshida T. Husayn Misr jamiyati haqidagi ko'z qarashlarini bayon etdi. Bu jamiyat, yozuvchining fikricha, ikki sinfga bo'lingan: bir yoqda kambag'allar sinfi - «yerda azob-uqubat chekuvchilar», bema'ni nodonlikda, ochlikda, gadoylikda hayot kechiruvchilar va boshqa yoqda ozchilikni tashkil qiluvchi farovonlikda yashovchi, kambag'allar dardi, alamiga beparvo, to'qlar sinfi.

To'plam kambag'al bola haqidagi ta'sirchan «Solih» hikoyasi bilan boshlanadi. Solih ochlik va qashshoqlikdan fig'on chekayotgan ko'p millionli Misr xalqining timsoli.

To'plamdagi ko'pgina hikoyalar Misr ayolining fojiali taqdiriga bag'ishlangan. Xonadonga ikkinchi yosh xotinning kelishiga chiday olmagan oila bekasi o'ladi («Do'st»), barvaqt, sevmagan odamiga turmushga berilgan qizcha, o'zini - o'zi halok qiladi. «Qosim» hikoyasida sodda qishloq qizi boy tomonidan bulg'anadi.

«Solih», «Bemor Misr», «Xavf» hikoyalarida ijtimoiy illat fosh etiladi, muallif yuksak grajdanlik his-tuyg'ularini ifodalaydi. Ammo T. Husayn vaziyatlarni keskinlashtirmaydi va ijtimoiy muammolarni aniq qo'ymaydi. Monarxistik Misr uchun tipik bo'lgan u yoki bu faktni topadi, lekin uning ijtimoiy tabiatini tushuntirmay, boylarning vijdoniga murojaat qilib, ularni adolatga undaydi. Mavjud holatdan chiqishni ijtimoiy sharoitlarni tubdan o'zgartishda ko'rmasdan, o'z boyligidan ozginasini kambag'allarga berishga qorni og'riydigan boylarni yaxshilik va saxiylikka chaqiradi. T. Husayn agar boylar nochorlarga shafqat qilsa, Olloh ularga yuz karra ziyoda qilib qaytarishini aytadi. Adibning «Birdamlik», «Boylik tashvishi», «Saxiylik» hikoyalari zahirida ana shu g'oyalar yotadi. Taha Husayn realist bilan Taha Husayn faylasuf o'rtasidagi qarama-qarshilik «Bemor Misr» hikoyasida yaqqol ko'rinadi.

Bu yerda, bir tomondan qashshoqlikning saraton shishi yemirgan mamlakatdagi mavjud holatning keskin tanqidini, boshqa tomondan esa, misrliklarni yangi hayotga chaqirayotgan faylasuf liberalni ko'ramiz.

Liberal targ'ib etayotgan yangi hayot mohiyati «hamkorlik, o'zaro yordam, kuchlilar va zaiflar, boylar va kambag'allar o'rtasidagi farqni yo'qotish», bu bilan inqilobgacha bo'lgan Misr jamiyatini yemiruvchi ziddiyatlarni silliqlashga intilishdir.

«Yerdagi qashshoqlar» to'plamidagi hikoyalar mamlakatda ijtimoiy o'zgarish zarurati yetilganiga ishonitiradi va bu bilan inqilobning yaqinlashishiga ko'maklashadi. Misr adabiyotshunosi Shukri Ayadaning fikricha, T. Husaynning «Yerdagi qashshoqlar» to'plami Misr jamiyati hayotining qorong'u tomonlarini tasvirlashga eshiklarni keng ochib berdi. Shu eshikka hikoyanavislarning butun bir avlodi intildi.

Taha Husayn badiiy ijod bilan bir vaqtning o'zida adabiy tanqid, adabiyot va madaniyat tarixi borasida ham ko'p ishladi. Uning adabiyotshunoslikka oid ishlaridan diqqatni eng tortadiganlari o'rta asr va zamonaviy arab adabiyoti haqidagi ma'ruzalar turkumidir. T. Husaynning islom tarixiga oid asarlaridan «Chorshanba suhbatlari» (1-3 jild, 1925-1953), shuningdek, «Abul Alo qamoqda» (1939) essesi, umrining oxirlarida tez-tez murojaat qilgani avliyolar haqidagi asarlar, ayniqsa, islom asoschisi Muhammad alayhissalomning hayotiga oid sahnalardan iborat asarlar shular jumlasidandir.

Tavfiq al-Hakim (1898-1986) arab Sharqining atoqli yozuvchilari —M. Nuayme, J. X. Jubron, Mahmud Teymurlar avlodiga mansub adib. Uning eng mashhur asarlari vatanida 6-8 martadan nashr qilinib, arab maktablarida o'rganiladi, kino va televideniya ekranlashtiriladi, dunyoning ko'p tillariga tarjima qilingan.

Tavfiq al-Hakim Iskandariyada tug'ildi. Otasi ma'lumoti bo'yicha yurist bo'lib, Dilijon qishlog'ida yirik ferma egasi edi. O'rta maktabni tugatgach, Tavfiq al-Hakim Qohiradagi Oliy

Huquq maktabiga kiradi. Ammo yuristlik kasbi ota-ona istagi bilan tanlangani uchun uni qiziqitirmadi. Chunki unda adabiy salohiyat kurtak yozayotgan edi. Bu yosh yigitning bo'lg'usi faoliyatini belgiladi. 1924 yilda Sorbonna dorilfununining adliya fakultetiga o'qishga qabul etiladi. Parijda u to'rt yil davomida Yevropa adabiyoti va san'ati, muzikasini o'rganadi, teatr, konsertlarga boradi. 1928 yilda Misrga qaytadi va 1934 yilgacha viloyat prokuraturasi organlarida ishlaydi.

Al-Hakimning pesalari Qohira, Damashq, London, Parij, Stokholm va dunyoning boshqa shaharlari sahnalarida o'ynaladi.

Parijdagi o'ta zavqli, jo'shqin hayotdan keyin yosh yozuvchi uzoq, qoloq arab qishlog'iga tushib qoladi. U yerda yosh yigitni xaqiqiy turmush o'zining butun dahshatlari bilan kutib oladi. Tergovchi bo'lib ishlash unga mamlakatidagi haqiqiy holatni ko'rishga yordam berdi, yurtda feodal munosabatlar, dahshatli qashshoqlik, johillik, o'zboshimchalik hukmronligini bildi.

Ana shu viloyatdagi hayoti, boy shaxsiy kuzatishlari asosida Tavfiq al-Hakim o'zining mashhur, «Viloyatdagi tergovchining xotiralari» (1937) asarini yaratdi. 1943 yil yuristlik faoliyatidan voz kechib, professional yozuvchi bo'ldi.

Tavfiq al-Hakim Misrning eng ko'p va eng huquqsiz sinfi-fallohlar hayoti bilan tanishdi.

Tavfiq al-Hakim davlat ishi va adabiy faoliyatni mohirona qo'shib olib borardi. 1956 yilda u san'at va adabiyot ishlari bo'yicha Oliy Kengashning a'zosi etib saylanadi. O'sha yili Misrning YuNESKOdagi doimiy vakili etib tayinlanadi.

1977 yil Osiyo va Afrika mamlakatlari yozuvchilari Assotsiatsiyasi uni sermahsul adabiy faoliyati uchun Nilufar mukofoti bilan taqdirlaydi.

Tavfiq al-Hakim keng qamrovli adib. Uning asarlari mavzusi va janrlari g'oyat rang-barang. Yozuvchining qalamiga mansub dramalar, romanlar, qissalar, adabiyot nazariyasiga oid ishlar, adabiy tanqidiy maqolalar, shuningdek, komediyalar, novellalar, esse, rivoyatlar, latifalar va aforizmlar arab Sharqida ma'lum va mashhur. Uning asarlari rusiyazon kitobxonlarga yaxshi tanish: «Viloyatdagi tergovchi xotiralari» qissasi, «Ruhning qaytishi», «Til biriktirish», «Sof muhabbat» komediyalari, qator hikoyalari rus tiliga tarjima qilingan.

XX asrning 20-30-yillari Misrda realistik yo'nalishdagi adabiyotning gurkirab rivojlangan davri bo'ldi. Bu taraqqiyot Yaqin Sharq mamlakatlaridagi milliy – ozodlik harakatining o'sishi bilan birga bordi. Milliy harakat ishchilar, dexqonlar, burjuaziya, ziyolilar, talabalarning keng qatlamlarini qamrab oldi. 1919 yilda Misrda inglizlarga qarshi qo'zg'olon ko'tarildi. Misr xalqining zulmga qarshi qaratilgan ana shu chiqishi ta'siri ostida Tavfiq al-Hakim «Ruhning qaytishi» romanini yaratdi. Ushbu avtobiografik asar dastlab fransuz tilida yozildi, keyin arab tiliga tarjima qilinib, 1933 yilda 2 qismda e'lon qilindi.

Muhsin degan bola qishloqdan poytaxtga keladi va qarindoshlari-amakilari oilasiga joylashadi. Bu obraz ko'p jihatdan avtobiografik xislatga ega. Romanda, asosan, ana shu katta oila a'zolari orasidagi murakkab munosabatlar, o'spirin Muhsin va uning yoshgina amakilarining qo'shni qizga bo'lgan ilk yashirin muhabbatlari tasviriga bag'ishlangan.

Bu davrda poytaxtda inqilobiy voqealar sodir bo'ladi, aka-ukalar va jiyanlar bu kurashga qo'shiladilar. Roman qahramonlarning inqilobiy varaqalar tarqatganlari uchun hibsga olinishi bilan yakunlanadi. Ammo asar xalqning tezda g'alaba qilishi va mustaqillikka erishishiga ishonch ruhi bilan sug'orilgan. Asarda qishloq tasviri, fallohlar hayotiga ko'p e'tibor berilgan. muallif ularga mehr va xayrihohlik bilan munosabatda bo'ladi, ba'zida ularni ideallashtiradi ham.

Yozuvchining fallohlarga qiziqishi tasodifiy emas. U 20-yillarda «Misr misrliklarga» shiorini o'rtaga tashlagan Misr liberal burjuaziyasi orasida hukmron bo'lgan kayfiyatni ifodalaydi. Xaqiqiy misrliklar deganda avvalo fallohlar - qadimgi Misr dexqonlarining avlodlari tushunilardi.

«Viloyatdagi tergovchining xotiralari» (1937) kundalik shaklida yozilgan, 10 bobda tergovchining 10 kunlik hayoti, no'malum fallohning sirli o'ldirilishi, qotilni topishga uringan tergovchi haqida hikoya qilinadi. Sehrli qotillik tarixi va uni tergov qilish chekka Misr

qishlog'idagi zerikarli, g'amgin hayotni aks ettiruvchi qator lavhalarni bog'lash uchun ip vazifasini o'taydi.

Romanda adib misrliklarga qadimgi zamonga xos bo'lgan birdamlik ruhining qaytishi haqida yozadi. Al-Hakim ana shu g'oyani butun ijodi bo'ylab olib o'tadi.

Birinchi bobda sodir etilgan jinoyat ochilmay qolaveradi. Lekin adib hukmdorning huquqsiz xalqqa qilgan dahshatli jinoyatlarini fosh qiladi. Qissa sahifalarida so'roq, tergov, sud majlislari lavhalari aks ettiriladi. Adolatni qo'riqlashi kerak bo'lgan qonun aslida uni bo'g'ishga xizmat qilayotganiga kitobxon amin bo'ladi. Tergovchi kitob oxirida behudaga alam bilan «Qani o'sha adolat? Men uni tasavvur ham qilolmayman, hech qaerda uni ko'rmadim. Bizga hech kim hech qachon uni ko'rsatmagan», - deydi.

Qissada, ayniqsa Misrning sud mashinasi keskin tanqid qilinadi. Ko'pincha, sudlashuvchilar nima uchun sud qilinayotganliklarini bilmaydilar ham. Sud tomonidan solingan son-sanosiz jarimalarni ularga osmondan tushgan shunchaki soliq yoki kulfat deb tushunadilar. Qonun: «To'la», deydi. Ular to'laydilar. Qissa qahramoni muallif fikrini ifodalab, alam bilan «Men ko'pincha o'zimga savol beraman: bunday sudning ma'nosi nima? Uning qanday tarbiyaviy ahamiyati bor? Axir qonunbuzarlar mutloq o'z ayblarini bilmaydilar», - deydi.

Qissada fallohlarning turmushi tasviriga ko'p o'rin berilgan. O'zlarining ayanchli, tomi g'o'zapoya va makkajo'xori poyalari bilan yopilgan loysuvoq kulbalarida fallohlar yashamaydilar, balki bema'ni kun kechiradilar. Och, savodsiz, ular ishboshilarining xaqorat va kamsitishlarini indamay ichga yutadilar. Muallif ularga chuqur hamdardlik bildiradi, ayni chog'da fallohlarning tobeligi, itoatkorligi, o'zini himoya qilishga qodir emasligi ba'zan adib qalbida norozilik va umidsizlik tuyg'ularini uyg'otadi.

«Xotiralar»ning e'lon qilinishi Misr matbuotida jo'shqin aks sado, fikr-mulohazalar, bahslarga sabab bo'ldi. Kitobning barcha tiraji bir necha kunda sotilib bo'ldi, o'sha yili 2-nashri chiqdi.

«Xotiralar» Tavfiq al-Hakimni Misrning eng yaxshi yozuvchilari qatoriga qo'shdi. Misr byurokratik mashinasining fosh etilishi reaksiyaning muallifga hujumi uchun asos berdi. U 1934 yildan buyon ishlab turgan o'rni Oliy ta'lim vazirligidan ketishga majbur bo'ldi.

«Ruhning qaytishi» va «Xotiralar» arab adabiyotida tanqidiy realizm taraqqiyotiga sabab bo'ldi.

Shuni ham aytish joyizki, Tavfiq al-Hakim hamma vaqt realistik pozisiyada turaolmadi. Uning ijodiy yo'li murakkab va ziddiyatli. Arab Munaqqidlari uni «iztirob chekkan adib» deb atashadi. Ko'pincha yangi badiiy shakllar izlash uni real voqelikdan chetga tortadi. Uning ijodida simvolizm va impressionizm ruhida yozilgan asarlar ham ko'p uchraydi.

Katta avlodga mansub yozuvchilar singari Tavfiq al-Hakim ham burjuaziyani xalqqa yordam beradigan yagona kuch deb bildi. Ammo 30-yillarda burjuaziya milliy manfaatlariga xiyonat etganda Tavfiq al-Hakim alamdanda o'zining «fil suyagidan qurilgan minorasi»ga ketadi, xalqdan ajralib, «san'at san'at uchun» nazariyasini targ'ib etadi.

1936 yilda Tavfiq al-Hakim Fransiyada Taha Husayn bilan uchrashdi va u bilan birga «Sehrlangan qal'a» romanini yozdi. Unda «1001 kecha» qahramoni donishmand Shahrizoda haqida hikoya qilinadi. Bundan tashqari, romanda mualliflar adabiyot va san'atning mohiyati va vazifasi haqida ko'z qarashlarini bayon qildilar.

Arab adabiyotida va undan tashqarida Tavfiq al-Hakim dramaturg sifatida ko'proq mashhur. Arab tanqidchilari qonuniy ravishda uni «arab dramaturgiyasining kashshofi» deb atashadi. Adib dunyoqarashidagi ziddiyatlar uning pesalarida ham o'z ifodasini topgan. «Rang-barang teatr» nomli pesalar to'plamiga yozgan so'zboshisida Tavfiq al-Hakim uni noizchilikda ayblab, «parishon san'atkor» deb atagan muxoliflariga javob berarkan «har qanday Yevropa dramaturgi o'z ishida ellinlar davridan meros qolgan mumtoz obrazlarga asoslanadi, bizning mamlakatlarimizda esa dramatik asarlar yaratish tajribasi hali oz, chunki arab adabiyoti dramaturgiyani janr sifatida bilmasdi. Menda tur va janrlarning shunday rang-barangligi ana shu

joydan boshlanadi: ijtimoiy yoki maishiy romandan falsafiy dramalarga yoki siyosiy komediyalarga, goh adabiy tilda, goh shevada¹⁸ yozishlarim shundan.

Ahmad Shavqiyning klassisistik tragediyalari bilan cheklanib qolgan Misr dramaturgiyasi uchun Tavfiq al-Hakimning falsafiy pesalari romantizmga yo'l ochdi. Bu esa adabiyotdagi qoloqlikni yengish va uning keyingi taraqqiyoti uchun o'ta muhim edi.

Turli xalqlar san'ati taraqqiyot bosqichlarini hamisha ham izchil bosib o'tavermagan. Lekin akademik Konrad hamma uchun umumiy bo'lgan zaruriy shartga diqqatini qaratgan edi: «Romantizmni o'zlashtirmasdan to'laqonli realistik adabiyot yaratib bo'lmaydi». XX asrning dastlabki o'n yilliklarida romantizm arab she'riyatida mustahkam mavqeni egalladi, 20-yillardan prozaga kira boshladi. Al-Hakimning pesalari dramaturgiyada ham romantizmga o'tishi uchun zamin tayyorladi.

G'arb madaniyatini o'zlashtirishga chaqirar ekan, yozuvchi ayni chog'da G'arb madaniyati Sharq madaniyatini yutib yuborishiga yo'l qo'yimaslikni talab etadi, «o'z daraxtlarini chet el o'simliklari to'sib qo'yimasligini» yoki «ishqilib, biz o'zgalar ovozi bilan baqiradigan to'tiga aylanmasak bo'ldi», degan edi.

Yosh dramaturgga hammaning diqqatini tortgan birinchi pesa «G'orda uxlayotganlar» (1933) dramasi bo'ldi. Uning muvaffaqiyati shu qadar katta bo'ldiki, o'sha yiliyoq qayta nashr etildi, bir yildan so'ng esa, Qohirada endigina ochilgan milliy teatrda sahnalashtirildi.

Drama syujeti qadimgi hind afsonasi «Uxlayotgan yetti o'smir»dan olingan. Mazkur afsona Sharqda juda mashhur, hatto Qur'on suralaridan birida o'z aksini topgan. Tavfiq al-Hakim uni bir necha marta shaklini o'zgartirdi, qahramonlar sonini qisqartirdi, voqealar o'rnini Rim provinsiyalaridan biriga ko'chiradi.

Majusiylar imperator ta'qibidan qochgan uch nasoro, ya'ni cho'pon va imperator yaqinlaridan ikki kishi g'orga yashirilib u yerda uxlab qoladilar. Ularning uyquasi 300 yil davom etadi. Ular uyg'onib g'ordan chiqishadi, atrofdagi hamma narsa o'zgarganidan ular taajjublanadilar. Ulardan biri oldin cho'pon edi, poda boqardi, endi poda g'oyib bo'lgan. Boshqasi yashagan uy o'rnida hozir bozor, barcha tanishlari allaqachon o'lishgan. Uchinchisi esa, sevgan qizi huzuriga chopib ketadi. Nazarida uni topadi, lekin bu qiz u sevgan qizining chevarasi bo'lib, katta buvisiga juda o'xshar ekan. Yangi hayotda o'z o'rnini topolmasdan barcha qahramonlar g'orga qaytadilar va yana uxlab qoladilar.

Pesaning asosiy falsafiy g'oyasi: hayotning qimmatini hayotning o'zida emas, insonni o'rab turadigan dunyo bilan bog'laydigan aloqalar yig'indisida. Agar vaqt - insonning azaliy dushmani bu aloqalarni uzib tashlasa, inson hayoti ma'no va ahamiyatini yo'qotadi.

«Junun daryosi» – ramziy pesa, qadimgi afsonaga asoslangan. Bu asardagi podshoning barcha fuqarosi zaharlanganini bilmay, daryodan suv ichadi. Shu suvdan bir ho'plam ichgan odam aqlidan ozadi. Butun aholisi jinni bo'lib qolgan saltanatda faqat podsho va uning vazirigina sog', xolos, boisi ular daryo sirini biladilar, aholi esa podsho va vazirni jinni deb biladi. Ana shu malomatdan qutulish uchun podsho va vazir ham suvdan ichadilar, hamma qatori bo'ladilar.

Pesa inson shaxsini kishanlashga, bo'g'ishga qarshi qaratilgan. Bu Tavfiq al-Hakimning reaksiya doiralari tomonidan yosh Misr madaniyatini o'zlarining reaksiya fikrlari jarchisiga aylantirishiga javobi edi. Ayni chog'da, bu yozuvchining fosh etuvchi maqolalari va satirik pameletlari uchun unga qarshi uyushtirilayotgan ta'qiblarga javobi edi.

Ko'pgina tanqidchilar Tavfiq al-Hakimni asarlari hayotdan uzilgan, deb koyirdilar. Yozuvchining o'sha paytdagi partiyalardan birortasiga yaqinlashishni istamaganini go'yo dunyodan uzilishni xohlagani, «fil suyagidan yasalgan qal'aga» yashirinishga intilgani deb baholadilar. Ana shu ta'nalarga javob tarzida 1991 yilda nashr etilgan «Fil suyagidan qurilgan qal'adan» kitobi paydo bo'ldi.

Bu kitob yozuvchining adabiyot va san'atning ahamiyati, hayotdagi o'rni to'g'risidagi uzoq yillik iztirobli o'ylarining samarasi sifatida dunyoga keldi.

¹⁸ Юнусов К. О драматургии Тауфика аль-Хакима. М., 1976 стр 125

Tavfiq al-Hakim nazarida Sharq adibining fojiasi uning yolg'izligi, suyanadigan hech kimi yo'qligida, chunki adabiyot hukmdorni ham, raiyatni ham, qiziqitirmaydi. Shunday qilib, «Fil suyagidan qilingan qal'a»ning mahbusi faqat Tavfiq al-Hakimgina emas, Misr adabiyotidir. Yozuvchilar qanchalik xalqqa xizmat qilish uchun intilmasinlar, ularning olijanob niyat, intilishlari oldindan muvaffaqiyatsizlikka mahkum: xalq savodsiz, adiblarning unga qaratilgan so'zlarini eshitishga qodir emas.

Ana shunday kayfiyatlar natijasi o'laroq dramaturg simbolizmga murojaat etadi va 1942 yilda «Pigmalion» pesasini e'lon qiladi. Bu asar mashhur yunon haykaltaroshi haqidagi asotir asosida yozilgan.

Tavfiq al-Hakim ilk pesalaridagidek, «Pigmalion»da ham o'sha usulga amal qiladi: pesaning voqeasi mashhur ertak yoki afsona qahramonlarning keyingi taqdiri davomi sifatida sodir bo'ladi. Xudo iste'dodli haykaltaroshning nolalarini e'tiborga olib, u yaratgan go'zal qiz haykaliga jon kiritadilar va qiz uning xotini bo'ladi. Sohibjamol Galateya yengiltabiat bo'lib, eridan qochib, uning yosh shogirdlari oldiga ketib qoladi.

Pigmalionga Apollon yordam qo'lini cho'zadi. U lirada qochib ketgan go'zalning qalbini rom etuvchi ehtirosli madhiyalar chaladi. Uni aql va donolikka undaydi. Galateya tavba qilib, eriga tobe bo'lib qaytadi. Pigmalionga endi azobli damlar boshlanadi: uning Galateyasi, go'zallik va barkamollikning ideali jonsiz haykal bo'lgan chog'ida unga sig'inardi, endi o'sha go'zal ovqat pishiradi, uy-joyini tozalaydi. Haykaltarosh yana xudoga yolvorib, Galateyani jonsiz figuraga aylantirishni iltijo qiladi. Xudo uning irodasini bajo keltirganida Pigmalion haykalni sindiradi va o'zi ham o'ladi.

«Pigmalion»da muallif chinakam san'at bilan hayot, ideal bilan voqelik o'rtasida antagonizm borligini isbotlamoqchi bo'ladi. Go'zallik turmushning siyqasi chiqqan iker-chikrlari bilan tutashganda jozibasini, xususiyatini yo'qotadi.

Pesaga qo'shimcha personajlar kiritilgan. Narsiss-haykaltaroshning shogirdi va tarbiyalanuvchisi, pesada u butun kuch - quvvati, borlig'ini ijodga bag'ishlagan Pigmalionga qarama-qarshi qo'yiladi. O'rtamiyonalik va ahmoqlik dunyoda hamisha ulug'langan va unga sig'inishgan, haqiqiy san'atkorning qismati - yolg'izlik.

1951 yilda Tavfiq al-Hakim Qohiradagi milliy kutubxona direktori lavozimini egallaydi. Ikkinchi jahon urushidan keyin milliy-ozodlik kurashning yangidan ko'tarilishi, ayniqsa, 1952 yilgi inqilobdan so'ng ijtimoiy ongning o'sishi adabiyotda o'z aksini topmasdan qolmadi. Nasr va she'riyatda realistik tamoyillar kuchaydi, matbuot g'oyasiz, hayotdan orqada qolgan adabiyotga urush e'lon qildi.

«Hayot adabiyoti» nomli maqolalar to'plamida Tavfiq al-Hakim arab voqeligini realistik aks ettirish tamoyillarini himoya qildi. 1954 yilda dramaturg «Nozik qo'llar» komediyasini yozdi. Unda inqilob tufayli barcha boyliklaridan mahrum bo'lgan aristokrat haqida hikoya qilinadi. Asarda ana shu dimog'dor, mutakabbir, xudbin odam har qanday mehnatga nafrat bilan qaraydi, chinakam baxt mehnatda degan aqidaga amal qiladigan xalq vakili unga qarama-qarshi qo'yiladi.

«Bitim» (1956) komediyasida ham o'z davrning dolzarb ijtimoiy muammolari ko'tarilgan. Asarda falohlarning feodal zamindorga qarshi kurashi ko'rsatiladi. Pesa Qohira Milliy teatri sahnasida qo'yildi. Pesaning muvaffaqiyatiga sabab u adabiy tilda ham emas, so'zlashuv tilida ham emas, oraliq tilda yaratilganida edi. Ko'pgina arab yozuvchilari va munaqqidlari na adabiy, na so'zlashuv tilini teatrqa maqbul deb hisoblaydilar. Adabiyda arxaizm va sun'iylik ko'p, so'zlashuv tili esa kambag'al va cheklangan. Til muammosining samarali izlanishlar asosida hal qilgani uchun Tavfiq al Hakim 1959 yilda Qohiradagi Arab tili akademiyasi a'zosi etib saylandi. 1958 yilda yozuvchining adabiy faoliyati mamlakatning oliy nishoni – Nil ordeni bilan taqdirlandi.

1989-1990 yillarda Tavfiq al Hakim Fransiyada yashadi va ijod qildi, Birlashgan Arab Respublikasining YuNESKO dagi vakili vazifasini ado etdi. Shu davrda ikki pesa – «Dunyo tikonlari» va «Xijolatli sulton»ni yaratdi. Har ikki asar tinchlik uchun kurash mavzusida.

Arab dramaturgiyasida o'nlab yosh istae'dodlar paydo bo'ldi. Ehtimol ularning hammasi ham al-Hakimning bevosita ta'sirida emasdir. Ammo ularning paydo bo'lishi dramaturgiya san'atga aylanganining nishonasi edi. Tavfiq al-Hakimning xizmati shundaki, u ana shu avlodga madaniyat kalitlarini topshirdi.

Tavfiq al-Hakim Misr novellasi taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shdi. Uning birinchi hikoyalar to'plami 1938 yilda bosilib chiqdi. Keyingi davr hikoyalari ikki jildlik- «Tavfiq al-Hakim hikoyalari»ga kiritilgan. Ikki jildlik to'plamida asosan hajviy hikoyalar, siyosiy farslar, hazil sarguzashtlar bayoni joy olgan. Hatto hazil-mutoyiba hikoyalar ham ijtimoiy masalalardan xoli emas.

Tavfiq al-Hakim eng kuzatuvchan va quv adiblardan. Uning yengil yumori, kulgisi zamirida katta ijtimoiy haqiqat sadosi sezilib turadi. «Qiyin holat» hikoyasi syujeti sodda va qiziqarli. Asarda voqea bekorchilik odami nomidan hikoya qilinadi.

Bekorchilik ko'chada do'stini ko'rib qolib, qahvaxonaga boshlab keladi, u yerda qandaydir g'alati kimsaga duch kelishadi. Kimsa ularga kofexorlik paytida qo'shimcha pul ishlab olishni taklif etadi.

U ro'paradagi uyni kuzatishni-bir ayol fotosuratini berib, uning uyda qancha vaqt bo'lishini kuzatishni taklif qiladi. Aniqlanishicha, ayol bir o'ynashining uyidan chiqib ikkinchisining choparkan. Birinchi o'ynash haligi shaxsiga bir funt evaziga detektivlikni iltimos qiladi, o'z navbatida u ham bu vazifani 75 piastrga bekorchiga topshiradi, u ham uzoq o'ylamay foto rasmini do'stiga berib suyuq oyoq ayolni bir piyola kofe evaziga poylashni topshiradi. Rasmdagi ayol esa uning xotini ekan.

Ko'rinishidan hikoya ijtimoiy muammodan xolidek tuyuladi. Aslida unday emas. Yozuvchi yoshlardagi bekorchilik, vaqtini behuda o'tkazish, tepsa-tebranmas erinchoqlik, sustkashlikni, bachkana oblomovchilikni nozik detallarda ochib tashlaydi.

Tavfiq al-Hakimning urushdan keyingi ijodida «Haqqoniylik va san'at» nomli hikoyalar to'plami o'z mavzusi bilan «Viloyatdagi tergovchining xotiralari»ga yaqin turadi. To'plamdagi hikoyalarda Misr viloyatining to'liq qiyofasi chiziladi.

Bu hikoyalarda ham Tavfiq al-Hakim o'z qissadagidek, qishloq-kichik davlat degan fikrdan kelib chiqib, viloyatga xos illatlar oynada aks etgandek, davlat apparatining nosozligini ochib beradi. «Sud vrachi»da fallohlarning dahshatli qashshoqligi tasvirlanadi. Yuqori Misrdagi qishloqlardan biriga sog'liqni saqlash instruktoriga qilib tayinlangan hikoya qahramoni «fallohlar inson yashaydigan joyga o'xshamaydigan kulba kapalardan chiqib kelishlarini ko'radi. Ularning bolalari sudraluvchi jonzorlardek qorinlarida o'rimalab chiqadilar. Ularning ozg'in, rangpar va qonsiz tanalariga kasalliklar in qurgan. Fallohlar qonunsiz soliqlarga ko'nikkanlar. Vrach va mahalliy feldsher kasalvandlar hisobiga boyiydilar. «Qishloqdagi dachaliklar»da inson uchun chidab bo'lmas sharoitlardan qochib, dengiz bo'yidagi kurortli joyga kelgan tergovchi haqida hikoya qilinadi. Ilgari u qishloqqa kun ora, keyinroq haftada uch marta borardi, so'ngra ayibdorlarni unga olib keladigan bo'lishdi. Aybdorlar tergovchi oldiga kelayotganlarida kutilmagan imkoniyatga - dam olish, hatto dengizda cho'milish baxtiga muyassar bo'ldilar. Tergovchi umrida birinchi bor juda alomat holga duch keldi: mahbuslar o'zlarining ozod bo'lishlariga qarshi e'tiroz qilar edilar. Bu quvnoq hikoya zamirida dahshatli xulosa yotadi: ko'pincha fallohlar uchun qamoq ozodlikdan afzal ko'rinar edi.

Tavfiq al-Hakim realist-yozuvchi sifatida o'z hikoyalarida monarxistik Misrdagi tartiblarning yovuzligini: fallohlar qashshoqligi, ma'muriy apparatning shafqatsizligi va byurokratizmini, provinsiya sud hodimlarining o'zboshimchaligini ochib tashladi. Yozuvchi garchi fallohlarga achinsa-da, ularning qiyofasida nodon, nochor, unutilgan, qarshilik ko'rsatishga noqobil ommani ko'radi.

Tavfiq al-Hakimni hamisha san'at va tomoshabin, adabiyot va kitobxon muammosi qiziqtirgan. Arab kitobxoni va tomoshabinining jiddiy adabiy va sahna repertuarini qabul qilishga tayyor emasligini e'tiborga olib, Tavfiq al-Hakim rivoyat adabiyotidan dramaturgiyaga ko'prik qurmoqchi bo'ldi. U 1966 yilda «Tashvishlar banki» nomli roman-pesa yozadi. Bunday asar yozish fikriga yozuvchining o'zi keldimi yoki bunday g'oyaning tug'ilishiga Bernard Shou

ta'sir etdimi, aytish qiyin. Darvoqe, u Bernard Shou ijodini yaxshi bilardi. «Tashvishlar banki» 10 bobdan iborat, har bir bob avvalida voqealarning xronologik doirasini belgilash, qahramonlarning tashqi qiyofasi va xarakteri bilan tanishishga ko'maklashuvchi muallif izohi beriladi. So'ng muallif navbatni qahramonlarga beradi, keyingi harakatlar dramatik asarlar qonuni bo'yicha rivojlanadi.

Roman faqat shaklan emas, mazmunan ham juda qiziq. Ilgari talaba, hozir ishsiz bo'lgan ikki do'st tungi Qohira bo'ylab kezadilar. Ulardan birining miyasiga odamlar o'z tashvish va g'amlarini olib keladigan, u yerdan xayrixohlik va javob oladigan bank ta'sis etish fikri keladi. Bu g'oya bilan ilgari yirik zamindor bo'lgan qandaydir ishbilarmon qiziqib qoladi, u muassasani mablag' bilan ta'minlaydi. Bankka ishsizlik, narx-navoning oshganidan, oilaviy nifoq, janjaldan norozi odamlar yog'ilib kela boshlaydilar. Birdan do'stlar ularning saxiy homiysi o'zining sheriklari bilan hukumatga qarshi fitnada ishtirok etib, barcha norozilardan o'zining jinoyatkorona ishlarida foydalanmoqchi bo'lganini bilib qoladilar. Do'stlar fitnachilarni fosh etishga qaror qiladilar.

Roman-pesa o'qimishli ommaga mo'ljallangan. Provinsiyada nima qilish kerak? Axir, u yerda teatr yo'q, aholi yoppasiga savodsiz. «Dramaturgiyamizni yangi shakli» kitobida Tavfiq al-Hakim teatrning yangi turi g'oyasi bilan chiqadi. Buning uchun dramaturg arab Sharqida deyarli yo'q bo'lib ketgan xalq rivoyatlari an'anasini birmuncha yangilangan shaklda qaytadan tiklashni tavsiya qiladi. Roviylar dekoratsiyalar, kiyim, grimlarni ishlatmay birgina ijrochilik iste'dodi bilan zavqqa to'lgan eshituvchilar to'dasini o'zlariga jalb qilganlar. Huddi shu yo'l bilan jahon dramaturgiyasining Esxildan tortib, Ibsen va Chexovgacha bo'lgan jahon klassikasining noyob asarlarini eshituvchilarga yetkazish mumkin. «Spektaklni» uch odam - erkak, xotin va boshlovchi ijro etishi mumkin. Albatta, bunday «sahnalashtirish» uchun pesalarni qayta ishlash kerak, to'g'rirog'i ularni yangi teatr talablariga moslashtirish lozim. Al-Hakim bunday teatrni «markazlashtirilgan teatr» (al-masrax al-markaz) deb ataydi. Yozuvchining bu izlanishi, eksperimentlari milliy adabiyotning regional va vaqtinchalik mahdudligini bartaraf qilishga qaratilgan, san'at saviyasini tushirmasdan, uni keng xalq ommasining mulkiga aylantirish edi. Bu izlanishlarni ta'minlab turgan manba, bir tomondan milliy adabiyot an'analari, boshqa tomondan esa jahon adabiyoti tajribasidir.

Tavfiq al-Hakim ta'sir doirasidan xoli bo'lgan adabiyot turini topish amri mahol. She'riyatga u birinchilardan bo'lib «oq she'r»ni kiritdi, nasrda Misr romanchiligining (roman - kundalik, roman-maktub) asoschilaridan biri, kichik hikoya janrida u maishiy, hajviy, satirik, falsafiy, hatto ilmiy-fantastik novellalar muallifi bo'ldi. Adabiy tanqid sohasida Tavfiq al-Hakim jiddiy ishlar yozdi.

Xulosa qilib aytganda, Misr «yangilovchilar»i nasrining yetakchi xususiyati jamiyatning ijtimoiy asoslarini tanqid qilish bo'ldi. Roman va hikoyalarning qahramonlari ma'lum ijtimoiy tabaqa, sinfnings tipik xususiyatlarini o'ziga olib, ularning xarakter va axloqiy tushunchalari ijtimoiy asoslangan bo'ladi, ularning taqdirida jamiyatning tarixiy va ijtimoiy ziddiyatlari o'z ifodasini topadi.

Ana shu darajaga ko'tarilishi uchun Misr adabiyotiga Yevropa romantizmi, naturalizmi, tanqidiy realizmi, rus adabiyoti tajribasini o'rganish va o'zlashtirishga to'g'ri keldi. Misr yozuvchilari adabiyotning bilish funksiyasini amalga oshirishni davom ettirib, insonning psixologik va ijtimoiy mohiyatiga ko'proq kirib bordilar. Shaxs haqidagi tasavvurlar evolyusiyasi, ayniqsa, Misr nasrining asosiy qahramonlaridan biri-fallohning asta-sekin o'zgarishi misolida aniq ko'rindi. Tabiiy odamning tabiat qonunlariga monand yashashga intilishi Haykalning «Zaynab», Teymurning «Shayx Juma» (1926), al-Hakimning «Ruhning qaytishi»dagi qalban donishmand tabiat farzandi, abadiy ma'naviy qudratlar sohibi, o'sha Tavfiq al-Hakimning «Viloyatdagi tergovchi xotiralari»dagi qoloq, sustkash va sehrli zot, qo'li yupqalik va zulmdan ezilgan, tuyg'ulari olijanob «Yerdagi qashshoqlar» (T. Husayn), Tavfiq al-Hakimning inqilobdan keyingi «Nozik qo'llar» va «Bitim» pesalaridagi o'z ijtimoiy xuquqlarini biladigan shaxsdir. Butun jamiyat obrazi ham ana shunday evolyusiyani boshdan kechirdi. Adabiyot tashqaridan sezish, ko'rish qiyin bo'lgan individumlarni, ijtimoiy tabaqalar, sinflar

o'rtasidagi batamom yangi sabab-oqibat aloqalarini kashf qildi, bu esa ijtimoiy tizim mohiyatini tushintirib berishga, uning oqibati o'laroq, bu tuzum nechog'lik adolatli, aqlga monand degan savolni qo'yishga olib keldi.

IV BOB XX ASRNING BIRINCHI YaRMIDAGI ARAB ShE'RIYATI (MISR, SURIYA)

XX asr boshlaridagi arab adabiyotida ko'proq nasr taraqqiy topdi. Poeziyada esa, bu davrda mazmunan ko'pincha an'anaviy lirika ustunligicha qoldi. Shoirilar ko'hna o'lchov shakliga amal qildilar.

Arab she'riyatida mumtoz an'analar kuchli bo'lib, yangilanish jarayoni sekin va og'ir kechdi. Shunga qaramasdan, ko'hna qasida shakli yangi mazmun bilan boyidi: jo'shqin vatanparvarlik, ozodlik harakatiga da'vat va jamiyatning boshqa dolzarb muammolari qasidaning asosiy mavzusiga aylandi. Qasida shaklining asta-sekin yemirilishi jarayoni boshlandi, poetik ijodni keng kitobxonlar qatlamiga yaqinlashtirish, tilni soddalashtirish keng tus oldi.

Misr she'riyati. XX asrning birinchi yarmi Misr shoirlari ichida Ahmad Shavqiy, Hofiz Ibrohim, Xalil Mutron ijodida novatorlik tamoyillari ko'zga tashlana bordi.

Ahmad Shavqiy (1869-1932). Xediv Ismoil hukmronligi davrida tug'ildi. Otasi - kurd, onasi esa turk edi, ota tomonidan buvisi cherkesga, otasi tomonidan grekka taqaladi. Shunday qilib, o'zining so'zlari bilan ifodalaganda, uning shaxsi ana shu to'rt ildizdan kuch olib shakllangan. Ma'lumoti huquqshunos, Fransiyada tahsil olgan. U 1891 yilda Misrga qaytadi. Ijodining boshlanishida Ahmad Shavqiy Abbos II huzurida saroy shoiri bo'lgan, uning siyosatini qo'llab-qo'ltiqлагan, boylik orttirgan.

1915 yilda Abbos II taxtdan tushirildi. Shoir yangi hukmron Husayn Komilning iltifotini qozona olmadi, Ispaniyaga surgun qilindi. Birinchi jahon urushi oxirigacha Barselonada yashadi, vatanini sog'inadi. Vatanga qaytgach (1919-1932) siyosiy ahvol, xalq ommasining kayfiyati o'zgarganini ko'radi, shoir asarlarining yo'nalishi o'zgaradi, vatanparvarlik mavzusi kuchayadi.

Ahmad tabiatan badiiy iste'dod bilan yaratilgan edi. Beqiyos xotira, xayolot boyligi, tasavvur, voqelikni nozik his etish uni o'z davrining mashhur shoiri va buyuk shaxsi darajasiga ko'tardi.

A. Shavqiy mumtoz arab adabiyotini yaxshi bilardi. Har bir shoirdan noyob bir xususiyatini olishga intilardi. Abu Nuvasdagi sevgi va may madhini, Al-Buxturiydan xayolot tiniqligini, she'r ohangini, al-Mutanabbiydan esa mazmun sayqalini o'rgangan edi. Shoir Yevropa adabiyotidan ham yaxshi xabardor bo'lgan, V. Gyugo asarlarini sevib mutolaa qilgan. Undagi insonparvarlik va inson ozodligi g'oyalari shoirni maftun etgan.

Tafakkur kengligi, unda barcha dinlarga hurmat hisini yuzaga keltirdi. Uning o'zi e'tiqodi butun musulmon edi. Ahmad Shavqiy ulkan poetik meros qoldirdi:

1. «Shavqiyot» devoni, 4 qismdan iborat. 1925 yilda Muhammad Husayn Haykal mazkur devonning 1-qismini chop ettirdi, 2-qism 1930 yilda, 3-qism 1936 yilda, 4-qism 1943 yilda chiqdi.

2. «Arab davlatlari va islom arkonlari» to'plami.

3. 6 ta pesa (1929-1932): «Kleopatra halokati», «Majnun va Laylo», «Ulug' Alibey», «Antara», «Hodi xonim» komediyasi.

A. Shavqiy ijodini shartli ravishda 3 davrga bo'lish mumkin:

1. Taqlid davri.

2. Eskilikdan yangilikka o'tish davri.

3. Yangilanish davri.

Shoir ijodining birinchi davri saroyda o'tdi, asosiy o'rinni madhiya, bag'ishlov, marsiya, g'azal, xamriyotlar tashkil etadi. Madhiyalar o'sha davrning hukmdorlari va mashhur kishilariga – Saad Zag'lul, Muhammad Farid va boshqalarga bag'ishlangan. Shoir o'z madhiyalarida al-

Buxturiyga taqlid qildi. «Senga qasida yo‘lladim, ey Amiril muslimin. Mayli, u men uchun sening qadamlaring izini o‘psin»¹⁹.

Qarindoshlari, siyosiy arboblarga bag‘ishlangan marsiyalarida shoir ko‘pincha mubolag‘a qiladi, aksar marsiyalarida marhum botgan quyosh, qabrga kirgan oy, uchgan yulduz, deb ta’riflanadi. Mazkur tashbihlar qadimgi davr shoirlaridan olingan. Shavqiy bu an’anaviy janrni hayot, o‘lim haqidagi falsafiy mushohadalar bilan boyitdi.

G‘azallarda shoir go‘zallikning barcha ko‘rinishlarini kuyladi, Imruul Qays, Umar ibn Rabi‘aga taqlid qildi.

Surgundan vataniga qaytgach, Ahmad Shavqiy saroy bilan barcha aloqalarni uzdi, o‘z iste’dodini xalq xizmatiga baxsh etgan shoirlar qatoriga o‘tdi.

Shavqiy ko‘pgina she’rlarida Misrni Nil bilan qiyoslaydi. U qachonlardir Misr xalqi ana shu yoyilgan daryodek unga xalaqit berganlarni yuvib tashlaydi, deb umid qiladi.

Botiniy sabablar tufayli uning ijodida sodir bo‘lgan bu burilish mantiqan asosli edi. Shoirning o‘zi ozodlikka erishgandagina o‘zligini namoyon qilaolar edi. U surgundan keyin vatanida yangi olamni kashf qildi, xalqning o‘y-fikrlari va tashvishlari bilan yashadi.

Ahmad Shavqiy she’riyatida ijtimoiy motivlar yangraydi, she’rlari zamonaviy mazmun bilan to‘ladi. Ahmad Shavqiy o‘z davrining barcha voqealariga aks-sado beradi. U o‘zining juda ko‘p vatanparvarlik ruhidagi she’rlarini Misrga baxsh etadi:

«Ey, mening vatanim, Misr, men senga ilgaridek,

Sodiqman hozir ham.

Garchi men olisda bo‘lsam ham, qalbim sen Bilan.

Menga bunda suv berdilar necha marta chanqog‘i qonsin deb,

Ammo Nildan boshqa har kanday chashma menga achchiqdir...»

Shoirni faqat Misr muammosi emas, boshqa arab mamlakatlari masalalari ham qiziqtiradi.

Shoir Sharq xaqida ilgari ham yozgan, unda Sharq Usmonli imperiyasining asiri edi. Hozir esa u mustaqillik olish uchun intilmoqda va chet el kishanlaridan ozod bo‘lmoqda. Shavqiy xalqning yuksak ideallaridan ilhomlanadi, saroy shoiridan Misr shoiriga aylanadi, so‘ng esa butun arab Sharqi kuychisi bo‘ladi. Ahmad Shavqiyning Lev Tolstoy o‘limiga bag‘ishlab yozgan she’ri buyuk mutafakkir adibning hayoti, ijodini ulug‘laydi. She’r Lev Tolstoy va al-Maariy suhbatida shaklida yozilgan.

«Sharq bu bir oila, bitta urug‘, uning o‘g‘lonlari birlashurlar har safar, g‘am kelsa agar».

Ahmad Shavqiyning arab milliy teatri taraqqiyotidagi xizmati katta. U birinchi bo‘lib arab poeziyasini teatr maqsadlariga bo‘ysindirdi, undan dramaturgiyada foydalandi. O‘zining dramatik asarlarida shoir an‘analarga amal qilmadi, vazn va qofiyalardan erkin foydalandi. A.Shavqiy she’riy dramaturgiya rivojiga ko‘p xizmatlar qildi. U dramaturgiyaga qo‘shiqni olib kirdi. Uning dramalarida qasida va qo‘shiqli sahnalar ko‘p. Dramaturg monumental sahnalarga dabdabali saroylar, raqslar va bazmlarga ko‘p e’tibor beradi.

A. Shavqiy dramaturgiyasi to‘g‘risida Taha Husayn shunday deydi: «Dramaturgiya xaqida gap ketse, Shavqiy odamlar qalbiga ta’sir qilishdan ko‘proq kuylaydi va o‘ynaydi, lekin sahnada hech narsani tasvirlamaydi... Uning pesalari jonsiz sahnalardan iborat edi. Ularning tomoshabinlarga ma’qul bo‘lgani esa, faqat ularda ashulaning yuksak darajasiga ko‘tarilgani tufayli edi.»²⁰

Shavqiy pesalari katta tarbiyaviy ahamiyatga ega, ularda eng yaxshi insoniy fazilatlar - oliyjanoblik, g‘urur, jasorat, vatanparvarlik kuylandi. U birinchi bo‘lib she’riyatni an‘analar kishanidan ozod etdi va teatr talablariga bo‘ysindirdi.

Hofiz Ibrohim (1871-1932) Shavqiyning zamondoshi, mashhur Misr shoiridir. Bo‘lajak shoir 5 yoshga to‘lmasdan uning otasi olamdan o‘tdi. Bolalik va o‘smirlikda u muhtojlik, ishsizlikni azobini chekdi. Ish topolmay u armiyaga kirdi va 13 yil xizmat qildi, Sudanda bo‘ldi, ofiserlar isyoniga qatnashgani uchun armiyadan bo‘shatildi.

¹⁹ Ханна аль Фахури. История арабской литературы, М., 1959, стр. 42

²⁰ Ханна аль-Фахури. История арабский литературы, М., 1959, стр 42

Misrga kaytib, Hofiz adabiyotchilar bilan aloqa o'rnatdi va adabiy faoliyatini boshladi. Islom modernizmining mafkurachisi Muhammad Abduh bilan yaqinlashdi, uning ilmiy va adabiy bilimlari H. Ibrohimni boyitdi.

H. Ibrohim nozik qalb sohibi bo'lib, uning o'tkir aqli, ajoyib xotirasi keng bilim olishiga imkon yaratdi. H. Ibrohim ma'lumotida arab madaniyatini unsurlari Yevropa madaniyati unsurlaridan ustunlik qilardi.

Nasriy asarlaridan maqomalar to'plami bo'lmish «Satih kechalari», poetik asarlaridan uch qismli devoni ma'lum. Undan tashqari H. Ibrohim bir qancha siyosiy maqolalar muallifi, V. Hugoning «Tahqirlanganlar» romanining tarjimoni. Uslub va janr jihatdan H. Ibrohim asarlari Ahmad Shavqiy she'rlaridan oz farq qiladi. Ularning alohida xususiyati shundaki, H. Ibrohimning poetik tili soddaroq, tabiiyroq, uning ijodi oddiy kitobxonlarga yaqin.

Ayniqsa, marsiya janridagi asarlari diqqatga loyiq. Shoir janrni shaxsiy doiradan olib chiqib, unga ijtimoiy mazmun bag'ishladi. Hofiz payg'ambarlarni alqamaydi, din peshvolariga xushomad qilmaydi, ammo vatanni chet el zulmidan ozod qilish uchun kurashganlarni olqishlaydi.

Hofiz Ibrohim o'zining eng mashhur marsiyasini arab Sharqida yangi adabiyot oqimining tug'ilishi va taraqqiyotida buyuk xizmatlari singgan Muhammad Abduhga bag'ishlaydi. «Sharq yig'laydi, «unga hamdard butun yer shari. Dunyoning ko'zi yoshga to'la. Hind ham, Xitoy ham bezovta. Misr ingraydi mangu dard bilan», yozadi shoir.

Mustafo Komil vasiyatlarini xalqqa yetkazishga intilgan shoir: «sen bizni undading: bu binoni men yaratdim. Xudo xaqqi, ey odamlar, qurganimni buzmag hech qachon». Xalq nomidan Hofiz bu vasiyatga javob beradi: «bino saqlanadi va sening siymoing namuna bo'ladi. Sening ovozing eshitilmoqda, garchi olisda bo'lsang ham».

Xotin-qizlar xuquqi, tengligi uchun, ayolning zabun ahvoli va chodraga qarshi kurashgan Qosim Aminga bag'ishlangan marsiyada «Sen chodraga qarshi bosh ko'tarding, tabiiyki tarafdori bo'lmading. Vaqt sening g'oyangni avaylaydi va o'z hukmini chiqaradi»²¹ deydi. H. Ibrohim Sa'd Zag'lul, Jurji Zaydon, Ismoil Sabri, L. Tolstoy o'limiga marsiyalar bitdi.

H. Ibrohim Misr jamiyati liberal oqimlarining ifodachisi edi. Uning ilk asarlarida mehnatkash xalqqa xayrixohlik o'z ifodasini topdi. Ko'pchilik she'rlarida kelajakka, yaxshi kunlarga umid tuyg'ulari ifodalandi. «Arab tili», «Misr o'zi xaqida so'zlaydi» she'rlarida shoir arablarni birlikka chaqiradi, buyuk o'tmishni eslatadi. U arab tilining ulug'vorligi va go'zalligini ta'kidlab, bosqinchilar uni siqib chiqarmoqchi bo'lganlarini aytadi. Shoir arablar va arab tilining abadiy, deydi. «Arab she'riyati»da u balandparvoz shoirlar nazmning obro'sini to'kdilar, surbetlarcha yolg'onni ulug'ladilar, deb ta'kidlaydi. H. Ibrohim ona xalqiga chinakam ozodlikni tilaydi.

1911 yilda H. Ibrohimga davlat kutubxonasidan lavozim beriladi. Shu davrdan boshlab uning she'riyati shamshirining dami o'tmaslasha boshladi. U tarixga murojaat qiladi, islomning dastlabki qahramonlarini madh etadi.

«Nil shoiri» unvoniga ega bo'lgan Hofiz Ibrohim Misr adabiyoti tarixiga XX asr boshlaridagi eng zabardast shoirlardan biri sifatida kirdi.

Suriya she'riyati. Hozirgi Suriya adabiyoti XX asrning 20-yillarida shakllana boshladi, u Livan adabiyoti bilan yaqin aloqada edi, ba'zida esa, ularni ajratib ham bo'lmaydi. Ayni chog'da, uning o'ziga xosligi va ichki butunligini yuzaga keltirgan qator xususiyatlar mavjud.

Bir tomondan, Suriyadagi adabiy taraqqiyotning muhim xususiyati o'rta asrning keyingi davri bilan eng yangi davr o'rtasidagi ma'lum uzilishdir. Agar XVII-XVIII asrlarda Suriya arab adabiyotining yetakchi markazlaridan bo'lgan va keyinroq arab ma'rifatparvarligida o'z taraqqiyotini topgan g'oyalar xuddi shu yerda tug'ilgan bo'lsa, bevosita ma'rifatparvarlik davrida, XIX asr va XX asr boshlarida adabiy markazlar iqtisodiy va siyosiy jihatdan rivojlangan mintaqalarga ko'chadi. Bunday sharoitda Suriya yozuvchilari o'z kuchlarini sinash uchun, odatda ona yurtlaridan tashqariga: Livan, Misr va Amerikaga ketdilar. Suriya adabiy hayotining yana bir xususiyati shundan iboratki, hech bir arab mamlakatida Suriyadagidek shu kungacha xalq ommasida o'rta asr arab

²¹ М. Гамбаров. Отличие элегии Х.Ибрагима от классической элегии. В книге «Теоретические проблемы восточных литератур» М. 1969, стр 22

adabiyotining, ko'proq she'riyatning «quyi» an'analari barhayot va hatto ular muqaddas hisoblanmaydi. 40-yillargacha saqlanib kelgan she'riyatning nasrga nisbatan ustunligini shu bilan izohlash mumkin. Bu xususiyat Suriya adabiyotini tashqi jihatdan Iroq adabiyotiga yaqinlashtiradi va Misr, Livan adabiyotlaridan keskin farqlantiradi. Suriyaning zamonaviy adabiyotidagi demokratizm Suriya adabiy an'ananing qadimgi demokratizmiga borib tutashadi. Suriya adabiy an'alarining milliy-ozodlik harakati bilan aloqalari ham bevosita bo'lgan. Suriyada 30-yillardanoq adabiyotdagi yetakchi mavqe deyarli uzluksiz demokratik, taraqqiyparvar kuchlar qo'lidaligi bejiz emas.

Muhammad Kurd Ali (1876-1953). Ma'rifatparvar filolog – purist Muhammad Kurd Ali va uning atrofiga birikkan adabiyotchilar faoliyati arab adabiyotshunosligi tomonidan XIX asr ma'rifatparvarligi davomigina emas, «Misr yangilovchilari» maktabi ijodiga o'ziga xos parallel sifatida qaraladi. Ayni chog'da Kurd Alining o'zini XX asr Suriya madaniyati tarixidagi ahamiyatiga qarab Taha Husayn bilan qiyoslashadi.

Lekin «Misr yangilovchilari»dan farqli o'laroq, bu davr Suriya adiblari uchun asosiy narsa yangi nasriy shakllarni e'tirof etish emas, arab mumtoz she'riyati an'alariga e'tiborni qaratish asosida Suriya tarixiy romani o'sib chiqqan qadimiy o'tmish obidalarini keng tarixiy-filologik tadqiq etish edi.

Bu davrning diqqatga sazovor shoirlari **Xalil Mardam (1895-1960)** va **Muhammad al-Bizm (1887-1955)** ijodlarida Amerikadagi arab muhojirlari adabiy maktabi ta'siri seziladi. Mamlakatni fransuz kolonizatorlaridan ozod etish, arab birligi g'oyasi, arablar o'tmishini ulug'lash, Suriya tabiati va shaharlarini tasvirlash ular ijodining yetakchi mavzulari edi. Bu mavzularni rivojlantirib, ular mamlakatlarida mashhur bo'lgan o'rta asr shoirlari merosiga murojaat qildilar: al-Mutannabiy (1015-1065), al-Buxturiy (821-897), Abul Alo al-Maariy (973-1057) merosiga murojaat qildilar.

Ular she'riyatining shakli an'anaviy-mumtoz qasida va muvashshah edi. Amerikadagi muhojir shoirlar ta'siri antiklerikalizm ohanglarini yuzaga kelishida, romantik simbolika paydo bo'lishida, til va uslub soddaligi va aniqligida yaqqol ko'rindi.

Suriya xalqining 1925-1927 yillardagi milliy-ozodlik qo'zg'oloni paytida bu shoirlar ana shu qo'zg'olonning jarchisi bo'ldilar, varaqalar shaklida tarqatilgan she'rlari dahshatli siyosiy qurol vazifasini o'tadi. Mashhur liriklar Umar Abu Risha va Vasfi al-Kurunfuliy katta avlodning merosxo'ri bo'lib adabiyotga kirib keldilar. Ularning ijodi 20 va 40-yillarga to'g'ri keldi. Ilgari she'riyatning asosiy mazmunini belgilovchi grajdanlik mavzulari bu yillarda ko'proq nasriy shaklda, asosiy novellada o'z ifodasini topdi. Omar Abu Risha she'riyati arab kitobxoni xotirasiga o'rta asr shoiri, muhabbat lirikasining ustasi Omar Ibn Abu Robi'a (644-712) g'azallarini eslatadi. Kurunfuliy ijodida, aksincha, fransuz simbolistlarining ta'siri seziladi. Ayni chog'da Suriya mumtoz an'anasi ta'siri poeziyada o'z kuchini saqlab qoldi: chunki bu yerda Misr va Livandan farqli o'laroq shoirlar shevada yozmaydilar.

V BOB
MUSTAQILLIK DAVRIDAGI MISR ADABIYOTI
(1952 yil va undan keyingi davr)

Ikkinchi jahon urushidan keyin Sharq bo'ylab feodal reaksiyasi va kolonial hujumga qarshi qudratli to'liq yuzaga keldi. Sharq mamlakatlarida milliy mustaqillik qo'lga kiritilishi bilan turmushning an'anaviy shakllarini tubdan o'zgartirish, jamiyatni ijtimoiy qayta qurish muammolarini butun keskinligi bilan yuzaga chiqdi. Tabiiyki, yozuvchilar oldida bu murakkab jarayonni badiiy aks ettirish muammosi turardi.

Taraqqiyparvar Sharq adabiyoti rivojlanishida ilg'or estetik tafakkur muhim rol o'ynaydi. Yangi, ayniqsa, eng yangi davrlarda mamlakatlar madaniy boyliklar bilan muttasil almashinib turishga undovchi yaqin aloqalar bog'laydilar. Yangi davrda G'arbdan Sharqqa, Sharqdan G'arbga adabiyotlarning o'zaro ta'siri shiddat bilan boradi. Sharq xalqlarining zamonaviy ijodi keng kitobxonlar ommasiga ega bo'ladi.

XX asrning ikkinchi yarmidagi Sharq adabiyotlari taraqqiyotini ikki davrga ajratish mumkin. Birinchisi 1945-1950 yillar - ijtimoiy ko'tarilish davridir. Ommaga insonparvarlik, ijtimoiy taraqqiyot g'oyalarini eltuvchi bu davr adabiyoti hayotni bilishning faol vositasiga aylanadi. Adabiyot taraqqiyotining bosh yo'li - realizmning cheklanmagan imkoniyatlari orqali tarix dialektikasi, hayot dialektikasi qalb dialektikasini anglashdir.

50-yillarning o'talaridan boshlangan ikkinchi davr ijtimoiy faollikning ma'lum darajada sustlashgan vaqti bo'lib, mafkuraviy kurashning keskinlashuvi bilan ajralib turadi, bu hol Sharq adabiyotlariga xam ta'sir ko'rsatadi.

Mazkur yillarning murakkab tarixiy vaziyatida realistik adabiyot bilan bir qatorda modernizmning estetik tamoyillariga mo'ljallangan va G'arb sub'ektiv-idealistik falsafiy qarashlari ta'siriga berilgan adabiyot ham rivojlandi.

Modernizmning Sharq sharoitiga moslashuviga ma'lum mafkuraviy bo'shliq yaratgan tarixiy-siyosiy vaziyat ham yordam berdi. U ba'zi yozuvchilarning g'oyaviy o'zgarishiga sabab bo'ldi. Bunga ko'p hollarda adabiy jarayoning borishi, Sharq yozuvchilarida tabiiy ravishda yuzaga kelgan dunyo adabiyoti tajribalarini tez egallashga intilish, bunda esa shaklning murakkablashtirishga, yozishning yangi texnikasiga moyillik, bu ko'pincha yozuvchilarning voqelikka munosabatining o'zgarishi bilan, hayot va shaxsning ekzistensialistik konsepsiyasi kurashini idrok qilish bilan bog'liq bo'ladi.

Sharq adabiyoti XIX - XX asrlarda, asosan, Yevropa adabiyoti bosib o'tgan bosqichlardan o'tdi, uning ta'sirini his qildi. Shunga qaramasdan Sharq adabiyotlari milliy an'analar bilan mustahkam bog'langan mustaqil badiiy boyliklar hadya etuvchi o'ziga xoslikni saqlay oldilar.

Jahon adabiyotining yutuqlarini boy milliy meros bilan ijodiy qo'shgan holda shoir, nosir, dramaturglar yuksak badiiy asarlar yaratmoqdalar, o'z adabiyotlarini jahon adabiy jarayonining o'zaniga olib kirmoqdalar. Arab mamlakatlari yozuvchilari ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda o'z mamlakatlarining siyosiy va ijtimoiy muammolari doirasidan tashqariga chiqdilar. Isroil tomonidan arab yerlarining zabt etilishi, Falastin muammosi, arab olamining parchalanishi, dehqonlar, ishchilar, ziyolilar vakillari hayoti kabi mavzular dunyo murakkabligini aks ettirib, shaxsiy drama orqali ochib beriladi. Voqelikni ijtimoiy-tanqidiy tahliliga intilish jamiyatda o'z yechimini kutayotgan dolzarb, o'ta zarur muammolarni ajratib olishga ko'maklashadi.

Shaxs psixologiyasining ijtimoiy asoslanishi Suriya-Amerika maktabi va Misr yangilovchilari maktabining badiiy kashfiyoti edi (XX asrni birinchi choragi). Jubron Xalil Jubron, Muhammad al-Muvaylihiy, Mixail Nuayme, Taha Husayn va boshqalarning gumanistik an'analarining davomi Abdurahmon ash-Sharqoviy, Yusuf Idris, Muhammad Dib, Gada as-Samonlar nasrida aniq ko'rinadi.

Hozirgi hayotning salbiy tomonlarini ochib tashlagan arab adiblari-Najib Mahfuz, Zakariya Tamer, Dris Shraybiy, Mulud Feraun va boshqalar jamiyatni qayta qurishda shaxsning ahamiyatiga katta e'tibor qaratmoqdalar. Faqat ma'naviy, axloqiy jihatdan kuchli odamlargina

hayotni o'zgartirishga qodir. Ular shaxs va jamiyat o'rtasidagi dialektik aloqani ta'kidlab, adolatli, insonparvar jamiyatga yuksak darajadagi shaxsgina loyiq, deb aytadilar.

Arab yozuvchilarining XX asr ikkinchi yarmidagi ijodida realistik metod keng diapazonda - an'anaviy mumtoz realizmdan tortib, eng zamonaviy modernistik shakllarga qadar ko'rindi. Ammo ramzlar bilan to'la, assotsiativ va murakkablashtirilgan uslubiy yo'llar yozuvchilarni (Jorj Salim, Najib Mahfuz, Gamal al-Gitani va b.) voqelikni realistik idrok etishdan uzoqqa olib ketmaydi, balki unga chuqurroq kirib borish, jamiyatni hayajonlantirayotgan muammolarni o'tkirroq va keskinroq qo'yish imkonini beradi.

Arab yozuvchilarining voqelikni ijtimoiy-tanqidiy tahlil qilishda, ijobiy qahramon izlashda ularni shaxs sifatida xarakterlovchi konsepsiya ana shudir.

1988 yilda misrlik Najib Mahfuzga nufuzli Nobel mukofotining berilishi arab yozuvchilari dunyoni chuqur badiiy idrok etishda, murakkab adabiy texnologiyani o'zlashtirishda muvaffaqiyat qozonayotganlarini ko'rsatdi. Hozirgi arab adabiyoti milliy xarakterga chuqur kirib borish yo'lidan rivojlanmoqda. Bu esa realistik san'at cho'qqilarini egallash imkonini yaratadi.

Demokratik yozuvchilar

1952 yil inqilobi Misr adabiy hayotidagi burilishi nuqtasi bo'ldi.

Bu harakatni arab Sharqida ikkinchi jahon urushi va urushdan keyingi yillarda sodir bo'lgan murakkab tarixiy jarayonlar asta-sekin yuzaga keltirgan edi. Ammo 40-yillar oxirida juda keskinlashgan reaksiya sharoitida hech qanday «portlashlar» bo'lishi mumkin emas edi. Kuchlar inqilobdan keyinroq o'zini ko'rsatish uchun asta-sekin yig'ilayotgan edi.

1952 yilning kuzidayoq bir guruh yosh adiblar Misr matbuotida yangi arab adabiyotining klassiklari (Taha Husayn, Al-Akkad va b.)ga qarshi ularni g'oyasizlikda, g'ayridemokratiklikda, gumanistik ideallarni unutishda ayblab keskin bahs boshladilar. Ba'zi yosh munaqqidlar 20-30 yillardagi hamma adabiyotni romantik deb atab, chinakam realistik adabiyot vaqti faqat hozir keldi, degan fikr bilan maydonga chiqdilar. Misrning barcha taraqqiyparvar yosh yozuvchilarini birlashtirgan «Yangi realizm» maktabi ana shunday yuzaga keldi. Ularning qarashlari qat'iyiligi va izchilligi bilan ajralib turardi. Ular mamlakatdagi inqilob, respublika, ijtimoiy o'zgarishlarni olqishladilar, Misrning to'la milliy ozodligi uchun kurashda ishtirok etdilar. Bu maktab o'zining ijtimoiy tarkibi jihatidan ham boshqacha: agar «Misr modernistlari» ko'proq aristokratiya va milliy burjuaziya vakillari bo'lsa, endi adabiyotga falohlar, ishchilar, xizmatchilar kirib keldilar. Ular adabiyotga ikkita asosiy talabni qo'ydilar: realizm va xalqchilik; ularning ideali tanqidiy realizmga moyil, ularga, o'zlarining e'tiroficha, qisman Gorkiy ijodi katta ta'sir ko'rsatdi.

Yosh yozuvchilar asarlarida faollik, optimizm ruhi hukmron. Ular ijodida inqilobiy, ijtimoiy mavzular katta o'rin egallaydi. Ular asarlari qahramoni qilib, o'zlari o'sgan va yashagan muhitdagi kishilarni: huquqini tanigan ishchilar, ilg'or ziyolilar, yer uchun kurashayotgan falohlarni tanladilar.

«Yangi realizm» yozuvchilari - ash-Sharqoviy (1921 yilda tug'.) al-Hamisiy (1920 yilda tug'.) va boshqalarga, ayniqsa daslabki yillarda, zaifliklar xos edi: ulardagi publisistikachilik ba'zan jo'n ritorika va sxematizmga aylanib ketardi, ayni chog'da ularda sentimentalizm xususiyatlari ortiq darajada ifodalanardi. Katta avlodga mansub tanqidchilar yoshlarni ular asarida badiiy tasvirning bo'shligi uchun koyirdilar. Ammo asta-sekin «yangi realizm» kuch yig'di, ular orasida Yusuf Idris (1927 yilda tug'.) – hozirgi Misrning yirik novellachisi, Muhammad Sidqiy, Abul Muti, Abu an-Naga, Fardox Munib kabi adiblar paydo bo'ldi.

Asta-sekin bahslardagi keskinlik ham pasaydi. Katta avlod vakillari Mahmud Teymur, Tavfiq al-Hakim, Taha Husayn inqilobdan ilhomlanib, o'zlarining inqilob tamoyillariga sodiqliklarini isbotladilar. Najib Mahfuz qator yangi romanlar yaratdi. Ular orasida «Beyn al-Kasreyn» trilogiyasi bo'lib, bu asar «ziyoli va inqilob» mavzusiga bag'ishlandi. Demokratik yo'nalish she'riyatda ham shakllandi (Saloh Abd as-Sabur, Najib Surur, Ahmad Abd al-Muti, al-Hijoiy). Bu she'riyat ham shaklan, ham mazmunan inqilobiy ruhda edi.

Zamonaning hamma talablariga hozir javob bo'lgan she'riyat arab she'r tuzilishining an'anaviy qonunlarini buzishga jur'at etdi, erkin she'rdan keng foydalandi.

Ammo she'riyatdagi bu to'ntarish yangi xavfni ham tug'dirdi «she'riyatning nasrlashuvi» yuzaga keldi. Katta avlodga mansub tanqidchilar al-Akkad, Taha Husayn shoirlarni shu sababdan koyir edilar. Demokratik tanqid esa shakl nuqsonlarini, hatto ochiqdan-ochiq didaktikani qabul qilib, yangi she'riyat Misrning hozirgi hayotidagi yangilanish va taraqqiyotni aks ettirayotganini, uning kelajagi borligini ta'kidlagan edi.

Xuddi shu omil tufayli Misr she'riyati, bir Misr tanqidchisining fikricha, ilgari bo'lmagan dramatik xarakter kasb etdi, unda jonli ohanglar yuzaga keldi, mumtoz she'riyatni qiynagan ritorika yo'qoldi, poetik tilning yangilanishi sodir bo'ldi.

Bugungi Misr adabiyotida realistik yo'nalish yagona bo'lmasa-da, ammo yetakchi mavqeda. Undagi guruhlar va oqimlar yetarlicha rang-barang: ular ichki g'oyaviy kurashni va birinchi navbatda tinimsiz davom etayotgan ekzistensializm ta'sirini aks ettiradi. Bu esa katta qiziqish va qizg'in munozaralarga sabab bo'ladi. Misrda bu ta'limotning o'z nazariyotchisi, ekzistensializmni tasavvuf ta'limoti bilan bog'lovchi, unda gumanizm konsepsiyasini rivojlantiruvchi Abdurahmon al-Badaviy bor. Nazarimizda, uning gumanizm konsepsiyasi XIX asr oxiri, XX asr boshidagi arab ma'rifatparvarligining gumanistik ta'limoti ayrim xususiyatlari bilan bog'lanib ketadi.

Shubhasiz, hozirgi arab tanqidchilari, odatda, yetarli asoslamagan holda romantik deb atayotgan yo'nalishga ekzistensializm ta'sir etayotganini ta'kidlash mumkin. Amin Yusuf G'urob, Ibrohim al-Vardoniy asarlarida muhabbat mavzusi ijtimoiy muammolardan xoli tarzda hukmronlik qildi, barcha konfliktlarni sub'ektiv hissiyotlar olamiga olib kirib, insonning muqarrar yolg'izligi, uning yovuzliklar qurshovidagi ojizligi ta'kidlanadi. Ayni chog'da, ularning ijodida hozirgi arab adabiyotidan joy olgan sentimentalizm xususiyatlari saqlanadi.

Sentimentalizm alomatlari nohaq ravishda inqilobiy romantiklar atalayotgan yozuvchilar guruhiga ham mansubdir, chunki ularning asarlaridagi voqelik tasvirida hech qanday romantik ko'tarinkilik ko'rinmaydi. Bu Yusuf as-Sibaiyning «Qalbimni qaytib ber», Ehson Abdulquddusning «Bizning uydagi erkak» romanlaridagi kabi revolyusion voqealar fonida sodir bo'ladigan ehtirosli sevgi sarguzashtlaridan o'zga narsa emas. Shu xildagi adabiyotga arablar orasida qiziqish katta. Bularning soxta romantiklar adabiyoti bilan umumiyliги juda oz bo'lsa ham, ekzistensialistik falsafa ta'siridan xoli emaslar. Ammo ko'pincha ularning bir yo'nalishga mansubligi ta'kidlanadi.

Ekzistensializm ta'siri ba'zi adiblarning yangi shakl izlashlarida ham namoyon bo'ladi. (Keksa Misr dramaturgi Tavfiq al-Hakimning absurd teatriga o'xshash teatr yaratishga urinishi bunga misol). Ba'zi bizda mashhur bo'lmagan shoirlar ijodidagi urinishlarni eslatish kifoya.

Hozirgi vaqtda Misr adabiyotidagi barcha oqimlarga uzil-kesil baho berish qiyin. Ulardan qaysi biri hayotiy va sermahsulligini kelajak belgilaydi.

ABDURAHMON Ash-SHARQOVIIY (1920-1987)

Realistik adabiyot ma'lum tipologik yaxlitlikni saqlashda davom etdi. U inqilobdan oldingi yoki inqilobdan keyingi yillar voqeligiga murojaat qilarkan, uni o'limiga mahkum hodisa sifatida tasvirladi. Misr mustaqilligi tufayli yuzaga kelgan yangi tarixiy sharoit romanning tamoman boshqacha estetik tamoyilga asoslangan, san'atkorning o'zigagina xos bo'lgan badiiy idrokni talab qiluvchi turini yuzaga keltirdi.

Romanning Abdurahmon ash-Sharqoviy ijodida shakllangan yo'nalishini ko'zdan kechirmasdan turib, janrning o'tish davri holatini to'la tasavvur qilib bo'lmaydi.

Ma'lumki, ash-Sharqoviy Najib Mahfuz, Yusuf Idris bilan bir qatorda 50-yillar Misr nasrning yirik nomoyandasi edi. Faqat nasrdagina emas, 1951 yilda Parijda yozilgan «Misrlik otaning Amerika prezidenti Trumenga maktubi» dostoni tufayli u Misrdagi «yangi she'riyat»ning rahnamosi hisoblanardi. 60-yillarda esa, she'riy pesalar turkumini (ulardan birinchisi – Jazoir milliy-ozodlik harakatining qahramoni Jamila Buxiredga bag'ishlangan «Jamila fojiasi» edi, 1959 y.) yaratib, Misr teatrida «erkin she'r dramaturgiyasi»ning yaratuvchisi bo'ldi. Bularning barchasi, shuningdek, uning 40-50 yillarning ikkinchi yarmidagi

jo'shqin ijtimoiy, publisistik, noshirlik faoliyati Sharqoviyga Misr so'1 ziyolilarining g'oyaviy rahbari sifatida obro' keltirdi. Ayniqsa, «Yer» romani jamoatchilikning hurmat va diqqatiga sazovor bo'ldi. Ilk marta 1953 yilda matbuotda chop etilgan roman 1954 yilda alohida kitob shaklida bosilib chiqdi, keyingi yillarda esa qayta-qayta nashr etildi. Asar adabiy tanqidning yuksak bahosiga sazovor bo'ldi, uni M.Gorkiyning «Ona» romani bilan qiyoslab, Misrdagi «sotsialistik realizmning tongi» deb atadilar.

Sharqoviy 1920 yilda Manufiya deb atalgan quyi Misr provinsiyasidagi Dalaton qishlog'ida dehqon oilasida dunyoga keldi. Sharqoviy xuddi Yusuf Idris singari «omd o'g'lonlari» toifasiga, qishloq oqsoqollari farzandlari deb atalgan Misr ziyolilarining «dorilfunun avlodi»ga mansub edi. 1943 yilda Sharqoviy Qohira dorilfununining huquqshunoslik fakultetini tamomladi va bir necha yil dorilfunun bitiruvchilarining polisiya tomonidan taqiqlangan va musodara etilgan, «Al fajr al-jadid» jurnalini boshqardi.

Inqilobdan keyingi davrda so'1 ziyolilarining guruhlariga bo'linishi, 1956-1957 yillarda ko'pchilik a'zolarining kommunistik tashkilotlardan chiqishi (Sharqoviy 1957 yilda o'z tashkiloti tarkibidan chiqdi) Jak Berkning yozishicha, «bu yoshlarning salmoqli qismini qulayroq bo'lgan islohotchilik va ma'rifatparvarlik pozitsiyalariga o'tishlariga olib keldi.

«Yer»dan keyin Sharqoviy milliy-ozodlik kurashi voqealarga bag'ishlangan «Bo'sh qalblar» (1957) va «Chekka ko'chalar» (1958) romanlarini, 1962 yilda islom asoschisining erkin, badiiylashtirilgan biografiyasi «Muhammad-ozodlik elchisi» qissasini nashr qildi, siraning zamonaviy qayta ishlash an'anasini davom ettirdi.

«Yer»(1954) faqat Misrda emas, butun arab adabiyotida dexqonlar hayotiga bag'ishlangan birinchi roman. Roman darhol arab mamlakatlari jamoatchiligining diqqatini tortdi. O'sha yilning o'zida to'rt marta nashr etildi. Hindiy, fransuz, rus, o'zbek va boshqa tillarga tarjima qilindi.

Roman qahramonlari qishloqning oddiy zahmatkashlari: fallohlar, batraklar, zamindorlar, yerning ijarachilari. Romanni mutolaa qilganda o'zingni go'yo oddiy, mehnatsevar fallohlar orasida yashayotgandek his etasan. Eng qiyin daqiqalarda ham ularni yumor hissi tark etmaydi. Vaqti kelsa, qishloq oqsoqoli, shayx va boshqalarni ham ayamaydilar, chimdib oladilar.

Roman voqealari muallif tug'ilgan qishloqda sodir bo'ladi. Ash-Shora qishlog'i fallohlari misolida yozuvchi urushgacha bo'lgan Misr dehqonlari hayotini ko'rsata olgan. Asosiy syujet yo'nalishi-fallohlarning suv uchun kurashi bilan bog'liq. Dalalarni sug'orish uchun kerak bo'lgan obi hayot jamoaga tegishli kanallardan keladi. Kanalning boshi zamindor yerlaridan o'tadi, fallohlarga eng kerak paytda boy suvni bo'g'adi, dehqonlarning hosili xavf ostida qoladi, buning ustiga boy fallohlar yerlari ustidan yo'l qurmoqchi bo'ladi. Abdulhodiy boshchiligidagi fallohlar kechasi yo'l qurish uchun markazdan keltirilgan asbob-uskunalarni va bu asboblarning poyloqchisi, qishloq oqsoqolining ayg'oqchisi, chaqimchi Shaabonni ham kanalga tashlab yuboradilar. Fallohlar qamaladilar. Qamoqda fallohlar talabalardan Qohirada xalqqa qarshi qilingan ko'p jinoyatlar haqida eshitadilar.

Oddiy odamlar haqida so'z ketarkan, adib o'z mehri, hurmatini yashirmaydi, ularning yorqin, samimiy obrazlarini yaratadi. Ilvoniy-oddiy dehqon, zamindor boyga qarashli polizlar qorovuli, juda quvnoq, xushmuomala, qishloq jamoasidagi ishlardan boxabar odam. Qilgan mehnati uchun yillab sariq chaqa olmasa ham umidsizlikka tushmaydi, dod-voy qilmaydi. Sharqoviy yosh, baquvvat dehqon yigit Abdulhodiyning go'zal Vasifaga bo'lgan muhabbatini samimiy aks ettiradi.

Yozuvchi insoniy illatlarni fosh etishda bo'yoqlarni ayamaydi. Qishloq mullasi-shayx Shinodiy al-Azharni tamomlagan. Mana, Abdulhodiy shayx to'g'risida nimalar deydi: «Shayx Shinodiy umr bo'yi qo'liga omoch yoki ketmon ushlagan, shuning uchun fallohning dardu alamini u qayoqdan bilsin. U hamisha bizni qurg'oqchilik, gunohlarimiz uchun jazo bilan cho'chitadi. Axir, qishloqdagi barcha yerlarning egasi bo'lmish poshsho na namoz o'qiydi, na ro'za tutadi. Ammo uning arig'idan hamisha shovullab suv oqadi, ombori donga, cho'ntagi tillaga to'la. Shayx hamisha qizlarga ko'z olaytiradi, ro'zai ramazonda ham mast yuradi.

Qurg'oqchilik va xudoning jazosi doimo uni chetlab o'tadi, chunki ma'murlar uni hech qachon suvsiz qoldirishmaydi. Yo'q, gap xudoda emas. Suvni xudo emas, hokimlar to'sib qo'yishdi».

Fallohlar adolatsizlikning ildizini dindandir emas, voqelikdan izlash kerak, degan haqiqatni tushinib yetadilar. Sharqoviy romanidagi falloh katta avlod asarlarida aks ettirilgan yuvosh, unutilgan, har narsaga tobe qul emas, aksincha, u mag'rur mehnatkash, o'z huquqlarini biladigan inson. Garchi romanda dehqonlar yeridan yo'l o'tkazilgan bo'lsa-da, bu xo'jayinlarga oson tushmadi, dehqonlar ongli ravishda qarshilik ko'rsatdilar, adolatsizlikka qarshi uyushgan holda bosh ko'tardilar.

«Yer» romanining yuqorida ko'rsatilgan ijobiy xususiyatlari Muhammad Husayn Haykalning «Zaynab», Tavfiq al-Hakimning «Viloyatdagi tergovchi xotiralari» kabi kishloq hayoti mavzusidagi asarlaridan ajralib turadi. Sharqoviy o'z romanida Haykal asaridagidek, tabiat lavhalarini, qishloqdagi muhabbat tasviri, Tavfiq al-Hakim singari qishloqning ijtimoiy qoloqligini ko'rsatish bilan cheklanadi. U o'z qahramonlarini fallohlarning hayoti, yer va suv uchun kurashi bilan bog'liq holda aks ettiradi. Romanda Misr qishlog'ini harakatda ko'ramiz, turli ijtimoiy kuchlar o'rtasidagi kurashning guvohi bo'lamiz. Kitobxon Misr kishlog'i muhitidan nafas olayotgandek bo'ladi, qishloq an'analari, urf-odatlarini his etadi. Xullas, muallif XX asrning 50-yillaridagi tipik Misr qishlog'ining ko'rinishini, qisqa, aniq chizgilarda dehqon turmushining ishonarli lavhalarini berdi. Ammo asarda dialoglar ko'payib ketgan, bu esa psixologik tahlil, qahramonlar kechinmalarini ko'rsatishga xalaqit bergan. Roman oxiri psixologik jihatdan ishonarli chiqmagan. Falloh siyosiy mahbus ta'siri ostida feodal tuzumga qarshi ongli kurashchiga aylanib qoladi.

«Yer» romani jamoatchilik tomonidan ijtimoiy roman janri taraqqiyotiga qo'shilgan salmoqli hissa sifatida qabul qilindi va hozirgi arab adabiyotida realizm tamoyillarining chuqurlashganini isbotladi.

1962 yilda Sharqoviy o'zining «Muhammad – ozodlik elchisi» tarixiy qissasini e'lon kildi. Asar islom asoschisining erkin, badiiylashtirilgan hayot yo'li tasviri edi. Muhammad alayhissalomning tarjimai holiga oid ma'lum faktlarga asoslangan holda Sharqoviy dostonlar tasvirida badiiy to'qimaga murojaat etadi - payg'ambarning karvonlar bilan sayohati tasviri, uning tarixiy shaxslar bilan uchrashuvlari va suhbatlarida to'qimalardan foydalanadi. Payg'ambar faoliyati va shaxsiyati g'ayri tabiiy tasviriga yo'l qo'yilmaydi. Qissaga Muhammad alayhissalomning «men xuddi sizdek odamman» so'zlari epigraf qilib keltiriladi. Bu xaqiqat qissaning butun mazmuni bilan asoslandi, asarda Muhammad alayhissalom qalbida insonlarning dardu alami, tashvish va orzularini sig'dirgan buyuk inson qilib tasvirlangan.

Sharqoviy qissasidagi Muhammad alayhissalom fikrining yuzaga kelishi talqini, yaratuvchilik faoliyatining omillari Najib Mahfuzning «Ko'chamiz bolalari»dagi tasviriga yaqin: u (Muhammad alayhissalom) atrofdagi yolg'onni hazm qilolmaydi, adolatsizlik, sudxo'rlik, to'q qurayishlarning kambag'allarning iztiroblariga beparvoligi, Ka'ba sanamlarining gung va kar nigohlari oldida buzuqlik va fasodga berilishlariga beparvo bo'lolmas edi.

«Yer»ning muvaffaqiyatini ta'minlagan sinfiy kurash g'oyasi «Muhammad» qissasida ham xiyla o'z ifodasini topgan. «Inson ozod, uni muhit shakllantiradi» so'zlari Muhammad alayhissalomning shiori bo'lib yangraydi. Ideallar esa quyidagicha ifodalangan: «Halollik, yaxshilik, ota-onaga g'amxo'rlik, yuksak axloqiy poklik, rahm-shafqat, adolat, tenglik, jasorat, oliyjanoblik, insonning ozodlik huquqi, nochorlarni va o'zgalar ozodligini himoya qilish muqaddas burch». Shaxsiy ma'naviyatning bunday liberal-ma'rifiy ideallarini (Muhammad va'zining bunday axloqiy pand-nasihat tomonlari Mahfuzda umuman uchramaydi, Sharqoviyda esa alohida ta'kidlanadi) sotsialistik ideallar bilan tenglashtirish, islom va sotsializm tushunchalarini qorishtirishga, to'g'rirog'i, sotsializmni islomlashtirishga olib boradi. Sharqoviyda ilk islomdagi ijtimoiy adolat ideologisi sifatida maydonga chiqqan shaxs odamlarning Olloh oldida teng huquqligini asoslagan, odamlar uch narsada: suvda, olovda va yaylovda teng ekanini asoslagan tarixiy shaxs Abu Zaar al-G'iforiy siymosida gavdalanadi. Unga nisbat berilgan quyidagi so'zlar ham saqlangan: men shunga hayronman, o'zi uchun yegani non topolmagan inson nechun boshqalarga qarshi qilich yalang'ochlamaydi». Ma'lumki,

Abu Zaar al-G'iforiy keyinroq Ali tomoniga o'tadi, uning o'limidan so'ng esa Ummaviylar tomonidan surgun qilinadi.

Ispan arabshunosi Xose Rodrigues Trobaxo «Muhammad ozodlik elchisi» qissasini mafkuraviy jihatdan Sharqoviyning yorqin kitobi deb ataydi. Kitobda yozuvchiga xos fikr chalkashliklari payg'ambar - inson shaxsiga nisbatan ochiq zavqlanishga aylanib ketadi. Trobaxo deydi: «Payg'ambar shaxsidan Sharqoviy ochiqdan-ochiq mafkuraviy maqsadda foydalanadi, uning hayotini, o'zi bilganicha, marksistik falsafa nuqtai nazaridan talqin qilmoqchi bo'ladi». «O'zi bilganicha» so'zlari muhim izohdir, chunki islom va marksizmni bu tarzda sintez qilganda, aslida marksizmga hech qancha o'rin ham qolmaydi.

Payg'ambarning g'oyaviy modernizatsiya qilingan shaxsiyati Misr inqilobi yetakchisi Jamol Abdul Nosir bilan o'xshash xususiyatlar kasb etadi. Siraning hozirgi barcha talqinlarida saqlanayotgan madh an'analari, falsafiy asosidan qat'iy nazar, payg'ambar bilan tirik insonni bog'lab turuvchi ko'prik vazifasini o'taydi.

Islomga ziyoli va xalq o'rtasidagi hamjihatlik nuqtai nazarlaridan, zamonaviy ilg'or g'oyalarni yoyuvchi vosita sifatida qarash arab olamida bo'lgan va hozir ham mavjud. «Axir, islomning asosiy tomoni amaliyotdir. Ijtimoiy mazmun nuqtai nazaridan islom - taraqqiyparvar, demak, u sotsialist – ziyolilar va omma o'rtasidagi masofani qisqartiruvchi vositalardan biri bo'lib xizmat qilish mumkin»²², - deydi taniqli Misr shoiri va publisisti Ahmad Higoziy.

Islom tarixiga, Muhammad shaxsiga Sharqoviyning qiziqishi tasodifiy emas. Bolalikdan singib ketgan diniy tushunchalar pinhona holda «Yer»da ham mavjud. Ular muallifning axloqiy pozitsiyasini baholashdagi o'lchov vazifasini o'taydilar. Muhammad alayhissalom to'g'risidagi qissa inqilobning ijtimoiy va mafkuraviy dasturi ishlanayotgan yillarda yozilgan edi. Mazkur dastur uning yaratuvchilari fikricha, Misrga mansub milliy va ijtimoiy sharoitlarning o'ziga xos tomonlarini, din manba bo'lgan abadiy ma'naviy qadriyatlarni e'tiqod nuri bilan sug'orib, insonda ezgulik, haqiqat va muhabbat uchun tuganmas kuch-qudrat uyg'otishga qodir bo'lishi kerak edi.

Sharqoviy asarlari ijodkor ziyolilar, ayniqsa, ularning yangi hokimiyatning ilk g'oyaviy tamoyillarini ijobiy qabul qilgan qismi mazkur mafkuraviy sharoitda faol rol o'ynaganini ko'rsatib berdi.

Sharqoviyning 1967 yilda yozilib, 1968 yilda bosilib chiqqan «Falloh» romani xronologik jihatdan 50-60-yillar doirasiga kirmasa-da, tipologik tomondan yuqoridagi ikki asari bilan bir qatorda turadi. «Falloh» Sharqoviyning inqilobdan keyingi voqelikka bag'ishlangan asari bo'lib, uning mavzusini ham ijtimoiy-siyosiy g'oyalar belgilagan. Ammo ular «yo'l tanlash» zarurati bilan emas, balki uning oqibatlari tahliliga bag'ishlanadi.

Roman «Yer»ning davomi tarzida qalamga olingan edi. Undagi voqealar oradan 30 yil o'tgach sodir bo'ladi. Romanning fabula, syujeti va personajlari ham o'xshash. Har ikki asarda ham hikoya muallif tilidan olib boriladi. («Yer» da muallif qishloqqa 12 yoshida ta'tilga keladi).

«Falloh»ning birinchi sahifalaridayoq muallif-hikoyachi keyingi 30 yil davomida qishloq va uning odamlari hayotida yuzaga kelgan o'zgarishlarni aks ettiradi. Keyingi 13 yil inqilobdan so'nggi davr bo'lib, unda ikki marta yer islohoti (1952, 1961) o'tkaziladi. Muallif uzoq tanaffusdan so'ng Qohiraga kelgan amakivachchasi Abdul Azim bilan uchrashib qoladi. («Yer»dagi dehqonlar sardori Abdulhodiy obrazining davomi). Hikoyachi Abdul Azimning savodxonligi, zukkoligi, siyosat va ijtimoiy hayotga oid barcha masalalar bo'yicha yetuk fikrlashiga qoyil qolganini yashirmaydi. Abdul Azimning qishloq to'g'risidagi hikoyalari ham 1952 yil inqilobidan keyingi chuqur o'zgarishlardan dalolat beradi. Qishloq yaqiniga qurilgan zavod ishsizlikka barham beradi. Hatto ayollar ham boylar xonadonida xizmat

²² Кирпиченко В. Н. Современная египетская проза, М., 1986 стр 61

qilish va shaharga borishdan ko'ra zavodda ishlashni afzal biladilar. Hikoyachi Abdul Azimdan qishloq qizlaridan birortasini xizmatkorlikka topib berishini so'raydi. Abdul Azim buning hech iloji yo'q ekanini aytadi. Savodsizlik tugatiladi. Nodonlik va eksplutatsiya zamoni tugaydi. Abdul Azimning Qohiraga kelishdan maqsadi sobiq feodal, hozir esa Arab sotsialistik ittifoqi va kooperativ boshqarmasi raisi Rizqning tanobini tortib qo'yish edi. Rizq agrar islohot o'tkazish bo'yicha vakil bo'lgan nopok odamning qo'llab-qo'ltirlashiga suyanib dehqonlarni aldaydi, kooperativga tegishli qishloq xo'jalik mashinalarini o'z yerlarida ishlatadi. Bundan tashqari Rizq umumiy majlis chaqirishni xohlamaydi, eng muhimi-hozir ham uni qishloq xo'jayini deb tan olishlarini, garchi unvonlar bekor qilingan bo'lsa-da, uni bey deb atashlarini talab qiladi.

Dehqonlarning Rizq bilan kurashi roman konfliktini tashkil qiladi. Tashqi ko'rinishidan qarama-qarshi tomonlar ziddiyatining keskinligi «Yer»dagidan kam emas. Rizq faol dehqonlar guruhini hibsga olishga muvaffaq bo'ladi, dehqonlarning himoyachilari ularni ozod etguncha ancha vaqt o'tadi. Ammo konflikt sabablari, uning mazmuni «Yer»dagidan boshqacha, oldingi romanda vaziyat hayotiyroq edi. Yer va suvdan ajralib qolish xavfi dehqonlarni jipslashtirar va keskin harakatga, isyonga undar edi. «Falloh»da esa, yer muammosi agrar islohot bilan hal qilingan: dehqonlar yerni shaxsiy mulk qilib olganlar, Rizqqa iqtisodiy bog'liqliklari yo'q. Agar Rizq yosh dehqon Solihning hosildor yerini tortib olib, evaziga tashlandiq joyni bergan bo'lsa, bu Rizqning ayyorligi va yigitchaning tajribasizligi tufayli sodir bo'lgan. Solihni xurmo daraxti tanasiga bog'lab qamchilaganiga sabab - Rizq bey deb atamaganidir. Rizq ASI (Arab Sotsialistik Ittifoqi) komiteti va kooperativ majlisini o'tkazishni xohlamaydi, dehqonlar chaqirgan yig'ilishda qatnashishdan bosh tortadi. Bu esa axloqqa oid bo'lib, Rizqning dehqonlarga bo'lgan eski «ginalari»ning namoyon bo'lishi, ularning «insoniy xususiyatlarini» nazar-pisand qilmasligidir.

Shunday qilib, konflikt sabablari iqtisodiy omillardan axloqiy-ma'naviy tomonga ko'chadi. Romanda «ozodlik va insoniy qadr-qimmatlarini qadrlash»ni talab etayotgan dehqonlar va uni rad qilayotgan Rizq o'rtasida ayovsiz kurash boradi. Halollik, yuksak axloqiy negizlar va ayni chog'da, ishonuvchanlik va barham topayotgan tobelik odati munofiqlik, yovuzlik, tubanlik bilan kurashadi. Rizqning ASIning qishloq komitetidagi va poytaxtdagi tarafdorlari (ularning nomi ham aytilmagan va ko'rsatilmagan) dehqonlarni mensimaydigan odamlar. Ular har qanday tubanlik, munofiqlikka tayyor. Asardagi «qora kuchlar»ning (ular dehqonlarga qarshi kurashlarini qissadan tashqarida olib boradilar) timsoli Ismoil degan shaxs, Rizqning qarindoshi bo'lib, u har doim Qohiradan qishloqqa kelarkan, o'zini hukumat raisi deb atab, Abdul Azim va boshqa faollarni hibsga oldiradi. Qishloq polisiyasi boshlig'i al-Frimaui uning aksi bo'lib, halol va oliyjanob vatanparvar, milliy-ozodlik kurashi ishtirokchisi. Uning sa'y - harakati tufayli adolat g'alaba qiladi, qamalgan dehqonlar qishloqlariga qaytadilar, to'y-tomoshalar boshlanadi. Ammo romanning so'ngida «qora kuchlar» bilan kurash hali to'xtamagani ifodasi sifatida yana Ismoilning mash'um qiyofasi paydo bo'ladi. Halol al-Frimaui bo'lajak qonga-qon, jonga-jon jangida g'alaba o'z tomonida bo'lishini ishonch bilan aytadi.

Mazkur roman Misr qishlog'ida bo'lib o'tgan voqealarga aks-sado sifatida yozilgan. Agrar islohotning ikkinchi bosqichida yerga egalik huquqi birinchi bosqichdagi 200 o'rniga yuz feddan bilan cheklanadi. Zamindorlardan ortiqcha yer uchun to'lanadigan badal bekor qilinadi, dehqonlarga yerdan foydalangani uchun beriladigan to'lov to'rt dan uch chorakka tushiriladi. Hukumatning bu choralari kishloqda vaziyatni o'ta keskinlashtirdi va yirik yer egalari shiddatli qarshiliklariga sabab bo'ldi. 1965 yilda Kamshish qishlog'ida ASI a'zosi Salim Husayn dehqonlar manfaatini himoya qilgani, ta'sirli feodal oilasi Al-Fekiga qarshi chiqqani uchun o'ldiriladi. Islohotga xilof ravishda yer egalari juda ko'p ortiqcha yerlarni oila a'zolari bilan bo'lishib oldilar. Bu yerlarda kapitalistik usuldagi yirik xo'jaliklar tuziladi va yer egalari qishloqda xaqiqiy hokimiyatni, dehqonlarni iqtisodiy ekspluatatsiya qilish imkoniyatini saqladilar, dehqonlarni haqoratladilar, ularning insoniy fazilatlarini tan olmadilar. Shaharlarda harbiy, byurokratik va tadbirkor burjuaziya tabaqalarini ham saqlab koldilar.

Romanda konflikt mohiyati ma'lum darajada yengillashtirilgan va shu bilan soxtalashtirilgan. «Yer»da-deb yozadi Taha Badr,- yerni suvsizlikdan saqlash uchun qishloq

harakatga keladi. «Falloh»dagi qishloq Solih Rizqni bey demagani, ASI komiteti majlisiga bormagani uchun harakatga keladi. Ana shu arziyas voqealar konfliktga dalil vazifasini o'tashi uchun, muallif turli mubolag'alarga murojaat qiladi, voqealarni shunday bo'yab tashlaydi va izohlaydiki, go'yo ular «insonni hamma zamonlar va davrlardagi fojiasi» in'ikosiga aylanadi. Abdurahmon al-Sharqoviy qishloqdagi holatni Misr jamiyatidagi sinfiylikni bartaraf qilish va sinfiy kurashning yo'q bo'lishi nazariyasidagidek ko'rishni xohlaydi. U »Yer«da aytgan gaplarini inkor qilmaydi, o'zi bilan ziddiyatga kirishmaydi, o'z nazarida boshqa davr, boshqa konfliktni tasvirlaydi. Aslida esa, konflikt qanday bo'lsa shunday qolgan va uning asl mohiyati yozuvchi tomonidan buzilgan, bu esa, roman badiiyligiga putur yetkazgan. Roman dabdabali va'z ruhida yozilgan. Hikoyachining o'zi ham, uning qahramonlari-sobiq feodal Rizqdan tortib yosh qishloq qizigacha to'xtovsiz ijtimoiy-siyosiy va axloqiy mavzularda fikr yuritadilar, deyarli jonli odamlardek namoyon bo'lmaydilar. «Yer»da nuqson sifatida ko'zga chalingan tantanavorlik «Falloh»da obraz uyg'unligini yemiruvchi illatga aylanadi. Shu sababdan hikoyachi obrazi, uning psixologiyasi tahlil uchun eng katta qiziqish tug'diradi. «Yer»da hikoyachi 12 yashar bola, tabiiyki, u ijtimoiy vaziyatni chinakamiga baholay olmaydi (shuning uchun bo'lsa kerak, muallif asar o'rtalarida uning "xizmat"idan voz kechadi). «Falloh»da esa u ijtimoiy-siyosiy kurash tajribasiga ega yetuk odam. U ilgari Parijda uzoq yillar yashagan davrini hayajon bilan eslaydi, u paytlarda yosh jurnalist «koloniyalarni ozod qilishga, Afrika aholisini mustaqillikka chaqirgan, Hindi-Xitoydagi urushni la'natlagan edi. Ona qishlog'iga u uzoq ayriliqdan so'ng qaytadi va o'zini begonadek his etadi. Dehqonlar unga shaharlik deb qaraydilar, u ham o'zini ilgargidek xalq bilan tenglashtira olmaydi. U voqealar ishtirokchisi, konfliktidagi faol tomon bo'lolmaydi, faqat vositachilik bilan cheklanadi, uning asosiy quroli chiroyli va'z aytish, xolos. Solihni ayovsiz kaltaklagan Rizqning uyiga kelib, uning behad go'zal xotini bilan uchrashadi, shunday sohibjamolga uylangan Rizqqa rashki keladi. «Xonim» erining qiziqqon tabiatini oqlaydi, hikoyachi unga e'tiroz bildirmaydi-axir Rizq xotinini ham tez-tez kaltaklab turadi. U xayolan Rizqqa nasihat qiladi: «Axir sen, Rizq o'n yetti feddonga ega fallohsan-ku, ASI komitetini va kooperativni boshqarasan. Sening qarindoshing Ismoil odamlarni xo'rlash, mamlakat sharafini poymol qilish uchun davlat hokimiyatidan foydalanadi. Odamlar yuragiga qo'rquv soladi. O'z tabiati va ruhiyatini qaysi vahshiydan meros qilib olgan, ko'ksiga qanday yurakni joylashtirgan?»²³

Hikoyachidan tashqari o'z fikrlarini to'laroq maktab muallimi Abdul Maqsud («Yer»dagi maktab muallimi Muhammad afandi obrazining davomchisi) ifodalaydi. U masjiddan qishloq shayxi Talbuni siqib chiqaradi va fallohlarga va'zni o'zi o'qiydi, «yangi islom»ni tushuntiradi, ijtimoiy tengsizlikni, yangi hokimiyat davrida ayyorlik bilan yog'liq joylarni egallab olgan, «musulmonning burchi o'zidagi ortiqcha boylikni boshqalarga berib, xalq hayotini yaxshilash» ekanini tushuntiradi. Abdul Maqsud prezident Nosir inqilobining maqsad va vazifalari haqidagi yutuqlariga murojaat qiladi, odamlarni kurashda dadil bo'lishga, o'zini himoya qilish, inglizlarga qarshi qo'lida qurol bilan ozodlik uchun kurashgan otalar namunasini unutmazlikka chorlaydi. Shu bilan birga, ehtiyot bo'lish, shoshilmaslik, bizning davrimizda puldan qimmat bo'lgan bilimni to'plash lozimligini uqtiradi.²⁴

Abdul Maqsud ma'lum darajada hikoyachining proobrazi bo'lib, adolat va insonparvarlik burchlarini ado etuvchi ziyoli vazifasini o'taydi. Ammo hikoyachi «shaharlik» konfliktida oxirigacha vositachi vazifasini bajaradi. Abdul Maqsud dehqon faollarining taqdiriga sherik, ular bilan birga turmaga tushadi, shunday qilib, u hikoyachidagi faoliyatsizlik va xalqdan uzilib qolish qusuri o'rnini to'ldirib turadi.

Ahmad Xigazi «Falloh» va «Muhammad-ozodlik elchisi»dan olingan parchalarini qiyoslab, fikr, iboralar, jumladan, muallifning o'zini musaffo qilib ko'rsatayotgan payg'ambar va yaxshilik qilaman deb talofatga uchragan himmatli odam haqidagi mulohazalarida ham aynan o'xshashlik borligiga ishora qiladi. Xigazi fikricha Sharqoviy Muhammad haqidagi kitobida

²³ Кирпиченко В. Н. Современная египетская проза М., 1986, стр 65

²⁴ Кирпиченко В. И. Современная египетская проза, М, 1986 стр 65

ham, «Yer»da ham, «Falloh»da ham, she'r bilan yozilgan «O'spirin Mahron» pesasida ham o'sha ilg'or ijtimoiy ideallarini sodda bayon qiladi, o'ta poetik til bilan so'zlaydi, ba'zida esa va'zga o'tib ketadi. «Merosga qaytarkan, Sharqoviy shu yo'l bilan qalb musaffoligini o'ziga qaytardi. Shubhasiz, qishloqdan uzilib qolgan yakkalanishdan qutilish bilan Sharqoviy sotsialistik tafakkurni ham qutkazib qoldi, uni merosimizdagi, madaniyatimizdagi eng sobit qadriyat, islomda va Muhammad shaxsida o'z ifodasini topgan buyuk qadriyat bilan bog'ladi»²⁵-deb ta'kidlaydi Xigazi.

Taha Badr ham «Falloh»dagi Xigazi izoh bergan joylarga to'xtalib, «Cho'ziq bo'lsa-da, tabiiy eshitiladigan va'zlarda muallif dunyoviy masalalarni ko'taradi. Va'zlar balandparvoz, hech narsani ifodalamaydigan iboralardan tuzilgan, muallif fikrini tushuntirish o'rniga, aksincha, uni xiralashtiradi»,— deydi. Taha Badr bu va'zlarga «Haqiqat va yolg'on o'rtasidagi kurash haqida», «Insonning g'ayrinsoniyligi to'g'risida» kabi kinoyali sarlavhalar qo'yadi.

Romanning butun uslubi, hikoyachi nutqi haqida ham, personajlar nutqi xaqida ham tasavvur beradigan parchalar keltiramiz: «Asrlar davomida oliyjanob insonlar o'zlarining himmatlari o'z-o'zidan ularga himoya vazifasini o'tashiga ishonganlari, agar haqiqat ular tomonida bo'lsa, u aldovdan kuchli bo'ladi, deb o'ylaganlari tufayli qancha qonlar to'kildi. Qadim zamonlarda Iso Masih shunday qurbon bo'ldi, Husayn Karbaloda xuddi shunday halok etildi, bizning kunlarda o'z orzu-umidlarini u bilan bog'lagan odamlar orasida Lumumba qatl qilindi. Avloddan avlodga o'tgan sari jafokash va haqiqatparvarlar ana shunday halok qilinganlar. Hozir ham yerning biror burchagida yana bir Isoning jonini olishayotgandir, Husayn qurbon bo'lib yiqilayotgandir yoki boshqa Lumumba halokat yoqasidadir.»²⁶

Shunday qilib insoniyat tarixi oliyjanob, haqiqatgo'y, idealga ishonuvchilar bilan shafqatsiz, insoniylikni yo'qotgan vahshiylar o'rtasidagi kurashdan iborat. Hozirgi Misr qishlog'idagi ijtimoiy kurash ham ana shu nuqtai nazardan baholanadi.

Sharqoviy qishloqqa qaytdi, lekin xalq ichiga qaytmadi. 50-yillarda ma'rifatparvarlik mafkura sifatida kekka Misr adiblari Yahyo Xaqqiy va Mahmud Teymurlar ijodida ahamiyatini yo'qotadi. Unga qaytish samara bermasdi. Agar N. Mahfuzning «Ko'chamiz bolalari» asari realistik adabiyot tomonidan shartlilikning turli - tuman shaklidan foydalanishga va yuzaga kelgan hikoya uslubini o'rta asr adabiy merosini o'zlashtirish bilan yangilikka yo'l ochgan bo'lsa, Yu. Idrisning «Oppoqina»si psixologik, 60-yillar romanchiligida asosiy o'rinni egallagan introspektiv romanni boshlab berdi. «Falloh»ning esa Misr adabiyoti tarixida ma'lum o'rni bo'lsa-da, unda romanchilikdagi yangi tamoyillar o'z ifodasini topmagan. Keyingi yillarda Misr nasrida qishloq mavzusida yuzaga kelgan romanlar «Falloh»ga nisbatan munozara tarzida yozilganga o'xshaydi. Ularda voqelik yangi avlod adiblari tomonidan boshqacha badiiy tadqiq etilgan, «Falloh»ga xos notqlik uslubi-reliktiv hodisa ham bularga xos emas.

ABDURAHMON AL-HAMISIY (1920-1987)

Bu yo'nalishga mansub yozuvchilarning aksariyati, hamisha omma harakatning eng qaynagan joyida bo'ldilar, ularning qalbi va qulog'i doimo xalq dardi-quvonchiga yaqin bo'ldi. Ular xalq vakillari obrazini chizishga, dunyoqarashini aks ettirishga, xalqning milliy - vatanparvarlik va ijtimoiy kurashini tasvirlashga mohir edilar. Abdurahmon al-Hamisiy ana shu toifadagi yozuvchilarning eng iste'dodli vakili edi.

Abdurahmon al-Hamisiy 1920 yilning 12 noyabrida Port-Saidida tug'ildi. Otasi dehqon, onasi esa shaharlik dindor oiladan edi. Al-Hamisiyning hikoya qilishicha, uning bolaligi xiyla og'ir kechgan: ota-onasi inoq bo'lishmagan, oxiri ajrashishgan. Al-Hamisiy shunday xotirlaydi: «Ko'p yillardan keyin bu voqealarni eslab, butun iztirob-uqubatlar ortida yurakka nashtar urgan yagona qo'lni - bir-biriga begona bo'lganlarni nikoh zanjiri bilan bog'lovchi tobe'likning qo'lini ko'rdim».²⁷

²⁵ Кирпиченко В. Н. Современная египетская проза, М., 1986 стр 67

²⁶ Кирпиченко В. Н. Современная арабская проза, М., 1986 стр 68

²⁷ Хозир ва бундан кейин ҳам иктибослар Р. У. Хўжаеванинг «Художественная проза и драматургия Абдурахмана аль – Хамиси». Т., 1975 китобидан олинади.

Al-Hamisiy oz muddat onasi bilan, so'ng otasi bilan birga bo'ldi. Otasi bolaga yetarli diqqat qilolmadi, uni qo'shni qishloqdagi begona oilaga berdi, chunki u yerda boshlang'ich qishloq maktabi bor edi. Shunday qilib al-Hamisiy yetti yoshidan ota-ona mehridan bebahra, odamlar orasida yashay boshladi.

Rutubatli bolalik yozuvchi qalbida og'ir izlar qoldirdi: «Men dard alamlarimni to'kib solishni juda erta o'yladim, chunki qalbidan og'ir g'ussalar o'rin olgan edi, ana shu yuk-iztiroblarni sochib yuborishim kerak edi. Atrofimda esa menga quloq soladigan zot, tushunadigan hamdard yo'q edi. Faqat qayg'uli, noxush yolg'izlik, ota-ona mehriga zor baxtsiz bolalik bor edi, xolos. Men yurak dardlarimni bo'shatishim lozim edi, 8 yoshimdayoq zajali yozishga urindim. Ular o'ta sodda, ammo dard bilan to'la edi».

30-yillarning o'rtalarida ingliz istilosiga qarshi Misrning ko'p shaharlarida, jumladan, Mansurda ham kuchli g'alayonlar, ish tashlash va namoyishlar bo'ldi. Inglizlarga qarshi harakatda talabalar, maktablarning yuqori sinf o'quvchilari faollik ko'rsatdilar. Ana shu harakatda al-Hamisiy barvaqt ishtirok etadi. U mansurlik o'quvchilar namoyishiga qatnashibgina qolmasdan, Foruq polisiyasi va Britaniya askarlarining namoyishchilarga nisbatan qilgan qonxo'rliqi guvohi bo'ldi. Namoyishchilarni o'qqa tutish paytida al-Hamisiyning do'sti, Mansur sudyasi o'g'li o'ldirildi. U al-Hamisiy qo'lida jon berdi. Bu dahshatli voqeaning yosh yigitchaga ta'sirini ifodalash amri mahol.

Al-Hamisiy oliy ma'lumot ololmadi. U ayovsiz hayot yo'lini bosib o'tdi: daydi aktyor, hammol, avtobus konduktori, baqqol do'konida dastyor bo'lib ishladi, nashriyotlarda musahhihlik, maktabda o'qituvchilik qildi.

A. V. Lunacharskiyning xalq ziyolilari sha'niga aytilgan: «Xalq ichidan chiqib o'zicha bilimdon bo'lganlarda tabiiyki, yorqin bo'yoqlar va yaltiroqlikka, melodrama, ko'tarinki ovozga qiziqish kuchli bo'ladi. Shu yerning o'zida ta'kidlashimiz kerakki, bu toifaga, bevosita xalqqa xos kuzatuvlar ham xosdir»²⁸.

Al-Hamisiy 1938 yilda Qohiraga keldi va u yerda taniqli Misr shoiri Xalil Mutron bilan uchrashdi. Har qanday boshlovchi shoir singari al-Hamisiy hayajon bilan o'zining ilk she'rlarini zabardast shoir hukmiga havola qildi. Xalil Mutron she'rlarni faqat ma'qullabgina qo'ymasdan, ularning matbuotda chop etilishiga ham yordam berdi. Bu she'rlar lirik bo'lib, romantik va ma'yuslik bilan sug'orilgan edi. Mazkur she'rlarda Misr xalqining og'ir ahvoriga qarshi g'azab va isyon ifodalangan edi.

1945 yildan boshlab al-Hamisiy Qohira matbuotida ishlay boshlaydi, uni bu dargohga adabiy iste'dodi boshlab kelgan edi.

Jurnalistika unga ilgari noma'lum bo'lgan ko'pgina ijtimoiy va siyosiy masalalarni tushunishga yordamlashdi. Har kuni al-Hamisiy qo'li ostidan yuzlab xalqaro voqealar haqidagi axborotlar o'tardi, tabiiyki, yosh adib ularni oldin ongsiz, keyinroq tetik tahlil qila boshladi.

Abdurahmon al-Hamisiy taraqqiyparvar demokratik adabiyot va jurnalistikaning rahnamalaridan biriga aylandi va «Roz al-Yusuf», «al-Hilol» nashriyotlaridagi yozuvchi doiralari va jurnalistlariga nisbatan keskin muxoliflikka o'tdi, «al-Misriy» va «al-Masa» gazetalari atrofiga uyushgan doiralarga yaqinlashdi. 30-yillarning oxiridagi «Al-Maso», «al-Gumhuriya» gazetasidagi hamkorlik al-Hamisiyni Misrning mashhur ijtimoiy-siyosiy, adabiy arboblari-tinchlik tarafdorlari Misr komitetining raisi Homid Muhiddin (sobiq «al-Maso»ning bosh muharriri), adabiy tanqidchi Ahmad Rushdiy Solih, Butun Dunyo Sira Ittifoqi raisi, adabiyotshunos Muhammad Mandur, hozirgi taraqqiyparvar Misr dramaturgi Nu'mon Ashur va boshqalar bilan mustahkam bog'ladi.

Ana shu 1945-1953 yillarda al-Hamisiy lirik va romantiklikdan demokrat yozuvchiga, grajdan yozuvchi darajasiga ko'tariladi, uning asarlarida vatan ozodligi va ijtimoiy adolatsizlikka qarshi chaqiriq salobatli jaranglaydi. 1945-1953 yillarda al-Hamisiy jahon mumtoz adabiyoti vakillarining asarlarini mustaqil chuqur o'rganadi, ularning ichidan ayniqsa rus adabiyoti

²⁸ Р. Ходжаева. Художественная проза и драматургия А. ал-Хамиси. Т., 1975 стр 7

vakillarini ilg'or, taraqqiyparvar g'oyalari, yuksak insoniy ideallari, gumanizmi uchun yuqori baholaydi. Ular ijodidan ilhomlanib al-Hamisiy M. Gorkiy, M. Sholoxov to'g'risida qator maqolalar yozadi, ularda arab kitobxonini yozuvchi biografiyasi, ijodining o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishtiradi.

M. Gorkiy hamisha al-Hamisiyning adabiy ideali bo'lib, uni insonga muhabbat, yashashga, o'qishga, mehnatga, tinchlikka bo'lgan huquqini himoya qiladigan asarlar yozishga undagan.

1965 yilda Gorkiy kunlari arafasida al-Hamisiy «Literaturnaya gazeta» sahifalarida «Ikkinchi jahon urushi natijalaridan biri shu bo'ldiki, Misr Gorkiyga behad qiziqdi va uni sevib qoldi, biz Gorkiyga mahliyo bo'ldik. O'sha davrlarda Gorkiyning hikoyalari va romanlari biz uchun inqilobiy targ'ibotchi, ma'naviy rahbar, bizning sotsializmga bo'lgan muhabbatimizni yuksaltiruvchi, kurashimiz g'alabasiga ishonch tug'diruvchi mayoq vazifasini o'tadi»²⁹ deb yozgan edi. Inqilobgacha bo'lgan Misr ijtimoiy voqeligini al-Hamisiy keng tahlil va tanqid qiladi. Adib burjua jamiyati illatlarini ochib tashlaydi va la'natlaydi, qonunlarining vahshiy tabiatini, chirigan ahloqni ayovsiz fosh etadi. Al-Hamisiy Misr, Sudan, Jazoir va boshqa Afrika xalqlari milliy-ozodlik kurashi haqida yozadi.

Al-Hamisiy o'z asarlarida xotinlarni uy tutquni, quliga aylantirgan reaksiya urf-odatlar va an'analarga qarshi chiqadi, xotin-qizlar ozodligi, ular o'z huquqlarini o'zlari himoya qilishlari tarafdori. Al-Hamisiyning butun ijodida gumanist san'atkor sadosi yangrab turadi, u insonga mehr, taraqqiyotga ishonch ruhi bilan yo'g'rilgan.

Al-Hamisiy uslubi hamisha rivojlanib va boyib bordi, u ijodining ilk davrlarida birdaniga shakllanmadi. Al-Hamisiy «Bu qon qurimaydi» deb nomlangan hikoyalar to'plamining so'ng so'zida «G'oyaviy pozisiyalarim mujassamlangan narsalarni ko'rishga vosita bo'ladigan, voqealarni tahlil etadigan va munosabatni belgilaydigan bugungi falsafam yuzaga kelguncha ijodiy yuksalish davri turli bosqichlarni boshdan kechirdi va ko'p yillarga cho'zildi»³⁰, deb eslaydi.

Adabiyot maydoniga al-Hamisiy shoir sifatida kirib keldi. O'rta maktabda o'qib yurgan chog'idayoq yosh shoir ilk devonini tuzdi, 17 yoshidan boshlab, hozirgi Misr yozuvchisi Yusuf Idrisning ko'rsatishicha, adabiy doiralarda nozik kuzatishlari va o'ziga xos yorqin badiiy ifodalari bilan shuhrat qozondi. 1943 yilda al-Hamisiyning «O'tmish» dostoni bosilib chiqdi va kitobxonlar, adabiy tanqid asarni yuksak baholadilar. Doston fikr yangiligi, tuyg'ular samimiyligi, hayajonli ifodasi bilan muxlislarni maftun etdi.

«O'tmish»da 23 yashar Hamisiyning turmush tajribasi, erta boshlangan mustaqil hayot girdobi o'z aksini topdi. She'rlarini devon shaklida jamlash va chop etish turli sabablarga ko'ra ancha kechikib ketdi. Faqat 1958 yildagina birinchi devon «Insoniy ehtiroslar», 1962 yilda esa ikkinchisi - «Ko'z yoshlari va olov» bosilib chiqdi.

Al-Hamisiy devonlari tahlilidan ko'zga tashlanadigan eng muhim xususiyat - shoir evolyusiyasi, san'atkorning individual ichki alamini aks ettiruvchi intim lirikadan zamonasining dolzarb muammolarini ko'targan yirik asarlarga o'tish edi. Taniqli arab adabiy tanqidchisi Muhammad Mandur (1907-1965) «Insoniy ehtiroslar»ga yozgan so'z boshisida: «Ushbu 9 qasida Abdurahmonning ijodiy evolyusiyasini yaqqol namoyish qilib kelmoqda, yoshlik tongida jaranglagan nasriy, jo'shqin romantizmdan milliy kurashning teran g'oyaviy she'riyati sari taraqqiyotini «Jazoirlik Abul Qosim», «Iroq haqidagi qo'shiq»lari ham ko'rsatib turibdi» degan edi. Ba'zi arab munaqqidlari al-Hamisiyning ilk she'riyatiga g'arb romantizmi vakillari, ayniqsa, Shiller va Bayron sezilarli ta'sir o'tkazganini ta'kidlaydilar. Mazkur shoirlar 30-40-yillarda Misrda ko'p tarjima qilingan va sevilib o'qilgan. To'g'ri, ular al-Hamisiy ijodiga ta'sir qilgan bo'lishlari mumkin, lekin bu shoir individualligini aslo yo'qqa chiqarmaydi. Al-Hamisiyning daslabki she'rlari chuqur lirizm bilan yo'g'rilgan bo'lib, shoirning ichki tuyg'ularini, muhabbati iztiroblari, shaxs ozodligiga chanqoqlik tuyg'ularini bildiradi.

²⁹ Ходжаева Р. У. Художественная проза и драматургия А. аль-Хамиси, Т., 1975, стр 56

³⁰ Ходжаева Р. У. Художественная проза и драматургия А. аль-Хамиси. Т., 1975 стр 57

1957 yilda «Jazoirlik Abul Qosim» dostoni chop etildi. Bu asar shoir iste'dodining teranlashayotganidan, dunyoqarashi kengayotganidan darak berardi. Doston o'sha davr taraqqiyparvar adabiyotchilarning dolzarb talablarini, adabiyotni hayot uchun yaratish, uning ijtimoiy roli, mas'uliyati, g'oyaviyligi, uning milliy-ozodlik kurashiga munosabatini e'tiborga olib yaratish talabini qondirar edi.

«Jazoirlik Abul Qosim», «Moskva haqida qo'shiq», «Iroq xaqida qo'shiq», «Alo Abdullatif xotirasiga», «Gagarin mening qishlog'imda» kabi asarlari mazmuni uning dastlabki «O'tmish», «Kechasi», «Isyon» dostonlaridan keskin farq qiladi. Ularda mustaqillik va vatan ozodligi yo'lidagi kurash va fidoyilik kuylanadi. «Jazoirlik Abul Qosim»da Jazoir ozodligi uchun jangga kirgan va qahramonlarcha halok bo'lgan falloh tarixi hikoya qilinadi.

Mayli so'nggi nola yuzlarini o'zgartirsin,
G'azabimiz kuchayadi bilmasdan oxir,
Go'zal Laylo, yechgin motam libosin,
Sevganing o'lmagan, u barhayot, safdadir
Yana o'lim sari borar yurt g'omini deb,
Dushmanlarni nari haydar, u bo'lar g'olib.

1966 yilda «al-Kotib» jurnalida Al-Hamisiyning «Kamshish xotirasi», «Istak», «Mening orzularim», «Kichkina may va shar» she'rlari e'lon qilinadi.

AL-HAMISIIY NOVELLALARINING G'OYAVIY MAZMUNI VA BADIY XUSUSIYATLARI

Al-Hamisiyning serqirra ijodida kichik proza janrlari - qisqa hikoya va ocherklar markaziy o'rinni egallaydi. Adibning novella janridagi ilk tajribalari 40-yillar o'rtalariga to'g'ri keladi. Uning «So'nggi ohang» nomli ilk novellasi 1948 yilda bosildi. O'sha davrdan boshlab al-Hamisiy hikoyalari faqat o'z vatanidagina emas, arab Sharqining boshqa mamlakatlarida ham shuhrat qozondi. Endilikda al-Hamisiy kitobxonlar mehrini qozongan mashhur novellachidir.

Al-Hamisiyning noyob poetik mahorati, ayniqsa, hikoyalar tilida yorqin namoyon bo'ldi. Adib ijodining ana shu xususiyati haqida Ali ar-Ran shunday ta'kidlaydi: «Abdurahmon al-Hamisiyning bu to'plamdagi hikoyalari tadqiqotchisi uning novellalari qasidadan o'sib chiqqanining guvohi bo'ladi. Misol sifatida «So'nggi ohang» novellasini olaylik. Unda she'rga xoslik novelladan ustunlik qiladi. Hatto hikoyada personajlarni topolmaymiz, qatnashuvchi shaxslarning mavhumlashgan fikrlariga duch kelamiz».

Misr olimi bilan arabshunos G. I. Sharbatov kuzatishlari mos tushadi. «So'nggi ohang» hikoyasida «muallifning poetik ijodidan prozaga o'tishidagi ilk urinishlari o'z aksini topgan. Tasviriy vositalar va badiiy obrazlar nuqtai nazaridan bu hikoya nasrdan uzoq bo'lib, poetik janr bilan umumiyliги ko'p. Unda hamma narsa she'rga xos, muhabbatni kuylash ham, kuchli ehtirosalar ham, jo'shqinlik ham, nozik poetika ham... Lekin bu yerda hali aniq ifodalangan obrazlar yo'q, tipik real sharoitlar yo'q. Voqealar go'yo qandaydir noma'lum ertaklar dunyosida sodir bo'ladi»³¹.

Shu bilan birga al-Hamisiyning ba'zi novellalarida uning kasbi -jurnalistikaning ta'siri seziladi. Fursatning dolzarbligini qo'ldan chiqarmaslik taqozosi bilan keskin syujetli qator hikoyalarni al-Hamisiy shoshib yozgan va chop ettirgan. Bu esa badiiy til bilan publisistik uslub aralashmasiga aylanib qolgan. Bu xususiyatni Ali Ran va G. Sh. Sharbatovlar ta'kidlaganlar. Ali Ran uni anchagina keskin shaklda tanqid qilgan.

Al-Hamisiy hikoyalari mazmuni turli-tuman bo'lsa-da, hayotiy haqiqat ularning hammasi uchun mushtarakdir. Adib o'z asarlarida ishchilar, dehqonlar va shahar burjua qatlami hayotini yoritgan. Al-Hamisiy o'z xalqining milliy-ozodlik harakatidan chetda turolmasdi. Shuning uchun ham uning qator asarlarida milliy-ozodlik kurashning dolzarb muammolari ko'tarilgan. Bu asarlar al-Hamisiyning haqiqiy qiyofasi - vatan fidoyisi va uning mustaqilligi uchun chinakam kurashchisi ekanini ko'rsatdi. Al-Hamisiy hikoyalari Misr xalqining ingliz mustamlakachilariga qarshi milliy-

³¹ Ўша китоб.

ozodlik kurashi avj olgan davrlarda yozilgan. Ular hamyurtlarini vatan oldidagi burchga sadoqat, xalqdagi barcha kuchlarni imperializmga qarshi jipslashishga undadi. Ingliz imperialistlari va kolonizatorlariga qarshi milliy ozodlik kurashi muammolarini al-Hamisiy turli nuqtai nazardan talqin etdi. Bu hikoyalarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, muallif bu kurashni ishchilar, dehqonlar, mayda burjuaziya, ziyolilar va armiya ishtirok etgan umumxalq kurashi sifatida aks ettirgan.

«O'lim pechkalari» deb atalgan eng yaxshi hikoyalaridan birida al-Hamisiy Misrning milliy ozodligi mavzusini Misr ishchilari va dehqonlarining ijtimoiy va siyosiy ongi ko'tarilishi bilan bog'laydi. Hikoya qahramoni Madbuli shaharga pul topish, boylik to'plash va to'yga pul jamg'arish uchun kelgan. Dastavval u o'z manfaatlarini o'ylab yashaydi, atrofida bo'layotgan voqealar uni kam qiziqtiradi, ammo shafqatsiz voqelik uni dunyoga yangicha nigoh bilan qarashga majbur etadi.

Korxonalarda, ingliz harbiy lagerida u ishchilar ustidan qilinayotgan haqoratlar, ma'muriyat tomonidan qilinadigan aldovlarni o'z ko'zi bilan ko'radi, o'zi xam ekspluatatsiya qurboniga aylanadi. Madbuli qalin puli ishlay olmaydi, lekin u boshqa narsa orttiradi: ishchilarning umumiy noroziligi, xo'jayinlarga nisbatan nafratini ko'rgan Madbulida siyosiy evolyusiya sodir bo'ladi. Hikoya oxirida uni shakllangan ishchilar jangchisi, ommaviy yetakchining ishtirokchisi sifatida ko'ramiz. Ommaviy stachka ishchilarning namoyishkorona ingliz korxonasida ishni tashlab ketishi bilan yakunlanadi. Madbulining xayoli oldin to'yga to'plash uchun piast (pul birligi) sanash bilan band edi, endi u tamoman o'zgardi. Madbuli o'z-o'ziga: «Bu inglizlar, Madbuli, Misrda uning boyliklarini bosib olish, paxtasi, bug'doyi, chorvasi, suvi, yer va odamlari nimani bersa o'zlashtirishni ko'zlaydilar, sendaqa misrliklarga esa qashshoqlik, yo'qchilik va nodonlikda yashashni ravo ko'radilar.

Madbuli, bu inglizlar senga o'z cho'ntaklaridan emas, Misrdan o'g'irlaganlarini to'laydilar. Inglizlar minib yurgan avtomobillar Misr puliga kelgan, ular kiyadigan a'lo navli liboslar ham Misrdan o'g'irlangan pullardan. Ular misrliklardan olingan boyliklarga cho'lg'anib yotibdilar, senga esa, Madbuli, qoldiqlarning qoldig'i beriladi»³².

Madbuli uydan qanday qashshoq ketgan bo'lsa, shunday, lekin ozodlik uchun kurash adolatli ekanini his etgan holda qaytadi. Madbuli g'urur tuyg'usiga cho'lg'ongan holda qaytadi. U chin yurakdan: «Yashasin Misr! Yashasin Misr ishchilari!» deydi.

Hikoyani o'qir ekanmiz, beixtiyor epigrafidagi «Misr mustaqilligi uchun kurashda ishchilar xalqning avangardi bo'ldilar. Ular Britaniya lagerlarini tark etdilar, ularning qornini to'yg'azib turgan ishlaridan voz kechdilar, Vatan ozodligi uchun mardlarcha ochlikka chidadilar» so'zlari esga tushadi.

Agar bu hikoyada Misr ishchilarining boykoti ingliz zulmiga qarshi norozilikni ifodalasa, «Qonli ko'ylak» hikoyasi ingliz mustamlakachilariga qarshi faol kurash bosqichini ko'rsatadi. Hikoya qahramoni keksa ishchining o'g'li Asam namoyishchilar o'qqa tutilganda qahramonlarcha halok bo'ladi. Hikoya halok bo'lgan qahramon otasining maktubi tarzida yozilgan. Mo'ysafid otaning ma'naviy ulug'ligi, farzandi o'lmidan chuqur alam va qayg'uga tushgan, ayni chog'da, ozodlik uchun qurbon bo'lgan o'g'il uchun g'urur hissi quyidagi maktubda o'z ifodasini topgan.

«O'limdan keyin mening boshimga tushgan kulfat umid tug'diradi... Imperialistlarning quvilishiga umid tug'diradi. Men senga qahramon ko'ylagini ko'rsataman, jafokashning qonini ko'rsataman: ehtimol sen men bilan bir safga turarsan, mening da'vatimni qo'llarsan, sening qalbing ham menikidek g'azab va qasos hissiya to'lar.

Ha, mening yuragimdan yoshlar oqadi, lekin ular g'urur bilan qo'shilgan, ular harakatga chorlaydi. Axir, Misr ozodligi uchun men vujudimning bir qismini qurbon qilmadimmi? Mening ikkinchi o'g'lim - bu vatanga ikkinchi qurbon, lekin bu safar u bilan jangda birga bo'laman. Yoshim ulug' bo'lsa-da, ozodlik quyoshi uni yoritmaguncha men o'lmayman!»³³.

Mo'ysafid qayg'uradi, chuqur qayg'uradi, lekin u yengilmagan, sinmagan, u vatanparvarlar safida halok bo'lgan o'g'li o'rnini egallashga va vatan ozodligi uchun jon fido etishga tayyor.

³² Ўша китоб.

³³ Ўша китоб.

Al-Hamisiyning «Bu qon qurimaydi» hikoyasi 1952 yilgi voqealar haqida, unda Misr vatanparvarlarining Suvaysh kanali zonasidagi ingliz harbiylariga qarshi kurashi to'g'risida so'z ketadi, hikoya kitobxonni shahardan qishloqqa jalb etadi.

Al-Hamisiy hikoyada kekxa dehqon ayoli-ona obrazini yaratgan. Oddiy qishloq ayoli qiyofasida xalq vatanparvarligi, zaminga, e'tiqodga sadoqat o'z ifodasini topgan. U savodsiz, gazetadan bexabar, radioni eshitmaydi, siyosatdan yiroq. Ammo butun vujudi bilan Misr tuprog'ini toptayotgan nonini yeyayotgan, paxtasini tashib ketadigan kelgindilarni yomon ko'radi. O'g'lidagi jur'atsizlik, tortinchoqlik onaga yoqmaydi, o'g'lini kurash yo'liga undaydi. Chinakam vatanparvar ayolning qahramonligi inglizlar tomonidan dehqonlarning so'roq qilinishi lavhasida mahorat bilan ko'rsatilgan. Kampirga partizanlarning yashiringan joylari ayon, ammo dushmanlar 20 nafari garovga olinganlarni, o'g'lini otayotganda ham ularni sotmaydi. Bu muqaddas kurashda u eng aziz kishisi-o'g'lini qurbon qiladi. Hikoyada deyarli portret, tashqi qiyofa chizilmaydi, ayol an'anaviy qora ko'ylak, qora ro'molda beriladi. Hikoyada qahramonning o'zidan ko'ra uning harakati to'g'risida ko'proq ma'lumot beriladi, bu savodsiz, qoloq kekxa dehqon ayoli ko'z oldimizda tirik inson sifatida gavdalanadi.

Misr partizanlarining qahramonona faoliyati al-Hamisiyning «Olovlar quyuni» hikoyasida o'z aksini topdi. Adib ma'lum ma'noda oldingi hikoyalarni to'ldiradi: ularda mustamlakachilarga qarshi kurashayotgan ishchilar va dehqon kurashchilarini ko'ramiz. Xuddi shu o'rinda al-Hamisiy taraqqiyparvar ziyoli yoshlar-talabalarning kurashga qo'shgan hissasi haqida hikoya qiladi. Tengsiz olishuvlarda ulardan ko'pchiligi halok bo'ladi, ularning o'rniga ozodlikning yangi fidoyi kurashchilari kelib qo'shildilar. Bular ajoyib taraqqiyparvar Iroq shoiri Muhammad Mahdiy al-Javohiriy she'rlari bilan jangga kiradilar.

Hikoya qahramoni jasoratli yosh yigit, Suvayshdagi partizan otryadlari tashkilotchisi. U faqat tinchlik va osoyishtaligini yo'qotibgina qolmay, vatan uchun jonini ham fido etadi. Kundalik tarzida yozilgan asarda al-Hamisiy qahramonning yorqin obrazini chiza olgan. Asarda qahramonni ko'rmaymiz, u allaqachon xalok bo'lgan. Ammo u hikoyada jasorat timsoli, hayot haqiqati tarzida gavdalanadi. Al-Hamisiy obrazning siyosiy idealini ko'rsatish uchun uni al-Javohiriy she'rlari shaydosi sifatida ko'rsatadi. Bir qancha novellalarda al-Hamisiy Misr milliy kurashi doirasidan chiqib, Afrikaning boshqa xalqlari kurashchilari fidoyiligi to'g'risida hikoya qiladi.

«Janublik kurashchi» novellasida sudanlik yigit Misr qamoqxonalari halok bo'ladi. U o'z jonini Misrda inglizlarga qarshi kurashda qurbon qiladi. Al-Hamisiy bu hikoyada imperializmga qarshi kurashuvchilarning baynalmilalligini kuylaydi, sudanlik yigitning o'limi va dafn marosimi Misrda shunchalik g'azab va norozilik namoyishlarga sabab bo'lgani kitobxonga ayon bo'ladi: «Saloh Bashrning dafn kunini qiyomatga qiyos qilish mumkin. Qohiradagi sudanlik talabalar uyidan tobutni yigirma ming misrlik kuzatib bordi, ularning qalbi g'azab va alam bilan yonardi, ko'zlari yoshga to'la edi. Sudanda minglab odamlar aza tutdilar. Janublik yigit Saloh Bashrning ozodlik uchun kurashi tarixi shundan iborat. U hozir ham muqaddas, Nil vodiysida kurashchining abadiy timsoli, ozodlik jarchisi bo'lib yashaydi».

«Biz o'lmaymiz!» hikoyasi esa Keniya xalqining milliy ozodlik harakatiga bag'ishlangan. Al-Hamisiy bu hikoyada Keniya qabilasining ozodlik va mustaqillik kurashidagi ishtiroki to'g'risida fikr yuritadi. Muallif donishmand dohiy tili bilan Keniyaning ingliz bosqinchilari tomonidan qul qilinishi tarixini so'zlab beradi.

Al-Hamisiy bu hikoyani yozgan paytlarida (1953, may) Keniya ingliz mustamlakasi edi. Ammo al-Hamisiy o'zini, kitobxonni ham, bugun bo'lmasa ertaga Keniya ozodlik va mustaqillikka erishish va o'z yeridan mustamlakachilarni butunlay quvishiga ishonadi.. Qo'zg'olon tugadi.. Ammo qanoti singan jarohatlangan xalq xech qachon tinch uxlay olmaydi, yo'q! Bu jarohat uni yangi janglarga chorlaydi, toki zamin mustamlakachilikdan tozalansin, tinchlik hukmron bo'lsin!

«Po'lat» hikoyasi bir qarashda qiziqarli, ajoyib detektivga o'xshaydi. Aslida unday emas. Jazoir xalqining mustaqilligi uchun kurashidan hikoya qiluvchi sahifalardir. Hikoyada Jazoir va Misr xalqlarining birdamligi, hamkorligi tasvirlangan. Asarning yechimi kutilmagan: Jazoir vatanparvarlariga yashirincha xabar yetkazuvchi Misr aloqachisini ta'qib qilib yurgan odam xuddi

o'ziday kurashchi-vatanparvar bo'lib chiqadi. Yechim bunday kulgili, yumoristik tarzda bo'lsa ham, o'quvchi konfliktning bunday xayrli tugashidan qoniqish hosil qiladi.

Al—Hamisiy chet el mustamlakachilariga qarshi kurash bilan aloqador voqealarni tasvirlar ekan, Misrdagi bu kurash o'z taxti himoyasi evaziga Misrni ingliz imperializmiga qul qilib sotgan monarxistik tuzum bilan kurashdan ajralmas ekanini tushuntiradi. Al—Hamisiyning bir qator hikoyalari Faruq mustabid tuzumiga qarshi qaratilgan. Al-Hamisiyning 1952 yilgi inqilobdan keyin yozilgan so'z boshida shunday deyiladi: «Qohira yong'indan so'ng vatan xonlari begunoh odamlar ustidan sud uyushtirganini bilganimdan keyin yuragim tashvish va g'azabga to'ldi. Ushbu «ertak» o'shanda tug'ildi».

Bu majozda al-Hamisiy «ozodlik ideali haqiqat va adolat tantanasini qalamga olar ekan, o'z xalqining folklor xazinalaridan unumli foydalanadi. Bayoning go'zalligi va o'tkir badiiy umumlashmasi bilan hayrotomuz bo'lgan. «Haqiqat uzugi» afsonasi zulm va adolatsizlik ustidan adolat kuchlarining muqarrar g'alabasi haqidagi jo'shqin dostonidir... u zulm va adolatsizlik ustidan adolat kuchlarining muqaddas g'alabasi haqidagi jo'shqin dostonidir, u zulmkorlarga bo'lajak qasos haqidagi dahshatli ogohlantirish edi», -deb ta'kidlaydi G. Sh. Sharbatov.

Monarxiyaga, Faruqqa qarshi ruh «G'am xaqida afsona»da ham seziladi. Keksa dehqon ayoli dunyoda g'am-g'ussa har bir odamning qismati bo'lib qolgani, uni yo'qotishga hech kim qodir emasligi to'g'risida hikoya qiladi. «Achchiq qismatga tan berish kerak emas, kurashish lozim!-deydi al-Hamisiy. Bugun odamni oldinga faqat oldinga chorlovchi afsonalar kerak!». Al-Hamisiy «G'am xaqida afsona»da kurashga, avvalo ijtimoiy «adolatsizlik, zulm va istibdodga, to'g'rirog'i, mazkur hikoyalar yozilgandan keyin qulagan Farruqning monarxistik tuzumiga qarshi kurashga chaqiradi. Al-Hamisiy o'zining eng yaxshi hikoyalaridan bo'lgan «Konsetrasion lageridagi isyon»da Farruq zulmiga qarshi kurashgan Misr fidoyilarining qahramonligi va jasoratini kuyladi. Qurolsiz siyosiy mahbuslar Farruqning jandamlari bilan yakkama-yakka jang qildilar. Ularning aksariyati halok bo'ladi. Ularning o'limi tiriklarni kurashishni kuchaytirish va saflarini birlashtirishga da'vat etadi. Ozodlik va mustaqillik kuychisi al-Hamisiy imperializm, reaksiya qarshi o'z mamlakatida olib borilgan kurashni kuylaydi. Ayni chog'da u tinchlikning ongli kurashchisi va imperialistik urushlarga qarshi fidoiy kurashchidir. Tinchlikni saqlash mavzusiga bag'ishlab «Halokatli shartnoma», «Dahabiya», «Qaytish» hikoyalarini yaratadi. Ularda adib bevosita tinchlik uchun kurash, tinchlik tarafdorlari harakati to'g'risida gapirmaydi. Yonayotgan ekinzorlar va yerdan mahrum etilgan fallohlar, nemis bombardimonchi samolyotlari uchayotgan osmonga qo'rqinch bilan tikilayotgan bolalar va ayollar, vayronaga aylangan uylar va xarobalar ichidan qizcha Murdasi, bombardimon paytida bolasini yo'qotgan ona, kelajakka umidsiz uyiga qaytayotgan oyoqsiz nogiron-urushning ana shu Mudxish natijalari al-Hamisiy asarlarida aks ettirilgan.

Misr ayoli ozodligi uchun kurashga al-Hamisiy ham qator hikoyalar bag'ishladi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, yozuvchi ayolning tubanlashuvi mavzusiga alohida e'tibor qaratdi. Bu hodisa al-Hamisiy fikricha, tasodif, ayrim odamlarning axloqsizligi natijasi emas. Tubanlashgan, buzuq ayol-qashshoqlik va ishsizlik, huquqsizlik va zo'ravonlik qurbonlari orasidagi qonuniy hodisa.

«Yomon irsiyat» yoki «Tug'ma mayillik» «Ikki qiyofa» hikoyasining qahramoni Majidani tungi islovatxona raqqosasi yo'liga boshlamagan, yolg'iz, kambag'al qiz ish topolmaydi. O'sha muhtojlik va umidsizlik uni tunggi kabare raqqosasi bo'lishga majbur etadi. Ammo Majida qalb musaffoligini saqlaydi. U halol yashashga intiladi va kambag'al yigitga turmushga chiqadi. Ammo eri ham ishdan mahrum bo'ladi; Majidani och qoldirmaslik uchun, garchi sevsa ham u bilan ajrashadi. Qizda o'zining tahqiromuz turmushiga nisbatan norozilik kuchayadi, u o'z hayotiga kabare va uning shinavandalariga nafrat bilan qaraydi.

«Men xohlar edim...» hikoyasi qahramoni Vidod taqdiri Majidanikiga juda o'xshash. Vidodning otasi ko'r bo'lib qoladi. Oz fursatda oila qashshoq holga keladi. Oilani boqish, ukalariga o'qish imkonini yaratish uchun katta qiz Vidod ishga kirmoqchi bo'ladi, lekin ish topolmaydi. U tunggi kabarega borishga majbur bo'ladi. «Huzur-halovat, eh, huzur halovat!» hikoyasida oddiy qishloq qizi Husniya baxtli oila quradi. U baxtli va shukuhli saodatli hayotni

orzu qiladi. Al-Hamisiy hikoyasini kulminatsiyada yakunlaydi.. Ammo u dahshatli taqdiridan bexabar: to'y kuni hammadan ham kuyovning onasi islavotxona sohibasi quvonadi, u kelini qiyofasida iflos daromadlar manbaini ko'radi. Al-Hamisiy shu o'rinda hikoyani tugatadi, ammo kitobxon qahramonning keyingi taqdirini aniq tasavvur qiladi.

Kambag'al qiz Nabaviya aldov, buzuvchilik va tirik «mol»savdosi qurboni bo'ladi. Boshpanasiz yetim Nabaviya uni «qiz qilib olgan qo'shmachining tuzog'iga ilinadi. Nabaviya xuddi Majida singari mushkul holatda o'z hayotini yo'lga solishga urinadi, oilali, uyli bo'lishni istaydi, ammo uni turmushga bermoqchi bo'lgan odam yosh qizlarni fohishalikka yollovchi, ular bilan savdo qiluvchi to'daning a'zosi bo'lib chiqadi. Shunday qilib, Nabaviya minglab qizlar singari qashshoqlik qurboniga aylanadi.

«Tubanlikka mahkum bo'lgan ayollar» obrazlari ichida Nabaviya muvaffaqiyatli yaratilgan. Al-Hamisiy Nabaviya qiyofasini shunday beradi: «Agar sizlardan kimdir qoramag'iz, ozg'in, nozik yuzli va hurkak, shahlo ko'zli qizni ko'rgan bo'lsa, bas boylashaman, qasam ichaman-bu Nabaviya. M. Gorkiy, A. Kuprin va boshqa adabiyot klassiklarining agar shunga o'xshagan qahramonlari eslansa, yirik san'atkorlar inson hayoti va qalbining nozik bilimdonlari sharmandali kasb bilan shug'ullanishga majbur bo'lgan baxtsiz qizlarning muhim xususiyatlarini ta'kidlaganlar: haqiqiy bokiralik va hayot haqiqatidan mahrum bo'lgan bu bechoralar o'z o'tmishlari va bugungi hayotlari to'g'risida ertaknamo afsonalar yaratadilar. Ular oila qurish, qalliqli bo'lishga ishonadilar va orzu qiladilar. Ular ana shu fantaziya bilan yashaydilar.

Xuddi shuni biz Nabaviyada ko'ramiz. Bechora qiz oila, o'z uyi xaqida orzu qiladi, o'ziga kuyov va ota-ona o'ylab topadi.

«U o'zini xuddi boshqa qizlardek ekaniga, onasi, otasi, qallig'i borligiga, ular yaxshi va o'ziga to'q odamlar ekaniga meni ishontirmoqchi bo'lardi.

Men uning yolg'onini kechirardim. O'zimni unga ishongandek qilib ko'rsatardim, men g'azablanmasdim, chunki bu jafokash qiz xo'rliklardan o'zini yolg'on bilan himoya qilmoqchi bo'lardi. Nabaviya hayot bo'roni sindirgan nafis, toza gul bo'lib, hatto balchiq ichida bo'lsa ham, quyoshga va nurga intilardi». «Odam go'shti» hikoyasida Misr jamiyati «tubi»ning yaramas tomonlari yanada keskin tarzda ko'rsatiladi, diqqat markaziga odamlarning vahshiyliги qo'yiladi. Saniya, Darvish, Abu Darvish obrazlarida Misr «tubi»ning tanazullga uchragan, chirigan qatlamlari vakillarini ko'ramiz. Ular siyosatdan, foydali mehnatdan, madaniyatdan yiroq kishilar. Ularda loaqal bironta ijobiy xislat uchramaydi.

Saniya - hali yosh, lekin oxirigacha tubanlashgan ko'cha ayoli. U hayotidan o'lgudek charchagan, o'ta zaif va ma'naviy qashshoq, bu holatdan qutilishga qodir emas. Darvish va uning otasi eng iflos kasb bilan shug'ullanadilar: ular marhumlarni shiladilar, ayollar bilan savdo qiladilar, hatto ular bir-biriga qarindoshlik tuyg'ularini ham yo'qotganlar, ularni faqat «kasb»lari bog'laydi, xolos, ilojini topsalar bir-birini o'ldirishga ham tayyor.

Al-Hamisiyning «Bu qon qurimaydi» deb nomlangan to'plamiga yozgan so'z boshisida Misr tanqidchisi ar-Ran «Odam go'shti» novellasining fazilatlarini haqida shunday yozadi: «Odam go'shti» novellasida al-Hamisiy bizni jamiyatning «tubi»ga olib tushadi, bu jihatdan uning rus ustozlari M. Gorkiy asarini eslatadi». Mazkur hikoyada adib ana shu sharmandali voqeaga beparvo bo'lganlarni ayovsiz la'natlaydi. «Sizlar jamiyat iflosliklariga ko'zni yummasliklaring, aksincha uni ko'rish, sezish uchun, biz bilan birga norozilik qo'lini ko'tarish, temir iroda bilan barchaga bilim, ovqat, shon-sharaf berish uchun uni kattaroq ochishlaring kerak».³⁴

Al-Hamisiy jamiyat keraksiz latta, uvadadek chekkaga uloqtirgan, Misr «tubi» sanalgan odamlar qiyofasida insoniy xususiyatlarni ko'ra oladi.

«Agar men bo'lmaganimda, ona!» hikoyasidagi ona obrazi bilan al-Hamisiy tubanlashgan bu odamlar jamiyatning «tepasi»dagilardan tozaroq, yuksakroq ekanini isbotlaydi. Hikoya qahramoni-ko'cha ayoli faqat bir tashvish Bilan - qizini katta qilish, uni o'zi bulg'angan, ifloslik va sharmandalikdan xoli o'stirmoqni istaydi.

³⁴ Р. У. Ходжаева Художественная проза и драматургия А. аль-Хамиси, Т., 1975 стр 45

Hikoya ana shu ayol qizining tavbasi, e'tirofi shaklida yozilgan. Maktub bilan tanishar ekansiz onaning jonli tasviri - o'xshovsiz bo'yalgan, tashqi qiyofasi bachkana, yoshi o'tib qolgan ayol namoyon bo'ladi. Ana shu tashqi ko'rinish ortida samimiy ona qalbi yashiringan, uning uchun qizi-ishongan tog'i, g'ururi, uning sof, go'zal hayot to'g'risidagi orzularining timsoli. Shuning uchun u qizini deb hamma rohat farog'atdan voz kechib, o'ziga to'q oilalar farzandlari tarbiyalanadigan maktabga joylashtiradi. U iloji boricha, qizining o'ziga o'xshamasligini xohlaydi. «Faqat Ollohgagina ayon bo'lgan noyob javohirlar to'la xazinani yashirgandek, dugonalarindan o'qiyotgan qizing borligini yashirding». Qizi uchun u onalik huquqidan mahrum bo'lishga ham tayyor. «Meni ana shu jonona xarob qildi» hikoyasida Al-Hamisiy kambag'al oilalardan chiqqan fohisha ayollarga ma'naviy tuban Saxirni qarama-qarshi qo'yadi. Umrning mohiyatini faqat boy er axtarish deb biladigan ayol uchun pul, zebu ziynat - qaltis sevgi mojarolariga yo'l ochadigan vosita.

Al-Hamisiy she'riyatida 1975 yilda chop etilgan «Ikki daryo oralig'i risariga qo'shiqlar» alohida o'rin egallaydi. Bu she'rlar 1967 yil iyunidagi Isroil bilan bo'lgan olti kunlik urushdagi Misr mag'lubiyatidan keyingi siyosiy tanglik chog'larida yaratilgan edi. Umidsizlik va tushkunlik holatiga tushgan ko'pchilik odamlardan farqli o'laroq Al-Hamisiy ana shu tanglikning yengib o'tilishiga va mamlakat harbiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy kuchlarining qayta tug'ilishiga ishonchini saqlagan Misr ziyolilari toifasiga mansub edi.

XX asrning 30-40 yillarida Misr adabiyoti maydonida paydo bo'lgan al-Hamisiy avlodi «al-uruba» - arabizm konsepsiyasini ilgari surdi, uning in'ikosi sifatida barcha arablar birligi g'oyasi vujudga keldi. Bu avlod o'zlarini faqat oddiy misrlik deb bilmasdan, balki keng ma'noda arab qavmiga mansub deb tushundilar. Bu Misr ziyolilari qarashidagi yangi burilish edi. Bunday qarash misrparastlik (at-tamsir) konsepsiyasidan tubdan farq qiladi. At-tamsir esa boshqa arab davlatlariga nisbatan Misrga alohida, yuqori darajada munosabatda bo'lishni taqozo etardi. Ana shu yangi g'oyalar «Ikki daryo oralig'i risariga qo'shiqlar»ida o'z aksini topdi. Yevropa madaniyati bilan shoirning tanishishi ilk bolalik davridan boshlandi. Uning yarim fransuz onasi o'g'lini fransuz tili bilan tanishtirdi, fransuz adabiyotini ham barvaqt o'rgatdi. Bola zullisonayn muhitda o'sdi, keyinroq ingliz tilini ham egalladi. Al-Hamisiyning falsafiy-badiiy konsepsiyalariga u yashagan, sayohat qilgan mamlakatlar madaniyati o'z ta'sirini ko'rsatgani ham shubhasiz.

Al-Hamisiy o'z ijodiy yo'lini erta - o'n to'rt yoshida Misr romantizmining kenja davomchisi sifatida boshladi. Bu jarayonning gullab yashnashi «Apollo» guruhi bilan bog'liqdir. Tadqiq qilinayotgan asarda al-Hamisiyning romantizm an'analari bilan aloqasi, jumladan, uzoq o'tmish qahramoniga murojaat tarzida namoyon bo'ladi, ammo bu o'tmish shoir tomonidan kolonializmga qarshi kurash muammosini qayta tushunish ruhida kechadi. Al-Hamisiy romantiklar ko'p murojaat etadigan shaxs muammosini yuzaga kelgan ijtimoiy - siyosiy holat bilan shunday uzviy bog'lay oladiki, natijada muammo yangi saviyaga ko'tariladi.

«Ikki daryo oralig'i risariga qo'shiqlar»ga turli hajmdagi va o'z sarlavhasida «qo'shiqlar»ning umumiy mazmunini ifodalovchi yettita she'r (ularning bittasi sarlavhasiz) kiritilgan. Bular «Debocha» yoki «Yig'i», «Musiqiy debocha» yoki «Yuksak niyat», «Bag'dod», «Kutish», «Risar» «Risarning ovozi», «Yo'lda» she'rlaridan iborat. Bitta she'rga turlicha sarlavhalar qo'yilgani arab adabiyotida she'rlariga umuman sarlavha qo'ymaslik an'anasi hali ham barham topmaganidan dalolat beradi.

Qasidaning an'anaviy shaklini o'zgartirishga intilish XIX asr boshlarida Misr romantiklari ijodida ko'rindi. Ular qadimiy janrning «qonuniy» qurilishini o'zgartirish, monoritmdan qisman voz kechish, ma'no dezintegratsiyasini, ayrim baytlarni buzishni ma'qul ko'rdilar. Ayni chog'da romantiklar insonning botiniy olamini, uning tuyg'u va kechinmalarini aks ettirdilar. Al-Hamisiy bo'lsa, qasida shaklini o'zgartirish an'anasini qabul qildi, tasvirda romantik parvozga intilib, yangi badiiy cho'qqilarni zabt etdi. «Ikki daryo oralig'i risariga qo'shiqlar»ida she'rlar bir butunlikni tashkil qilib, Yevropa kitobxoniga poemani eslatadi. Romantiklarga ergashib, al-Hamisiy har bir she'rga va butun turkumga alohida lirik yaxlitlik beradi, aniq kompozisiya bilan ta'minlaydi, asosiy diqqatini Misr va boshqa arab

mamlakatlarining umumlashgan ijtimoiy tajribasi bilan bog'liq muammoga qaratadi va u bilan romantiklarga nisbatan novator sifatida namoyon bo'ladi. Romantiklarda esa, ma'naviy yaxlitlik odatda, individual xususiy tajriba bilan bir xil aks ettiriladi edi.

«Qo'shiqlar» epigrafi «Qalb g'ussasi» (1973) («Huzn al-qalb») she'ridan olingan bo'lib, sayohat, sargardonlik, musofirchilik mavzulariga olib kiradi:

«Men vaqt bo'ylab kezaman, quvg'inligim g'aroyib...

Misr yashar yuragimda yong'inlar bilan.

Qo'llarim-la alangani o'chira olmayman,

Agar Bag'dod bag'riga olmasa edi-

Musofirlik tilka pora qilardi meni»³⁵

Vatandan ayriliqda unga bo'lgan muhabbat shoirni halok etadi, kuydiradi, yo'q qiladi. Epigraf Al-Hamisiyga vaqtincha boshpana bergan Bag'dodga she'riy maktubdek jaranglaydi.

«Qo'shiqlar»ning birinchi bo'limi «Debocha» asosiy mavzu va g'oyalarga muqaddima vazifasini o'taydi. Agar «Ikki daryo oralig'i risariga qo'shiqlar»ga liro-epik asar sifatida yondashsak, birinchi she'r syujet chizig'ini rivojlantiruvchi ekspozitsiya vazifasini o'taydi. Debocha qo'shiqni arab xalqining buguni haqidagi nola desa bo'ladi («Bizning go'zal qo'shiqlar aylandi nolalarga»). Ana shu nola arablarning buguni va kelajagi haqida hikoya qilish uchun tayanch nuqtasi qilib olingan, ayni chog'da keyingi hikoya qilishga tugun vazifasini bajaradi.

Ikkinchi qism «Hasrat» arablarning an'anaviy qasida she'riyatida mashhur bo'lgan ikki do'st - sayyohga murojaat bilan boshlanib, kirish qismidagi arablarning og'ir qismatini ifodalovchi jonli lavhalarning psixologik rivojidir. Shoir diqqatini xalq taqdirining o'zi idrok etgan tomonlariga qaratib, uni marsiya shaklida ifodalaydi. Shoirning lirik «meni» bu o'rinda ochiqdan-ochiq namoyon bo'ladi, muallif obrazi va uning real borlig'i tenglashtiriladi: al-Hamisiy uydan mahrum, o'zgalar aerodromlari unga vaqtincha boshpana, istiqboli qorong'u. Shoir hitob qiladi:

Ey anduh umonni! Senga yetmaydimi -

Shunchalar shafqatsiz sindirmoq kemam eshkaklarini?

O'tib ketgan o'spirinlik yillariga shoir afsuslanadi, chunki u bo'lajak kurashlarga kuch bag'ishlardi. She'rda hatto ulug' yoshda ham orzu, iymon, qalbni baxshida etgan bayroqni qo'ldan chiqargan odam la'natga loyiq deb ta'svirlanadi. «Bag'dod» deb atalgan uchinchi qism «qo'shiqlar»dagi asosiy g'oyalarni ifodalashda alohida ahamiyat kasb etadi. Shoir uzoq o'tmishga - Bag'dod Arab xalifaligining poytaxti bo'lgan zamonlarga, Gibraltardan Xitoy va Himoloygacha cho'zilgan bepoyon hudud bir butun bo'lgan zamonlarga murojaat qiladi. Bag'dodga madhiya «Ikki daryo oralig'i risariga qo'shiqlar»ning syujet qurilishidagi burilish nuqtasi bo'ldi. Bu o'rinda shoir arab xalqining milliy g'ururiga diqqatni qaratadi - bu usul turli mamlakatlar shoir va yozuvchilarning romantik asarlarida qo'llanilgan.

To'rtinchi bo'lim - «Kutish»da arablarning real hayotini o'zgartirishga qodir sahro pahlavoni - g'urur va ozodlik timsoli haqida orzu paydo bo'ladi. Kelajakda ijtimoiy adolat o'rnatishga qodir, chinakam ta'sirchan poetik ijod xaqidagi mushohadalar silsilasi risarga uning qachon kelishi xaqidagi savol bilan yakunlanadi.

Beshinchi bo'lim - «Risar ovozi»da shoir asarini syujet yo'nalishida kulminatsiya vazifasini o'tovchi risarning payg'ambarona javobini keltiradi. Foris nutqidan «Qo'shiqlar»ning navbatdagi mavzusi - xaloskor risar mavzusi kelib chiqadi.

Bejiz nomlanmagan oltinchi bo'limda risarning arablarni birlashishga chaqiruvchi nutqi davom etadi. Oltinchi qismni ushbu liro-epik asarning yechimi desa ham bo'ladi, go'yo bu bo'lim oldingi qismlardagi hissiy zo'riqishni yo'qotadi, ruhiy izchillik tug'diradi.

So'nggi yettinchi - «Yo'lda» bo'limi mustaqil she'r bo'lib, inqilob g'oyalari sadoqat qasamdek tuyuladi, epilog vazifasini ham o'taydi. Shu bilan birga, «Ikki daryo oralig'i risariga qo'shiqlar»da debocha-shoirlarga saholarda yo'l ko'rsatib yuruvchi ikki hamrohga murojaat qilinish, muqaddimada xuddi islomdan oldingi davrdagi qasidalaridek yorning yaqindagina yashagan joyida qolib ketgan ashyolarni g'ussa bilan tasvirlashi shoir qasidanavislik an'analardan foydalanganini

³⁵ Бобылева И. М. К характеристике поэзии Абдурахмана аль-Хамиси. Вестник МГУ, Серия 13, Востоковедение 1984 №1, стр. 27

yaqqol ko'rsatib turadi. Bunday ta'sir poemaning g'oyaviy mazmun jihatidan noteng qismlari bo'linishida, shuningdek, qismlar orasini faqat mantiqiy jihatdan emas, balki qasidadagi singari shaklan bog'lashda ham ko'zga tashlanadi. Ammo eng asosiy narsa shuki, al-Hamisiy o'z poemasini, uning nomidan ko'rinib turganidek, qasida - oda tarzida yozishni ko'zladi va uni shunday yaratdi. «Ikki daryo oralig'i risariga qo'shiqlar»ida al-Hamisiy romantiklar foydalangan, monoritm shaklidagi kvantitativ she'r tuzilishi - aruz tizimida emas, balki erkin she'ring ayrim qofiya - zarb usullari va sajdan foydalanadi.

«Ikki daryo oralig'i risariga qo'shiqlar»ning yaxlitligini taminlovchi asosiy vosita foris - risar obrazining kiritilishidir. Unda arab musulmon madaniyatining turli zamonlarga xos qatlamning daslabki asarlarida «foris» atamasi she'riy matnlarida «chavandoz» va «suvori» ma'nosida qo'llanilgan. Badaviyga foris bo'lish uchun ot, yengil sovut, qilich, nayza va arqonga ega bo'lish yetarli bo'lgan. Foris yakkama-yakka kurashda jang taqdirini hal qilishi lozim edi. Tarixchilar risarlarni sanar ekanlar, ularning ba'zilari «past» tabaqadan ekanini ta'kidlaydilar. Bu atama sinonimik jihatdan batal («dovyurak», jasoratli), «qo'rqmas», «botir», «jangchi», «qahramon») va fahl («kuchli», «buyuk», «ulug'vor») so'zlari bilan bog'liq va uni risar ma'nosida tarjima qilish mumkin.

Forisning vazifasiga yaylovlar, suv havzalari, qabilaga tegishli podani qo'riqlash, islomni qabul qilgach esa, dinni, yetim va himoyasizlarni himoya qilish, yengilgan dushmanga oliyjanoblik ko'rsatish kirgan. Foris boylikka intilmagan. Uning xatti-harakati javonmardlik (murruva) ifodasi bo'lib, bu narsa arablarda izzat-hurmat, or-nomus belgilaridan sanalgan. Foris o'z muhabbatini kuylovchi shoir bo'lgan. Foris g'oyasi o'rta asr islom davri rivoyatlarida (sira) o'z ifodasini topgan. Ko'pgina forislar tarixdan joy olganlar va xalq eposining qahramonlariga aylanganlar.

Foris qahramon askar va shoirning ideali sanalar edi. Shuning uchun ham al-Hamisiy bu obrazga murojaat qiladi, misrliklar va arablarning milliy tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatib, o'tmishdagi qudratni yangi tarixiy davrda qayta tiklashga chaqiradi. Buni asar sarlavhasidagi ikki daryo oralig'i ham ramziy ravishda arab xalifaligi, arab madaniyati gullagan joyni bildiradi. Foris obrazi bilan shoir asarining ijtimoiy-siyosiy jihatlari bog'liq bo'lsa ham, shoir uni arablarning qahramonona o'tmishi ramzi sifatida foydalanar ekan, uni yangi mazmun, mundarija bilan boyitadi. Bu endi siyosiy yo'lbo'shchi xalq, umum arab manfaatlarini ifodachisidir.

Asarda xuddi ana shunday «umidning yashil nihollari» obrazi yuzaga keladi. Bu obrazning yuzaga kelishi 60-70-yillar Misr she'riyati uchun qonuniy edi.

Al-Hamisiyning ijtimoiy-siyosiy va estetik qarashlari uning falsafiy olami bilan bog'lanib ketadi. Uning falsafiy dunyosini ochishda turli aspektlarning bir-biriga o'tishi, risarni shoirning lirik «meni» bilan tenglashtirish, risarning jismoniy va psixologik kayfiyati qo'shilmasidadir. Foris obrazi shoirning poetik mohiyatidan yuzaga keladi.

Ammo kurashda jismoniy kuch ishlatish huquqi risar jangining maxsus imtiyozi bo'lib qoladi. Shoir esa qalami bilan «mustabidlar»ga la'natlar o'qishi, «yuzidan niqobini olib tashlashi», «odamlarda adolatsizlikka nafrat uyg'otishi» mumkin. Bu borada shoir va risar obrazi ma'lum darajada bir biriga mos keladi.

U (risar) mening qonimda jo'sh uradi

muhabbat, orzular ila...

Ichimdagi to'fonli she'rlarim ila...

Shoir o'zining faol kurashga undovchi va'zlari bilan shoir va arablarning umumiy dushmanini qilichdan o'tkazadigan zamona risarining kelishiga zamin tayyorlaydi. O'rta asr shoirlarining poetik so'z qudrati haqidagi g'oyaviy yo'rig'iga amal qilgan al-Hamisiy ilhom parisini o'z davri ilg'or ifodachisi deb biladi. Shoir hech qachon she'riyatini «murtad hokim»ning maqtoviga bag'ishlamagan va uni «dushman ustiga chopgan jangovar arg'umoq» deb sharaflagan. Uning she'riyati-«adolat shamshiri». Shoir shunday deydi:

Qasida hech qachon bo'lmagan-

Men uchun boylik vositasi.

Men la'natli yuzlardan niqobni yulqidim,

Axir she'rim – mening fikrim, mening qonim.³⁶

Al-Hamisiy tomonidan o'z she'riyatini qalb ehtiyoji mahsuli deb ta'riflanishi muallifning XIX asr oxiridagi Misr poeziyasining novatorlik tendensiyalariga merosxo'rlikidan dalolat beradi. Mazkur tendensiyalar dunyoviy va diniy hukmdorlarga qaram bo'lgan ko'hna adabiyotdan yiroqlashish bilan xarakterlanar va bu XX asrning 20-yillarida romantik adiblar ijodida sub'ektiv tuyg'ular ifodasi sifatida namoyon bo'lgan edi.

Misrda ijtimoiy kurashning keskinlashuvi bilan undagi ijtimoiy qayta qurishga qaratilgan taraqqiyparvar tendensiyalar ham faollashdi. Misr adabiyoti arboblari mavjud voqelikka hali o'zlari tasavvur qilib ulgurmagan ijtimoiy ideallarni shartli qiyofadagi besunaqay obrazlar orqali qarama-qarshi qo'ydilar. Al-Hamisiydagi foris obrazining ikkinchi aspektini Yaqin va O'rta Sharq xalqlarida keng tarqalgan xaloskor obrazi bilan tenglashtirish mumkin.

«Kutish» she'rining oxirida risar shoirning lirik «men»idan ajraladi: odamlar kechani birga o'tkazish uchun to'planadilar. Ularni «tepaliklar va vodiylar, daryo va qirg'oqlar, oy va tun, suvning qirg'oqqa uriladigan chog'i» o'rab olgan, ammo shoir makon-zamon doirasini kengaytirib, shu darajaga olib boradiki, oqshom qorong'usida suhbatlashayotgan odamlardan shoir nigohi sirli, ularning boqishidan yashirin risar obraziga ko'chadi, uning ovozi «momoqaldiroqning g'azabli gumburlashidek eshitiladi». Odamlarda o'zlarining ko'p asrlik ishonchlari amalga oshishga - «xaloskor»ning paydo bo'lishiga umid tug'iladi. Uning ovozi odamni qurshagan hammayoqdan: bulutlarning tirqishidan, qushlarning pichirlashidan eshitiladi. Risar ovozi «bog'lardagi daraxtlarda kabutar bo'lib sayrashi «samo quchog'idagi qushlar galasiga jo'r bo'lishi», «suv shildirashidek yurakni qitiqlashi», «gullar suhbatining xushbo'y hidlari bo'lib yoyilishi», «ufq moviyiligin simirayotgan xurmo sog'inchisi», «quyosh nayzasidek yarqirashi» mumkin. Bularning barchasi hamma joyda mavjud, hamma narsaga singib ketgan ilohiy substansiya xaqidagi panteistik g'oyaning bilvosita ifodasini ko'rishga yordam beradi.

Ma'lumki, neoplatonizm g'oyalari, shuningdek, Yaqin va O'rta Sharq tasavvufidagi Ollohning moddiy dunyoning hamma xodisalarida mujassamlashgani haqidagi ta'limot XIX asr oxiri va XX asr boshidagi Yevropa va Misr romantiklari tomonidan qabul qilingan, shu tufayli ular dunyoqarashida ruh va modda o'rtasidagi uzilish yo'qolgan edi. Al-Hamisiydek chuqur bilimdon Misr shoiri uchun bu g'oyalarni o'ziga xos tarzda L. N. Tolstoy ijodi misolida sintezlashtirish qonuniy hodisa bo'lgan. Lev Tolstoy ta'limoti bilan tanishish arablar uchun isbot talab qilinmaydigan dalildir.

Al-Hamisiydagi foris asrlar davomida shakllanib kelayotgan Olloh obrazining zamonaviy transformatsiyasi bo'lib, u ilohiy mohiyat o'rniga romantik qahramon xususiyatlarini kasb etgan.

XIX asr oxiri-XX asr Misr adabiyoti taraqqiyotining tezlashuvi tufayli unda, ijodiy metod yoki yo'nalish transformatsiyasi (asosiy xususiyatlarning o'zgarishi) jarayoni o'ziga xos yo'l bilan bordi. Bir yozuvchi ijodida, deyarli bir vaqtda («Ikki daryo oralig'i risariga qo'shiqlar» 1967-1975 yillarda yaratilgan she'rlaridan iborat) bir metodning (yo'nalishning) boshqasi ustiga qo'yilishi yoki o'tmishning tezlashuvi (masalan, romantizmdan realizmga o'tish) kuzatiladi. Al-Hamisiyning taraqqiyparvar romantizmga xos bo'lgan ozodlik pafosi voqelikni realistik tamoyillar asosida aks ettirish uchun, romantik xarakterning mujmal ideallarini realistik tarzda ideallar bilan bog'lashga zamin yaratdi. Bu esa ba'zan asarlarga publisistik tus bag'ishlaydi. Mana bu misralarga e'tibor beraylik:

Ozodlikka erishishga boshqa-

Hech qanday yo'l yo'q, faqat –

qasam bilan birlashmoq...

Boshqalar ham ulardek bo'lmog'i uchun.³⁷

Al-Hamisiy to'plamidagi ba'zi she'rlar uning ongida shakllanayotgan yerda farovonlikka erishishning amaliy yo'llarini aks ettirishga intilish paydo bo'lganini ko'rsatadi.

Garchi, risar odamlar uchun iztiroblanib, xaloskorlik xususiyatlarini kasb etsa ham, uning asosiy vazifasi dunyoni odamlar uchun odamlar yordamida qayta qurishdan iboratdir. Al-Hamisiy

³⁶ Уша китоб.

³⁷ Бобылева И. М. Стр 31

aytganidek: «Ularda sen uchun hayot orzusi, xalqim». Bu soʻzlar shoir obrazi va uning qahramoni, xaloskor va xalqni bir-biri bilan bogʻlovchi halqadir. Shoir xalq xaloskori maqomini olishni orzu qiladi.

Foris obrazining uchinchi aspekti uni xalq bilan tenglashtirish, ichki va tashqi zolimlardan ozod boʻlishi uning oʻziga bogʻliq deb qarashda ifodalanadi. Shunday qilib, shoir bu holda xaloskorlik gʻoyasi atamasining eskicha tushunishdan voz kechgandek boʻladi. Har bir inson kurashga chorlayotganni eshitadi, chunki bu har bir ezilayotgan odam uchun muqarrar, shak-shubhasiz yuz beradigan zarurat ekanini tushunish darajasiga yetadi. Shunday qilib, ozodlik uchun kurash mavzusi foris obrazi orqali beriladi, u baʼzan gʻoyaviy jihatdan shoirga juda oʻxshash, baʼzida ozodlikning romantik ramzi sifatida koʻrinadi, vaqti-vaqti bilan ijtimoiy-siyosiy umumlashma tarzida gavdalanadi. Bu mavzuga shoir yangi mavzuni-taqdir mavzusini qoʻshadi.

Maʼlumki, ortodoksal islomda, hamma narsa Olloh tomonidan oldindan belgilab qoʻyilgan, qismat Olloh tomonidan aqlga muvofiq yaratilgan va shunga muvofiq Olloh irodasi shubhadan xoli va inson irodasiga boʻyinsunmaydi.

Bunga qarama-qarshi oʻlaroq, al-Hamisiy xalqni oʻz taqdiri, oʻz kelajagining egasi deb hisoblaydi. Bu fikr shoirning «Olti kunlik urush» toʻgʻrisida yozgan sheʼrlaridagi harbiy toʻqnashuvga oid fikrlariga ham aloqador. Shoir arablarni birlikka undaydi, maʼno parallelizmidan, tabiatning tarqoq yoki bir-biriga bogʻliq hodisalari obrazlaridan foydalanib, faqat birdamlik dushmani yengishga yordam beradi, degan gʻoyani ilgari suradi. Shoir odamlarni ayblamaydi, lekin nomaʼqul xatti-harakatlari, ichki nizolari bilan oʻz dushmanlariga koʻmaklashgan odamlardan gina qiladi.

Yovlar bizni qilich bilan yerga yakson qildilar,

Qoʻllariga tutqazganmiz oʻzimiz qilich.

«Yoʻlda» sheʼrida optimizmga toʻla harakat dasturi oʻz ifodasini topgan: al-Hamisiy ishchi, dehqon, barcha taraqqiyparvar odamlarni zulmga qarshi kurashish uchun birlashishga xoh u feodalizm boʻlsin, hox monarxiya yoki umumiy tashqi dushman boʻlsin, boshqa arab mamlakatlarini ogohlantirib, 1967 yilgi falokat qaytarilmasligi uchun ziyraklikka daʼvat etadi.

Nihoyat, foris obrazini ochishning toʻrtinchi aspektida risarning xalq bilan bir deb bilish alomatlari tamomila yoʻqoldi. Shoir xalq jarchisiga aylandi, birinchi shaxs nomidan oʻz ijtimoiy-siyosiy qarashlarini bayon etib, bu bilan shoir-paygʻambar vazifasini oʻz zimmasiga oladi. Bu, ayniqsa, «Qoʻshiqlar»ning birinchi va oxirgi boʻlimlarida yaqqol koʻzga tashlanadi, Al-Hamisiy asari halqaviy kompozisiya xususiyatiga ega ekanini koʻrsatadi.

«Qoʻshiqlar»ning asosiy mazmun aspektlarini lirik jonlashtirishning ikkinchi planida shoir qator yordamchi obrazlar sistemasini tizadi. Bu avvalo VIII asr arab adabiyotida yuzaga kelgan va muallif «meni» bilan unga dushman kuchlarni toʻqnashtirgan mavzudir.

Al-Hamisiyda bu «men» yangi davr taqozosi bilan kengayib borib, yigʻma va umumlashgan ijtimoiy plandagi «biz»gacha boradi. Ammo al-Hamisiy undan ham yuqori koʻtariladi. Oʻz asarining turli qismlarida u «bular va boshqalar» mavzusini rivojlantiradi, «bular va boshqalar» deganda zamonning murosasiz sinfiy kuchlari nazarda tutiladi.

Tishlarimizda gʻirchillaydi makkayi sano,

Ular esa oldilar barcha asal hosilin...

Bolalarimiz chirigan kiyimlarda sovuqdan titradilar,

Ular esa shoyilarga oʻradilar kuchuklari, tozi itlarini

«Qoʻshiqlar»dagi asosiy gʻoyalar ularga aloqador poetik obrazlar orqali kuchaytirildi, bu obrazlar yo oʻtmish anʼanasiga borib taqaladi, yo novatorlik mahsulidir. Ulardagi obrazlilik qatlamini shartli ravishda anʼanaviy deb atasa ham boʻladi. Obrazlilik shunchalik muhim oʻzgarishlarga duchor boʻladiki, uning asosiy majmuasi bizga Misr poetik tafakkuridagi yuksak parvozni namoyish qiladi.

Shubhasiz, qachonlardir yoʻqolib ketgan deb sanalgan qadimgi Misr tasavvurlari, shuningdek, eng keyingi folklor ham al-Hamisiy tomonidan foydalaniladi. «Bulutlarning ulugʻvor harakati» obrazidan keyin goh yoʻqalayotgan, goh paydo boʻlayotgan quyosh, uning chiqishi va botishi al-Hamisiyda majozan quyoshning oʻlishi va qayta tugʻilishi tarzida ifodalanadi. Bu «osmon va yer oʻgʻloni», oʻz akasi Set tomonidan oʻldirilgan, hosildorlik, muntazam oʻlib qayta tirilib

turadigan tabiat xudosi bo'lishi uchun o'z o'g'li tomonidan hayotga qaytarilgan Asiris xudosi ga sig'inishni esga soladi. Ammo botayotgan quyosh, uyquga cho'mgan tabiat obrazi shoir tomonidan ozodlik yo'lida qurbon bo'lgan kurashchilar bilan vidolashish ma'nosida talqin etiladi. Al-Hamisiy o'lganlarning xokka aylanishi, tuproqqa qo'shilishi to'g'risida gapirar ekan, kitobxon xotirasiga Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida keng tarqalgan moddalarning koinotdagi abadiy, uzluksiz aylanib turishi haqidagi tasavvurlarni esga soladi. Inson o'lgach, xokka aylanib, so'ng o'simlik va daraxtlarda yangi hayot kasb etadi. O'lganlar xaloskor (messiya)ning kelishini yangi qiyofaga aylangan holda kutishlari mumkin. Bunda ham musulmonlar orasida tarqalgan boshqa qobiqqa kirish g'oyasining turlicha talqinlari ifodasini ko'ramiz. Al-Hamisiy bu g'oyalarni sahro risari foris ovozi n ing o'zgartirishga qodir ohangi bilan bog'laydi. Sukunat pardasi momoqaldiroq gumburlashidek na'radan yirtiladi, tabiatning mudroq kuchlari uyg'onadi va odamlar:

Uyg'onurlar xurmo tanalarida halok bo'lganlar,

Minglab ko'z-la ko'kka boqqanlar.

Forisning paydo bo'lishini tasvirlarkan shoir folklor obrazi -darakchi shamol obraziga murojaat qiladi. «Kutish»da u xuddi o'sha xaloskor risarning paydo bo'lganini birinchi bo'lib biladi va odamlarga xabar beradi, ularni orziqib kutilgan iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarga tayyorlaydi. Asarga shoir tomonidan kiritilgan folklorga xos adabiy obrazlar ham forisning markaziy figurasi bilan bog'liq bo'lib, u vatan mavzusiga uzviy aloqador.

Ilk adabiyotga folklordan kelgan obrazlardan al-Hamisiyda uchraydigani boyo'g'lidir. Arab va eronliklar folklorida boyo'g'li qabriston qushi, u tiriklarga bo'lajak o'limni eslatadi yoki bu dunyoning bebaqoligi va abadiy emasligi to'g'risida xabar beruvchi xarobazorlarning donishmand qushidir. Adabiyotda bo'lsa, masalan, Abdulloh ibn al-Muqaffaning «Kalila va Dimna»sida boyo'g'lilar yovuz kuchlar timsoli sifatida yovuzlikka bahamjihat qarshi kurashgan kuchlarga qarama-qarshi qo'yiladi. Al-Hamisiyda faqat boyo'g'ligina emas, ularni o'rab turgan hamma narsa ramziylashtiriladi: ular "daraxtlarda, tepaliklarda va pastliklarda" o'tiradilar, "o'z qichqiriqlari bilan butun bo'shliqni g'ashlik va qorong'ilikka to'ldirib yuboradilar". Bu bilan muallif o'z vatanida zulm qabohati hukmron ekanini ta'kidlaydi. Bu shoir tasavvurida paydo bo'lgan tanasi zanjirlangan qul obrazi bilan kuchaytiriladi: "Zanjirlar xuddi ilondek dovyurak pahlavonlar bo'ynini qisib olgan", shoir kimlarni ko'zda tutayotgani ma'lum. Shu yo'l bilan bilan she'ming teran mohiyati ochiladi. "Qahraton sovuq" obrazida esa Misrda hukmron bo'lgan ijtimoiy-siyosiy nomuvofiqlik o'z ifodasini topadi.

Forisning markaziy obrazi va har bir she'rdagi, ularda muallif alohida urg'u bergan qismlaridagi peyzaj chizmalari va lavhalar asarning asosiy g'oyalaviy-tematik yo'nalishi bilan bog'liqdir. Risar obrazi singari al-Hamisiy peyzaji ham ramziy bo'lib, bir vaqtning o'zida kompozision vazifani bajaradi, asarning turli qismlarini o'zaro bog'laydi.

Shoir ma'no parallelizmlarini qo'llaydi, ulardan tabiat va jamiyatdagi voqealarni muqoyasa qilish uchun foydalanadi. Bunday usul ba'zida yuzada, ba'zida esa tagma'no shaklida namoyon bo'ladi. "Bo'ronlar, shamollar, to'fon epkinlari, masalan, qo'rg'onlarni, bahaybat shahar devorlarini qulatadi", deyiladi. Keyin ma'lum bo'lishicha, gap tabiiy ofatlar ustida emas, ijtimoiy-siyosiy halokatlar haqida ketayotgani seziladi:

G'am oilalarni to'zg'itdi, tum-taraqay qildi odamlarni,

Xarobalik va ayriliq tanda qurdi endi bu yerda.

Yaqinlar va suyganlarni yo'qotish odatga kirdi,

Obod uylar vayrona bo'ldi...

Ingroq, yig'i bo'ldi nafis qo'shiqlarimiz³⁸.

Bir tomondan nur va zulmat, kunduz va kecha, tim qorong'ilik, ikkinchi tomondan quyosh bilan oy, bulutlar va ular orasidagi yog'du, yomg'irli bulutlar va chaqmoq obrazlari birikmalarda shunday izchil qo'llaniladiki, ularda o'tmish adabiyotiga, masalan, tasavvuf she'riyatiga taalluqli obrazlilik sezilmaydi. Masalan, ularda jaholat tuni ramziy ma'noda - yorug'lik nurisiz, biror yog'dusiz aks ettiriladi.

³⁸ Бобылева И.М. Б. 34.

Tabiat haqidagi romantik tasavvur uni shoirning “men”i bilan uygʻun holda tasavvur etish al-Hamisiy ijodida uni ob’ektiv moddiy borliq shaklida tasvirlash bilan almashinadi, unda ro’y beradigan harakatlar esa, insonlar jamiyatida davom etayotgan jarayonlarning simvolistik tasviri sifatida oʻz aksini topadi:

Irmoqlarga boʻlinib oqsa daryolar,
Kuchu irodadan mahrum boʻlardi ular,
Ammo uning toʻlqinlari birlashsa-chi, qoʻshin boʻlib...

Ramziy peyzajda qorongʻulikni teshib oʻtayotgan yorugʻlik nurlari asarning umumiy optimistik kayfiyatiga mos boʻlib, shoirning arab voqeligini tubdan oʻzgartirishga intilishlari va ishonchi timsolidir.

U (Foris)ning bulutlar tirqishidan paydo boʻlishi-
Bir zumlik edi.

Togʻ choʻqqisidan tushayotgan ovoz-la
Soʻzlashdi u biz bilan.

U biz bilan qushlar sayrashidek soʻzlashdi.

Va momoqaldiroqning gʻazabkor gumburlashi-la.

Bizga yoqar uning yoriqlarni yamashi,

Muqaddas nafrat nogʻorasin chalishi,

Qasos oʻtin yondirishi,

Yiqilganni turgʻizib qoʻyishi.

U baland koʻtarib boradi qoʻllarida bayroqni,

Asira goʻzalni qutqarishga daʼvat etib...

Shunday qilib, peyzaj sheʼrning turli satrlaridan joy olib, uni ichki mantiqiy bogʻlanish bilan yaxlit holga keltiradi.

Yuqorida qayd etilganlar yana bir bor tasvirning ramziyligi voqelikni realistik aks ettirishga monelik qilmasligini tasdiqlaydi.

«Ikki daryo oraligʻi risariga qoʻshiqlar» muallif tomonidan bir davrda yozilgani uchun birlashtirilgan biz tushungan maʼnodagi toʻplam emas, uni poema (doston) deb atash toʻgʻriroqdir, chunki unda bayonchilik yaqqol sezilib turadi. Poema qismlarga boʻlingan boʻlsa-da, ammo ular gʻoyaviy-tematik va shakl jihatidan bir-biriga bogʻlangan. Qismlarni arablarning ozodlik kurashi gʻoyasi bilan yoʻgʻrilgan umumiy yoʻnalish, risarning markaziy, evolyusiyani boshdan kechirib boruvchi obrazi, yordamchi tasviriy vositalar birlashtirib turadi.

Demak, «Ikki daryo oraligʻi risariga qoʻshiqlar» al-Hamisiyning XX asrning 30-40 yillar Misr romantiklariga mansubligi natijasi sifatida yuzaga keldi. Romantiklarning asosiy yutuqlarini adib oʻz ijodida aks ettirdi, bu yutuqlarni yangi tarixiy sharoitda novatorlarcha yangiladi, shuning tufayli voqelikni realistik aks ettirishda yangi usullar, imkoniyatlar kashf etdi, shakldagi publisistlikka alohida eʼtibor berdi.

YuSUF IDRIS (1927-1992)

Yusuf Idris 1927 yilning 19 mayida mulk boshqaruvchi oilasida dunyoga keldi. Otasidan rivoyatchi isteʼdodini, kuzatuvchanlikni va soʻzamollikni meros qilib oldi. Soʻzga chechanlik misrliklar uchun noyob xislat emas. Ular oʻzlari haqida «bizda har bir odam-notiq» deyishadi. Bolalik yillari qishloqda oʻtgan Yusuf Idris xalq ogʻzaki hikoyasi ruhida tarbiyalangan. Ammo xalq hikoyasining oʻrta asr, shuningdek, XIX asr oxiridagi «nahda» davri mumtoz arab adabiyoti nasriy janrdan asosiy farqi-syujetning aniqligi, harakatchanligida. Soʻz qahramonlarning hatti-harakati, ularning sarguzashtlari va qilmish-qidirmishlari haqida ketayapti. Bayonning hamma unsurlari syujetga «xizmat qiladi», uni qiziqarli qilish, eshituvchilarni rom etishga qaratiladi.

Otasidan eshitgan naqlar, voqealar ilk bolalik taassurotlari edi. Shuning uchun Misr adabiyotshunosi Shukri Ayyadning Yusuf Idris haqidagimana bu gapi haqiqatdan uzoq emas: «Uning hikoyalari kuzatuvlarning teranligi bilangina emas, ular kuchanmasdan yozilgani bilan

ham lol qoldiradi. Go'yoki yozuvchi qandaydir g'aroyib rivoyatchilar oilasida tug'ilgan, endi gapirishga boshlangandayoq ularning mahoratini o'rganganday»³⁹.

Idris tabiati bir tekis odam emasdi, u goh ochiq yashar, goh o'z olamiga cho'mib o'zi bilan o'zi bo'lib qolardi. Ammo uning ijodida butun qalbi, ichki olami, sir-asrori to'la namoyon bo'ladi.

Idris bolalikdan mutolaaga berildi. Lamartin, V. Gyugo, V. Skott, Dyuma, J. Vern nomlari o'tgan asrning 80-90 yillarida ma'lum va mashhur edi. Misrliklar keyinroq Tolstoy, Chexov, Dostoyevskiy bilan oshno bo'ldilar. Ko'ngil ochadigan, qiziqarli, sarguzashtli, fantastik asarlar –Konan Doyl, Moris Leblan asarlari tarjima qilindi. Tarjimalarning aksariyati erkin edi.

Misrda tarjimachilik yaxshi yo'lga qo'yilgandi. Ilgari aristokratlarning mulki bo'lgan g'arb adabiyotidan o'rta sinfga mansub qatlamlar ham anchagina bahramand bo'ldi. 40-50 yillar Misr adabiyoti qiyofasini ham shu toifa vakillari belgiladilar. Yusuf Idrisning mumtoz arab adabiyoti bilan tanishuvi o'sha yillari maktabda o'tiladigan namunalar bilan cheklangan edi. Ular o'rta asr adabiyotiga uni qiziqтира olmadi.

Zamondosh adiblardan Tavfiq al-Hakim, Muhammad Teymur, Yahyo Haqqi, Mahmud Tohir Lashinlar unga yoqardi. Yevropacha janr shakllarini yaxshi o'zlashtirgan bu yozuvchilar Misr qalbini, uning yumorini ifodalashga qodir edilar.

Yusuf Idrisning birinchi hikoyalar to'plami «Eng arzon tunlar» 1954 yilning avgustida chiqdi. Asar voqealari qishloqda va viloyat shaharlari - Damiyettada, Mansurda kechgan bolalik, yoshlik yillari taassurotlariga asoslangan. Qasr al-Aynidagi kasalxonada o'tkazgan tibbiy amaliyoti adibga boy hayotiy material berdi. Idris ana shu taassurot, uchrashuv, tanishuv, suhbatdan nimani tanlab oldi?

Uning hikoyalarida dramalar, qotillik, o'limlar uchramaydi. Yozuvchi odamlarning oddiy hayotini aks ettiradi, binobarin kundalik hayotini tashkil etuvchi eng tipik sharoitlarni to'playdi. «Eng arzon tunlar»-dehqon Abdulkarim hayotidagi kechalardan biri, kasalxonadagi bemorlarni qabul qilib oladigan xonadagi oddiy sahnalardan biri («Asyutga») kekxa o'qituvchi do'sti bilan poezddagi tasodifiy uchrashuvi («Guvohlik»), yo'l bo'yidagi kafedagi hoziru nozirlar to'dasi («Pari ar-Rixon»)-bularning hammasi tashqi tomondan dramatzizmdan xoli, ba'zan hatto g'alati, latifanamo oddiy hayot. Lekin, har bir hikoya qilingan voqea chuqur ma'no kasb etadi, hayotning qandaydir muhim tomonlarining, tub muammolarning ifodasiga aylanadi. Masalan, telefon. Kingadir telefon oddiy, sehrdan xoli predmet. Ammo «Orzu» hikoyasi qahramoni Bareiy uchun telefon –g'aroyib, sir-sinoatga to'la ohangrabo, uni g'ayritabiiy kuch bilan o'ziga tortadi. Apparat uning nazarida jonli mavjudot. Telefonda u hamqishloqlariga o'xshash xususiyatlarni ko'radi. Bareiy go'shakka so'zlaganidan behad baxtiyor. Ammo go'shakdagi ovoz unga javob berganida yigit dovdirab churq deya olmaydi, so'kinadi, xolos.

Kichkina qiz boshiga pirojkali savatni qo'yib, ko'chadan o'tadi («Nigoh»). Nima bo'libdi? Bunday holat Qohiradagi har qadamda uchraydi. Faqat to'p o'ynayotgan bolalar tomon tashlangan bir nigoh undan bolalik huquqi tortib olinganini ko'rsatadi.

Bir stakan choy, telefon, to'p o'yini - ana shu oddiy narsalarga munosabat odamlarning ijtimoiy psixologiyasini ochib beradi, uning muhitga, hayotga bog'liqligini ko'rsatadi. Misr hikoyachiligida, 20-yillar ma'rifatparvarlik realizmida ham, shuningdek, 50-yillar yangi realistlarida ham xalqning og'ir taqdiri tasvirlanar ekan, iztirob-azoblar ko'rsatilar, o'lim, qotillik, o'z-o'zini o'ldirishlar batafsil aks ettirilar edi. Kitobxon tasavvuri «kichik odam» boshiga tushgan bu jismoniy va so'ngsiz ruhiy azoblar bilan larzaga solinar edi.

Yusuf Idris hayot dramatzizmini tamomila boshqa tomondan ko'rsata oldi. U chinakam dramatzizmn oddiy odamlarning kundalik hayotida ularning qashshoqligida ko'rdi, bu bir stakan choy - qo'l yetmas ne'mat sanalgan, bolaning o'limi oddiy hodisa hisoblangan, bolalar bolalik nimaligini his etmagan hayot edi. Ana shular haqida yozuvchi pand-nasihatsiz, tashqi pafosga berilmasdan, me'yorni saqlagan holda hikoya qiladi. Ammo bu vazminlik zamirida ulkan hissiy ta'sirchanlik yashiringan. Idrisning ilk hikoyalaridagi uslub bilan Chexovning dastlabki

³⁹ Кирпиченко В. Н. Юсуф Идрис М., 1980, стр 86

novellalari orasida, shak-shubhasiz, o'xshashlik mavjud. Misr tanqidchiligi bir necha bor Idrisning Chexovga yaqinligini e'tirof etgan. Adibning o'zi ijodidagi har qanday taqlidni inkor qilgan holda o'zining birinchi hikoyalarida «chexovona ohang» borligini tan oladi. Darhaqiqat, «Asyutga», «Dafn» hikoyalari A. Chexovning «Yovuz niyatli kishilar» va «Besaranjom» asarlarini eslatadi.

Ma'lumki, Chexov o'z hikoyalariga syujetlarni oson topgan. U oddiy kuldon haqida yoza olishini aytgan edi. Idris ham oddiy narsalardan ozuqa topadi va masalan, telefonni hikoya qahramoniga aylantiradi.

Yozuvchilarning hayotiy pozisiyalari ham, qahramonlarga munosabatlari ham mushtarak. Idris Lashin va Haqqi ijodlaridagi demokratik yo'nalishni davom ettirib, qahramonlariga tepadan pastga qarab boqmaydi, ular bilan yozuvchi orasida ijtimoiy kelib chiqish jihatdan jarlik yo'q, u qahramonlari bilan o'zini teng tutadi. Xuddi Chexovga o'xshab Idrisda ham kulgi va mayuslikning me'yori bor. Yozuvchi ana shunga barcha asarlarida qat'iy amal qiladi.

«Asyutga» hikoyasida kichik bir lavha bor. Bir bechora odam kasalxonaga oyog'ini davolatgani keladi. Vrach uni qabulxonada tekshirib, jarrohga yo'llaydi. Bir haftadan so'ng vrach bemorni yana qabulxonada uchratadi. Qarangki, jarrohxonadan uni ichak bo'limiga, u yerdan esa teri kasalliklari bo'limiga yuborishibdi - oxiri u yana qabulxonada paydo bo'libdi. Baloyu-battar bilan bog'lab tashlangan oyog'i yog'ochga o'xshab shishib ketibdi. Endi u davolashni emas, Asyutga ketishni xohlaydi.

Hikoyada faqat bir bemor haqida so'z ketadi, ammo kitobxon yuzlab asyutlikka o'xshaganlar kasalxona binosini qamal qilib, qabulni kutib trotuarlarda uxlayotgan, turnaqator bo'lib navbat kutayotganlarni ko'z oldiga keltiradi.

Vrachning g'ashini keltirgan narsa - kambag'al asyutlikning nodonligi va anqovligigina emas, o'zining nochorligi ham. Bu hikoyaning ma'yus yumori Chexovning «hayot shunaqa, kulishingni ham, yig'lashingni ham bilmaysan» degan gaplariga hamohang.

«Dafn» kayfiyati jihatdan Chexov hikoyalariga o'xshash asardir. Masjid ostonasi yonida shayx Muhammad va tobutsoz Abul Mitvalli adi-badi aytishadi. Amalda ularni doimiy munosabatlar bog'lab turadi. Tobutsoz shayxga joni uzilgan go'daklarni olib keladi, shayx ularga fotiha o'qiydi. Ma'lum «donabay» baho ham kelishilgan. Shayxning ko'zi xiraligi va xotirasi sustligidan foydalangan tobutsoz uni vijdotsizlarcha bir mayitga, ya'ni bir piastrga aldaydi.

Ularning bachkana tortishuvi kulgi qo'zg'aydi. Xuddi shu chog' taxta ustida kafanlangan marhum chaqaloq yotibdi. Na shayx, na tobutsoz unga zarracha parvo qilmaydilar, ularning fikri-o'yi qanday qilib bir-birini aldashda. Ammo bu chollarning diydasi qattiqligi emas, faqat ularning har biri uchun bir piastir qanchalik ahamiyatli ekanini ko'rsatadi. «Sen o'zing bilasan, Mitvalli, - deydi shayx Muhammad tobutsozni ishontirmoqchi bo'lib, - bugun bir funt pamildori qanchaligini. Aksiga, na to'y bor, na dafn. Allambalo kun bo'ldi. Kecha kampirga aspirin olishga to'g'ri keldi»⁴⁰.

Ularning adi-badisi masjid maydoniga yig'ilayotgan xaloyiq oldida sodir bo'ladi. Shu umumiy manzaradan ajralmagan tortishuv sahnasi endi boshqacha ko'lamlar kasb etadi. Go'yo san'atkor atrofda sodir bo'layotgan sahnalardan birini kitobga yaqinlashtirib, katta qilib ko'rsatadigan oyna orqali ko'rsatayotgandek tuyuladi.

Bu hikoyaning ma'nosi Chexovning «Maymunjonzor» hikoyasi qahramoni Ivan Ivanich Chishma - Gimalayskiy fikriga juda yaqin: «Siz bu hayotga bir qarang: Zo'ravonlarning bezbetligi va rasvoligi, kuchsizlarning nodonligi va molsifatligi, hammayoqda aql bovar qilmaydigan qashshoqlik, tiqilinch, tubanlashish, ichkilikbozlik... Biz bozorga borayotganlarni ko'ramiz, kunduzi yeydilar, kechqurun uxlaydilar, uylanadilar, qariydilar, ammo biz iztirob chekayotganlarni na ko'ramiz, na eshitamiz, hayotda hammadan dahshatlisi-panada sodir bo'ladi. Hammayoq tinch, osoyishta, faqat bezabon statistika bunga e'tiroz bildiradi: falonchi odam aql dan ozdi, falonchi bola ochlikdan halok bo'ldi... »⁴¹

⁴⁰ Кирпиченко В. Н. Ю. Идрис. стр. 45.

⁴¹ Кирпиченко В. Н. Ю. Идрис. стр. 46.

1952 yilgi inqilobdan so'ng neorealistlar oqimi paydo bo'ldi. Ular xalq to'g'risida xalq uchun yozdilar, ular fuqarolarni faollashtirishga, sinfiy ongni uyg'otishga intildilar. Ularning mavzulari ham shunga bog'liq: milliy mustaqillik uchun kurashning alohida bosqichlari, dehqonlarning zamindorlar o'zboshimchaligiga qarshi ommaviy chiqishlari, ishchilar harakatining yuzaga kelishi Misr adabiyotida yangi qahramon - kurashchi qahramonning tug'ilishi tufayli yuzaga keldi.

Yusuf Idris matbuot sahifalarida bo'lib o'tgan adabiy munozaralarda qatnashmadi (T. Husayn, ash-Sharqoviy). U 1954 yilda birinchi kitobi chop etilgan oyda kommunistik faoliyatda ayblanib qamaldi va 13 oy hibsda yotdi. Qamoqxonada Idris va uning kommunist o'rtoqlari orasida kelishmovchilik boshlandi. U o'z ijodini «Kunning siyosiy vazifalariga bo'yinsindirishni» istamadi, chunki san'atkor burchi «ancha keng» deb hisobladi. Idris kommunistik partiyadan chiqadi. Kommunistlar bilan uzilish asoratlari (qamoqning shafqatsiz sharoitlari, tahqirlash va xo'rlash, maslakdan, do'stlardan ajralish) birdaniga bilinmadi. Qamoqdan chiqish oldidan Idris o'zining optimistik va jangovar asari - «Bir sevgi tarixi» qissasini yozdi.

Qissa hayajonli umidlar, kelajakka ishonch bilan yo'g'rilgan. Unda Idris 1952 yilning yanvar voqealariga murojaat qiladi. Angliyaga qarshi harakatning ko'lamidan cho'chib ketgan Ali Mohir hukumati inglizlar bilan til biriktirib, katta provokatsiya - Qohirada yong'in uyushtirdi va shu munosabat bilan favqulodda holat e'lon qildi.

Asarda Qohira chekkasidagi lager ko'rsatilgan. Unda bir qancha yigitlar - ko'ngillilar kanal zonasiga borishdan avval tayyorgarlikdan o'tadilar. Bosh qahramon kimyogar muhandis Hamza polisiyadan o'zining eski tanishi - advokat Badir uyida yashirinadi. Hamza Aleksandriyadagi inglizlarga qarshi ommaviy namoyish to'g'risida hikoya qiladi.

«Bir sevgi tarixi» - Idrisning qahramoni ishchilardan bo'lgan yagona asari. Hamzaning otasi temir yo'lni tuzatadigan ta'mir guruhi ishchisi. Yozuvchi bu muhitda yangi sinfiy ongning shakllanishi, birdamlik tuyg'usining yuzaga kelishini ko'rsatdi. Guruhning barcha a'zolari o'g'lining universitetda o'qishi uchun Hamzaga yordam beradilar.

Qissa baxtli sevgi xaqida hikoya qiladi. Hamza va Favziya Idrisdagi qanday yashash kerakligini biladigan yagona qahramonlardir. Misrda bundaylar oz, lekin bor. Favziya - muallima, arab tili o'qituvchisi, ma'rifatli, liberal kayfiyatli, «hamma narsa to'g'risida o'z fikri bor» odamning qizi. Favziyaning otasi qizining ishlashiga ruxsat bergani uchun qarindoshlar dashnomidan qo'rqmadi. Uningcha, ishlagan odam ishlamagandan halolroq».

Ushbu realistik asarda yozuvchi hayotda o'zi ko'rgan yosh misrliklarning eng yaxshi xususiyatlarini ask ettirdi. (Ammo Favziya foydalangan ozodlik Misr sharoitida kamyob hodisa).

Asar Misrdagi milliy-ozodlik harakatining o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, Idrisning ijtimoiy qarashlari haqida ba'zibir xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Hamza inglizlar va mamlakatning reaksion hukmdorlarini xalq dushmanlari deb ataydi. Ozodlikka erishishning yagona yo'li - ommaviy qurolli kurash deb biladi. Xalqning kelajagi haqidagi savollar Hamza mulohazalarida aniqlanmaydi, Misr jamiyatining yangi shakllari to'g'risidagi tasavvurlari noaniq.

«Bir sevgi tarixi» - baxt, kurash, xalq g'alabasiga ishonch madhiyasi. Qissa sevgi tuyg'usi, Hamza va Favziyalarning Misrga, Misr xalqiga, insonlarga bo'lgan muhabbati hissi bilan yo'g'rilgan.

«Ramazon», «Dafn», «Silsila» hikoyalari diniy mavzuda. Diniy mavzu Misr adabiyoti uchun qiyin mavzulardan. Kamdan-kam odamlargina o'z ateizmi haqida gapirishga jur'at qila oladilar, ular ham matbuotda emas, yaqinlar davrasida. «Men xudoga ishonmayman» iborasi o'rniga ma'rifatli misrlik sipolik bilan «men dindor emasman» deyishni ma'qul ko'radi. Islom odamlarning kundalik hayotining hamma jabhalarini boshqarib turadi.

«Ramazon» va «Dafn» novellalari Idrisning shu mavzudagi kam sonli asarlaridan bo'lib, ularda asosiy diqqat odamlar ongidagi diniy aqidalar, ular hayot mantig'iga zid kelsa-da, qanchalik chuqur joy olganiga qaratiladi.

Fathi degan bola («Ramazon») chanqoq azobiga chiday olmay roʻzani buzgani va yashirincha koʻzadan suv ichgani uchun ota-onasidan dashnom eshitadi.

1956-1959 yillar Idris hayotidagi eng mazmundor davr boʻldi. U «Toʻrtinchi mijoz», «Kechki marsh», «Abulhavl», «Keksalik ajali» hikoyalari, «Shahar tubi», «Qudratining siri», «Gunoh» qissalarini yaratdi. Bu davrdagi Idris asarlarining bosh va umumiy xususiyati obrazlarni psixologik dalillashdir. U Misr milliy xarakterini barcha koʻrinishda astoyidil, izchil tadqiq etadi. Shu bilan birga, u inson psixologiyasiga chuqur kirib borishga intildi. U odam haqida hamma narsani - yaxshini ham, yomonni ham bilgisi keladi. Bu yillarda Idris tomonidan yaratilgan asarlardagi inson hamisha ijtimoiy, minglab iplar bilan uni yuzaga keltirgan muhitga bogʻlangan. Idrisdagi axloqiy mezonlar ham ijtimoiy. U yaxshilik va yomonlikka taʼrif berarkan, alohida odam haqida fikr yuritmay, uni shakllantirgan ijtimoiy sharoitni tadqiq etadi.

Idris ijodida 50-yillarda voqelik ustidan kuzatishlarni umumlashtirishga intilish, shaxs psixologiyasini ijtimoiy muhit bilan boʻlgan aloqasini koʻrsatish, inson maʼnaviy dunyosini jamiyatda hukmron boʻlgan odob va axloq normalari bilan bogʻliqligini tasvirlash koʻzga tashlanadi.

«Gunoh» qissasida gunoh axloqiy muammosi badiiy tadqiq etiladi. Shu soʻz bilan atalgan narsa hamisha gunoh boʻla oladimi? Anʼanaviy «halol» va «harom» tushunchalariga koʻr-koʻrona, qaysarlik bilan amal qilish eng ogʻir gunoh, insoniyatga qarshi jinoyat emasmi? Axir, ular asrlar davomida Misr jamiyati maʼnaviy hayotini doimo cheklab kelgan-ku.

Qissaning syujeti asosida Aziza ismli oqsoch ayolning «zino»dan tugʻilgan chaqalogʻini oʻldirilishi va shu bilan bogʻliq tergov ishi yotadi.

Azizaning butun umri kasalvand eri va uch bola tashvishi bilan oʻtadi. Ammo ogʻir turmush Azizadagi ayollik hissini tamoman yoʻqotmagan. Ehtimol shuning uchundir u yosh yigit Muhammad Amareyning qoʻpol shahvatiy hirsiga yetarli qarshilik qilolmaydi.

Aziza oʻzini gunohkor deb biladi, hamqishloqlaridan pinhon tutayotgan homiladorlik va chekayotgan azob-uqubatlarni xudoning unga bergan jazosi deb biladi. Undagi eng nozik hissiyot - sharmandalik dahshati. Axir kasalvand eri kenja qizi Zubayda tugʻilgandan buyon unga yaqinlashmaganini hamma biladi. Ana shu aql bovar qilmaydigan hayvoniy qoʻrqinch Azizani chaqaloqni oʻldirishga undaydi.

Idrisning oʻzi nasihatgoʻylik qilmaydi. U qahramonlarni fikrlashga, oʻz xatti-harakatini his etishga majbur qiladi. Shunday qilib, qahramonlar hayotda amal qiladigan axloqiy yoʻl-yoʻriqlar mohiyatini ochadi.

Aziza tarixi Nil deltasidagi koʻp qishloqlardan biri fonida aks ettiriladi. Matn boʻylab sochilgan personajlar tashqi qiyofasining maʼnodor tavsifi va psixologik taʼrifi (qorovul Abdul Muttalib, qishloq pochta xisi Mahbub, shayx Abdul Voris) dehqonlarning umumlashma obrazini yaratadi.

Aziza taqdirining fojialiligiga qaramasdan, qissa yakuni qaygʻuli taassurot qoldirmaydi. Uning kasali va iztirobli oʻlimi qishloq ahlida «kelgindi»larga xayrixohlik uygʻotadi. «Kelgindilar»ning oʻzida esa bemor Azizaga birgalashib gʻamxoʻrlik koʻrsatish, uni boshqaruvchi koʻzidan yashirish zarurati birdamlik va oʻz qadrini his etish tuygʻusini uygʻotadi.

Qissada qishloqdagi ijtimoiy kurash toʻgʻrisida bir ogʻiz ham soʻz yoʻq - asar maishiy drama asosida qurilgan. Shunga qaramasdan, unda biz chuqur ijtimoiy tabaqalanishni, pastki qatlamdagilarning chidab boʻlmas darajadagi sharoitlarini koʻramiz, dehqonlarda yetilayotgan qahr-gʻazab va nafrat qachondir portlashiga amin boʻlamiz.

Idris Misr mayda burjuaziya muhitida qabul qilingan axloqiy aqidalar bilan chinakam gumanistik, shaxsni hurmat qilishga asoslangan maʼnaviyat oʻrtasidagi ziddiyatni ochib, obʼektiv ravishda axloqning ijtimoiy tabiatini taʼkidlaydi, aniq ijtimoiy oʻlchovlarga suyanish unga ezgulik va yovuzlikni farqlashda aniq moʻljal vazifasini oʻtaydi va yovuzlikni yuzaga keltiruvchi sabablarni koʻrsatishga koʻmaklashadi.

Shu bilan birga, yozuvchi oʻz qissasining obʼektiv maʼnosini qay darajada tushunganini aytish qiyin. Uning keyingi ijodida axloqiy aqidalarning nisbiyligi haqidagi fikr ustunlik qiladi, baʼzi hikoyalarida esa, axloqiy relyativizm bilan cheklanish seziladi.

Qissa go'yo Misr adabiyotida realizmni boyitgan va chuqurlashtirgan Idris - realistning oldingi ijodiga yakun yasagandek tuyuladi.

Idrisning Misr xalqi zaminida voyaga yetgan o'ziga xos iste'dodi, shubhasiz, o'zida Yevropaning, birinchi navbatda XIX asr oxiri, XX asr boshlaridagi rus tanqidiy realizmining kuchli ta'sirini his qildi. Bu Idris ijodining axloqiy muhitida, yozuvchining hayotiy pozitsiyasida seziladi.

L. Tolstoy psixologizmi, uning axloqiy - ma'naviy izlanishlari, «kichik odam» hayotiga Chexovga xos chuqur qiziqish, yumorni badiiy ifodaning kuchli va har tomonlama vositasi deb bilish, hayot «tubi»ni aks ettirishda Gorkiycha gumanizm - bularning barchasi Idrisning badiiy olamiga kirdi va ijodida o'z aksini topdi, ayni chog'da uning ijodi milliy ruh va koloritni to'la saqlab qoldi.

Idris tomonidan voqelik materialida jiddiy umuminsoniy axloqiy va psixologik muammolarning qo'yilishi adib ijodini tor milliy qobiqdan olib chiqadi, Misr adabiyotining umumjahon adabiy jarayoni bilan qo'shilganidan dalolat beradi. Bu davrda yozuvchining Misr inqilobining o'zgartiruvchi kuchiga ishonchi hali mustahkam edi, baxtli muhabbat, sevgan qiziga uylanish, ikki o'g'ilning tug'ilishi uni ruhlantirar edi. Bu shart-sharoitlar yozuvchiga ijodiy ilhom berar edi. Taniqli Misr shoiri va dramaturgi Saloh Abdus Sabur haqli ravimda aytgan edi: «Yusuf Idris - qisqa hikoya taraqqiyotida bir bosqichni tashkil etadi. Ko'pgina Misr novellistlari uning «abosi» (plashi)ni kiyib katta bo'lganlar, o'zining g'ayritabiiy badiiy iqtidori tufayli u hatto kitobxonlarni ham kamida o'n yillar davomida novella faqat shunday, Idrisda ko'rganmizdek bo'lishiga ishontirib keldi».⁴²

1952 yil inqilobi sodir bo'lganda ichki taraqqiyot muammolari butun bo'y-basti bilan gavdalandi. Shu o'rinda sinfiy manfaatlar farqi aniqlandi. Hukumat tadbirlari (milliylashtirish, mehnat, ishchilar huquqi, agrar islohot haqidagi qonunlar) o'z mulklaridan tamoman mahrum etilgan badavlat sinflarning keskin qarshiligini yuzaga keltirdi. Ilgari rahbarlar murosasiz sinflar yo'q, deb jar solgan mamlakatda sinfiy kurash avjiga chiqdi.

I. Belyaev va Ye. Primakovlar «Misr: prezident Nosir davri» kitobida yozganlaridek, «Misr tuzumining asosiy ziddiyati shundaki, tepadan tashlangan inqilobiy shiorlar yetarli darajada xalq ommasini faollashtirish bo'yicha ish bilan mustahkamlanmadi».⁴³

Ziyolilarning g'oyaviy va ma'naviy inqirozi asosida yotgan ziddiyat - bu tuzumning tabiatidan kelib chiqqan ziddiyatdir, inqilobiy va demokratik shiorlar va ularni amalga oshirishda xalq ommasiga tayanishdan qo'rqish, ommaning ijtimoiy faollashuvidan hadiksirash tufayli vujudga kelgan ziddiyat edi.

60-yillar boshidagi adabiyot ana shu ijtimoiy beqarorlik va g'oyaviy boshboshdoqlikni aks ettirdi. Adabiyotdagi umumiy vaziyat sezilarli darajada o'zgardi, alamli kayfiyatlar, umidsizliklar, chorasizlik kayfiyati yuzaga keldi. Yozish usullari o'zgara boshladi. Hayotni real tasvirlash asta-sekin shartlilikka, majozlarga, ataylab xiralashtirilgan ramzlarga o'rnini bo'shatib berdi. Ba'zi hollarda majoz, obrazli iboralarni murakkablashtirish, yozuvchilarga voqelikka nisbatan tanqidiy munosabatni xaspo'shlash uchun, boshqa vaziyatlarda esa, dunyoni idrok etishdagi o'zgarishlarni ko'rsatishi uchun xizmat qildi.

Bu vaqtlarda Idrisning shaxsiy hayoti sharoiti ozmi - ko'pmi durust bo'lgan bo'lsa ham, uning ichini har xil o'ylar kemirar edi. U ana shu davrda «Ash-Shaab» gazetasi tahririyatida ishladi. Kommunistlar bilan orani ochiq qilgan Idris rasmiy doiralar bilan ham munosabatlarini yo'lga qo'ya olmagan edi. Yozuvchi sobiq kommunist va so'l sifatida ularning ishonchini qozonolmadi. Ko'p sayohat qildi. 1964 yilda Sovet Ittifoqiga, keyinroq Sibir, O'zbekiston, Leningradga safar qiladi.

60-yillar boshida uning ijodida yangi mavzu, dunyoga yangicha qarashga intilish seziladi. Ekzistensializm falsafasi ta'sirida yozuvchida dunyoni yangicha ko'rish yuzaga kela boshlaydi. Shaxs ozodligi, erkinlik mavzulari ko'proq ekzistensialistik ruhda talqin qilinadi. Jinoyat va jazo,

⁴² Ю. Идрис. Грех. М., 1962, стр. 91.

⁴³ Ю. Идрис. Грех. М., 1962, стр. 94.

jallod va o'limga mahkum shaxs mavzulari Idris ijodiga bu vaqtda uning sevikli yozuvchisiga aylangan Dostoyevskiy ta'sirida kirib keldi.

Idris asarlarining Chexovning ijodi bilan ichki o'xshashligi, ayniqsa dramaturgiyada, vaqt o'tishi bilan yo'qoldi. Chexov birinchi rus inqilobi oldidagi rus voqeligini va Idris 1952 yil inqilobidan 15 yil keyingi Misr voqeligini turlicha aks ettirdilar. Ma'yus, lekin turli umidlar bilan yo'g'rilgan Chexovning keyingi asarlari Idrisning «Farfurlar» va «Hayotiy komediya»sidagi sarosima - asabiy, umidsizlikka to'la asarlariga o'xshamaydi.

Yillar o'tishi bilan F. Dostoyevskiy Idrisning sevimli mualliflari orasida birinchi o'ringa chiqadi. Idris uning ulug'vorligi oldida bosh egadi va Shekspir bilan bir qatorda qo'yadi. Agar Shekspir kuchli insoniy siymolarning o'ziga daqiqalarini a'lo darajada tasvirlagan bo'lsa, Dostoyevskiy xuddi shunday mahorat bilan mayda, bechora odamlarning kuchli bo'lgan damlarini ko'rsatadi. Idrisning badiiy tafakkuri konkret voqelikdan uzoqlashib, mavhumlik, sxematizm kasb etadi.

Uning ilk ijodida fikr o'z - o'zidan, asarning badiiy to'qimasidan tug'ilardi, endi bo'lsa, yozuvchi o'ylab qo'ygan fikr nisbatan yalag'och tarzda hadeb namoyon bo'laveradi. Vaholanki, uning qahramonlari o'sha dehqonlar, amaldorlar, shifokorlar. Ular o'zlarining hayotiy haqqoniyligini yo'qotgan, o'ziga xoslik esa, haddan tashqari oshirib yuborilgan, natijada tipiklik sezilmay qoladi.

Bu yillarda yaratilgan «Misr xo'jayini», «Og'riqning tili», «Qora askar» asarlarida Idris inson shaxsining tublariga nazar tashlaydi, his va tuyg'ularning biologik ilk negizi, ildizlarini izlaydi. «G'arib»da adib insoniy hayotni himoya qiladi, insonning inson tomonidan o'ldirilishini qoralaydi. Ayni chog'da, Idris ijtimoiy sharoit tufayli qotil bo'lib qolgan G'aribni oqlagandek bo'ladi.

«Misr xo'jayini»da zo'ravonlik, g'ayriaxloqiy zo'ravonlik qalbni vayron qiladi, zo'ravonlikka javob tarzida ham zo'ravonlik qilish kerak emas, degan fikr olg'a suriladi. Ezgulik va yovuzlikni baholayotganda yozuvchi ijtimoiy mezonlardan to'la voz kechadi, to'laligicha «umuminsoniy axloq» mavqeiga o'tadi, bir tomondan axloqiy kategoriyalarni absolyutlashtiradi, boshqa tomondan esa, yovuzlikning azaliy va muqarrarligini tan olishga moyillik bildiradi.

Idris uslubida hamisha lirik ibtido kuchli ifodalangan. U qahramonlarini «ular» deb atasada, ammo har biriga qalbining bir parchasini joylashtirgan, shuning uchun ham adibning «ulari» ko'pincha «biz» dek jaranglardi. «Biz» bora-bora haddan ziyod beso'naqay bo'lib ketgan, bemor «men» tomonidan chekkaga surib qo'yiladi. Ana shu o'zining «men» ini san'atkor ayovsizlik bilan fosh qilib tashlaydi, bu esa Idris novellalariga katta hissiy ta'sir kuchini bag'ishlaydi. Ammo Idris ana shu «men» nuqtai nazaridan ijtimoiy hayot muammolarini hal qilishga intilayotganda bu ish adibning qo'lidan kelmasligi ayon bo'lib qoladi.

Idris - dramaturg hozirgi Misr teatrining taraqqiyot yo'llari haqida ko'p bosh qotiradi. Chinakam Misr teatrini yaratish yo'lini u milliy teatr udumlarini rivojlantirish va ularni hozirgi roman badiiy saviyasiga ko'tarishda deb biladi. Teatr san'ati rivojining boshlang'ich shakllaridan biri sifatida Idris «Samir» - Misrda mavjud bo'lgan, improvizatsiyaga asoslangan doimiy personajlarga - niqoblarga ega bo'lgan, tomoshabinlarni teatr harakatiga tortadigan ko'cha tomoshasini tavsiya qiladi. Ko'cha, xalq tomoshasi teatri uslubi Goldonidan tortib Brextgacha bo'lgan Yevropa dramaturglari tomonidan ko'p marta qo'llanilgan. Idris dramaturgiyasining misrlik tadqiqotchisi Nodiya Farag' «Farfurlar» da Brext teatri bilan ham (2 personajning falsafiy bahsi), «Kabuki» (Yaponiya) bilan ham shakllar o'xshashligini ko'radi, chunki «Farfurlar»dagi personajlar qo'g'irchoqlarga taqlid qiladilar va tomoshabinlar bilan suhbatga kirishadilar.

Idris amalda Yevropa, umuman, jahon teatridan o'rganishni inkor etmaydi. Xalq tomoshalariga murojaat etganda ular orqali milliy xarakterni, Misr «mohiyatini» ifodalashni ko'zda tutadi. Sharq teatri sarchashmalarida turadigan eng muhim narsa ana shu bo'lib, xalqning folklor merosidagina uning boshqa xalqlardan ajratib turuvchi, o'ziga xos ma'naviy xazinasini, uning «narsalarga munosabati» to'la ifodasini topadi.

Ana shu Misr xalqi ruhini o'zida ifodalovchi Idris pesasining («Farfurlar», 1964) bosh qahramoni Samirning doimiy personaji Farfurdir. «Qishki komediya», «Farfurlar» (1964) falsafiy janrga (Misrda uni «intelektual teatr» deyishadi) mansub. Idrisgacha bunday pesalar turkumini Tavfiq al-Hakim yaratgan edi. U Bernard Shou, Andre Jid ruhida mashhur arab va jahondagi boshqa syujetlarni zamonaviylashtirib qayta ishlagan.

Idrisning falsafiy pesalari Tavfiq al-Hakim dramaturgiyasidan (u absolyutlashgan, mahdud tushunchalar san'at va hayot, ilmiy-texnik taraqqiyot va tuyg'u o'rtasidagi ziddiyatlarni) avvalo muammolarning jo'shqin zamonaviyligi, hayotiyliigi, ijtimoiy zarurati bilan ajralib turadi.

«Farfurlar» Misr xalq teatri - Samirga o'xshatma. Uning qatnashuvchi personajlari Sid («Janob») va uning xizmatkori Farfur. Ular xalq teatrining doimiy juft personajlari. Bu sulton va uning masxarabozi, amir va uning xizmatkori, usta va shogird bo'lishi mumkin. Ulardan tashqari pesada muallif va qahramonlarning xotinlari (ikkita Sidniki va bitta Fanfurniki), qator epizodik shaxslar qatnashadi. Xalq tomoshasini to'laroq gavdalantirish uchun tomoshabinlar harakatga faol aralashadilar, luqma tashlaydilar, tez-tez o'zlari ham sahnaga chiqadilar, Idris bir qism aktyorlarni tomosha zaliga joylashtiradi, kerak paytda ular sahnaga ko'tariladilar.

Asar voqeasi Sidga ism, kasb, xotin axtarish bilan boshlanadi. Bularning hammasi g'oyat qiziq, o'tkir shaklda Samir ruhidagi dialoglar bilan ijro etiladi. Go'rkov kasbi tanlanadi. Farfur belkurak bilan yer kovlashi kerak. Sid esa «uning ishini boshqaradi». Sid hech narsa qilishni xohlamaydi, hatto unga xotinni ham Farfur tanlaydi.

Dastlab Sidga pesa shuni taqozo qiladi deb Farfurni bo'ysundirish oson bo'ladi. Keyin esa, Farfur nima uchun Sid xo'jayin, o'zi esa xizmatkor bo'lishi kerakligini o'ylab qoladi. Sid Farfurdan odam o'ldirish, dafn qilishni talab etadi. Farfur bunga qat'iyan qarshi chiqadi, gunohsiz odamni qatl etishga rozi bo'lmaydi. Sid insonni o'ldirish janoblari ishi ekanini aytib, odamni o'z qo'llari bilan bo'g'adi. G'azablangan Farfur Sidni «qonxo'r» atab, uni tashlab ketadi. Shu bilan birinchi parda tugaydi.

Sid va Farfur munosabatlari tarixi - bu insoniyat paydo bo'lganidan to shu kungacha bo'lgan tarix bo'lib, Olloh irodasi bilan odamlar tengsiz qilib yaratilgan. Farfur «nima uchun men xizmatkor bo'lishim kerak?» deb o'ziga savol beradi va unga javob topilgunga qadar Sidga xizmat qilishdan bo'yin tovlaydi. Sid erinchoq, xudbin, ayovsiz va nodon, Farfur epchil, zukko, hazilkash. Pesaning ikkinchi pardasi odamlarni teng va baxtli qiladigan ijtimoiy tuzumni izlashga bag'ishlangan. Qator ijtimoiy tizimlar ta'mini totgan Sid va Farfurlar ulardan birortasi Farfur erishmoqchi bo'lgan shaxs ozodligi va tenglikni ta'minlashga qodir emas, degan xulosaga keladilar.

Avvaliga ikkalasi ham Farfur bo'lishga kelishadilar, belkuraklar bilan qabr qaziydilar. Ammo o'zaro kelisha olmaydilar.

Keyin ikkovlari ham Sid bo'lishadi. Shu o'rinda Farfurda g'aroyib o'zgarish sodir bo'ladi. U shu qadar Sid obraziga kirishib ketadiki, izlanishdan kuzatgan maqsadini unutadi.

Sid undan qanday qarorga kelgani haqida so'raganida Farfur taajublanib: «Qanday qaror? Nimani hal qilish kerak o'zi? Shaxsan men yechilishi lozim bo'lgan hech qanday muammoni ko'rmayapman»,⁴⁴ - deydi.

Pesa oxirida noiloj qolgan Sid va Farfur o'lishga qaror qiladilar. O'limdan so'ng mikrozararlarga aylanadilar. Ammo elementar zarralar dunyosida ham tenglik yo'q: yengilroq elektronga aylangan Farfur og'ir yadro - Sid atrofida aylanishga mahkum. Pesa elektronga aylangan Farfurning yuksak ehtiros bilan tomoshabinlarga, odamlarga qaratilgan xitobi, muammoning yechimini topishga qaratilgan kelajak avlodga chaqiriq bilan yakunlanadi. Pesa Farfurning nima uchun u xizmatkoru Sid - xo'jayin, degan savoliga javob beradi: chunki bu ashyolar tabiatida mavjud, odamlar o'rtasidagi ozodlik va tenglikka erishish uchun esa insoniy mohiyatni o'zgartirish kerak. Adolatli, barcha odamlarni ozodlik va tenglik bilan ta'minlovchi ijtimoiy tuzum yaratish yo'lidagi barcha urinishlar odamning tabiati tufayli foydasiz. Har bir odam o'zi uchun ozodlik talab qiladi, orzu va harakatlarning cheklanishiga rozi bo'lmaydi.

⁴⁴ Кирпиченко В. Н. Юсуф Идрис, М., 1980. стр. 157.

Pesa tanqidchilikda turlicha qabul qilindi: Muhammad Amin al-Amin: «Bu pesa ozodlikning ekzistensialistik, monarxistik tushunchalarini ifodalaydi, bu esa bizning inqilobiy voqeligimiz uchun o'ta xavfli», deydi. Muhammad Mandur Idris jamiyatdagi ekspluatasion munosabatlarning o'zgarishini ta'kidlab, atom yadrosini parchalagan, shu bilan «elektronni abadiy mutelikdan qutqazgan inson irodasini esdan chiqargan», deya nozik xulosa chiqaradi. Idris pesasi Misr kitobxonini va tomoshabinini faqat mavhum - falsafiy muammolar ustidagina emas, aniq, hayotiy ahamiyatga ega masalalar haqida fikrlashga majbur etdi.

Idris tushkunlik kayfiyatida, chunki uningcha hech bir ijtimoiy tuzum shaxs ozodligi muammosini hal qila olmaydi. Shunday bo'lsa ham, u Farfur tili bilan odamlarni najot izlashga chaqiradi, eski tartiblarga, oldingi munosabatlarga qaytish mumkin emasligini ta'kidlaydi.

«Yuksak she'riyatda qandaydir fusunkorlik mavjud: tiniq fikrini go'zal shakl bilan uyg'unlashtiradi. Ana shu muvofiqlik zig'ircha buzilsa, poetik jozibaning buzilishiga olib keladi» (G. Gulia).

Bu so'zlar faqat she'riyat yoki nasrgagina taalluqli bo'lib qolmay, san'at deb atalmish hamma narsaga aloqador. Uyg'unlikning har qanday buzilishi, mutanosiblikka amal qilmaslik norasolikka, badiiy asar qiyofasining buzilishiga olib keladi. Misr nasrini yangi pog'onaga ko'targan Idrisning asosiy badiiy yutug'i inson shaxsining ko'p o'leovlilikini kashf etishi bo'ldi. Misr xalqi xarakterining ijtimoiy-psixologik tahlili Idris ijodida favqulodda serunum bo'ldi. O'zining iborasi bilan aytganda, inson qalbining «tublarining tubiga» kirishga intilib, Idris, o'zi bilmagan holda, chegaradan o'tdi, shaxsning tashqi va ichki uyg'unligini buzdi. Ichki, intuitiv, aql va onga bo'ysunmaydigan xislat ustun kelib, ob'ektivlik, hammadan muhimi, insonning ijtimoiy o'rni bilan bog'liqlik orqaga surilib, ba'zida esa siqib chiqarildi. Natijada, uning oxirgi asarlari sahifalarida butunlay o'zining biologik, avvalo, shahvoniy mayllari hukmidagi narsa paydo bo'ldi.

Isroil bilan urushdagi mag'lubiyat (1967 yil, iyun) misrliklar milliy g'ururiga berilgan og'ir zarba edi. Urush Misr armiyasining jangovarligiga va arab birligiga bo'lgan ishonchni yo'qqa chiqaribgina qolmay, ko'pchilikda inqilobiy, ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlarning effektivligi maqsadga muvofiqligiga shubha uyg'otdi. «Millat taraqqiyoti» yetakchi vazifa deb e'lon qilindi, uning ma'nosi hamma narsadan oldin xalqning haqiqiy manfaatlarini hisobga olmay, nima qilib bo'lsa ham, har qanday yo'l bilan texnologiyani rivojlantirish edi.

Idris mazkur mag'lubiyatni milliy fojia deb qabul qildi. Uning nazarida bu Misrning madaniy qoloqligi, xalq ommasining ongining past darajasi, milliy birlikning yo'qligi, millatning ichki ixtiloflari natijasi edi.

1969 yilda Idris Misrning eng qo'hna, 1975 yilda o'zining 100 yillik to'yini nishonlagan «Al-Ahrom» ga ishga o'tdi. Uning adabiy bo'limida Tavfiq al-Hakim, Najib Mahfuz, Luis Avvad kabi mashhur adib va tanqidchilar faoliyat ko'rsatardilar. «Al-Ahrom» ga ishga o'tish Idris uchun ijodiy turtki bo'ladi. 1978 yil davomida gazetaning adabiy ilovasida beshta yangi hikoyasi chop etildi, 1971 yilda uning 12 hikoyasidan iborat «Tan uyi» nomli to'plami bosilib chiqdi. Aksariyat hikoyalarda Idrisning realistik shakllardan qochishga, iloji boricha umumlashgan mavhum obraz-ramzlar yaratishga moyilligi ko'rinadi. Idris yangi, uning olam haqidagi o'zgarayotgan tasavvuriga mos obrazli vositalar izlashda davom etdi.

1971 yilda Idrisning salomatligi yomonlashdi, o'zini o'ldirmoqchi bo'ldi. Hukumat uni davlat hisobidan davolashi uchun Londonga yubordi, 9 oydan so'ng vatanini sog'ingan Idris Qohiraga qaytadi.

«Tan uyi» hikoyasi: ramziy nikoh uzugi, sukut rizo alomati tariqasida onaning barmog'idan uning balog'atga yetgan 3 qizi qo'liga o'tadi. Ular onaning eri - yosh, ko'zi ojiz shayxni «baham ko'radilar». Uruk - ularning sir - asrori, yashirin hayosiz, sharmandali ishlarini o'zida mujassamlovchi ramz. Hikoyada shu bilan ilgarigilardan farqlanib turadiki, unda Idris qahramonlar xatti - harakatiga axloqiy jihatdan baho berishga harakat qiladi. Shayx o'zini shunday oqlaydi: «Faqat ko'zi ochiqdargina to'la ishonch egalari bo'lishlari mumkin, chunki narsalarning bir - biridan farqlashga qodirdir. Lekin uchi, nari borsa shubhalana oladi, xolos.

Faqat ko'rishgina shubhani ishonchga aylantiradi. U bo'lsa ko'rishdan mahrum, demak, hech qachon ishonch hosil qila olmaydi. Chunki u ko'r. Ko'rda esa gunoh bo'lmaydi.

Ammo hikoya muallif savoli bilan yakunlanadi: «Ehtimol, ko'rda gunoh bordir?»⁴⁵

Ramzning qaltisligi shundayki, o'z yaratuvchisi qalami ostidan chiqqa solib, unga tobelikdan bosh tortadi, mustaqil hayot kechira boshlaydi. «Tan uyi» bosilib chiqqan paytlarda Misr rahbariyatining asta - sekin mamlakatni kapitalistik yo'lga o'tkazish niyati yetarli darajada oshkor bo'lgan edi, ziyolilarning anchaginasini «Inqilobni qonunchilik doirasiga kirgizish» tarafdori bo'ldi. Idris buni xohlaganmi, yo'qmi uning hikoyasi «Sukutli fitna davri» ning belgisi bo'lib qoldi.

Idrisning o'z tabiati jihatdan xalqona iste'dodi dunyoni materialistik ko'rish kabi noyob xususiyatga ega edi. Adibning badiiy didi xalq og'zaki hikoyasi asosida tarbiya topdi, u o'ziga voqelikka xalqona ziyrak ko'z, tabassum bilan boqishni singdirgan edi. U ilgari Misr novellistikasiga taalluqli ba'zi zaifliklar - sentimentallik, mujmalliklarni yenga oldi, buning asosiy omillaridan biri XIX asr oxiri, XX asr boshlaridagi Yevropa realistik adabiyoti bilan tanishish bo'ldi.

Idrisning ilk novellistik ijodi hozirgacha Misr, hatto butun arab adabiyotining tengsiz yutug'i hisoblanadi. Misr xalqi xarakteri Idris tomonidan har tomonlama rang-barang hayotiy material asosida ochib berildi.

Idrisning til borasidagi xizmati buyuk. U so'zni bezak funksiyasidan ozod qilib, uni badiiy obraz yaratishning bebaho quroliga aylantirdi.

Mustaqillik sharoitida mamlakatning keyingi iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyoti masalasi atrofida 60-yillarda qizg'in siyosiy kurash ketayotgan bir pallada millatning hamma tabaqalari manfaatlari orasidagi uyg'unlik haqidagi xom xayollar puchga chiqdi, ular orasidagi ziddiyat yaqqol ko'zga tashlandi. Ana shu murakkab sharoitda o'z mavqeini aniqlab olishga bo'lgan ehtiyoj ayovsiz ma'naviy inqirozning sabab va manbaiga aylandi.

Ayniqsa, mulkdorlarni cho'chitgan narsa shu bo'ldiki, xalq manfaatlari uchun olib borilgan kurash keyinchalik muqarrar ravishda keng xalq ommasini jamiyatni qayta qurishga jalb etishni taqozo qiladi. Bu esa kuch ishlatishning har qanday ko'rinishiga qarshi norozilikni, shaxs ozodligi g'oyasining eng mubolag'ali shakllarini keltirib chiqardi. Idrisning badiiy olamiga kirayotgan yangi g'oya va tushunchalar uning birligi va yaxlitligini buzadilar. Yozuvchi mutlaq, hech narsa bilan cheklanmagan, ozod individualizm tarafdoriga aylanadi. Yozuvchining ilk ijodida katta kuch bilan ifodalangan zo'ravonlikka, ijtimoiy axloqning hayotni xunuklashtiradigan munofiqona qoidalariga qarshi qaratilgan isyon o'zining insonparvarlik xususiyatini qo'ldan berdi; ozodlik, ezgulik va yovuzlik tushunchalari yozuvchi ijodida o'zining aniq ijtimoiy mazmunini yo'qotdi, tobora mavhum kategoriyalarga aylana bordi. Idris axloqiy relyativizmni qabul qiladi, amalda shaxs xatti-harakatiga baho berishda har qanday axloqiy o'lchovlardan voz kechadi, biologik mayllarning yengib bo'lmas qudratini tan oladi. Ammo Idrisda realistik ibtido behad kuchli bo'lib, ziddiyat va kurashlarga to'la hayotga, abadiy o'zgaruvchan dunyo qiyofasiga qiziqish behad kuchlidir. Uning oqilona, mantiqiy dehqoncha tafakkuri hayotga va o'z-o'ziga notinch, javobiga ilinj qoldiruvchi savollar berishda davom etadi.

Idris qanday bo'lsa-da, Misr adabiyotida o'z so'zini ayta oldi, uning ijodida, XX asr uchinchi choragidagi voqelikning dolzarb, o'ta zarur muammolari o'z ifodasini topdi.

NAJIB MAHFUZ

1988 yilda Misr romannavisi Najib Mahfuz Nobel mukofoti sovrindori bo'ldi. Bu ilk bor arab adibi yuksak umumjahon adabiy mukofotiga sazovor bo'lishi edi. Garchi Mahfuz anchadan buyon o'z vatanida, Misrda va boshqa mamlakatlarda, shuningdek uni eng zo'r arab romannavisi hisoblab, tarjima qiladigan va o'rganadigan Yevropa, Amerikada ham shunday bo'lishini his qilib turgan bo'lsalar-da, ammo baribir u kutilmagan holda sodir bo'ldi. Arab jamoatchiligi bu xabarni quvonch bilan kutib oldi uni yozuvchi iste'dodi va adabiyot oldidagi xizmatlari e'tirofi

⁴⁵ Кирпиченко В. Н. Юсуф Идрис. М., 1980. Стр. 198.

sifatidagina emas, ayni chog'da XX asr jahon madaniyatiga arab adabiyotining qo'shgan umumiy hissasining ahamiyati tarzida baholadi. Bu e'tirof shu jihatdan ham muhimki, yaqin vaqtlargacha arab dunyosidan tashqarida asosan insoniyatni bebaho badiiy obidalaridan bahramand etgan o'rta asr adabiyoti shuhrat qozongan edi, xolos. Endi esa, Najib Mahfuz siymosida hozirgi zamon arab adabiyotiga yuksak baho berilgan edi.

Najib Mahfuz butun ijodi, umr bo'yi adabiyotga qilgan beminnat xizmati bilan bu mukofotga loyiq edi. Yarim asrlik tinimsiz, fidokorona mehnat natijasida qirqdan ziyod kitob dunyoga keldi, ularda XX asr arab nasrining izlanish yo'llari ko'zgudagidek o'z aksini topdi. Najib Mahfuz tuganmas ijodiy kuch-quvvatining siri faqat uning bebaho tabiiy iste'dodidagina emas, balki hayratomuz ishchanlik qobiliyatida, shaxsning teran fazilatida, adabiyotning yuksak ma'naviy-axloqiy burchiga so'zsiz ishonch, odamlarga o'z qalb so'zini, uning ta'sirchan kuchini yetkazishidir.

San'atkor Mahfuzning bebaho xususiyati - davrni nozik his etishi, hamdardlik tuyg'usi. Uning romanlarida nima haqida so'z ketmasin, undagi voqealar uzoq o'tmishdami, afsonaviy davrlardami sodir bo'lsin, hamisha ulardan hayot nafasi ufurib turadi. Mahfuz hamisha bugungi kun talabi bilan yozadi, eng dolzarb, hammani hayajonlantiradigan masalalarni ko'taradi, bu esa kitobxonni o'ziga chorlaydi, har bir asari munozara qo'zg'atadi. Dolzarblik bilan abadiylik Mahfuz ijodini yangilab turadi. Yillar o'tishi, adabiyotdagi avlodlar almashuvi, estetik tasavvurlarning o'zgarishi, adabiy modalarning tebranishiga qaramasdan oqsoqol yozuvchi adabiy harakatning peshqadamligicha qolaveradi.

Najib Mahfuz 1911 yil 11 dekabrda o'rta hol amaldor oilasida eski, Qohiraning o'rta asr qiyofasini saqlab qolgan Gamaliya dahasida tug'ildi.

Najibning otasi mansabdor bo'lib, unda shu avlod kishilarida bo'ladigan, 1919 yil Misr burjua-millatchilik inqilobining guvohi va ishtirokchilaridagidek, siyosiy qarashlarning otashin vatanparvarligi axloqiy tushunchalarning jiddiy konservatizmi bilan murosa qila olardi. Xonadonda inqilob voqealari haqidagi hikoyalar qayta-qayta takrorlanardi, uning yo'lboshchisi Saad Zag'lul nomi buyuk ehtirom bilan tilga olinardi. Oiladagi yagona mutolaa manbai diniy mazmundagi gazeta va kitoblar hisoblanardi.

Najib Gamaliyada diniy maktab-kuttobni bitqazib, boshlang'ich maktabga kirdi. U 12 yoshga yetganida oilalari Qohiraning boshqa dahasiga, Abbosiyada otasi sotib olgan kichikroq uyga ko'chishdi. Ammo Mahfuz Gamaliyada bo'lishni, uning ko'chalari bo'ylab kezishni, bolalik xotiralariga qaytishni yoqtirardi.

Abbosiyada shunday tengqurlar - qo'shinlar va ishtirokchilar davrasi yuzaga keldiki, Mahfuz ular bilan aloqani uzoq yillar davom ettirdi. Endi bu boshqa muhit, boshqacha manfaatlar edi. Abbosiyada diniy maktab - kuttoblar yo'q edi, ammo futbol avj olgandi. Bolalar kaktus novdalari bilan o'ralgan maydonchada to'p tepishar, professional komandalarning milliy klubdagi uchrashuvlarni tomosha qilishardi, sevgan futbolchilari to'g'risida tortishuvlar bo'lardi, futbol maydonida inglizlarni javob to'pisiz urishganiga xursand bo'lishardi. Ingliz istilochilarining harbiy kazarmalari Abbosiyaning shundoqqina markazida bo'lib, doimo o'smirlarning vatanparvarlik tuyg'ularini qo'zg'otardi.

Do'stlar o'qigan kitoblari to'g'risida fikr almashardilar, ularning aksariyati tarjima qilingan, polisiya haqidagi romanlar edi. Maktabda mashg'ulotlar bo'lmaydigan juma kunlari yaqinlaridagi «Olimpiya» kinoteatrida polisiya haqidagi sarguzashtli filmlarni tomosha qilardilar, ulardagi quvdi-quvdilar, otishuv va olishuvlarni berilib ko'rardilar. Mahfuzning xotirlashicha, oilada u birinchi bo'lib, muntazam ravishda kinoga borgan. Unda o'sha paytlarda, maktabdayoq yozish ishtiyoqi uyg'ondi. Hamma ish o'zi yoqtirib qolgan polisiya haqidagi romanlarni qalin daftarga nomini qo'yib ko'chirishdan boshlandi. U, asosan, lirik she'rlar yozishni mashq qildi, ularda diniy bayramlardan olgan tuyg'ular, Abbosiyadagi tengqur qo'shni qizga bo'lgan hissiyotlarini ifodaladi. Mahfuzdagi «ong uyg'onishining» boshlanishi Taha Husayn, Abbas Mahmud al-Akkad, Salama Musa va boshqa «yangilovchilar» asarlari bilan tanishgandan keyin yuz berdi. Ular Misr adabiyotini G'arb tomon, Yevropa madaniyati sari burdilar.

«Yangilovchilar» titroq aql sohibi bo'lmish o'smirlar narsalarga tanqidiy munosabatda bo'lishni, erkin fikrlashni singdirdilar, unda dunyoni keng va rang-baranglikda anglash hissini uyg'otdilar. «Yangilovchilar» asarlari bilan oshno bo'lishning birinchi natijasi Najib Mahfuz Yevropa adabiyotini muntazam mutolaa qilish va o'rta asr arab klassikasining qaytadan o'qib chiqishi, birinchi navbatda Abul A'lo al-Ma'arriy, Al-Mutanabbiy, Ibn ar-Rumi kabi sevimli shoirlarning badiiy obrazlar olami va ma'no xazinalaridan bahramand bo'lishi edi.

O'rta maktabni tamomlagach, Mahfuz Qohira dorilfununi filologiya fakultetining falsafa bo'limiga o'qishga kirdi. U yerda u Aflotundan Bergsonga qadar idealist faylasuflar asarlariga asoslangan tarix, falsafani sinchiklab o'rgandi.

Ammo falsafa bilan shug'ullanishi unga to'la qoniqish bermadi. Uni avvalgidek adabiyot o'ziga tortardi. Ehtimol, adabiyotni u falsafadan ko'ra ko'proq dunyo va inson qalbini san'atkor tuyg'usi va intuisiyasi ko'magida bilish imkoniyatlarini yaratgani uchun sevgandir. U yozuvchilikni davom ettiradi. Jurnallarga yuborilgan o'nlab hikoya va uch romandan faqat bir necha hikoya chop etiladi, xolos.

Shunday bo'lsa ham, magistrlik disertatsiyasini yozish uchun universitetda qoldirilgan Mahfuzni dissertatsiya yozish jarayonida «qalbning alamli ikkilanishi» tark etmadi. Mahfuz aniq yo'lni tanlash kerakligini tushundi. Uning oldida universitet falsafa muallimi degan tinch va ta'minlangan istiqbol paydo bo'lgan edi, lekin u tugallanmagan dissertatsiyadan ham, muallimlikdan ham voz kechadi va nufuzsiz, daromadi beqaror kasb - adabiyotni tanlaydi. Bu bilan davlat xizmatiga kirish va uzoq yillar amaldor bo'lish imkonidan o'zini mahrum etadi.

Najib Mahfuz - eng ma'lumotli, bilimdon Misr adiblaridan biri. U adabiyot bilan maxsus shug'ullanish maqsadida jahon adabiyoti va san'ati tarixini muntazam, izchil o'rganish, insoniyat dahosi yaratgan barcha buyuk asarlarini o'qib chiqishni o'z burchi deb bildi. Uning nazaridan o'tgan har bir G'arb yoki Sharq yozuvchisi iste'dodiga ta'sir ko'rsatdi. Mahfuz bu ta'sirni shunday e'tirof etgan edi: «O'sha mutolaasiz yozganlarim dunyoga kelmas edi».

«Literaturnaya gazeta»da bosilgan intervyusida (1989 y.) jahon adabiyotiga munosabatini shunday ifodalaydi: «Bir necha yozuvchilar borki, men ularni sevimli deb atayman. Agar Sharq haqida so'z ketsa, bu fors shoiri Sheroziy, buyuk arab shoiri al-Mutanabbiy, G'arb to'g'risida esa faylasuf va mutafakkirlarni aytmaylik, vaholanki men ularni o'rganganman va ko'pini sevaman, bevosita adabiyotga o'tsak... Fransiyada Prust, Balzak, Angliyada - Shekspir, Golsuorsi, Germaniyada - Tomas Mann, Gyote, Amerikada - Folkner, Xeminguey, Rossiyada - shubhasiz, Lev Tolstoy, Chexov, Dostoyevskiy. Hammasini aytmadim, mening sevimli yozuvchilarim behad ko'p».

Ammo mustaqil fikrlash qobiliyati, arab poetik va hikoya qilish an'analari bilan uzviy bog'liqlik, Misrdagi siyosiy holatlar taraqqiyotini sinchkovlik bilan kuzatish uni taqlidchilik gunohiga botishdan asradi. Hamma o'qiganlari uning xotirasida tinib, o'ylanib, ma'naviy mulkiga aylangan tarzda asarlariga ko'chdi. Mahfuz ijodining bosh manbai uni o'rab turgan muhit, hayot, Misr tarixining ko'tarilishi va cho'kish, tezlashuvi va boshi berk ko'chaga kirgan holatlari, inqiloblari va mag'lubiyatlari, an'anaviylik inersiyasi va to'xtovsiz yangilanishi bilan bog'liq. Uning yozuvchilik tarjimai holidan qanchadan - qancha tanglik holatlari yuz bermadi deysiz? Ba'zida adib ob'ektiv, tarixiy sharoitlar taqozosi bilan iste'dodining susayishi xavfi soya solgan chog'larni ham, shakllangan, qotib qolgan g'oya va tasavvurlarining mahdud zanjiridan qutilishi amri-mahol bo'lgan damlarni ham bosh kechirdi.

Adabiy faoliyatining boshlanishidanoq Mahfuz tafakkurning romanga xos ko'lamini bilib turardi. Bu o'rinda adib tomonidan falsafiy o'rganish ham o'ziga xos rol o'ynagani yaqqol seziladi. Chunki undagi hayotga munosabatning kengligi, xususiy narsalarni umumiy tushunchalar asosida izohlash zarurati, dunyoning barcha unsurlarini bir butunlikka bog'lashga intilish ham shundan dalolat beradi. San'atkor Mahfuzga o'z niyatlarini amalga oshirish uchun keng hikoya maydoni talab etiladi, hikoyaning qat'iy doirasiga qisqa, harakatchan fabulani sig'dirish mushkullik tug'diradi.

Adibning ko'p jihatdan yetilmagan uch ilk romani ana shu keng qamrovli yondashuv tufayli ajralib turadi. Misrning firavnlari davri tarixidan olingan romanlar syujeti o'rta asr xalq

romani an'analari ruhida yozilgan. Bu janrga xos mavzu va syujet yo'nalishlari, shuningdek, mumtoz arab she'riyati namunalari va Qur'on iboralaridan keng foydalanilgan. Ayni chog'da qadimgi afsonalarga zamonaviy ruh berilib, romanlarda 30-yillardagi Misr uchun dolzarb bo'lgan milliy va siyosiy muammolar qo'yilgan.

Fir'avn seriyasidagi uch romanning oxirgisi - «Fivlar kurashmoqdalar» (1944)da Mahfuz ideal hukmdor, firavn Axmosning romantik obrazini yaratadi. Axmos – oriyat, dovyuraklik bilan shuhrat qozongan, o'z shaxsiy manfaatini, muhabbatini ozodlik yo'lida, Misrdan yovuz bosqinchilar - giksoslarni quvish yo'lida qurbon qilgan bahodir. Giksoslar timsolida adib mustamlakachi inglizlarni ko'zda tutganini payqash qiyin emas.

Najib Mahfuz ijodini shartli ravishda 3 davrda bo'lish mumkin:

1. Qadimgi Misr mavzusidagi tarixiy romanlar: «Taqdirlar o'yini» (1934), «Radobis» (1943), «Fivlar kurashi» (1944).

2. «Xon al-Xaliliy»dan realistik roman bosqichi boshlanadi. Qohiraning 40-yillardagi o'rta va quyi tabaqalari. Qahramonlar - yashash uchun mashaqqatli kurash olib boradigan qo'li yupqa, kambag'al, omadsiz kishilar.

3. 1952 yildan keyingi - falsafiy bosqich - «Mahallamiz bolalari», «Tilanchi» va boshqalar.

2 - bosqichga oid asarlaridan, ayniqsa, «Qohiradagi janjal» yoki «Yangi Qohira» (1945) ajralib turadi, unda mayda burjua oilasining inqirozi ko'rsatiladi. Shuningdek, «Xon al-Xaliliy» (1946), bu Qohiradagi bozor nomi bo'lib, zargarlik buyumlari savdosi bilan mashhur, yozuvchi bu asarida mayda amaldorning murakkab tuyg'ularini, uning kundalik hayotini aks ettiradi.

1. «Al-Madakk tor ko'chasi» (1947). Urush Al-Madakk tor ko'chasida istiqomat qiluvchi oddiy odamlarning muhabbatini barbod etishi, osoyishtaligini yo'qotishi ko'rsatiladi.

2. «Ibtido va intiho» (1949) romanida oddiy misrliklarning o'z farzandlariga bilim berish, doimiy ish va oilaviy baxt uchun kurashlari o'z aksini topadi.

3. Trilogiya: 1) «Bayn al-Qasreyn» (1956). 2) «Qasr ash-Shauq». 3) «As-Sukkariyya» (1952). Ushbu trilogiya Mahfuzning eng mashhur asari bo'lib, unga birinchi arab romannavisi degan shuhrat keltirgan. «Trilogiya»da 1917 yildan 1944 yilgacha bo'lgan Misr jamiyatining chorak asrlik tarixiy harakati yaxlit tahlil qilinadi.

Najib Mahfuz barcha romanlarida o'rta sinf hayotini katta badiiy mahorat bilan tasvirladi. Bu asarlarning bosh qahramonlari asosan yolg'iz, yakka odamlar bo'lib, ularni ijtimoiy hayot qiziqitirmaydi, ular o'z huzur-halovatlarini o'ylaydigan kimsalardir.

«Madokk tor ko'chasi» romani voqealari ikkinchi jahon urushi yillarida sodir bo'ladi. Urush Madokkda yashovchilarga ortiqcha muhtojlik, qashshoqlarga esa mushkulliklar keltiradi. Qahvaxona sohibi Kirshaga urush boyish uchun sharoit yaratadi. Kirshaning ingliz lagerlarida ishlovchi o'g'li Husayn esa urushning cho'zilishini orzu qiladi. Agar bizga oltin keltirsa, «marhabo, ming bir hujum» deydi u. Urush kambag'al, yetim qiz Hamida va qashshoq sartarosh yigit Abbas Xilvaning fojiali muhabbatiga sabab bo'ladi. Abbas Hamidaga uylanmoqchi, ammo daromadi tirikchilikka zo'rg'a yetadi. Husaynning maslahati bilan ishlash uchun u ingliz lageriga boradi, Hamida esa uni kutishga majbur. Abbasning yo'qligi chog'ida Hamida ingliz va Amerika harbiy xizmatchilariga tirik tovar yetkazuvchilarining to'riga ilinadi. Qohiraga qaytgan Abbas o'z qallig'ini mast-alast ingliz askarlari davrasida uchratadi. Uchrashuv fojiaga aylanadi: askarlar Abbasni o'lguncha kaltaklaydilar.

Kafe egasi buzuq «Muallim» Kirsha qiyofasida o'rta hol shahar burjuasining jirkanch basharasi namoyon bo'ladi. Kirsha «inqilobiy o'tmish» egasi: yoshligida u 1919 yil qo'zg'olonida faol ishtirok etgan, ammo faqat yahudiy va arman magazinlarining yondiruvchi va vayron qiluvchi sifatida, xolos. Keyinroq esa, parlament saylovlari paytidagi siyosiy o'yinlarda bir nomzoddan pora olib, boshqasiga ovoz berib, hunar ko'rsatgan.

Tor ko'chaning boshqa istiqomat qiluvchilari basharalari ham jonli chizilgan. Mana, tish do'xtiri Bushi. Davolashning hamma usulidan ko'ra «tish sug'urishni» afzal ko'radi. Uning «ko'chma ambulatoriyasi»da bu juda azobli, lekin arzon qilinadi: kambag'aldan bir piast, boydan esa ikki piast olinadi. «Nogiron qilish ustasi» Zita har qanday gado bo'lishni istaganni

chaqqonlik bilan «majruh»ga aylantiradi. Navjuvon uy egasi Saniya, bilimdon avliyo xushomadgo'y Radvar al-Husayniy va boshqa personajlar ham xiyla esda qolarli va tipikdir. Madakk tor ko'chasi - Misr jamiyatining jahon urushi yillarida, chet el hukmronligi, feodal va yirik burjuaziya zulmi cho'qqiga chiqqan davrda boshi berk ko'chaga kirgani timsolidir. Butun roman chorasizlik va umidsizlik tuyg'usi bilan yo'g'rilgan.

«Ibtido va intiho» - boquvchisiz qolgan mayda amaldor oilasining achchiq qismati to'g'risida hikoya qiladi. «Madakk tor ko'chasi»ga nisbatan bu romanda personaj oz, ammo uning ijtimoiy doirasi xiyla keng, chunki asarda tasvirlangan oilaviy drama ijtimoiy - siyosiy hayot fonida ko'rsatiladi. Asar ijtimoiy tengsizlik va byurokratik tartiblarga, o'z umrini tugatgan an'ana va odatlarga qarshi isyon tarzida yozilgan.

Agar «Madakk tor ko'chasi» dagi odamlar, nochor vaziyatdan chiqish yo'lini bilmay, oxirida dindand taskin topsalar, «Ibtido va intiho» qahramonlari baxtlarini o'zlari yaratadilar. «Sen Olloh o'z qullarini unutmaydi, deysan. Qani ko'raylik-chi, qanday eslarkan u bizni. Nega u otamizni oldi, nega biz singari qurbonlar evaziga uni donishmand e'lon qiladi?»⁴⁶ - deydi qahramonlardan biri. Voqea Nafisa degan qiz va uning akasi Hasanaynning fojiali halokati bilan tugaydi. Garchi muallif hikoya qilgan voqeaga o'z munosabatini bildirmasa-da, xulosa o'z-o'zidan ayon bo'ladi: Misrda inson baxtli bo'lishi uchun jamiyatning ijtimoiy va axloqiy ustunlarini sindirish kerak.

«Beyn al-Qasreyn» (1956-1957) trilogiya romanida Najib Mahfuz ilk bor xalq hayotini yaxshilash uchun kurashayotgan ijobiy qahramonlarni ko'rsatdi, ularning dunyoqarashi va xarakteri shakllanishga ta'sir etuvchi tarixiy omillarni ham ochib beradi.

Voqealar birinchi jahon urushi yillarida boshlanib, ikkinchi jahon urushidan so'ng tugallanadi. Bunda mayda burjua Misr oilasining uch avlodi tarixi hikoya qilinadi. Oila boshlig'i - qohiralik savdogar Ahmad Abdul Javod xonadonning zolim va mustabid hukmdori bo'lib, jamiyat hayoti uni zarracha qiziqtirmaydi.

Abdul Javod - o'ziga to'q musulmon, o'z oilasining boshlig'i. Uning so'zi - qonun, xotini Amina esa ertadan kechgacha tinmaydigan ayol, qo'shni xotinlar ta'biricha, «mirishkor asalari», erining xasmi 25 yillik oilaviy hayotda bir necha martagina ota-onasini ko'rgani ko'chaga chiqqan, o'shanda ham eri bilan birga. Lekin kunlardan bir kun ko'chaga chiqishga jur'at etgan. Janjal boshlangan. Bolalari va qarindoshlari tarafini olmasa, Javod Amina bilan ajrashar edi. An'ana va odatlarni muqaddas biladigan musulmon Abdul Javod shunaqa odam. Bu tashqi ko'rinish, xolos. Uning bir qancha o'ynashlari borligi, kechalarni restoran va islavotxonalarda o'tkazishi faqat do'stlariga ma'lum. Muallif qahramonning kechmishlari va ulfatlarini tasvirlarkan, kinoyaviy tashbehlarni ayamay ishlatadi.

Javodning 3 o'g'il va bir necha qizlari bor. To'ng'ich o'g'li Yasin ota izidan ketgan. U otasidek subutsiz va ayovsiz, lekin undan behayoroq. Axloqiy qiyofasini butkul yo'qotgan Yasin fohishalarni xonadoniga olib kelib, xotinini ko'chaga haydaydi.

Javodning ikkinchi o'g'li Fahmi otasi va akasidan pokligi va tabiatan sofliги bilan ajralib turadi. Talabalar orasida bo'lgani uchun unga milliy-ozodlik g'oyalari yuqqan. Fahmi ingliz bosqinchilaridan nafratlanadi. «Chet ellik boshqaradigan bo'lsa, xalq yashay olmaydi», - deydi u. 1919 yilgi qo'zg'olon kunlarida biz uni Misrdan ingliz qo'shinlarini olib chiqib ketish va mamlakatning to'la mustaqilligini talab qilayotgan namoyishchilar safida ko'ramiz. Namoyishchilar o'qqa tutilgan paytida u halok bo'ladi. Ammo Fahmining yorqin qiyofasi ukasi Kamol va jiyan Ahmad qalblarida yashaydi.

Kamol akasi qarashlarini qo'llab-quvvatlasa ham jo'shqin Fahmiga o'xshamaydi. Otasi irodasiga qarshi borib, Kamol kelajagi moddiy jihatdan ta'minlangan yurist bo'lishdan oddiy muallimlikni afzal biladi. Kamol yuksak madaniyatli inson bo'lib, uning uchun «haqiqiy xudo - bilim». Ammo Kamol taraqqiyparvar kuchlar kurashiga qo'shilishga intilmaydi. U falsafaga, mushohadaga moyil. Tabiatan passiv bo'lgan Kamol siyosiy hayotga faol ishtirok etish fikridan

⁴⁶ Нагиб Махфуз. Избранное. М., 1990, стр. 10.

uzoq, uning ijtimoiy tuzumdan noroziligi soʻzda qoralashdan nariga oʻtmaydi. Kamol milliy-ozodlik kurashidan chekingan davr Misr burjuaziyasining tipik vakili.

Chinakam vatanparvar, Fahmining maʼnaviy merosxoʻri boʻlgan Kamol va Fahmining jiyani Ahmad Ibrohim Shuket yetishib chiqadi.

U urush oldi yillarida, Misrda fashist agenturasining suqulib kirishiga qarshi kurash boshlangan davrda ulgʻaydi, antifashist jurnalistika xodimlari bilan yaqinlashdi. Ahmad marksizm bilan qiziqadi. Ammo bolalikdan oʻzlashtirilgan mayda burjua gʻoyalari unga xalaqit beradi. Ahmadning qayta tarbiyalanishiga jurnal tahririyati kotibasi, matbaachi ishchining qizi Susen Hamad katta taʼsir koʻrsatadi. Susen arab adabiyotida kam yaratilgan, mustaqil yashashga intiluvchi ayollar obrazidan biri. Susen oʻz maʼlumotini oshirishga harakat qiladi, marksistik adabiyotlarni mutolaa qiladi, shoʻro yozuvchilari asarlari bilan qiziqadi. U taraqqiyparvar yoshlar orasida nom qozonadi. Susen Hamad obrazi Amina timsoliga qarama-qarshi oʻlaroq, yangi mustaqil va demokratik Misrni gavdalantiradi. Ahmadning qarindoshlari ishchi qiziga uylanishiga qarshilik qiladilar, Ahmad oʻz muhiti bilan aloqasini uzib Susenga uylanadi. Ahmad antifashist yoʻnalishdagi jurnal xodimi boʻladi, maqolalar yozadi, ishchilar oldida nutqlar soʻzlaydi. Roman soʻnggida polisiya Ahmadni hibsga oladi, lekin kitobxon Ahmadning doʻstlari va hamfikrlari xalq manfaati yoʻlida imperializm va feodal reaksiyasiga kurashni toʻxtatmasliklariga ishonadi.

Uslub jozibadorligi jihatdan hozirgi arab adabiyotida Najib Mahfuz oldiga tushadigan adib yoʻq. Romandagi dialoglar biroz qoʻpolroq yumor bilan yoʻgʻrilgan boʻlsa ham, mahorat bilan yaratilgan. Asar sentimentallikdan butunlay xoli. Muallif koʻp sonli personajlardan har birining xatti-harakatini psixologik jihatdan asoslagan.

U xalqning yaratuvchilik kuchiga ishonmaydi va ziyolilarni Misrdagi hayotni yaxshi tomonga oʻzgartiruvchi yagona kuch deb biladi. Ammo ziyolilar, muallif fikricha, xalq manfaati deb yashashi, uning istiqboli uchun kurashishi, mamlakat siyosiy hayotida faol ishtirok etishi lozim - «falohlarning ochlikdan iztirob chekayotganini bila turib, tafakkur qilish qobiliyatiga ega odamlar qanday qilib hayotdan bahra olishlarini men tushunolmayman», deydi Mahfuz qahramonlaridan biri. «Trilogiya» ning ijobiy tomoni-romanning tanqidiy va haqqoniy yoʻnalishini his etib turamiz. Jamiyat koʻz oʻngimizda tinimsiz harakatda oʻziga xos ijtimoiy xususiyatlari bilan namoyon boʻladi. Mahfuz romanlarida jamiyat taraqqiyoti shubha va umidsizliklar tumani bilan yoxud xira umidlar shubhasi bilan qoplangan. Ammo uning romanlari tufayli kitobxon jamiyat ijtimoiy illatlaridan boxabar boʻladi va voqelikni chuqur anglaydi.

Najib Mahfuz trilogiyasi 1957 yilda davlat mukofotiga sazovor boʻlgan va urushdan keyingi arab adabiyotining koʻzga koʻringan namunasidir. Uning yuzaga kelishi Misrdagi adabiy harakatning yuksalishi, taraqqiyparvar Misr yozuvchilarining oʻz ijodiy kuchlarini xalq manfaatiga baxshida etganidan dalolatdir.

Barcha arab mamlakatlarining adabiy tanqidi Mahfuz trilogiyasini quvonch bilan olqishladi va roman mazmuni va tasviriy vositalari ahamiyatini yuksak baholadi. Mana, Taha Husaynning roman haqidagi fikri: «Misrliklar roman yoza boshlagandan buyon men oʻqigan romanlarining eng yaxshisi - mana shu». Fransuz adibi Jak Jome «Najib Mahfuz trilogiyasini «arab adabiyotidagi, hozirgi Misr taraqqiyotidagi oʻziga xos davrining boshlanishi» deb hisoblaydi. Yana u «trilogiyaning jahon darajasiga koʻtariladigan romanlar sirasiga kiritishini»⁴⁷ taʼkidlaydi.

Arab tanqidchiligi Mahfuz trilogiyasini Drayzer romanlariga qiyoslaydi. Ammo Mahfuzning oʻzi haddan ziyod mubolagʻaga moyil emas. «Biz jahon adabiyoti eshigini qoqayapmiz - deydi yozuvchi. - ammo men uyoqqa kirishimizga shubhalanaman. Ehtimol, yangi avlod yangi mavzu, yangi yozish malakasi bilan unga kirishga muyassar boʻlar».

Shunday qilib, Najib Mahfuz romanlari asosan mayda burjuaziyaga bagʻishlangan. Uning badiiy uslubida bayonchilik alomatlari mavjud boʻlib, bu Mahfuz ijodini koʻp jihatdan naturalizmga yaqinlashtiradi. Shunga qaramay, Najib Mahfuz chindan ham yetuk zamonaviy

⁴⁷ Литература Востока, М., 1969, стр. 33.

romannavis, o'z dunyoqarashini eng samimiy, eng aniq ifoda etadigan so'z ustasi - hisoblanadi. Munaqqid al-Alim «U, shubhasiz, bizning milliy - demokratik inqilobimizning kuychisi, uning falsafasini ifodalovchi, uning xarakterini yaratuvchi, maqsadlarini amalga oshirishga intiluvchi adibdir», degan edi.

Misir hayotining qomusi bo'lgan ushbu «Trilogiya» ning chop etilishi 1957 yilda yakunlandi; 1959 yilda esa, «Al-Ahrom» gazetasida «Ko'chamizning rivoyatlari» romani qism-qism holda bosila boshladi. Bu roman Najib Mahfuz ijodida yangi bosqichning boshlanishidan dalolat edi. Yana bayon uslubi va obrazlar tuzilishida o'zgarishni, vaqt chegaralarini kengayishi ko'zga tashlandi.

Voqealar afsonaviy uzoq zamonlarda boshlanib, yakuni olis kelajakka cho'ziladi. Garchi barcha voqealar «ko'chamizda» sodir bo'lsa ham, roman toponimikasi tanish ko'hna Qohira ko'chalarini o'z ichiga olsa ham, aslida roman geografiyasi yakka xudolikka ishonuvchi uch dinning beshigi bo'lmish butun Yaqin Sharqni qamrab oladi. Uning qahramonlari - «ko'chamizning o'g'lonlari» oddiy odamlar emas, xudo ilhomlantirgan payg'ambarlar, yuksak vakolat sohiblari bo'lib, adolatli ijtimoiy tuzum, barcha odamlarning baxti osoyishtaligi uchun kurashuvchilardir.

Tavrot, Injil, Qur'ondagi diniy rivoyatlar, Muhammad payg'ambar hayotini aks ettiruvchi siralar Gabalaui ko'chasi asoschisi, uning farzandlari va avlodlari haqidagi xalq naqlari shakliga o'rab berilgan. «Trilogiya»ga, oilaviy roman - epopeyaga xos xususiyatlarni saqlagan, arab xalq romaniga o'xshatib yozilgan bu asar o'z mohiyati jihatidan falsafiy roman - rivoyat janriga mansubdir. Unda insoniyat tarixi adolat, moddiy boyliklarni oqilona taqsimlash asosida aqlga monand jamiyat qurishga intilishdan iborat degan, g'oyalarning evolyusiyasi haqidagi Mahfuz tasavvuri ifoda etilgan.

Gabalaui urug'i asoschisi fe'l atvori bilan qohiralik savdogar Abdul Javvodni eslatadi. U o'z o'g'illari va katta xonadonda yashovchilar taqdirlari ustidan xohlaganicha hukmronlik qiladi. Ammo Gabalauning qudratli va vahshatli insoniy qiyofasida butun borliqni yaratuvchisiga xos xususiyatlar barq urib turadi. Uning o'g'illari Adham va Idrisda ularning prototiplari Odam ato va Qur'onda aytilganidek, Olloh tomonidan yerdagi noib qilib tayinlangan Odam atoga bo'yinsunishdan bosh tortgan dahriy Iblisni tanish qiyin emas. Idris birinchi bo'lib ota irodasi va hukmiga qarshi bosh ko'targan, dunyo adabiyotida ifodalangan iblis qiyofalaridan bo'lib, unda noitoatkorlik ruhi, odamga g'ul-g'ula soluvchi shubhalar hukmron, insonni hamisha yaratganga qarshi borishga undovchi ruh mavjud.

Mahfuz Gabal va Rifoa obrazlarini yaratar ekan, manba sifatida Muso va Iso tarixining Tavrot, Injil va Qur'ondagi naqlaridan foydalanadi. Gabal nomini olishi Muso payg'ambar qarshisida paydo bo'lgan tog' bilan bog'liqdir. «Va unga tog'ning o'ng tomonidan xitob qildik va uni pinhona suhbatga tortdik», - deyiladi Qur'onda bu haqda.

Rifoa nomi tasavvuf tariqatiga mansub rifayadan olingan bo'lib, tariqatga mansub bo'lganlar ruhning pok bo'lishini targ'ib qilganlar va («yovuz ruhni quvib chiqarish» yoki «badanga o'rnashib olgan xastalik ruhini quvish») marosimi - «zar»ga amal qilganlar.

Qosim ismi Muhammad payg'ambar nomlaridan biri (Abu Qosim) bo'lib, u kishining go'daklikda vafot etgan o'g'illari nomi bilan bog'liqdir.

Muqaddas kitoblardan olingan ma'lumotlarni Mahfuz qayta ishlab, diniy personajlarni «ko'chamiz o'g'lonlari» ga, xalq rivoyatlari qahramonlariga, aylantiradi, ayni chog'da manoqiblarga xos voqealar tizimi orqali prototiplarni tez ilg'ab olishga imkon beradi. Masalan, Gabalga aylangan Muso mol-mulk boshqaruvchisining xotini tomonidan tarbiyalanadi. U Musoni yomg'ir ko'lmagidan topib olgan edi. Bu ayol manoqibdagi fir'avn qizining timsolidir. O'spirinlik paytida Muso o'gay otasi bilan achchiqlanib, Muqattam tog'iga qochib ketadi. Bu yerda quduq yonida u ilon o'ynatuvchi ko'zboylag'ichning qizi bilan tanishib qoladi. Fir'avnlr otliq qo'shinini Qizil dengiz to'lqinlarida nobud bo'lishi haqidagi rivoyat Gabal tomonidan futuvvalarning tuzoqqa ilintirilishi voqeasiga aylantiriladi.

Xuddi shuningdek, Iso Masih haqida Injilda keltirilgan hikoya hamda Muhammad payg'ambarga oid sira ham ramziy to'qima sifatida beriladi.

Romanning oxirgi qismi qahramoni Arafa (uning ismi arabcha «arf» - bilmoq o'zagidan hosil qilingan) aniq bir prototipni o'zida aks ettirmaydi, balki diniy e'tiqod o'rnini bosadigan ilm, bilim tushunchasining ifodachisi sifatida tasvirlanadi.

«Ko'chamiz rivoyatlari»da ham Najib Mahfuz o'zini ilgaridan band qilib kelgan diniy falsafiy muammo -ilm va e'tiqod orasidagi munosabat borasida mulohaza yuritadi. Bu muammo uni «Trilogiya»dagi avtobiografik qahramoni Abdul Javvodning kenja o'g'li - Kemal tafakkurida o'tkir to'qnashuv uyg'otadi. Mahfuz adolatli jamiyat qurish yo'lida ilmni din merosxo'ri qilib ko'rsatish orqali bu yechimsiz muammoni hal qilgandek bo'ladi. Yahudiy dini, masihiylik va islomning vujudga kelishi u buyuk shaxslar faoliyati mevasi, ularning adolatga chanqoqligi, odamlarni baxtli hayotga erishtirishga bo'lgan intilishlari sifatida talqin etadi.

Gabalui - bu qudratli va odamoxun, ammo beshafqat Xoliq, yerda yashayotgan barcha odamlarning Odam atosini obrazi. Katta uydan oldiniga Idrisning keyin Adhamning quvilishi, otaning o'z bolalarini oq qilishi voqealari tasviri Mahfuzning dunyoqarashi aqlni din deb bilishga asoslangan deizmga xosligini ko'rsatadi. U ilohiy ibtidoaning yaratuvchilik, xalloqiyat kuchiga ishonadi, uning o'z mahluqlariga jon ato etgani, ularni oqil qilib yaratganini tan oladi. Adhamning oqilligi, o'qimishligi uning otasini an'anani buzishga, mulkni boshqarishni katta o'g'ilga emas, kichik farzandga - Idrisga topshirishga majbur etadi. Aqlning bu shaklda insonning eng buyuk fazilati sifatida tan olinishi ilmning inson aqli mahsuli sifatida tan olinishini bildiradi. Bu g'oya romanning barcha qismlarini yaxlit holda uyushtirib turadi, Arafani Gabalui o'g'illari, avlodlari qatoriga qo'yish yozuvchiga adolat o'rnatish yo'lida ilmni dinning vorisi sifatida ko'rsatish imkonini beradi.

Ammo insonni oqil qilib yaratar ekan, Xoliq undan o'z aqli bilan yashashni talab qiladi, uning ishlariga yordam berish u yoqda tursin, hatto aralashishni ham istamaydi, uni butkul o'z xatolariga javobgar qilib qo'yadi. Gabal, Rifa va Qosim faoliyatidagi «risolat» xislati ko'proq Gabalui roziligi bilan qilgan amallariga bo'lgan ichki ishonch tuyg'usi sifatida tasvirlanadi. Gabaluning «ko'rinish» berishi tafsilotlari har gal shunday tasvirlanadiki, bu voqealarni qahramonlarning tushi yoki xayolotida yuz bergandek tasavvur qilish imkoni qoladi.

Ularning ijtimoiy islohotchilik faoliyati natijalari ham cheklangandir. Ularning har biri «ko'chamiz aholisi» orasida o'rnatgan adolat va moddiy tenglik faqat shaxsiy hokimiyat va nufuzga asoslangan bo'lib chiqadi, har gal qahramon o'limi bilan ular yo'qqa chiqaveradi. Qayta boshdan boylar va kambag'allar paydo bo'ladilar, hokimiyat qudrat egalari qo'lga o'tadi, har doimgi tartib yana barqaror bo'ladi. Bu tasvir orqali roman yozilgan davr uchun jasorat bilan dinning ijtimoiy islohotchilik imkoniyatlari poyoniga yetgani, undan umidvor bo'lish befovdaligi haqida fikr bayon etiladi. Shu bois roman haligacha Misrda alohida kitob shaklida nashr etilgan emas. Xudoning o'limi, bunga tasodifan Arafaning sababchi bo'lib qolishi o'quvchi ongida qiynoqli savollar uyg'otadi. O'z vaqtida xuddi shu masala ustida - boshboshdoqlik va odamlar orasidagi munosabatlarni quyushqonga solib turadigan axloqiy me'yorlar borasida F. Dostoyevskiy qahramonlari ham bosh qotirgan edilar. Ilmning o'zi, inson ongining uni odamlarga xizmat qildirishga bo'lgan qiymati Mahfuz tushunchasida axloq mezonlariga mos emas. Insonning tabiat ustidan hukmron bo'lishi, ilmiy-texnikaviy inqilob adolatli ijtimoiy tartib o'rnatish, odamlarning baxtli yashashini kafolatlash imkoniyatiga ega emas.

Arafaning fojiali taqdiri Mahfuzning ijtimoiy va ma'naviy falsafasini o'zida mujassamlantiradi, uning axloqiy mezonlar, adolat g'oyasini hayotga tadbqiq etish yo'llari haqidagi intilishlarini ifodalaydi. Uningcha unisi ham, bunisi ham albatta xalq manfaatlari bilan bog'liq bo'lishi lozim.

Romanda halq, asosan, passiv rol o'ynaydi, faqat qahramonlar da'vatiga ergashib o'z haq-huquqini himoya qilish uchun kurashga qo'zg'oladi. Asarning har bir bo'limida hikoyachi tilidan aytiladigan ko'cha ahlining «unutuvchanligi», «qahramonlar erishgan natijalarni asray bilmasligi» haqidagi so'zlar xaqorat kabi yangrab turadi. Ammo asarning so'ngida hikoyachi intonatsiyasi o'zgaradi, romanning oxirgi misralari muallifning xalq kuch - irodasiga, aql va adolatning barqaror bo'lishiga bo'lgan ishonchini ifodalaydi.

«Ko'chamiz rivoyatlari» asarida diniy e'tiqodning, dinning tanazzulga yuz tutishi ifodalangan bo'lmasa ham, lekin yakka shaxs hukmronligining ijtimoiy tuzum asosi deb bilish g'oyasi tanqid ostiga olinadi. Bu tanqidning asosida Mahfuzning inson tabiatida mavjud ikki kuch - quyi moddiy va yuksak, ruhiy ibtido haqidagi tasavvuri, uning Misr ijtimoiy hayotiga oid kuzatuvlari yotadi. U o'zining «Fivlar kurashmoqda» romanida tasvirlangan ideal hukmdor obrazi monarxiya tuzumi sharoitida hech qanday voqeiy asosga ega emas edi. Inqilobdan keyingi tuzum, barcha siyosiy partiyalarning taqiqlanishi, jumladan, Mahfuz xayrihoh bo'lgan Vafding ham taqiqlanishi yozuvchi tomonidan yakka hukmdorlik tuzumi sifatida tasvirlangan edi. Hatto Sovet Ittifoqida tanqid ostiga olingan shaxsga sig'inishning fosh etilishi ham yozuvchi diqqatidan chetda qolmadi.

Romandagi xalq manfaatlarini yoddan chiqarmaslik borasidagi chaqiriq bevosita bugungi kunga qaratilgan. Shuni ko'zlab romanda insoniyat tarixiga sayr qilinadi, xayolning g'aroyib sayru-sayohati to'qib chiqariladi, bugungi kunni chuqurroq va asosliroq talqin qilish uchun tarix qa'riga kirib boriladi. Najib Mahfuz o'tmishdan hozirgi zamon bilan, ko'zi oldida bo'layotgan voqealar bilan bahslashish vositasi sifatida foydalanadi. U adolat manbaini xalq timsolida ko'rar ekan, kelajakda ijtimoiy adolatning o'rnatishni xalqni bilimli qilish bilan bog'laydi, bilim xalqni faol ijtimoiy kuchga aylantirishga ishonadi. U ma'lum darajada ma'rifatparvarlik pozitsiyasida turadi, lekin «yorqin kelajak» qachon kelishi haqidagi masala tarixiy planda emas, balki epik usulda, xalq romanlariga xos tarzda talqin etiladi.

«Ko'chamiz rivoyatlari» romanini o'ziga xosligi uning Misr tarixining burilish davrida yaratilgani bilan bog'liq. Keyingi bir necha yil kelajakni belgilab berishi, ijtimoiy taraqqiyot yo'llarini izlash qizg'in siyosiy va mafkuraviy kurashlar muhitida kechganini ko'rsatib berish kerak edi. Bu roman Mahfuzning shu davrgacha to'plagan hayotiy va yozuvchilik tajribasi yakuni sifatida uning 60-yillarda yozilgan yangi turkum romanlarida o'z ifodasini topgan g'oyalar, voqelikka bo'lgan munosabati sarchashmasi bo'lib xizmat qildi.

«O'g'ri va itlar» (1961) «Bedanalar va kuz», «Yo'l» (1964), «Gadoy» (1965), «Nil ustidagi safsata» (1966), «Miramar» (1967) romanlari problematikasi Misrning inqilobdan keyingi davrdagi voqeligi bilan bog'liq. Bu asarlarda yozuvchi yashab turgan jonli, jo'shqin hayot badiiy tadqiq etiladi. Mahfuz «Ko'chamiz rivoyatlari»da chiqargan xulosalarini endi kundalik turmush asosida yana bir sinab ko'radi. U, ayni chog'da, o'zining bu voqelikka, uning kelajak taqdiriga bo'lgan munosabatini aniqlab olishga harakat qiladi.

Barcha rivoyatlar, u yoki bu darajada hayot yo'lini tanlash bilan bog'liq, ularda yo qahramon o'z shaxsiy hayot yo'lini belgilab oladi yoki bo'hronga yo'liqqan, burilish nuqtasini boshdan kechirayotgan jamiyat o'z rivojlanish yo'lini aniqlab oladi. «Ko'chamiz rivoyatlari»dagi vazmin bayon uslubi 60-yillar romanlarida dramatik ziddiyatlarning shiddatli rivoji bilan almashinadi. Bu romanlarda voqealarni bayon etib, izohlab turadigan, personajlar xatti - harakatini baholab turadigan hikoyachi yo'q. Ularda romanga xos qahramonlarning tafakkuri, atrof muhitda, o'z hayotida ro'y berayotgan voqealarni aks ettirish, baholash darajasi yuqori, psixologik, sub'ektiv omilning ahamiyati oshgan. Shuning bilan birga personajlarning shaxsiy tafakkuri jamiyatning ma'lum bir tipik guruhining ongiga mos tasvirlangan bo'lib, qahramon ijtimoiy tip sifatida namoyon bo'ladi. Buning oqibatida hayotiy yo'l tanlash muammosi ham ijtimoiy tus oladi.

Shuningdek, qahramon oldida ko'ndalang bo'lib turadigan axloqiy masala ham dunyoqarash tusini oladi, falsafiy mazmun kasb etadi, inson va parvardigor orasidagi munosabat, tangrining nimaligi masalalarini qamrab oladi. Uchinchi o'lchovning ifodasi bo'lish bu xislatlar romanlardagi timsollar, obrazlar, nomlar, joylarda o'z ifodasini topgan. Bu narsalarga «Ko'chamiz rivoyatlari»dagiga ko'ra ham ko'proq ahamiyat berilgan, chunki bu romanlar fabulasi mavjud voqelik asosiga qurilgan, voqealar hayotdan olingan. Aynan ana shu timsol, ramzlar voqealarning tub, ichki ma'nosini, «nimkosa»sini ifodalaydi.

«O'g'ri va itlar», «Yo'l», shuningdek, «Bedanalar va kuz», «Nil ustidagi safsata» romanlarning ko'p jihatlari shundan dalolat beradiki, Mahfuz utopik sotsializm g'oyalarini amalga oshirish, uning ko'nglini o'rta yurgan e'tiqod va shakkkoklik muammosi borasida

mulohaza yuritar ekan, Dostoyevskiy va Tolstoyini sinchiklab o'qib chiqadi. «Jinoyat va jazo», «Urush va tinchlik» Mahfuz o'spirinlik chog'ida o'qib chiqqan ilk rus klassikasi asarlari edi. Bu asarlar o'sha chog'dayoq uning qalbida chuqur iz qoldirgandi. 1957 yilda Qohirada Dostoyevskiy asarlar to'plami bosilib chiqadi, uni taniqli suriyalik diplomat va adib Sami ad-Drubi fransuz tilidan arab tiliga o'g'irgan edi. Najib Mahfuz buyuk rus romannavisi ijodi bilan chuqurroq tanishish imkoniyatiga ega bo'ldi, Dostoyevskiyning ruhiy izlanishlari yozuvchiga juda ham yaqinligi ma'lum bo'ldi, vatani tarixi uning oldiga qo'ygan savollarga javob topgandek bo'ldi. Gap taqlid ustida emas, balki birinchi navbatda, Dostoyevskiyga xos axloqiy qadriyatlarga suyanish, ayrim obrazlar zamiridagi ramzlar, fabuladagi ba'zibir o'xshashliklar haqida ketmoqda.

«O'g'ri va itlar» syujetini Mahfuz gazetadan olgan edi. Ma'lumki, F. Dostoyevskiy ham chinakam hayotiy dramalarga boy bu syujet manbaidan foydalanib turardi. 1960 yilning mart - aprel oylarida Qohirada chiqadigan «Al-Ahrom» gazetasi o'zining sobiq safdoshlariga qasddan bir necha qotillik sodir qilgan Mahmud Amin Sulaymon ismli kimsaning ishi bo'yicha tergov materiallarini e'lon qiladi.

Romanda detektiv janr xislati yaqqol sezilib turadi. Asar qahramoni - o'g'ri Said Mahran qamoqxonadan chiqgach uni sotgan sobiq safdoshi Ilosh Sidr va o'zining sobiq xotini, Iloshga turmushga chiqqan Nabaviyadan qasd olmoqlikni diliga tugadi. U o'zining g'oyaviy murshidi va ustoz - ilgari kambag'al talaba bo'lib, endi mamlakatda inqilob bo'lgach omadi chopgan jurnalistga, zo'r shaxsiy villa egasiga aylangan Rauf Alvon bilan orani ochiq qilmoqchi bo'ladi.

Asarda Mahfuz nuqtai nazaridan xuddi «Ko'chamiz rivoyatlari»da tasvirlanganidek, umumiy qonuniyatni o'zida aks ettiradigan holat tasvirlanadi, ya'ni hamma narsa yana o'z holiga qaytadi, adolatli ijtimoiy tuzum uchun olib borilgan kurash g'alaba bilan tugagan holda ham, bu g'alaba natijasi o'tkinchi, mulk yana bir hovuch kishilar qo'lida to'planadi, xalq esa qo'lini burniga tiqib qolaveradi. Rauf Alvon qo'zg'olonchi studentdan shaxsiy boylikning o'taketgan himoyachisiga aylangani kabi odamlar ham o'zgaradi, xolos.

Said Mahran oddiy o'g'ri emas, u g'oyaviy o'g'ri. U hali o'spirinlik chog'ida ana shu Rauf Alvon uning diliga boylar mulkini o'g'irlash, toptalgan adolatni tiklash, o'zining o'g'irlangan narsasini qaytarib olishdan o'zga narsa emas, degan g'alat fikrni singdirgan edi. Mahfuz aldangan, xiyonatga uchragan Saidga achinadi. Yozuvchi uni «adolatparvar qaroqchi», xalq adabiyotining an'anaviy obrazi - mard o'g'lon, kambag'allar himoyachisi va boylar dushmani qilib ko'rsatmoqchi bo'ladi. Said o'ch olishni maqsad qilib qo'yar ekan, o'zini haq deb bilish bilan cheklanib qolmaydi, balki o'zini umumxalq manfaati kurashchisidek sezadi. U agar o'zining ana shu qarorini ochiqchasiga amalga oshirsa, odamlar uni qo'llab - quvvatlashlariga ishonadi.

Romanda Said o'z qilmishlariga bergan bunday bahodan tashqari yana bir baho - muallif bahosi ham mavjud. Bu baho muallifning syujet talqinidan, qahramonning hatti-harakati qanday oqibatlarga olib kelishini tasvirlashidan kelib chiqadi. Said o'z dushmanlariga qarata o'q uzar ekan, ikki gal ham adashadi, gunohsiz odamlarning umriga zomin bo'ladi. Bu «tasodifiy» xatolar ortida Mahfuzning axloqiy marrasi sezilib turadi, uning hatto adolat yo'lida ham qon to'kishga qoralishi ma'lum bo'ladi. Bu esa Dostoyevskiy ta'siridan o'zga narsa emas.

Romanda muallif roviy sifatida namoyon bo'lmay, balki matn, asosan, qahramonning ichki monologi shaklida bayon qilingan bo'lsa ham, asar to'qimasida uning irodasi yaqqol bilinib turadi. Said Mahran kirib qolgan boshi berk ko'cha uch nuqta orasida cheklangan. Bular - shayx Gunedining uyi, fohisha ayol Nurning xonasi va Muallim Tarzan qahvaxonasi. Nur o'zining Saidga bo'lgan sadoqati, muhabbati bilan Sonya Marmeladovani (F.Dostoyevskiy) eslatib turadi. Bu uch go'sha muallif tomonidan o'z qahramoniga taklif qilgan najot yo'lini o'zida mujassamlantiradi.

Mahfuz oldingi romanida xulosa qilganidek, din ijtimoiy adolat masalasini hal qila olmaydi. Saidning shayx Gunadi bilan qurgan suhbatlari ikki karning o'zaro so'zlashishiga o'xshaydi. Nurning muhabbati ham Saidning qalbiga taskin bera olmaydi, uni qasos fikridan qaytara olmaydi. U uchinchi yo'lni, eskidan jamiyat siqib chiqargan odamlarga udum bo'lib

qolgan qaroqchilikni tanlaydi. Ammo bu yo‘l ham qaltis bo‘lib chiqadi, uni boshi berk ko‘chaga olib kiradi.

«Ko‘chamiz rivoyatlari» asarida Gabaluining fatvosi bilan harakat qilgan epik qahramonlarning kornomalarini tasvirlar ekan, Mahfuz adolat yo‘lida kuch ishlatish to‘g‘riligi g‘oyasini yoqlab chiqqan edi. Gabal va Qosim olib borgan janglarda daryo - daryo qon to‘kildirdi. Ammo «O‘g‘ri va itlar» asarida real hayot voqeligi haqida so‘z boradi, Mahfuzning zo‘ravonlikka bo‘lgan munosabati ham ancha-muncha o‘zgaradi.

«O‘g‘ri va itlar» asarida kuch ishlatish mavzusi terror shaklida talqin etiladi va bu amal yozuvchi tomonidan adolat uchun olib boriladigan kurashning g‘ayri insoniy va muvaffaqiyatsiz turi sifatida rad etiladi. Mahfuz o‘zining 60 - yillarda yozgan boshqa romanlarida, jumladan «Gadoy»da izchillik bilan «inqilob va poeziya»ni qo‘shib olib borish g‘oyasini ilgari suradi, jamiyatni kuch bilan o‘zgartirish usullariga qat‘iyan qarshi chiqadi. «Xarafishalar epopeyasi»da (1977) esa, qashshoq xarafishalarning hokimiyatga qarshi qo‘zg‘oloni qonli va foydasiz isyon sifatida tasvirlanadi. Bu romanda asotir va voqelik chambarchas bog‘lanib ketadi, insoniyatning butun tarixi esa, har bir odamning taqdiri, muhabbati, g‘azabi, intilishlari va azob - uqubatlari to‘xtatib bo‘lmaydigan, uzluksiz vaqt oqimi sifatida tasvirlangan.

Mahfuzning qahramonlari ilgarigidek qalblari baxt va adolat orzusiga to‘lib - toshib yashaydilar. Ammo bu maqsadga erishish yo‘lini yozuvchi o‘zi bilan olib boradigan doimiy kurashda, inson qalbiga o‘rnashib olgan ikkita asosiy yomonlikda ko‘radi, ularning biri boylikka hirs qo‘yish bo‘lsa, ikkinchisi o‘ziga o‘xshaganlar ustidan hukm yurgizishga intilishdir. Bunday yechim ma‘lum darajada «Yo‘l» romanida, unda amalga oshirilgan inson qalbini, tug‘ma xislatlarini tadqiq etish orqali shakllangan edi. Serqirra mazmunga ega bo‘lgan bu roman bir jinoyatning detektivsimon tarixi sifatida ham, insonning haq yo‘lini qidirishi tarixi sifatida ham tushunilishi mumkin.

Romanning tag ma‘nosini tushunib olish uchun uning personajlari ismining ramziyligidan foydalanish mumkin. Asarning bosh qahramoni Sobirning otasi Said ar-Rahimiy ismida Said - «xo‘jayin» so‘zi ikki bor takrorlanadi, ar-Rahimiy esa Olloh sifatlaridan bo‘lmish - rahmdil so‘zidan olingan. Onasining ismi Buseyma («Tabassumxon») al-Umron («ekmoq», «obod qilmoq», «yerda yashamoq») uning yengil tabiatligiga qo‘shilganda, misrlik adabiy tanqidchi Luis Avad fikricha, qadimgi ilohalardan bo‘lmish Isida, Astartaga, masihiylik dinida tan olingan insoniyatning birinchi onasi Yeva - Momo Havoni eslatadi. Ular esa doimo yengiltabiat qilib tasvirlangan va bularning bari hosildorlik ramzi bo‘lmish ona-zamin obrazi bilan tutashib ketadi. Bundan shunday ma‘no chiqib keladiki, Sobir unga kuch va aql baxshida etgan parvardigorning va yengiltabiat ayolning farzandi bo‘lib, u onasidan oqilona tartib intizomga bo‘ysunmovchilikni, foniylazvatlarga mukkasidan ketish tuyg‘usini meros qilib olgan.

Sobir otasini izlaydi. Uning tasavvurida otasigina unga «baxt, g‘urur, oromlik» bag‘ishlay oladi. Otasini topa olmagan sababli esa u jinoyatga qo‘l uradi. Ilhom uni mustaqilikka, mehnatga undaydi, lekin bu tuyg‘ular Sobirning tuban, moddiyparast tabiatiga begona. Qahramonning ismi - Sobir (sabrli) uning tabiatining teskarisi, osongina boylik orttirish, beg‘am hayot kechirishga intilishiga zid. Ammo inson tabiatidagi ana shu qarama - qarshilik, unda nafaqat tuban, hirsiiy ibtido mavjudligi, balki ruhiy, ilohiiy ibtidoning ham birligi uni Mahfuz nazarida o‘z xatti-harakatlari uchun mas‘ul qilib ko‘rsatadi. Otasi hamisha yoshligini saqlab qolguvchi, faqat muhabbat ilinjida jahongashta bo‘lib yuruvchi (bu barcha insonlarning otasi hisoblangan parvardigor ramzi) millioner ekanini bilgandan so‘ng Sobir hayron bo‘lib o‘ziga o‘zi savol beradi: «U ham xuddi mening o‘zimga o‘xshagan ekan-ku. Shunday ekan, nima uchun otam kayf surib dunyo kezadi, men bo‘lsam qamoqxonada qachon bo‘ynimga arqon solishlarini kutib utirishim kerak?»⁴⁸ U o‘z savoliga shunday javob topadi - otasi o‘g‘illarini o‘ziga teng, kuchli deb biladi va ular yordamga muhtoj emas deb hisoblaydi.

⁴⁸⁴⁸ Нажиб Махфуз. Избранное. М. :1990. С. 17.

Mahfuz «Yo'llar» romanida parvardigor va uning bandalari orasidagi munosabat haqida «Ko'chamiz rivoyatlari»dagidan ham qat'iyroq hukm chiqaradi. U endi inson yuqoridan yordam kutmasligi kerak, o'z qilmishlari uchun o'zi javob beradi, degan xulosaga keladi. «Birovdan umidvor bo'lish befoyda», - Sobir o'zining izlanishlariga shunday yakun yasaydi. Ammo bu inson o'z kuchiga ishonishi kerak emas, o'z qalbida unga madad bo'ladigan kuch qidirishi kerak emas, degan ma'noni bermaydi. Sobir ham xuddi Dostoyevskiyning Raskolnikoviga o'xshab qalbida axloqiy tayanch topa olmaydi, ikki bor qotillik qiladi, bir marta qasddan odam o'ldiradi, ikkinchi qotillik esa, uning o'zi uchun ham kutilmagan holda ro'y beradi. Oqibatda, odamlar tomonidan belgilangan qonunlar asosida mahkum etiladi.

Mahfuz Sobir obrazi orqali xudbinlik, mas'uliyatsizlik, manfaatparastlik, tekinox'rlik, boqimandalik kabi nafaqat alohida shaxslar xarakterida, balki jamiyatda ham uchrab turadigan xislatlarni la'natlaydi.

Bunday axloqiy o'gitlarni ifodalaganida Mahfuz yaratuvchanlikka, ongli ravishda yaxshilikka yo'naltirilgan mehnat insonning eng oliy burchi, degan g'oyaga asoslanadi. Bu yo'ldan borish, uningcha parvardigorning bir zarrasini vujudida saqlab yurgan inson uchun xudoga yaqinlashishdir.

Mahfuzning 60-yillardagi ijodi qahramonlari tanlagan yo'llar jamiyatda ham aks sado berib turar, uning bugungi kuni, ertasini o'zida mujassamlantirar edi. Ayni paytda «Ko'chamiz rivoyatlari»da baralla jaranglagan xalq taqdiri mavzusi asta - sekin so'nib, ijtimoiy g'oyalar axloqiy mavzular ichiga singib boradi. «Miramar pansioni» asarida esa miliy mavzu birinchi planga chiqadi, Misr taqdiri muallifning diqqat markazidan joy oladi. Misr esa, 30 - yillar nasri an'analariga mos holda navqiron va go'zal qiz siymosida gavdalanadi.

Mavzuning bunday evrilishi 60 - yillarda yuzaga kelgan ijtimoiy muhitdagi o'zgarishlar bilan bog'liq edi. Bu vaqtda demokratik tamoyillar tobora ko'proq «milliylik», «islomiy sotsializm» g'oyalari bosimi ostida chekinmoqda edi. Jamiyat tafakkuridagi bunday o'zgarishlar Mahfuzning kayfiyatiga ham mos tushar edi.

«Miramar»da tanlash imkoniyati chipakka chiqqan, hamma yo'l boshi berk ko'chaga olib kiradigan bo'lib chiqadi. Mahfuz o'zining go'zal qahramoniga yoshi o'tgan, ilgari «Vafd» firqasi a'zosi bo'lgan vatanparvar jurnalistdan bo'lak birorta haqiqatgo'y, sodiq juft topa olmaydi. Faqatgina milliy ruhning o'chmasligiga, millat kuchining cheksizligiga bo'lgan ishonchigina unga kelajak yo'lidagi qiyinchiliklarni yengib o'tishda kuch bag'ishlaydi.

Misrning 1967 yildagi arab - isroil urushida mag'lub bo'lishi Mahfuz uchun dahshatli fojeaga aylandi. Bundan keyin o'tgan bir necha yil uning hayotidagi eng og'ir davr bo'ldi. Bu yillar davomida tanqidchilar uning hikoyalarida paydo bo'lgan mavhum va ko'ngilsiz ramzlarni talqin qilish ustida behuda bosh qotirar edilar.

Ko'pchilik hatto yozuvchining ijodiy imkoniyatlari tugagani, aytadiganini aytib bo'lgani borasida gapira boshladilar. Ammo bu bashoratlarga qarama-qarshi Mahfuz tushkunlik davrini ortda qoldirdi, romannavislikka qaytdi va «Oynalar» (1972), «Muhtaram janob» (1975), «Xarafishalar epopeyasi» (1977), «Ming bir kecha tunlari» (1982) kabi asarlarni yaratib, so'lmas iste'dodini namoyish etdi.

Mahfuz so'nggi yillarda an'anaviy arab voqeaband asarlari shakllariga qayta-qayta murojaat etib, ularning imkoniyatlaridan chin ma'nodagi arab romanini, g'arbnikiga o'xshamagan, arab milliy madaniyatining bor latofatini yangidan jonlantirishga harakat qilmoqda.

«Ko'chamiz rivoyatlari»da - arab xalq romani - siralar shaklini sinab ko'rganidan so'ng «Oynalar» asarini o'rta asr manoqiblari shaklida yaratadi. «Ming bir kecha tunlari»da esa u Shahrizoda - ertaklarini davom ettiradi, asar to'qimasiga ko'plab ajoyibotlarni, mo'jizaviy evrilishlarni, ifritlar nayranglarini kiritadi. «Ibn Fatuma sayohati»da u rihla janriga qayta jon bag'ishlaydi - dengiz orti yurtlari sayohatlarini tasvirlaydi. Asar qahramoni parvardigor va'da qilgan mamlakatni so'roqlab umrini safarda o'tkazadi, har xil mamlakatlar xalqlarining udumlarini o'z mamlakati bilan solishtiradi, bu udumlardan bizga zamondosh mamlakatlar yaqqol tanilib turadi.

Bugungi kunda - ko'p mamlakatlar yozuvchilari madaniy merosga, o'tmish qadriyatlariga murojaat etmoqdalar, ulardan judo bo'lib qolish masalasini ko'tarmoqdalar. Bir tomondan individualizm targ'iboti kuchayib borayotgan, ikkinchi yoqdan ommaviy, o'rtamiyona madaniyat tazyiqi kuchayib borayotgan bir sharoitda bu xavf tobora ortib bormoqda. Shu sababdan Mahfuz g'oyalari hozirgi zamon uchun o'ta dolzarb bo'lib yangramoqda. U «an'anaviy» axloqiy qadriyatlarni yoqlab chiqish orqali universalikka yo'l ochadi, chunki bu qadriyatlar umuminsoniy xislatga egadir. Mahfuzning an'anaviy asotiriy-poetik obrazlari hamma zamonlar odami uchun xos bo'lgan ideal, barkamollik, uyg'unlikka intilishni o'zida mujassamlantiradi. Hayot yaqin idealga yetishish umidini puchga chiqarganida yozuvchi barhayot orzu - umidlariga murojaat qiladi, ajdodlar idealidan qalb qo'ri qidiradi, ularning gumanistik, hayotbaxsh asotirlaridan, afsonalaridan quvvat oladi. Shu yo'l bilan u orzularni uzoqroq masofaga harakatlantiradi, ammo ularning butunlay hayotni tark etishiga yo'l qo'ymaydi.

MISRDAGI «YANGI MAVJ» ADABIYOTI (1960-70 - yillar)

Misr adabiyotida 1950 yillarda, bu mamlakat tanqidchilari tili bilan aytganda, «mopassancha-chexovcha» realistik novella yetakchi o'rinni egallagan edi. Mahmud Teymur, aka-uka Ubaydlar, Mahmud Lashin, Abdurrahmon ash-Sharqoviy, Nu'mon Ashur, Yusuf Idris va boshqalar ana shu janrda ijod qildilar. 60 - yillardan esa adabiyotda yangi, norealistik tamoyil ko'zga tashlana boshladi. Realizmdan chekinishning ilk belgilari dastlab keksa avlod yozuvchilari ijodida namoyon bo'ldi. N. Mahfuz va Yu. Idris novellalari ham 60-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab o'zining realistik belgilarini yo'qota bordi, bir vaqtning o'zida ramziylik, abstraksionizm va naturalizm xislatlarini o'zida mujassamlantirib bordi.

Bir guruh yosh novellistlar 1965 yilda adabiyotda yangi oqim vujudga kelganini e'lon qildilar. Oqim tarkibi bir xil emasdi. Ularni Misr adabiyotining ilgarigi yutuqlariga salbiy munosabat va badiiy ijodda shaklga ko'proq ahamiyat berish kabi xislatlar birlashtirib turar edi.

Yosh ijodkorlarning ilgarigi adabiyot yutuqlarini rad etishi ko'proq keksa avlod adiblarining ilk ijodida targ'ib etilgan ijtimoiy g'oyalarga ishonmaslik oqibatida kelib chiqqan edi. Kelajak ijtimoiy taraqqiyotga bo'lgan ishonchsizlik ular asarlarida qora bo'yoqlar, pessimistik ruhning paydo bo'lishiga olib keldi. Ular endi ijtimoiy mavzulardan uzoqlashib, o'zlarining sub'ektiv kechinmalarini tasvirlashga tutindilar. Yu. Idrisning «Dard tili» novellasi, «Zaminiy komediya» pesasi, N. Mahfuzning «Gado», «Nil ustidan safsata» romanlari shunday asarlar jumlasiga kiradi.

Tanqidchilar «Yangi mavj» yozuvchilari ijodini turlicha baholaydilar. Gali Shukri yozadi: «Arab dunyosi tarixning boshi berk ko'chasiga kirib qoldi. Bunday holatda ba'zi yozuvchilardan mavhumlik, tushunarsizlik, murakkablik deb atalgan xususiyatlardan voz kechishni talab qilish, ehtimol, nafaqat adabiyotga nisbatan, balki insonga nisbatan ham xiyonat bo'lar edi».⁴⁹

Tanqidchining bu xulosasi yozuvchini uning grajdanlik vazifasidan ozod etibgina qolmay, balki ijtimoiy munosabatlarni tasvirlashga bo'lgan har qanday istakni adabiyotga, san'atga nisbatan xiyonat deb talqin etadi.

Sabri Hofiz, G'olib Xalsa kabi bir guruh tanqidchilar adabiyotda yuzaga kelgan yangilanish tamoyilini qo'llab-quvvatlasalar ham, ammo yosh ijodkorlarni shaklbozlikka berilib ketishdan, G'arbga mukkasidan ketib taqlid qilishdan ogohlantirar, bu yo'l obrazlarning deformatsiyalanishi, tusini yo'qotishga olib kelishi mumkinligini uqtirar edilar.

«Yangi mavj» oqimining eng ashaddiy modernistik qanotiga xayrxoh bo'lgan tanqidchilar, odatda, realizmga xufiyona yoki ochiqchasiga dushmanlik ko'zi bilan qarashar, uni ma'lum bir siyosiy yo'nalish bilan bir narsa deb talqin etishar edi. Ular realizmni

⁴⁹ Идеологическая борьба и современные литературы зарубежного Востока. М. :1989. С. 21.

«suratkashlikda», teranlikning yetishmasligida, mavzularning «siyqa»ligida, inson qalbiga e'tiborsizlikda ayblashardi. Abu al-Hamid Ibrohim 40 - yillarda realizm hamma yoqni egallab olgani haqida yozarkan, Edvard Xarrat «uzoq yillar davomida uning xarsangtoshlari orasidan o'ziga yo'l ochib borishga majbur bo'lgani, ana shundan keyingina hayotning absurd, ma'nosiz ekani haqida ayta olganini ta'kidlaydi.

Misr novellistikasining 60-yillardagi asosiy ijodkorlari Gamal al-G'itoni, Muhammad al-Bustoni, Diya ash-Sharqovi, Muhammad Hofiz Rag'ab, Baho Tohir, Muhammad Ibrohim Mabruk va boshqalar edilar. Ularning ko'pchiligi ingliz tilini bilishar, Sartr, Joys kabilardan iqtiboslar qilishardi. Ko'p hollarda ular biror bir adabiy oqim, hatto san'atning boshqa turlaridan tasvir vositalarni olib ishlatishar edi. Masalan, Hasan Muqosib, Abdulhokim Qosim hikoyalari voqealarning kinodagidek kadrlar shaklida tasvirlanishi, Magid Tabia asarlarida matnda boshqa hafrlar bilan ajratib ko'rsatiladigan chekinishlar qilingani bunga dalil bo'la oladi. Bu turdagi asarlarda zamon ketma - ketligini buzib tasvirlanadi, har xil ramzlar keng qo'llaniladi, voqelik va tush, chin voqealar va ro'yolar omixta holda bayon etiladi, absurd holatlar chiziladi.

Odamlarning parokandaligi, bir - biridan begonaligi mavzusi 60 - yillar novellistikasida asosiy o'rinlardan birini egalladi, vaqolanki Misr adabiyotining oldingi o'n yilliklari davomida qahramonlar odamlarga mehribon, ko'ngli ochiq qilib tasvirlanar edi.

«Yangi mavj» ikki qanotdan iborat edi. Uning birinchi qanoti realistik bo'lib, 50 - yillar realizmidan o'zining tasvir vositalari jihatidan farqlanar edi. Ikkinchi qanot esa, norealistik, Yevropaning syurrealizmiga yaqin, lekin o'zining bir qator milliy xususiyatlariga ega edi.

MUHAMMAD HOFIZ RAG'AB

Muhammad Hofiz Rag'ab ma'lum bir muddat davomida yangicha ijod qila boshlagan yosh yozuvchilarning yetakchisi hisoblangan edi. U o'z safdoshlarini «ustozsiz avlod» deb atadi va shu bilan o'z salaflaridan yuz o'girgani, novatorligini ochiq e'lon qildi.

Muhammad Hofiz Rag'ab 1935 yilda Aleksandriyada kambag'al oilada tug'ildi. U ko'chada gazeta sotuvchi bo'lib yurganida o'qish - yozishni o'rgandi, lekin muntazam ma'lumot olishga muvaffaq bo'lmadi.

Rag'abning ilk hikoyalari «yangi realistlar» maktabi an'analarida yozilgan. Uning qahramonlari - arziyas chaqalar hisobiga hayot kechiradigan qashshoqlar («Oxirgi piast», 1956), vatan himoyachilari («Yer va qon», 1956), irqchilik azobini chekayotgan Amerika va Afrika qora tanlilari («Qora sirtmoq», 1954). Ular halol, pok, odamshavanda, muallif xayrixohligi bilan tasvirlangan kishilardir. Ularning badbaxtliklari, fojealari esa, ijtimoiy, siyosiy sabablar, adolatsiz ijtimoiy munosabatlar tufayli yuzaga kelgan. Bu kulfatlar sababi, manbalarining ko'pligi Rag'ab qahramonlari siymosini murakkablashtirib boradi. Ammo Rag'ab inson hayotini qiyinlashtirib izdan chiqaradigan yomonlik ildizlari behisob ekanligini, ular faqatgina ijtimoiy hayot muammolari bilan cheklanib qolmasligini tushunib borar ekan, bu kulfatlarning turlarini aniqlashga kirishgandek, go'yo ularning ro'yxatini tuzayotgandek bo'ladi. Bu ro'yxatda ikki jadval bo'lib, uning biriga kulfatlarning inson shaxsidan tashqari turadigan sabablari, ikkinchisiga botiniy sabablar kiritiladi.

Yozuvchi talqinicha, hamma narsa inson baxtsizliklari sababi bo'lishi mumkin - uning qashshoqligi, jismoniy kamchiligi, irodasi bo'shligi, hayotda o'z o'rnini topishga harakat qilishi, baxtsiz tasodif va hokazolar. Kulfatlarning ijtimoiy ildizini tadqiq etishda Rag'ab tomonidan ularning birortasini ajratib ko'rsatmaslik uning «yangi realistlar» estetikasidan afzallik tomonini ko'rsatadi.

Rag'abning «Yungli barmoqlar» (1965) hikoyasi yangi eksperimental uslubda ijod qilingan. Agar unda tasvirlangan voqealar tabiiy ketma-ketlikda tizib chiqilsa, haqiqiy hayotiy syujet kelib chiqadi - o'zining ulg'ayib qolgan o'g'lidan ajralgan ayol (bolani tramvay bosib ketgan edi) erini tashlab boshqa turmushga chiqib ketadi. Buning sababi - oldingi eri falokat tufayli shunchalik iztirob chekadiki, buning oqibatida u xotinidan sovib ketadi. Bu syujet chizig'i zamon jihatidan shunchalik kesib - bukib tashlangan va g'alati majoziy obrazlar uyumiga ko'mib yuborilganki, natijada bu jo'ngina hayotiy voqea syurrealistik tus olgan.

Hikoya ayol katmonchasi tasviridan boshlanadi. Unda upadon va lab bo'yog'ining yoniga divan qo'yib qo'yilgan, divan ustida hikoya qahramoni bo'lmish ayol yastanib yotibdi. Bularning barchasi yangi er Xannaga muhayyo qilgan farog'atni o'zida mujassamlantiradi. O'zining birinchi erini eslaganida Xanna «bosh suyagining ichi bo'sh odamni ko'radi. Tramvay g'ildiraklari uning yuzini bosib o'tib basharasini qiyshaytirib yuborgan, ko'r tramvaychi karnaychasini qattiq chalganida esa, devor qulab bolani bosib qoladi.

Ba'zan uning obrazlari asosida qoliplangan ramzlar yotadi. Bola qoni - joni bilan ota - onasining mevasi. Shuning uchun ham Xanna o'g'li halok bo'lishini oldindan sezib, tevarak atrofga, yerga o'z qoni sachraganini ko'radi, uning eri Mahrus esa, oyog'iga bir parcha o'z go'shti yopishib qolganini his etadi. Shunday qilib, ko'chada yuz bergan real voqea qandaydir mistik qobiqqa o'raladi, jahoniy adolatsizlik, «jahoniy yomonlik» zuhuri sifatida talqin etiladi. Bu yomonlikning ildizi esa, harbi - yugurdak bolani pivoga yuborgan xo'jayinlar bo'lib chiqadi.

O'zining bu birinchi eksperimental hikoyasida Rag'ab dunyoni yomonlik timsoli sifatida tasvirlar ekan, o'zining fikrlarini didaktik usulda ochiqdan - ochiq izohlab ham boradi. Uningcha, inson dunyoga singib ketgan bir gard xolos. U issiqlikka, shu'laga, iliq so'zga qarab intiladi, ammo hech qaerda ularni topa olmaydi, chunki u ham boshqa odamlar - gardlar kabi o'z hayotiy orbitasida aylanib yura beradi.

«To'p va odamning kallasi» hikoyasida yozuvchi mavzuni to'la - to'kis shartli vositalar bilan ifodalash usulini sinovdan o'tkazadi. Unda futbol to'pi manzarasini chizish orqali yozuvchi «non va tomosha» ilinjida hayot kechiradigan olomon insoniy qadriyatlarni inkor qilishini tasvirlaydi.

Hikoya qahramoni o'quvchisi yo'qligi tufayli kasodga uchragan gazetaning mayda xizmatchisi tomoshabinlar e'tiborini o'ziga qaratmoqchi bo'ladi, ammo bundan foyda chiqmaydi. U tomoshabinlar nigohida sevib ko'rayotgan hangomalaridan chalg'itgani tufayli qahr va g'azabni ko'radi, xolos. Umidsizlikka tushgan qahramon ularga o'z boshini futbol to'pi qilib tepishni taklif etadi, odamlarni uning kallasi futbol to'pidan kam emasligi, diqqatga molik ekanligiga ishontirmoqchi bo'ladi. O'zining haqligini isbotlash uchun u boshiga tushayotgan butsa tepkilariga bardosh beradi, darz ketgan bosh chanog'idan o'qigan kitoblarining varaqlari sochilib chiqayotganini ko'rib dahshatga tushadi. Ammo berilgan bu qurbonlik ham foydasiz bo'lib chiqadi. Shunday bo'lsa ham, qahramonning o'taketgan befarqlikka qarshi o'zini qurbon qilishi bu hikoyani Rag'ab ijodidagi eng yaxshi asarlar qatoriga qo'yadi.

Aslida, faol qarshilik, o'zini qurbon qilishga hozirlik Rag'ab personajlariga xos xislat emas. Adib qahramonlari isyonining chalakam-chattiligi, intilishlarining ziddiyatligi, ayniqsa, «M»ning zerikarli sarguzashtlari» hikoyasida yaqqol ko'rinadi. Bu asar ma'lum ma'noda biografik bo'lsa ham, unda voqealar real faktlardan uzoqlashtirilgan, majoziy ma'no bag'ishlangan tarzda tasvirlanadi.

Hikoya qahramoni do'kondor otasiga qarshi isyon qiladi. U ozod bo'lishni, «boshi berk ko'chadan» tashqariga chiqishni istaydi. Otasini o'ldirib «ular» oldiga, «S» nomli yozuvchi huzuriga boradi, unga o'zining «odamlarga yaxshi xizmat qilishi mumkin bo'lgan so'zamol tilini» taklif qiladi. Ammo yozuvchi «S» faqatgina «M» o'z bobosining boshini olib kelsa, uni ishga olishga rozi bo'ladi. «M» bunga jur'at etmaydi va boshqa «taniqli» yozuvchilar huzuriga ish qidirib boradi. «G» ismli yozuvchi uning tilini qirqib qo'yadi va «M» soqov bo'lib qoladi. U «atoqli»lar orasida o'ziga nisbatan qiziqish va tushunishni ko'rmaydi. «M»ga Gorkiy shuhratini va'da qiladilar, «M»ning o'zi ham Gorkiyga o'xshashni istaydi, u bilan o'zini qon-qardosh sezadi. Ayni vaqtda u «e'tiborli»larni tan olmaydi. Shunday qilib, savdo do'koni, ko'kragiga sanchilgan pichoq bilan ko'milmay yotgan otasi jasadi qolgan o'tmish va hamma narsa mavhum bo'lgan, u o'zini yolg'iz, boshi berk ko'chaga kirgandek sezadigan hozir orasida arosatda qoladi, talvasaga tushadi.

Rag'ab asarlaridagi adabiy qahramonning hayotdagi muqobilini topish, 60 - yillardagi Misr mayda burjua ziyolisining psixologik qiyofasini uning freydizm va ekzistensializmning mashhur qoidalariga mos ravishda amalga oshirilgan nazariy va falsafiy talqinida ko'rish g'oyatda mushkul. Shunday bo'lsa ham, Rag'ab, shubhasiz, yosh ziyolilar tafakkuridagi asosiy

ziddiyatni, ularning an'anaviy qadriyatlarga qarshi yo'naltirilgan e'tirozining anarxistlarcha noizchilligini va bu hol ularning «yetim» bo'lib qolishdan, patriarxal o'tmishdan keskin yuz o'girishdan qo'rqqanlari oqibatida yuz berganini to'g'ri ilg'ab olgan edi.

Anchagina vaqt o'tgandan so'ng chiqqan «Qaynab turgan choynakda yashovchilar» (1979) nomli uchinchi hikoyalar to'plamida ham Muhammad Hofiz Rag'ab ilgari tanlagan yo'lga sodiq qoladi, g'alati mavjudotlar yashaydigan fantastik, mantiqsiz dunyo manzaralarini chizadi.

As-Said al-Varaqiyning fikricha, Rag'ab taxayyullarining o'tkirligi, o'quvchi qalbida o'zining g'alati qahramonlariga nisbatan xayrixohlik tuyg'usini uyg'ota olish iste'dodi, qanday bo'lmasin, o'quvchiga muallif munosabatini ilg'ab olish imkoniyatini qoldirishi nuqtai nazaridan uning ijodi Ibrohim Aslan, Muhammad Ibrohim Mabruk, Muhammad as-Savi kabi sun'iylik va uslubpardoqlikka berilgan ko'pchilik payravlaridan afzal ekanini ko'rsatib turadi.

GAMAL AL-GITANI

Adib 1945 yilda tug'ildi, 1963 yildan asarlari chiqa boshladi. Tanqidchi Farrux Abdulqodirning aytishicha, u 1967 yildan so'ng, bevosita uning ta'sirida yozuvchi sifatida tug'iladi: Gitaning birinchi to'plami birinchi betidagi birinchi so'z "mag'lubiyat" edi. Undagi hamma narsa shundan boshlanadi va shunga qaytadi.⁵⁰

Mag'lubiyat butun 60-yillardagi Misr adabiyotida o'z izini qoldirdi, arablarning umumiy kayfiyati, milliy o'zini anglashi, o'tmish va hozirgi zamon muammolariga bo'lgan yondashuvlariga ta'sir ko'rsatdi. Bu hayajonli savollarga javob topish uchun u adabiyot tarixiga, o'rta asr arab madaniy merosiga murojaat etdi.

Gamal al-Gitanida o'rta asrlar tarixiga qiziqish uyg'onishiga uning hayoti, ma'naviy shakllanishi omillari ham ta'sir ko'rsatdi. Al-Huseyna qishlog'ida tug'ilgan adib bolaligi va o'smirlik yillarini Qohiraning kambag'allar yashaydigan mahalalaridan biri Gamaliyada o'tkazdi. Uning ko'pgina hikoyalari voqealari ham ana shu Gamaliyada va uning yonginasidagi hazrat Husayn machiti joylashgan Husayniy mahallasida bo'lib o'tadi. U al-Jabarti, ibn Vosil, Jo'rji Zaydon va boshqalarning tarixiy asarlari bilan yaxshi tanish edi.

Yevropa adabiyotidan Gitani L.Tolstoy, G.Mopassan, M.Gorkiy, E.Xemingueyni alohida hurmat qilar, arab yozuvchilaridan esa o'zining "Trilogiya"sida Gamaliya mahallasini tasvirlagan Najib Mahfuzni afzal ko'rar edi. Gamal al-Gitani misrlik mualliflardan ko'ra asarlari arab tiliga tarjima qilingan Yevropa adiblarini yaxshiroq bilardi, Joysning Mahmud Taha o'n sakkiz yilda tarjima qilgan "Uliss" asarini arab madaniyatida yuzaga kelgan eng buyuk voqea sanardi.

Gamal al-Gitani boshlang'ich maktabdan so'ng gilam to'qish bilim yurtini tugatdi. 1967-1969 yillarda Xan al-Xalil hunarmandlar kooperativining kotibi bo'lib ishladi. Ammo ungacha qamoq azobini chekdi. Uni o'sha davrda odat tusiga kirgan "ayb" - kommunistik faoliyat uchun qamagan edilar. U 1969 yilda "Al-Axbor" gazetasiga ishga kirib, bir necha yil davomida harbiy muxbir vazifasini bajaradi.

Shunday qilib, Gitanining adabiy didi, uslubi turli xislatga ega bo'lgan, bir - biriga mos tushmaydigan omillar ta'sirida shakllandi. Shuning uchun ham u "yangi mavj" adiblari novellistikasida yetakchi o'rin egallagan tarixiy material, bevosita voqelikdan olingan taasurotlarni yaxlit holda tasvirlashning yagona yo'lini kollaj uslubida ko'rgan bo'lsa ajab emas.

"Ming yil oldin yashagan o'spirin yozuvlari" hikoyasida roviy bugungi, aniqrog'i 1967 yil iyuni voqealariga kelajakdan turib, bundan ming yil keyin yashab, zamondoshi yozuvlarini topib olgan odam nigohi bilan qaraydi, mamlakat mag'lubiyatidan chuqur iztirobga tushgan yuqori Misr shaharchasida yashaydigan o'spirin o'zini anduh va tanholik girdobida sezadi, ichkilik ustida "xalq orasiga kirish lozim"ligi haqida safsata sotib yurgan tengdoshlarini o'zidan begona biladi. O'rtoqlaridan biri Suvaysh kanali frontiga jo'nab ketayotganini eshitib, u ham zavq-shavq bilan unga taqlid qilgisi keladi.

⁵⁰ Кирпиченко В.Н. Современная египетская проза 60-70-х годов. М., 1986.С.173.

"Yozuvlar" qahramonning shunga o'xshagan uzuq - yuluq yozuvlari kollajidan iborat. Ularning ichida Misrning birinchi milliy kompozitori Sayid Darvishning vatanparvarlik ruhidagi qo'shig'i, mashhur xonanda Umm Kulsumning lirik qo'shig'i, qadimgi Misr obidalaridan bo'lmish "Ra xudosiga Iziraning shikoyati" matnidan bir parcha, Qur'on oyati, 1967 yildagi voqealar haqida gazeta xabarlar ham bor. Bu parchalarni faqat bir narsa - qahramonning ichki dunyosi, tafakkuri, jo'shqin vatanparvarlik tuyg'ulari birlashtirib turadi. Hayotga endi qadam quyayotgan o'spirin obrazi ko'p hollarda boshqa bir obraz bilan to'qnash keladi. Bu uzoq hayot yo'lini bosib o'tgan, boy turmush tajribasi va bilim sohibi bo'lgan ustoz - donishmand shayx Alouddin, tarixchi Ibn Iyos, parhezgor shayx Ibn Salom, "G'oyib mahdiy" obrazlaridir ("Davriy jarchisi").

Ibn Salomning boshi sulton al-G'uziyning sobiq muhtasibiga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olonga boshchilik qilgani uchun kundada chopildi. Ammo Ibn Salom har bir asrda qayta tug'ilish qudratiga ega - xalq orasida shunday gap bor.

Hikoyada ustoz - shogird mavzusi keng qamrovga ega bo'lgan e'tiqod va dahriylikning bir qirrasini sifatida aks ettiriladi. Ayni paytda diniy e'tiqod, Mahdiyning kelishiga ishonch asarda ezgulik va adolatga bo'lgan ijtimoiy idealning pirovard natijada g'alaba qozonishiga bo'lgan ishonch sifatida talqin etiladi. G'oyib bo'lgan imom yurt kezadi, hamma joyda odamlarga ko'rinish beradi, u hamma narsani bilguvchidir. U yashirinib yurishga majbur, chunki dushmanlar uni ta'qib qiladilar. Ammo sodiq muridlari doimo unga hamrohlik qiladilar, nihoyat bir kun "adolat" g'olib kelishiga ishonadilar.

Muallif "adolat" tushunchasiga juda keng ma'no yuklaydi: u ona vatanni tashqi dushmandan ozod qilishni ham, kambag'allarni nochorlik va zulmdan qutqarishni ham, qahramonning shaxsiy orzulari - baxtli sevgisining ro'yobga chiqishini ham, boshqa yana ko'p narsalarni ham qamrab oladi.

"Davriy jarchisi" qandaydir umumiy uyg'unlik, ezgulikning ideal hukmronligi sifatida tushuniladi, u eshik qoqib turibdi, lekin har gal bu umidlar puchga chiqaveradi. Xalq qayta - qayta urushlardan, hukmdorlar zulmidan azob chekaveradi, qahramonning baxtli sevgiga bo'lgan umidi so'nib boraveradi, u yaqinlaridan judo bo'ladi, qalbida yangrab turgan imom tovushi o'chib qoladi.

Hikoya qahramoni Sami bizning zamondoshimiz. Sami o'spirinlik davrida, o'zini baxtiyor sezib, kelajakka umid bilan qarab yashagan kunlarida uchratgan imom uzoq yillar davomida uning ideali bo'lgan edi. Sami unga hamrohlik qilar va uni dushmanlardan asrashga harakat qilar edi. Mana endi imom g'oyib bo'ldi. Sami uning qaerdaligini, unga biror xavf, tahdid solyaptimi - yo'qmi, bilmaydi.

Hikoyaning majozga asoslangani uni tushunishni qiyinlashtiradi. Unda har xil bayon turidan foydalanilgan: o'tmish xotiralari hozirgi, ko'pincha o'tkinchi taasurotlar bilan qorishib ketadi. Imomning g'oyib bo'lishi odamning diniy e'tiqoddan mosuvo bo'lgani ma'nosida ham tushunilishi mumkin, ijtimoiy idealning puchga chiqishi yoki insonlarning shaxsiy baxtli hayotga bo'lgan umidlarining chilparchin bo'lishi ma'nosida anglanishi ham mumkin. Gitani hikoyalarida ustoz, shogird, keksaygan ona, yetishib bo'lmas sevgili obrazlaridan tashqari doimiy ravishda avliyo Husayn machitini buzmoqchi bo'lgan dushmanlar xurujini qaytarishga bel bog'lagan devona obrazi mavjud bo'ladi. Avliyo Husayn machiti Gitani hikoyalarida xavf - xatar girdobida qolgan Misr ramzi vazifasini bajaradi. Xudoning uyini qo'riqlagan devona esa e'tiqod darajasida tushunilgan vatanparvarlik tuyg'usi ramzi sifatida anglanadi.

Gitani ijodidagi "tarixiylik" o'ziga xos. Tarixga murojaat etganda u faktlarni o'tmish manzarasini qayta jonlashtirish uchun emas, balki ko'proq bugungi kun bilan solishtirish uchun keltiradi. U bugungi muammolarning, XX asr ikkinchi yarmida yashayotgan misrliklar tafakkurining ildizlarini qidiradi. 1517 yilda usmonli turklar istilosiga uchragan Misr siymosida olti kunlik urushda Isroil tomonidan mag'lub etilgan Misr aks etadi. Bu ikki Misr o'zaro ko'rinmas rishtalar bilan bog'langan, necha asrlar muqaddam yashagan o'spirin esa bugungi yosh misrlik ziyolini boshi berk ko'chaga kiritib qo'ygan muammolarining yechimini qidiradi.

Gitani ko'pgina maqola va intervyularida o'zining tarix, uni tushunish borasidagi fikrlarini bayon etadi. "Tarix bu vaqtdir... Insoniyatning barcha harakatlari tarixni, har bir insonning taqdirini qamrab oladigan umumiy oqimni tashkil etadi. Bu voqealar umumiydir, kelajak daqiqalar hozirga ham aloqador. O'tmish ayni paytda kelajak hamdir. Men faqat to'xtovsiz, abadiy davom etadigan vaqt oqimini tuyaman, xolos".⁵¹

Gamal al-Gitanining adabiy ideali Najib Mahfuz idealiga xos xislatlar vorisidir. Bu, eng avvalo, ularning axloqiy xislatlarida namoyon bo'ladi: Gitani qahramonlari yuksak, axloqiy pok, yaxshilikka intiluvchi hamda tuban, manfaatparast, ma'naviyatsizga bo'linadi. Ikkinchidan, ularning maqsadi xalqqa, mamlakatga, Misrga xizmat qilishdir. Ammo Gitani parvardigor o'z xilqatiga bag'ishlagan buyuk in'om - aqlni insonning oliy xislati deb bilishdan yiroq. Inson shaxsida u aqlni emas, balki tuyg'uni asosiy narsa sanaydi. Uning ijobiy qahramoni romantiklashtirilgan - u hissiyotga berilgan, jo'shqin, devonasifat, vatan uchun, bechora va baxtiqarolar uchun o'zini qurbon qilishga tayyor.

Gitanining Mahfuzga yaqinligi uning novellalari tarkibining notekisligida - bugungi kunni teranroq tushunish uchun o'tmishga sho'ng'ishida ham namoyon bo'ladi.

Gitanining tarixiy konsepsiyasida shaxsiyat asosiy o'rinni egallaydi. Jafokash va mazlum xalq uning ijodida passiv, mustaqil rol o'ynamaydi.

Gitanining harbiy hikoyalari qahramoni o'sha "O'spirin yozuvlari"dagi o'spirin, ammo u endi urush sharoitiga ko'chirilgan, harbiy muxbir, ofiser. ("So'zamol jangchi shikoyatlari", "Kofirlarga qarshi urush", "Ta'til - 72" va b.)

Hikoyalarning bosh mavzusi - frontni front ortiga qarshi qo'yish. Front va front orti orasidagi farq, falloh jangchilar to'dasi va idoralarni egallab olgan burjua byurokratlari o'rtasida birlikning yo'qligi yozuvchida dramatik tuyg'ular uyg'otadi. Millatning ichki parchalanishi, yuqori martabali amaldorlarning askarlar ehtiyojiga irganib, befarqlik bilan qarashi tashqi dushman qarshisida zaiflikni keltirib chiqaradi. Harbiy hikoyalar qahramonlarining mushohadalardan kelib chiqadigan ma'no shu.

Hikoyalar tuzilishi, asosan, eskicha, kompozisiyaning o'zagini voqelikdan olingan taasurotlar hamda xotiralar va o'y-andishalar chatishib ketgan monolog tashkil etadi.

Misr adabiyotida 50-60 - yillarda boshlangan "yangi mavj", Misr nasrining voqelikni ziyolilar dunyoqarashida ro'y bergan o'zgarishlar sababli yangi ideologik va estetik asoslarga ko'ra izohlashga yuz burishi novellistikada yangi shakllarni yuzaga keltirdi. Ilgari hukm surgan obrazlardagi oddiylilik, tabiiylilik, voqelikka moslik xislatlari ijodiy taxayyul erkinligi, borliqni tafakkurning nozik o'yinlariga mos holda qayta jonlashtirish prinsipi tomonidan siqib chiqarildi. "Yangi mavj" novellistlari ko'proq shaxsning ichki dunyosi, hissiyotlariga diqqatni qaratdilar, shaxsni ko'pincha ijtimoiy muhitdan ajratib olgan holda, ijtimoiy voqelik munosabatlariga kiritmasdan tasvirlay boshladilar.

Inson haqidagi yangi tasavvurning shakllanishida Yevropa modernistik adabiyoti, Z.Freydning anglanmagan psixologik faoliyat borasidagi, Roje Baradining estetik qarashlari asosiy rol o'ynadi. 60 - yillarda arab tiliga J. - P.Sartr, A.Kamyu, J.Joys, S.Bennetning qator nasriy va dramatik asarlari tarjima qilindi.

Yevropa modernizm g'oyalari va badiiy prinsiplarining Misr san'atida tez sur'atlar bilan yoyilishi "yangi realizm" tarafdorlari (Mahmud Amin al - Alim, Abdurahmon al-Xamisiy) hamda u yoki bu darajada islom tafakkuri dunyosi bilan bog'liq (Abbos Mahmud al-Akkad, Najib Mahfuz, Fuad Zakariyo va b.) tomonidan qarshilikka uchradi.

"Yangi mavj" oqimining o'zi ham yaxlit emas edi. Ko'pgina yosh novellistlar realistik san'at mavqeida turgan holda shakl sohasida izlanar edilar. Ayni paytda, mamlakatdagi ma'naviy muhit, modernizm bilan to'qnashuv ular ijodiga ta'sir etmay qolishi ham mumkin emasdi. Misr adabiyotida umumiy ideologizatsiya tamoyili yuzaga keldi. Unda dolzarb ijtimoiy mavzularga bo'lgan qiziqish susaydi, shaxs va uni o'rab turgan sharoit munosabatlari tushunchasi o'zgardi. Ayni vaqtda inson va borliqni tasvirlashda yuzaga kelgan o'zgarish, diqqatning anglanmagan

⁵¹ Кирпиченко В.Н. Современная египетская проза. М.: 1986, С.181.

hissiyotlari, tuyg'ulari, ro'yolari, tushlari u kayfiyat atrofida jamlanishi tabiiy ravishda yangi badiiy vositalar sohasidagi izlanishlarni tezlashtirdi.

Qalb iztiroblari, anglanmagan ruhiy kechinmalar asarlarda mifologik, naturalistik, shahvoniy obrazlar orqali, ko'lamli syurrealistik metaforalar, tusmolga asoslangan o'xshashliklar vositasida tasvirlana boshladi. Misr novellistikasiga 50 - yillarda ilk bor Yusuf Idris tomonidan kiritilgan ichki monolog badiiy usul darajasidan biriga aylandi. Bularning barchasi kolaj, montaj, kadrlashtirishning turli shakllarini, matnda boshqa shrift bilan ajratib beriladigan parchalar va shu kabi usullarni yuzaga keltirdi. Umumiy ravishda "yangi mavj" mualliflari ijodiga xos bo'lgan yana bir xususiyat arab tili sintaksisi, iboralar tuzishga erkin munosabatda bo'lish edi. Ular gapda so'zlarning majburiy tartibiga rioya qilmas, fe'lni birinchi o'ringa qo'ymas, murakkab sifatdash va ravishdashlar bilan tuzilgan jumlarlar tuzishmas edi. Buning o'rniga "ishlov berilmagan", miyada to'satdan tug'iladigan, uzuq - yuluq, faqat kontekstda ma'no kasb etadigan jumalarni xush ko'rishar edi.

Misr novellistikasidagi "yangi mavj" voqelikni ko'proq shaxs tasavvurida "to'ng'arilgan" shaklda tasvirlangani bilan o'z nomini oqlab, nasrning badiiy tasvir vositalarini jadal rivojlantirdi, uning uslubi, tilini boyitdi.

VI BOB

SURIYA ADABIYOTI

Arab adabiyotida XIX asrda Milliy uyg'onish (an-Nahda) jarayoni yuzaga keldi. Bu davr feodal munosabatlarning tanazzuli, milliy - ozodlik harakati va ma'naviy hayotdagi jiddiy siljishlar zamoni sifatida ma'lum. XIX asrning oxirgi o'n yilligida Suriyaga xorijiy kapital ko'plab kirib kelaboshladi.

Suriyaning kapitalistik bozor munosabatlariga tortilishi, yangi ijtimoiy munosabatlarning qaror topishi, Suriya xalqining turklar va xorijiy kapital hukmronligiga qarshi kurashi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy biquqlikdan qutilishiga olib keldi. Ingliz, rus missionerlari tomonidan ochilgan maktablar ham Suriya madaniy hayotida ijobiy rol o'ynadi.

Suriya ma'rifatparvarlari keng xalq ommasini ma'rifatli qilishni asosiy maqsad qilib oldilar, vatanlarining ijtimoiy, madaniy rivojlanishi omilini shunda ko'rdilar. "Arab milliy burjuaziyasining shakllanishi va milliy o'zini anglashning o'sishini qamrab oladigan bu davr Suriya va Misr uchun, ta'bir joyiz bo'lsa, fikrlashga qobil aqli butun mavjudot uchun yagona o'lchov bo'lib xizmat qiladigan ma'rifatparvarlik davri vazifasini o'tadi."⁵²

Arab ma'rifatparvarligi va maorifini rivojlantirishga Butrus al-Bustoni (1819-1883) katta hissa qo'shdi. U maktab ochib yoshlarda o'z madaniyatiga qiziqish hissini uyg'otdi, arab tilining izohli lug'atini tuzdi, ensiklopediya yaratdi. Grammatika, ritorika, poetika bo'yicha qator qo'llanmalar tuzgan Nasif al-Yaziji (1800-1871) ham xuddi shunday mavqega ega.

Bu davrda publisistika ancha rivojlanib, XIX asr arab adabiyotining mustaqil janriga aylandi. Suriyaning bir qator ko'zga ko'ringan ma'rifatparvarlari - Adib Ishoq, Abdurahmon al-Kavokibiy, Muhammad Kurd Ali, Abdulloh Marrash faoliyati matbuot bilan bog'liq holda kechgan.

Suriya matbuoti boshqa arab mamlakatlari kabi milliy o'zlikni anglashni uyg'otib, Sharqning G'arb bilan bo'lgan aloqalariga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Demokratik ro'znomalar o'z sahifalarida o'quvchiga tushunarli tilda bayon etilgan dolzarb muammolar aks ettirdilar, tashqi istiloga, diniy ayirmachilikka qarshi chaqiriqlar bilan chiqdilar.

Fransuz ma'rifatparvarlari, jumladan, Russo g'oyalari Fransis Marrashga (1836-1875) ta'sir ko'rsatdi. U adolat, erk, aql g'alabasiga ishonar, vatandoshlarini fikriy yangilanish, tafakkurni o'tmish sarqitlaridan poklashga chaqirar edi.

Marrashning qarashlarini uning singlisi suriyalik ayollardan chiqqan birinchi publisist Maryana Marrash ham qo'llab-quvvatlar edi. Uning maqolalari Xalil Sarkisning "Lison al-hol" gazetasi va Butrus al Bustoniyning "al-Jinon" jurnalida chiqib turar edi. Maqolalarda musulmon

⁵² Долинина А.А. Очерки истории арабской литературы нового времени. М.:1968.С.40.

oilalarida hukm surgan eski urf-odatlar tanqid ostiga olinardi. U vatandosh ayollarni oilada va jamiyatda o'z mavqeini tiklash uchun faolroq kurashga da'vat etardi.

Antifeodal kurashning eng ko'zga ko'ringan ideologi Abdurahmon al - Kavokibiy edi. Uning "Shaharlar onasi" va "Istibdod tabiati" asarlarida feodal tuzum sarqitlaridan xoli yangi jamiyat qurishga da'vat qilinadi. Al - Kavokibiy birinchilardan bo'lib arablar birligi g'oyasini ko'tarib chiqdi. U jamiyatni yangilash uchun islohotlar bilan birgalikda inqilobiy yo'lni ham inkor qilmas edi.

Mamlakatdagi ma'naviy hayotni junbushga keltirgan Uyg'onish jarayoni adabiyotda ham jonlanishga olib keldi.

Boshlanishda jur'atsizlik va qat'iyatsizlik bilan boshlangan adabiyot yangilanish harakati asta-sekin barcha sohalarida yetakchi o'ringa chiqib oldi. Bu harakat yangi davrdagi ijtimoiy - iqtisodiy taraqqiyoti tufayli yuzaga chiqqan keng miqyosdagi tarixiy - adabiy jarayon doirasida davom etdi. Adabiyot sekin - asta o'zining elitar xarakterini yo'qotib bordi. Vaqtli matbuot, kitob nashrining yo'lga qo'yilishi, Yevropa yozuvchilari asarlaridan qilingan tarjimalarning ko'payishi adabiyot vazifalarining tubdan o'zgarishiga olib keldi, uni ijtimoiy hayotning muhim omiliga aylantirdi. Adabiyotda dunyoviylik birinchi o'ringa chiqadi: hayotiy tuyg'ular, voqeiy turmush haqidagi oqilona mulohazalar kitoblar sahifasidan mistikani, taqvodorlik kayfiyatlarini, mavhum nasihatgo'ylikni siqib chiqardi. Adabiyotning an'anaviy janrlari - qasida, maqola, g'azal o'z o'rnini yangi - hikoya, roman, drama janrlariga bo'shatib berdi.

Hikoya janri arab adabiyoti uchun yangi va uning kelib chiqishi haqidagi masala mubohasali hisoblanadi. Ba'zi bir arab adabiyotshunoslari va tanqidchilari arab hikoyachiligi Qur'on va o'rta asr maqollaridan boshlangan, deb hisoblashadi. Boshqalar (Yahyo Haqqiy, Saloh Dixniy) arab novellasining ildizini Yevropaga nisbat berishadi. "Evropadan esgan shabadalar, - yozadi Yahyo Haqqiy, - arab tuprog'iga novellaning ajoyib urug'larini olib keldi. U bilan tanishuv dastlab tarjimalar orqali yuzaga keldi."⁵³

Bizningcha, Suriyaning taniqli yozuvchisi Abdussalom al-Ujaylining fikri haqiqatga yaqinroqdir. U Suriya hikoyachiligiga nafaqat Yevropa yozuvchilarining novellalari, balki maqoma, "1001 kecha ertaklari" kabi an'anaviy janrlar ham katta ta'sir ko'rsatgan, deb hisoblaydi.

Suriya hikoyachiligining ilk boshlovchilari sifatida Fransis Marrash, Nu'mon al-Kastali, Shukri al-Asali, Antuan as-Sakala nomlarini zikr etish lozim. Ilk suriyalik novellistlar o'z ijodida jamiyatning dolzarb masalalarini qalamga olar edilar. Ularning asarlarida tenglik, Suriyaning siyosiy istiqloli haqidagi ma'rifatparvarlik g'oyalari o'z aksini topdi, ular musulmon ayolining oilada, jamiyatda tutgan o'rni masalasini kun tartibiga qo'ydilar, eski urf - odatlar, an'analarni qattiq tanqid qilib chiqadilar. Ularning asarlari shakl jihatidan o'tish davriga xos, an'anaviy bayon uslubi va sajdan asta - sekin yangi uslubga, sodda va tushunarli tilga o'tish jarayonini o'zida aks ettirar edi. Publisistik uslub, didaktika, ochiqdan - ochiq pandgo'ylik Marrashning ham, Kastalining ham, al-Asalining ham asarlarida yaqqol ko'zga tashlanib turadi.

Birinchi jahon urushidan so'ng Suriya Fransiya tasarrufiga o'tdi. Yangi tarixiy sharoit, madaniyat, ideologiya tizimidagi o'zgarishlar, fransuzlar ta'siridan o'zini saqlashga intilish, milliy o'zligini anglashning o'sishi yozuvchilar oldiga yangi vazifalar qo'ydi. Bu jihatdan "Arab akademik yozuvchilarining ilmiy jamiyati" (ar-Rabita al-adabiya - 1921) faoliyati diqqatga sazovordir.

Jamiyat a'zolari arab tili muammolarini, arablarning ko'p asrlik tarixini, ularning ilmiy va madaniy merosini o'rganishga alohida diqqat qilar ekanlar, bu orqali suriyaliklarning milliy o'zligini anglashiga, ularda vatanparvarlik tuyg'ularini mustahkamlashga, arab tilidagi adabiyotni yoyishga ijobiy ta'sir ko'rsatdilar. Adabiyotga XX asrning 20-30 - yillarida kirib kelgan yozuvchilar ularga qarshi turdilar. Ammo Yevropa yozuvchilari asarlari, Suriya - Amerika muhojirlar adabiy maktabi an'analari ta'sirida shakllangan bu adiblar jamiyatni o'zgartirish haqidagi inqilobiy g'oyalarga ergashib, qadimparastlarni tanqid qilishar, ularni

⁵³ Иностранная литература. 1960. №9. С.281.

dolzarb muammolarni ko'tarib chiqadigan yangi adabiy janrlarda asar yaratishga da'vat etardilar. Fuad ash-Shaibning realistik hikoyalari yaratilishiga hali ikki o'n yillik muddat o'tishi lozimligiga qaramay aynan ana shu davrda adabiyotning jamiyat hayotidagi vazifasini yangicha baholashga, voqelikni yangi shakllarda ifodalashga qaratilgan harakat yuzaga kelgan edi.

Suriyada hikoya janrining rivojlanishiga Ma'ruf al-Arnaudt, Xalil Hindavi, Idvar Murkas va boshqalarning tarjimonlik faoliyati ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Bu haqda Suriyada realistik hikoya janrini boshlab bergan Fuad ash-Shaib bunday yozgan edi: "Men yozishdan ko'ra ko'proq o'qishni xush ko'radigan yozuvchilar avlodiga mansubman. Oldiniga biz asotiriy adabiyotni o'qir edik. Keyin Shekspirni, Rasinni, Kornelni o'qidik, undan keyingina Volterni, Russoni, Fransni, Zolyani, Mopassanni o'qishga jur'at etdik. Axir, M.Gorkiyni bilib Dostoyevskiyni bilmaslik mumkinmi? Axir, bizni Tolstoy, Turgenev, Pushkin tomonga yetaklagan shu emasmi? Axir, arab novellisti jahon adabiyotida bu janr bosib o'tgan yo'l bilan tanishmasdan turib arabcha hikoya yozishga kirishishi mumkinmidi?"⁵⁴

Suriyada hikoya janrining tug'ilishi va rivojlanishida matbuotning roli katta bo'ldi. Aynan matbuot sahifalarida bu yangi janr sinovdan o'tkazildi. O'quvchilarning keng doiralari mo'ljallangan, hajman matbuotga mos hikoya janri Suriya ziyolilarining ilg'or qatlamlari g'oyalarining targ'ibotchisiga aylandi. Gazeta va jurnallar orqali suriyalik o'quvchilar Misr va Livan yozuvchilari asarlari bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Suriyada hikoya janrining shakllanishiga sabab bo'lgan omillar haqida so'z yuritiladigan bo'lsa, albatta, Suriya - Amerika maktabi yozuvchilari haqida gapirishga to'g'ri keladi. Jubron Jalil Jubron, Amin ar-Rayhoni, Mixail Nuayme va boshqalar ijodi yangi arab adabiyotining rivojlanishiga barakali ta'sir ko'rsatdi.

Adabiyot 20-30 - yillarda romantik yo'nalishda rivojlanib bordi va bu hol, so'zsiz, g'arb adabiyoti ta'sirida yuzaga keldi. G'arbiy Yevropa modernizmi Suriya milliy sharoitida romantizm xislatlarini o'zida ifoda etdi. Romantik yo'nalishdagi asarlar, odatda, o'ta tushkunlik ruhida edi. Bunga tarixiy sharoit ham sabab bo'lgan edi. Jamiyatdagi ilg'or kuchlar umid bog'lagan 1925-27 yillardagi isyonning mag'lubiyati liberal millatchilikning tanazzuliga sabab bo'ldi. Uning mafkurachilari - romantik adabiyot vakillari vujudga kelgan sharoitdan qutulish yo'lini topa olmadilar va bu holat ularning ijodida aks etdi.

Subhi Abu G'anim, Sami al-Kayali hikoyalarida ishqiy-maishiy mavzular yetakchilik qildi. Abu G'animning "O, tun", "G'am", "Men va she'riyat", "Yig'lama" nomli asarlari qahramonlari irodasiz, bo'shang, hayotdan bezgan odamlar. Ular o'z shaxsiy kechinmalarining biqiq doirasida cheklanib qolganlar, atrofdagi voqelik ularni faqat iztirobga soladi, ularda yovuzlikka qarshi kurash intilishni qo'zg'atmaydi. Ular yoki tabiat qo'ynida taskin topadilar yoki mavhum xayollarga beriladilar.

Suriyalik tanqidchilar hikoya janrida realistik unsurlarning paydo bo'lishini Ali Xalqi nomi bilan bog'laydilar. Ali Xalqi o'z zamonasi adabiyoti haqida fikr yuritarkan, o'z ijodining ma'naviy va estetik manbalariga ishora qiladi: "Biz mamlakatning ruhiy ozodligi, siyosat haqida gapirdik, adabiyotdagi konservatorlar va novatorlar kurashi borasida bahslashdik. Biz Taha Huseyn, Saloma Muso, Ismoil Mazhar asarlarini berilib o'qidik... Men Pushkin, Dostoyevskiy, Gorkiy, Bayron hayoti va ijodini chuqur o'rgandim."⁵⁵

Ali Xalqiyni real voqelik manzaralarini haqqoniy tasvirlovchi hikoyalari sevib o'qilar edi. «Qiz» hikoyasida ("Bahor va kuz" to'plami, 1931) Ali Xalqi muhabbat asosida oila qurishni yoqlab chiqadi, «Tanus amaki» esa hayot haqida qoloq tasavvurlar, sarqitlarning tanqid ostiga olinishi bilan qiziqarli. Salafidan farqli ravishda Ali Xalqi bosh qahramon obrazini ochib berishga ko'proq diqqat qaratadi. Buning uchun har xil badiiy usullardan (dialog, monolog, portret chizgilari) foydalanadi, ular sekin - asta Suriya hikoyanavisligidagi bayonchilik unsurlarini surib chiqaradi.

Muhammad an-Najjor hikoyalarida ("Damashq koshonalarida", 1937) burjuaziya va ruhoniylarning riyokorligi, ikkiyuzlamaligi, konservativligi ochib tashlanadi. muallif o'z davriga

⁵⁴ Мустафо Шокир. Иккинчи жаҳон урушидан олдинги даврдаги Сурия хикоянавислиги. Бейрут. 1958. Б.47.

⁵⁵ Мустафо Шокир. Иккинчи жаҳон урушдан олдинги Сурия хикоянавислиги. Бейрут. 1958. Б.277.

nisbatan jasorat bilan shaxs erkinligi haqidagi g'oyalarni ilgari suradi, ayrim zodagonlar va burjuaziya qatlamlaridagi molparastlikni tanqid qiladi.

Suriya realistik hikoyanavisligining shakllanishida Fuad ash-Shaibning ulushi salmoqlidir. U ham oldin zikr etilgan adiblar kabi professional yozuvchi emas edi. Shunga qaramay oz sonli hikoyalar ("Jarohat tarixi", 1944) va "Amaldorning pullari" romani uning ajoyib yozuvchiligini ko'rsatdi.

Fuad ash - Shaib hikoyalarida ilk bor mehnat kishisi tasvirlandi. Bu och-nahor Hamidan va aravakash Juma ("Mashinaning o'limi", "Ro'za tugagunga qadar"). Ammo insonlarning azob - uqubati muammosi yozuvchini ijtimoiy jihatdan emas, ko'proq psixologik planda qiziqtiradi. muallifni ko'proq och - nahor Hamidanning ijtimoiy ahvoli, ehtiyojlari emas, balki ovqat topish ilinjida sargardon yurganidagi ruhiy holati qiziqtiradi. Ash - Shaibning xizmati shundaki, u hikoya janrini mazkur janrni xarakterlaydigan xususiyatlari bilan adabiyotga olib kirdi. Uning asarlaridan ilgarigi adabiyotga xos didaktika, safsatabozlik yo'qoldi. Shaib hikoyalarining kompozitsiyasi ravon va uyg'un. Voqealar tabiiy ravishda kechadi, qahramonlar xatti - harakati mantiqan o'zaro bog'liq. Asar g'oyasini ochishda yozuvchi tashqi detallar, nafis chizgilardan unumli foydalanadi.

"Qariqiz" hikoyasidagi bosh qahramon - Nur deyarli gapirmaydi. Ammo yozuvchining qisqagina replikalaridan o'quvchi Nurning tanholigi, singlisiga hasad qilishini bilib oladi. "O'lim farishtasi" hikoyasida bir vaqtning o'zida ham eri, ham o'g'li o'lim to'shagida yotgan ayol obrazini tasvirlar ekan, yozuvchi uning pala-partish kechinmalarini ochiq tasvirlamaydi, unga kim aziroq ekanini aytmaydi. O'quvchi uning hayajon bilan goh eri, goh o'g'li to'shagi yoniga yugurishidan ayolga eri ham, o'g'li ham birdek aziz ekanini anglaydi. "Ro'za tugagunga qadar" hikoyasida bozor, loviya solingan qozon va boshqa narsalar tasviriga ko'p o'rin ajratiladi. Bu ashyolardan och-nahor Hamidanning holatini, bozorda sandiroqlab, ovqat hidi chiqqan har bir teshikka hirs bilan qaraganini tasvirlash vositasi sifatida foydalanilgan.

Suriyalik novellistlar guruhi urushdan oldingi vaqtda kam sonli edi. Bu davrda ularning ijodiy metodi, dunyoqarashi turli bo'lishiga qaramay o'z zamonasidagi urf-odatlar, feodalcha-islomiy an'analarni tanqid qilishda bir yoqadan bosh chiqarar edilar. Ularning asarlariga zamonaviy jamiyat hayoti, uning barcha axloqiy-maishiy, ijtimoiy muammolari shiddat bilan kirib bordi. Adabiyotda sekin - asta an'anaviy janrlardan chekinish, yangi shakllarga murojaat qilish, tilni takomillashtirish tamoyillari namoyon bo'lib bordi.

Ikkinchi jahon urushi davrida Suriya adabiyoti undan keyingi davrga qaraganda sust rivojlandi. 1935 yilda Damashqda K.Ayyad boshliq bir guruh ziyolilar tomonidan "at-Talia" ("Avangard") jurnali nashr etila boshladi. Bu jurnal 1945 yilda Bayrutda chop qilingan antifashistik mashhur jurnal "at-Tarix" ("Yo'l")ning salafi edi.

Mamlakatda 1925-1927 yillardagi isyondan keyin yuzaga kelgan publisistika taraqqiyoti va g'oyaviy harakatlar natijasi o'laroq paydo bo'lgan "at-Talia" jurnali mamlakatda ilk bor izchil ravishda jamoatchilik fikrini mehnatkashlar ahvoriga qaratdi, uni o'zgartirish yo'llarini ko'rsatdi. Jurnal sovet madaniyatiga ham katta qiziqish bilan munosabatda bo'ldi.

O'z salafi an'alarini davom ettirgan "at-Tariq" jurnali, o'z sahifalarida ilg'or Yevropa madaniyatini o'zlashtirishga intilayotgan yozuvchilar asarlarini bosib chiqarar, ayni chog'da, mumtoz milliy madaniyatning ilg'or an'analari bilan ham aloqani uzmas edi. Shu sababdan ham bu jurnal bilan hamkorlik qilgan yozuvchilarning ko'pchiligi urushdan keyingi davrda arab adabiyotidagi demokratik yo'nalishning o'zagini tashkil etdilar.

SURIYA YOZUVCHILARI LIGASI

Suriya adabiyotida realistik tamoyillarning rivojlanishiga yozuvchilarning rus adabiyoti bilan oshnoligi ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Suriya boshqa arab mamlakatlariga nisbatan ko'proq darajada rus adabiyoti bilan chuqurroq tanishish imkoniyatiga ega edi. Bu hol XIX asrning 80-yillarida Falastin jamiyati tomonidan tashkil etilgan maktablar tufayli bo'lib, ularda rus tili majburiy fan sifatida o'qitilar edi. Shu bois Suriya va Livan hozirgacha rus adabiyoti bilan bo'lgan an'anaviy bog'lanishlarini saqlab qoldilar. Adabiyot sohasidagi Davlat mukofoti

sovrindori arab yozuvchisi Huseyn Favdi bunday yozgan edi: "Biz "Zaynab" yoki "Iso ibn Hishom" emas, rus yozuvchilari asarlari tarjimalari orqali ulg'ayganmiz".⁵⁶

Suriya yozuvchilari Ligasi a'zolari quyidagilar edi: Mavoxib al-Kayali (rais), Xasib al-Kayali, Vasfi al-Bunni, Shavqi Bag'dodiy, Said Hauraniya, Adil Abu Shanab va boshqalar.

Suriya yozuvchilari jahon adabiyoti klassiklarining realistik metodlarini o'zlashtirishga juda ko'p harakat qilar edilar: Suriya nashriyotlarining O.Balzak, Ch.Dikens, M.Gorkiy, L.Tolstoy kabi ulkan realist yozuvchilar ijodiga qiziqishi ham shundan dalolat beradi.

Ligaga a'zo bo'lgan yozuvchilar buyuk rus yozuvchilari ijodiga keng o'quvchilar doirasi diqqatini jalb qilish maqsadida adabiy klublarda ma'ruzalar o'qishar, matbuot va radio orqali bahs, munozaralar tashkil qilar edilar. Sovet - Suriya madaniy aloqalari jamiyatining tashkilotchilaridan biri Lian Deyrani rus va sovet adabiyotining faol tarjimoni va targ'ibotchisi sifatida maydonga chiqdi. L.Tolstoy, A.Chexov va boshqa rus yozuvchilari haqidagi ma'ruzalar uning qalamiga taaluqli. N.Tixonov hikoyalari, Pavlenkning "Cho'l quyoshi", M.Gorkiyning "Ona" romani tarjimalari ham unga tegishli.

Suriya yozuvchilari Ligasi a'zolari bir qator novellalar majmualarini nashr ettirdilar. Ular orasida Shavqiy Bag'dodiyning "Mahallamiz qon qusmoqda", Said Xauraniyning "Odamlarning o'z shodligi bor", Mavoxib al-Kayalining "Oq ro'mollar", Xasib al-Kayalining "Qishloqdan xabarlar", Vasfi al-Bunniyning "Guta markazida", Odil Abu Shanabning "Dunyo, ammo u tordir" kabi to'plamlari bor.

Liga a'zolari ijodi orqali Suriya novellistikasiga xalq namoyandalari obrazi kirib keldi. Yozuvchilar dehqonlar, ayollar masalasiga alohida diqqat qilar, xalqning milliy - ozodlik kurashi bilan bog'liq voqealarni qalamga olar edilar. Adabiyotga yangi qahramon - yaqindagina faqat kulgi uchun yoki ikkinchi darajali siymo sifatida tasvirlangan falloh obrazi kirib keldi.

Yozuvchilarning adabiy uslublari turli-tuman bo'lishiga qaramay demokratik e'tiqod, vatanga muhabbat tuyg'ulari, ijtimoiy adolatsizlikni qo'porib tashlashga bo'lgan intilish, o'z xalqiga sidqidildan xizmat qilish, uning manfaatlarini himoya qilish istagi ularni birlashtirib turar edi. Liga a'zolari asarlari badiiy jihatdan ham oldinga bosilgan bir qadam edi. Ular ijodida an'anaviy estetik qonun-qoidalar - ko'pgina sharq adabiyotlariga xos bo'lgan nasihatgo'ylik, didaktikaga moyillikni yengib o'tishga qaratilgan murakkab jarayon o'z aksini topgan. Bu yozuvchilarning adabiy izlanishlariga A.Chexov, L.Tolstoy, G.Mopassan, V.Gyugo kabi jahon realistik adabiyoti namoyondalari ijodi katta ta'sir ko'rsatdi. Ular ijodida ko'zga chalinadigan qahramonning ichki dunyosiga chuqurroq kirib borishga intilish, mavzuni badiiy aks ettirishning turli usullaridan foydalanish, dialoglardan, ichki monologlardan samarali foydalanish, turmush voqealari unsurlarini tasvirlash va boshqa tamoyillar shundan dalolat beradi.

Badiiy til masalasida Liga yozuvchilari Misr adiblariga ergashib, X. al-Kayali, Mavoxib al-Kayali, V. al-Bunni adabiy tilni imkon qadar jonli tilga yaqinlashtirishga intilar edilar.

Suriya yozuvchilari Ligasi 1958 yilda tarqalib ketdi. Suriyaning Misrga qo'shilishi oqibatida yuzaga kelgan murakkab siyosiy sharoit bunga sabab bo'ldi. 1958-1959 yillardagi voqealardan so'ng bir qator yozuvchilar xorijga ketishga majbur bo'ldilar. S.Xauraniya, I.Bag'dodiy Livanga, X.Mina Xitoyga, Vasfi al-Bunni Sovet Ittifoqiga muhojirat qildilar.

Liga - qisqa muddat davomida faoliyat ko'rsatgan bo'lsa-da, Suriya adabiyoti tarixida iz qoldirdi. Yozuvchilar nafaqat ijtimoiy adolatsizlik mavjudligini qalamga oldilar, balki unga qarshi kurashish yo'llarini ham ko'rsatib berdilar.

Suriya adiblari ijodida dehqonlar mavzusi salmoqli o'rin egallaydi. Mustaqillik davrida qishloq xo'jaligida amalga oshirilgan islohotlar agrar muammoni oxirigacha hal qilmadi. Kam yerli dehqonlar va ijarachilar ahvoli ilgarigidek og'irligicha qoldi. Shuni ta'kidlash joizki, 30-40 - yillar adabiyotida fallohlar hayoti faqat Liga yozuvchilari asarlarida haqqoniy realistik va demokratik yondashuv asosida aks ettirildi. Bu davrda Xasib al-Kayali ijodi keng jamoatchilik e'tiborini qozondi. Uning novellalari qahramoni oddiy odamlar, yozuvchi ular bilan har kuni

⁵⁶ Коцарев Н. Цветок лимона. Предисловие - М.: 1973. С.3.

ko'chada, do'konlarda, machitda uchrashadi. Adib ularning hayotini, turmushini, an'analarini yaxshi biladi, bu esa unga yorqin, jonli obrazlar yaratish imkonini beradi.

"Qahramon" hikoyasida qishloq turmushning mungli manzarasi jonlantiriladi. Zaytun daraxtlari yonib ketgunga qadar Idlibada hayot chidasa bo'ladigan darajada davom etardi. Tirikchilikning yagona manbaidan mahrum bo'lganlaridan so'ng, falloklar qishloqni tashlab ketishga majbur bo'ladilar. Kimdir al-Jaziraga, yana kimdir Damashqqa ketadi. Qaerga borishmasin, bu jafokash odamlar to'g'ri kelgan ishni qilishar, ertalabdan kechgacha bir burda non uchun mehnat qilar edilar. Hikoya qahramoni Ahmad Damashqqa kelib doimiy ish topolmaydi va ochlikdan o'lmaslik uchun xavfli o'yinlar ko'rsatadigan sayyor sirkchiga aylanadi. O'quvchi tasavvurida Ahmad tole'siz va jafokash inson sifatida gavdalanadi. "U qop-qora ustundek bo'y cho'zgan edi. Uning ko'kragi va qo'llari taram-taram chiziqlar va qabariqlar bilan qoplangan, shu alpozda u qurib qolgan zaytun daraxtiga o'xshab ketardi. Uning yuzlaridan baxtsizlik sodir bo'lgandan keyin qishlog'i chekkan azob - uqubatlar izini ko'rgandek bo'ldim. Bizni qurshab olgan jimjitlik o'sha tun ochlikka mahkum qilgan, bir burda non uchun temirni bukishga, olov kechishga, badaniga sanchilgan igna azobini chekishga tayyor turgan odamlarning unsiz faryodidek tuyuldi."⁵⁷

Qurg'oqchilik, ochlik Odil Abu Shanabning "Bu voqea Damashqda bo'lgan edi" hikoyasi qahramoni Said va uning qizi Aminani ham boshi oqqan tomonga ketishga majbur qiladi. Ammo Damashqda ham bechora yo'qsil taqdiri hech kimni qiziqtirmaydi. Bechoralikdan Said sevimli qizchasini xizmatkorlikka berishga majbur bo'ladi.

"Said xonadonni tark etayotganida yig'i ovozinieshitdi. Amina nega yig'laydi? Endi uning qorni to'q bo'ladi, Damashqda qoladi-ku. To'g'ri, u bunday bo'lishini xohlamasdi. Ammo bechora, och ota nima ham qilsin?"⁵⁸

Ochlik, benovolik fallohlarni jinoyatga ham boshlaydi. "Sovuq, yomg'irli kunda qahvaxona derazasidan bir fallohni kuzatdim. U o'tkinchilarga o'z "matax"ini o'tkazmoqchi bo'lardi. Birovlar uning "matax"ini ko'rish uchun to'xtashar, boshqalar esa, boshlarini chayqab o'tib ketishar edi", - X.Mina o'zining "Bola sotiladi" hikoyasini shunday boshlaydi. Yo'qchilikdan qishloqni tark etgan bu bechoraning "matax"i o'n uch yashar qizi edi. Hikoyachi uni diydasi qattqlikda ayblaganida, u shunday javob beradi: "O, afandim, menda ham yurak bor. Axir, u ochlik va sovuqdan o'lib ketishini kutmay oldinroq sotib yuborganim ma'qul emasmi?" O'quvchi falloh taqdiri haqida yozuvchi bilan birgalikda chuqur o'yga botadi. Muallif qo'llagan tashbihlar uning ko'ngli kim tomonda ekanini ochiq ko'rsatib turadi. Falloh yetishtirgan hosilni olib qo'ygan zamindorni yozuvchi chigirtkaga o'xshatsa, fallohni mehnatkash chig'anoqqa qiyoslaydi.

Shavqi Bag'dodiy ijodida ham ijtimoiy motivlar realistik hikoya qolipida ifodalanadi. Yozuvchi sil kasaliga yo'liqqanlar yashaydigan mahalla aholisining dahshatli hayotini yuksak badiiy mahorat bilan tasvirlaydi. Odamlar bu yerda quyosh nuri tushmaydigan kulbalarda yashaydilar. "Hamma uylarning tashqarisi-yu ichkarisi bir xil: oqar suv chiqib ketadigan ariqchali pastak ostona, mix qoqsa ikki barmoq bilan osongina sug'urib olsa bo'ladigan darajada chirib ketgan eshik. Bari shu."⁵⁹ Uylarda yashovchilarning rangi shu uylar qo'rilgan toshlardek nursiz. Bu xaroba kulbalarga quyosh bir zumgina nur sochar, keyin esa yana barcha narsa qorong'ulik qa'riga cho'mar edi. Mahalla ahlining ongini ham qorong'ulik cho'lg'ab olgan. Ular o'limdan qo'rqib yashashar, o'lim esa kuniga ular orasidan kimnidir yulib olib ketar edi. Mavhumlik qarshisida ular o'limni ham xuddi bir jonli mavjudotdek tasavvur qilishardi. Hayotning bunchalik azoblari nima uchunligini tushunishmagani sababli ular o'limdan najot faqat quyoshda, deb o'ylashardi. Muallifning o'zi qahramonlari o'rniga bunga e'tiroz qiladi. Bu mahalla aholisining hayoti hukumatni qiziqtirmaydi, amaldorlar faqat ularni shaharning boshqa qismlaridan ajratib qo'yishnigina o'ylaydi. Nihoyat, mahalla ahlini shahar tashqarisiga ko'chirib yuboradilar.

⁵⁷ Ас-Сакафа ал-ватания. 1956. №2. Б.14.

⁵⁸ Рассказы сирийских писателей. - М.:1958. С.108.

⁵⁹ Ш.Багдадий. Махалламиз кон кусмоқда. - Байрут: 1954. Б.5.

Suriya yozuvchilari xalq qashshoqligi, azob - uqubatini dard bilan tasvirlaydilar. Ayni paytda ularning asarlarida tushkunlik ruhi butunlay sezilmaydi. Ular o'z o'quvchilariga faqat xayriya ishlari bilan bunday ahvolni o'zgartirib bo'lmashligini uqtirmoqchi bo'ladilar. Dehqonlar, oddiy odamlarni tasvirlar ekanlar, adiblar ularning asosiy xislatlari - mehnatsevarlik, odamoxunlik, halolliklarini bo'rttirib tasvirlaydilar.

X. Al-Kayalining "Shaqildoqfurush" asaridagi Mustafo kuni bilan xaridor izlaydi. Shaqildoq sotib oilasi qornini to'ydirmoqchi bo'ladi, lekin shaqildog'ini hech o'ylamasdan Ahmad Afandi uyida ishlaydigan farrosh ayolning o'g'ilchasiga tekinga berib yuboradi. Sh.Bag'dodiyning "Mahallamiz qon qusadi" asaridagi sillar yashaydigan mahalla ahli chidab bo'lmash sharoitda yashasalar ham o'zaro munosabatda odamgarchilikni unutmaydilar. Yosh qizaloq Ayush sil kasaliga yo'liqqanida qo'shnilar undan hol so'rab keladilar, vafot etganida esa, butun mahalla motam tutib uni dafn etadi.

Suriya yozuvchilari ayniqsa bolalar haqida alohida kuyunchaklik bilan yozadilar. Bolalarni fojeali taqdirida ular jamiyatdagi mehr - oqibatsizlik, axloqiy qadriyatlarining yo'qolib borishi nishonalarini ko'radilar. Sh.Bag'dodiyning "Vahdiy tashvishlari" nomli ta'sirchan hikoyasida oilasi, kasal otasini boqish uchun ota - onasi va qishlog'idan uzoqda yashaydigan bir kishining uyida cho'rilik qilayotgan o'n yashar qizaloq taqdiri haqida hikoya qilinadi. "Qora frank" nomli boshqa hikoyada tilamchi bolalar hayoti tasvirlanadi. Kichkinagina bola bir yo'lovchi iltifotsizlik bilan otgan tangani olishga chopib ketayotganida uni mashina urib ketadi. Maktab boy oilalar bolalarining nasibasi, xolos. V. al-Bunnining "Ko'chada" hikoyasidagi ikki bola uchun esa, maktab - go'sht do'koni. Ular shu yerda, suyaklar, axlat va qon ichida o'zlarining ustozlari Abbud rahbarligida "ta'lim" oladilar.

Liga yozuvchilarining realistik iqtidori, ayniqsa, yumoristik obrazlar yaratishda namoyon bo'ldi. Xasib al-Kayali o'z qahramonlarini sevadi, ammo hech qachon ularni bezab tasvirlamaydi. Adib ularni qanday bo'lsa, shunday - qo'polroq, nazokatdan yiroq, ba'zan baqiroq, zardali, ba'zida esa sodda, ishonuvchan qilib, ammo har doim hayotiy, tanish va tushunarli qilib tasvirlaydi. "Men oddiy odamlarga ularni xushnud qiladigan, kuldiradigan, junbushga keltiradigan voqealarni aytib bergim keladi. Bunga muvaffaq bo'lganimda ularning horg'in, ozib - to'zib ketgan yuzlariga tabassum bag'ishlab, ozgina vaqtga bo'lsa ham og'ir mehnat va tashvishlardan qutqargim keladi," - yozgan edi X. al - Kayali o'zining "Men kim uchun yozaman?" degan maqolasida.

Jamil al-Arabi va Munib al-Afandi ("Mirza" hikoyasidan) qishloqning ikki mirzasi mushtariylar yo'qligidan iztirob chekadilar, sartarosh Abdulg'afur esa ("Bir mijoz") hayron - qishloq ahli sartarosh Abu Ismoil xafa bo'lib qolmasin, deb uning zamonaviy jihozlangan sartaroshxonasining yonidan o'tib, raqibiga soch oldiradilar. Yozuvchi yumshoq kulgi bilan ("Intizomli") vino ichib boshlig'i buyrug'ini esidan chiqarib qo'yadigan polisiyachini tasvirlaydi.

Xasib al-Kayali qorinboy zamindorlarni, vatanparvarlik, milliy g'urur tuyg'ularidan mahrum hokimlarni tasvirlagan hikoyalarida boshqacha siymoda gavdalanadi. Yozuvchining yengilgina, dilkash kulgusi bunday hollarda o'tkir satiraga aylanadi.

"Zodagonlar vakili" hikoyasida bosh qahramon nutqi asar g'oyasini ochishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Adib o'z xalqini xushomad va firibgarlik yo'li bilan aldab yurgan hokimiyat namoyandalari ustidan kuladi. Parlamentga nomzod Sobir al-Abyaniyning nutqi balandparvoz, she'rlar bilan bezatilgan. U fallohlarga murojaat qilib deydi: "Ey muhtaram janoblar! Men yuqori lavozim va nufuz ilinjida noyiblikka intilayotganim yo'q. Men kambag'allarga yordam bermoqchiman, chunki o'zim ham kambag'alman, hech vaqoyim yo'q. Buyuk Olloh, uning farishtalari va payg'ambarlari nomiga qasamki, men saylov xarajatlari uchun pulni ham qarzga olganman..."⁶⁰ U xalqqa tog' - tog' va'dalar beradi. Sodda fallohlarning gaplariga ishonib, nutqini olqishlar bilan kutib oladilar. Lekin o'quvchi tez orada qishloq ahlining noyiblaridan ko'ngli qolishi, ularning hayoti ilgari qanday og'ir bo'lsa, shunday qolishni sezib turadi.

⁶⁰ X. Ал - Кайами. Шаркдан хабар. Байрут: 1955. Б. 70.

Yozuvchi "Qishloq do'xtiri" hikoyasida ochko'z va shafqatsiz, aldoqchi qishloq vrachi obrazini mahorat bilan chizadi. Adibning unga bo'lgan salbiy munosabati do'xtirning hayoti, tashqi qiyofasini chizganidayoq sezilib turadi: «Doktor Rasmi Afandi allaqachon qirqdan oshgan edi. Uning tashqi qiyofasi ko'rimsiz: peshonasi yapaloq, kasallarnikiday sarg'ayib ketgan yuzi nursiz, ajin bosgan lunjlari xaltaadek salqigan, baqbaqasi buqaning tomog'idek osilib tushgan, ko'zlari shilpiq, kipriklari siyrak, qorni meshdek. Ustiga - ustak uning fe'li ham g'alati".⁶¹ Rasmi Afandi kambag'allarni uzoq ko'rib ham o'tirmaydi. Bemor o'z kasalidan shikoyat qilish uchun og'zini juftlashi bilan o'q u oldindan tayyorlab qo'ygan reseptni uning qo'lga tutqazib "Yana kim bor?" deb qichqiradi. Badavlat mijozlar kelganda Rasmi Afandi butunlay boshqacha - xushmuomila, mehribon bo'lib qoladi.

Ayollar ahvoli, ularning o'z juftini tanlash huquqi barcha Arab sharqining ilg'or yozuvchilari, publisistlari, jamoat arboblari qatori Liga yozuvchilarining ham diqqat markazida edi. Musulmon ayoli ikki tomonlama zulm ostida edi. Shuning uchun ham yangi arab adabiyotining Qosim Amin, Jubron Xalil Jubron, Amir ar-Rayhoni, Mixail Nuayme kabi ulkan yozuvchilari ijodida ayollar masalasi salmoqli o'rin egallardi. Liga yozuvchilari ayollar mavzusini ham ijtimoiy, ham kundalik turmush nuqtai nazaridan yoritardi. Yozuvchilar qahramonlari yashaydigan muhit bir-biriga o'xshash. Ular, asosan, jamiyatning kambag'al, qashshoq tabaqalari namoyandalari.

Said Xauraniya ham ayollar taqdiri haqida juda ko'p asarlar yozgan. U o'zining demokratik qarashi tufayli necha bor qamoqlarga tashlangan, badarg'a qilingan. Adibning "Mis sandiq" hikoyasi voqealari birinchi shaxs tilidan bayon etiladi. Shu yo'l bilan yozuvchi o'quvchisi bilan bevosita muloqotga kirishadi. Qahramonning xotiralari orqali o'quvchi uning onasining sarguzashti bilan tanishadi, onaning mashaqqatli hayot kechirganiga qaramay o'g'li, atrofida qilarg'a bo'lgan iliq munosabatini saqlab qolganini bilib oladi. "Onam kirchi edi. Uning qay ahvolda uyga qaytganlari hamon yodimda - sochlari to'zg'igan, hansiragan, qo'llarini sovun o'yib yuborgan holda kelardi. Meni quchoqlab ko'ksiga bosganida, ko'zida yiltiragan yoshni ko'rdim".⁶² Yozuvchi bolasi uchun o'zini fido qilgan onasiga o'z vaqtida mehribonchilik qila olmagan qahramonning ziddiyatli hissiyotlarini tasvirlar ekan, yig'loqi sentimentallikka berilmaydi.

Vasfi al-Bunnining "Qamoqxonadagi oila" hikoyasida voqea boshqacha ijtimoiy muhitda ro'y beradi. Vrach Salim Mahmudning ziyoli oilasida ziddiyatli holat ro'y beradi. Yozuvchi bu "ziyoli" shaxs yuzidan niqobni yirtib tashlaydi. Vrach xotini va o'z onasini himoya qilgan o'g'lga kun bermaydi. U hatto eshigidagi qulfning teshikchasiga ham latta tiqib qo'yadi. "Ayol kishi shu teshikdan kelishgan begona erkaklarga qarasinmi? Yoki begona erkaklar bu teshikchadan birovning xotiniga qarasa bo'ladimi?"⁶³ Yozuvchi qo'llagan yorqin tashbihlar, topib aytilgan sifatlashlar o'quvchi tasavvurida Salim Mahmudning jonli obrazini mujassamlantiribgina qolmasdan muallifning unga nisbatan munosabatini ham ifodalaydi. "Stol tepasida kurrasimon, oq tarvuzga o'xshagan jism ko'tariladi, uning chakkalaridan soch yoki shunga o'xshash narsa osilib turadi... "Tarvuz" stol ortidan chiqib viqor bilan zanglab ketgan sariq gardishli ko'zoynagini taqadi".⁶⁴ Doktor Salimning xotini obrazi o'quvchida achinish hissinu uyg'otadi. Uning nasibasi - eriga qul kabi itoatda bo'lish, g'am va alam chekish. Uning qalbidan panoh topgan shirin sevgi, eri bilan ruhan yaqin bo'lish haqidagi orzulari u yashayotgan, ayollar huquqsiz bo'lgan jamiyatda yuzaga chiqishi mumkin emas edi.

Suriya yozuvchilari hikoyalarida boshqa ayollar obrazi ham bor. Uy - ro'zg'or bilan ijtimoiy qullik asoratida azob chekkan bu bezabon xilqatlar orasida o'zlarining insoniy g'ururini poymol qiladigan ijtimoiy qonunlarga nisbatan e'tiroz uyg'ona boshlaydi. Sh.Bag'dodiy "Uyga qaytish" nomli hikoyasida Munirani ota-onasi uyni tashlab ketishga majbur qilgan sabablar to'g'risida to'g'ridan-to'g'ri gapirmaydi. Ammo o'quvchi bu oilada kelishmovchilik islomiy

⁶¹ Рассказы сирийских писателей. М.:1958.с.54.

⁶² Саид Хаурания. Охирги қахратон киши - Байрут: 6,42-43.

⁶³ Васфи ал-Бунни. Гути марказида. Байрут: 1954. Б.28.

⁶⁴ Ўша жой.

e'tiqodga berilgan ota - ona gapini qabul qilmaslik tufayli yuzaga kelganini sezadi. Yozuvchi bosh ko'tarishga jur'at etgan Muniraga kelajak hayot yo'lini ko'rsatmaydi. Munira o'limga mahkum. Odamlar ongiga singib ketgan urf - odatlar talabini bajo keltirish, oila yuzidan sharmandalik dog'ini qon bilan yuvish uchun akasi uni ota-onasi roziligi bilan o'ldiradi.

Suriya novellistikasida yozuvchilar ilk bor badiiy vositalar orqali ayollarning sevgidagi erkini poymol qiladigan ijtimoiy sharoitga nisbatan o'z e'tirozlarini ifodalashga muvaffaq bo'ldilar. Ular ayollar masalasiga yangi, ilg'or ziyolilar marrasidan yondashar, ayollar erkini ta'minlashda o'z mamlakatlarining ravnaqi vositasini ko'rdilar.

Liga yozuvchilari ijtimoiy adolat mavzusini ko'tarib chiqar ekanlar, o'zlarining ba'zi asarlarida ishchilar, fallohlar, ziyolilar orasidagi norozilikni, ularning yerga, ozodlikka, adolatga bo'lgan huquqlarini qo'lga olishga bo'lgan intilishlarini tasvirlash darajasigacha ko'tarildilar. Adabiyotga xalq ichidan chiqqan, jamiyatning ijtimoiy va ruhoniy hayotini qayta qurishga intilayotgan inson obrazi kirib keldi. Demokrat yozuvchilar diqqatini endi inson va ijtimoiy sharoit orasidagi ziddiyat jalb eta boshladi.

V. al-Bunning "Guta qalbida" hikoyasida inson haqidagi Gorkiyga xos konsepsiya yaqqol ko'zga tashlanadi. Qashshoqlik va bekning adolatsizligi tufayli pichoq suyagiga qadalgan Abu Diyab hosildagi uning ulushini tortib olgan bekning uyiga tushadi va uni o'ldiradi. Abu Diyabning qilmishi dehqonlar tomonidan qizg'in kutib olinadi, chunki bu ularga zulm o'tkazganlardan olgan qasoslari ham edi.

Yozuvchi katta mahorat bilan Abu Diyab obrazida "quyi tabaqalar" yo'lboshchisining shakllanishi jarayonini ko'rsatib beradi. Hikoya voqealari zahirida o'quvchi tasavvurida irodali, dehqonlarni o'z orqasidan ergashtirishga qodir kuchli inson siymosi gavdalanib boradi. Hukumatdorlar Abu Diyabni qamoqqa olishga jur'at etmaydilar, ular dehqonlarning har bir qarashi, xatti-harakatidan sezilib turadigan xalq g'azabidan qo'rqadilar. V. al-Bunni o'z qahramonini rivojlanishda tasvirlaydi - u ilk stixiyali e'tirozdan ongli, e'tiqodli kurashchi darajasigacha o'sib boradi. Abu Diyab o'z do'stlari bilan partizanlar guruhi tuzib kurashni davom ettiradi. Umm al-Juz muzofotidagi o'rmon va o'tloqlar fransuz kolonial hokimiyatini tashvishga sola boshlaydi va u yerlarni yoqib yuborishni buyuradilar. Faqat Shaalan qo'lga tushadi. Hikoya Shaalaning o'limi bilan tugasa ham, o'quvchi endi xalq kurashini hech kim to'xtata olmasligiga, Abu Diyab va uning do'stlari kabi xalq qahramonlari g'alabasiga ishonadi.

Mavaxib al-Kayali o'zining "Shafaqning ilk shu'lalari" hikoyasida fallohlar ongini o'sib borayotganini katta mahorat bilan tasvirladi. O'qituvchi Lutfi Afandi qishloqqa kelishi bilan fallohlar uyqudan uyg'ongandek, o'zlarining bundan yaxshiroq yashashga haqlari borligini tushungandek bo'ladilar. Ishchilar muhitida ham sinfiy ong o'sib boradi. "Nega xo'jayin bizni o'zi uchun ishlashga majbur deb biladi? Bizda esa huquq yo'q. Nega?" Bu chalkash xayollar Abul Xoliqqa (Lian Deyranining "Iztirob" asari) tinchlik bermaydi. U o'z xayollarini do'stlari orasiga tashlaydi. Uning do'stlari ham og'ir mehnatlari evaziga arzimasa chaqa olib, butun daromad xo'jayin cho'ntagiga tushib ketayotganidan norozi. Abul Xoliqqa o'xshaganlar ko'payadi, ular qalbidagi norozilik kuchayib boradi va bu norozilik ochiq, shafqatsiz kurashga aylanishga tayyor.

Mavoxib al-Kayali o'zining "Qayg'uli kasb" hikoyasida ongli ishchi obrazini yaratishga harakat qiladi. Ikki yetim bola paxta tozalash zavodiga ishga kiradi. Lekin ular ham o'sha adolatsizlikka ro'para kelishadi. Bolalar og'ir ishni bajarishadi, ammo evaziga arzimagan haq olishadi, zavodning boshqa ishchilar ahvoli ham ulardan yaxshi emas. Bolalar zavodda "faylasuf" deb nom chiqargan ishchi bilan uchrashadilar. "Faylasuf" ishchilarga ularning qashshoqligi sababini tushuntirib beradi, ularni ongli umumiy kurashga chorlaydi. Bolalar hayotning turli qiyinchiliklarini yengib, faol kurashchilar safidan joy oladilar.

Suriyaning demokrat yozuvchilari fallohlar va ishchilar hayoti mavzusini o'zlashtira bordilar, kishida achinish uyg'otuvchi "kichik odam" bo'libgina qolmasdan, balki kurashga qodir ijtimoiy faol qahramonlarni izlash yo'lidan bordilar.

Antiimperialistik mavzulardagi novellalarda Liga yozuvchilarining demokratik va gumanistik intilishlari yana ham yorqinroq aks etdi. Ular vatan ozodligi uchun o'zini fido qilgan qahramonlarni sharaflar edilar.

Shavqi Bag'dodiyning "Sirtmoqdagi bo'yin" nomli novellasidagi navqiron inqilobchining psixologik portreti diqqatga sazovordir.

Suriya xalqining istiqlol yo'lida olib borgan kurashida ko'rsatgan mardligi, vatanparvarlik hissiyotlari Xasib al-Kayali hikoyalarida o'z aksini topdi. Ularda katta-yu - kichik qahramonlar qalbi iste'molchilarga qarshi nafrat bilan to'lib - toshgan. Chunonchi, "Lavlagi terimi" hikoyasida Suriya istilo qilingan davr tasvirlanadi. Ushoqqina fransuzning takabburligi va ermaklaridan g'azablangan bolalar uning villasidagi deraza oynalari, lyustralarini sindirib ketadilar. Bu bolalarga xos qilmishda toptalgan insoniy g'urur isyoni, mamlakatni talon - taroj qilib ochlikka mahkum etgan bosqinchilarga qarshi nafrat tuyg'ulari o'z ifodasini topgan.

"Yunus al-Jabas" hikoyasida ham vatanparvarlik mavzusi o'z ifodasini topgan. Unda Xasib al-Kayali bosqinchilarga qarshi kurash umumxalq tusiga kirib borayotganini ko'rsatgan. Yunus yashayotgan qishloq huvillab qoladi. Qishloq ahli, ayollar va qariyalardan boshqa hamma toqqa, partizanlar oldiga ketib qolgan. Um al-Juzadagi voqealarni Muridan eshitgan Yunusning qalbi g'azabdan tug'yonga keladi. Qishloq ahli tomonidan oq bayroq bilan fransuzlar oldiga elchi qilib yuborilgan qariyalarning shafqatsizlarcha otib o'ldirilishi Yunus qalbini jarohatlaydi. Yigitcha butun xalq kurashga otlangan bir payta uyida o'tira olmasligini tushunadi.

L.Deyranining "Yashil raketa" hikoyasidagi o'quvchi qiz Suadning qalbi dushmanlarga qarshi nafratdan jo'sh uradi. U o'z yurti uchun foyda keltirishni istaydi. Dovyurak, shiddatkor bu qiz o'z maqsadiga erishadi - u qo'shni uyning tomida turib dushman samolyotiga raketa bilan yo'l ko'rsatayotgan sotqinni fosh qiladi. Odil Abu Shanab ("Uyimizdagi qo'zg'olonchilar") ham yosh kurashchilar haqida mehr bilan yozadi. Bolalar qo'lga qurol olib ularning kelajagini himoya qilayotgan otalari, uning do'stlari bilan faxrlanadilar.

Bu hikoyalarning barchasida aholining keng tabaqalarini qamrab olgan kurash jabhasi aks ettirilgan. Yozuvchilar badiiy vositalar orqali xalqning vatanparvarligi, birdamligi, zulmga qarshi nafratini ifodalay oldilar va bu ham Suriya xalqining mustaqillik uchun kurashda qo'lga kiritgan g'alabasi omili bo'ldi.

Suriya novellasi bu davrda o'z o'quvchilariga ularni o'rab turgan dunyoni ko'rish imkonini yaratdi, ijtimoiy adolatsizlik, soxtakorlik va qoloqlikka qarshi kurashga chorladi. Shu ma'noda Suriya novellasining oldingi davri bu janrning arab voqeligi zaminida o'rin egallashi, milliy xarakter, ruhni ifodalashga urinish davri bo'lsa, mazkur taraqqiyot bosqichi uning haqiqiy gullab-yashnash davri sifatida xarakterlanadi.

Suriya yozuvchilari ijtimoiy optimizm ruhi, vatanlarining kelajak taraqqiyotiga bo'lgan ishonch kayfiyatida o'z ijodlarida ilg'or realistik metoddan foydalanib, xalqchillik, gumanizm tamoyillarini dastur qilib oldilar.

Suriya adabiyotida ro'y bergan chuqur jarayonlarning prinsipial muhim jihatlarini o'zida ifoda etgan omil, albatta, yangi qahramonlar tasviri edi. Bu davr adabiyotida xalq turmushining yangi ijtimoiy bosqichini o'zida ifodalagan qahramonlar gavdalandi.

Suriya hikoyasi hozirgi bosqichda

Har bir o'n yillikda Suriya adabiyotida novella janrini rivojlantirgan yangi nomlarni yuzaga chiqadi. Gada as-Saman, Abdulloh Abd, Nodiya Xost, Muhsin G'anim, Mustafo Hallojiy va boshqalar hozirgi bosqichda inson va jamiyat mavzusini qalamga olmoqdalar. Ular ijodi Suriya xalqining kundalik hayotidan sarchashma oladi. Ular ijodiga xos dolzarblik, xalqchillik, gumanizm o'quvchilar diqqatini o'ziga jalb etmoqda. Arab tanqidchilari bu yozuvchilarni an'anaviy yo'nalishga mansub deb hisoblaydilar. Bu o'rinda an'anaviylik so'zini orqaga qaytish, vatandoshlar ongiga diniy, millatchilik, antigumanistik g'oyalarni singdirish deb tushunmaslik kerak. Arab tanqidchilari yozuvchilarni "an'anaviy" deb xarakterlaganda ularning Liga yozuvchilari g'oyalari bilan uzilmas aloqalarini, yaqinliklarini, voqelikni tasvirlashda an'anaviy realistik metodga amal qilishlarini nazarda tutadilar.

Suriyada 1960 - yillarda bir guruh yozuvchilar maydonga chiqdilarki, ularning ijodida ongli ravishda realizmga qarshi isyon sezila boshladi. Buning sababi ular realizmni bevosita marksizm falsafasi bilan bir narsa, deb talqin qilishlarida edi. Shu bois Suriya yozuvchilarining realizmga bo'lgan intilishlari to'siqqa uchradi. Gazeta va jurnallar sahifalarida yozuvchilarning ingliz-amerika va Fransiya adabiyotiga yaqinlashib borayotgani sezila boshladi. 1965 yilda "al-Ma'rifa" jurnali "Sizning ijodingiz biror xorijiy yozuvchi ta'sirini o'zida aks ettiradimi?" degan savol bilan murojaat qilganida ko'pchilik yozuvchilar Sartr, Kamyu, Joys, Kafka nomlarini tilga oldilar. Bundan keyingi davrda ekzistensializm falsafasi ta'sirida bo'lgan yozuvchilar asarlaridagi personajlar jamiyatdagi ochiq kurash o'rniga o'zlarining ichki psixologik kurashlari bilan band bo'ldilar, mavhum falsafiy muammolar ifodachisiga aylandilar.

Bu yillarda kuzatilgan realizmdan chekinish o'zining siyosiy sabablari, ijtimoiy ildizlari, madaniy omillariga ham ega edi. Mamlakatdagi murakkab siyosiy holat, turli mafkuralar orasidagi kurash, asrlar osha davom etib kelayotgan islomiy va feodal an'analar, Isroil bilan bo'lgan urushdagi mag'lubiyat alami, mamlakating bir qism hududi bosib olinishi - bularning barchasi mamlakatda realistik adabiyotning rivojlanishi uchun noqulay sharoitni vujudga keltirdi.

Suriya adabiyotini mexanik tarzda realistik va modernistikka ajratish qiyin. Aksar hollarda yozuvchilar ijodida ham realistik, ham modernistik tamoyillar yonma-yon mavjud bo'lib, o'zaro to'qnashadi va kurashadi. Yozuvchilar ijodida hayotning murakkab, ziddiyatli masalalari har xil individual uslub va janrlar orqali o'z ifodasini topadi. Zakariyo Tamer, Jorj Salim va boshqalar hikoyaning shu vaqtgacha arab adabiyotida misli ko'rilmagan turlarini yaratdilar. Epik vazmin, keng qamrovli voqealar bayoni o'rnini o'quvchi bilan muloqotga asoslangan murakkab shakllar egalladi. Yozuvchilar o'z g'oyalarini majoz, istioralar vositasida, bayonga ertak va fantastika unsurlarini kiritgan tarzda ifodalay boshladilar. Yozuvchining ijodini kuzatib borayotgan arab tanqidchilari Zakariyo Tamerni " hayot dahshatlari va go'zalliklari kuychisi" deb atashadi. Misrlik tanqidchi Sabri Xofiz Tamer haqida bunday yozadi: "Bu yozuvchi hayotdagi o'rnini tinimsiz mehnat orqali egallar ekan, dunyoga g'alati, hayrona ko'zlar bilan nigoh tashlaydi va ko'p odamlar ko'rmagan narsalarni ko'radi. U hayotni boshqacha, odat tusiga kirgandan o'zgacha mushohada etadi. Bu qip - yalang'och, jarohatli qalb mushohadasidir".⁶⁵

Zakariyo Tamer yozuvchilik uslubining o'ziga xosligi nimada ko'rinadi? Ko'pgina arab yozuvchilari kabi urush va tinchlik, jamiyatni qayta qurish, qoloqlik, jaholat, xurofotga qarshi kurash, qashshoqlarning fojealari uning ham diqqat markazida turadi. Bu masalalarni yoritishda Tamer, albatta, arab yozuvchilari ichida birinchi emasdi. Ammo yozuvchi ijodida arab adabiy an'alariga xos poetik ramzlar hozirgi zamon jahon adabiyoti uslublari bilan uyg'unlashib ketgan. Uning adabiy uslubiga xos xislat so'zdagi tejamkorlik, sipolik, uslubdagi izchillik va til ifodaliligidir. Tamer uslubining o'ziga xosligi majozga, ramzlarga tez-tez murojaat qilishda, realistik bayonga ertak unsurlarini kiritishda namoyon bo'ladi.

"Qush" hikoyasida realistik bayon fantastika bilan qorishib ketadi. Abbos och. Uyidagi mushuklar ham uning o'zidek och. Bir och boshqa ochning qornini to'yg'aza olmaydi. "O'zlaring qorin g'amini yenglar," - deydi Abbos mushuklarga alam bilan. Uning ongida butun dunyoni portlatishga qodir bomba loyihasi pishib yetiladi. Mushuklar undan bu ishni qilmaslikni so'rashadi, evaziga esa unga uchish uchun qanot berishadi. "U quvonch bilan yer uzra parvoz etadi. Uning dahshatli g'azabi qayoqqa ketdi? Abbosning qalbida odamlarga nisbatan cheksiz muhabbat jo'sh uradi. Baxtiyorlikdan yig'lagisi keladi".⁶⁶ Lekin dam o'tmay u yerga qulab tushadi. Uning erkin, baxtli hayot haqidagi barcha orzulari sarob bo'lib chiqadi.

"Kichkina qalb" hikoyasidagi kambag'al Abu Fahid bir kuni mast holda uyiga qaytayotib yo'lda bir qo'zichoqqa duch keladi. U xursand bo'lib, och o'tirgan oilasi qornini to'ydirish uchun qo'zini uyiga qarab sudraydi. Ammo bu oddiy qo'zi bo'lmaydi, balki devlar podshohining bolasi ekani ma'lum bo'ladi. Qo'zi inson ovozi bilan Abu Faxiddan uni qo'yib yuborishni

⁶⁵ Закария Тамер. Ёнгинда қолган Дамашк. М. 1977.

⁶⁶ З.Тамар. Ўша китоб.

so'rab, evaziga yetti ko'za oltin va'da qiladi. Uyiga qaytgach Abu Faxid xotiniga bo'lgan voqeani gapirib beradi, u esa oltinni olmaguncha qo'zichoqni qo'yib yubormaslikni uqtiradi. Er-xotin yangi uy, farovon hayot, bola-chaqaning yorqin kelajagi haqida hayol surib ketadilar. Lekin ertasi kuni Abu Faxid kechagi joyda qo'zichoqqa duch kelmaydi, o'zi esa mast bezori qo'lida halok bo'ladi.

Zakariyo Tamer o'zi jamiyatning qashshoq tabaqalaridan chiqqani bois arab qashshoqlari hayotini yaxshi bilardi. Uning anduhli, lirik hikoyalari esa yozuvchining tashvishlarini, oddiy odamlarga bo'lgan hamdardligini ifodalaydi.

Abdulla ibn Sulaymon tez-tez nima uchun Olloh unga o'xshash bechoralarga rahm qilmasligi haqida o'ylar edi. U umr bo'yi mehnat qilar, lekin oyog'ida poyafzali yo'q edi. Nihoyat, u taqdiriga qarshi borishga qaror qiladi. Kunlardan bir kuni u bir yo'lovchining yo'lini to'sib oyog'idagi poyafzalini tortib oladi. Shu damda polisiya mashinasi kelib qoladi va Abdulloni hibsga oladi. Hikoya yozuvchining quyidagi achchiq kinoyasi bilan tugaydi: "Bu ishning nihoyasi buyuk Olloh o'lim yuborishini kutmasdan poyafzallik bo'lishni xohlab qolgan yalangoyoqlarga yaxshi ibrat bo'ladi".

Suriya adabiyotida an'anaga aylangan ijtimoiy tengsizlik mavzusi Suriya yozuvchilari uyushmasining tashkilotchisi va raisi Jorj Salim ijodida ham salmoqli o'rin egallaydi. Uning "Kambag'al odamlar" nomli hikoyalar to'plami nashrdan chiqqanida arab tanqidchilari bir ovozdan uni Liganing demokratik an'analari davom etdirib kelayotgan yozuvchilar guruhiga qo'shib quyidalar. Yozuvchi hikoyalarining qahramonlari kambag'al odamlar. Yozuvchi ularning falokatlariga to'la, umidsiz hayotini ko'rsatish orqali ijtimoiy muhitni tadqiq etadi. "Qabr" hikoyasida u faqatgina narigi dunyoda nasib qilishi mumkin bo'lgan yaxshi hayot to'g'risida orzu qilishga imkon qoldiradigan qashshoqlik tasvirini beradi. Hikoya qahramoni bir umr keng uy, farovon hayot to'g'risida xayol suradi, lekin umrini kambag'allikda, tor uyda o'tkazadi. O'g'li uning dardini yengillashtirish uchun morfiy olib kelganida, deydi: "Tiqilinchlik, dard - yomon narsa, dori ham kerak emas, menga kenggina qabr kerak". Hikoya o'g'ilning monologi asosida qurilgan, u biror narsani o'zgartirishga qodir emas, shundan aziyat chekadi. Aptekachi unga morfiy taklif qiladi, bu - uning onasiga ozgina vaqtga bo'lsa ham o'zini tashvishsiz va baxtli sezish imkonini beradigan yagona vosita.

"Arzimas voqea" asaridagi yosh, ammo tinka - madori qurigan qiz vrach kabineti yonida uni kuta-kuta jon beradi. Poliklinika egasi va uning yaqinlarini qizning o'limi tashvishga solmaydi, balki ular bu voqea poliklinika va do'xtirlar obro'yiga putur yetkazishidan tashvishga tushadilar. Bu achinarli manzarani kuzatgan roviy inson hayotining qadr-qimmati haqida o'y surib ketadi.

"Bolalar" hikoyasi kontrast asosiga qurilgan. Hikoyaning boshi yoqimli, kishiga xursandchilik bag'ishlaydi. Quyosh charaqlab turibdi, bahor ayyomi, bog'da qushlar sayraydi. Qabriston yaqinidagi bu bog'da o'ynab yurgan bolalar beixtiyor noxush manzara guvohi bo'ladilar. Bir qizchani dafn qiladilar, ammo negadir jasadni tobutsiz qabrga qo'yadilar (hikoyada masihiy oila to'g'risida so'z boradi). Bolalar ruhoniyan buning sababini so'raganlarida u kambag'allar hatto o'z yaqinlarini odamlarga o'xshab ko'ma olmaydilar ham, deb javob beradi. Bu gap ta'sirida bolalar diliga dard, va kelajaklariga nisbatan qo'rquv o'rmlab kiradi.

J.Salim mutafakkir san'atkor bo'lgani bois ijtimoiy zulm odamlarni mayib-majruh qilishini, ularning uyg'un rivojlanishiga xalaqit berishini tushunadi. Lekin adibning hikoyalarini o'qir ekanmiz, ularda ziddiyat yetishmasligini his qilamiz, yozuvchining hayotiy pozitsiyasini ilg'ab ololmaymiz. J.Salim "Jo'nash", "Tashnalik tarixi" to'plamlariga kirgan hikoyalarida o'z qahramonlarini ijtimoiy voqelikdan ajralgan holda tasvirlaydi, ularni tez-tez o'zgarib turadigan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitdan yuqori qo'yadi. Uning asarlarida ko'pincha nohaqlik tarixdan, zamondan tashqarida tasvirlanadi. Ularda yozug', taqdir alohida ahamiyat kasb etadi. Qator hikoyalar personajlari o'tmishni qoralaydilar, o'zlari yashab turgan shahardan nafratlanadilar. Biz ularda o'z g'azabini pinhon tutib qahvaxonada, sahroda tanho o'tirgan yoki ko'chalarda, yovvoyi tabiat qo'ynida kezib hayotni, odamlarni la'natlab yurgan qahramonni ko'ramiz.

"Jo'nash" to'plami hikoyalaridagi qahramonlar g'ayri-tabiiy holatlarda yashab, tafakkur qiladilar. Ular shartli "Sin" harfi bilan ataladilar. "Poezd" hikoyasida Sin kutilmaganda o'zini yurib ketayotgan poezdning bir vagonida o'tirgan holda ko'radi. "Men qanday bu yerga kelib qoldim, meni bu vagonga kim chiqazib qo'ydi, oldin qaerda edim?" - so'raydi u o'zidan. Hikoyada yurib ketayotgan poezd - hayot ramzi, uning uzluksiz harakati, shodliklari, qayg'uli, bayramlari, inson hayotidagi oddiy kunlari timsoli. Poezdga juda ko'p turli yosh va kasbdagi odamlar bor. Ular orasida hayotni falsafiy talqin qilishga uringan donishmand munajjim obrazi diqqatga sazovor. Hikoya boshidan oxirigacha Sinning hissiyotlari bayoni asosiga qurilgan bo'lib, u qadam - baqadam munajjim yordamida bu g'alati poezdning tuzilishini kashf etib, uning shafqatsiz va ildam harakatiga ko'nikib boradi. Sinning bu safar qachon tugaydi, degan savoliga munajjim faqat o'lim kishini bu intihosiz harakatdan xalos qiladi, deb javob beradi. Sin g'ildiraklarning surunkali tiqir-tiqiri ostida uyquga ketar ekan, birdaniga to'xtovsiz oldinga intilayotgan, o'lim nomli noma'lum manzilga shoshayotgan bu poezdning to'siq bilmas harakatiga ko'nikish, bo'yin egish lozimligini anglaydi.

Valid Ixlosi, Zakariyo Tamer ijodidagi modernizm konsepsiyasiga xos ekzistensializm, irratsionalizm, fenomenologizm, mifologizm va boshqalarga hayotni diniy konsepsiya asosida tushinishni qo'shdi. Uning ijodida ezgulik va adolatning to'la g'alabasi yo narigi dunyo bilan yoki oxirat bilan bog'lanadi. Uning falsafasidagi itoat, mo'minlik, zulmga qarshi bosh ko'tarmaslik, kechirimlilikning ildizi shu yerda.

"Chig'anoq" hikoyasida insonning o'zi yashayotgan jamiyatdan begonalashib yurishi - odamovilik muammosi qalamga olingan. Qahramonga hayotdagi hamma narsa - universitet, sayohatlar, oila - nasib etgan, hayotga qiziqishi, bolalari bor. To'satdan uni sotsial letargiya - befarqlik o'z domiga tortadi. Asta-sekin qahramonni muhit bilan bog'lab turgan ijtimoiy rishtalar zaiflashib, yo'q bo'lib ketadi. Uzlat, tanholikka intilib, u katta chig'anoq ichiga kirib yashay boshlaydi. Lekin bu yerda ham azob-uqubatlar uni tinch qo'ymaydi. Haligacha u ruhiy qiynoqlardan aziyat chekkan bo'lsa, endi chidab bo'lmas jismoniy azoblar iskanjasiga oladi. U o'rnidan turish, yurish imkoniyatidan ham mahrum bo'ladi. Yaqinlari yodiga tushadi, ularni yordamga chaqiradi. Uning ko'z o'ngida alpgavda shayxning bahaybat soyasi paydo bo'ladi. Ammo uning yolborishlari behuda ketadi. Shayx uni tanholikda azob chekib o'lishga mahkum etib, yolg'iz tashlab ketadi. "Dilingdagi nur so'ndi, qalbing qurib, bir parcha yog'ochga aylandi, u endi a'zolarini oziqlantirishga qodir emas" - deydi shayx uni tashlab ketayotganida.

"Katta mehmonxona", "Soqovlar so'zlashuvi", "Golgofaga ko'tarilish" asarlarida dunyo qora bo'yoqlarda tasvirlanadi. Inson tasodifan hayot girdobiga otilgan, u cheksiz mashaqqatlar, og'ir va umidsiz qiynoqlardan so'ng o'limga mahkum. Umrbod qashshoqlik, bir luqma non uchun kurash, doimiy qo'rquv va xavotirlik insonning sillasini quritadi, undagi o'z ideallari yo'lida kurashish istagini so'ndiradi.

"Tashnalik tarixi" to'plamidagi "Bulutga aylangan odam" hikoyasida tasvirlangan davlat idorasi xodimi har doim ishdan haydaliq qo'rquvi ostida yolg'izlik azobini chekib yashaydi. Salim talqinida hayotda reallik va irreallik orasida chegara yo'q, hayot chegarasizlik, absurd va alg'ov-dalg'ovdan iborat. Hikoya g'oyasi xodim va osmondan farishta qiyofasida tushgan bola obrazlari orqali ochiladi. Yerdagi hayot qahramonni jonidan to'ydiradi va u nigohini osmonga qaratadi, bulutlarga havas qiladi, boshqa dunyoga ketgisi keladi; bola uning orzusini ro'yobga chiqaradi, qo'lidan tutib, ochiq fazoga sayohatga olib ketadi.

Muta as-Safadi, Valid Ixlasi va boshqalar hikoyalarida odamovilik muammosi qahramonlarda sarosimalik, hamma narsani zer-zabar qilish to'yg'usini uyg'otgan bo'lsa, Salim asarlarida bu muammo hayotning butunlay ma'nisizligini, o'lim haqligi e'tirofiga olib keladi.

"Shahar chetida" hikoyasidagi yigit yarim tunda qahvaxonadan qaytar ekan yo'ldan adashib, uyini topaolmay qoladi. Uning kun bo'yi uyini topishga qilgan harakatlari zoye' ketadi. U uydin ham, xotindin ham, bolalardan ham mahrum bo'ladi. Dallol unga yordamga qo'l cho'zadi. U yigitga turli uylarni ko'rsatadi, lekin yigit yana ularni yo'qotib qo'yaveradi, topa olmay yuraveradi. Kutilmaganda dallol unga ajoyib uy topgani va u bu uyni hech qachon yo'qotib qo'ymasligini, eng muhimi, bu uyda u o'zini yolg'iz va g'amgin sezmasligini aytadi.

Dallol topgan uy shahar chetidagi manzarali sayhonlikda joylashgan. Dallol yigitni qabrga ko'madi. Yozuvchi talqinida dunyo ma'nosiz, uning qo'ynidagi inson esa ojiz va notavon, falokatlar, dunyoning yugur-yugurlaridan qutulishning yo'li esa - o'lim, qabr. Faqat shu yerda inson, nihoyat, orom oladi, o'z hayotining ma'nosizligi, maqsadsizligini anglab yetadi. Shu yo'l bilan o'lim g'oyasini Salim umumiy, mutlaq darajaga ko'taradi. Modernizmning boy ifoda uslubidan Salim bayondagi uzuq-yuluqlik, turli zamonlarning qorishib kelishiga ko'proq murojaat etadi.

Salim personajlarini hatto muhabbat tuyg'usi ham hayot azoblaridan qutqara olmaydi. Sin bir qizni sevib qoladi ("Jo'nash" hikoyasi). Shu vaqtda Sinni telegramma orqali uyiga chaqirib qolishadi. Oshiq-ma'shuqlar bir-biridan ayrilishiga to'g'ri keladi. Bundan ular ko'p iztirobga tushadilar. Yoshlarning o'zaro suhbatidagi qisqa, uzuq-yuluq iboralar ularning qayg'uli ahvolini ifodalaydi. Ular norozilik bildirish, muhabbatlarini himoya qilishga qodir emas. Qayg'u, umidsizlik, biror narsani o'zgartirishdan ojizlik, ularning ahvoli-shu. "Poezd" hikoyasida hayotning beshafqat ritmi ko'rsatilgan bo'lsa, bu yerda, aksincha, zamon va hayot to'xtab qolgandek, dunyoda yurakni o'rtovchi muhabbat tuyg'usi va judolik alamidan o'zga narsa yo'qdek.

Salim hikoyalari sahifalarida hukm suradigan e'tiqodsizlik na zamoniy, na ruhiy chegarani biladi, u qandaydir mavhum substansiya - mohiyat kabi chayqalib turaveradi, shu sababdan uni tahlil va tafakkur qilish ma'nosizdek tuyuladi.

Borliq va shaxsning ekzistensializmga xos konsepsiyasi Suriya adabiyotida 60-yillarning boshlarida kuchaydi. Adabiy jarayonda kuzatilgan bu bo'hronli holat ham arab, ham xorijlik olimlar tomonidan o'rganilayotir. Suriyalik olim Ali Solih Ali Suriya adabiyotida kuzatilgan realizmdan chekinishni bunday izohlaydi: "Bu - Liganing tarqalib ketishi tufayli realistlik adabiyotning ko'zga ko'ringan namoyandalari adabiy hayotdan chetlanishi, ko'proq modernistik adabiyotga ergashish, bir vaqtning o'zida ham marksistik, ham burjua-falsafasidan yuz o'girgan mayda burjuaziyaning mafkuraviy bo'shliqqa tushib qolishi oqibatida falsafada "uchinchi" yo'lni izlashi va uni ekzistensializmga topishi oqibati".

Jorj Salim, Muta Safadi va boshqalar to'g'risida gapirganda, ularning badiiy shakl sohasida, uslubiy va kompozision rang-baranglikda erishgan yutuqlarini chetlab o'tib bo'lmaydi. Jorj Salim ijtimoiy jihatga diqqat qilmagan holda insonning ichki dunyosiga kirib borish texnologiyasini ishlab chiqishga o'z ulushini qo'shdi. Insonning jamiyat bilan bog'liq fojealarini ko'rsatar ekan, najot yo'lini u shaxsning ongliligida ko'radi. Bu esa, uni shaxsning majburiy qulligi, jamiyatga qarshi foydasiz isyoni g'oyasi tomonga yetaklaydi. Pirovardida, u inson hayotining boshqacha shakli bo'lishi mumkinligiga ishonchsizlik bildiradi.

Agar Suriya adabiyotining paydo bo'lishi, shakllanish davridan bugungacha bo'lgan umumiy taraqqiyot yo'nalishiga nazar tashlansa, uning har doim milliy zaminga chuqurroq kirib borishga, turli davrlarda mamlakat, xalq orzu-umidlarini tasvirlashga intilganini ko'rish mumkin.

Hozirgi zamon sharoitida insonga bo'lgan munosabat, uning imkoniyatlarini baholash, ichki dunyosini tushunish, shaxsning jamiyatdagi o'rnini belgilash, uning tarix taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatish qobiliyatini tadqiq etish - bu masalalar Suriya yozuvchilari tomonidan turlicha talqin etib kelingan va etilmoqda.

VII BOB IROQ ADABIYOTI

Iroq XIX asr boshlarida Yaqin Sharqning eng ko'p qullik asoratiga tushgan mamlakatlaridan edi. Bu mamlakat Usmonli turklar saltanatining chet o'lkasi, odamlar surgun qilinadigan joy hisoblarnadi. Misr va Suriyada arab islohotchilarini junbushga keltirilgan liberal g'oyalari XIX asrning 60-yillarigacha Iroqqa kirib bormadi, jamiyatga sezilarli ta'sir ko'rsatmadi. Iroqning ziyoli doiralarida an'anaviy she'riy asarlar, yilnomalar, maqomatlar, Qur'on tafsirlari o'qilar, madhiya she'rlar yozish keng rivojlangan edi.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Iroq adabiyotiga ma'rifatparvarlik tafakkurining ilk to'lqinlari kirib kela boshladi (arab adabiyotshunoslari bu davrni adabiy yuksalish - "an-nahda al-adabiya" deb atashadi) Bu davrda bir qator Iroq adiblari ijodida nafaqat xorijliklar zulmiga, balki feodal voqelikka nisbatan o'ta salbiy munosabat shakllandi. Ular baholi qudrat bilim egallash, xalq hayotini yaxshilashga da'vat etib asarlar yoza boshladilar.

Iroq adabiyotida vorislik zanjiri hech qachon uzilmagan va adabiyot maydoniga har doim yangi-yangi buyuk ijodkorlar kirib kelgan bo'lsalar ham, unda g'oyalar va obrazlar evolyusiyasi sekinlik bilan kechdi. Asr boshida boshqa madaniyatlar vakillari bilan aloqa qilish imkoniyatidan mahrum bo'lgan Iroq adiblari ko'proq o'zlarining arabiy-islomiy meroslariga murojaat qilar edilar.

IROQ SHE'RIYATI

Poeziya Iroq adabiyotining eng rivojlangan sohasi bo'lib, aksar shaharlar uning rivojlanish markazlari bo'lib xizmat qildilar. Cho'l etagida, giyoh o'smaydigan tekislikda joylashgan mo'jazgina Najaf shahri bu manzillarning eng muhimi edi. Najaf avloddan avlodga o'tib kelayotgan arablarning jonli tarixini saqlovchi bir xazinadir.

Iroq adabiyotida XIX asrning oxirigacha she'riyat asosiy o'rin egallar, unda an'analar iskanjasida qolgan lirika, islomiy ruh hukmronlik qilar edi. Ammo XIX asrning boshlarida ro'y bergan barcha muhim siyosiy voqealar Jamil Sidqi az-Zaxoviy (1868-1939), Ma'ruf ar-Rusafi (1875-1945), Abu al-Muhsin al-Kozimiy (1865-1935) ijodida o'z aksini topa boshladi. Bu shoirlar ijodining gullagan davri XIX asrning 20-30 - yillariga to'g'ri keladi. Bu davrda ingliz bosqinchilari va ichki feodal reaksiyasiga qarshi jo'shqin kurash davom etardi.

Iroq jamiyatida XX asr 20-yillarning oxiriga kelib, har jihatdan rivojlanish nishonalari ko'rina boshladi, jamiyatda tabaqalanish kuchaydi, xalq ommasining ongi o'sdi, shaharlar sur'at bilan rivojlandi, sanoat korxonalari vujudga keldi, ular xonavayron bo'lgan hunarmandlar va kasanachilarni o'z bag'riga oldi. Bu omillar ishchilar sinfining maydonga kelishi, uning o'zini anglash jarayonining tezlashuviga olib keldi. Bu davrda o'rta burjua tabaqalari ham anchagina mustahkam mavqega ega bo'ldi.

Iroq qishloqlarida feodallar zulmi, monarxiya tuzumini qo'llab-quvvatlagan hukmron doiralar istibdodi kuchaydi. Buning oqibatida mamlakatda ish tashlashlar, ommaviy mitinglar, namoyishlar, ayovsiz ekspluatatsiya qilinayotgan dehqonlarning qurolli qo'zg'olonlari yuzaga kelaboshladi. Bunday hol Iroq xalqi oldiga yangi maqsad va vazifalar qo'ydi.

Iroq xalqining shiddatli kurashi adabiy hayotda jonlanishga olib keldi, bir qator ijtimoiy-siyosiy va adabiy jurnallar ta'sis etildi.

Iroqning vatanparvar shoirlari miting va yig'ilishlarda xalq oldiga chiqib o'z asarlarini o'qishar, odamlarni ruhlantirib, faol siyosiy kurashga chorlar edilar. Vatanparvar shoirlar inglizlar siyosatiga qarshi oppozision partiyalar, gazetalar atrofiga birlashar, klublarda faoliyat ko'rsatishar edi.

Iroq shoirlarining xalq hayoti, kurashiga faol aralashuvi Iroq poeziyasiga barakali ta'sir ko'rsatdi, tilning tushunarligi, uslubning soddaligi bu davr poeziyasining o'ziga xos xususiyatiga aylandi. Yangi davr Iroq shoirlari asarlari endilikda o'rta asr arab poeziyasiga xos balandparvoqlik, murakkab ifodalardan xoli edi. Eski shakllarni saqlab qolgan holda shoirlar xalq hayoti, uning kurashini o'z asarlari mazmuni qilib oldilar va bu bilan adabiyotga yangi

poetik shakllarning kirib kelishiga zamin hozirladilar. Ikkinchi jahon urushidan so'ng esa, ular badiiy adabiyotdan o'rin egalladi.

Mazkur davrda novella, drama kabi boshqa adabiy janrlar badiiy adabiyotga kirib kelgan bo'lsa ham, Iroq adabiyotidagi rivojlanish aynan poeziya, ayniqsa, siyosiy poeziya bilan bog'liq edi. Bu hol, birinchi navbatda, Iroq poeziyasi boshqa adabiy shakllarga nisbatan xalqqa yaqin bo'lganligi, tushunarliroq, ifodalibroq bo'lgani bilan izohlanadi. Ikkinchidan, qisqa va ta'sirchan she'r odamlar ongiga tez ta'sir qilar, miting qatnashchilari she'rlarni jo'r bo'lib takrorlashar, kuylashar, qo'lda ko'chirib tarqatishar, bu esa she'riyatga qiziqishni ham kuchaytirardi. Uchinchidan, shoirlar ishtirokida o'tgan ommaviy miting va namoyishlar xalqqa o'z ta'sir kuchini ko'rsatar, uni kurashga chorlar edi.

Tabiiyki, shoirlar siyosiy voqealarni ifodalashda turli adabiy vosita va uslublardan foydalanar va bu narsa har bir ijodkorning salohiyati, iste'dodi, ro'y berayotgan voqealar mohiyatini tushunib, haqqoniy ifodalash qobiliyatiga bog'liq edi.

Bu davrda adiblar xalq hayoti muammolarini chuqurroq anglay boshladilar. Vatanparvar shoirlar ijodida kurashchan xalq obrazi muhim o'rin egalladi. Bunday mualliflarning ko'pchilik asarlari xalq turmushi, uning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy ahvoli tasviriga bag'ishlangan. Ularda xalq ommasi kayfiyati, ularning tuyg'ulari, baxtga intilishlari va hokazolar o'z aksini topgan. Iroq vatanparvar shoirlari asarlari xalq qudratini tashqi va ichki reaksiyaga qarshi birlashtirishda katta rol o'ynadi. Poeziya xalq ongini o'stirish, uni ma'rifatli qilish, tevarak-atrofdagi xatarlardan ogoh etishga xizmat qilardi. Badiiy ijod ozodlik yo'lidagi kurashda xalq qo'lidagi qurolga aylandi.

Bu ijodkorlarning xalqqa bo'lgan ishonchi, ular taqdirining xalq taqdiri bilan birlashib ketishi, o'z ijodlarini xalq xizmatiga bo'ysindirishlari ular merosini xalqchil adabiyot sifatida baholash imkonini beradi. Mazkur davr Iroq adabiyotining ulkan shoirlaridan biri Jamil Sidqi az-Zaxovi edi.

JAMIL SIDQI AZ-ZAXOVI (1863-1939)

Jamil Sidqi Bag'dodning taniqli muftiysi Muhammad Fayzi az-Zaxovi farzandi, Iroqdagi qadimdan mashhur bo'lib kelgan oila avlodlaridan edi. Yoshlikda u otasining Bag'doddagi maktabida o'qidi. Maktabda shariat va adabiyot fanlari o'qitilardi. O'ta zehnlil Jamil maktabning eng yaxshi o'quvchilaridan edi. Arab tili va adabiyotidan tashqari u fors va turk tillarini mukammal egalladi. Maktabni tugatgach Jamil jurnalistik va adabiy faoliyat bilan shug'ullana boshladi.

Az-Zaxovi Bag'dod ilmiy anjumani a'zosi bo'lib, "az-Zaura" gazetasini nashr etishda ishtirok etar, Istanbul universitetida arab falsafasi va adabiyotidan dars berar, ayollar huquqi uchun kurashar edi. Hayotining oxirgi yillarida u Turkiya parlamentiga saylandi.

Jamil Sidqiyning adabiy merosi boy. Uning orasida "She'riy nutq" ("Al-Kalom al-manzum"), "Ruboiyot" kitoblari, she'riy devon mavjud.

Az-Zaxovi novator shoir edi. U 20-yillarda bir qator maqolalar yozib, she'riyatni qoloq an'analar asoratidan xalos qilish, shaklda, qofiyada rang-baranglikka imkon yaratish, poeziyaga oq she'rni olib kirish, she'riyat tilini so'zlashuv tiliga yaqinlashtirish g'oyalarini targ'ib etdi, Yevropa shoirlariga ko'r-ko'rona taqlid qiluvchilarni ayovsiz tanqid qildi.

Az-Zaxovi mazmunda ham novator edi. Shoir adabiy merosining salmoqli qismini vatanparvarlik mazmunidagi asarlar tashkil etadi, ularni ijtimoiy harakatlarda faol qatnashishga chaqiruvchi asarlar muhim o'rin tutadi. Adibning adabiy merosi nafaqat o'z vatanida, balki butun arab sharqida sevib o'qiladi.

MA'RUF AR-RUSAFI (1875-1945)

Shoir Bag'dodda kurd oilasida dunyoga keldi. U boshlang'ich ta'limni Bag'dodda oldi. Keyinchalik Bag'dodda arab adabiyotidan, Konstantinopoldagi Davlat Oliy maktabida arab

tilidan dars berdi. Adib Turkiya parlamenti departamentiga saylandi, ammo ko'p o'tmay hukumat bilan ixtilofda bo'lgani uchun davlat ishlarini tark etdi. Ar-Rusafi jasorat bilan o'z qarashlarini himoya qilar, mamlakatning tez sur'atlar bilan rivojlanishi tarafdori edi.

Ar-Rusafi o'zidan ham poetik, ham nasriy asarlardan iborat juda boy adabiy meros qoldirdi. Ayniqsa, uning "Ar-Rusafiyot" nomi bilan 1910 va 1931 yillarda nashr etilgan devoni juda mashhur.

Ar-Rusafiy she'riyati bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega. Shoir an'anaviy shakl va janrlardan foydalangan bo'lsa ham, uning she'rlari zamon ruhi bilan sug'orilgan, til va uslub jihatidan sodda va tushunarli edi. Zamonasining turli jihatlarini, xususan, ijtimoiy munosabatlarni qalamga olar ekan, u o'z asarlarida xalq hayotini yaxshilash g'oyalarini, odamlarning orzu-umidlarini ifodalashga harakat qildi.

Ar-Rusafiyning she'rlari xalq orzu-umidlari haqqoniy aks ettirilgani, odamlar qalbida jo'sh urib turgan g'azab va nafratni ifodalagani uchun Iroq xalqi, boshqa arab mamlakatlari aholisi orasida keng tarqalgan edi. Shoir o'z xalqini ozod ko'rishni istardi. Ammo Iroq istiqlolini qo'lga kiritish bunchalik uzoq muddatlarga cho'zilgani unda umidsizlik, chorasizlik kayfiyatlarini tug'dirardi.

Arablar, aytingchi, kelarmi, qachon -
Siz g'aflat uyqusin tark etgan zamon.

Ar-Rusafiy "Iroqda so'z erkinligi" she'rida yuraksizlik tufayli zolimlarga qulluq qiluvchi shoirlarni achchiq so'zlar bilan tanqid qiladi:

Jim bo'lingiz! So'z taqiqlangan,
Uyquga cho'ming-u, qaytib uyg'onmang.
Uxlab, tush ko'rayotganlar baxtlidir bugun,
"Millat ozodligi" so'zini endi unuting.
Kamsuqum bo'lganlar orom yashaydi,
Dolzarb mavzularni chetlab o'tganlar!..

Ammo shoir pirovard g'alabaga ishonar va bu ishonch unga umid bag'ishlardi:

Ojiz huquqini olur, yo'qolur zulm,
Zolimlar ham yo'q bo'lur bir kun.
Bunyodkorlik shafag'i yarqirab-
Vatan osmoniga yoyilar so'zsiz.

Shoir hal qiluvchi bu kurashda asosiy rahbarlik rolini ishchilar sinfi o'ynaydi, deb hisoblar, shuning uchun ham hokim tabaqalar o'zlarining asosiy zarbalarini milliy-ozodlik harakatida munosib o'rin egallash uchun kurashayotgan ishchilar sinfiga qarshi qaratgan bir mahalda, ularni himoya qilib asarlar yozdi.

Ar-Rusafiyning "Ishchilarga" asari shoirning mehnat kishisining jamiyatdagi roli, kurashdagi o'rnini qanday tushunganini yorqin ifodalab beradi. Ishchilarning siyosiy va ijtimoiy huquqini himoya qilishga bag'ishlangan bu she'r bunday so'zlar bilan boshlanadi:

Mamlakatning barcha boyligi -
Mehnat samarasi, o'zga narsamas...
Taraqqiy etsa agar yana jamiyat,
Bularning barchasi ishchilar tufayli.

Shoir insondo'stlik va halollik quvg'in qilingan jamiyatning axloqiy norasoliklarini qalamga oladi, odamlar o'z muddaolarini hosil qilish uchun qo'llaydigan turli g'ayriqonuniy, tuban vositalarni qoralaydi.

"Hayot bizni firibgarlik va aldov yo'liga boshladi va ko'rib turganingizdek, biz tulki terisidan tikilgan soxtakorlik nimchasini kiyib oldik.

Bu azoblarimiz yana qancha davom etarkin, qachongacha ko'r va gumroh bo'lib yuramiz?"

Iroqning o'sha davrdagi sharoitida o'z iymon - e'tiqodi haqida ochiq so'zlash adibdan katta grajdanlik jasoratini talab qilar edi. O'z yo'lining xaqligiga ishonch shoirga kuch bag'ishlar edi.

Az-Zaxoviy va ar-Rusafiy ijodining ilg'or jihatlarini Iroq adabiyotiga 30-yillarda kirib kelgan Muhammad Mahdi al-Javohiriy (1905 y.tug'), Muhammad Solih Bahr al-Ulum (1912 y. tug') tomonidan rivojlantirildi.

MUHAMMAD MAHDI AL-JAVOHIRIY

Taniqli jamoat arbobi, Jahon tinchlik kengashining a'zosi al-Javohiriyning butun hayoti xalq kurashi bilan bog'liq. U bir necha bor hibsga olingan, 1955 yilda esa Suriyaga muhojirat etishga majbur bo'lgan edi. Al-Javohiriy 1959 yilda Moskvaga kelib, yozuvchilarning 3 s'ezdida qatnashdi.

Al-Javohiriy asarlari ikkinchi jahon urushidan keyingina nashr etila boshladi. Ular orasida "Sevastopol", "Stalingrad" nomli sovet xalqining urushda ko'rsatgan qahramonligini qutlashga bag'ishlangan she'rlar ham bor. Bir qator she'rlarida u 1920 yildagi Iroq, 1925-1927 yillardagi Suriya isyonlari haqida yozdi, mehnatkashlarning, ayniqsa, dehqonlarning ayanchli ahvolini tasvirladi, xalqni qarshilik ko'rsatishga, feodallar zulmiga qarshi kurashga chaqirdi.

Al-Javohiriy Arab sharqining ulkan shoiridir, uning she'rlari Bag'dod, Damashq, Bayrutda ko'p marta bosmadan chiqqan. Shaki jihatidan al-Javohiriy asarlari an'anaviy. Ularning tili ham aksar hollarda eski, unda an'anaviy obrazlardan keng foydalanilgan. Bu xislatlari tufayli uning she'rlari faqat yetarli tayyorgarlikka ega bo'lgan o'quvchilarga tushunarli bo'lishi mumkin.

Javohiriy Iroq xalqi dushmanlariga qarshi jasorat bilan so'z ayta oladigan otashin kurashchi sifatida maydonga chiqdi.

"Nimani kutamiz? Uyat emasmi,
Tug'ilgan yurtimizni -
Har joyda tobe' deb atasalar,
Bizni esa qul desalar?!"

Javohiriy zamondosh shoirlar orasida she'r tilining aniqligi, jarangdorligi, o'zining nodir iste'dodi bilan alohida ajralib turadi. I.Yu.Krachkovskiy Javohiriyning 1949 yilda Damashqda bosilib chiqqan devoni bilan tanishar ekan, "muallifning tasvirlash kuchi va poetik iste'dodini aslo inkor qilib bo'lmaydi", - deb uning ijodiga yuqori baho bergan edi.

Shoir o'z asarlarida Sharqdagi feodalizm mohiyatini ochib beradi, zamindorlar obrazini, arab falohlarining og'ir mehnati va och-nahor hayoti manzaralarini chizadi, xalq orasidan chiqqan iste'dodli insonlarning zoye' bo'lishi haqida yozadi.

Javohiriy o'zining buyuk o'rta asr arab shoiri Abul Alo al-Maariyning 1000 yilligiga bag'ishlangan she'rida bunday yozgan edi:

«Men bunday falsafadan hazar qilaman,
Agar u birov mehnatga, boshqa birov rohatga yaratilgan desa".

"Ertangi kun dunyosi" dostoni al-Javohiriyning eng yaxshi asarlari qatoriga kiradi. Asarda odamlarning qul bo'lib yashashlaridan iztirob chekkan shoir ularga vujudlarida yashirib yotgan buyuk qudrat mavjudligini eslatib qo'yadi, xalqni qul bo'lib ishlashdan bo'yin tovlashga o'z hayoti, baxtini qo'lga olishga chaqiradi:

La'natlangan tuzum!
Jinoyatkor tuzum!
Sen vayronlik va turg'unlik keltirding.
Sen daydilar va qashshoqlar to'dasini yetishtirding.
Yolg'on to'qiding, talonchilik tug'dirding,
Ortingdan faqirlar va ochlik ergashib yuradi.
Soya kabi, ey manfur tuzum.
Ey inson, senga aytaman!
Kulbang qayoqda, vatanning qaer?
O'zing qul bo'lding, oilang boshpanasiz, och,
Xonu amirlar koshonalarda.
Sening hisobingdan maishat qiladi.

O inson, bilishni xohlaysanmi -
Kim bo'lishing mumkin edi, kim bo'lasan,
Fosid zodagonlar sening mehnating hisobiga yashaydi.
Barcha narsani sening qo'llaring yaratgan.
Sen o'z yurtningni boshqarishing mumkin edi,
Unda munosib o'rin egallashing mumkin edi.
Qul bo'lib xizmat qilma endi ularga,
Uyalmay bronepoezdlar qurayotganlarga -
Hamma yerda, har kun o'lim sochish uchun,
Harbiylar galasini jangga tashlash uchun -
Birovlarning shaharlarini buzmoqqa.
Devorlar qurishdan bosh tortgin endi,
Temirni eritma, to'plarni quyma.
Xandaqlar qazima, unda o'lmoqlik uchun.
Ko'nmagin toshlarni sayqallashga ham,
Tanga zarb qilishga, yombi quyishga,
O'zingga qullik zanjirini yasashga ko'nma.

Javohiriyning eng mashhur asarlaridan biri "10 yildan keyin" she'ridir. She'r 1931 yilda, Iroq siyosiy va iqtisodiy tanglikka uchragan paytda yozilgan edi. She'rda Javohiriy yer va butun boyliklarni o'ziniki qilib olgan feodallar va shayxlar zulmidan aziyat chekib yotgan dehqonlar ahvolini bayon etadi. Shoirning fikricha, boshqa xalqlar olg'a ketgan va rivojlanayotgan bir vaqtda Iroq xalqi feodalizm sharoitida yashaydi:

"Xalqlar tez odimlar bilan olg'a ketmoqdalar,
Biz esa ortga chekinayapmiz.
Bir to'da savodsiz ahmoqlar tufayli-
Xalq feodalizm zulmidan azob chekmoqda.
Hukumatdorlar halol odamlar qalbini jarohatladilar,
Xalq ular tomonga intilar edi.
Ular o'rniga qaroqchilarni amalga tayinladilar,
Bir to'da sotqin, qallob, firibgarlarni.
Hammasi bir go'r, vagonga ortilgan bir yuk kabi.
Keyin ulardan qamchi yasab jafokash yurtimizni savaladilar,
Vatan og'riqdan ingrab yubordi".

Shoir noxush manzaralarni chizish bilan cheklanmaydi, u xalqni davomli kurashga chaqiradi, gumashtalar zulmidan qutulishga da'vat etadi. U adiblar, madaniyat arboblari xalq ongini uyg'otishga, qiyinchiliklardan qo'rqmaslikka, dushmanlar tahdididan cho'chimaslikka chaqiradi:

Ey, mazlum dillar, qasos olingiz,
Yomonlikka yomonlik bilan javob qaytaring!
Yozuvchi va shoirni madadga chorlang,
Dilingizni ularga ochib ko'rsating.
Vatanparvarlik tuyg'usi-yu qalam nega kerak,
Agar ular qo'rqsalar, ikkilansalar?
Nohaqlik va zulmni o'tda yoqinglar,
Javohiriy xalq birligi haqida gapiradi.
Bu kuchlar birlashar yaqin zamonda,
Hukmronlar to'dasiga tahdid solar u.
Eng botir bu millat qudrati jo'sh urmoqda,
U xalqni yerdan osmonga yuksaltiradi.

She'r qurolli qo'zg'olonga chaqiriq bilan nihoyasiga yetadi, unda xalq va uning dushmanlari orasidagi ziddiyatni qurol bilan hal qilishga da'vat qilinadi. Xalq va uning dushmanlari orasidagi ziddiyatni qon bilan hal qilgin, deydi shoir.

Iroq shoirlari eng ezilgan tabaqa - dehqonlar ahvolini tasvirlashga ko'p e'tibor bergani bejiz emas. Iroq aholisining mutloq ko'pchilik qismini dehqonlar tashkil etadi. Dehqonlarning feodallarga, haddan og'ir soliqlarga qarshi 30-yillarda ko'targan qo'zg'olonlari hukumat tomonidan shafqatsizlarcha bostirildi. Yozuvchilarning dehqonlar mavzusiga murojaat qilishi ularning oliy darajadagi grajdanlik tuyg'usiga egaliklari, dehqonlar bilan mustahkam aloqada bo'lganlarini ko'rsatadi. Bu mavzuda yozilgan aksar she'rlar masalani qurolli qo'zg'olon yo'li bilan yechishga da'vat qilishi bilan diqqatga sazovordir.

Bahr al-Ulumning "Dehqonlar" she'rini bu mavzudagi eng yaxshi asar deyish mumkin.

BAHR AL-ULUM

Shoir Najafda - shoirlar shahrida dunyoga keldi. Adibning ismiga e'tibor qilinsa, uning ajdodlari ilm olamida mashhur bo'lganligini bilib olish mumkin.

Shoirning ajdodlari ota tomonidan Bahr al-Ulum, ona tomonidan Javohiriy bo'lib, bu xonadonlar o'z shoirlari bilan shuhrat qozongan edilar. Muhammad Mahdi al-Javohiriy, Bahr al-Ulumning tog'asi, buyuk arab shoiri ham shu xonadon namoyandasi edi.

Iroqda uzoq muddat davomida reaksiya hukmroklik qildi. Xalqning eng yaxshi o'g'lonlari qamoqxonalarda azob chekdilar. Xalq shoiri Bahr al-Ulum ham 30 yilga qamoq jazosiga hukm qilingan, undan 16 yilini qamoqxonada o'tkazgan edi. Mamlakatdagi feodal - monarxiya tuzumini ag'darib tashlagan 1958 yil 14 iyuldagi inqilob uni ozodlikka olib chiqdi. Qamoqxonadagi alamli kunlarni eslab shoir bunday yozgandi:

Ko'p yillar chidadim mustabidlar hukmronligiga,

Ammo qalbimda umid yashar edi barhayot.

Bahr al-Ulum inqilobgacha yaratgan barcha she'rlar mustamlakachilarga qarshi qaratilgan. Iroq yozuvchilaridan biri topib aytganidek, yozuvchi "imperializm uni qanchalik ta'qib qilgan bo'lsa, u ham o'z ijodi bilan imperializmni undan ortiqroq ta'qib qildi".

Bahr al-Ulumning asarlari sodda va tushunarli tilda yozilgan. U chinakamiga xalq shoiri, uning she'rlarini Iroqda sevib o'qishadi. Javohiriy mumtoz shoirlar orasida birinchi bo'lsa, agar u al-Mutanabbiy, al-Buxturiy, al-Maariy, ar-Rusafiy kabi o'lmas shoirlar orasida o'ziga munosib joy egallagan bo'lsa, Bahr al-Ulum xalq irodasini ifodalagan shoirlar orasida birinchi o'rinni egallaydi. Zunnun Ayyubning aytishicha, u o'z asarlarini shunday kishilarga mo'ljallab yozganki, ular al-Javohiriyning yuksak va jimjimador she'riyatini tushuna olmaydilar, adabiyot darg'alarining murakkab asarlarini tushunmaydilar va bunday asarlarni o'qib chiqqandan keyin aytadilar: "Biz yo buni tushunmaymiz, yoki shoir ajnabiy tilda gapirmoqda".

Bahr al-Ulum o'z asarlarini xalqning aksariyat ko'pchiligi uchun yozadi. Uning so'zlari sodda, iboralari dilkash, yengil hazm qilinadi, she'rlari o'quvchini toliqtirmaydi. Biror tanqidchi bunga e'tiroz qilishi ham mumkin: "She'rlari xalqning jonli tilidek sodda bo'lgan odamni shoir deb bo'ladimi?" "Agar uning she'rlari kishi shuuriga ta'sir qilsa, tuyg'ularini uyg'otsa, albatta, shoir desa bo'ladi. Agar shunday bo'lsa, soddalik fazilat hisoblanishi lozim". Bahr al-Ulum she'rlariga ana shunday qiyinchilik bilan erishiladigan soddalik xosdir.

Bahr al-Ulumning she'rlari 14 iyul inqilobigacha taqiqlangan edi. Inqilobdan keyin esa uning she'rlarini qo'rqmasdan, sevib o'qiy boshladilar. Shoir o'zining "Inqilob uchqunlari" she'rlar to'plamini 1958 yildagi 14 iyul inqilobiga bag'ishladi.

Endi uning ajoyib asari "Dehqon" she'riga qaytamiz. Shoir bu asarida dehqonlar hayotiga oid muhim masalalarni qalamga oladi, mehnatkashlar hayotini ularning mehnatlari samarasini o'g'irlab taralla-bedod hayot kechirayotganlar turmushi bilan qiyoslaydi.

Shoir bu she'rini Najaf shahrida bo'lgan ko'p ming kishilik mitingda xalqqa o'qib bergan va buning uchun bir umrlik qamoq jazosiga hukm qilingan edi. She'rda u dehqonlarga shunday so'zlar bilan murojaat qiladi:

Ey dehqon, qashshoqlik azobini chekmoqdasan,

O'zgalar ko'radi mehnating rohatini.

Tunlari uxlamaysan boylarning farog'at, rohat, ayshi uchun.

Seni ezganlar qancha boyligingni tortib oldilar,
Sening esa, g'amu azoblardan sillang qurigan.
Chiroqlar ham o'chgan bo'lardi,
Bo'lmasaydi sening mehnating.
Xalq bu azoblarga qachongacha chidaydi?
Bu dahshatli dardning davosi nima?

Shoir bu muammolarning yechimini yolg'iz bir narsada - mavjud xukumatga qarshi qurolli qo'zg'olon ko'tarib ijtimoiy adolatni tiklashda ko'radi:

Ekinzorlarni tark eting, o'roqlarni tashlang,
Qon bilan bo'yalsin zamin.
Qo'lda qilich bilan o'ch oling endi -
Huquqlaringizni poymol etganlardan.

Ba'zibir she'rlarida u hatto ayollarni ham inqilobga chaqiradi:

Ey qishloq qizlari, o'tin yig'ingiz,
Mening nafasimdan unga tutashtiring o't.
Barcha zolimlarni gulxanda yoqing,
Halqga zulm qilib rohat topganlarni.
Ular ni ayamang, axir, ular yirtqich,
Ular sizni ayamaydi hech.

ABDULVAHHOB AL-BAYOTIY

Abdolvahhob al-Bayotiy - Iroqning yana bir taniqli shoiri. 1926 yilda Bag'dodda savdogar oilasida tug'ildi, shu shahardagi pedagogika institutini tugatib, to'rt yil davomida maktabda o'qituvchilik qildi. Shoir 1954 yilda Nuri Said hukumati ko'rsatmasi bilan qamoqqa olinib, sahrodagi konslagerga badarg'a qilindi.

Shoirning barcha asarlari mustamlakachilar va Nuri Said hukumatiga nisbatan g'azab bilan to'lib toshgan. U 1955 yilda Iroqdan qochib, oldin Suriyada, keyin Livan va Misrda yashadi. 1958 yil inqilobi haqidagi xabarni u Moskvada eshitdi.

Shoir o'z asarlarida voqelik manzaralarini chizadi, odamlar orasidagi munosabatni tasvirlaydi. Ko'pincha u o'z she'rlarida xuddi tasodifan qilganday narsalar, shaxslarni sanab o'tadi. "Peshin paytidagi o'lim" she'rida shu usuldan foydalanib, u voqelikda odatda bir-biri bilan bog'liq bo'lmagan narsalarni sanab o'tadi:

Tun, kabutarlar hamda ochiq Qur'oni karim
Xo'mraygan oy -
Qamoqxona oynasi tirqishidan mo'ralaydi.
Moviy tuman ichidan.
Dengiz rang ko'zli yigit -
Kitob o'qib o'tirar, "G'alaba" surasini o'qir.
U kengliklarda quyosh o'stirgan bir gul -
Bemorlik, azoblar, qiynoq jabrin tortdi ul.

Bir qaraganda, xo'mraygan oy, qamoqxona oynasi, tun, kabutarlar, Qur'on, yigit va gulning yonma-yon kelishi g'alati tuyulishi mumkin. Shoir bu manzara va ashyolarni bir joyga jamlab, mantiq doirasidan tashqariga chiqqanday bo'ladi. Balki o'zining fojeaviy ahvolini tasvirlayotgan bandi qamoqxona oynasidan tun va oyning xira shu'lasidan boshqa narsani ko'rmagandir? Lekin shoir bandi obrazini chizar ekan, qamoqxona devorlari unga ko'rsatmay turgan quvnoq dunyo manzaralarini chizishga haqli. Tutqun bandi ko'm-ko'k osmonda erkin uchib yurgan kabutarlarni, Qur'onning "G'alaba" surasini o'qiyotgan yigit uyini, gilamday gulga burkangan dalalarni ko'rgisi keladi. Bahr al-Ulum voqelikning turli ashyolari va tushunchalarini o'zaro yaqinlashtirar ekan, bu orqali juda ko'p narsalarni ifodalagisi keladi, yangi voqelik, yangi haqiqat - shoirona haqiqatni yaratadi.

Damashq!
Senga intilaman -

Ko'm-ko'k kengliklaringga.
Ular xuddi dengiz misoli -
Hudud bilmas.
Unda muhabbatning ilk to'liqlari
Yashil gilam bo'lib hayqirar.
Unda barcha firoq durrachalari,
Qushlar qanotidek hilpirar.

Bu o'rinda shoir nafaqat eng qadimgi arab adabiyoti an'alariga, balki G'arb adabiyotiga ham ergashadi. Olmoshlar, istioralar, majozlar - bularning barchasi ashyolarni ob'ektiv holatdan sub'ektiv idrok sohasiga ko'chirish vositasidir. Shu yo'l bilan shoir bu ashyolarni nafaqat o'z holicha, bir biridan ajralgan holda, balki ularning tabiat va inson tasavvuridagi o'zaro haqiqiy yoki xayoliy aloqalari orqali ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bunday uslub syurrealistlar ijodida o'zining avj nuqtasiga yetdi.

Syurrealizm (ma'nosi-realizmdan yuqori) XX asr adabiyoti va san'atidagi o'ta formalistik yo'nalishlardan biri bo'lib, freydizm, intivituzm kabi sub'ektiv - idealistik nazariyalarga suyanadi. Syurrealistlar san'atda bilimning ob'ektivligini, aql va tajriba rolini inkor etadilar. Ular ijod sarchashmalarini ongning g'ayrushuuriy, beixtiyor sodir bo'ladigan faoliyati - tushlar, gallyusinatsiyalar, instinktlardan qidiradilar. Bu esa ularni mantiqiy bog'lanishlarni inkor etishga, sub'ektiv tasavvurlar - assotsiatsiyalarni qalashtirib yuborishga olib keladi.

Al-Bayotiy "Bolalar va zaytun daraxtlariga olqish" to'plamida syurrealistik usuldan uzoqlashgan bo'lsa, "Quvg'inda bitilgan she'rlar" to'plamida u yana syurrealizmga qaytdi. Ammo bu qaytish aslo uning she'riyatiga xos kurashchan mazmundan voz kechish ma'nosini bildirmas edi. Bayotiy o'z asarlarida syurrealizmning ba'zibir xususiyatlarini saqlab qolgan bo'lsa ham, ammo u har doim voqelik bilan aloqada bo'ladi, shoirning jamiyatni o'zida aks ettiruvchi oyna sifatidagi vazifasini to'g'ri tushunadi.

Bayotiy she'riyatining aksariyati milliy muammolardan bahs yuritadi. U o'z xalqining qalb urishini yaxshi his etadi, uning hayoti bilan yashaydi. Bayotiy o'z hayotini kurashga bag'ishlagan, fransuzlar qamoqxonada o'ldirgan vatanparvar hayoti bilan mengzab yashaydi.

Uzun tunlarni uyqusiz o'tkazar-
Qamoqxona derazasi yonida,
U - yashiringan bir sirdir,
Bezabon bandi,
O'lim kutayotganidan bexabar.
U o'ldi, ammo maslakdoshlari barhayot.
U o'ldi... Lekin notinch qalblar tepmoqda.
U Aljazoir tuprog'i uzra ozodlik kelishiga ishonadi.

Bayotiy vatani Iroqning fojealarini o'ylab motam tutadi, hukmdorlarning jinoyatlarini birma-bir sanab beradi:

Mening yurtimda ko'z yoshi va qondan-
May qilurlar. Quyoshni esa soqchiga haydatib,
Barcha eshiklari qulf shaharni kezdirurlar.
Bu o'lik shahar - mening ona Bag'dodim.

Al-Bayotiy Port-Said jangi haqida bunday yozadi:

Tarixning marmar lavhasiga yozilgan,
Jang haqidagi qonli qasida, ey Port Said.
Undagi har bir harfdan tomchilaydi qon.
Mag'lubiyat bilmaslikdir uning ma'nosi.
Axir u momoqaldirdek xalq g'azabidan yasalgan,
Satrlaridan miltiqlar o'qtalib turar,
Botir jangchilarning qurolidir bu,
Va go'daklarning ochiq ko'zlari.

"Quvg'inda bitilgan she'rlar"ning har bir bandida, har bir parchasida arab yurti mavzusi, xalq haqidagi, uning intilishlari haqidagi o'ylar o'z ifodasini topgan.

Shoir sof sevgi tuyg'ulari, go'zalligi haqida kuylaganida ham katta, hayotiy muammolarni unutmaydi. Masalan, "Malika va bulbul" she'rini u turmush o'rtog'i Hind bilan birinchi bor uchrashgan bog' manzarasi tasviridan boshlaydi.

Bir tong g'amgin limonzor bog'ga,
Yugurib kelding men bilan uchrashmoq uchun.
Shoxda oshiq bulbul sayrar edi u mahal,
Jannat bo'ylari taralardi har tomon.
Shunda to'qnash keldi ikki olovli nigoh,
Jahon yaproqlar o'yinidek shivirlab ketdi.
"Ertaga bog' yo'lagida uchrashamiz", deya,
Va'da berdi menga totli ovozing.

Ammo Bayotiy bu lirik bayonni to'xtatib o'z malikasiga achchiq voqelik to'g'risida xabar beradi:

Yillar uchib o'tdilar,
Bulbul ham endi yo'q.
Mening malikam - olis yulduzdir,
Yangi yaproqlar horg'in shivirlar.
Shaharda dushmanlik qahrin sochmoqda,
Limon bog'i -
jim qoldi xavotirlik qo'ynida.
Gitara ovozini jimjitlik yutar,
Qamoqxonalar do'stlarimizdan to'lib toshgan,
O'lim panjalari bahorga chang solmoqda.

Bayotiy har doim, hatto muhabbat tasvirida ham kurashchi bo'lib qoladi. Nozim Hikmat u haqda bunday yozgan edi: "Uning muhabbati kurash rangiga bo'yalgan".

Shoir o'z hayotida ko'p g'amli voqealarni boshdan kechirgan bo'lsa ham, uning she'riyatida tushkunlik, umidsizlik motivlari sezilmaydi. Uning og'zidan faqat bir shikoyat chiqadi, u ham bo'lsa, o'z xalqi, ona shahri Bag'doddan judolikdan shikoyat. Uning shikoyatida umidsizlik sababi bayon etiladi, bir kun kelib ona yurtida istibdodning ildizlari qo'porilishiga umid aks etadi.

Bayotiy she'rlari o'ta uyg'un va musiqali. Shoir o'z asarlarining musiqiyligini oshirish uchun ba'zan ayrim qofiya so'z, iboralarni takror-takror qo'llaydi va bu o'quvchida chuqur taasurot qoldiradi.

Xomush sidiradi uning qo'llaridan jinoyat izlarini
Qora oy, jinoyat izlarini

Yoki:

Tunda sevganlarim birin-ketin
Eshigimni qoqadilar, sevganlarim.

"Jinoyat izlarini", "sevganlarim" so'zlarining takror kelishi shoir niyat qilgan obrazning o'quvchi ongida mahkamroq o'rnatilib qolishiga xizmat qiladi:

Ko'pincha al-Bayotiy so'zlarni tanlab, ularning ma'nolarini qator tizilgan birikmalarda qiyoslab zikr etish usulidan foydalanadi.

Tun - miltiqlar,
Tun - yong'inlar.
Tun - aldov nafasi,
Tun - qonli zarbalar.

She'rni qiyoslar bilan boyitib, "tun" so'zini qayta-qayta takrorlar ekan, shoir misralarni xuddi janglar aks sadosidek quyilib, jaranglab kelishga majbur etadi, shu yo'l bilan vahima va o'lim muhitini tasvirlashga erishadi.

Ba'zan shoir yumshaydi, so'zlar uning qalami ostida yaproq yozib gullaydi, ajib nur va go'zal jarang kasb etadi:

Ko'm-ko'k qushcha nilufar qafasda-
Qo'shiq kuylar: "muhabbat, vatan, erk!"

("Nilufar va erk")

Bayotiyning she'riyati uning o'ziga xos iste'dod, did egasi, xasos shoir ekanligi guvohidir.

"Quvg'inda bitilgan she'rlar" majmuasi tanqidchilar tomonidan yaxshi kutib olindi. Ali Said bunday yozadi: "Uning she'rlari yetuk, ular uchqur arg'umoqqa yoki o'tkir tig'ga o'xshaydi".

Bayotiy boshqa shoirlarga nisbatan balandparvoz va tumtaroq ifodalarga kamroq murojaat etadi. Uning she'rlarida so'zlar tabiiy holda qo'shib, oqib keladi, ular go'yo tirik mavjudotlar kabi shoir niyatini payqab qatorlashgandek tuyuladi.

Iroq she'riyati yangi davrda voqelikka yaqinlashdi, unda bechorahol aholi qatlamlarini umid, ehtiyojlarini aks ettirishga moyillik seziladi. Suriya va Livan adabiyotidagi ilg'or oqimlar ta'siri, boshqa mamlakatlar adabiyoti bilan kengroq tanishish Iroq adabiyotida realistik yo'nalishning quvvat olishiga sabab bo'ldi. Bu davr shoirlari ko'pincha mumtoz she'riyat qoidalaridan voz kechadilar. She'r qofiya va aruz kishanlaridan ozod bo'ladi, erkin she'r atalmish shakl tug'iladi. Erkin she'r baytning vazifasini o'zgartirdi, uning mustaqilligini, asosiy band sifatidagi maqomini yo'qqa chiqardi, uni yaxlit badiiy asar tarkibiga boshqa baytlar bilan bog'langan holda kirishga majbur etdi.

IROQ HIKOYACHILIGI

Iroq she'riyati mamlakatning o'zidek qadimiy tarixga ega bo'lsa, uning nasri nisbatan yosh - XX asrning boshlarida tug'ildi.

O'rta asrlarda ham nasr - she'rgarlik va maishiy ertaklar, roman - maqomalar mavjud bo'lgan, ammo ular "quyi" janrlar hisoblanib, avomga mo'ljallangan edi.

Iroq tarixida XIX asrning ikkinchi yarmidan umumjahon madaniy jarayonlar ta'siri sezila boshladi. Natijada, XIX asrning oxirlariga kelib ilk ijtimoiy hikoyalar, she'rlar yuzaga keldi, XX asrning boshlaridan esa, nasrda yozilgan dastlabki gazeta feletonlari paydo bo'ldi. Adabiy hayotda ro'y bergan bunday siljish o'sha vaqtlarda Usmonli saltanatining chet o'lkasi hisoblangan Iroqda ijtimoiy ongning o'sishi, xalqning siyosiy jarayonlarga tortilishi sababli ro'y bergan edi.

1908 yilda amalga oshgan yosh turklar inqilobi Usmonli saltanatining barcha go'shalarida ijtimoiy - siyosiy hayotning jonlanishiga sabab bo'ldi. Faqat Bag'dodning o'zida 69 gazeta va 20 jurnal chiqa boshladi, ularda ijtimoiy - siyosiy feletonlar ham e'lon qilina boshladi. Feletonlarda sharq ertaklari, xususan, 1001 kecha ertaklari uslubidan keng foydalanilar, shoir M. ar-Rusafiy turk ma'rifatparvari Nomiq Kamolning "Tushlar" nomli asarini turk tilidan tarjima qilgandan so'ng esa, feletonda qahramonlarning tush ko'rishi uslubini qo'llash juda ham keng tarqaldi. Ana shu tamsiliy vosita orqali feletonchilar yosh turklar hukumatdorlarining nuqsonlari, jinoyatlarini fosh etar, ijtimoiy hayotning xunuk tomonlarini aks ettirar va vatandoshlarning urf-odatlarini ustidan kulishar edi.

Masalan, Al-Amin o'zining "Iroq qanday qayta tiklandi" feletonida vatanining ko'p jihatdan usmonliklardan ustun turadigan shavkatli o'tmishi bilan g'ururlanishi tuyg'usini ifodalaydi. Gazeta feletonining siqiq hajmi imkon bergan darajada u mazkur asarda ideal davlatning xayoliy manzarasini chizadi.⁶⁷

Amin hikoyasi, har qanday ilk xayoliy asarda bo'lganidek, kelib chiqish jihatidan folklor bilan bog'liq edi. Asarda sotsial utopiya va cho'pchak yaxlit holda keladi. Har qanday utopiyada bo'lganidek, bu feletondagi siymolar individual insoniy xislatlarga ega emas, inson tafakkuri esa asl estetik zavq manbaidir.

⁶⁷Письмена на дереве. М.1983. Б.4.

Aminning xizmati shundaki, o'z asarlarida u dolzarb ijtimoiy muammolar doirasini belgilab berdi, keyingi o'n yilliklar davomida ana shu muammolar Iroq yozuvchilari ijodining grajdanlik qimmatini o'zida ifodalab berdi.

Feleton XX asrning 30-yillarigacha rivojlanib bordi, Abdulvahob al-Amin (1912), Ja'far al-Halimiy (1904), Ibrohim Solih Shukr, Mixael Tesi, Nuri Sobit va boshqalar bu janr taraqqiyotiga katta hissa qo'shdilar. Ularning feletonlarida ma'rifatparvarlik g'oyalari - zararli urf - odat va xurofotlardan xalos bo'lishga, jamiyat manfaatlarini ko'zlab halol va erkin mehnat qilishga, qashshoqlik bilan kurashishga chaqirish o'z ifodasini topardi.

Mahmud Amin as-Said (1901-1937) satirik va yumoristik hikoyalar yozar, ular o'zining o'tkir siyosiy yo'nalishi bilan diqqatni tortar edi. Yozuvchi adabiyotni ijtimoiy taraqqiyot vositasi deb bilar, ko'ngilxushlik uchun yozilgan asarlarni rad qilardi. Xalq turmushi, Iroq ijtimoiy hayoti muammolari uning diqqat markazida turar edi. Ammo shunga qaramay nasr ancha vaqtgacha arab o'quvchilari muhabbatini qozona olmadi.

Abulvahob al-Amin g'arb mamlakatlarida son-sanoqsiz nasriy asarlar yozilgan bo'lsa ham, arab adabiyotida ularning soni barmoq bilan sanarli ekani, Iroqda ba'zi noshirlar nasrga salbiy munosabatda bo'lishi, yosh ijodkorlarni nasrdan sovutib poeziyaga targ'ib qilishlari haqida o'kinch bilan yozadi.

Iroqdagi adabiyot ixlosmandlari 30-yilargacha Misr va Suriya yozuvchilarini ko'proq mutolaa qilishar, ularning asarlari badiiy jihatdan yetukroq deb hisoblashardi.

Iroqda hikoya janrining shakllanishi Zunnun Ayyub nomi bilan bog'liq. U o'z hikoyalarini 1933 yildan e'lon qila boshladi va 20 dan ortiq to'plam nashr ettirdi. Zunnun Ayyub adabiyotga, Iroqning ijtimoiy-siyosiy hayotiga bag'ishlangan bir qator maqolalar ham e'lon qilgan.

Iroq hukumati Zunnun Ayyub asarlarini nashr etishni tez-tez taqiqlab turar, ularda mavjud tuzumga xavf soluvchi g'oyalarni ko'rar edi. Adib uch roman muallifi hamdir, ular "Doktor Ibrohim", "Mehnatkashlar", "Er, qo'l va suv" asarlaridir.

Zunnun Ayyub - realist yozuvchi. "Men qat'iy ishonamanki, - deb yozgan edi u, - madaniyat xodimlari, birinchi navbatda, yozuvchilar zimmasidagi eng jiddiy vazifa bu haqiqiy hayot manzaralarini, atrofimizda bo'layotgan voqealarni qayta jonlantirish, badiiy ifodalashdan iboratdir". Bu so'zlar Iroqning barcha ilg'or yozuvchilari, eng avvalo, shu satrlar muallifining ijodiy kredosini o'zida mujassamlantiradi. Adibning birinchi hikoyalar to'plami - "Orzu"dayoq birovlar qashshoqlikda, boshqa birovlar boy-badavlat yashashlari, musulmon ayolining huquqsizligi, xalqning yoppasiga savodsizligi manzaralari tasvirlangan edi. 1945 yilda yozuvchining "Doktor Ibrohim" romani bosmadan chiqdi. Asarda yozuvchi Iroqning hokim tabaqalari kirdikorlari, ularning firibgarliklari, laganbardorliklarini ayamay fosh etdi. Bu roman yozuvchiga katta shuhrat keltirdi. Hokimiyat vakillari asarni o'zlariga qarshi qaratilgan xuruj deb qabul qildilar, Zunnun Ayyub davlat idorasidagi xizmatdan quvildi. Adib sargardonlikda hayot kechira boshladi, mamlakatni deyarli u boshidan bu boshigacha aylanib chiqdi, Iroq dehqonlari hayoti bilan yaqindan tanishdi. Bu safarlar unga "Er, qo'l va suv" qissasini yozishga material berdi.

Rus tiliga Ode Vasilyev tomonidan "Majid Rahimning ishi" nomi bilan tarjima qilingan bu asar erksevar Iroq xalqi, uning yer uchun olib borgan kurashi haqida hikoya qiladi.

O'tgan asrning 50-yillarida Zunnun Ayyub milliy frontdan parlamentga deputat bo'lib saylanadi. Ammo 1954 yilda bu parlament tarqatib yuboriladi va Ayyub muhojirat qilishga majbur bo'ladi. Iroqdagi 1958 yil inqilobgacha u Venada yashadi. Inqilob g'alaba qozongach u tezda Bag'dodga qaytib ijtimoiy va madaniy-oqartuv faoliyatiga kirishib ketdi. Dastlab u Iroq radiosining direktori, Iroq Yozuvchilar Uyushmasi raisining o'rinbosari, Iroq tinchlik tarafdorlari komiteti a'zosi lavozimlarida ishladi.

Zunnun Ayyub tarjimon sifatida ham yaxshi tanilgan. Uning xizmati tufayli arablar ko'pgina rus klassiklari asarlari bilan tanishdilar. Bular jumlasida Gogolning "Shinel", Dostoyevskiyning "Aka-uka Karamazovlar", Turgenevning "Otalar va bolalar", Gorkiyning "Ona" romanlari bor. Shunday bo'lsa ham, u ko'proq novellist sifatida tanilgan.

Ayyub hikoyalarning asosiy qahramonlari o'rta tabaqa vakillaridir. Ularning bosh mavzusi esa, ezilgan musulmon ayolining azob-uqubatlari, dehqonlarning og'ir turmushi, davlat amaldorlarining poraxo'rliги, hokimiyat vakillarining zo'ravonligi va adolatsizligidan iborat.

Yozuvchining ilk asarlarida hali tasvirda yorqinlik, aniqlik yetishmas edi. Ularda voqelikka nisbatan sub'ektiv yondashuv sezilib turar, ba'zan esa bu hol nasihatgo'ylik, didaktikaga aylanib ketar edi. Muallif faktlarni umumlashtirishga harakat qilmas, jamiyat nuqsonlarini tanqid qilish bilan cheklanar edi. Ammo bu kamchiliklar asta-sekin Ayyub ijodidan yo'qola bordi, hikoyalarning badiiy saviyasi o'sdi, ularda bironlarning huquqsizligi, boshqalarning mustabidligiga nisbatan isyonkorona ruh paydo bo'ldi.

Yozuvchi ijodida Iroq falohlari hayoti va kurashi katta o'rin egallaydi. Bu jihatdan uning yuqorida ko'rsatilgan "Er, qo'l va suv" qissasi diqqatga sazovordir.

Qissada yersiz dehqonlarga yordam berishga bel bog'lagan advokat Majid rahbarligidagi bir guruh vatanparvarlar haqida hikoya qilinadi. Guruh a'zolari o'z jamg'armalarini to'plab davlatdan anchagina maydondagi ekilmaydigan yerni ijaraga olib, kooperativ tashkil qilish uchun yersiz dehqonlarga berishni mo'ljallashadi. Ammo mahalliy feodallar bu ish ularga zarar keltirishini sezib, dehqonlarning orzusi ro'yobga chiqishiga qarshilik qiladilar. Qissa hukumat namoyandalarning adolatsizligiga qarshi uyushtirilgan namoyish bilan tugaydi, o'quvchini korrupsiya va ochiqdan-ochiq talonchilik hukm surgan feodal tuzumga qarshi albatta kurashish lozim, degan fikrga olib keladi.

Fallohlarning og'ir turmushi tasviri, personajlarning alangali nutqlari, Iroqdagi progressiv kuchlar rahbarligida tobora kengayib borayotgan hayot-mamot kurashi – bularning barchasi Zunnun Ayyub qissasini endi tug'ilib kelayotgan tanqidiy realizm adabiyoti jumlasiga kiritish imkonini beradi. Muallifning o'zi asarni erkparvarlik g'oyalari bilan mashhur bo'lgan Muhammad Mahdiy al-Javohiriya bag'ishlagan edi.

"Tangrichalar" hikoyasi ham feodallar istibdodi va bedodligi tasviriga bag'ishlangan. "Shayx dehqonlarning barcha ekinlariga, mollariga, o'zlariga xo'jayin. Quyosh, yomg'ir, shamollar ham unga xizmat qiladi. Bu bir tirik xudo, u buyuradi, taqiqlaydi, tiriltiradi, o'ldiradi."⁶⁸

"Tangrichalar" hikoyasida qul holiga tushib qolgan falohlarning shafqatsizlarcha ezilish, ularning mehnati esa, katta yer egalariga mo'may daromad keltirayotgani ochib berilgan. "Tangrichalar" hikoyasi Iroqning podshohlik davridagi feodallar - shayxlarning istibdodi va zo'ravonligiga qarshi qaratilgan g'azabli e'tirozdir.

Zunnun Ayyub musulmon ayolining huquqsizligi, azob-uqubatlari haqida ham ko'p asarlar yozdi, ularda ayollar chekayotgan ruhiy qiynoqlar, ularning ozodlikka bo'lgan intilishlarini tasvirladi.

«Qurbonlar» nomli (1938) to'plamga kirgan uch hikoyada uch ayolning fojeali taqdiri haqida hikoya qilinadi. Ulardan biri - "Nomus" hikoyasi qahramoni, nomus haqidagi xunuk xurofotlar va eskirib ketgan chirik tushunchalar qurboni bo'lgan yosh qiz. Ikkinchisi badavlat xonadonning o'ta kamtar va o'qimishli qizi. Uni zo'rlab yomon ko'radigan kishisi - axloqsiz va qimorboz bir odamga uzatishadi ("Najot yo'li"). Uchinchisi sevgisiga sodiq, ammo tashlab ketilgan ayol. U insoniy azob-uqubatlarga befarq bo'lib ketgan jamiyatda tanholikda umidsiz yashaydi.

Abdulhaq Fozil (1919 y.tug'.) yuqori diplomatik lavozimlarda xizmat qilgan yozuvchi, shuning uchun bo'lsa kerak, u o'z asarlarida o'tkir ijtimoiy muammolarni chetlab o'tar edi. Uning ijodiga xos narsa oilaviy munosabatlarni ko'tarib chiqish va qadimgi rivoyatlarga taqlid qilish edi.

Abdulmajid Lutfiy (1908 y.tug'.), Abdulmalik Nuriy (1921 y.tug'.), Anvar Shaulni bu vaqtda kun tartibiga qo'yilgan "Ochlarga - non" shiori ilhomlantirar edi. O'quvchining aqli, vijdoniga qattiq ta'sir o'tkazish maqsadida novellistlar mumtoz adabiyot va milliy folklor ifoda

⁶⁸Письмена на дереве. Б.10.

vositalariga murojaat qilishar, Anvar Shaul o'z qahramonlari qiyofasini "1001 kecha" ertaklariga o'xshatib chizardi.

Iroq novellistikasi XX asrning 50-yillari boshidan G'arb adabiyoti ta'siriga tusha boshlaydi. Ba'zibir yozuvchilar "tafakkur oqimi", psixanaliz usullaridan foydalana boshlaydilar. Bu hodisa badiiy ijodning yangi ma'naviy - estetik bazasini yaratish yo'lida qilingan harakatlar bilan bog'liq edi. Voqelikni rad etish, ammo uni o'zgartirish imkoniyatidan mahrumlik yozuvchilarda umidsizlik, tushkunlik kayfiyatini uyg'otar, shu sababdan ularning qahramonlari yov muhitda tanho va begona bo'lib yashayotgandek tasvirlanar edilar.

Yangi uslubning ayrim belgilari ilk bor yozuvchi, rassom va aktyor Nizor Salim ijodida, uning "Toshqin" (1952), "Qonunchilik uyi" asarlarida namoyon bo'ldi. Adib ijodida Jeyms Joys ijodidagi irrasionalizm ta'siri sezilib turadi. G'anim ad-Dabbag'a asarlarida ham anglanmagan tuyg'ular tasviri yaqqol ko'zga tashlanadi. Lekin bu davrda bo'lib o'tgan jo'shqin siyosiy voqealar, 1958 yil 14 iyul inqilobi ma'lum muddatga Iroq novellistikasini publisistik yo'nalishga qaytardi.

Monarxiya zamonida polisiyaning zo'ravonliklari va shafqatsizligi inqilobdan keyingi davr hikoyalarining mavzusi bo'lib xizmat qilar edi. Abduljabbor al-Hakim, Hozim Murd kabi yozuvchilar kitoblari sahifalaridan o'tmish xunuk va qora ranglarda chizilardi - davlat apparatidagi korrupsiya tasviri, amaldorlarning vazifasi xalq qonini so'rish va uni tahqirlashdek ko'rsatilishi, odamlarni misrlik sotsialist Saloma Muso iborasi bilan aytganda "mash'um uchlik" - kasallik, qashshoqlik, jaholat ixtiyoriga topshirib qo'yilgandek chizilishi bu davr adabiyotiga xosdir. Hikoyalar qahramonlari yoki ochlik, g'am, kasalliklar, qamoqxonadagi kaltaklashlardan halok bo'ladilar, yoki aqldan ozib o'z jonlariga qasd qiladilar. Zamondoshlar "Qora tuzum" deb nomlangan hukumat tobora tarix qa'riga cho'mib, uzoqlashib borsa ham, kitoblar sahifasidan jaranglagan faryodlar tinmas edi. Bu hikoyalarning o'ziga xos xususiyati, bir tomondan voqealarning noizchil, uzuq-yuluq, publisistik jo'shqin bayon qilinishi, sergaplik, kompozision bo'shlik, obrazlarning yaxshi ishlov berilmagani, syujetlarning odmiligi bo'lsa, ikkinchi tomondan, ularda muallifning xalq g'amiga sherik qilib tasvirlanishi o'quvchilarga ularni haqqoniy, ishonarli qilib ko'rsatishida edi.

1958 yilgi burjua-demokratik inqilob tomonidan e'lon qilingan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning hayotga sust tatbiq etilishi, mamlakatni larzaga solib turgan siyosiy to'ntarishlar, ommaviy qatag'onlar, vatanparvar kuchlarning tarqoqligi Iroq yozuvchilari muhitida tushkunlik kayfiyatini uyg'otar edi.

Edmon Sabri (1921-1975), yigirmadan ortiq hikoya, pesa, qissalar to'plami muallifi, mehnatkashlarning feodal-monarxiya tuzumi davridagi azob-uqubatlari haqida yozdi. Uning 1958 yil inqilobidan bir necha yil keyin bosilib chiqqan kitoblarida qahramonlarning hayoti ilgarigidek nursiz tasvirlanadi. Yozuvchining tushkunlik ruhida yozilgan hikoyalaridan Iroq har qanday harakat chippakka chiqadigan mamlakat, degan mazmun kelib chiqadi. Sabriyning talqinida 1958 yilgi inqilob dehqonga yer, ishchiga yetarli maosh, ziyoliga ijodiy erkinlik olib kelmadi, degan xulosa chiqadi.

Abdullo Niyoziy (1926 y.tug') inqilobdan oldin hayotni azob-uqubat sifatida tasvirlar edi. Uning "Muhabbatning intihosi" (1949) qissasi, "Tuman bo'laklari" hikoyalarida shaxs va uning muhit bilan kurashi, oddiy hayot qiyinchiliklari qalamga olingan. Bu asarlar qahramonlari arzimas qiyinchiliklar oldida ham sarosimaga tushib qoladilar.

Inqilobdan keyin yozuvchining "Bayram" nomli hikoyalar to'plami nashrdan chiqdi. Bu asarlarda ham qahramonlar ruhiy nomutanosib tasvirlangan, ammo endi bu ruhiy qusur ularning qashshoqligi, huquqsizligi, hukumat namoyandalarning shafqatsizligi, kelajakning mavhumligi oqibati sifatida talqin etiladi.

"Vahimali shivirlash" (1971) to'plamiga kirgan shu nomdagi hikoya ichki monolog uslubida yozilgan. Hikoyada har xil masalalar mavhum tarzda qo'yilgan: insonning vujudga kelishining ilk sabablari, hayotning maqsadi va ma'nosi, inson hayotidagi haqqoniy va to'qima tasavvurlar va hokazolar. Lekin bu savollarning javobi aniq shaklda ifodalanadi: qaxramonni qamoqqa oladilar, chunki adib talqinida yorug' dunyoda chin haqiqat bitta-yu bitta - qamoqxona.

Qahramon monologi quyidagi soʻzlar bilan nihoyasiga yetadi: "Men oʻzim bilan oʻzim gaplashishimni ular qaerdan bilishdi ekan?" muallifning fikricha, Iroqning tarixi bir terroristik tuzumning boshqa xuddi shunday tuzum bilan almashuvidan iborat, unda hech qanday maʼno yoʻq, uning harakatlantiruvchi kuchi - siyosiy terror, qotillik, oʻlim.

Abdusattor Nosir (1947 y.tugʻ.), Saʼd al-Bazzoz (1951 y.tugʻ.), Gʻozi al-Ibodiy (1935 y.tugʻ.) asarlari oʻzining keskin psixologizmi, yolgʻiz shaxsning qalbini ezayotgan gʻam-alamni chuqur tadqiq etishga harakat qilinishi bilan ajralib turadi. Ularning qahramonlari - sil kasali, ruhiy kasallik, oʻlimga maxkum etilgan bandilar, bangi va ichuvchilar, irodasiz odamlar. Ularning barchasi oʻlimga mahkum, yozuvchilar ularni shunday sharoitda tasvirlaydilarki, bunday holatda taslim boʻlishdan, oʻzining chorasizligini, qarshilik koʻrsatishga ojizligini tan olishdan oʻzga chora yoʻq. Ular davlatning beshafqat qonunlari, hokim axloq yuki ostida ayanchli ahvolda turmush kechiradilar, har xil adolatsizlik va azoblarni boshdan kechiradilar. Bu - voqelik bilan yovlashib, u bilan toʻqnashuvda majruh boʻlib yashayotgan odamlarning kechinmalari tasviri.

Iroq yozuvchilarning fikricha, zamona zayli va yangi oʻquvchining tajribasizligi ulardan dahshatga soladigan darajadagi tasvir vositalaridan foydalanishni taqozo etadi. Shu sabab tufayli koʻp hollarda voqelik nomutanosib, nosogʻ taxayyulning qiyshiq oynasida aks etgandek tasvirlanadi. Ularning metodi "tutaqtiruvchi poetika"dir. Yozuvchilar xuddi teskari dalil keltirgandek: personaj qanchalik ojiz va gʻayritabiiy qilib tasvirlansa, ularni shu ahvolga solgan, goʻyo saranjom - sarishtaday koʻringan voqelik shunchalik ayanchli koʻrinadiki, inson hayotining maʼnosizligi, uning bu muhitdan begonaligi shunchalik yaxshi ochiladi.

Iroq novellistlarining koʻpchilik asarlari umidsizlik ruhi bilan shunchalik toʻlib - toshganki, boshqa arab mamlakatlari adiblari aksar hollarda ularda ifodalangan badiiy va estetik konsepsiyani tushunishdan ojiz qoladilar. Livanlik adiba Aida Matrixi Idris Abdusattor Nosirning "Uylarning hidi", Muhammad Xueyrning "Faryod" toʻplamlariga taqriz yozar ekan, quyidagicha fikr bildirgan edi: "Hikoyalar dahshatli taasurot qoldiradi. Bu novellistlar tasvirlagan voqelik shu darajada jirkanch boʻlishi mumkinmikan? Ularda hatto tabiat ham yigʻloqi, bir uyum axlatdek tasvirlangan".⁶⁹

Taniqli fransuz arabshunosi Gaston Vet 60-yillarning oʻrtasidayoq bunday yozgan edi: Ularda «uzluksiz isyon, metafizik bezovtalik haqida soʻz boradi, har qanday harakat, intilish foydasizdek koʻrsatilishi bu shoʻrliklar haqida xuddi doira boʻylab aylanib, suv chigʻirigʻini harakatga keltirayotgan, ammo oʻzi atrofidagi biror narsani koʻrmayotgan koʻzi bogʻlangan tuyadek tasavvur uygʻotadi... Inqilobiy harakatlarning vahshiylarcha bostirilishigina iroqliklar yondashuvini oqlashi mumkin. Shu bois Iroq yozuvchilari "misli koʻrilmagan qotilliklar" haqida yozadilar».⁷⁰

Inson va muhit orasidagi murosasizlikni grotesk usulida tasvirlash bilan bir vaqtda Iroq yozuvchilari boshqa adabiy usullardan, tagdor majozlardan ham foydalanganlar.

Mamlakatda adabiyot muxlislarining oʻqimishlilik darajasi oʻsib borishi bilan ularga moʻljallangan adabiyotning intellektual saviyasi ham koʻtarilib bordi. Bundan yigirma yil muqaddam badiiy shaklning bunday nozik uslublari Iroq oʻquvchilari tomonidan qabul qilinmagan boʻlur edi. Chalasavod yoki tajribasiz oʻquvchilar qisman mumtoz poeziyadan, qisman esa Gʻarb adabiyotidan oʻzlashtirilgan har xil, baʼzan qarama-qarshi maʼnolarda talqin qilinadigan murakkab ramzlarni tushunmagan boʻlar edilar.

Yozuvchilar Iroq jamiyatidagi turli qatlam va guruhlar taqdiri haqidagi oʻz fikr-mulohazalarini ana shu ramziy obrazlar bilan ifodalab izxor etardilar. Ularning qahramonlari duch keladigan ziddiyatli holatlar zahirida yechimini kutib yotgan ijtimoiy va siyosiy muammolar yashirib yotardi.

Bayonga qadimiy rivoyatlandan lavhalar kiritish, ularni real voqelikka nisbat berish, koʻplab ramzlardan foydalanish, koʻtarinki romantizm metodini naturalizm unsurlari bilan chatishtirib qoʻllash qishloq qasoskorlari va jinoiy dramalar kuylovchisi sifatida nom chiqargan

⁶⁹ Письмена на дереве. Б.12.

⁷⁰ Письмена на дереве. Иракский рассказ. М., 1983, Б.12

Muhammad Abdulmajid (1943 y.tugʻ.), Faqh as-Asadiy (1939 y.tugʻ.) va boshqalar ijodiga xosdir.

Abdurahmon Majid ar-Rubayi (1939 y.tugʻ.) Iroq va umuman Sharq uchun yangi boʻlgan tasvir uslubidan foydalandi. U bir hikoyaning oʻzida qoʻrqmasdan shafqatsiz satira va nozik lirizm, yuksak poeziya va qoʻpol fiziologizmni chatib ishlatdi. Ar-Rubayi oʻz hikoyalarida hamma qabul qilgan adabiy meʼyorlarga amal qilmas, tugun, portret chizgilarini tashlab oʻtardi. Bu "mayda-chuydalar" orqali u hikoya mazmunini insonlar dunyosida hukm surayotgan algʻov-dalgʻovliklarga mos ekanini taʼkidlaydi. Topqir oʻquvchi esa ar-Rubayi hikoyalaridagi ichki yaxlitlikni osongina ilgʻab oladi.

Ar-Rubayining "Qilich va kema" novellasi Alber Kamyuning "Quvgʻin va podsholik" (1957) asariga arabcha oʻxshamadir. Unda "qilich" "podsholik"ka aylanadi va kemaga tomon shoshayotgan quvgʻindining boshi uzra koʻtariladi. Ar-Rubayining talqinicha, reaksiya hukumat qilichi qashshoqlik, milliy ayirmachilik, fitna va xudbinlik tufayli parokandalikka yoʻliqqan butun Iroq xalqini quvgʻindiga aylantirdi.

Iroq novellistlari har doim oʻzlarini roʻy berayotgan voqealar, Iroq xalqi taqdiri uchun masʼul sezar, oʻquvchilarni oʻz hayotlari borasida fikrlashga majbur qilishga harakat qilishar, buni oʻzlarining yozuvchilik va grajdanlik vazifalari deb bilishar edi. Uzoq muddat davomida ular ijodi rivojlana borib, bayonning sodda, bir chiziqli uslubidan rang-barang, boy badiiy vositalardan foydalanish darajasiga koʻtarildi. Hayot haqiqatini tasvirlashda turli-tuman ifoda usullaridan foydalanish hozirgi zamon kishisi tasvirining jozibali boʻlishiga olib keldi.

Bu yozuvchilarning xizmati ijodiy oʻziga xoslik va milliy xususiyatlarni saqlashga boʻlgan intilishda namoyon boʻladi. Ularning boʻhronli davrlarda chekilgan umidsizlik alami tufayli boʻgʻilgan badiiy asarlari insonlar qalbining eng nozik intilishlarini ijtimoiy tengsizlik va zulmni tugatish uchun kurashga yoʻnaltirdi.

XX ASRNING 80-YILLARIDAGI IROQ ROMANCHILIGI

Iroqning Eron bilan olib borgan uzoq muddatli urushi, hukumat beqarorligi yozuvchilarni yana bir bor bu milliy mojarolarning ildiziga, jumladan, 1958 yilgi inqilob tarixiga murojaat etishga majbur qildi. Ular bu inqilobiy jarayon mamlakatning kelajak rivoji uchun foyda keltirdimi, u Iroqni taraqqiyot yoʻliga boshladimi, degan savolga tarixdan javob qidirdilar.

Fuod at-Tekerli oʻzining "Bevaqt qaytish" (1980) nomli romanida 1958 yildagi inqilobning Iroq jamiyatiga koʻrsatgan taʼsirini tadqiq qilishga urinadi.

Inqilobdan keyingi davrda vatanparvar kuchlar parokandalik holatiga tushdilar, ular hokimiyatni opportunistik kuchlar egallagani, Abulkarim Qosim diktaturasi oʻrnatilganidan tushkunlikka tushdilar. Bu davr borasida roman qahramonlaridan biri quyidagi achchiq soʻzlarni aytadi: "Jamiyat beqaror holga keldi, uning kelajagi yoʻq. Bu - tubsiz doʻzax, fasod, devonalik, dahshat, nafrat va riyo jamiyati. Yogʻli ovqatlar bilan qornini qappaytirib olgan toʻqlar jamiyati dunyoda nima boʻlayotgani bilan qiziqmaydi. U ilojisiz milliy ziddiyatlar domiga giriftor boʻladi."

Romanning bosh qahramonlari oʻta tushkun kayfiyatda tasvirlangan, ular atrofda faqat yomonlikni koʻradilar, at-Tekerlining oldingi asarlaridagi kabi ekzistensializm ruhidagi pessimistik gaplarni aytadilar. "Hayotning oʻkirib yigʻlashlaridan sanoqli soniyalar oʻtgach oʻlim talvasasi boshlanadi. Bor-yoʻq mantiq shundan iborat.» "Romanda tasvirlangan shaxslar "baxtsiz", ular hayoti "oʻtkinchi", ular vahshiyona kuch "qurboni". Bu kuch oʻzi nima? Bu bizning nigohimiz koʻrishga qodir oʻtaketgan shafqatsizlik, zoʻravonlik, berahimlik dastgohini harakatga keltiradigan mavhum kuchdir. Bu oʻzi nima? Nima bu, axir?"

Roman ikki planli asar boʻlib, birinchi - zohiriy plani 1963 yil 14 iyul voqealarini qamrab oladi. Unda koʻp xonadonli uyda yashaydigan oʻrta tabaqaga mansub oila hayotiga oid voqealar hikoya qilinadi. Roʻy bergan eng dramatik voqea bu oilada voyaga yetgan qizning iffatini yoʻqotishi bilan bogʻliq. Uni yuqori lavozimda ishlaydigan bir amalparast yoʻldan urgan.

Asarning ikkinchi plani - ramziy. Munira (maʼnosi - nur sochuvchi) uni yoʻldan urgan kishi shosha-pisha turmushga berib yuborgan oddiy qiz emas. Eriga u "abadiy" boʻlib tuyuladi.

"Uning sevgilisi - chuqur ma'noga ega bo'lgan hayotning o'zidir. Muniraga nisbatan javobsiz muhabbat tuyg'usiga ega yana bir qahramon bo'lib, uning uchun qiz hayotda mavjud bo'lgan yagona orzu bo'lib qoladi". Boshqacha so'z bilan aytganda, Munira obrazi o'zining ideal pokligini saqlab qolgan inqilob ramzidir.

Roman personajlari va 1958 yilgi inqilobning chinakam yetakchilari orasida ramziy paralellar ham mavjud. Munirani yaxshi ko'rgan Abulkarim inqilobning yetakchisi, vatanparvar kuchlarni siyosiy muvaffaqiyatsizlikka olib kelgan Abulkarim Qosim nomi bilan atalgan. Inqilob yetakchisi singari Abulkarim ham mayda burjuaziyani ideallashtiradi, xalq ommasining eng zarur manfaatlari, ehtiyojlariga befarqlik bilan qaraydi, shirin xayollar olamida yashaydi, alg'ov-dalg'ov ro'yolar hujumidan aziyat chekadi.

Muniraning eri Midhat taraddudlanib turgan mayda burjuaziyani o'zida mujassamlantiradi. Mayda burjuaziya inqilobdan chekinganidek, u ham Munirani tashlab ketadi. U qalban individualist bo'lgani tufayli o'zini xatardan uzoq tutar, kuch ishlatish borasida nafrat bilan o'ylar edi. "Isyon" unga soxta narsadek tuyular, qo'zg'olon haligacha bировga naf keltirmagan, deb hisoblar edi.

At-Tekkerli o'z romanini Misrning mashhur yozuvchisi N.Mahfuz ta'sirida yozgandi. "Bevaqt qaytish"ning personajlaridan biri Husayn Mahfuzning "Gadoy" romani qahramoni Umar Hamzaviyga juda o'xshab ketadi. Husayn oilasini, tuzukkina maoshli ishini tashlaydi, imtiyozli maqomidan voz kechib foydasiz xayollarga beriladi, oxiri rasvo bo'lib, piyonistaga aylanadi. Bu bilan yozuvchi ko'pgina misrlik va iroqlik adiblar kabi ayrim burjua doiralari hamda tubanlashgan ijtimoiy qatlamlarning fe'l-atvorini ko'rsatib bermoqchi bo'lar edilar.

Abdurahmon Majid ar-Rubayi (1939y.tug'.) mamlakatning yetakchi nasrnnavisi, 15 kitob muallifi, boshqa inqilobni - 1968 yil 17 iyulida Arab sotsialistik uyg'onish partiyasi (Baas)ni hukumat tepasiga keltirgan inqilobni qalamga oladi. U Baasga tarafdorlik ruhidagi adabiyotni vujudga keltirishga da'vat etadi.

"Orzu pardasi bilan to'silgan ko'zlar" (1974), "Daryo" (1976) romanlari qahramonlari inqilobiy kurashning kerakligi haqidagi xulosaga keladilar. Shu narsa diqqatga sazovorki, ar-Rubayi o'z asarlarida Baas hokimiyatni egallashidan oldingi "dillarda umid va orzular to'lib toshgan" davrni tasvirlaydi. Muallifning Baasning hokimiyatni olgandan keyin, ilgari qilingan orzu-umidlar ushali kutilgan davrdagi faoliyatini tasvirlaydigan birorta ham asari yo'q. Ar-Rubayining 1968 yildan keyingi voqealarni tasvirlovchi romanlarida qahramonlar ideallarsiz va orzularsiz yashaydilar. Chunonchi «Meridianlar» (1983) romanida qahramonlar butunlay tushkun. Ular faqat ma'naviy qashshoq emas, ulardagi insoniy xususiyatlar yo butunlay bo'g'ib tashlangan, yoki asl mohiyatini yo'qotgan. Adib mayda burjua tabaqasiga mansub G'iyos Dovud hayotini tasvirlaydi. U hech o'ylamasdan o'z kuchi va vaqtini mayxo'rlik va ishqiy aloqalarga sarflaydi. Bu obraz ma'lum darajada avtobiografik bo'lsa-da, aslida u ters qahramon, muallif ideallarining aksini o'zida ifodalaydi.

"Hayotda meni eng ko'p iztirobga soladigan narsa bugun o'zimga ep ko'rgan guvohlik vazifam, hayotimdagi eng mushkul vazifadir. Men yolg'iz edim, o'zimdan ham, erimdan ham ko'nglim qolgan edi. Rassom bilan olib borgan yozishmalardan ko'nglim taskin topa boshladi. Men uning xatlarini berilib o'qirdim. Ular o'lim talvasasiga tushgan odamning faryodiga o'xshardi. Na Madrid, na Ispaniya, na butun dunyo, na uning mashhurligi, na uning suvratlari, na u hirs qo'ygan ichkilik endi uni hayotga qaytarishga qodir emas. U mendan najot istaydi. Ammo bundan nima foyda? O'zi cho'kib borayotgan odam boshqa cho'kayotganni qutqara olmaydiku!"⁷¹ Asar qahramonlaridan biri shunday xitob qiladi. Romanda tasvirlangan hayotiy vaziyatlarning bedavoligi, personajlar hayotining ma'nosizligi ar-Rubayi bu davrda e'tiqod qo'ygan ekzistensialistik tafakkur tarzidan sarchashma oladi.

Ar-Rubayi ijodida, xuddi so'nggi yillardagi Iroq adabiyotida bo'lganidek, ikki yo'nalishning o'zaro kurashi sezilib turadi. Bir tomondan, bu - ochiqdan-ochiq targ'ibotchilik ruhidagi rasmiy, baasparast adabiyot. Unga antibaaschi adabiyot qarshi turadi. Bunday asarlarda

⁷¹ Письмена на дереве. Иракский рассказ. М., 1983, Б.14.

hukumatga qarshi e'tiroz hayot maromini butunlay qoralash yo'li bilan pardalab ifodalanadi. O'z fikrlarini ochiq ifodalash imkoniyatidan mahrum bo'lgan bir sharoitda yozuvchi hokim partiya dastur qilib olgan qalloblik va zo'ravonlikni fosh qilmaydi, balki uning ayanchli oqibatlarini, aldov va zulmdan aziyat chekkan, himoyasiz, qo'rquv ostida yashaydigan, zo'ravonliklardan o'zi topgan choralar bilan jon asraydigan inson shaxsi qanday ahvolga tushishini tasvirlaydi.

VIII BOB

LIVAN ADABIYOTI

Livan adabiyoti hozirgi zamon arab adabiyotining ajralmas qismidir. O'z geografik holatiga ko'ra Livan bir tomondan dengiz orqali G'arb bilan aloqada bo'lsa, ikkinchi tomondan sahro yo'lidan Sharq xalqlari bilan bog'liq. Shu bois Livan madaniyatida ikki unsur sharqona va g'arbona xususiyatlar uyg'unlashgan.

Livan Birinchi jahon urushiga qadar Turk sultonligi tarkibiga kirar edi, Livan va Suriya xalqlari turk istibdodidan qutulish, o'z istiqlolini qo'lga kiritish uchun birgalikda kurash olib bordilar. Ularni ko'pdan beri Yaqin Sharq xalqlarini bo'ysindirish, qul qilishga intilib kelayotgan mustamlakachilikka qarshi kurash birlashtirib turar edi.

Turk sultonligining asriy zulmi, undan keyin mustamlakachiliklarning surbetlarcha xo'jayinchilik qilishi, ular tomonidan xalqning tahqirli qashshoqlikka mahkum etilishi bir zamonlar yuksak va mashhur bo'lgan Livan va Suriya arablari madaniyatini tushkunlikka olib keldi.

Mustamlakachilar ko'p yillar davomida Livan madaniyatini boshqa arab mamlakatlaridan chegaralab turishga harakat qildilar va ma'lum darajada bunga erishdilar ham. Usmonli saltanati qulagandan so'ng Livan va boshqa arab xalqlari madaniyati orasidagi uzilish tobora ko'proq sezila boshladi. XIX asrda Nasif al-Yazijiy, Butrus al-Bo'stoniy, Adib Ishoq va boshqalar kabi livanlik yozuvchilar asos solgan madaniyat arboblari orasidagi ma'naviy yaqinlik deyarli butunlay yo'qqa chiqdi.

Shunga qaramay, Livanda fransuzlar, Iroq, Falastin va boshqa arab mamlakatlariga inglizlar arab xalqlari orasidagi tarixan shakllanib kelgan aloqalarni butunlay uzib tashlay olmadilar. Bunday og'ir sharoitda Livan adiblari orasida, ayniqsa, o'z milliy madaniyatiga bo'lgan qiziqish kuchaydi, uni hozirgi zamon talabi darajasiga ko'tarish, asrlar davomida yaratilgan eng yaxshi jihatlarni saqlab qolish va rivojlantirish istagi paydo bo'ldi.

XIX asr Livan adabiyotining asosiy mavzusi milliy masala bo'lib, ozodlik harakati unda deyarli o'z ifodasini topmagan bo'lsa, XX asrning boshlariga kelib, ayniqsa, Birinchi jahon urushidan keyin ahvol butunlay o'zgardi. Bu davrda adabiyot mustaqillik uchun olib borilgan kurashga tobora ko'proq murojaat qila boshladi. Shu bilan birga milliy masala talqini ham borgan sari haqiqatga yaqinroq bo'la bordi.

Arab xalqlari, adiblari shuni tushunib yetdilarki, millat xorijiy xo'jayinlar hukmidan ozod bo'lib, o'z moddiy, ma'naviy manfaatlarini himoya qilish yo'liga qadam qo'ygandagina qaddini rostdab olishi mumkin. Bu vazifa, birinchi navbatda, adabiyot ijodkorlari zimmasiga tushadi.

Nashriyot ishlari boshqa arab mamlakatlariga nisbatan Livanda yaxshiroq yo'lga qo'yilgan. «As-Saqafa al-Vataniya», «at-Tariq» ijtimoiy-adabiy jurnallari katta tirajda chop etiladi. Bu jurnallar sahifalari orqali yosh adiblar o'z iqtidorini sinab ko'rib, adabiyot shoh ko'chasiga qadam qo'yadilar.

Ikkinchi jahon urushi va undan keyingi davrda arab mamlakatlarida g'oyaviy-siyosiy kurash avj pallasiga qadam qo'ydi. Bu davrda, ayniqsa, arablar birligi g'oyasi hammaning diqqatini o'ziga jalb etdi, adabiyotga yangi, ilg'or kuch kelib qo'shildi, eskilik va yangilik orasida kurash avj oldi, yozuvchining jamiyatdagi roli haqida bahs yuritildi, «progressiv realizm» va «sof san'at» tarafdorlari orasida keskin kurash boshlandi, milliy-ozodlik g'oyalarini o'zida aks ettirgan publisistik va badiiy asarlar yaratildi, xalq demokratik yo'nalishidagi adabiyot shakllana boshladi.

MARUN ABBUD

Marun Abbud 1886 yilning 9 fevralida tugʻilib, 1962 yilda Aynu Kifah qishlogʻida olamdan oʻtdi. Adib dindorlar oilasida tarbiya koʻrdi. Eng avval u qishloq maktabida taʼlim olib, soʻngra avliyo Ioann madrasasida oʻqidi. Madrasadan soʻng Bayrutdagi falsafiy – diniy institutga kirib, diniyotdan taʼlim oldi va ruhoniyl boʻlib ishlashi lozim edi. Ammo u boshqa yoʻlni tanladi, uni jurnalistika qiziqtirar edi.

Abbud ruhoniyl oilasidan boʻlgani sababli diniyl xurofotlardan yaxshi xabardor edi va ularga qarshi kurashdi.

Abbud jurnalistik faoliyatini «an-Nasr» gazetasida boshladi, keyinroq oʻzi «Hikoya» gazetasini nashr ettirdi. U Livanning koʻpchilik gazetalari nashrida ishtirok etgan edi.

Adib 1926 yildan pedagogik faoliyat bilan shugʻullanadi. U oʻz mamlakatining koʻzga koʻringan maʼrifatparvarlaridan boʻlib, maorifni rivojlantirishga katta ulush qoʻshdi, ziyolilarning bir necha avlodini tarbiyalab yetishtirdi. U mamlakatning ijtimoiyl va madaniyl hayotida faol ishtirok etdi, Damashq ilmiyl jamiyati aʼzosi edi.

Marun Abbud Xalqaro tinchlik komiteti aʼziligiga saylangan. Adabiyot sohasida u, asosan, novellist va adabiy tanqidchi sifatida tanildi. Abbud 50 yoshida adabiyotga kirib keldi va 50 ta asar yozdi. Ular orasida «Qizil amir» (1954) tarixiy romani, «Amin ar-Rayhoniyl» monografiyasi, adabiyotshunoslikka oid «Pakanalar va devqomatlar», «Shaxslar va sarguzashtlar», «Uygʻonish arboblari», «Qogʻozdagi siyohlar», «Eski va yangi», «Laboratoriya» kabi asarlar mavjud.

Yozuvchining estetik qarashlari haqida gapiriladigan boʻlsa, ular voqelikni realistik aks ettirish, zulmning barcha shakllariga qarshi kurashga asoslanishini taʼkidlash lozim. «Xalq toʻgʻrisida, uning yaxshi turmush uchun olib borayotgan kurashi haqida yozish naqadar zavqli. Bu sanʼat, ijoddagi eng toʻgʻri yoʻl», - degan edi adib.

Abbudning estetik qarashlari, adabiy didi rus adabiyoti taʼsirida shakllandi. Bu haqda uning oʻzi yozgan edi: «Men rus mumtoz adabiyotini afzal koʻraman, Gorkiyning «Ona» asarini, unda oʻz ifodasini topgan badiiy tasvir va xalq ideallari uygʻunligini yuksak qadrlayman».

Abbud rus yozuvchilari bilan xat yozishib turar, ulardan yozuvchilik sirlarini oʻrganib, insonparvarlik gʻoyalari, maʼnaviyatini qalbiga jo qilar edi. «Shafqatsiz mittilar» hikoyalar toʻplami rus tiliga tarjima qilinganda u behad xursand boʻlgan edi. «Bu toʻplam ingliz yoki fransuz tiliga tarjima qilinganda men bunchalik toʻlqinlanmagan boʻlur edim. Toʻplamim Tolstoy, Gorkiy, Dostoyevskiy tili boʻlmish rus tiliga tarjima qilingani men uchun katta sharafdir».

Abbud novellalarida, asosan, Livan qishlogʻining hayoti va urf-odatlarini tasvirlanadi. Adib falloklar hayotini yaxshi bilar, tashvishlarini yaxshi tushunardi. Shuning uchun ham u asarlarida dehqonlarning haqqoniyl obrazlarini chizishga muvaffaq boʻlardi. Qahramonlar nutqi individuallashtirilgan, adabiy til va sheva unsurlari katta mahorat bilan uygʻunlashtirilgan holda ishlatiladi, maqol va matallardan keng foydalaniladi.

«Milod» hikoyasida qishloq hayotining ayanchli manzarasi chiziladi. Dehqon bola Milod omad ilinjida shaharga ketadi. Uning umri boshdan oxirigacha mehnat, ochlik, azob-uqubattan iborat. Bolaning hayotida birorta ham baxtli kun boʻlmagan. Ammo Bayrutda ham hayoti qishloqdagidan yaxshiroq emas. Bayrutda ham Milod oldida baxt eshigi ochilmadi. Shaharda unga oʻxshaganlar son-sanoqsiz. Kimdir hammollik qiladi, boshqa birov gadoychilik, uchinchisi esa oʻgʻirlik bilan kun koʻradi. Adib och-nahor, juldurvaqi Milodning azob-uqubatlarini batafsil tasvirlaydi. Nihoyat Milodning onasi kelib uni qishloqqa olib ketadi.

Hikoyada chuqur ijtimoiyl xulosalar chiqarilmaydi, ammo u oʻquvchini benavo – bechoralar taqdiri haqida oʻylashga majbur qiladi, odamlarni bunday ahvolga solgan jamiyatga nisbatan eʼtiroz oʻygʻotadi.

«Yoʻq, otajon» hikoyasida anʼanaviyl mavzu – ayollar taqdiri qalamga olingan. Hikoya qahramoni Sitt al-Ixva yosh, goʻzal. Ota-onasi uni sevmagan, lekin boy odamga uzatmoqchi boʻlishadi. Qiz qalbida bu muhabbatsiz nikohga qarshi ixtiyorsiz eʼtiroz tugʻiladi. Ammo na ota-onasi, na atrofidagi boshqa odamlar uni tushunishmaydi yoki tushunishni xohlashmaydi. Faqat uning xolasi Sitt al-Beytgina uning tarafini oladi, unga oʻzining boshidan oʻtgan voqealarni

gapirib beradi. Bir vaqtlar yoshlik paytida uni ham sevmagan kishisiga turmushga bermoqchi bo'lishgan, lekin u qat'iylik bilan harakat qilib, sevgilisi Mixailga sodiq qoladi. Cherkovda nikoh marosimida ruhoniylardan «Parvardigorning bandasi Levandusni erlikka qabul qildingmi?» - deb so'raganda, u qo'rqmasdan «yo'q», - deb javob beradi. U bor kuchini yig'ib, ruhoniylarga qarab qichqiradi: «Guvoh bo'l, hazrat, men Mixail Butrusni erlikka qabul qildim!» Mixail ham, o'z navbatida, baland ovoz bilan shunday so'zlarni aytadi. Bu qilmishlari uchun ular cherkov la'natiga uchraydilar. Bu, ya'ni toj kiymasdan bir necha guvohlar huzurida nikohdan o'tish yevropacha nikoh deyiladi.

Adib turmushdagi xurofotlarga qarshi chiqadi, qizlar o'z umr yo'ldoshini o'zi tanlashi kerak deb hisoblaydi. Xolasining sarguzashti Sitt al-Ixvaga kuch bag'ishlaydi. U o'z baxti uchun kurashga bel bog'laydi. «Azmingni mahkam qil, boshingni baland ko'tar. Qo'ymijoz bo'lma, taqdiring o'z qo'lingda», - deydi unga xolasi.

Abbud voqelikni tanqidiy ko'z bilan ko'radi. U qoloq xurofotlar, feodal sarqitlarga qarshi, ammo ma'naviy tanazzulga boshlovchi g'arb san'atiga ko'r-ko'rona ergashishni, milliy an'analardan uzilib qolishni ham yoqlamaydi. Marun Abbud o'z asarlarida yoshlarni xalq manfaati uchun faol ijtimoiy va mehnat faoliyatiga chorlaydi.

JORJ XANA

Livanning yana bir yirik yozuvchisi – publisist, faylasuf, nosir, butun jahon tinchlik kengashi a'zosi Jorj Xanadir.

Jorj Xana 1892 yilda Livanning ash-Shavmiat shaharchasida tug'ilgan. U 1907 yilda ingliz maktabini tugatdi, Bayrutdagi Amerika universitetida o'qib bakalavr darajasini oldi. Xana 1911 yildan shu institutda ishlay boshlaydi, talabalarning inqilobiy harakatiga qo'shiladi, inqilobiy kurash sahnasiga aylangan «Shafaq» jurnali bilan hamkorlik qiladi. Xana 1911 yilda Bayrutdagi Amerika tibbiyot institutiga kiradi, 1915 yilda uni tugatgach Usmonli turk qo'shiniga chaqiriladi va harbiy vrach bo'lib xizmat qiladi. U 1919 yilda harbiy xizmatdan bo'shaydi va Livan qishloqlarining birida vrach bo'lib ishlay boshlaydi.

Xana 1922 yilda Jahon mamlakatlari bo'ylab safarga chiqadi, Hindiston, Argentina, boshqa mamlakatlarga boradi. Safardan qaytgach Bayrutda kambag'allar uchun kasalxona ochadi, tug'ruqxona tashkil qiladi, uzoq vaqt davomida vrachlik qiladi.

Adib o'zining birinchi «Ayol, uning vujudi va qalbi» kitobini 1936 yilda yozdi. Bu kitob, aslida, sof tibbiy mavzuda yozilgan bo'lsa ham, odamlar orasida qaynoq munozaralar chiqishiga sabab bo'ldi. Kitobda Xana nikohsiz tug'ilgan bolalar haqidagi qonunga qarshi chiqqan, bir qism odamlar uni yoqlagan bo'lsa, boshqalar uning fikriga qo'shilmagan edilar.

Jorj Xana siyosiy faoliyat bilan ham shug'ullanar, erkiparvarlik g'oyalari tufayli ta'qib ostiga olinishdan qo'rqib, asarlarini Horis ibn Yahyo taxallusi bilan e'lon qiladi. 1943 yilda «Horisiyot» nomi bilan uning bir turkum siyosiy maqolalari e'lon qilindi. Ularda ifodalangan ayovsiz tanqidiy fikrlari uchun Xana sudga tortildi. Harbiy tribunal unga o'lim jazosini belgiladi, ammo tarafdorlarning sa'y-harakatlari tufayli adib omon qoldi.

Jorj Xana 1947 yilda Rossiyaga keladi, Moskva, Leningrad, Kiev shaharlarida bo'ladi. Vataniga qaytgach «Men Moskvadan qaytayapman» nomli kitob yozib, o'zining demokratiya va ozodlikka bo'lgan intilishlarini ifoda etdi.

Jorj Xana taniqli jamoat arbobi ham edi. Varshavada bo'lib o'tgan Jahon tinchlik kongressida Butunjahon tinchlik kengashi a'zoligiga saylandi.

Adib «at-Tariq» jurnali bilan hamkorlik qilar, uning Yevropa, jumladan rus adabiyotiga bag'ishlangan maqolalari adabiy doiralarda qiziqish bilan o'qilardi. Xana Sovet Ittifoqi yozuvchilarining 2,3-s'ezdlarida ishtirok etgan.

Xana 1954 yilda ikkinchi bor Moskvaga keladi, «Ikkinchi bor Moskvadaman» kitobini yozadi, uning bir bobida M.Gorkiyning xotini va nabiralari bilan bo'lgan qiziqarli uchrashuvi haqida hikoya qiladi.

Jorj Xananing birinchi badiiy asari 1953 yilda bosilib chiqdi. Bu asar «Ibodatxona kohinlari» qissasi bo'lib o'zbek, rus, ukrain tillariga tarjima qilingan. Qissada Livan uchun muhim bo'lgan ijtimoiy – siyosiy hayot muammosi, tinchlik uchun kurash masalasi qalamga

olingan. Asarda publisistik uslub ta'siri sezilib turadi va yozuvchining publisistikadan belletristikaga o'tishi jarayonini o'zida ifoda etadi.

1955 yilda Jorj Xananing «Alp Ubayd» romani bosmadan chiqdi. Ubayd ismli yetim bola taqdiri haqida hikoya qiluvchi bu asar ijtimoiy – maishiy roman janriga taaluqlidir.

Ubayd o'rtog'i bilan birga hayotning shafqatsiz sinovlaridan o'tadi: qurilishda ishlaydi, ko'chada gazeta sotadi. Qahramonlarning quyi tabaqalardan tanlanishi yozuvchiga konkret tarixiy sharoitda Livan dehqonlari va ishchilarining musibatli hayotini tasvirlash imkonini beradi. Romanda qahramonlar ongining o'sishi jarayoni ham ifodalangan. Ular inqilobiy faoliyat bilan shug'ullana boshlaydilar, shu yo'l bilan o'z hayotiy muammolarini hal qilishga umid bog'laydilar.

Roman qahramonlari o'zlariga tarafdor topish maqsadiga «Xalq ovozi» gazetasini chiqara boshlaydilar. Inqilobiy faoliyat tufayli ular ko'p marta hokimiyat vakillari bilan to'qnashadilar, bir necha bor qamoqqa tashlanadilar. Ammo bunga qaramasdan ular kurashni davom ettiradilar, bir kuni g'alaba qozonishlariga umid bog'laydilar.

«A.F. oilasi» qissasi dehqonlar mavzusiga bag'ishlangan. A.F. harflari asarning bosh qahramoni obrazini bildiradi. A.F. livanlik dehqon, tirikchilik g'amida oilasi bilan Bayrutga keladi. Bu yerda to oila boshlig'i nogiron bo'lib qolguncha qadar ular amal-taqal bilan kun kechiradilar. Ammo birin-ketin oila boshiga falokatlar yog'ilib kelaveradi. A.F.ning xotini sil kasaliga mubtalo bo'ladi, yangi tug'ilgan chaqaloqlari vafot etadi, qizlari Salma maktabni tashlab, oilaga yordam berish uchun ishga kiradi.

Adib A.F., uning xotini, bolalari bu ko'rguliklarga taqdir hukmi sifatida mo'minlik bilan chidaganlarini tasvirlaydi. Faqat kenja qiz Saad unday emas. U jiddiy hayotiy muammolar ustida bosh qotiradi, odamlar taqdiri faqat yozug', tasodifga bog'liq bo'lmay, jamiyat, davlat ularni himoya qilishi lozim, degan xulosaga keladi.

Asarda Saadning murakkab ichki kechinmalarini tasvirlashga ko'p o'rin ajratilgan, uning uzoq ichki kurash natijasida jamiyatda o'z o'rni, huquqini qo'lga olish uchun kurashish kerak, degan xulosaga kelishi tasvirlab berilgan. U ham «Alp Ubayd» qahramoni singari mamlakatdagi inqilobiy kuchlar kurashiga qo'shiladi. Livanlik taniqli tanqidchi Husayn Muruvva romanni yuqori baholaydi.

1962 yilda Jorj Xananing esdaliklari «G'urub arafasi» nomi bilan bosilib chiqdi. Bu asar o'quvchini adib biografiyasi bilan tanishtirishi bilangina diqqatga sazovor emas. U mazkur davrning ijtimoiy hujjati sifatida ham ahamiyat kasb etadi. Unda Xana mamlakatdagi ijtimoiy ahvol, o'zining hayotiy va falsafiy kredosini bayon etgan.

Moskvaga qilingan to'rt safaridan keyin u 1963 yilda «Samolar darvozasi oldida» pesasini yozadi. Pesa falsafiy mavzularga bag'ishlangan, inson va samoviy kuchlar orasidagi dialog shaklda yozilgan. Unda diniy bag'rikenglik, jaholat va xurofotga qarshi kurash g'oyalari targ'ib etiladi.

MUHAMMAD IBROHIM DAKRUB

Livanning demokrat yozuvchilari orasida Muhammad Ibrohim Dakrub alohida ajralib turadi. Adib 1929 yilda Livan janubidagi Sur shaharchasida kambag'al oilada tug'ildi. U boshlang'ich ma'lumot olishga muyassar bo'lmadi, mehnat faoliyatini erta boshladi, yozuvchi bo'lmasdan oldin bir qator kasblarda o'zini sinab ko'rdi – sotuvchilik qildi, qurilishda ishladi va hokazo. Kitobga bo'lgan havas uning dunyoqarashini, ma'naviy dunyosini boyitdi, rus mumtoz adabiyotiga, ayniqsa, A.Chexov ijodiga ko'ngil qo'ydi.

Dakrub go'zal husnixat sohibi edi. Uni bir tanish tadbirkor o'z idorasiga ishga oladi. Kunlardan bir kuni idoraga «as-Saqafa al-vataniya» jurnali xodimi kelib qoladi va Dakrubni tahririyatga ishga taklif etadi. Shunday qilib, baxtli tasodif tufayli Dakrub adabiyot olamiga kirib qoladi va asta-sekin uning ichiga sho'ng'ib ketadi.

1954 yilda «Uzun ko'cha» nomi bilan uning birinchi hikoyalar to'plami bosilib chiqdi. Hikoyalarda yozuvchiga yaqindan tanish bo'lgan Livan shaharlaridagi qashshoqlar hayoti tasvirlangan edi.

«Besh piastr» hikoyasida kichik do‘kon sotuvchisi haqida hikoya qilinadi. U xizmati evaziga arziyas chaqa oladi, doimo chala qo‘rsiq yuradi, qayg‘uli hayot kechiradi.

Hikoya qahramonning yomg‘ir ostida uyiga ketayotgani tasviridan boshlanadi. So‘qqabosh bu yigit shahar chetidagi xonasiga oshiqmoqda. Uning qorni och, yirtiq poyafzalidan suv o‘tib ketgan. Tramvayda ketsa ham bo‘lardi, ammo bor yo‘g‘i besh piastr puli bor, unga kechqurun yeb yotish uchun bir bog‘ rediska olishi kerak. U tramvayda «quyon» bo‘lib ketmoqchi bo‘ladi, lekin konduktor uni haydab soladi, yana yomg‘irda ivib piyoda ketishga majbur bo‘ladi.

Hikoyada Livan uchun dolzarb muammo bo‘lgan oddiy odamlarning turmush darajasi pastligi masalasi ko‘tarib chiqilgan. Hikoya oxirida dabdabali gaplar ham yo‘q emas. Hikoya qahramoni o‘zini uchib ketayotgandek sezadi, keyin tushib ketadi, atrof to‘la yirtqich hayvonlar, qorong‘ulik. Uzoqdan ko‘zni qamashtiruvchi yorug‘lik ko‘rinadi va millionlab benavo – bechoralar o‘sha tomonga qarab ketadilar.

«Oyna» hikoyasida Dakrub ilk ijodiga xos sentimentallikdan qochishga muvaffaq bo‘lgan. Hikoyaning bosh qahramoni ishchi oilaning qizi 9 yoshli Maryam. Oilasiga qarashish uchun u ertalabdan kechgacha Bayrut ko‘chalarida izg‘ib, siniq shisha yig‘adi va xasis savdogarga arzimagan chaqaga topshiradi. Adib bolalik gashtini surishdan mahrum bo‘lgan bu qizcha hayotini achinish tuyg‘usi bilan tasvirlaydi. Qizaloqning yagona quvonchi – otasining yorqin kelajak haqidagi hikoyalari, u do‘stlari bilan birgalikda ana shu kelajak uchun kurashmoqda. Ish tashlash, otasining unda ishtirok etishi qizaloqda umid uyg‘otadi. U qachondir siniq shisha qidirib ko‘chalar bo‘ylab yugurib yurishdan xalos bo‘lishi haqida o‘ylaydi. Dakrub o‘z qahramonlari bilan birgalikda Livan kambag‘allari hayotini yaxshilash yo‘llari haqida mulohaza yuritadi. Adib faqat birlashib astoydil kurashgandagina hayotni yaxshilash mumkinligiga ishonadi.

«Mushohadakor» hikoyasi Livan ishchilari hayotini tasvirlashga bag‘ishlangan. Asarning bosh qahramoni to‘quvchi Qosim to‘quvchilik kombinati ishchilarining ish tashlashlarida yetakchi bo‘lishga urinadi. Quyi tabaqadan chiqqan bu «rahbar» bir qator xususiyatlar egasi – u mehnatsevar, yaqinlariga mehribon, o‘z huquqini himoya qilishda qat‘iy. Yozuvchi mamlakatning porloq kelajagini aynan Qosim kabi kishilar bilan bog‘laydi.

Hikoyadagi esda qoladigan siymolardan yana biri targ‘ibotchi ziyoli obrazidir. U Qosimning qarama-qarshisi, xalq manfaatlaridan yiroq shaxs. «Uning namoyishchilar safiga qo‘shilgisi keladi, lekin qo‘rqadi. Bu «telbalar»ga hamroh bo‘lgisi kelmaydi. Bu ikki xarakterni kontrast usulida tasvirlash yo‘li bilan yozuvchi hikoyada ko‘tarilgan ijtimoiy muammoni bo‘rttirib ko‘rsatishga erishadi.

Muhammad Dakrub – demokrat yozuvchi bo‘lgani bois Livan mehnatkashlari hayotidan chizgan realistik lavhalari orqali jamoatchilik diqqatini mamlakatning yechimsiz bo‘lib kelayotgan ijtimoiy muammolariga qaratishga harakat qiladi.

Livan adabiyoti taraqqiyotida Rauf Huriy salmoqli rol o‘ynadi. U 1918 yilda tavallud topgan bo‘lib, Livanda, boshqa arab mamlakatlarida taniqli jamoat arbobi, o‘tkir qalamli publisist, iste’dodli yozuvchi va adabiyotshunos sifatida tanilgan.

Rauf Huriy o‘spirinlik vaqtidanoq Livanning ijtimoiy – siyosiy hayotida faol qatnasha boshladi. U matbuotda Falastinning inglizlar mandatidan ozod bo‘lishi tarafdori sifatida o‘tkir chiqishlar qildi.

Huriy ko‘p yillar davomida muharrir va qator adabiy asarlar muallifi sifatida «at-Tariq» jurnali bilan hamkorlik qildi. Rauf Huriyning birinchi kitobi – «Bir dona anor» 1935 yilda nashrdan chiqdi. Unga arablarning o‘rta asrlardagi hayotini tasvirlaydigan hikoyalar kiritilgan edi. 1948 yilda uning Ummaviylar davriga bag‘ishlangan podshohlarning zo‘ravonligi, zulmini tasvirlovchi qissasi bosmadan chiqdi. Adib o‘z asarlarida tarixiy syujetlardan abadiy, umuminsoniy axloqiy va insonparvarlik ideallarini tarannum etish uchun foydalanadi.

Livanning oddiy odamlari hayoti, dardu-alamlari, ularning huquqsiz holatiga qarshi e‘tiroz – bularning barchasi demokratik yo‘nalishdagi adabiyot namoyondalari ijodida yuksak

mahorat bilan aks ettirilgan. Ular ijodi tufayli Livan adabiyotidagi novella ilgarigi shakl nuqsonlaridan, syujetning yaxlit emasligi, sentimentallikdan xalos bo'ldi.

Ikkinchi jahon urushidan so'ng Livan adabiyotida yangi yo'nalish shakllandi. Bunga fransuz adabiyoti – Sartr, Kamyu, Fransua Moriak, Fransuaza Sagan hamda tarjimalar orqali modernistik falsafa katta ta'sir ko'rsatdi. Bu yo'nalishdagi adabiyotda qahramon yolg'iz, taqdirga tan bergan, jamiyatga yo'l topolmagan inson (ko'pincha ziyoli) sifatida tasvirlanadi. Bunday asarlarda qayg'u va umidsizlik kayfiyatlari o'z aksini topgan.

Mazkur yo'nalish adiblari insonni tasvirlashda ko'proq uning ruhiy holatiga diqqat qiladilar, uning tasodifiy, ko'pincha arziyas sabablar tufayli o'zgarishiga e'tibor qaratadilar. Bunday asarlarda muhim ijtimoiy masalalar ko'tarib chiqilmaydi, psixologik ziddiyatlar sub'ektiv kechinmalar doirasiga ko'chirilgan. Suhayl Idris, Yusuf Yunus, Salim Nassar, Fuad Kun'an, Halim Barakat va boshqa bir qator yozuvchilar ana shu yo'nalish namoyandalari sifatida maydonga chiqdilar.

Suhayl Idris «Al-Ashvak» («Ehtiros», 1947), «Niran va suluj» («Nurlar va qorlar», 1948), «Kulluhunna nissa» («Ularning barchasi – ayollar», 1949), «Al – Dam'a al-murr» («Achchiq ko'z yoshi», 1956), «Rahmon yo Damashq» («Menga rahm qil, ey Damashq», 1956) va boshqa asarlar muallifi bo'lib, ularda ko'proq ziyolilar hayoti tasvirlanadi.

Suhayl Idris asarlari qahramonlari jurnalistlar, yozuvchilar, o'qituvchilar, talabalardir. Nega bunday? Idrisning fikricha, yozuvchilar va xalq orasida tubsiz jarlik mavjud. Buning sababi – odamlarning savodsizligi. Shu bois yozuvchi savodxon kishilarga murojaat qiladi.

Yozuvchi o'z diqqatini ko'proq ayollar ahvoliga, eski urf – odatlarni tanqid qilishga qaratadi. Yana bir muammo – yozuvchining jamiyat oldidagi burchi masalasi. Idris so'z va fikr erkinligi uchun kurashadi. Uning ijodida muhojirlikdagi ziyoli taqdiri, falastin muammosi ham salmoqli o'rin egallaydi. Uning novellalari tuzilishi bir xil – boshida o'quvchi qahramonning ichki kechinmalari, muhabbati bilan tanishtiriladi, uning chekkan azob - uqubatlari, yolg'izligi tasvirlanadi, oxirida esa ish fojea bilan tugaydi.

«Ashvak» novellasida boy oila qizi musiqa o'qituvchisini sevib qoladi, ammo o'qituvchi oralaridagi farqni tushungan holda qizni xoli qo'yib ketadi. Novellada yuksak tuyg'ular, ishqiy munosabatlardagi romantik ko'tarinkilik o'z ifodasini topgan.

«Tizkar as-saura» («Inqilob ordeni») hikoyasida yozuvchi Livan xalqining 1945 yilda fransuz bosqinchilariga qarshi olib borgan kurashi manzaralarini qayta jonlashtirishga harakat qiladi. Livanlik yosh yigit bosqinchilarga qarshi kurashda oyog'idan ajraladi, orden oladi va bundan xursand bo'ladi. Bu bilan yozuvchi mustaqillik uchun kurashda g'alaba qanday qurbonlar evaziga qo'lga kiritilishini ko'rsatib beradi. Urushda juda ko'p askarlar hikoya qahramoni singari yoshligi, sog'ligini yo'qotadi.

Idris ijodida boshqacha mazmundagi novellalar ham mavjud. Jumladan, «Imra» («Ayol») asarida na hayotda, na oilaviy turmushda baxtga yetisha olmagan ayolning mantiqsiz ruhiyati ifodalangan. Yoshligida yoshi ulug', sevmagan kishisiga turmushga berib yuborilgan ayol o'z eriga nisbatan tuygan nafrat hissini bosa olmaydi. Uning butun muhabbati qiziga baxshida etilgan. Qiz birovga ko'ngil qo'yanida esa, onaning rashki keladi. Butun hayoti davomida yig'ilib yotgan norozilik, taqdirga qarshi qaratilgan isyon xunuk bir ko'rinishda yuzaga chiqadi – ona rashk tufayli o'z qizini o'ldiradi.

«Hamma balo uning o'zida» hikoyasida esa yozuvchi odamlarning din niqobidagi ikkiyuzlamaliklarini fosh etadi.

«Kontinental mehmonxonasida to'kilgan ko'z yoshi» hikoyasida informatsiyani, yangilikni qo'lga kiritish uchun hech narsadan qaytmaydigan jurnalist haqida hikoya qilinadi. Asarda voqealar mahorat bilan chiroyli qilib tasvirlangan.

Yozuvchining bu novellari ilk asarlardan farq qiladi. Ularda tafsilotlar, takrorlar, ortiqcha detallar uchramaydi. «Menga rahm qil, ey Damashq» hikoyasida yozuvchining ijtimoiy mavzularga yuz burgani seziladi. Hikoya qahramoni - hammol o'g'liga kichkinagina kanareyka olib berishni orzu qiladi, o'g'lini o'qishga yuborish uchun pul to'playdi. Bu hikoyada farzandlari

kelajagini ta'minlash uchun jon - jahdi bilan harakat qilgan kambag'allarning haqqoniy tasviri berilgan.

Fransuz tanqidchisi Vinsent Monteyn «tashvish» atamasi ekzistensializmning muhim xususiyatlaridan biridir», - deb yozgan edi. Bir burda non uchun doimiy kurash bitmas – tunganmas qo'rquv – bular odam kuchini qirqadi, o'z ideallariga intilishdan bezdiradi. Asar qahramoni hamma vaqt ishdan haydaliq qo'rquvi ostida yashaydi. «Mushtumzo'rlar meni mittiga aylantirib qo'ydilar. Men shunchalik mitti bo'lib qolganmanki, o'zim o'zimni ko'rolmayman, kimligimni, nimani xohlashimni, nimani xohlamasligimni bilmayman», - deydi, "Menga rahm qil, ey Damashq" hikoyasi qahramoni. Bu tasvir ekzistensialistik g'oyalarga uyqash, chunki ular ham insonning yovuzlik, taqdir oldida chorasiz, notavon ekanligini isbotlamoqchi bo'ladilar. Yozuvchi ko'pincha bir xil tasvir uslubidan foydalanadi: bayon qahramonning uzluksiz o'y - mulohazalari shaklida beriladi, ko'pincha ichki monologdan foydalaniladi". Tanqidchi Gaston Vet S.Idrisning arab adabiyotidagi ekzistensializm targ'ibotchilaridan biri deb hisoblaydi. S.Idris arab tiliga Sartr, Kamyu, Simona de Bovuar kitoblarini tarjima qilgan.

Fransuz tanqidchisi V.Montey bunday mulohaza yuritadi: "Bu (yangi oqim) sharq libosiga burkangan Yevropa timsoli emasmikan?" Yo'q, albatta. Chunki inson doimo bir xil bo'lsa ham, ammo umumjahon mojarolar har bir iqlimda boshqa - boshqa ko'rinishda namoyon bo'ladi.

IX BOB

MAG'RIB MAMLAKATLARI ADABIYOTI

Mag'rib mamlakatlari adabiyoti XIX asr oxiri va XX asr boshlarida ko'p asrlar davomida deyarli o'zgarmagan mumtoz adabiyot an'alaridan zamonaviy tipdagi, sifat jihatidan yangi adabiyotga o'tish jarayonini boshdan kechirdi. Bu hol mazkur mamlakatlarning o'z boshicha, boshqalardan ajralgan tarzda yashash holatidan chiqib, texnik taraqqiyot, umumjahon madaniyati, hozirgi zamon jamiyatining chigal muammolari kompleksiga bosh qo'shishi tufayli yuzaga keldi.

Ijtimoiy tizimning butunlay qayta qurilishi, bu jarayonning sur'at bilan, bor yo'g'i o'n yillar orasida amalga oshirilishi hamma joyda ham o'ta murakkab axloqiy, fikriy va boshqa to'qnashuvlarga olib keldi. Ana shu voqealar badiiy adabiyotning tasvir ob'ektiga, yozuvchilar asarlari esa, davrning bebaho ijtimoiy hujjatiga aylandi.

Mag'rib mamlakatlarining hozirgi zamon adabiyotiga xos bo'lgan jihat ularning notekis rivojlanishidir. Mag'rib adabiyoti, go'yo tezda o'z qoloqligini yengib o'tishga qasd qilgandek, ilg'or g'oyaviy va estetik tajribaga suyangan holda sapchib olg'a tashlandi.

Madaniy masalalarda g'arb kolonializmi siyosatidagi ikki tendensiyaning kuzatish mumkin:

1. Assimilyatsiya siyosati, bu siyosat fransuz va portugal mustamlakachilari tomonidan o'tkazilar edi.

2. Mahalliy madaniyatni mustamlakachilar manfaatiga moslash siyosati. Britaniya va Belgiya mustamlakachilari yurgizgan siyosat shunday edi.

Assimilyatsiya siyosati, birinchi navbatda, milliy tilni siqishtirish hisobiga mustamlakachilar tilini joriy qilishda o'z ifodasini topar edi. Ayniqsa, fransuz bosqinchilari mahalliy madaniyatni izchil ravishda ta'qib qilish siyosatini o'tkazib, hatto quyi sinf o'quvchilariga ona tilida gaplashishni taqiqlashga yetib borishardi. Buning oqibatida fransuz tili jazoirlik yosh ziyolilarni ilg'or g'oyalar bilan tanishtiruvchi vositaga aylandi, Shimoliy Afrika aholisiga mustamlakachilik tizimi atvorini chuqur tushunishga, unga nisbatan o'zlarining tegishli yondashuvlarini ishlab chiqishga ko'maklashdi. Natija kutilganning teskarisi bo'lib chiqdi, chunki mustamlakachilar musulmon maktablarini yevropachaga almashtirganda mahalliy xalq orasida "Evropalashgan qatlamni", kolonial rejim himoyachilarini vujudga keltirishni maqsad qilib olgan edilar. Yozuvchilar fransuz tili orqali jamiyatning bugungi talablariga javob beradigan, arab adabiy an'alariga xos bo'lmagan badiiy tasvir vositalari bilan tanishdilar.

Fransiyaning Afrikadagi ilk mustamlakalaridan bo'lgan Jazoirda arab tili "chet tili"ga aylanib qoldi.

Hozirgi zamon Mag'rib adabiyotining shakllanishi ijtimoiy ongning taraqqiyoti bilan bog'liq. Yozuvchilar fransuz tilini davlatning iqtisodiy, siyosiy taraqqiyoti omili bo'lgan milliy yaxlitlik, turli etnik guruhlarining birlashuvi vositasi sifatida qabul qildilar.

Mag'rib mamlakatlarida mustaqillik qo'lga kiritilgandan so'ng "arablashtirish" siyosati e'lon qilinganda fransuz tilidagi adabiyotni ham zamonaviy milliy madaniyatning muhim tarkibiy qismi sifatida saqlab qolish va rivojlantirish lozimligi ayon bo'ldi. Shunday qilib, g'arb dunyosiga, g'arb madaniyatiga bo'lgan munosabat murakkab evolyusiyani boshdan kechirdi.

Ikki jahon urushi oralig'ida adabiyotda kolonial zulmga qarshi stixiyali e'tiroz va g'arb madaniyatiga bolalarcha shaydolik o'z ifodasini topdi. Bu hol antikolonial harakatning ilk pallalariga xos o'zini anglashning noetukligi bilan bog'liq edi.

Ikkinchi jahon urushidan so'ng esa buning aksi - adolatsizlik va zulm manbai deb tasavvur qilingan "oqlar" bilan butunlay aloqani uzishga harakat qilish ko'zga tashlanadi (Jazoirlik publisist Frans Fanon).

Hozirgi zamon adabiyotining, ayniqsa, nasrning eng muhim mavzularidan biri patriarxal sarqitlar va yangi tamoyillar orasidagi to'qnashuvdir. Tanqidchilar bu mavzuni "eskilik va yangilik" orasidagi kurash deb ataydilar. Ilk davrlarda bu mavzu "madaniyatlar to'qnashuvi", an'anaviy madaniyat va begonalar madaniyati unsurlarining to'qnashuvi sifatida talqin qilingan edi. Ammo so'nggi vaqtlarda ko'pgina Afrika mamlakatlarida kapitalistik munosabatlarning kuchayib borishi sababli jamiyat taraqqiyotining maromi boshqacha ko'rina boshladi. "Eskilik" va "yangilik" orasidagi kurash hali ham dolzarb masala bo'lib qolmoqda, adabiyot uchun o'zining ahamiyatini yo'qotganicha yo'q. Lekin endilikda "yangining", ya'ni Afrika davlatlaridagi burjua munosabatlarning ichki ziddiyatlari tobora ko'proq ko'zga tashlanmoqda. Ijtimoiy tangsizlik, mehnat va kapital orasidagi ziddiyat borgan sari ko'proq badiiy adabiyotning tasvir ob'ektiga aylanmoqda. Adiblar diqqati mustamlakachi va mustamlaka davlat orasidagi nizolardan ichki vaziyatga, ichki norasoliklarni tanqid qilishga ko'chadi.

Madaniy merosga bo'lgan munosabat murakkab tus oldi. Adabiyot va san'atda o'tmishga qiziqish ko'p hollarda an'anaviy bosqinchilarning buzg'unchilik ishlariga qaramay omon qolgan shu xalqqa xos jihatlarni saqlab qolish, rivojlantirishga urinishda o'z ifodasini topdi. O'z vaqtining madaniy merosiga uning kelajak taraqqiyotini o'tmishi bilan bog'lash maqsadida murojaat qilish adiblar tomonidan milliy uyg'onish jarayoniga qo'shilgan salmoqli ulush edi.

Ayni paytda o'tgan zamonlar madaniy qadriyatlarining absolyutlashtirilishi borgan sari ko'proq ziyolilar qarshiligiga duch kela boshladi.

Uzoq ming yilliklar davomida Afrika qit'asida buyuk sivilizatsiyalar mavjud bo'lgan, ulardan ajoyib san'at durdonalari, me'morchilik yodgorliklari, xalq og'zaki ijodi namunalari saqlanib qolgan. Butun dunyoga tanilgan Nil daryosi vohasidagi buyuk sivilizatsiyalar, Yevropa sivilizatsiyasining ustunlaridan biri bo'lib xizmat qilgan inson paydo bo'lgan ilk davrlarga oid madaniyat o'choqlari shular jumlasidandir.

Vorislik muammolari, favqulodda boy madaniy merosga, jumladan, folklorga bo'lgan munosabat adabiyot va san'at arboblari oldida turgan eng muhim muammolardan hisoblanadi.

Ba'zibir g'arb tanqidchilari haligacha afrikalik yozuvchilarga bu qit'a xalqlari san'atining "favquloddaligi"ni, uning asrlar qa'ridan sarchashma olib davom etib kelayotgan va zamonga ham bo'ysunmaydigan o'ziga xosligini saqlashi lozimligini uqtirmoqchi bo'ladilar. Hatto ayrimlar adiblarni realistik adabiyot Afrika qit'asi uchun "begona"ligiga, folklor sarchashmalariga qaytish - tradisionalizm afrikalik yozuvchi uchun yagona to'g'ri yo'l ekaniga ishonitirmoqchi bo'ladilar. Bu bilan ular yozuvchilarni dolzarb ijtimoiy masalalardan uzoqlashtirishga, adabiyotni esa, afrikacha ekzotizm doirasidan chiqarmaslikka, "mahalliy uslub"ni saqlab qolishga, "asl afrikacha" an'analarni realizmning "halokatli" ta'siridan asrab qolishga da'vat qilmoqchi bo'ladilar.

Neokolonializm tarafdorlaridan bo'lmish Lante o'zining "Burdalangan Afrika" kitobida "vatan, millat, mustaqillik, dekolonizatsiya, demokratiya, birlik" kabi "g'arbcha konsepsiya"larni bu yerga tiqishtirish o'rinsiz, degan fikrni bildiradi.

Shunday qilib, kechagina g'arb sivilizatsiyasining afzalligi haqida safsata sotgan mustamlakachilar Afrika madaniyatining o'ziga xosligi, mustaqilligi himoyachisiga aylanib qoldilar. Aslida esa, bu uni "nomatlub" tamoyillar yo'lidan rivojlanib borishga to'sqinlik qilishdan o'zga narsa emas.

Mag'rib adabiyotida ba'zida modernizm, uning Mag'ribga xos xususiyatlari haqidagi fikrlar bayon etiladi. Bu fikrlar aksar hollarda to'g'ridan-to'g'ri g'arb adiblari va tanqidchilari ta'sirida tug'ilishi sir emas. Bu o'rinda san'atkorlarning modernistik izlanishlarini bevosita folklor bilan bog'lashga, ularda ifodalangan irrasionalistik tamoyillardan keltirib chiqarishga urinish ko'zga chalinadi. G'arbning mashhur yozuvchilariga to'g'ridan-to'g'ri taqlid qilish hollari ham oz emas. M.Dib o'zining "Dengizni unutmaganlar" (1962), "Yovvoyi qirg'oqlarga qochish" (1964) romanlarida realistik metoddan chekinganini Pikassoning "Gernika" siga taqlid qilgani bilan izohlaydi.

Mag'ribning ayrim yozuvchilari ijodida modernistik estetika unsurlari XX asr san'atiga xos murakkab progressiv tamoyillar bilan chatishgan holda namoyon bo'ladi.

Afrika qit'asi adabiyotida yuzaga kelgan, hanuzgacha deyarli tadqiq etilmagan romantizm masalasi ham diqqatni jalb etadi. Romantizm, masalan, arabiyzabon adabiyot taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Chunonchi, o'z asarlarida, asosan, insonning ichki dunyosini tasvirlagan romantiklarning estetik prinsiplari XX asrgacha o'zgarishsiz davom etib kelgan arab she'riyatining eskirib ketgan qonun-qoidalariga qarshi kurashda anchagina ijobiy rol o'ynadi.

Hozirgi zamon adabiyoti taraqqiyotida kelajak rivojlanishi yo'llarini, bugungi dunyoda to'g'ri yo'lni tanlashga ko'mak beradigan tanqidiy realizm metodi ham katta ahamiyat kasb etib bormoqda. Tanqidiy realizm uslubida ijod qilayotgan adiblar mamlakatda yuz berayotgan reaksiyon xurujlarni jilovlab turadigan, ularning oldini oladigan ijtimoiy kuch sifatida maydonga chiqmoqda.

Shuni ham ta'kidlash lozimki, Mag'ribning uch mamlakatida mustaqillik davrida yuzaga kelgan yangi ijtimoiy-siyosiy holat bir-biridan juda ham farq qiladi. Ayni paytda ularda kechayotgan adabiy jarayondagi umumiy jihatlardan ham ko'z yumib bo'lmaydi. Ularni quyidagicha umumlashtirish mumkin:

1. Yozuvchi Mag'ribning yangi adabiyoti shakllanishi davrida yuzaga kelgan an'analarga sodiq qolmoqdalar.

2. Adabiyot ikki tilda rivojlanmoqda. Fransuz tilini K.Yasin "dushman qo'lidan tortib olingan miltiq", deb atagan edi.

3. Yozuvchilar asarlari mavzularining mushtarakligi, estetik prinsiplardagi umumiylik ko'zga tashlanmoqda.

Fransuz tilida nashr etiladigan "Suffl" ("Mujda") jurnali Mag'rib yozuvchilarini birlashtirib, quyidagi vazifalarni o'z oldiga qo'ygan edi:

1. Xalqning to'la erkinlik, "dekolonizatsiya", ijtimoiy va madaniy taraqqiyot sari bosib o'tgan yo'li naqadar mashaqqatli bo'lganini ko'rsatish.

2. Milliy o'tmish mohiyatini tushunishga harakat qilish, hozirgi zamonaga ochiq ko'z bilan qarash, kezi kelganda, kelajak qanday bo'lishini ilg'ab olishga harakat qilish.

Mag'rib mamlakatlaridagi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar yozuvchilarning voqelik bilan yangicha munosabatda bo'lishlariga olib keldi. Bu esa, o'z navbatida, adabiyotda o'z aksini topadigan badiiy haqiqat xususiyatini ham o'zgartirdi.

Mag'rib yozuvchilari duch keladigan, ularning asarlarida ifodalanadigan muammolar ma'naviy "dekolonizatsiya", yangi ijtimoiy munosabatlarning barqarorlashishi, rivojlanayotgan munosabatlarda ro'y berayotgan siyosiy, madaniy o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liq.

Mustamlakachilik davrida yozuvchilar o'z xalqlarining ichki dunyosini tasvirlashga, o'zlarining "milliy dunyo"larini kolonial dunyoga qarshi qo'yishga harakat qilardilar.

Mustamlakachilik tugatilgandan so'nggi sharoit ilgari Jazoir, Tunis, Marokash yozuvchilarini birdek hayajonga solgan ko'pgina mavzularning differentsiatsiyalanishiga olib keldi, yangi mavzular yuzaga keldi. Yozuvchilar endi yangi dunyoning ziddiyatlarini, yangi zamon odamining hali ham asoratlari sezilib turgan o'tmish bilan bo'lgan murakkab munosabatlarini idrok etishga harakat qilmoqdalar.

Ijtimoiy-tarixiy sharoit endilikda unga xos epik salmoqdorlik bilan emas, balki ma'naviy voqelik, yangi zamon zaylini anglashga qodir shaxsning ichki dunyosi oynasida aks etgan shaklda tasvirlanmoqda. Ilgari adabiyotda turmush voqeliklarini tasvirlash ustun turgan bo'lsa, endilikda inson qalbida kechayotgan hayotni tasvirlash asosiy o'rin egallab bormoqda. Romanlarda ilgarigidek badastir, izchil syujetning yo'qligi, ma'no tovlanishlari, ramzlarning uzuq-yuluqligi, majoziylik sababi ham shunda. Kitoblar sahifalaridan yuz ochgan, salbiy bo'yoqlarda tasvirlangan dunyoni yaxlit bir butunlikka birlashtirib turadigan omil esa, yozuvchining aniq ifodalangan pozitsiyasidir. Shunday tasavvur hosil bo'lishi mumkinki, Mag'rib yozuvchilari go'yo yaxshi narsalarni qidirib topib tasvirlashni unutib, bor diqqat - e'tiborlarini voqelik, muhitni ijtimoiy-tanqidiy tahlil qilishga, uning ziddiyatlarini ko'rsatishga qaratganlar.

U.Folkner yozgan edi: "Yozuvchi, shoir, romannavis insonlarning xatti-harakatini qayd etib boradigan oddiy solnomanavis bo'la olmaydi. U insonda hozirgi holatidan yaxshiroq bo'lishi mumkinligi haqida tushuncha hosil qilishi lozim. Agar yozuvchining zimmasiga biror vazifa yuklangan, deyiladigan bo'lsa, bu vazifa o'zi ko'rib turgan dunyoni ozgina bo'lsa ham yaxshiroq qilishdan, ixtiyoridagi barcha vositalardan foydalanib, uni yomonliklardan poklashga harakat qilishdan iborat". Folkner haq bo'lsa ajab emas.

JAZOIR ADABIYOTI

Jazoir adabiyoti hozirgi davrda Afrika qit'asidagi eng rivojlangan adabiyotlaridan bo'lib, u arab va fransuz tillarida yaratiladi. Shuni aytish lozimki, bu mamlakatlarning arab tilidagi adabiy an'analari musulmon davlatining ilk asrlari - xalifalik davriga (VIII-XI) borib taqalsa, fransuz tilidagi adabiyot XX asrda vujudga keldi. Shunga qaramay, Jazoir mustamlakachilik asoratidan qutulish uchun kurash olib borgan davrdan (50 yillarning ikkinchi yarmi - 60-yillar) boshlab u tez sur'atlar bilan rivojlandi. Ular bilan bir qatorda Jazoir asrlar davomida boy xalq og'zaki ijodi rivojlanib kelmokda. U hatto tushkunlik davrlari, mustamlakachilik zamonida ham so'z san'atining milliy an'alarini oziqlantirib turdi.

Xalq og'zaki ijodi bu mamlakatda arab tilining jazoir, berber shevalarida yaratiladi. Bu shevalarda xalq mulkiga aylangan, avloddan avlodga og'zaki shaklda meros bo'lib ko'chadigan ajoyib asarlar yaratilgan bo'lsa ham, lekin hanuzgacha ularning yozuvi yo'q. Si Moxand ana shunday mashhur berber shoirlaridan bo'lib, u Kabiliyada yashagan va taxminan 1906 yilda vafot etgan. Uning she'rlari Mulud Feraun (1913-1962) tomonidan fransuz tiliga tarjima qilingan.

Mamlakat mustaqilligi e'lon qilingandan (1962) so'ng bu mamlakatda rasmiy ravishda "arablashtirish" siyosati, ya'ni ona tilidagi madaniy merosni o'zlashtirish, 130 yillik fransuz hokimiyati davomida quvg'in qilingan arab tilini ijtimoiy, madaniy hayotining barcha sohalariga joriy qilish siyosati amalga oshirila boshladi. Shunga qaramay ozodlikni qo'lga kiritgan ko'pchilik Afrika davlatlarida bo'lganidek, Jazoir ham madaniy hayot, til masalasida anchagina muammolar mavjud. Madaniyat sohasida, qolaversa, ijtimoiy hayotning boshqa sohalarida ham, mustamlakachilik asoratlarini yengib o'tish oson kechmadi. Ma'lum bir muddat davomida Jazoir adabiyotida, shubhasiz, ikki tillilik saqlanib qoladi. Arab, berber millatiga mansub mualliflar tomonidan yaratilayotgan fransuz tilidagi adabiyot milliy birlik g'oyalarini targ'ib etib, etnik guruhlarini birlashtirishda, milliy taraqqiyotga erishishda muhim rol o'ynayotgani ham buning garovidir. Xalqaro miqyosda keng shuhrat qozongan fransuz tilida irod qiladigan adiblar asarlari Jazoir milliy madaniyatining ajralmas tarkibiy qismiga aylangan, u mamlakatdagi ma'naviy hayotga ta'sir ko'rsatib turadi. Bu omil Jazoir ijodkorlarini hozirgi

zamon madaniy taraqqiyot bosqichida ham arab, ham fransuz tilidagi adabiy an'analarni rivojlantirishga, ularning bir-birini boyitib borishi imkoniyatlaridan foydalanishga undaydi.

Jazoirning fransuz tilidagi adabiyoti o'zining XX asr o'rtalaridagi muvaffaqiyatlari nuqtai nazaridan Afrikaning boshqa mamlakatlarida Ikkinchi jahon urushidan keyin Yevropa tillarida tez sur'atlar bilan shakllanib borayotgan adabiyotlar orasida alohida ajralib turadi. Bu hol bir qaraganda g'alati tuyulsa ham, ammo mohiyatan to'g'ridir.

Jazoir adiblarining fransuz tilida ijod qilishi mamlakatda yevropacha ta'limning joriy qilinishi, musulmoncha ta'lim tizimining siqib chiqarilishi bilan bog'liq. Mustamlaka davrida xayriya hisobiga oz sonli eski maktablarga yashirin tarzda faoliyat ko'rsatar edi. Ammo bu harakatlardan mustamlakachilar kutgan natija teskari bo'lib chiqdi. Ular bu yo'l bilan yerli aholi ichidan "evropalashgan" kolonial rejim tarafdorlarini yetishtirmoqchi bo'lgan edilar, ammo amalda fransuz tili yosh jazoirlik ziyolilar uchun ilg'or ijtimoiy g'oyalarni, hozirgi zamon jamiyati taraqqiyoti muammolarini o'rganish vositasi bo'ldi, pirovard natijada bu til shimoliy afrikaliklar uchun mustamlaka holatini yaxshiroq anglab, unga nisbatan o'z munosabatlarini ishlab chiqish imkonini yaratdi. Aytish mumkinki, fransuz tili orqali Jazoir adiblari jahon adabiyoti va estetikasining eng yangi yutuqlari bilan tanishdilar, jamiyatning bugungi ehtiyojlariga mos badiiy tasvir vositalarini o'zlashtirdilar. O'rta asr an'analari ta'siridan qutulib ulgurmagan Jazoirning arabizabon adabiyoti uchun bu vositalar yangi edi.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda milliy o'zlikni anglashning tez sur'atlar bilan o'sishi, Jazoir ziyolilari g'oyaviy dunyoqarashining sezilarli darajada kengayishi, estetik tasavvurining boyishi - bularning barchasi Jazoirning o'ziga xos adabiyoti, ayniqsa, Jazoir uchun, qolaversa, boshqa arab mamlakatlari uchun ham yangi bo'lgan roman janrining gurkirab taraqqiy etishiga olib keldi. Ayni paytda bir qarashda kutilmagan holat ham ko'zga chalinadi: Jazoir yozuvchisi o'zini fransuz tili olamida qanchalik erkin sezsa, fransuz va jahon madaniy boyliklari bilan qanchalik chuqurroq tanishib borsa, u shunchalik berilib o'zining g'arb olamidan o'zgachaligini, mustaqilligini ko'rsatishga, tanqidiy fikrlarini yashirmaslikka harakat qiladi.

Hozirgi zamon Jazoir madaniyatining muammolaridan birini alohida ajratib ko'rsatishga to'g'ri keladi, bu haqda jazoirlik adiblar ham ko'p gapiradilar: bu madaniy an'analarga vorislik, jumladan, xalq og'zaki ijodini o'zlashtirish masalasidir. Hozirgi davrda Mag'ribning ham fransuz, ham arab tilidagi adabiyoti, birinchi navbatda, yozma adabiyot an'alariga tayanadi. Jazoir yozuvchilari o'z ijodida milliy madaniy merosga munosabat masalasini qanday hal qilayotganini esa, ularning asarlarini tahlil qilish orqali bilish mumkin.

JAZOIRNING ARABIYZABON ADABIYOTI

Uzoq vaqt davom etgan tushkunlikdan so'ng XIX asrning oxirgi o'n yilliklaridan boshlab Jazoirning arabizabon adabiyoti gurkirab rivojlana boshladi. Bu hol ko'pgina arab mamlakatlarini qamrab olgan madaniy ko'tarilish bilan bog'liq edi. Bu davrda Jazoir, xuddi Misr, Suriya va Livanda bo'lganidek, vaqtli matbuot muhim rol o'ynay boshladi, publisistika vujudga keldi, u milliy o'zini anglash jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsata bordi, xalqni mustamlakachilik zulmiga qarshi kurashga chaqirdi. Jazoir adiblari va adabiy tanqidchilari matbuotda mamlakat madaniyati, maorifi, tarixi, iqtisodiga oid maqola va ocherklar e'lon qilib, fransuzlar tomonidan amalga oshirilayotgan assilyatsiya siyosatiga qarshi chiqdilar. Bu yozuvchilar orasida, ayniqsa Muhammad as-Said ibn Zikri, Mustafo ibn al-Xuja, Abdulqodir al-Majaui mashhur edilar.

XIX asr oxiri – XX asrning birinchi choragi matbuotining publisistik uslubi Jazoir prozasida shakllanib borayotgan adabiy uslubga, yangi janrlarning shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Jazoir adabiyoti sekin-asta o'rta asr mumtoz arab adabiyoti ta'siridan qutila bordi, nasrda majburiy hisoblangan saj, sinonim so'zlarni qatorlashtirib ishlatish, tazminlar, boshqa shu kabi «bezaklar», ya'ni Jazoirning o'rta asr badiiy, tarixiy, jug'rofiy nasriga xos xislatlar yo'qola bordi.

Jazoir madaniy qadriyatlarini qayta jonlashtirish, bu mamlakatda arab tilini joriy qilish, maorifni rivojlantirish ishida 1931 yilda ta'sis etilgan Jazoirning musulmon dinshunos olimlari

Uyushmasi muhim rol o'ynadi. Uyushma rahbari taniqli islom islohotchisi shayh Abdulhamid Binni Bodis (1889-1940) edi. Uyushma faoliyati ochiq antikolonial, antifeodal tusga ega bo'lib, milliy o'zini anglash jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Assotsiatsiya a'zolari Mabarrak al-Mili va Ahmad Tavfiq al Madaniy tomonidan e'lon qilingan Jazoir tarixiga oid kitoblar mazkur davr publisistik uslubining o'ziga xos namunalaridir. Al-Milining «Jazoirning o'tmishdagi va hozirgi tarixi» (1929-1932) kitobida tarixga quyidagicha ta'rif beriladi: «U o'tmish oynasi va bugunga olib keluvchi narvondir. U xalqlarning mavjudligini isbotlovchi hujjat, ularning buyuk ishlari qayd etib boriladigan kitob, onglari ochiladigan manzil, taraqqiy etishlarining ilk nuqtasidir. Bugun hamma xalqlar hokimlar qudrati faqatgina fuqaroning qo'rqqoligi va omiligi tufayli ekanini yaxshi biladilar».

Jazoir adiblarining publisistik asarlari ma'rifatparvarlik, siyosiy maqsadlarga xizmat qilib, ommaga katta ta'sir ko'rsatdi. Fransuz tilidagi publisistika keyinroq arab tilida rivojlangan Jazoir publisistikasiga asos bo'ldi.

Jazoirda hozirgi zamon arabizabon adabiyotning shakllanish davri ikkinchi jahon urushidan keyinga to'g'ri keladi.

Bu davrga kelib ko'zga ko'ringan novellistlar shakllandi, arab adabiy tilida romanlar, hikoyalar, pesalar nashr etildi, hozirgi zamon nasri uslubi sayqallandi.

AHMAD RIDA XUXU

Ikkinchi jahon urushidan keyingi Jazoir prozasida Ahmad Rida Xuxu (1911-1956) siymosi diqqatni o'ziga tortadi.⁷²

Adib boshlang'ich ma'lumotni ona shahri Sidi Uqbo shahrida oldi, o'zining arab tili sohasidagi bilimlarini esa, Saudiya Arabistonida kamolga yetkazdi. Bu mamlakatda yashagan chog'larida Ahmad Rida Xuxu vaqtli matbuot uchun maqola va ocherklar yozadi, fransuz tilidan qilgan tarjimalarini e'lon qiladi, hikoya janrida o'z salohiyatini sinab ko'radi. Ikkinchi jahon urushi tugagandan so'ng adib vataniga qaytdi. Jazoirda Rida Xuxu maktab mudiri bo'lib ishladi. Matbuot bilan hamkorlik qildi, adabiy tilda va dialektida radio uchun pesalar yozdi. Rida Xuxu Jazoir xalqining fransuz mustamlakachilariga qarshi olib borgan ozodlik urushida halok bo'ldi.

Yozuvchi vaqtli matbuotda e'lon qilingan, alohida to'plam holda nashr etilgan ko'p sonli hikoyalar muallifidir. Jazoir tanqidchilari Rida Xuxuni mamlakatdagi arabizabon novella janri asoschisi deb biladilar. Yozuvchining 1947 yilda arab tilida yozib nashr etilgan romani unga shuhrat keltirdi. Mag'rib mamlakatlarida arab tilida yozilgan ilk romanlardan hisoblangan bu asar « Makkalik qiz» atalib, hozirgacha arab xalqlarini qattiq hayajonga solib kelayotgan muammo – ayollar ozodligi masalasiga bag'ishlangan. Hijozlik oiladan chiqqan qiz haqida hikoya qiluvchi bu romanda muallif ayollarning qaram holga solinishiga qarshi chiqadi, uni qullik ramzi bo'lmish paranjidan qutqarish, ma'rifatli qilish haqida gapiradi. Roman ruhoniylar tomonidan keskin tanqid qilindi. Ular Rida Xuxu milliy an'analarga raxna solishga, musulmon axloqi asoslariga bolta urishga da'vat etmoqda, deb ayb qo'yidilar. Bu hujumlarga qaramay yozuvchi o'z nuqtai nazariga sodiq qoldi va keyingi kitoblarida bu fikrlarini davom ettirdi. «Al-Hokimning eshagi bilan» («Maa himar al-Hakim», 1953), «Ilhom sohibasi» («Sohibat al-vahiy», 1954), «Insoniy xarakterlar» («Namaziji al-bashariy», 1954) to'plamlaridagi qator hikoyalar ana shunday asarlar jumlasiga kiradi.

Arab tanqidchiligi bir ovozdan Rida Xuxuning satiradagi iste'dodini, asarlaridagi dialoglarining jonliligini, o'tkirligini e'tirof etadi. Rida Xuxuning yozuvchilik mahorati bor kuchi bilan uning hikoyalarida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, insonlardagi norasoliklar tanqid ostiga olingan hikoyalar muvaffaqiyatli chiqqan – ularda yozuvchining talanti yorqin ifodalangan. «Insoniy xarakterlar» to'plami hikoyalarida Olloh nomini ro'kach qilib jirkanch tovlamachiliklar bilan shug'ullanib yurgan shayx ham, saylovchilar ovozini sotib olgan deputat ham, yoshi bir joyga borganiga qaramay mehnatdan bo'yin tovlab, oilasi bilan amakisining bo'yniga yuk bo'lgan takasaltang ham bor. Shu bilan birgalikda to'plamdagi hikoyalarda

⁷² Прожогина С.В. Современная литература Алжира. М.: 1987.

shunday qahramonlar ham uchraydiki, ular yangi avlod namoyandasi bo'lib, ko'p qiyinchiliklarni yengib o'tgan, to'g'ri yo'lni tanlab olishga muvaffaq bo'lganlar.

Yozuvchilik uslubiga ko'ra Rida Xuxu «Ko'z ko'rgan narsa» hikoyalar to'plami muallifi, taniqli misrlik adib Muhammad Teymurni (1892-1921) eslatadi. Rida ham xuddi shunday ixcham hikoyalar yozadi, Muhammad Teymur singari kuzatuvchan, uningdek jonli hayot lavhalarini chizishni yaxshi ko'radi.

Boshqa novellistlar orasida Ahmad Ashurni alohida zikr etish kerak. Uning hikoyalari («Evakuatsiya kuni», «Assotsiatsiya») yuksak vatanparvarlik tuyg'ulari bilan yo'g'rilgan. Uning ijodida muhim ijtimoiy masalalar ko'tarib chiqilgan: «Qariqiz shikoyatlari», «Solih va uning qallig'i» hikoyalarida ayollar ozodligi masalasi ko'tarib chiqilgan bo'lsa, «Soxta imom», «Afsungar o'qituvchi», «Parvardigor qonuni darsi» hikoyalarida u jaholat va xurofot iskanjasida qolgan jamiyat qusurlari ustidan kuladi.

Jazoir adiblari orasida Sharif al-Husayni, Zuhur al-Vanisi, Abdulmajid ash-Shafiiylar ham taniqli hisoblanadilar. Ular ijodida Jazoir novellistikasiga xos ma'rifatparvarlik xislatlari o'z ifodasini topgan. Mazkur adiblar o'z asarlarida ijtimoiy qoloqlikni, arab mamlakatlaridagi ayollar huquqsizligini tanqid qildilar. Jazoir yozuvchilarining 60-yillardagi asarlarida milliy-ozodlik harakati mavzusi salmoqli o'rin egallaydi. Jazoir xalqining fransuz mustamlakachilariga qarshi kurashi mavzusi yosh nasrnavislar Hanafiy binni Iso («Jazoirlik kishi Parijda» hikoyasi), at-Tohir Vattor («Dilimdan chiqqan tutun» to'plamidagi «Nava», «Gunohni yuvish» hikoyalari), Fadiya Mas'udiy («Malika» hikoyasi) ijodida ham o'z ifodasini topgan.

ABDULHAMID BENXADUGA

Jazoir arabiyzabon adabiyotining yana bir yorqin namoyandasi Abdulhamid Benxadugadir.

Benxaduga Jazoirning novellist, romanist, dramaturgi sifatida shuhrat qozongan eng buyuk arabiyzabon yozuvchilaridan hisoblanadi. Uning asarlari ko'pdan beri maktablar, universitetlarda o'rganiladi, uning o'zini esa, «tirik klassik» deb ataydilar.

Adulhamid Benxaduga Jazoirning sharqiy qismida joylashgan mo'j'jazgina Mansura shaharchasida 1925 yilning 9 yanvarida tug'ildi. Bu shahar Kichik Kabaliya atalmish tarixiy viloyatda joylashgan bo'lib, uning aholisi qadimdan o'zining erksevarligi bilan tanilgan arab-berber qabilalariga taaluqli tog'liklardan iborat.

Benxaduga bolalik yillarini tog'dagi bir qishloqchada o'tkazdi. U hozirgacha bu qishloq bilan o'z aloqalarini uzmagan. Dastlab o'z otasidan, so'ngra boshlang'ich maktabda u arab tili qonun-qoidalarini o'rgandi. Shundan so'ng u Konstantinopol shahridagi mashhur masjidning biri qoshidagi madrasada ta'lim oldi, 1950 yildan esa, u yil davomida Tunisdagi «az-Zituna» musulmon universitetining adabiyot bo'limida o'qidi. Shu vaqtning o'zida u Dramatik san'atlar instituti talabasi ham edi. 1954-1955 yillarda Benxaduga arab adabiyotidan dars berdi.⁷³

Bo'lajak yozuvchi bolalik yillaridanoq milliy-ozodlik harakatida faol qatnashdi. Polisiya ta'qibi tufayli u 1955 yilda Fransiyaga ketadi, u yerda ikki yil davomida tez-tez ish joyini o'zgartirdi, iqtisodiy tanglikda yashadi. Og'ir kasallik tufayli u kasalxonaga yotishga majbur bo'ladi. Vrachlar unga kasbini o'zgartirishni maslahat berishadi. Benxaduga 50-yillarning o'rtasidayoq Jazoir shevasida pesalar yozib, dramaturgiyada qalamini sinab ko'rgan edi. 1958 yilda esa, u Tunisga kelib o'zini butunlay jurnalistika va adabiy faoliyatiga bag'ishlaydi, milliy – ozodlik fronti uchun radioeshittirishlar matnini tuzadi, maqolalar yozadi; bu materiallar yashirin ravishda Jazoirga olib o'tilar edi. Shu yillarda gazeta va jurnallar sahifalarida uning ilk hikoyalari paydo bo'ldi. O'sha 1958 yilning o'zida Benxaduganing birinchi kitobi – «O'tmish va hozirgi kun oralig'ida» nomli esselar to'plami bosilib chiqadi.

Jazoir o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach 1962 yilda Benxaduga vataniga qaytadi va mamlakatdagi madaniy jonlanish jarayonida faol ishtirok etadi. Bu davrda u radio va televidenie

⁷³ Бенхадуга, Абдулхамид. Избранные произведения. М.: 1987.

uchun juda ko'p pesalar yozadi, she'rlar va novellalar e'lon qiladi, 70-yillardan boshlab esa Benxaduga muvaffaqiyat bilan romannavis yozuvchi sifatida tanila boshlaydi.

Benxaduganing adabiy merosi ulkan va rang-barangdir. Yuqorida nomi tilga olingan esselar to'plamidan tashqari 1964 yilda nashrdan chiqqan «Erkin ko'ngillar» she'rlar devoni, «Jazoir soylari» (1965), «Yetti nur» (1962), «Yozuvchi» va boshqa hikoyalar» (1974) to'plamlari hamda 4 roman: «Janub shamoli» (1971), «Kechagi kun intihosi» (1975), «Ko'zning ochilishi» (1980), «Jaziya va darvishlar» (1983) uning qalamiga mansub. Bulardan tashqari Benxaduga Jazoir, Tunis, Livan, boshqa arab mamlakatlari gazeta, jurnallarida chop etilgan, lekin to'plamlarga kirmay qolgan qator hikoya va she'rlar hamda 1957-1974 yillar orasida radio va televidenie uchun yozilgan 200 dan ortiq pesa muallifidir.

Benxaduganing barcha asarlari adabiy arab tilida yozilgan, ularning tili sodda, oddiy savodxon o'quvchiga tushunarli. Bundan radiopesalarigina mustasno bo'lib, ularda Jazoir so'zlashuv tilidan keng miqyosda foydalanilgan.

Benxaduga Jazoirdagi arabizabon adabiyotning deyarli barcha janrlarining shakllanishiga juda katta xizmat qilgan bo'lsa ham, unga eng ko'p shuhrat keltirgan asarlari romanlar bo'ldi. Uning birinchi romani – «Janub shamoli» yoq adabiy hayotda o'ziga xos shov-shuvga sabab bo'ldi. Bundan oldin romanchilikda faqat fransuz tilida yozadigan adiblar asarlari yakka hokim bo'lgani ham bunga sabab bo'lgan edi.

Benxaduga romanining muvaffaqiyati, eng avvalo, asarning ana shu davr uchun dolzarb mavzuda yozilgani, Jazoir o'quvchilari ehtiyojlariga mosligida edi. Romanda mustaqillikni qo'lga kiritgandan so'ng mamlakat hayotida ro'y bergan tub o'zgarishlar yorqin va tushunarli tarzda aks ettirilgan edi. Bu davrda Jazoirda amalga oshirilgan ilg'or ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, birinchi navbatda agrar islohot mamlakatdagi aholi qatlamlari, siyosiy kuchlarning keskin tabaqalanishiga olib keldi. Yirik yer egalari, shahar burjuaziyasi o'z mulkini, imtiyozlarini qo'ldan ketkazmaslik uchun hukumat tomonidan o'tkazilayotgan tadbirlarga qarshilik ko'rsatar edi. Reaksionerlar agrar siyosatni amalga oshirishga jon – jahdi bilan qarshilik qilib, iqtisodiy sabotaj uyushtirar, ayrim joylarda esa, o'sha davrdagi prezident Xuari Bumiden siyosatiga qarshi ochiqdan – ochiq chiqishlar uyushtirdilar. Ana shunday bir sharoitda agrar islohot arafasida Jazoir qishlog'ida davom etgan sinfiy kurashni o'zida aks ettiruvchi «Janubiy shamol» romani vaqtida yozilgan asar edi. Yozuvchi o'z asarida bu kurash ishtirokchilarining juda jonli, ishonarli obrazlarini yaratishga muvaffaq bo'lgan edi.

Roman voqealari taxminan 60-yillarning o'rtalarida bir qishloqda bo'lib o'tadi. Asarning bosh qahramoni – Malik, bo'lis munisipaliteti meri, o'tmishda milliy-ozodlik harakatining faol qatnashchisi. Sobiq zamindor Abid Belkadi esa, uning aksi, u qanday bo'lmasin o'z obro'yi va boyligini saqlab qolishga tirishadi. Malik Belkadining yerlarini tortib olishi kerak. Belkadi esa, bunga yo'l qo'ymaslik uchun Malikni o'ziga kuyov qilib olishni, shahardan ta'tilga kelgan toliba qizi Nafisani unga uzatishni mo'ljallaydi. Shahar hayotiga ko'nikib qolgan bu erkatoz qiz qishloq hayotini yoqtirmaydi. Nafisa Malikka juda-juda yoqadi, u qallig'i – Belkadining katta qizi milliy ozodlik janglarida halok bo'lgan Zulayxoga o'xshab ketadi. Ammo Malik Belkadining niyati samimiyligiga ishonmaydi, o'z tuyg'ularini oshkor etmaydi. Malikning bosh maqsadi – xalq manfaati, o'z hayotini bag'ishlagan inqilob g'alabasi. «Yo'q, toki yer yuzida qo'lini begunohlar qoni bilan bo'yagan suyak-suyagigacha reaksiyon shaxslar bor ekan, inqilob tugamaydi», - xitob qiladi u Belkadi va unga o'xshashlarni nazarda tutib.

Jazoir tanqidchilari romanni yaxshi kutib oldilar, uni «realistik, jangovar adabiyotga bo'lgan ehtiyojni qondiradigan asar», deb baholadilar. O'z vaqtida Muhammad Dibning «Katta uy», «Yong'in» romanlari milliy-ozodlik inqilobi darakchisi bo'lganidek, «Janubiy shamol» romani ham agrar islohotlarning darakchisi bo'ldi.

«Janubiy shamol» xoriyda ham ijobiy baholandi. Fransiya jurnallaridan birida romanga bag'ishlangan taqrizda Benxaduga Jazoir qishlog'idagi deyarli noma'lum dunyoni tasvirlar ekan, «eski an'analar qolipidan ham soxta inqilobiy adabiyot uslubidan ham qochishga muvaffaq bo'lgan», - deb qayd etilgan edi. Taqrizda yozuvchi tayyor yechimlarni taqdim etmaydi, balki masalani qo'yadi va bu chinakam muhim masalalardir», - deb ta'kidlagan edi. Taqrizchi asar tili

haqida hayrat bilan yozgan, uni «sodda, ko‘p hollarda so‘zlashuv tiliga yaqin poetik arab tili», - deb ham atagandi.

«Janubiy shamol» romani Jazoirida to‘rt marta qayta nashr etildi, uning oxirgi nashri 1980 yilga to‘g‘ri keladi. Roman 1975 yilda Jazoirida fransuzcha tarjimada bosilib chiqdi. Keyinroq asar ispan tiliga ham tarjima qilindi.

Benxaduga «Janub shamoli»dan keyin «Kechagi kun intihosi» romanini nashr ettirdi. Bu roman voqealari 1954-1962 yillardagi milliy – ozodlik urushi tugagandan keyin chekka bir qishloqda ro‘y beradi. Urush oqibatida xarob bo‘lgan qishloqqa fallohlarga yangi hayot qurishda ko‘maklashish uchun shaharlik o‘qituvchi keladi. U qiynchiliklardan qo‘rqib shaharga qochib ketgan salaflaridan farqli o‘laroq shu qishloqda qoladi. Bu roman ham «Janubiy shamol» singari yaxshi yozilganiga, unda muhim ijtimoiy muammolar ko‘tarib chiqilganiga qaramay uningchalik muvaffaqiyat qozonmadi. Buning sababi roman bosilib chiqqunga qadar Jazoirida qishloq muammolariga bag‘ishlangan ko‘plab asarlar nashr etilganida bo‘lishi mumkin. Shunday bo‘lsa ham «Kechagi kun intihosi» asari ikki bor bosildi, fransuz va golland tillariga tarjima qilindi.

«Kechagi kun intihosi» romanidan so‘ng Benxaduga «qishloq yozuvchisi» sifatida tanilganday bo‘ldi, ammo 1980 yilda u «Ko‘zning ochilishi» asarini e‘lon qilib, jazoirlik bir tanqidchi aytishicha, o‘z o‘quvchilariga mamlakat poytaxti, uning minglarcha muammolariga bag‘ishlangan roman taqdim etib hammani hayratda qoldirdi.

Roman voqealari mamlakat poytaxti Al-Jazoirida 1976 yil bahorida butun mamlakat bo‘ylab ommaviy yig‘inlarda Milliy Xartiya loyihasi bo‘yicha qizg‘in bahslar davom etayotgan paytda bo‘lib o‘tadi. Milliy Xartiya Jazoir inqilobining muhim hujjati bo‘lib, mamlakatning nokapitalistik taraqqiyot yo‘lini belgilagan, keyinchalik Respublika Konstitutsiyasiga asos qilib olingan edi.

Asar markazida vazirlikning yuqori martabali xodimi shayx Alausning ko‘p sonli oilasi hayoti turadi. Oila a‘zolari turli-tuman siyosiy dunyoqarash sohibi – biri o‘ta konservator bo‘lsa, boshqasi inqilobiy demokrat. Bu jihatdan Jazoir tanqidchilari yozganidek, «asar alohida bir oila mikrostrukturasi timsolida Jazoirning ijtimoiy mikrostrukturasi o‘zida aks ettiradi».

Roman an‘anaviy bayonchilik uslubida yozilgan. Voqealar xronologik ketma-ketlikda davom etadi, shiddatli tus olib boradi. O‘quvchi qiziqish bilan shayx oilasidagi ichki ziddiyatni kuzatib boradi. Bu ziddiyat sekin-asta xonadonning yosh a‘zolari tomonidan zolim ota va uning tarafini olgan katta akasi Umarga qarshi qaratilgan ochiq isyonga aylanadi.

Yozuvchi Alaus oilasi hayotini tasvirlash orqali o‘quvchini hozirgi zamon Jazoir jamiyatining qaynab turgan qatlamlari ichiga olib kiradi, mazkur taraqqiyot bosqichidagi burilish nuqtasi notinchliklarini ko‘rsatadi, jamiyatni bir-biriga zid ikki qutbga bir tomonda eski, chirik urf-odatlar tarafdori va boshqa tomonda yangi, dunyoviy, chin demokratik Jazoir uchun kurash olib borayotganlar lagerlariga bo‘lib tashlagan qizg‘in ijtimoiy kurashni tasvirlaydi.

Roman o‘quvchilar tomonidan yaxshi kutib olindi. Tanqidchilar fikricha, umumiy ravishda adib an‘anaviy uslubga sodiq qolgan bo‘lsa ham, ammo bu kitobda uning uslub sohasidagi izlanishlari o‘z ifodasini topgan.

Hozir Benxaduga ijodining gullagan davri. Yozuvchi hali o‘zining qahramon vatani Jazoirga munosib chinakam yirik badiiy asarlar yaratishiga umid bog‘lash mumkin.

MUHAMMAD AL-ID

Yuqorida aytilganidek, Jazoirning XX asrning 20-30 – yillaridagi ko‘pchilik shoirlari turli siyosiy tashkilotlar bilan bog‘liq bo‘lganlar. Shunday buyuk arabiyzabon shoirlardan biri Muhammad al-Id bo‘lib, uning hayoti va ijodiga ulamolar tomonidan targ‘ib etilgan islohotchilik g‘oyalari ta‘sir ko‘rsatdi. Muhammad al-Idning mahorat bilan yozilgan asarlari islohotchi ulamolarga ayniqsa urush arafasida keng omma orasida ma‘rifatparvarlik g‘oyalarini targ‘ib etishda juda katta yordam berdi.

Muhammad al-Id al-Xalifa 1904 yilda Konstantin okrugidagi Ayn-Beyda shaharchasida taniqli musulmon arbob xonadonida dunyoga keldi. Yoshligida u madrasada o‘qidi. Keyin oilasi Ores okrugidagi Biskra shahriga ko‘chib kelgach, o‘qishini bu yerda davom ettirdi. Shoir 1922

yilda Tunisga ketadi va Magʻribning az-Zaytun musulmon universitetida oʻqishni davom ettiradi, ikki yil oʻqigandan soʻng oilaviy sabablarga koʻra u vataniga qaytadi.

Jazoirda yosh shoir islohotchi ulamolar harakatida faol ishtirok etadi. Jazoir musulmon ulamolari Uyushmasi raisining taklifi bilan u mazkur tashkilot tomonidan Al-Jazoirda taʼsis etilgan birinchi maktab direktori boʻladi va 12 yil ana shu lavozimda ishlaydi.

Al-Id 1956 yil inqilobi paytida Konstantin okrugidagi Ayn-Mlila qishlogʻidagi maktabda arab tili oʻqituvchisi boʻlib ishlar edi. Fransuz mustamlakachilari uni erksevar dunyoqarashi tufayli taʼqib ostiga oladilar, qamoqqa tashlaydilar, bu yerda u bir necha doston yozadi. Koʻp oʻtmay al-Id vafot etadi, lekin oʻlimining aniq sanasi maʼlum emas.

Al-Idning adabiy merosi milliy-ozodlik urushi tugagandan soʻng toʻliq nashrdan chiqdi va oʻquvchilarning odilona bahosini oldi. 1967 yilda uning poetik asarlari «Al-Id devoni» nomi bilan nashr etildi va Jazoir yozuvchilari uyushmasining adabiy mukofotiga sazovor boʻldi.

Al-Id hozirgi zamon Jazoir poeziyasining boshlovchilaridan hisoblanadi. Uning ijodi Jazoirning XX asr adabiyotiga qudratli yangilanish toʻlqinini olib keldi. U Jazoir shoirlaridan birinchi boʻlib sheʼriyatga ijtimoiy mavzularni olib kirdi. Al-Id oʻz vatandoshlari orasida «O xalqim, sen mening sheʼrlarim mazmunisan!», deb xitob qilishga eng haqli shoir edi.

Al-Id 20-yillar oʻrtasida birinchi bor oʻz sheʼrlari bilan kirib kelganida arab poeziyasida ikki yoʻnalish hukmronlik qilar edi.

1. Sharqda Misrlik Ahmad Shavqiyning «anʼanaviy sheʼriyat» maktabi.

2. Jubron Xalil Jubron boshchiligidagi muhojir shoirlarning «Siriya-Amerika» maktabi.

Al-Id ijodida birinchi yoʻnalish taʼsiri kuchliroq sezilib tursa ham, shoir ikkala yoʻnalish bilan yaxshi oshno boʻlganini taxmin qilish mumkin. Garchi Al-Idning oʻzi sheʼriyatiga «Ollohning kitobi»dan boshqa biror narsa taʼsir oʻtkazmaganini taʼkidlagan boʻlsa ham uning poeziyasida tadqiqotchilar Misrning uch mashhur lirik shoiri - Shavqiy, Xalil Mutron va Hofiz Ibrohimlar taʼsiri sezilib turishi haqidagi xulosaga kelganlar.

Al-Id sheʼriyatining qamrovi nihoyatda keng. Uning devonida klassik sheʼriyatning anʼanaviy janrlari – madh, risa, gʻazal, vasf va boshqa janrlarda yozilgan asarlar oz boʻlmasa ham, shoir ijodining bosh mezonlarini belgilaydigan ular emas. Al-Id birinchi navbatda publisist shoir, u har doim voqealarning eng joʻshqin nuqtalarida boʻladi, ularda oʻzi faol ishtirok etadi. Shu bois Al-Id asarlarining koʻpchiligi u yoki bu voqeaga javob sifatida tugʻilgan. Uning devonida ulamolar tomonidan yangi maktabning, yangi masjidning ochilishiga bagʻishlangan sheʼrlarni koʻrish mumkin. Al-Id Sudan va Liviyaga mustaqillik berilishiga, Tunisdagi siyosiy vaziyatga, 1952 yildagi Misr inqilobi, Marokash inqilobiga bagʻishlab sheʼrlar yozdi. Uning diqqat markazida faqat arab dunyosi emas; adib Xirosima xaqida oʻkinch va gʻazab bilan yozadi, Osiyo, Afrika xalqlari muammolari uni iztirobga soladi. Ammo, tabiiyki, uning ijodi markazida Jazoir turadi. Adib oʻz asarlarida xalqning madaniy saviyasini koʻtarish, Gʻarbning texnik taraqqiyotidan foydalanib mamlakat iqtisodini rivojlantirish haqida yozadi.

Al-Id Jazoirdagi ijtimoiy kayfiyatning oʻzgarishlarini hassoslik bilan qayd etib boradi. U 20-yillarda boshqa vatanparvar shoirlar bilan birgalikda Jazoir xalqini uygʻotishga, oʻz kuchiga ishonitirishga harakat qiladi, oʻtmish buyukligi, hozirgi xoʻrlilik manzaralarini chizadi:

Shoʻrpeshona xalq taqdiri uchun yigʻlasin,

Bu xalqning shuhrati oʻlgan, kulga aylangan.

Bu xalqning donishmand yoʻlovchisi yoʻq,

Xalqning qilichi zanglagan, chavandozlari qoqiladi.

Dushman esa beomon, u xalqni toptaydi.

Xalq oʻgʻlonlari orasiga nifoq oraladi,

Aka-uka bir-biriga zulm qiladi.

Adibning ovozi Jazoirda ijtimoiy va siyosiy ziddiyatlar kuchaygan 30 - yillarda boshqacha jaranglaydi. 1945 yilning 8 mayida Konstantin okrugida ommaviy antikolonial namoyish oʻqqa tutilgandan soʻng yaqindagina tinch islohotlar va sulhomiz kurash tarafdori boʻlgan Al-Id Jazoir xalqini qoʻlga qurol olishga daʼvat etadi.

Al-Id ijodi Jazoirning hozirgi zamon arabizabon adabiyoti uchun katta ahamiyatga ega, uning asarlari keng jamoatchilikda vatanparvarlik, irodalilik, qat'iyatlilik, kurashchanlik tuyg'ularini tarbiyaladi, ko'pgina shoirlar undan adabiy mahorat sirlarini o'rgandilar.

Jazoirning fransuzabon adabiyoti

Jazoirning fransuz tilidagi adabiyoti taraqqiyotida roman yetakchi mavqeni ishg'ol etadi. Odatda, bu janrni 50-yillarning boshlarida paydo bo'lgan, deb hisoblashadi. Bu davrda Mulud Feraun, Mulud Mammeri, Muhammad Dibning asarlari birin-ketin bosilib chiqqan boshlagan, so'ngroq bu mualliflar qatoriga Kateb Yasin, Malik Haddod, Osiyo Jobir, Murod Burbunlar qo'shildilar.

XX asrning 50-yillarida nashr etilgan maishiy romanlar aniq maqsad sari yo'naltirilgan edi. Nafaqat Jazoir yozuvchilari, balki tunislik Alber Memmi, marokashlik Dris Shraybi qalamiga oid bu asarlarda kolonial adabiyot ijodkorlari hafsala bilan xaspo'shlashga harakat qilgan Shimoliy Afrika voqeligi haqiqiy tarzda aks ettirildi, «madaniyatli odamning» Afrikadagi ko'klarga ko'tarib maqtalgan «missiya»si fosh etildi.

MULUD FERAUN

Jazoir adabiyotidagi yetuk maishiy roman Mulud Feraunning ikkinchi asari, 1953 yilda nashr etilgan «Yer va qon» edi. Roman o'zining belletristik fazilatlarini, bayonning qiziqarliligi, ijtimoiy tahlilning chuqurligi bilan muallifning «Kambag'alning o'g'li» asaridan ustun turar edi. Bu asarda yozuvchi an'anaviy turmush tarzini faqat ijobiy qilib ko'rsatish bilan cheklanmaydi. U patriarxal jamiyatda hukm suradigan mustabidona cheklashlarni, shaxs erkinligining hurmat qilinmasligini ko'rsatib beradi. Ammo u tasvirlangan manzaralardan olingan taasurotni yumshatishga shoshiladi, Kabiliya qishlog'ida hayotning oddiy noqulayliklariga kishi ko'nikib ketishini aytadi. «Odamlar har kuni bir-biri bilan ko'rishadi, salomlashadi, qo'shnilariga yordam berishadi. Lekin shu bilan birga ularni kuzatishadi, g'iybat qilishadi, hasad qilishadi. Shunda ham barcha baravar odob saqlashga intilishadi. Sirtidan qishloq hayoti dahshatli tuyuladi... Ammo haqiqatda bu yerda o'zingni har joydagidek erkin sezasan: hazil qilasan, kulasan, so'kinasan, xohlagan ishingni qilasan yoki aksincha, sipo bo'lib yashashing mumkin».⁷⁴

Feraun an'anaviy urf-odatlarini bunday baholar ekan, bu bilan yevropalik o'quvchiga uning vatandoshlari g'aroyib yovvoyilar emasligini, «ularning xatti-harakati, sirtidan qanchalik g'aroyib ko'rinmasin, umuminsoniy motivlarga asoslanishi»ni ko'rsatmoqchi bo'ladi. Buning uchun yozuvchi juda sodda uslubga murojaat qiladi: u kabilliklarga oid kuzatishlarini shu yerlik kishiga turmushga chiqqan, eri bilan bu chet, tog'lik qishloqqa kelgan fransuz ayoli – Mari taasuroti orqali tasvirlaydi. Mahalliy tilni o'zlashtirib olgandan so'ng Mari «bu yerdagi erkaklar va ayollar xuddi boshqa yerlardagidagi o'xshash» ekanini ko'radi. Bu so'zlar mazmunidan Feraun kolonial ekspansiyaning yevropalik maddohlari tomonidan Shimoliy Afrika haqida yozgan yuzlab asarlari bilan munozaraga kirishayotganini bilib olish qiyin emas.

Marining tili bilan aytilgan kabilliklar haqidagi fikrlar shunisi bilan ham diqqatga sazovorki, Shimoliy afrikalik yozuvchilar 50-yillarda ko'proq yevropalik ayolning Afrika muhitiga moslashishga qilgan muvaffaqiyatsiz urinishlarini tasvirlar edilar. Buning oqibatida ularning qahramoni – fransuz ayoli eri yoki afrikalik sevgilisi bilan ajrashib «o'z toifasi» huzuriga qaytishga qaror qiladi.

«Yer va qon» asarida Feraun o'zining ijtimoiy idealini aniq belgilab oladi – bu mayda ishlab chiqaruvchilar jamoasi, ular o'z yerlarida mehnat qiladilar, yollanma ishchi bo'lib ishlamaydilar. «Bizning yerimiz, - ta'kidlaydi yozuvchi, - nafaqat yalqov erkatoylarni, balki yollanma ishchilarni ham yoqtirmaydi, chunki ular yerni sevmaydilar, unga zo'ravonlik qiladilar. Batrak ishlayotgan boylarning yeri ahvolini bir ko'ring-a». Yozuvchining fikricha, aynan otabobolari yeriga bo'lgan sadoqat kishiga ishonch, g'urur, farovonlik keltiradi. Feraunning ijtimoiy utopiyasi mohiyatan konservativdir, chunki u tarix o'limga mahkum etgan patriarxal munosabatlarni saqlab qolishga da'vat etadi. Shuning bilan birga o'tmishga murojaat qilish

⁷⁴ Современные литературы Африки. М.:1973.С.34.

yozuvchi ijodida uning eskilikparastligini ifodalamaydi, aksincha, uning ijtimoiy dasturi umumjahon madaniy yutuqlari yordamida an'anaviy turmushni yaxshilashga qaratilgan. Feraun badiiy asarlarida bilim tarqatish, ayollarga erkinlik berish lozimligini uqtirib boradi, o'zi hayotda izchillik bilan bu ish bilan shug'ullanadi, qishloqda o'qituvchilik qiladi. An'anaviy munosabatlarga murojaat qilish, ayni chog'da, chet el madaniyatining ijobiy unsurlarini rad etmaslik Feraun g'oyalarini 30-yillarda faoliyat ko'rsatgan islohotchi ulamolar pozisiyasiga yaqinlashtiradi.

Feraunning dunyoqarashi bevosita uning ijodiy metodini ham belgilab beradi.

An'anaviy jamiyat fazilatlarini ko'rsatib berish uchun muallif bir talay faktlarni hafsala bilan yoritish yo'lidan boradi, uning voqealarni dalillash usuli XIX asr ikkinchi yarmidagi fransuz pozitivist yozuvchilari asarlaridagi «ilmiylik»ni eslatadi va ayni choqda, yuqorida aytilganidek, bu uslub ildizlari ikki jahon urushi oralig'ida mahalliy turmush lavhalarini tasvirlagan Jazoir ocherknavisligiga borib taqaladi.

Roman ibtidosida Amirga qonli qasos tahdid solayotganidan xabar topamiz. U o'spirinlik davrida Fransiya tasodifan o'zining uzoq karindoshi Rabahning o'limiga sababchi bo'lgan. Bu konfliktning nima bilan tugashini bilishga qiziqish o'quvchi diqqatini asarga tortib turadi. Yozuvchi bu bilan asarning uchdan ikki qismida voqealar rivoji yo'qligini bildirmaslikka harakat qiladi. Bu qismda Igil – Nezmandagi urf-odatlar, qahramonlarning ilgarigi hayoti borasida ma'lumot beradi. Dastlab Amir vataniga qaytganida uning halok bo'lgan Rabahning akasi Sliman bilan bo'lgan munosabati hech qanday fojeadan darak bermaydi. Qishloqning ko'pchilik aholisi, avval boshda Amir va Slimanning qarindoshlari ham konfliktning qonli yechim bilan tugashiga qarshi. Ammo farzandsiz Amirning uzoq qarindoshlari uning yeriga ega bo'lish ilinjida Slimanni ataylab qotillik yo'liga boshlaydilar, unga marhum oldidagi «burchi»ni eslatib turadilar. Ustiga ustak Sliman o'zining yosh xotini Shabha Amirni yaxshi ko'rib qolgani, unga xiyonat qilganidan xabar topadi. Shunday qilib, yozuvchi sharoit majbur qilgani tufayligina Sliman bu mash'um qilmishga ko'l urganini ko'rsatib berdi. Asar nihoyasida Sliman Amirni o'ldiradi, o'zi ham tasodifan yoki Feraun ishora qilganidek, ilohiy taqdir hukmi bilan halok bo'ladi.

Kitobning oxirida voqealarning mistik mazmunda talqin etilishi muallif rasionalist ma'rifatparvar qiyofasida namoyon bo'ladi. Ammo shunga qaramay Amir va Slimanga berilgan jazo kishida ular qandaydir og'ir ayb qilib qo'ygandek tasavvur hosil qiladi. Amirning gunohi aniq - oldin qilgan tasodifiy qotilligi, u ko'p yillar davomida buning uchun ruhiy azob chekadi. Qahramonning falokatli xatosi – muhojirlik. U Amirni ona vatandan, o'z ildizlaridan uzoqlashtiradi, vataniga qaytganidan keyin bu yerda o'zini begona sezishi, yerga ishlov berishni unutgani tasvirlanishi ham bejiz emas. Slimanning gunohi ham aniq - shaxsiy vaj tufayli uning Amirdan qasd olishi. Asar mantig'iga ko'ra u Amir va Shabhaning hissiyotlariga g'ov bo'lmasligi kerak edi. Feraun buni shunchalik tabiiy va mantiqli qilib tasvirlaydi.

Qizig'i shundaki, oshiqalar orasidagi munosabatda Shabha faolroq rol o'ynaydi. U o'zi sezmagani holda Amirga ko'ngil qo'yadi, keyinchalik esa uning qalbida ham muhabbat tuyg'ularini uyg'otadi, o'zining baxtli hayot kechirishga haqli ekanini anglaydi. Bu esa g'arazgo'ylarning shama qilishlari, masxara qilishlariga chidashda unga kuch beradi. Muallif to'laligicha uning tomonida, shuning uchun Shabhaning oilaviy hayoti notinchligini ta'kidlab, «uning majburan turmushga berilgan»ini aytib o'tadi. Ota-ona nazarida Sliman yaxshi kuyov, shuning uchun Shabhani baxti ochilganiga ishonitirishadi. U ham ilgarigi bolalarcha orzularini unutib, o'zini taqdiridan rozi esli-hushli ayoldek tutadi. Ammo nimadandir ko'ngli to'lmas edi...

Mustaqil ayol xarakterining ishonarli realistik tasviri Feraunning bu asarda erishgan katta yutuq'ini edi. Ammo bu yutuq keyinchalik Jazoir adabiyotida, hatto «Yer va qon» romanidan kattaroq asarlarda ham mustahkamlanmadi.

MUHAMMAD DIB

Jazoir fransuz zabon adabiyotining yana bir yetuk vakili Muhammad Dib 1920 yilda Tlemsen shahrida tug'ilib, nochorlikda yashadi. Uning kasbi jurnalist edi, o'qituvchi bo'lib

ishladi. 40-50 yillarda Dibning maqolalari nafaqat Jazoir, balki Fransiya va Shveysariya vaqtlari matbuotida ham e'lon qilib borilar edi.

Dib 1952 yilda ona shahri va o'zining bolalik yillari o'tgan muhitni tasvirlovchi «Katta uy» nomli roman e'lon qildi. Bosh qahramon – Umar ismli bola sarguzashtlarida adib hayotidan olingan o'rinlar oz emas. Fransiya XIX asr birinchi yarmida ta'sis etilgan Feneon nomidagi adabiy mukofotga sazovor bo'lgan bu roman yosh yozuvchini birdaniga mashhur qilib yubordi. Umarning keyingi taqdiri «Yong'in» (1954), «To'quvchilik kasbi» (1957) romanlarida tasvirlandi va bu uch asar «Jazoir» trilogiyasini tashkil etdi. «Jazoir» trilogiyasi, «Kafe» to'plamiga (1955) kirgan hikoyalar qashshoqlik va jaholat iskanjasida azob chekkan Jazoir xalqi fojeasini, uning kolonial rejim sharoitida dahshatli ochlikda umr kechirganini haqqoniy tasvirlaydi. Bu kitoblari rus tilida ham nashr etilgan.

«Jazoir» trilogiyasida Tlemsen shahrida yashagan bolaning mungli bolalik va o'smirlik yillari haqida hikoya qilinadi. Umar - qashshoqlik farzandi, u Parij ko'chalarida izg'ib yuradigan Gavroshni (V.Gyugo) eslatadi.

Umar erta, o'z yoshi uchun anchagina erta o'zini o'rab turgan dunyoni sinchiklab kuzatib boradi, uning baland-pastlari ustida bosh qotiradi. Og'ir turmush ana shunday erta uning ko'zini ochib qo'yadi: ko'pincha uylarida bir urvoq ham bo'lmas, qashshoqlik joniga tekkan onasi esa ba'zida alamini undan olardi. Bola xorijliklari nigohida faqat nafrat tuyg'usini ko'rar edi.

Mana, bolalik ham o'tdi. Uni odamlar orasiga - to'quvchilik sexiga ishga berishadi. Ammo uning hayoti xuddi ilgariidek dahshatli. Ba'zida Umar qalbini umidsizlik chulg'ab olar, ochlikdan o'layotganlarni ko'rganida ularga yordam berishdan o'jiz ekanligini sezar, lekin bu umidsizlik uning hayotga bo'lgan intilishini, qalbidagi orzularini so'ndiribmas edi. Umar tabiatan kuchli shaxs, u tap tortmas, jangari, o'z haqini qo'ymaydigan odam. Buning sababi yolg'iz uning tabiatan hayotni sevishida ham emas. Umar - xalq o'g'loni, xalq uni kelajakka ishonishga o'rgatgan. Umar yoshligidanoq taqdirga tan berishdan bosh tortadi. «Hayotingni garovga tikib bo'lsa ham kurashdan qo'l tortmaslik kerak», - deydi u.

Atigi 14 yoshga kirgan Umar hamma narsani ham tushunavermasdi. U qanday kurashish kerakligini bilmasdi, ammo kimga qarshi kurashishni bilardi. Uning qalbidagi g'urur tuyg'usi uyg'onib bormoqda edi. Arablarni odam o'rnida ko'rmaganlari uchun u yevropaliklarni yomon ko'rardi. Ha, Umar ko'pchilikning biri edi, u istisno emasdi, o'z ahvolini idrok eta boshlagan 40-yillardagi jazoirlikning tipi edi. Yozuvchi Umar obrazida trilogiyaning asosiy g'oyasini mujassamlantirishga, jazoirliklarning milliy ongi qanday o'sib borganini, kelajakda bunday yashash mumkin emasligini qanday idrok etganini ko'rsatishga harakat qiladi.

Nasriy asarda milliy xarakterning tug'ilishi jarayonini tasvirlash uchun yozuvchi G'arbda keng tarqalgan tavba romanlaridagi kitobiy jo'n biografik tasvirdan qochadi. Shu yo'l bilan u «Jazoir»da milliy ongning uyg'onishi xronikasini yaratadi, ikki chiziqli bayon yaratishga, bir vaqtning o'zida ham xalq taqdirini, ham alohida shaxs taqdirini uyg'un holda ifodalashga erishadi.

Dib romanlari jonli tasvirlangan personajlar bilan to'la. Ularda kambag'allar mahallasida istiqomat qiladigan qator ayollar obrazlari ham, yangi zamonlari kelishini orzu qilgan Bni-Bublenlik fallohlar ham, Jazoirning ertangi inqilobiy kunini o'zida mujassamlashtiradigan Hamid Siroj kabi kurashchilar ham, alpgavda Okash kabi ustaxonani tashlab mamlakat bo'ylab safarga chiqqan to'quvchilar ham bor. Siroj yangi hayot kelishini biladi va uning uchun jangga tayyor.

Dib tarixni bo'yab ko'rsatmaydi, xalqning fe'l-atvorini chiroyli qobiqqa o'rab tasvirlamaydi. U ziyrak realist sifatida qullikka solingan xalq chekkan kulfatlar xronikasini yaratadi, ba'zan uning fojeali oqibatlarini ko'rsatib beradi. Qashshoqlik odamlarni buzadi, ularni o'g'irlikka, jinoyatga boshlaydi. Shunday bo'lsa ham yozuvchi ochlik va qashshoqlikni insoniyatning azaliy musibatlari va nosog'lomliklari ramzi qilib ko'rsatish darajasigacha past ketmaydi. Gadoylar, xonavayron bo'lgan dehqonlari hayotini tasvirlar ekan («To'quvchilik kasbi») yozuvchi asar qahramonlarida, o'quvchida bu xo'rlangan insonlarga nisbatan hammadlik

tuygʻusini uygʻotadi, ularning insoniy gʻururdan tashqari bor-budini shilib ketganlarga nisbatan gʻazabini keltiradi.

«Toʻquvchilik kasbi» Jazoirning yaqin oʻtmishini yoritgani bilan oʻquvchiga hozirgi kunni yaxshiroq tushunishga, jazoirliklar qanday qilib tish-tirnogʻigacha qurollangan «madaniyat tarqatuvchila»ga qarshi besh yillik urush yukini yelkalarida koʻtarib chiqqanlarini idrok etishga, yuz minglab fallohlar va toʻquvchilar nega qoʻllariga qurol olganlarini bilib olishga yordam beradi.

Oʻquvchilar Umarni milliy ozodlik kurashchilari orasida koʻrarmikanlar? Shunday boʻlsa kerak. Muhammad Dib oʻquvchilarga murojaat qilib aytgan edi: «Agar qachonlardir oʻylab yurgan asarlarimni yozishga muvaffaq boʻlsam, unda albatta Umar ishtirok etadi. Mening ilk asarlarimning yosh qahramoni, endilikda ulgʻaygan, voyaga yetgan. U endi tajribali, mustamlakachilarga qarshi kurashga koʻtarilgan xalq oldida turgan muammolarni yaxshi tushunadi. Umar ishchi boʻldi, faol xarakatchan, jasur kishiga aylandi.»

TUNIS ADABIYOTI

Yangi zamon Tunis adabiyoti tarixini shartli ravishda uch davrga boʻlish mumkin:

1. Madaniy koʻtarilish davri adabiyoti (an-nahda) – 1837-1905.
2. Ilk realizm davri – 1920-1937.
3. Mustaqillik davri adabiyoti – 1956-1970.

1. Madaniy koʻtarilish davri adabiyoti.

XIX asrning oʻrtalaridan boshlab Turkiya orqali kirib kelayotgan Yevropa islohotchilik gʻoyalari anʼanaviy arab madaniyati bilan toʻqnashdi. Jazoir Fransiya tomonidan 1830 yilda bosib olingach Shimoliy Afrikagacha yevropalik aholining kirib kelishi kuchaydi. Shu davrda Tunisga Yevropa sanoati, tijorati, ular bilan birga xulq-atvori ham kirib kela boshladi. Bu jarayon Tunisning diniy va milliy anʼanalarni saqlab qolish tarafdori boʻlgan aholi qatlamlari qarshiligiga duch keldi.

Islohot tarafdorlari oʻz oldilariga mamlakatni yangi rivojlanish yoʻliga boshlash, ayni vaqtda mahalliy xususiyatlarni yoʻqotmaslik, Yevropaga koʻr-koʻrona taqlid qilishdan qochish vazifasini qoʻygan edilar. Islohotchi hukmdorlardan Ahmad bey (1837-1855) harbiy maktab tashkil qilgan boʻlsa, Muhammad bey (1855-1859) «xavfsizlik xartiya»sini eʼlon qildi. Xartiya davlat litografiyasida bosib chiqarilgan birinchi rasmiy hujjat boʻlib, unda mamlakatning barcha aholisiga moddiy va maʼnaviy kafolat berilgan, hammaning qonun oldida tengligi qayd etilgan edi.

Tunisning taniqli maʼrifatparvar arbobi Xayriddin tomonidan 1860 yilda birinchi zamonaviy davlat tipografiyasining ochilishi mamlakat hayotida muhim voqea boʻldi. Sodiqliyada kollejning ochilishi, Zitun machiti qoshida taʼlim – tarbiya ishlarining yoʻlga qoʻyilishi, kutubxonaga asos solinishi, nashriyot va matbuot taraqqiyotining ragʻbatlantirilishini ham ushbu shaxsning nomi bilan bogʻliq edi.

Tunis podshohligi XIX asrning 70-yillarida chuqur iqtisodiy va siyosiy tanglikni boshdan kechirdi. Mamlakatdagi idoraviy tizim va siyosiy rejim hozirgi zamon talablariga javob bermas va mamlakat taraqqiyotiga toʻsqinlik qilar edi. 1881 yilning may oyida Fransiya Tunisni bosib oldi. Dastlab okkupatsiya harbiy tusga ega edi, lekin oradan 2 yil oʻtgach fransuzlar bu yerda oʻz hokimiyatlarini oʻrnatdilar va mamlakatni Fransiyaning protektoratiga aylantirdilar.

Xayriddin zamonida taʼsis etilgan madaniy muassasalar Tunis milliy ruhini saqlab qolishda alohida ahamiyat kasb etdi. Fransiya ularning taʼsirini kamaytirishga harakat qilar edi. 1883 yilda Ilmu donish boshqaruvi instituti tashkil etildi va unga fransuz arabshunosi Lui Mashuel rahbar etib tayinlandi. Institut mamlakatdagi butun madaniy hayotni nazorat qilib turar edi. Fransuz tili mamlakatdagi yagona taʼlim tiliga aylandi. Bularning barchasi mamlakat taraqqiyotiga toʻsqinlik qilar, koʻpchilik arablar muhojirat qildilar.

Fransiyaning Tunisdagi hukmronligi mamlakatdagi madaniy koʻtarilishga ogʻir zarba boʻlib tushdi, chunki bu davrda Tunis mamlakatning anʼanaviy qadriyatlariga mos, ayni paytda

zamonaviy jamiyatning rivojiga ko'maklashuvchi unsurlarga ega yo'lni tanlash jarayonini boshdan kechirayotgan edi.

Tunis prozasi XIX asrning boshlarigacha rasoil, maqoma janrlari doirasida rivojlandi. Yangi davrda bu janrlarda ijtimoiy problematika ham o'z aksini topa boshladi. Bu davrda XVIII asrdagi mualliflarning uslub sohasidagi o'z iqtidorlarini ko'rsatish vositasiga aylantirilgan, hayotdan uzilib qolgan nafis va bejamdor nasr o'rnini zamonaviy mazmun bilan to'ldirilgan proza egallab bordi. Bu davr prozasida to'rt turdagi asarlarni – sayohatnomalar, hayotnomalar, ilmiy va siyosiy mazmundagi risolalarni ko'rish mumkin. Sayohatnomalar Yevropa mamlakatlariga qilingan safarlarni yoritishga bag'ishlanib, ma'rifatparvarlik maqsadlariga xizmat qilar edi.

Ma'rifatparvarlik oqimi musulmon davlatlari, jumladan Tunisning mashhur kishilari hayotiga nisbatan qiziqish uyg'otdi, jug'rofiy adabiyot vujudga keldi.

Ilmiy adabiyot, asosan, islom huquqi masalalari, tarix va jug'rofiya sohalarini qamrab olar edi. Bu adabiy yo'nalishlar o'zaro chatishib va bir-biriga ta'sir o'tkazib, hozirgi zamon arab adabiyotining tug'ilishga zamin hozirladi.

Madaniy ko'tarilishning yangi bosqichi 1881 – 1905 yillarga to'g'ri keladi. Jamoliddin al-Afg'oni (1839-1897) Kalkuttada yashagan vaqtida tuzgan «Ishonchli suyanchiq jamiyati» xalqaro yashirin tashkiloti tufayli madaniy ko'tarilish yangi rivojlanish fazasiga kiradi. Bu panislomistik tashkilot bo'lib, ozodlik yo'lida musulmon davlatlarining birligi g'oyasini targ'ib qilar edi. Shayx Bayram va tunislik yozuvchi Snusi unga a'zo bo'ldilar. 1994 yildan Parijda «Jaridat al-urva al-vusqa» («Ishonchli suyanchiq jaridasi») nashr etila boshladi, uning muharriri musulmon islohotchisi Muhammad Abduh (1849-1905) edi. Jarida Tunisdagi islohot tarafdorlari orasida tarqatilar va ularni faoliyatga ilhomlantirar edi. Tunis yozuvchilaridan Snusi bu jarida bilan hamkorlik qilar edi. Misrda nashr etiladigan «al-Manar» («Mayoh») jurnali ham Tunisda sevib o'qilar, unda ham bu mamlakatga oid materiallar bosilib turar edi.

Tunis adabiyoti XX asr boshlarida boshqa arab mamlakatlari adabiyotining, birinchi navbatda, Misr nasrnavisi Muhammad al-Muvaylihiy hamda Misr shoirlari Ahmad Shavqiy va Hofiz Ibrohimlarning kuchli ta'siri ostida edi. Hofiz Ibrohimning bunday ta'sir ko'rsatishi uning she'riyatida o'z ifodasini topgan novatorlik, adibning ijtimoiy va diniy qarashlaridagi Tunisning ilg'or ziyolilari g'oyalari yaqinlik bilan bog'liq edi.

Tunis adabiyotiga, shuningdek, o'rta asr arab klassiklari Abu Tammam al-Buxturiiy, al-Johiz va boshqalarning ham ta'siri sezilib turar edi.

Mazkur davr Tunis adabiyoti taraqqiyotida, boshqa arab mamlakatlarida bo'lganidek, gazeta va jurnallar sonining ko'payishi muhim rol o'ynadi. Fransuz madaniyati ta'sirida bo'lgan yosh avlod Tunis matbuotiga yangi problematika va g'oyalarni olib kirdi. Shunday ijodkorlardan biri Muhammad Belji bo'lib, uning ijodi rang-barang edi. Adib sayohatnoma janrida ijod qildi, she'rlar, siyosiy mavzudagi maqolalar yozdi. U 1901 yilda davlat tipografiyasi direktori lavozimiga tayinlandi va «Tunis kalendari» nomli yillik almanax nashr ettira boshladi.

Ali al-Vardani Sodiqiya kollejining birinchi tugatganlardan bo'lib, Istanbulga safar qildi, 1888 yilda esa Ispaniyaga bordi. U o'zining safar taasurotlarini «al-Xadira» jurnalida e'lon qildi. Ispaniyadagi musulmon yodgorliklari haqida hikoya qiluvchi bu ilk asar garchi ilmiy va badiiy jihatdan katta qiziqish uyg'otmasa ham, lekin Andaluziyadagi musulmon madaniyatiga bo'lgan qiziqishning jonlanishini o'zida mujassamlantiradi.

Ko'pgina yozuvchilar bu davrda arab adabiyoti namunalarini fransuz tiliga tarjima qilish bilan shug'ullandilar. Bu sohada, ayniqsa, Lasramning xizmatlari diqqatga sazovordir.

Mazkur davr Tunis poeziyasida sharqiy arab mamlakatlariga xos tamoyillar ko'zga chalinadi. Birinchi navbatda, bu ijtimoiy va tarixiy mazmundagi she'riyat bo'lib, unda arablarning shavkatli o'tmishi ta'riflanar, yangi milliy taraqqiyot omili sifatida qadimgi madaniy qadriyatlarni qayta jonlantirishga da'vat etilar edi. Bu yo'nalish jonkuyari «Hozirgi zamon poeziyasi» (1901) dostoni muallifi Muhammad an-Naxli edi. 1837-1905 yillar poeziyasida islohotga intiluvchi yana bir yo'nalish ham bor ediki, uning namoyandalari taraqqiyot yo'lini G'arb sivilizatsiyasi bilan tanishuvda deb hisoblashar edi. Bu yo'nalish namoyandasi shayx

Muhammad Xatoishiy «musulmon madaniyati va Yangi zamon sivilizatsiyasi muqoyasasi» nomli dostonida o'z g'oyalarini bayon etdi.

Tunisning 1837-1905 yillar adabiyotida an'analaridan chekinish jarayoni davom etadi. Bu jarayon, asosan, poeziya va prozaning mazmunida o'z ifodasini topdi. Nasriy janrlardan sayohatnoma rivojlandi, roman vujudga kela boshladi.

Poeziya, asosan, an'anaviy mumtoz janrlar doirasida rivojlangan bo'lsa ham, mazmunan u hozirgi zamon bilan bog'liq edi.

ILK REALIZM DAVRI (1920-1938)

Birinchi jahon urushi, unda Turkiyaning mag'lub bo'lishi va Usmonli imperiyasining parchalanib ketishi Tunis jamiyatining Turkiyaga umid bog'lagan, uning yordamida mustaqillikni qo'lga kiritishni orzu qilgan tabaqalarning xomxayollarini puchga chiqardi.

Tunis milliy – ozodlik harakatining boshida shayx Abdulaziz as-Saolibiy turar edi. Uni Zitun talabalari qo'llab – quvvatladilar. Natijada ijtimoiy – siyosiy hayot maydoniga bir qator madaniyat va adabiyot xodimlari kirib keldilar. Ular orasida Ahmad Tavfiy al-Madaniy, Muhammad al-Xabiy, Muhayyuddin al-Klobt va boshqalar bor edi.

Tunisning 20-30-yillar adabiyoti milliy-an'anaviy asosda, ayni choqda, G'arbiy Yevropa madaniyati ta'siri ostida rivojlanib bordi va o'zining faol grajdanlik xislati bilan tanildi. Bu davrda belletristika kuchaydi, hikoya janri shakllana boshladi. Uning rivojlanishiga teatr tomoshalari, fransuz novellalarining arab tiliga tarjima qilinishi ta'sir ko'rsatdi.

Fransiyada o'qigan Tunis ziyolilari mamlakat hayotiga musulmon jamiyati urf-odatlariga mos kelmaydigan ko'pgina yangiliklarni olib kirdilar. Tunis adabiyotida shu ikki madaniyat – Sharq va G'arbiy Yevropa madaniyati to'qnash keldi. Birinchi yo'nalish tarafdorlari ko'proq arab adabiyotining an'anaviy shakllariga murojaat qildilar. Yevropacha tamoyillarga ergashish tarafdorlari esa, erkin she'r, hikoya, roman kabi nasriy janrlarni o'zlashtira boshladilar. umumiy ravishda Tunis adabiyotini uch yo'nalishga bo'lish mumkin:

1. An'anaviy (arab adabiyoti ta'siridagi) adabiyot.
2. Oraliqdagi (mumtoz arab va Yevropa an'alarining taxminan teng miqdordagi ta'siri ostidagi) adabiyot.
3. Modernistik (ko'proq Yevropa ta'siridagi) adabiyot.

Birinchi guruh namoyandalari sharqiy arab mamlakatlari adabiyoti ta'sirida bo'lib, Zitun masjidi atrofida birlashdilar. Ular o'z asarlarini adabiy arab tilida yozishar, o'rta asr she'riyati vaznlariga rioya qilishardi. Bu mualliflar she'rlarida Tunisning XX asr boshlaridagi tushkun ahvoli tufayli qayg'u va hasratlari, ijtimoiy va madaniy hayotdagi tanglikni yengib o'tish, mamlakatning o'tmishdagi shon-shavkatini tiklash tuyg'ulari ifodalandi. Ular mustamlakachilarga, fransuzlar bilan hamkorlik qilish tarafdorlariga, Yevropa madaniyatiga taqlid qilishga qarshi turishar edi. Ularning fikricha, ayollarning chodrasiz ochiq yurishi, boshqa axloqiy tushkunlik hollari haqiqiy din qoidalari asosidagi tarbiyaga to'g'ri kelmaydi. Makash al-Xidra Xaznadar, Solih as-Suvaysiy, al-Fa'iz, Karabaku, Mustafi Og'o va boshqalar ana shu guruhga mansub edilar.

MUHAMMAD SHAZILI XAZNADAR

Muhammad Shazili Xaznadar (1881-1954) Tunisning XX asr birinchi yarmidagi eng buyuk yozuvchilaridan hisoblanadi. Uning bobosi vazir bo'lib, adib uning saroyida dunyoga keldi va adabiy doiralarda tarbiya topdi. Xaznadar biror maktabda o'qimagan bo'lsa ham, yuksak darajada bilim oldi. Uning ismi yoshlik yillaridayoq «al-Sa'da al-uzma» jurnali e'lon qilgan «Insonning ijtimoiy va shaxsiy hayoti haqida qanday fikrdasiz?» konkursi orqali tanildi. Bu tanlovda Xaznadar birinchi o'rinni oldi va bu hol uni keyingi ijodiy ishlarga rag'batlantirdi. U Tunis va boshqa arab mamlakatlari gazeta va jurnallarida o'z she'rlari, maqolalari bilan qatnasha boshladi.

Xaznadarni 1910 yilda Tunis malikushshuaroasi deb e'lon qiladilar, Misrda uni Ahmad Shavqiyga tenglashtiradilar. An'anaviy uslubda yozilgan she'rlarida (masalan, «Nido») Xaznadar arablarning shavkatli o'tmishini ta'rifladi.

Xaznadar madaniy taraqqiyotni islom bilan chambarchas bog'liq holda, rivojlanishni esa, xulafoi roshidin hayotiga taqlid qilish shaklida tasavvur qilar edi. «Roshidin zamoniga nigohimni qarataman, unga qudratli tayanch qal'asidek murojaat qilaman. Ular zamonida masalalar kengash bilan hal qilinar edi, din yo'lboshchi edi, ular esa dinning himoyachisi edilar. G'aflat uyqusida yotgan bu xalqqa bir nazar solsangchi!»

Mustamlakachilikka qarshi chiqishlari uchun Xaznadar qamoqqa tashlandi, ozodlikka chiqqach yana milliy manfaatlarni himoya qilishda davom etdi. Xaznadar ko'p yillar davomida «Dastur» siyosiy partiyasi faoliyatida ishtirok etdi, 1946 yilda undan chiqqan bo'lsa ham, lekin turli dolzarb siyosiy muammolar haqida o'z qarashlarini izhor etishda davom etdi.

ABDURAZZOQ KARABAKA

Abdurazzoq Karabaka 1904 yilda Tunisda tug'ildi, otasidan vaqtli yetim qoldi, Qur'on maktabida ta'lim oldi. O'zining ilk she'rlaridan birini ifodali o'qib bergani uchun Karabaka tantanali bir yig'ilishda mukofot olishga erishdi. Keyinchalik Karabaka Zitunga o'qishga kirib, uni 20 yoshida tugatdi. Karabaka teatrga qiziqar, pesalar yozib, ular ijrosida o'zi ham qatnashardi. 1940-1945 yillarda «Teatr yulduzi» jamiyati Karabakaning andalussiyalik go'zal shoira va Ispaniya musulmonlarining romantik shoiri sarguzashtiga bag'ishlangan «Vallada va Ibn Zaydun» pesasini muvaffaqiyat bilan namoyish etdi. Uning «Aysha al-Xadra» pesasi ham katta muvaffaqiyat qozondi. Karabaka gazeta va jurnallar bilan faol hamkorlik qildi, ularda she'r, hikoya, adabiyotga bag'ishlangan maqolalar e'lon qildi.

Adibning ko'pgina hikoyalari mazmuni bir xil - ularda Tunis burjuaziyasining xulq-atvori tanqid qilinadi. Karabaka aktrisa va qo'shiqchi ayollar uchun ko'plab qo'shiq va she'rlar yozgani sababli, unga «yoshlar shoiri», «go'zallar shoiri» deb nom berganlar. U ham arab adabiy tilida, ham go'zal va ifodali Tunis shevasida ijod qilib, she'rlarida, asosan, sevgi tuyg'ularini tarannum etdi. Mana, «Shunday vaqtlar bo'lgan edi» («Kana zamana») she'rini olaylik:

Qaydasan hayot, ey sen, unutilgan zamon.

Qaerda baxt, tongda ham, tunda ham bizdan qochar u.

Muhabbat va do'stlik og'ushida o'tkazgan vaqtimiz qani?

Ehtiros jomini ichardik paydarpay.

Butun vujudim husniga mahliyo edi,

Hissiyotlarim yonardi uning ishqida.

O, qanchalik telbalarcha sevardim uni!

Uni baxtli qilish uchun jonimni berishga tayyor edim!⁷⁵

Karabakaning ba'zi bir she'rlarida ayollarga nisbatan an'anaviy qarashlar o'z ifodasini topdi. «Chodra tashlash tarafdorlariga!» (1924) she'rida adib emansipatsiya tarafdorlari so'ziga kirib, chodrasini tashlagan ayollarni qoralab fikr bayon etadi. Musulmon ayoliga murojaat qilar ekan, Karabaka o'qimagan ayol yuzini ochgani bilan Yevropaning bilimli ayollariga o'xshab qolmaydi. Shuning uchun u ayollarni chodrani tashlamaslikka, turish-turmushida oldingi musulmon ayollariga taqlid qilishga chaqiradi.

Karabaka ijodi juda rang-barang bo'lib, uning yo'nalishlari o'zgarib turar, ba'zida an'anaviylik sof lirikaga o'rnini bo'shatib bersa, ayrim hollarda zamon voqealariga munosabat ham o'z ifodasini topardi. Umuman, an'anaviy yo'nalish she'riyati ham Yevropa romantizmi ta'sirida bo'lib, turli ko'rinishlarda ideal va voqelik orasidagi ziddiyatni ifodalar edi. XIX asr Yevropa romantiklari singari Tunis shoirlari o'tmishga o'rta asrlar hayotidan o'z ash'orlariga mavzular, husni tarovat olish uchun murojaat qilishar, tabiatni kuylab asarlar yozishar edi. Bu davr she'riyatida Yevropa sentimentalizmi ta'siri ham sezilib turadi. Sodiqiya talabalaridan bo'lgan Muhammad al-Xulsi ijodi buning yorqin misolidir.

Tunis adabiyotidagi oraliq yo'nalish ham bir guruh yozuvchilarni qamrab oladi. Ular arab madaniyatining kuchli ta'siri ostida bo'lib, islomiy, diniy doktrinalarga qattiq rioya qilganlar.

⁷⁵ Пантучек С. Тунисская литература. Москва. М.1969. С. 85.

Ayni paytda Yevropa madaniyatining sezilarli ta'sirini ham his etganlar. Bu guruh yozuvchilar ham, asosan, Zitundan yetishib chiqqanlar, ammo ular ko'proq novatorlik pozitsiyasida turdilar, an'anaviy adiblarga ko'ra Yevropadan kirib kelayotgan yangiliklarga sezgirroq bo'ldilar. Ular o'rta asrlarning eng qoloq sarqitlariga qarshi isyon ko'tarish bilan birga arab madaniyati asoslarini saqlab qolish lozim, deb hisoblar edilar. Bu yo'nalish namoyandalari Tohir Hadda, Shabbi, Said Abu Bakr, Husayn al-Jadiri, Ahmad Xayriddin va boshqalar edilar.

ABUL QOSIM ASH-SHABBI

Abulqosim ash-Shabbi Tunisning XX asrdagi eng buyuk shoiri bo'lib, qisqa hayoti davomida o'ziga xos ijodi bilan iste'dodli adib sifatida shuhrat qozondi.

Shabbi Tunis janubidagi Tozer qishlog'ida tug'ildi. Uning otasi arab dunyosidagi eng yirik diniy bilim dargohi bo'lmish al-Azhar universitetini tamomlagan, qozi lavozimida ishlar edi. U o'g'liga islomiy boshlang'ich maktabga qo'shimcha ravishda yoshlik davridanoq an'anaviy musulmon ta'limoti asoslari - arab grammatikasi, kalom, adabiyot, falsafa fanlaridan bilim berdi. Shabbi Yevropa tillarini bilmas edi, ammo Yevropa xalqlari adabiyotiga qiziqib, tarjimonlar orqali u bilan kengroq tanishishga harakat qildi. Ayniqsa, fransuz romantiklari – Alfred de Myuss, Alfons de Lamartin, Alfred Vinya, Teofil Gote ijodiga ko'proq qiziqdi.

Shabbi 1921 yilda endigina 12 yoshga kirganida az-Zitun talabasi bo'ldi, 1925 yilda esa, o'zining birinchi she'rini yozdi. She'r hidja (hajviya) janrida yozilgan universitet ta'limi tizimi hamda ma'noni so'zamollik girdobiga g'arq qilishga qodir safsatafurush grammatistlar ustidan kuluvchi satira edi.

Shabbi she'rlari 1926 yildan boshlab «an-Nahda» gazetasida e'lon qilina boshlaydi, shu yillardan uning ijtimoiy faoliyati ham boshlanadi. U o'qish uslubiyatini yaxshilash tarafdori bo'lgan az-Zitun talabalariga boshchilik qiladi, Tunis adabiy klubini, hozirgacha Tunisning eng faol yoshlar tashkiloti bo'lgan «Musulmon yoshlar» tashkilotini tuzishda faol ishtirok etadi. Az-Zitunda olgan bilimlarini mukammallashtirish maqsadida Shabbi 1928 yilda Tunis huquq maktabiga kiradi va 1930 yilda uni muvaffaqiyat bilan tugatadi.

Shabbi 1927 yilda al-Xalduniya universitetida «Arablarida poetik taxayyul» mavzusida ma'ruza o'qib (ma'ruza 1929 yilda kitob holida nashr etildi), unda o'zining she'riyatdagi prinsiplarini bayon etdi: poetik ijod erkinligi, an'anaviy arab she'riyati qonun - qoidalaridan voz kechish, yangi she'r shakllarini o'zlashtirish, mavzular ko'lamini kengaytirish. Ma'ruza adabiyotni yangilashga, uni oxirgi davr hayotini, bugungi kun odamini tasvirlashga qaratilgan qaynoq da'vat bo'lib yangradi.

Mumtoz arab adabiyoti va aruz bilimdoni bo'lgan Shabbi ushbu ma'ruzasida (uni tom ma'noda adibning ijodiy manifesti deb atash mumkin) arab va Yevropa adiblarining she'riyatdagi prinsiplari har xil ekanini ta'kidlab o'tdi. U arablarning «bilim» mumtoz poeziyasiga «tuyg'u» romantik poeziyasini, klassik poetika taqozo etgan kutilmagan obrazli ifodalar, an'anaviy mavzularning g'aroyib tomonlarini ochib berishga mustaqil badiiy kashfiyot, «poetik taxayyul»ni qarshi qo'ydi. Shabbi fikricha, aynan ana shu narsalar insonning ichki dunyosini ochib berishga qodir, bu esa she'riyatning eng oliy vazifasidir. Shabbi an'anaviy arab adabiyotidagi mavzularning torligi, bir xilligiga e'tiroz bildirar ekan, bu bilan poeziyada voqeiy hayotni kengroq ifodalashni yoqlab chiqdi. Poeziya insonni, uning muhit bilan munosabatini idrok etgandagina uning ehtiyojlarini qondiradi, yangi ideallarning shakllanishiga yordam beradi.

Shabbi 25 yoshda hayotdan ko'z yumgan bo'lsa ham, uning ijodi boy va rang-barangdir. Uning she'rlari 1956 yilda, mustaqillik e'lon qilinishi arafasida «Hayot qo'shig'i» nomi bilan bosilib chiqdi. To'plamdan o'rin olgan ilk she'rlarining ko'pchiligi Tunisga, uning tabiatiga bag'ishlangan («Go'zal Tunis», «Cho'pon qo'shig'i», «Shoxchalar soyasida»). Ijodining ilk davrlaridanoq Shabbi poeziyaning vazifasi («O, mening ilhomim!»), shoirning hayotdagi o'rni («Hayot») borasida ko'p mulohaza qiladi. Ammo keyinroq, Shabbi otasidan ayrilib, o'zi og'ir kasallikka chalingani, xorijga ketishga majbur bo'lganidan keyin uning she'riyatida g'amginlik, sog'inch, o'kinch motivlari kuchaydi. «Men bu hayotda achchiq ko'z yoshlari va g'amdan, azob-uqubatdan o'zga nimani ko'rdim («E'tirof»), mening boshim uzra tobora ko'proq qora soyalar

to'planmoqda... («G'am»), - deydi adib. Shoirning shaxsiy musibati unga insonning oliy ehtiyoji – ozodlikdan mahrum qilingan mamlakat dardlarini chuqurroq idrok etishga yordam beradi:

Dunyoni anglashni juda istardim.

O'z qalbimni ham, ammo hech narsani tushunolmayapman.

Faqat bir narsani men idrok etdim –

Inson yo'li uni o'limga boshlab borarkan.

Saroylar uzra og'ir ingrashlar yangrar,

Uylarda faqat musibat.

Dunyoda zo'ravonlik odamlar ustidan hukmrondir.

Marsiyaga xos bunday motivlar Shabbi ijodida ko'p uchrab turadi, ammo aksar hollarda u hayotsevarlik tuyg'ulari bilan uyg'unlashib boradi.

Otajon, o'limingdan so'ng ko'p azob chekdim.

G'am tuyg'ularimni ham so'ndirdi.

Ammo men hayotga intilaman, unga quloq tutaman.

Tuyg'ularim jo'sh uradi yana,

Hayajon bilan hayotga, shodlikka, ilhomimga intilaman.

Shabbining ijodiy uslubida Yevropa romantizmi ta'siri sezilib turadi. Voqelikni qora, noxush ranglarda idrok etish, erk va go'zalliklarga eng oliy ideal sifatida intilish, tabiat hodisalarini personifikatsiya qilish, ularga hayrat bilan o'z hissiyotlari ifodasi sifatida qarash – uning chuqur emotsional lirikasi ana shunday motivlarga boy. Shabbi arab poeziyasi uchun yangi bo'lgan jonli hissiyotlar va zavq-shavq daryosini kashf etar ekan, o'zining bor ijodiy taxayyuli kuchini unga g'anim va zim-ziyo voqelikka qarshi yo'naltirdi. Hayot adolatsizlik va yomonlikdan to'lib-toshib yotibdi; Shabbi vatandoshlarini faoliyatsizlikda ayblaydi: «Bu hayot bilan kurashadigan biror yurak yo'q» («O'g'lonlar»). Fitna-fasod, amalparastlik, qashshoqlik va baxtsizlik hukm surayotgan bu dunyoni buzib tashlash kerak («O'lik dunyo»), kelajakdagi yangi hayot uchun xalqni kishanlab turgan, uni azob-uqubatga solayotgan, o'lim sharpasini olib kelayotgan barcha narsani vayron qilish kerak.

Ey xalqim! Men bir o'tinchi bo'lganimda, ularning tupiga bolta solardim,

Agar men hayqirgan sel bo'lganimda, barcha eski sag'analarni oqizib ketardim birin-ketin.

Agar men shamol bo'lganimda, gullarni g'am bilan so'ldirgan barcha narsalarni uchirib ketardim.

Tuyg'ularim to'fondek kuchli bo'lganda men –

Isonkor qalbimni senga atardim, ey xalqim.

Agar vujudimda quyun kuchi bo'lganida, o'z so'zim bilan -

Seni chorlardim yangi hayotga, ey xalqim.

Shabbi ijodida ozodlikka, buyuk va shonli kelajakka bo'lgan ishonch ham ana shunday kuchli yangraydi:

Agar xalq intilsa yangi hayotga,

Taqdir unga kulib boqadi.

Qorong'ulik yo'qolib, qullik zanjirlari uziladi.

(«Hayotga intilish»)

Asrimiz tun va g'am asridir,

Ammo tundan keyin tong otadi...

Bu asr xalqdan tortib oldi shon-shuhratini

Ammo bir kun kelib, hayot unga qilichini qaytarib beradi!

(«Go'zal Tunis»)

Uningcha yomonlik ustidan g'alaba qozonish faqat yangi g'oyalar bilan qurollanib, voqelik maromiga faol qatnashganlarga nasib qiladi:

Asr bilan hamnafas bo'l, shunda seni -

Qo'rqitolmas na vahima, na taqdir.

Asr bilan hamnafas bo'l, nima bo'lsa ham,

Shunda seni taqdir aldamas.
Hayotdan chekinganlar, holingizga voy,
Siz endi o'limga mahkumsiz.

(«Asr bilan hamnafas bo'lib»)

Zulmga qarshi isyon mavzusi Shabbining oxirgi she'rlaridan biri - «Dunyo zolimlariga» asarida eng yorqin ifodasini topdi:

Zolimlar – hayot dushmani, o'lim do'stlari.
Qul qilingan yurtning mustabid xo'jayinlari, ko'zingizni oching,
Tong otmoqda, ufqda bulutlar qalinlashmoqda.
Momoqaldiraq gumburlashi, shamol uvillashi eshitilmoqda.
Men aqllarga nur taratdim, umid tug'ildi,
Ey zolim, yerni ko'z yoshi va qon bilan sug'oring,
Ularning to'liqini seni g'arq etadi.⁷⁶

Shabbi ko'pgina arab romantik adiblari tasavvuridagi qalbning mavhum ideallashtirilgan ozodligi doirasidan tashqariga chiqadi. Uning ijodiga xos grajdanlik nafasi istibdod va jabr-zulmdan ozod bo'lishga intilishda o'z ifodasini topadi.

MAHMUD BAYRAM AT-TUNISIY

Bu davr adabiyotida muhim rol o'ynagan mualliflardan biri Mahmud Bayram at-Tunisiy (1893-1961) bo'lib, u Aleksandriya shahrida tunislik oilada dunyoga keldi, 1919 yilda Aleksandriyada chiqadigan «Yodgorlik toshi» («al-Misalla») jurnali bilan hamkorlik qilib, o'zining adabiy faoliyatini boshladi.

Mahmud Bayram at-Tunisiy 1919 yilda Aleksandriyadan Tunisga keladi, keyin esa, Fransiya jo'nab ketadi. U 1921 yilda ona vataniga qaytadi va «ash-Shabab» («Yoshlar») nomli gazeta chiqara boshlaydi. Oradan ko'p o'tmay kolonial hokimiyat vakillari uni Tunisdan chiqib ketishga majbur qiladilar, u Misrga qaytadi va umrining oxirigacha shu yerda yashaydi. Uning adabiy merosi barakali bo'lib, ikki devon, pesalarni («Shahrizoda», «Dinarlar» va b.) qamrab oladi.

Bayram serqirra iste'dod sohibi edi, kulgi, achchiq kinoya ham unga begona emas. U asarlari uchun materialni shahar va qishloq muhitidan tanlar edi. Uning poeziyasi sezilarli darajada xalq og'zaki ijodi ta'sirida bo'ldi, bu asarlarining ham mazmunida, ham shaklida, ham musiqiylikda o'z ifodasini topdi.

Tunis adabiyotida fransuz tilida ijod qiluvchi adiblar alohida bir qatlamni tashkil etadi. Fransuz zabon adabiyot Tunisda Jazoiridagi singari mavqega esa bo'lmasa ham, lekin umuman mamlakatdagi adabiy jarayonda salmoqli o'rin tutadi.

Fransuz zabon adiblardan biri – Muhammad Nu'mon 1923 yilda «Parda ortida» nomli hikoya e'lon qilgan bo'lsa, tunislik advokat Taxar Essafi «Zumraddan yasalgan afsungar» (1931), «Marokashlik ayol» (1935) novellalari bilan chiqdi. Essafi o'z novellalarida musulmon mamlakati ayoli ahvolini qalamga oldi, bu sohada chuqur islohotlar o'tkazish, o'zgarishlar qilish lozimligini ta'kidladi, birinchi marta duragay oila masalasini ko'tarib chiqdi.

Mahmud Aslan, Mustafu Kurd, Saloh Ettri va boshqalar Tunisning fransuz zabon shoirlari edilar.

Umuman olganda, urushlar oralig'idagi davr yangi Tunis adabiyotini vujudga keltirishda navbatdagi bosqich bo'ldi. Bu davr adabiyotida novatorlik, asosan, asarlarning mazmunida o'z ifodasini topdi, shakl jihatidan esa, ular hali an'anani davom ettirar edilar. Ayniqsa, poeziyada an'anaviylik kuchli seziladi, faqat unga xalq tili kirib kelganini ta'kidlash mumkin. Bu davrda poeziya nasrga nisbatan quyiyoq mavqeni ishg'ol qilardi.

TUNISNING MUSTAQILLIK DAVRI ADABIYOTI

⁷⁶ Уша жой.

Tunis adabiyoti taraqqiyotida 1956 yildan eng yangi davr bosqichi boshlandi. Tunis mustaqillikni qo'lga kiritgach ziyolilar tabaqasining anchagina qismi davlat idoralarida lavozim oldilar. Buning oqibatida adabiyot bir qator yozuvchilarni qo'ldan berdi.

Tunisda yozuvchi ijodiy faoliyat hisobiga kun kechira olmaydi, shuning uchun bu mamlakatda professional adib tipi shakllanmadi. Shuningdek, Misr, Livan yozuvchilariga nisbatan Tunis ijodkorlarining nashriyot imkoniyatlari cheklangan, chunki boshqa arab mamlakatlarida Tunis adabiyoti yaxshi tanilmagan.

Tunisning mustaqillik davri adabiyoti haqidagi gapni «al-Fikr» («G'oya») jurnalidan boshlash lozim. Uning muharriri Muhammad Mzali «Bizning asosiy vazifamiz madaniy merosimizni qayta tiklash, chet ellar bilan aloqalarni kengaytirish bilan birgalikda madaniyatning ta'sir doirasini kengaytirish, uni butun xalq mulkiga aylantirishdan iboratdir,» - deb yozgan edi.

Jurnalda Tunisning original badiiy asarlari, fransuz tilida tarjima qilingan maqolalar, taqrizlar, bahslar nashr etilar, ayni paytda jurnalning asosiy diqqati Tunis problematikasiga qaratilgan edi. Jurnal turli – tuman masalalar bo'yicha erkin bahs yuritiladigan minbarga aylandi, bu esa rang-barang g'oyaviy oqimlarning shakllanishiga asos bo'ldi.

«An-Nadva» («Klub»), «at-Tajdid» («Yangilanish») jurnallari ham Tunis adabiyoti namunalarini bosib chiqarardi. Umuman, mustaqillik davrida Tunisda arab va fransuz tillarida chiqadigan juda ko'p jurnallar vujudga keldi. Bu jurnallar sahifalarida chop etilgan asarlarda Tunis adabiyotiga xos uch tamoyilni ko'rish mumkin:

1. Ijtimoiy mavzular yorqin ifodalangan realistik oqim. Bu oqim asosiy o'rinni ishg'ol etdi.

2. Ikkinchi oqim ham unga yaqin turadi. Biz uni shartli ravishda vatanparvarlik oqimi deb atadik, chunki u antikolonial hamda milliy shon-shavkat g'oyalari bilan yo'g'rilgan.

3. Psixologik tusdagi adabiyot. Bu oqim asarlarida ishqiy, ko'pincha an'anaviy oilaviy munosabatlar doirasidagi muhabbat problematikasi ustunlik qiladi.

Hozirgi zamon Tunis adabiyotining ko'pchilik namoyandalari realistik oqimga taaluqli bo'lib, o'z asarlarida oddiy xalq turmushini tasvirlaydilar, hozirgi zamon Tunis jamiyatiga xos ijtimoiy ziddiyatlarni ochib beradilar. Bu hol mamlakat o'z boshidan kechirayotgan jamoatchilik diqqat markazida ijtimoiy muammolar o'rin olgan davr xarakteriga mos. Bu yo'nalish asarlarida ko'plab folklor unsurlari, sheva xususiyatlari uchraydi.

BESHIR XRAYEF

Beshir Xrayef realistik oqimning eng ko'zga ko'ringan namoyandasi bo'lib, 1917 yilda dunyoga keldi. U adabiyotga kirib kelgunga qadar bir necha bor kasbini o'zgartirdi. Limonad sotuvchi savdogar, ko'chada gazeta sotuvchi va hokazolar bo'ldi. Keyinroq u Xalduniya universitetini tugatib, o'qituvchi bo'lib ishlay boshladi.

Xrayef o'zining birinchi hikoyasini 1936 yilda e'lon qildi. Keyingi, 1937 yilda e'lon qilgan «Zulm tuni» hikoyasida majburan turmushga berilayotgan tunislik qiz to'y arafasidagi oxirgi tunini dugonalari doirasida o'tkazgani, sevgilisi bilan xufyona vidolashgani borasida hikoya qilinadi. Jamiyatdagi axloqiy muhitga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi ayollar huquqsizligi mavzusi keyinchalik Xrayefning boshqa asarlarida ham o'z aksini topdi.

Oradan yigirma yil o'tgach Xrayef «Sinish» romanini nashr ettiradi, unda Tunis mayda burjuaziyasining hayotini aks ettiradi. Asarda Tunis mayda burjuaziyasining hayotiy lavhalari, G'arbiy Yevropa modernizmi ta'sirida siyosiy masalalarga befarq bo'lib ketgan yoshlar turmushi yorqin aks ettirilgan.

Romanning bosh qahramoni 22 yashar Slim al-Burjiy Xrayefning avtobiografik sarguzashtlari asosida tasvirlangan. Slim Zitunda o'qiydi, ammo imtihonda yiqilgach o'qishni tashlab ketadi va advokat idorasiga ishga kiradi. Romanning ilk sahifalari qahramonning o'z hayoti voqealari to'g'risidagi ta'sirchan izhori dilidan iborat. Onasining erkatoyi hech narsada kamchilik ko'rmasdan o'sgan Slim zerikib yashaydi, o'zini qaerga qo'yishni bilmaydi. Teatr muhitiga kirib qolgach esa, u Latifa nomli aktrisa bilan tanishadi, uni sevib qoladi. Latifa esa aktrisa bo'lib ishlay boshlagan fohisha bo'lib chiqadi. Romanda to'satdan sirli bir shaxs –

tunislik tadbirkor Rabah paydo bo'ladi. Latifa uni sevib qoladi, Slim esa javobsiz qolgan muhabbati tufayli azob chekadi.

Romanda Tunis yoshlarining 20-yillardagi hayoti, psixologiyasi, turish-turmushi, odatlari aks ettirilgan. Asar matni maqollarga boy, muallif tili adabiy bo'lsa ham, ammo dialoglar shevada yozilgan. Bu uslub tanqidchilar e'tiroziga sabab bo'ldi.

MUHAMMAD RASHOD HAMZAVIY

Muhammad Rashod Hamzaviy 1934 yilda tug'ilib, Tala qishlog'ida ibtidoiy ma'lumot oldi, so'ngra Sodiqliyani, Tunisdagi institutni tugatdi, talabalar uyushmasida ishladi, 1952-55 yillarda talabalar matbuot organlarida turli lavozimlarni egalladi. U Tunis gazetalari bilan hamkorlik qildi. Keyinchalik u Parij universitetini tugatib doktorlik dissertatsiyasini yoqladi, 1960 yilda Leyden universitetining sharqshunoslik kutubxonasiga ishga kirdi.

Hamzaviy 1959 yilda o'zining birinchi hikoyasi «Tarnanno»ni e'lon qildi. Hikoyada tasodifan Tunis istiqloli uchun kurashga aralashib qolgan takasaltangning sarguzashti tasvirlanadi. U ozodlik harakatida o'zining vatanparvarlik e'tiqodi sababli emas, balki kutilmagan holda yuz bergan voqealar tufayli ishtirok etadi. Mamlakat ozod qilingandan so'ng esa u yana ilgari maqsadsiz hayotiga qaytmoqchi bo'ladi, ammo sobiq jo'ralarini topa olmaydi va pirovard natijada ish qidirishga tushadi.

Tarnanno obrazida Hamzaviy idrok etilgan aniq maqsadsiz yashaydigan ijtimoiy qatlam – mayda burjualar hayotini aks ettiradi. 1962 yilda uning «Bududu o'ldi» romani bosilib chiqdi. Asarda o'zlarining non o'g'irlab qamoqqa tushgan o'rtoqlari Bududuni qutqarib olish uchun pul to'plab yurgan qishloq bolalari bilan bo'lgan voqealar hikoya qilinadi. Roman mazmuni bo'yicha hayotda hamnafaslik zarur, oxir – oqibatda yolg'iz qolgan Bududu esa aslida o'lgandek bo'ladi. Romanda Tunis jamiyati hayoti keng qamrab olinmaydi, uning chuqur tahlili berilmaydi. Ammo shunday bo'lsa ham, qishloq kundalik hayotining yorqin lavhalari chizib berilgan va u adabiy sovrin olishga muvaffaq bo'ldi.

Vatanparvar yozuvchilar guruhi ko'p sonli emas. Ularning asarlarida axloqiy, milliy-ozozlik problematikasi ustunlik qiladi. Muhammad Frej Shazli, Xasan Nasr shular jumlasidandir. Rashid al-Gali, at-Taxar Vattar kabi keyinchalik realistlik, ijtimoiy yo'nalishdagi adabiyotga kirib kelgan Tunis yozuvchilari ham psixologik mavzularga ko'proq diqqat qildilar. Ularning asarlarida muhabbat iztiroblari o'z ifodasini topdi.

NOJIYA SAMER

Tunis adabiyoti taraqqiyotida adibalar ijodi ham salmoqli o'rin egallaydi, ular orasida esa, Nojiya Samer nomi alohida ajralib turadi.

N.Samer Damashqda tunislik oilada dunyoga keldi. U, asosan, hikoya va radiopesalar yozadi. Uning pesalari «Osmon adolati» («Adolat as-sama») hikoyalari esa, «Yashashni xohlaymiz» («Aradna al-hayt») nomi bilan to'plam hoida nashr etilgan.

Adiba muntazam ravishda adabiyotshunoslik bo'yicha maqolalar e'lon qilib turadi, «An-nadva» («Klub») va «Qissa» («Hikoya») jurnallari bilan hamkorlik qiladi. N.Samer ijodi o'zining g'oyaviy yo'nalishi, uslubiy xususiyatlariga ko'ra Tunis adabiyotida 50-yillar oxiri va 60-yillar boshlarida yetakchilik qilgan adabiy yo'nalishga taaluqlidir. Bu – ijtimoiy mavzular asosiy o'rinni egallagan realistlik yo'nalish bo'lib, mustamlakachilikka qarshi milliy kurash nafasi bilan yo'g'rilgan adabiy oqim ham unga taaluqlidir.

N.Samerning «Yashashni xohlaymiz» to'plamiga kirgan 14 hikoyasi ham antikolonial mavzuga bag'ishlangan bo'lib, ulardagi qahramonlar Tunis ozodligi yo'liga jonini tikkan insonlar siymosini o'zida mujassamlantiradi.

Yangi davr Tunis adabiyotining shakllanishida radio samarali rol o'ynadi. Tunis yozuvchilarining ko'pchiligi radioga kelib ishlar edilar. Radiodagi faoliyat ko'pchilik Tunis yozuvchilari, jumladan, Nojiya Samer ijodida ham o'z izini qoldirdi. Radio bayondagi ixchamlikni, tilning sodda va tushunarli bo'lishini talab etar edi. Shuning bilan birga materiallarning publisistik ruhda bo'lishi, ma'lum bir qolipga tushirilishini taqozo qilardi.

N.Samerning «Yashashni xohlaymiz» to'plamiga kirgan hikoyalarda jurnalistikaga xos uslub, materiallarni talqin qilish tamoyili yozuvchiga katta ta'sir ko'rsatgani shundoqqina sezilib turadi. Bu hikoyalarning bosh qahramoni ayollar, ular uy-ro'zg'or tashvishlari, er va bolalar qayg'usi bilan chegaralangan bir muhitda hayot kechiradilar. N.Samer asarlaridagi ayol, eng avvalo, beka va ona siymosini o'zida aks ettiradi. Ular yumshoq tabiatli, mehribon, tortinchoq qilib tasvirlangan, ularning xislatlari – ma'naviy go'zallik, oilaga sadoqat, qalb tozaligi. Deyarli barcha hikoyalar ibtidosida ular shunday qiyofada namoyon bo'ladilar.

«...Urush ularning uyi ostonasigacha yetib kelgan edi. Jazo bo'linmalari askarlari, fransuz parashyutistlari ularning uylariga bostirib kirishar, eshiklarini buzishar, yo'llarida uchragan har qanday muqaddas va muhim narsa bo'lsa, barchasini yer bilan yakson qilishar edi. Ana shunda bu ayollar jangchiga aylanishardi»⁷⁷. Vatan ozodligi uchun kurash ular qalbida vatanparvarlik, fidokorlik tuyg'ularini alangalatardi.

«Abadiy vafodorlik» hikoyasi qahramoni yaqindagina qallig'i Tavfiqni frontga jo'natgan yoshgina hamshira Vadia yaradorlarga yordam qo'lini cho'zadi. N.Samer qahramoni qallig'ini orziqib kutadi, lekin yaralanganlar orasida u yo'q. Yozuvchi yaradorlar orasidan alohida shaxslarni tanlab olib, ularning hayotida ro'y bergan fojeali lahzalarni reportaj usulida tasvirlaydi. Bu yo'l-yo'lakay, ammo o'tkir ifoda kuchi bilan tasvirlangan lahzalar uyg'unlashib, xalq boshiga tushgan dahshatli falokat manzarasini vujudga keltiradi.

Vadia Tavfiqni qayta uchratmaydi. Yigit yuzlab o'ziga o'xshaganlar kabi dom-daraksiz yo'qolgan. Endi Vadianing o'zi davolagan, dardini yengillatgan yaradorlar uning mehribonliklari evaziga ko'nglini ko'tarishadi, boshiga tushgan musibatni yengillatishga harakat qilishadi.

«Qarshilik ko'rsatish harakatiga ketayotgan kishi» hikoyasi qahramoni – Oyshaning eri xotin, bola–chaqasini qoldirib qarshilik harakatiga qo'shilishga ketayotganida xotiniga deydi: «Peshonamizga o'lim yozilgan bo'lganda ham, uni qo'l qovushtirib, qo'rqa-pisa kutib o'tirish – sharmandalik». N.Samer hikoyasida shunday vaziyatni tasvirlaydiki, xavf-xatar bilan yuzma-yuz to'qnashgan ayol o'zi va bolalariga dushman xavf soladigan bo'lsa, unga qarshi kurashga kirishi kerak bo'ladi. Haqiqatan ham ularning uyi oldida harbiy mashina to'xtab, eshiklari taraqlay boshladi. Eshik ochilgach, ostonada avtomat tutgan ola-bula kiyimdagi parashyutchilar ko'rinadi. Yozuvchi ayolning qalbidan kechayotgan tuyg'ularni qisqa, lo'nda ifodalarda tasvirlaydi. Oldiniga Oysha qo'rqib ketadi, keyin qo'rquvni bosib, eri chiqib ketganiga xursand bo'ladi. Oysha askarlar uylarini g'orat qilishlarini xotirjam kuzatib turadi – unga, bolalariga tegishmasa bo'ldi. Shu taxlitda adiba Oyshaning qalbida ko'tarilayotgan his – tuyg'ularni diqqat bilan kuzatib boradi va uning keyingi xatti – harakatini asoslash uchun psixologik asos tayyorlab boradi. Bolalar uning etagiga o'ralib oyoqlariga yopishadilar. Bu hol uni onalik shijoatini ko'rsatishga undaydi. Askarlar uydagi narsalarni olib ketayotganda o'g'ilchalaridan birini berishni talab qiladilar. «Kattalar yo'q ekan, bolasidan qasos olishga haqqimiz bor», - deydi ulardan biri. Oysha turgan joyida qotib qoladi – bolalari o'limini ko'rishdan oldin o'zi o'lgani yaxshi emasmi?

Bu fojeali holatni N.Samer bir epizod kiritish bilan butunlay o'zgartirib yuboradi. Oyshaning ruhiy qiynoqlarini sezgan bir soldat to'satdan bolakayni o'ldirmoqchi bo'lgan ikki sherigini otib tashlaydi. N.Samer o'quvchisiga bu soldatning mustamlakachi fransuz emasligini bildirishga oshiqadi... U boshqa insonning boshiga tushgan kulfatni tushungan, Tunis zaminini qonga botirgan, onalik tuyg'usini oyoq osti qilganlarga qarshi qo'l ko'targan bir inson, xolos.

«Onam» hikoyasida N.Samer o'quvchini borbardimon qilingan, osmondan o'qqa tutilgan Tunis shaharlari ko'chalaridan olib o'tadi. O'quvchi ko'zi oldida qonga botirilgan trotuarlar jonlanadi, u odamlardan najot so'rab jovdirab turgan yaradorlarning ingrashlarini eshitadi. Har tarafda o'liklar sochilib yotibdi. Ularni qoplagan havo ham qon isi anqib turgan xira choyshabga o'xshaydi. Bu manzarani tasvirlagach N.Samer plakatdagi yozuvga o'xshagan izoh beradi: «Bu shahardagi barcha narsalar, - yozadi u, - kelgindilarga qarshi o'z ozodligini qo'lga olish uchun kurashga otlangan mustamlaka, xalqlarning fojeasini o'zida aks ettiradi.»⁷⁸

⁷⁷ Арабская литература (средневековье и современность). Т.: 1982. С.99.

⁷⁸ Араб адабиёти. Б.100

N.Samerning yozuvchilik uslubi, bir tomondan, ixchamlikka intilishda ko'rinib, boshqa tomondan, voqealarning eng keskin lahzalarida qahramonning ruhiy holatini tasvirlashda o'z ifodasini topadi. Uning asarlarida manzara tasvirlari ham juda kam. Muallif xuddi voqealar rivojidadagi shiddatga putur yetkazmaslik uchun ularni chetlab o'tgandek tuyuladi. Samer hikoyalarida faqat poyonsiz va tim-qora osmonda charaqlab turgan minglab yulduzlar manzarasini ko'rish mumkin, ammo mana shu yiroqda jimgina miltirab turgan yulduzli tubsiz osmon obrazi uning hikoyalarida ba'zan bo'layotgan mudhish voqealarga qarshi e'tiroz ma'nosini beradi, ba'zan esa, odamlar najot izlab ko'z tikkan chegarasiz yuksaklikni o'zida mujassamlantiradi.

«Yashashni xohlaymiz» hikoyasida N.Samer bostirib kelayotgan xatarni ifodalash, o'quvchi qalbini qahramon yuragi bilan bir xil tepishga majbur qilish uchun qo'llaydigan tovush vositalari ham diqqatni jalb etadi. Osmondan yog'ilib kelayotgan bombalarning chiyillashi, yerni larzaga solib portlayotgan snaryadlar gumburlashi, to'plarning vahimali o'kirishlari, pulemyotlarning yoqimsiz tarsillashi xatar hissini tuygan inson qalbi tepishiga ta'sir qiladi, xalqning bosqinchilar bilan olib borayotgan qonli kurashiga mos ruh tug'diradi.

N.Samer o'z qahramonlarini xalqning keng qatlamlaridan tanlaydi. Adibaning diqqat markazida turgan odamlar aynan shularning o'zi. Ular erkaklar, ayollar, bolalar, ammo birinchi galda o'z erlari, o'g'illari yonida turib vatan ozodligi uchun kurashga otlangan ayollar – xotinlar, kelinlar, onalardir. Ularning tolmas kurashchi bo'lib shakllanishi, kurashga otlanganlar lageriga kelib qo'shilishi, grajdanlik tuyg'usiga ega bo'lishi jarayoni, siyosiy ongining o'sishi, vatan ozodligi uchun jonfidoligi – «Yashashni xohlaymiz» to'plami hikoyalarining mavzulari shulardan iborat. Bu asarlar qahramonlari hayotga tashna, ammo tiz cho'kib yashashni xohlamas edilar. Ular o'limga tika qaraydilar va shu orqali qonli kurashlarda mustaqilligini qo'lga kiritgan xalq xotirasidan abadiy o'rin oladilar.

Shuni aytish lozimki, Tunis zaminida madaniyat qadimgi zamonlardan, bu yerlarda finikiyaliklar yashagan davrlardan rivojlangan. Keyinchalik bu yerlarni rimliklar egallab, o'z madaniyatlarini olib keldilar. Qadimgi zamonlarda Mag'rib mamlakatlarida rivojlangan ajnabiy madaniyat bizga ma'lum bo'lmagan mahalliy madaniyat bilan birlashib, o'ziga xos xususiyat kasb eta boshladi. Oldingi sivilizatsiyalar obidalarini yakson qilgan arab bosqinidan keyin esa, Tunisda asl arab madaniyati taraqqiy eta boshladi.

Ilk vaqtlarda bu madaniyat umumiy til va din tufayli sharqiy arab madaniyati bilan yaqin aloqada rivojlanib bordi, ammo keyinchalik sekin – asta Tunisda mustaqil siyosiy, iqtisodiy, diniy hayot shakllana boshladi. Bu mamlakatning geografik va ijtimoiy muhiti, mahalliy aholi – berberlar, bu yerda muhim bo'lib qolgan rimliklar, karfagenliklar uning shakllanishiga bevosita ta'sir o'tkazdilar. Shu bois ko'p asrlar davomida bu o'lkada turli madaniyatlarning qorishib ketishi jarayoni davom etdi.

Tunis madaniyatiga keyinchalik bu yerga kelgan madaniyatlarning ko'rsatgan ta'siri bir xil emas. Masalan, turklar to'g'ridan – to'g'ri bu madaniyatga deyarli hech qanday ta'sir o'tkaza olmadilar, ularning bevosita ta'siri madaniy ko'tarilish davrida birmuncha seziladi, xolos.

Fransuz madaniyati ta'siri esa, ayniqsa, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida sezilarli bo'ldi. Ammo aytish joyizki, arablar ta'siri bu yerda hammadan kuchli bo'lib, yerli aholi tomonidan chuqur o'zlashtirildi va hozirgacha saqlanib qolmoqda.

Tunisda arab mumtoz adabiyoti xazinasiga kirgan juda ko'p asarlar yaratildi. Bu mamlakatning o'rta asrlar adabiyoti ham shakl, ham mazmun jihatidan sharqiy arab adabiyotiga o'xshashdir.

Arab dunyosida XIX asr boshlaridan ajralish jarayoni boshlanadi va bu, ayniqsa, siyosiy va iqtisodiy hayotda o'z ifodasini topdi. Tunisda ham Mag'rib va arab dunyosi tarkibiga kiruvchi alohida yaxlitlik tasavvuri shakllana boshlaydi, Yevropa taraqqiyotining bevosita va bilvosita ta'siri ostida tub o'zgarishlar, islohotlar zamoni boshlanadi. Yevropa bilan bo'lgan madaniy aloqalar esa bu jarayonda muhim rol o'ynadi.

Bu mamlakat taraqqiyotiga Yevropada kechayotgan jarayonlar ta'sirida rivojlanayotgan birinchi musulmon davlati bo'lmish Turkiya tajribasi katta ahatiyatga ega bo'ldi. Ayni paytda

madaniyat sohasida, turmush tarzi va urf-odatlarida yangilanish jarayoni eski hayot tarzini yengib o'tish bilan bog'liq ko'plab to'siqlarga duch kelindi. Bu jarayon sekin – asta qadimparast va reaksiyon kuchlar bilan kurashda kechdi.

XIX asrning o'rtalaridan boshlab Tunis madaniyati umumarab madaniyatidan ajralib chiqib, mustaqil rivojlana boshladi. Ba'zibir arab adabiyotlari mavzu va g'oya, shakl nuqtai nazaridan o'zaro farq qila bordi va o'ziga xos rivojlanish yo'liga qadam qo'ydi. XX asrning o'rtalariga kelib milliy arab adabiyotlari haqida gapirish mumkin bo'lib qoldi.

Hozirgi zamon Tunis adabiyoti mahalliy an'analarning sharq va g'arb adabiyoti unsurlari bilan birlashgan shaklini o'zida mujassamlantiradi. Buning natijasida o'ziga xos Tunis adabiyoti shakllandi, unda qator original asarlarni vujudga keltirgan oqimlar paydo bo'ldi.

Tunisda fransuz adabiyotining ta'siri Jazoir dagidek kuchli bo'lmadi. Tunisning fransuz zabon adabiyoti umumiy – adabiy jarayondan birmuncha ajralib tursa ham, u baribir mamlakat adabiyotining tarkibiy qismi bo'lib qoldi va roman uning eng rivojlangan janriga aylandi.

Tunis adabiyoti hanuzgacha mamlakat tashqarisida unchalik ma'lum emas, jahon tanqidchiligidan ham juda kam yoritilganicha qolmoqda. Bu hol unga oid ba'zibir asossiz fikrlarni keltirib chiqarmoqda. Aslida, Tunis adabiyotining taraqqiyot yo'li uning katta imkoniyatlarga, kelajakka egaligini ko'rsatmoqda. Tunis adiblarining badiiy mahorati tobora o'sib bormoqda, ularning asarlari mavzusi esa, rang-baranglik va teranlik kasb etmoqda.

MAROKASH ADABIYOTI

Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot Marokashda boshqa arab mamlakatlariga ko'ra kechroq yuzaga chiqdi. Mamlakat taraqqiyoti nafaqat kolonial tuzum tufayli, balki feodal munosabatlarning hukmronligi sababli ham sust kechardi. Marokashning ma'naviy hayotida uzoq vaqt turg'unlik hukm surdi. Bu turg'unlik mamlakatning Misr, Suriya, Livan, hatto eng yaqin qo'shni – Jazoir bilan deyarli butunlay madaniy aloqaga kirishmaganligi sababli og'ir oqibatlariga olib keldi. O'tgan asrning oxirlarida, masalan, mamlakatga faqat bir arabcha gazeta – «al-Ahrom» («Piramida») kelar edi, xolos. Faqat XX asrning boshlariga kelib Marokashning o'zida arabcha gazetalar chiqa boshladi va ular xalqni arab dunyosida kechayotgan voqealar bilan tanishtirdi. Bu vaziyatlar Marokashda adabiyotning rivojlanishida ham o'z izini qoldirdi.

Marokash adabiyotida Ikkinchi jahon urushidan keyingina jonlanish boshlandi. Bu davrda arabcha yozadigan adiblar bilan bir qatorda fransuz tilida ijod qiladigan prozaiklar – Ahmad Sefriun, Dris Shraybi hamda shoir va faylasuf Muhammad Aziz Laxbabi adabiyotga kirib keldilar.

Marokashning arabizabon yozuvchilari ijodiga XX asrning o'rtalarigacha o'rta asrlar an'analari o'zining barakali ta'sirini ko'rsatib turdi. Keyinroq, faqat 40 – yillarning oxirlariga kelib esa, matbuotning va u bilan bog'liq holda publisistikaning rivojlanishi tufayli hozirgi zamon nasri uslubi shakllana boshladi. Bu uslub Abdul Xafid al-Fasi, Ben Abbos al-Kabbaj, Abdulloh al-Kattani, Muhammad al-Makri kabi publisistlar va nasrnavislar ijodida bosqichma-bosqich shakllanib bordi.

Publisistika bilan deyarli bir vaqtda Marokash adabiyotida yangi nasr rivojlandi, novella janri ma'lum muvaffaqiyatlarga ham erishdi. Abdulmajid Ben Jellun va Abdulkarim Gallab bu janrning ko'zga ko'ringan namoyandalari sifatida maydonga chiqdilar.

Ben Jellun (1919 yilda tug'.) Misrda o'qidi. U yo'nalish va uslub jihatidan turlicha bo'lgan bir necha kitob muallifidir. Ular orasida tarix, iqtisod, madaniyatga oid kitoblar bilan bir qatorda badiiy asarlar – «Bu marokashdir» («Hazihi Marokesh»), «Bolaligim» («Fit-tufula»), «Qonli vodiy» («Vadi ad-dima», 1948) hikoyalar to'plami ham bo'lib, ularda mustamlakachilik yuki ostida ezilgan xalq taqdiri haqida hikoya qilinadi.

Gallab ham Ben Jellun kabi Misrda o'qidi. U ijtimoiy-siyosiy va adabiy muammolarga bag'ishlangan «Madaniyat va adabiyot haqida» («Fi-s-saqafa va-l-adab») kitobi hamda «Yeti eshik» («Sabatu abvab»), «Omadli kishi o'ldi» («Mata karir al-ayn») romanlari muallifidir. O'zining oxirgi to'plamiga yozgan so'zboshisida Gallab «buyurtmali», ya'ni ijtimoiy faol,

ma'lum siyosiy dasturini targ'ib qilishga qaratilgan adabiyotga nisbatan munosabat bildirdi. Adib bunday asarlarning badiiy qimmatini haqida ba'zibir tanqidchilar salbiy fikr bildirishlariga qaramay, ular juda katta ijtimoiy ahamiyatga ega ekanini ta'kidlaydi. O'quvchi adibdan hayotda uchraydigan insonlar obrazini chizishni, hayotda ro'y beradigan voqealarni tasvirlashni talab qilishga haqli, yozuvchi muxlislar talabini inobatga olishi lozim, deb hisoblaydi.

Marokashning hozirgi arabiyzabon poeziyasi o'rta asrlar adabiyotining boy an'alarini meros qilib oldi. Boshqa arab mamlakatlarida bo'lganidek, Marokashda shoirlar mumtoz adabiyotni «zamonaviylashtirish» ga, uni bugungi kun talablari darajasiga ko'tarishga intiladilar. Keksa avlod vakillari – Muhammad as-Sulimani (1863-1926), Abdulloh al-Fasi (vaf. 1930) ijodlarida asta-sekin mumtoz adabiyotdan chekinish boshlanadi, bu jarayon XX asr boshlarida Muhammad Garrit, Ahmad al-Balgisi, Muhammad as-Suleymaniy kabi liriklar ijodida tezlashib bordi. Mazkur adiblar she'riyatida ijtimoiy hayot voqealariga munosabat, mustamlakachilik zulmiga qarshi norozilik, islom dinini zamonaviylashtirishga, ma'rifatga chaqirish, zamonaviy sivilizatsiya va texnik yutuqlarni ta'riflash ifodalanganini ko'rish mumkin.

Marokashning hozirgi zamon shoirlari orasidan Muhammad al-Xalauini alohida ajratib ko'rsatish kerak. U Fesdagi Karauin universitetini tugatgan, asarlari mavzusi juda keng bo'lib, ham Marokashga oid ijtimoiy-siyosiy muammolarni, ham xalqaro hayot masalalarini qamrab oladi. 1956 yilda uning birinchi she'rlar to'plami – «Ohanglar va aks sadolar» («Angam va asda») bosilib chiqdi.

Marokashning arabiyzabon poeziyasida borgan sari ko'proq yangi tamoyillar ko'zga tashlanmoqda. An'anaviy lirikaning shakli va mazmunini yangilashga intilayotgan shoirlar jumlasidan Abu Bakr al-Lamtuni, Mustafo Muhammad as-Sabbag'a, Muhammad at-Tanjaunlarni tilga olish mumkin.

Marokashning arabiyzabon dramaturgiyasi ham o'zining ilk qadamlarini qo'yimoqda. Muhammad at-Tanjaui Marokashda birinchi bo'lib «Ozodlar gimni» («Anashid al-ahrar») nomli she'riy pesani ijod etdi. 1952 yilda esa, o'quvchilar Bel Xashmining «Chodirni ulotqirgan ayol» dramasi bilan tanishib, unga yuksak baho berdilar. Muhammad bin Zayyanning 1958 yilda yozgan «Kanza» pesasi ayollarning jamiyatdagi o'rni masalasiga bag'ishlangan; 60-yillarda al-Hasan as-Saihning «Arjluna», «Buyuk Sulaymon», «Malikshoh» kabi bir qator tarixiy pesalari bosilib chiqdi.

Marokashning adabiy arab tilidagi adabiyoti shakllanishi yo'llarini bosib o'tmoqda. Shoirlar, nosirlar, dramaturglar yangi badiiy metodni egallashga, boshqa arab mamlakatlari, jahon yozuvchilari tajribasini o'zlashtirishga harakat qilmoqdalar.

Marokashning fransuzzabon nasrining tug'ilishi 1949 yilda Ahmad Sefreuning «Qahrabo tasbih» novellalari to'plami e'lon qilingan vaqtda boshlanadi. Bu to'plam ma'lum darajada an'anaviy adabiyot bilan bo'lgan aloqani o'zida mujassamlantiradi. Shu bois Sefriuning ilk kitobida diniy pandgo'ylik tamoyili ustunlik qiladi. Yozuvchi taqvodorlikni, dindoshlarga muhabbatli bo'lishni, halol yashashni targ'ib etadi. Bu tamoyillar, ayni vaqtda, mustamlaka mamlakatlar hayotiga kirib kelayotgan arab burjua merkantilizmiga qarshi norozilik sifatida ham yangraydi. Pandomiz, majoziy novella janrining o'zi Sefriui ijodida arab mumtoz adabiyoti janri bo'lmish – maqoma ta'sirida paydo bo'lganini taxmin qilsa bo'ladi.

Sefreuning ikkinchi asari – «Ajoyibotlar sandiqchasi» (1954) bolalik ayyomiga bag'ishlangan avtobiografik asar bo'lib, Shimoliy Afrika yozuvchilari ijodiga xos maishiy asarlarga yaqin turadi. Sefriui Marokashning shaharlik mohir hunarmandlarining an'anaviy turmushini badiylashtirib tasvirlaydi, mustamlakachilik davri ijtimoiy problematikasi esa asardan tashqarida qolib ketadi. Yozuvchi tasvirlagan, Marokashning patriarxal davriga xos farog'atli turmush manzaralari uning ijodini G'arbning eskicha romantik asarlariga yaqinlashtiradi. Bu asarlarda ham sarmoyaning beshafqat zo'ravonligi ostida parchalanib borayotgan, ideallashtirib tasvirlangan patriarxal turmush aks etgan edi. Ayni vaqtda Sefriui, birinchi galda, Marokash yozuvchisi. Uning asarlaridagi milliylik nafaqat ular mavzusida (Marokashning o'ziga xos shahar sivilizatsiyasi, unda o'rta asrlar Andaluziyasining badiiy an'alarini o'zida aks ettiradigan amaliy san'atning gullab yashnashi kabi), balki tasvir

ob'ektiga munosabatda ham seziladi. Hatto Sefriui ijodining diniy qobiqqa egaligi ham Marokash madaniyatining o'ziga xosligi bilan, uning arab dunyosining ijtimoiy harakatlardan yiroq chet o'lkasi bo'lgani bilan, boshqa Mag'rib davlatlariga nisbatan ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida islom dinining arxaik institutlari tayziqi sezilib turishi bilan izohlanadi.

Dris Shraybi (1929 y. tug'.) ijodi esa boshqacha yo'nalishda davom etadi. U boshqa adiblarga ko'ra ko'proq Mag'rib ziyolilarining mustaqillik arafasidagi kayfiyatini aks ettiradi. Uning ijodi «intellektual adabiyot» atalmish toifaga mansub. Bu adabiyot bevosita hissiyotga ta'sir etadigan voqelikni emas, balki hayot haqidagi mulohazalarni, bugungi dunyo borasidagi yozuvchi konsepsiyasini o'zida aks ettiradi. Hayotiy materialga bunday yondashish oqibatida Shraybi qonuniy ravishda haqqoniy tasvirdan chekinadi, to'liq holda majozdan foydalanadi. Uning «Eshak» (1956) va «Olomon» (1961) nomli romanlari aynan shu uslubda yozilgan.

Adib asarlarining asosiy mavzusi – g'arbcha demokratiyaga erishgan mamlakat taqdiri (qoloq, feodal Marokashda so'nggi o'n yilliklar davomida kapitalistik munosabatlar sur'at bilan rivojlanib bormoqda), shuningdek, xuddi shu g'arbcha demokratiyani fosh qilishdan iborat.

«Eshak» - mustaqillikni qo'lga kiritgan mamlakat haqidagi majoziy asar bo'lib, uni shartli ravishdagina roman deb atash mumkin. Asarda «haddan tashqari to'satdan, haddan tashqari majburan asrlar davomida o'ziniki bo'lgan dunyodan yangi, ularni yutib yuborgan, muvozanatdan chiqargan, oldindan mag'lub qilib qo'ygan dunyoga o'tilgani» haqida gapiriladi. Shraybi vatandoshlarining minglab yillar davomida hukmron bo'lib kelayotgan qotib qolgan turmush tarzidan undan battar mudhish muhitga, hozirgi G'arbning «ommaviy jamiyati» muhitiga kirib kelishida xavf-xatar his qiladi. «Eshak» romanida Shraybiga xos «olomon insoni» iborasi paydo bo'ladi. Bu tushunchani keyinchalik u «Olomon» nomli pamflet romanida izohlab berdi. Uning ta'biricha, taraqqiyot va sivilizatsiya tanholikni tug'diradi. «Biz qanchalik madaniyroq bo'lib borsak, shunchalik yashashni unutilib boramiz. Oxir-oqibat, biz hayot haqidagi tasavvurdan butunlay mosuvo bo'lamiz, hayot bilan yuzma-yuz kelganda borgan sari ko'proq o'zimizni tanholikda turmush girdobida g'arq bo'lgandek sezamiz. O'shanda o'zaro jipslashib, podaga aylanamiz, millat, din, mafkura yoki iqtisodiy tizim doirasidagi to'da shakliga kiramiz... Hozirgi jamiyatshunoslik atamasi bilan aytganda, «ommaviy madaniyat» mevasi bo'lgan «olomon insoni» shunday paydo bo'ladi».⁷⁹

«Eshak» romanida nimaga ko'ngil qo'yishni, nimaga ishonishni bilmagan olomon o'z kuchini ishlatadigan joy izlaydi, maqsadsiz ravishda yo'lida uchragan barcha narsalarni yakson qiladi. Kitob ramzli mudhish manzara tasviri bilan tugaydi: qop-qora olomon «sotqin»larni qidirib harakatga tushadi, sotqin bo'lsa bas, «vatanini sotgan, xudoni sotgan, ayniqsa, ana shu olomonga xiyonat qilganlar»ni izlaydi. Bu omma kuchini qo'zg'ab, unga to'g'ri yo'l ko'rsata olmaganlarning jazosi. Mana, qurbon ham tayyor – bu sartarosh Musa. U qilgan xatosini anglab, odamlarni «chin hayotga» qaytarmoqchi bo'lgan edi. Uni tiriklay o'tda yoqishadi, ammo bu qilmish olomonning ko'r-ko'rona g'azabi tufayli yuz bermaydi. Olomon uni ur-kaltak qilmaydi, balki oldindan belgilangan taomilga ko'ra jazolaydi. Buning boisi, Shraybi fikricha, olomonning uyushish kuchiga ishonishda, eng ishonchli uyushma esa kazarmadir.

Haqiqat qidiruvchi Musa obrazi o'ta dramatik. Uning shartliligi ta'kidlanib tursa ham, bu obraz nigeriyalik yozuvchi G.Okaraning «Ovoz» (1964) povestidagi Okologa o'xshab ketadi. U ham Musa kabi o'zini o'rab turgan ma'nosiz hayot qobig'ini yorib chiqmoqchi bo'ladi, lekin muvaffakiyatsizlikka uchrab, vatandoshlarining ongsizligi, qo'rqqoligi qurboniga aylanadi. Marokashlik Shraybi va Nigeriyalik Okara yaratgan tasvirlardagi fojeaviylik Afrikaga xos voqelikdan kelib chiqqan bo'lsa ham, ammo Shraybining o'z zamonasi haqidagi tasavvurlari G'arb mafkuraviy konsepsiyalari, ayniqsa, fransuz ekzistensializmining buyuk namoyandasi Alber Kamyu (1913-1960) qarashlari ta'sirida shakllangani yaqqol sezilib turadi. Bu ta'sir nafaqat «Eshak» romanida bot-bot uchraydigan dunyoning absurdligi, ma'no-maqsadsizligi haqidagi fikrlarda, balki Kamyu qahramonlari singari kurashga qat'iyat bilan bel bog'lagan, Kamyuning «Nuzul» (1956) qissasi qahramoni aytganidek, atrofdagilarning tushunmasligidan,

⁷⁹ Современные литераторы Африки. М.:1973, С.87.

«devorga gapirib» noumid bo'lishdan qo'rqmaydigan qaysar Musa obrazida ham ko'zga tashlanib turadi. Shraybi asarning parabolik – qabariq shaklini Kamyuning estetik prinsiplari ta'siri ostida tanlagan bo'lishi ehtimoldan xoli emas, Kamyu ham o'z kitoblari muallif falsafasini bayon etishga imkon beradigan shartli holatlarni tasvirlaydi. U o'z kundaligida «faqat obraz orqali fikrlash mumkin, faylasuf bo'lishni xohlasang – roman yoz», - deb qayd qilgan.

Yozuvchi odamlar orasidagi parokandalikni yo'qotish mumkin emasligi haqidagi o'z tasavvurini Musa va «belkurak ko'targan odam» orasidagi suhbat tasvirida ifodalagan. Musa uning ko'zi oldida xuddi o'zi kabi yaxshi hayot haqidagi orzulari chippakka chiqqan qiz o'zini o'ldirganidan hayajonda. Bu haqda u tasodifiy suhbatdoshiga aytib bermoqchi bo'ladi. «Ha, men u yerda sakkiz kun qolib ketdim, sakkiz kun...», «Ha, - javob beradi unga belkurak ko'targan kishi, - bu juda yaxshi belkurak». Ko'rinishdan, suhbatdoshi unga diqqat bilan quloq solib turgandek». «Burab chiqarsangiz, - davom etadi u, - kurakka aylanib qoladi, o'rniga qotirsangiz uchli belkurak bo'ladi. Bu belkurak Amerikada chiqqan...»

Musa, axiri, bu odamga gap uqtirishdan hafsalasi pir bo'lib deydi: «Bir hisobdan kar bo'lganingiz ham ma'qul. Kar bo'lmaganingizda ham, baribir, gaplarim qulog'ingizga kirmasdi.

- Kasaba uyushmasining baholari qirq sakkiz soatlik hafta hisobidan qilingan, - deydi belkurak ko'targan kishi. U ayb ish qilib qo'ygan odamdek tortinibgina kulib qo'ydi.»⁸⁰

«Olomon» asarida tasvirlangan voqea o'ta keskin, dramatik bayonga asoslangan, «Eshak» romani bilan qiyoslaganda, yengil hazilga o'xshab ketadi. Shunga qaramay asar madaniy odam imkoniyatlari haqidagi zaharxandaga to'la. Asar syujeti korchalon matbuot tomonidan olomonning navbatdagi xudosi, joni – diliga aylantirilgan sobiq tarix o'qituvchisi Matyurenning hokimiyatni egallashi, farmonravonligi va ag'darilishi tasviriga asoslangan. Matyuren esi past, ahmoqni hokimiyat ustida ko'rishni istab qolgan puldorlarning fitnasi oqitabida hokimiyat tepasiga chiqib oladi. Ammo uning mustaqil ravishda sog'lom fikrlashga qobil ekanligini, ularning qudratini cheklashga qaror qilganini bilganlaridan so'ng ag'darib tashlaydilar.

Falsafiy satira an'alariga ko'ra yozilgan bu romanda Shraybi ijodiga xos milliy xislat deyarli sezilmaydi. Ammo uning ijtimoiy konsepsiyasi birmuncha o'zgargani, voqealarni baholashda yozuvchining erkin harakat qilishi, bizningcha ijobiy xislat sifatida qaralishi mumkin. Endi Shraybidagi voqelikka fatalistik qarash, hukmronlik qilayotgan ma'nosizlik, absurdning mutloqligi borasidagi qarashlar yo'qolib boradi.

Shraybi nazarida absurd falsafasi ilgarigi ko'rkamligini yo'qotgandek bo'ladi, hatto bu narsa burjua tuzumining hukmdorlarga nafaq keltiradigan mevasi bo'lib ko'rinadi.

«Olomon» romanida Bi ismli qandaydir janobning obrazi chizilgan. U kerakli molni yetkazib beruvchi monopolistik korchalonlarning malayi. Matyurenning o'zi, uning biror-bir siyosiy dastur mohiyatiga ega bo'lmagan siyosiy dasturi ham shunday tovaridir. Istisnosiz hamma narsa bilan – o'rgamchik va ustasi farang yozuvchilar uchun mo'ljallangan adabiy syujetlar, qahramonlar, situatsiyalardan tortib siyosiy partiyalar, BMTdagi eng chaqqon tovar – bu tonnalab sotiladigan absurddir.

Marokashning fransuz zabon prozasi 60-yillarda rivojlanishdan to'xtab qoldi – 1962 yildan, ya'ni Shraybining «Hammabop meros» romani nashr etilganidan boshlab 1967 yilgacha bitta ham yangi asar nashr etilmadi.

Marokashda 60-yillarning oxirlarida yosh iste'dodli muallif Muhammad Xayriddin maydonga chiqib, 1967 yilda «Agadir» qissasini, 1968 yilda bir kitob holida ikkita kichik qissa – «Manfiy jism» va «Rahmdil tangricha tarixi»ni, 1969 yilda «O'rgimchaksimon quyosh» she'rlar to'plamini bosmadan chiqardi. Yozuvchi syurrealizmning kuchli ta'siri ostida ijod qiladi. Uning odatda birinchi shaxs tilidan qilingan, bir ko'rinishda bir-biri bilan bog'lanmagan bayonida muallifning, xuddi Shraybi kabi, g'arbning g'ayriinsoniy sivilizatsiyasiga qarshi noroziligi o'z ifodasini topgan. «Atom portlaydi. Odamlar boyiydi. Buning uchun vayronalarni borib ko'rishning o'zi kifoya. Odamlar yashirinadi. Faqat soldatlar bu yerdan o'tish huquqiga ega.

⁸⁰ Современные литературы Африки. М.: 1973. с.89.

Taqdiri azal tuni. Men Prometeyman. Men o'z tanimdan voz kechaman, ichak-chavog'imni xomtalash qilaman, bu – oz narsa emas. Ha, mse, men haq berayapman. Siz so'rov o'tkazgani kelgansiz. Mse, siz insonparvarsiz, siz tushunasiz, sizdan hech narsani yashirmayman. Sizni bu yerga xo'jayin yuborgan. Ammo qurib ketsin, qurigandan qurib ketsin, bu vayronalardan siz nima olmoqchisiz? Xayr, mayli, bu gaplarni qo'yaylik».⁸¹

Marokashning fransuzabon poeziyasida Jazoir adabiyotidagi o'ziga diqqatni jalb qiluvchi ko'rkamlilik – xalq og'zaki ijodi bilan bog'liqlik ko'zga tashlanmaydi. To'g'ri, Muhammad Aziz Lahbabi arab va berber poeziyasi antologiyasini tuzib, o'zi barcha asarlarni fransuz tiliga badiiy tarjima qilib berdi va bu to'plamning eng katta va eng muvaffaqiyatli qismi to'y, marosim, qahramonlik qo'shiqlari, boshqa xalq qo'shiqlariga oid bo'limidir. Muhammad Aziz Lahbabi Marokash shoirlarining eng yirigi bo'lib, birinchi galda serqirra iste'dodi bilan mashhurdir. U ham tarjimon, ham folklor to'plovchisi, ham shoir, ham faylasuf. U arab tilida yozilgan quyidagi falsafiy asarlar muallifidir: «Islom mutafakkirlari» (1946), «Erkinlik yoki erkin bo'lish» (1956), «Yashirindan ochiqlik tomon» (1961). U fransuz tilida ham she'rlar to'plami nashr ettirdi va unga o'zining 1959 yilda yozgan eng mashhur she'ri – «Qorong'ulik va yorug'lik»ni kiritdi. 1969 yilda Laxbabining «Ovozim o'z yo'lini qidirmoqda» nomli yana bir she'rlar to'plami bosilib chiqdi.

Laxbabi she'rlarini chin ma'noda grajdanlik lirikasiga taaluqli, deyish mumkin. O'z she'rlarining shiormonandligi, xitobga, ochiqdan – ochiq chaqiriqqa moyilligi bilan u jazoirlik shoir Anri Kreani eslatadi:

Yetar ko'z yoshi, o'kirib yig'lashlar,
Endi g'azabga o'rganmoq vaqtidir.
Tiz cho'kib yashash munosib emas,
Boshingizni ko'taring, nurga intiling!
Salom sengi, mustaqillik!

Muhammad Xayriddinning ijodiy uslubi boshqacha. U Marokashdan ham ko'ra Parijda sevimli, avangardizmning namoyandalaridan biri hisoblanadi. «O'rgimchaksimon quyosh» to'plami adibning katta ijtimoiy muammolar ustida bosh qotirayotganini, uning syurrealizm qonuniyatlari hududida siqilib qolganini, bu qonuniyatlar uning asarlaridagi ijtimoiy jarangni bo'g'ib qo'yayotganini ko'rsatadi. Bu jihatdan uning reaksionerlar tomonidan o'ldirilgan Marokashning ilg'or jamoat arbobi Mehdi Ben Barqiga bag'ishlangan she'rining so'ngi satrlari diqqatga sazovor:

O'lim – bu tamaki bargidir,
G'aliz narsani chaynagandeksan.
O'lim – bu jasurlikdir.

To'plamga kirgan yana bir she'r – «Janjal» qora tanli Afrikadagi fransuzabon inqilobiy poeziyaning rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan Ema Sezerga bag'ishlangan. Xayriddin o'z she'rida Afrika ijodiy intelligensiyasining bu peshqadam yo'lboshchisini qutlaydi.

Kemal Zebdi ham o'z vataniga ko'ra Parijda ko'proq shuhrat qozongan. U 1961 yilda bosib chiqargan «Mulzim ovozi» to'plami uchun Fransiya Akademiyasi mukofotiga sazovor bo'ldi. Zebdi asarlari Muhammad Xayriddin she'rlaridan o'quvchilarga tushunarli bilan ajralib turadi. U «avangardizm» cho'qqilarini zabt etgan emas, uslubi Preverning bezaksiz lirikasi kabi sodda, bolalar she'riyatiga xos qisqa va mug'ombirona yarim ertak she'rdir.

Mening kichik bir uydam bor edi.
U «devordagi barmoqcha» deb atalar edi.
Biz ikkovlon unda rohat qilib yashardik,
So'ngra esa,
Sen devordan oshib tushding, ketib qolding.
Bir o'zim kirmoqchi bo'lganimda
«Devordagi barmoqcha»ga

⁸¹ Современные литературы Африки. М.: 1973. с.90.

Buning uchun, albatta, barmog'imni devorga qo'yganimda.

Shunda devor –

Qulab tushdi, qulab tushdi barmog'im ustiga.

Sindirganini sindirdi.

Sovuq qotayapman, og'riqdan azob chekayapman.

«Mulzim ovozi» mavzu jihatidan ham, shakl jihatidan ham milliylikdan yiroq. Uning asosiy mazmuni ishqiy lirikadan iborat, ba'zida esa shoir Parijning yengiltabiat udumlarini tanqid qilib qo'yadi. Shu bilan birga Marokashning fransuzabon poeziyasini Yevropaning modaga kirgan ana shu asarlariga to'g'ridan-to'g'ri taqlid qilish hamda antikolonial siyosiy shiorsifat she'rlar bilan cheklab qo'yish insofdan bo'lmas edi. Marokashning yosh yozuvchilari muhitida 60-yillarning oxirida, xuddi Jazoiridagidek, ajoyib bir harakat kuzatildi. Yosh bo'lishlariga qaramasdan «Suffl» («Epkinlar») jurnalida doimiy ravishda bosilib turadigan asarlari orqali mamlakatda tanilgan bir necha shoir o'zaro yaqin adabiy prinsipga asoslangan bir guruh tuzadilar. Bu prinsiplar avangardizmga xos so'z o'yinlaridan voz kechish, ozodlikka chiqqan Marokashning ichki muammolariga diqqatni qaratish, oddiy odamlar, xalq turmushiga yaqindan nazar solishni ko'zda tutadi.

Marokashning yosh shoirlari ovozi samimiy va qat'iy yangramoqda. Bu mamlakatdagi fransuzabon she'riyat kelajagini voqelikka ochiq ko'z, murosasizlik bilan yondashayotgan ana shu yoshlar belgilaydi, deb umid qilish mumkin.